

**Министерство по развитию информационных технологий и
коммуникаций Республики Узбекистан**
**Государственное унитарное предприятие Центр научно-технических и
маркетинговых исследований «UNICON.UZ»**
(ГУП «UNICON.UZ»)

**Русско-узбекский толковый словарь терминов
по экономике и маркетингу в сфере информационных
и коммуникационных технологий**

**O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va
kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi**
«UNICON.UZ» Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi
Davlat unitar korxonasi («UNICON.UZ» DUK)

**Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasida
iqtisodiyot va marketing bo‘yicha atamalarning
ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati**

**Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва
коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги**
«UNICON.UZ» – Фан-техника ва маркетинг тадқиқотлари маркази
Давлат унитар корхонаси («UNICON.UZ» ДУК)

**Ахборот ва коммуникация технологиялари соҳасида
иқтисодиёт ва маркетинг бўйича атамаларнинг
русча-ўзбекча изоҳли луғати**

Тошкент – 2018

Под общей редакцией доктора философии по
техническим наукам Джалалова М.М.

Словарь составлен Давидовой Л.Р.

Переведен и отредактирован Ахмедовой Ё.Н., Тулягановым Ш.Ш.

Компьютерный набор: Адашева Ш.С., Султонова Ш.С.

Рецензенты: Тураев Ш., Исмаилова Г., Иминова Р.

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori M.M.Djalalovning
umumiy tahriri ostida

Lug'at L.R. Davidova tomonidan tuzildi,

Yo.N.Axmedova, Sh.Sh.To'laganov tomonidan tarjima va tahrir qilindi

Kompyuter ishlari: Sh.S.Adasheva, Sh.S.Sultonova

Taqrizchilar: Sh. To'rayev, G. Ismoilova, N.Iminova

Техника фанлари бўйича фалсафа доктори М.М.Джалаловнинг
умумий таҳрири остида

Луғат Л.Р.Давидова томонидан тузилди,

Ё.Н.Ахмедова, Ш.Ш.Тўлаганов томонидан таржима ва таҳрир қилинди.

Компьютер ишлари: Ш.С.Адашева, Ш.С.Султонова

Тақризчилар: Ш.Тўраев, Г. Исмоилова, Н. Иминова

Содержание

Введение	6
Русско-узбекский толковый словарь терминов по экономике и маркетингу в сфере информационных и коммуникационных технологий	9
Алфавитный указатель терминов на русском языке	511
Алфавитный указатель терминов на узбекском языке (латиница) ...	538
Алфавитный указатель терминов на узбекском языке (кириллица) ..	565
Алфавитный указатель терминов на английском языке	592
Список использованных источников	619

Mundarija

Kirish	7
Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va marketing bo'yicha atamalarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati	9
Atamalarning rus tilidagi alifbo ko'rsatkichi	511
Atamalarning o'zbek tili (lotin alifbosi) dagi alifbo ko'rsatkichi	538
Atamalarning o'zbek tili (kirill alifbosi) dagi alifbo ko'rsatkichi	565
Atamalarning ingliz tilidagi alifbo ko'rsatkichi	592
Foydalanilgan manbalar ro'yxati	619

Мундарижа

Кириш	8
Ахборот ва коммуникация технологиялари соҳасида иқтисодиёт ва маркетинг бўйича атамаларнинг русча-ўзбекча изоҳли луғати	9
Атамаларнинг рус тилидаги алифбо кўрсаткичи	511
Атамаларнинг ўзбек тилидаги (лотин алифбосидаги) алифбо кўрсаткичи	538
Атамаларнинг ўзбек тилидаги (кирилл алифбосидаги) алифбо кўрсаткичи	565
Атамаларнинг инглиз тилидаги алифбо кўрсаткичи	592
Фойдаланилган манбалар рўйхати	619

Введение

Роль экономики и маркетинга возрастает в современном мире на базе широкого внедрения информационных технологий. Данное обстоятельство обуславливает приоритетное развитие науки, образования и нематериальных элементов производственной деятельности.

Наша страна не стала исключением и в настоящее время в республике большое внимание уделяется экономике и маркетингу, как основным инструментам развития современного общества.

Терминология играет значительную роль во всех областях жизнедеятельности общества, в том числе и в сфере экономики и маркетинга. Разработанный русско-узбекский толковый словарь терминов по экономике и маркетингу является попыткой обобщить имеющуюся терминологию в сфере экономики и маркетинга и, безусловно, не является исчерпывающим. Словарь содержит толкование экономических, финансовых, маркетинговых и правовых понятий, применяемых в современной деловой жизни. Значительное внимание уделено психологическим и экономическим аспектам теории поведения покупателей, основам маркетингового управления и характеристике содержания маркетинговой деятельности. Отличительная особенность нашего словаря – включение наряду с традиционными словами относительно новых, вошедших в обиход в последние годы.

Словарь – это результат совместной работы специалистов Службы терминологии и словарей, а также других специалистов Центра научно-технических и маркетинговых исследований – ГУП «UNICON.UZ», предназначенный как для специалистов, так и для начинающих пользователей.

Словарь будет полезен преподавателям, переводчикам, а также студентам, обучающимся по специальностям экономист, маркетолог, бухгалтер, менеджер.

Наш адрес: 100202, г. Ташкент, ул. Богишамол, 7^А.
Государственное унитарное предприятие
«Центр научно-технических и маркетинговых
исследований» – «UNICON.UZ»,
Служба терминологии и словарей

Kirish

Hozirgi paytda iqtisodiyot va marketingning ahamiyati axborot texnologiyalarini keng joriy qilish asosida oshib bormoqda. Bu holat fan, ta'lim va ishlab chiqarish faoliyati nomoddiy elementlarining ustuvor rivojlantirilishini shart qilib qo'yadi.

Bizning mamlakatimiz ham bundan mustasno emas, hozirgi vaqtda respublikamizda zamonaviy jamiyatni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida iqtisodiyot va marketingga katta e'tibor qaratilmoqda.

Atamashunoslik jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, iqtisodiyot va marketing sohasida sezilarli ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot va marketing bo'yicha ishlab chiqilgan ruscha-o'zbekcha izohli lug'at iqtisodiyot va marketing sohasidagi mavjud atamalarni umumlashtirishga bo'lgan dastlabki urinishdir, shu sababli, mukammal deb bo'lmaydi. Lug'at hozirgi amaliy hayotda, ishbilarmonlik muhitida qo'llaniladigan iqtisodiy, moliyaviy, marketing va huquqiy tushunchalarning izohini ichiga oladi. Marketing faoliyati mazmunining tavsifiga, marketing boshqaruvi asoslariga, xaridor xulq-atvori nazariyasining psixologik va iqtisodiy jihatlariga katta e'tibor berilgan. An'anaviy so'zlar bilan bir qatorda, muomalaga so'nggi yillarda kirgan yangi so'zlarning kiritilishi lug'atning farqlab turadigan xususiyatidir.

Ham mutaxassislar uchun, ham boshlovchi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan ushbu lug'at, Atamashunoslik va lug'atlar xizmati xodimlarining, shuningdek, «UNICON.UZ» DUK – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi boshqa mutaxassislarining birgalikdagi mehnati samarasidir.

Lug'at o'qituvchilar, tarjimonlar, shuningdek, iqtisodchi, marketolog, buxgalter, menejer ixtisosligi bo'yicha o'qiyotgan talabalar uchun foydalidir.

Bizning manzil: 100202, Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi, 7^A uy
«UNICON.UZ» – «Fan-texnika va marketing
tadqiqotlari markazi» davlat unitar korxonasi,
Atamashunoslik va lug'atlar xizmati

Кириш

Ҳозирги пайтда иқтисодиёт ва маркетингнинг аҳамияти ахборот технологияларини кенг жорий қилиш асосида ошиб бормоқда. Бу ҳолат фан, таълим ва ишлаб чиқариш фаолияти номоддий элементларининг устувор ривожлантирилишини шарт қилиб қўяди.

Бизнинг мамлакатимиз ҳам бундан мустасно эмас, ҳозирги вақтда республикада замонавий жамиятни ривожлантиришнинг асосий воситаси сифатида иқтисодиёт ва маркетингга катта эътибор қаратилмоқда.

Атамашунослик жамият ҳаётининг барча соҳаларида, шу жумладан, иқтисодиёт ва маркетинг соҳасида сезиларли аҳамият касб этади. Иқтисодиёт ва маркетинг бўйича ишлаб чиқилган русча-ўзбекча изоҳли луғат иқтисодиёт ва маркетинг соҳасидаги мавжуд атамаларни умумлаштиришга бўлган дастлабки уринишдир, шу сабабли, мукамал деб бўлмайди. Луғат ҳозирги амалий ҳаётда, ишбилармонлик муҳитида қўлланиладиган иқтисодий, молиявий, маркетинг ва ҳуқуқий тушунчаларнинг изоҳини ичига олади. Маркетинг фаолияти мазмунининг тавсифига, маркетинг бошқаруви асосларига, харидор хулқ-атвори назариясининг психологик ва иқтисодий жиҳатларига катта эътибор берилган. Анъанавий сўзлар билан бир қаторда, муомалага сўнгги йилларда кирган янги сўзларнинг киритилиши луғатнинг фарқлаб турадиган хусусиятидир.

Ҳам мутахассислар учун, ҳам бошловчи фойдаланувчилар учун мўлжалланган ушбу луғат, Атамашунослик ва луғатлар хизмати ходимларининг, шунингдек, «UNICON.UZ» ДУК – Фан-техника ва маркетинг тадқиқотлари маркази бошқа мутахассисларининг биргаликдаги меҳнати самарасидир.

Луғат ўқитувчилар, таржимонлар, шунингдек, иқтисодчи, маркетинг, бухгалтер, менежер ихтисослиги бўйича ўқиётган талабалар учун фойдалидир.

Бизнинг манзил: 100202, Тошкент ш., Боғишамол кўчаси, 7^А уй
«UNICON.UZ» «Фан-техника ва маркетинг тадқиқотлари маркази» давлат унитар корхонаси,
Атамашунослик ва луғатлар хизмати

Термин	Определение
--------	-------------

А

Абсолютное преимущество

uz - mutlaq ustunlik

мутлак устунлик

en - absolute advantage

Преимущество в международной торговле, которое имеет страна, производящая товар для продажи на внешнем рынке с меньшими затратами ресурсов в сравнении с другими странами, производящими и продающими тот же товар. Страна, обладающая абсолютным преимуществом, может продавать товар на мировом рынке по более низким ценам, чем конкуренты.

Xalqaro savdoda, tashqi bozorda sotish uchun resurslarni kam sarflagan holda tovar ishlab chiqaradigan mamlakat, ayni shu tovarni ishlab chiqaradigan va sotadigan boshqa mamlakatlarga nisbatan ega boʻladigan ustunlik. Mutlaq ustunlikka ega boʻlgan mamlakat tovarni dunyo bozorida raqobatchilarga qaraganda birmuncha past baholarda sotishi mumkin.

Халқаро савдода, ташқи бозорда сотиш учун ресурсларни кам сарфлаган ҳолда товар ишлаб чиқарадиган мамлакат, айни шу товарни ишлаб чиқарадиган ва сотадиган бошқа мамлакатларга нисбатан эга бўладиган устунлик. Мутлак устунликка эга бўлган мамлакат товарни дунё бозорида рақобатчиларга қараганда бирмунча паст баҳоларда сотиши мумкин.

Аванс

uz - avans

аванс

en - avance

Предварительная частичная выплата заказчиком товаров, работ, услуг определенной суммы денег в счет предстоящей оплаты заказа. Аванс представляет форму предоплаты, призванную заинтересовать исполнителя в выполнении работы, а продавца – в продаже товара, возместить предстоящие расходы работников и продавцов за счет выдачи аванса.

Buyurtmachi tomonidan buyurtmaga haq toʻlash hisobidan muayyan pul summasini tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun oldindan qisman toʻlash. Avans bajaruvchini ishni bajarishga, sotuvchini esa, tovarni sotishga qiziqtirish uchun, avans berish hisobiga ishchilar va sotuvchilarning boʻladigan xarajatlarini oʻrnini qoplashga qaratilgan oldindan haq toʻlash shaklidir.

А

Буюртмачи томонидан буюртмага ҳақ тўлаш ҳисобидан муайян пул суммасини товарлар, ишлар, хизматлар учун олдиндан қисман тўлаш. Аванс бажарувчини ишни бажаришга, сотувчини эса, товарни сотишга қизиқтириш учун, аванс бериш ҳисобига ишчилар ва сотувчиларнинг бўладиган харажатларини ўрнини қоплашга қаратилган олдиндан ҳақ тўлаш шаклидир.

Автоматизация

uz - avtomatlashtirish

автоматлаштириш

en - automation

Применение машин, машинной техники и технологии с целью облегчения человеческого труда, вытеснения его ручных форм, повышения его производительности.

Odam mehnatini yengillashtirish, qo'lda bajariladigan mehnatni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish maqsadida, mashinalar, mashina texnika va texnologiyalarining qo'llanilishi.

Одам меҳнатини енгиллаштириш, қўлда бажариладиган меҳнатни камайтириш, меҳнат унумдорлигини ошириш мақсадида, машиналар, машина техника ва технологияларининг қўлланилиши.

Авторское право

uz - mualliflik huquqi

муаллифлик ҳуқуқи

en - copyright

Принадлежащие автору произведения и закрепленные законами система частных вещных прав.

Asar muallifiga tegishli bo'lgan va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan shaxsiy va mulkiy huquqlar tizimi.

Асар муаллифига тегишли бўлган ва қонунларда мустаҳкамлаб қўйилган шахсий ва мулкӣ ҳуқуқлар тизими.

Авуары

uz - avuarlar

авуарлар

en - holdings

Любые виды денег и денежных средств, ценных бумаг, посредством которых их владелец может производить платежи и погашать свои денежные обязательства перед другими лицами.

Pul va pul mablag'larining, qimmatli qog'ozlarning har qanday turi, ularning vositasida bu pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlarning egalari to'lovlarni amalga oshirishlari, boshqa shaxslar oldida o'zlarining pul majburiyatlarini bajarishlari mumkin.

А

Пул ва пул маблағларининг, қимматли қоғозларнинг ҳар қандай тури, уларнинг воситасида бу пул маблағлари, қимматли қоғозларнинг эгалари тўловларни амалга оширишлари, бошқа шахслар олдида ўзларининг пул мажбуриятларини бажаришлари мумкин.

Агент

uz - agent

агент

en - agentis

Полномочный представитель фирмы, выполняющий ее поручения, участник торговых операций купли-продажи и других видов бизнеса, способствующий продаже товара посредством его продвижения от производителя, продавца к покупателю.

Firmaning, firma topshiriqlarini bajaradigan vakolatli vakili, oldi-sotdi savdo operatsiyalarining, biznes boshqa turlarining, tovarni ishlab chiqaruvchidan xaridorgacha yetkazish vositasida uning sotilishiga ko‘maklashuvchi qatnashchisi.

Фирманинг, фирма топшириқларини бажарадиган ваколатли вакили, олди-сотди савдо операцияларининг, бизнес бошқа турларининг, товарни ишлаб чиқарувчидан харидоргача етказиш воситасида унинг сотилишига кўмаклашувчи қатнашчиси.

Агентство

uz - agentlik

агентлик

en - agency

1 Представительное учреждение, представительство, отделение более крупного учреждения, предприятия, фирмы, ведающее их делами в данном регионе и выполняющее определенный круг их поручений.

2 Учреждение, выполняющее определенную государственную, общественную, социальную функцию.

1 Ma'lum bir hududda firma, korxonalarining ishini boshqaradigan, ularning muayyan topshiriqlarini bajaradigan e'tiborli muassasa, vakolatxona, birmuncha yirik tashkilot, korxonalar, firmaning bo'limi.

2 Muayyan davlat, jamoat, ijtimoiy vazifani bajaradigan muassasa.

1 Маълум бир ҳудудда фирма, корхона, муассасаларнинг ишини бошқарадиган, уларнинг

А

муайян топшириқларини бажарадиган эътиборли муассаса, ваколатхона, бирмунча йирик ташкилот, корхона, фирманинг бўлими.

2 Муайян давлат, жамоат, ижтимоий вазифани бажарадиган муассаса.

Аграрная страна

uz - agrar mamlakat

аграр мамлакат

en - agricultural country

Страна, специализирующая преимущественно на производствосельскохозяйственной продукции.

Asosan, qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan mamlakat.

Асосан, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштиришга ихтисослашган мамлакат.

Аграрно-промышленный комплекс

uz - agrar-sanoat kompleksi

аграр-саноат комплекси

en - agribusiness industry

Совокупность отраслей экономики страны, включающая сельское хозяйство и отрасли, тесно связанные с сельскохозяйственным производством: осуществляющие перевозку, хранение, переработку сельскохозяйственной продукции, поставку ее потребителям, а также обеспечивающие сельское хозяйство техникой, удобрениями, обслуживающие сельскохозяйственное производство.

Mamlakat iqtisodiyotining, qishloq xo‘jaligi va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi bilan qattiq bog‘langan tarmoqlarining jami: bu tarmoqlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tashilishini, saqlanishini, qayta ishlanishini, uning iste‘molchilarga yetkazib berilishini amalga oshiradigan, shuningdek, qishloq xo‘jaligini texnika, o‘g‘itlar bilan ta‘minlaydigan, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko‘rsatadigan tarmoqlardir.

Мамлакат иқтисодиётининг, қишлоқ хўжалиги ва қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариши билан қаттиқ боғланган тармоқларининг жами: бу тармоқлар қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ташилишини, сақланишини, қайта ишланишини, унинг истеъмолчиларга етказиб берилишини амалга оширадиган, шунингдек, қишлоқ хўжалигини техника, ўғитлар билан таъминлайдиган, қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришига хизмат кўрсатадиган тармоқлардир.

A

Административные методы управления

uz - ma'muriy boshqarish usullari

маъмурий бошқариш усуллари

en - administrative methods of management

Способы и формы управления, в основе которых лежит администрирование, распорядительство, опирающееся на приказы, распоряжения, спускаемые сверху установки.

Asosini yuqoridan quyiga beriladigan buyruqlar, farmoyishlar tashkil etadigan, ma'muriy boshqarish, buyruq berishga tayanadigan boshqarish shakllari va usullari.

Asosini yuqoridan quyiga beriladigan buyruqlar, farmoyishlar tashkil etadigan, ma'muriy boshqarish, buyruq berishga tayanadigan boshqarish shakllari va usullari.

Администрация

uz - ma'muriyat

маъмурият

en - administration

Руководство фирмы, предприятия, организации, аппарат управления фирмой, круг лиц, уполномоченных осуществлять оперативное управление, выступать в качестве юридического лица, официально представлять организацию, учреждение.

Tashkilot, korxonona, firma rahbariyati, firmani boshqarish apparati, tashkilot, muassasaning rasmiy vakili, yuridik shaxs sifatida ishtirok etish, operativ boshqaruvni amalga oshirish vakolati bo'lgan shaxslar doirasi.

Ташкилот, корхона, фирма раҳбарияти, фирмани бошқариш аппарати, ташкилот, муассасанинг расмий вакили, юридик шахс сифатида иштирок этиш, оператив бошқарувни амалга ошириш ваколоти бўлган шахслар доираси.

Аккордная оплата

uz - ishbay haq to'lash

ишбай ҳақ тўлаш

en - lump sum payment

Сдельная разовая оплата завершенной работы, единовременная выплата организацией, фирмой заработной платы работникам за весь объем полностью выполненных работ по заранее установленной ставке оплаты.

Tugallangan ishga ishbay asosida bir marta to'lanadigan to'lov, tashkilot, firma tomonidan xodimlarga oldindan belgilangan haq to'lash stavkasiga ko'ra, to'liq bajarilgan ishlar hajmi uchun ish haqini birvarakay to'lash.

А

Тугалланган ишга ишбай асосида бир марта тўланадиган тўлов, ташкилот, фирма томонидан ходимларга олдиндан белгиланган ҳақ тўлаш ставкасига кўра, тўлиқ бажарилган ишлар ҳажми учун иш ҳақини бирваракай тўлаш.

Акт

uz - akt

акт

en - act

Официальный документ, имеющий юридическую силу. В зависимости от того, кем и на каком уровне управления выпускается (принимается) акт, и от его содержания принято различать государственные, ведомственные, нормативные, региональные акты.

Yuridik kuchga ega bo'lgan rasmiy hujjat. Akt kim tomonidan va boshqaruvning qaysi darajasida chiqarilganiga (qabul qilinganiga) va mazmuniga bog'liq ravishda, davlat, idoraviy, normativ, mintaqaviy aktlar farqlanadi.

Юридик кучга эга бўлган расмий хужжат. Акт ким томонидан ва бошқарувнинг қайси даражасида чиқарилганига (қабул қилинганига) ва мазмунига боғлиқ равишда, давлат, идоравий, норматив, минтақавий актлар фарқланади.

Активные операции банков

uz - banklarning aktiv operatsiyalari

банкларнинг актив

операциялари

en - active bank operation

Размещение имеющихся финансовых ресурсов, денежных средств с целью пустить их в оборот и получить прибыль.

Muomalaga kiritish (aylantirish) va foyda olish maqsadida, mavjud moliyaviy resurslar, pul mablag'larini joylashtirish (sarf qilish).

Муомалага киритиш (айлантириш) ва фойда олиш мақсадида, мавжуд молиявий ресурслар, пул маблағларини жойлаштириш (сарф қилиш).

Активы

uz - aktivlar

активлар

en - asset, assets

Совокупность имущества и денежных средств, принадлежащих предприятию, фирме, компании. Активы принято делить на материальные и нематериальные, к последним относятся интеллектуальный продукт, технологии, патенты, долговые обязательства других компаний по отношению к данной, особые права на использование ресурсов.

A

Korxonada, firma, kompaniyaga tegishli bo'lgan jami pul mablag'lari va mulk. Aktivlarni moddiy va nomoddiy aktivlarga bo'lish qabul qilingan. Intellektual mahsulot, texnologiyalar, patentlar, boshqa kompaniyalarning ma'lum bir kompaniyaga nisbatan qarz majburiyatlari, resurslardan foydalanishga bo'lgan alohida huquqlar nomoddiy aktivlarga kiradi.

Корхона, фирма, компанияга тегишли бўлган жами пул маблағлари ва мулк. Активларни моддий ва номоддий активларга бўлиш қабул қилинган. Интеллектуал маҳсулот, технологиялар, патентлар, бошқа компанияларнинг маълум бир компанияга нисбатан қарз мажбуриятлари, ресурслардан фойдаланишга бўлган алоҳида ҳуқуқлар номоддий активларга киради.

Акцепт

uz - aksept

акцепт

en - acceptance

Обязательство (подтверждение согласия) плательщика, банка оплатить в установленный срок запрошенную, истребованную сумму денег; согласие одной из договаривающихся сторон на заключение договора по предложению (оферте) другой стороны.

To'lovchining, bankning belgilangan muddatda so'ralgan, talab qilingan pul summasini to'lash majburiyati (roziligini tasdiqlash); o'zaro kelishayotgan tomonlardan birining, boshqa bir tomon taklifi (ofertasi) bo'yicha shartnoma tuzishga roziligi.

Тўловчининг, банкнинг белгиланган муддатда сўралган, талаб қилинган пул суммасини тўлаш мажбурияти (розилигини тасдиқлаш); ўзаро келишаётган томонлардан бирининг, бошқа бир томон таклифи (офертаси) бўйича шартнома тuzишга розилиги.

Акциз

uz - aksiz

акциз

en - excise

Один из видов косвенного налога, уплачиваемого продавцом товара, не связанный с получением дохода продавцом. Акциз включается в цену товара.

Tovar sotuvchi tomonidan to'lanadigan, sotuvchining foyda olishi bilan bog'liq bo'lmagan egri soliq turlaridan biri. Aksiz tovar narxiga qo'shiladi.

А

Товар сотувчи томонидан тўланадиган, сотувчининг фойда олиши билан боғлиқ бўлмаган эгри солиқ турларидан бири. Акциз товар нархига кўшилади.

Акции

uz - aksiyalar

акциялар

en - shares, stocks

Ценные бумаги, выпускаемые акционерными компаниями, обществами на неограниченный срок. Акция удостоверяет внесение ее владельцем (акционером) доли в акционерный капитал общества и дает ее владельцу следующие права: на ежегодное получение части прибыли в виде дивидендов, на продажу акции на рынке ценных бумаг, на участие в управлении акционерным обществом, на получение части имущества в случае ликвидации общества. Акции могут быть предъявительскими (на любого предъявителя) либо именными, свободно продаваемыми либо подлежащими закрытой подписке, продаже (закрытое акционерное общество), обыкновенными, именуемыми также простыми, голосующими, так как они дают право голоса на собрании акционеров, и привилегированными, не дающими права голоса, но обеспечивающими более устойчивыми и высокими дивидендами.

Aksiyadorlar kompaniyalari, jamiyatlari tomonidan cheklanmagan muddatga chiqariladigan qimmatli qog'ozlar. Aksiya, uning egasi (aksiyador) jamiyatning aksiyadorlardan to'plangan kapitalga ulush qo'shganini tasdiqlaydi va aksiya egasiga har yili dividendlar ko'rinishida foydaning bir qismini olish, qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalarni sotish, aksiyadorlar jamiyati boshqaruvida ishtirok etish, jamiyat tugatilgan holda mulkning bir qismini olish huquqlarini beradi. Aksiyalar ko'rsatuvchiga beriladigan (istalgan ko'rsatuvchiga), oluvchining nomi yozilgan, erkin sotiladigan yoki yopiq yoziladigan, sotiladigan (yopiq aksiyadorlar jamiyati), oddiy ovoz beradigan, chunki ular aksiyadorlar yig'ilishida ovoz berish huquqini taqdim etadi va ovoz berish huquqini taqdim etmaydigan, lekin birmuncha yuqori va barqaror dividendlarni ta'minlaydigan imtiyozli aksiyalar bo'lishi mumkin.

Акциядорлар компаниялари, жамиятлари томо-

А

нидан чекланмаган муддатга чиқариладиган қимматли қоғозлар. Акция, унинг эгаси (акциядор) жамиятнинг акциядорлардан тўпланган капиталга улуш қўшганини тасдиқлайди ва акция эгасига ҳар йили дивидендлар кўринишида фойданинг бир қисмини олиш, қимматли қоғозлар бозорида акцияларни сотиш, акциядорлар жамияти бошқарувида иштирок этиш, жамият тугатилган ҳолда мулкнинг бир қисмини олиш ҳуқуқини беради. Акциялар кўрсатувчига бериладиган (исталган кўрсатувчига), олувчининг номи ёзилган, эркин сотиладиган ёки ёпиқ ёзиладиган, сотиладиган (ёпиқ акциядорлар жамияти), оддий овоз берадиган, чунки улар акциядорлар йиғилишида овоз бериш ҳуқуқини тақдим этади ва овоз бериш ҳуқуқини тақдим этмайдиган, лекин бирмунча юқори ва барқарор дивидендларни таъминлайдиган имтиёзли акциялар бўлиши мумкин.

Акции обыкновенные

uz - oddiy aksiyalar
оддий акциялар
en - common stocks

Ценные бумаги, свидетельствующие о наличии у их владельца определенной доли в капитале акционерного общества; дивиденды по таким акциям выплачиваются из прибыли. Владельцы обыкновенных акций обладают правом голоса на общем собрании акционеров.

Aksiya egasida aksiyadorlar jamiyati kapitalida muayyan ulush borligini tasdiqlaydigan qimmatli qog'ozlar; bunday aksiyalar bo'yicha dividendlar foydadan to'lanadi. Oddiy aksiyalarning egalari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga egadirlar.

Акция эгасида акциядорлар жамияти капиталида муайян улуш борлигини тасдиқлайдиган қимматли қоғозлар; бундай акциялар бўйича дивидендлар фойдадан тўланади. Оддий акцияларнинг эгалари акциядорларнинг умумий йиғилишида овоз бериш ҳуқуқига эгадирлар.

Акционерное общество

uz - aksiyadorlar jamiyati
акциядорлар жамияти
en - joint stock company

Хозяйственное общество, образованное лицами, объединившими свое имущество и денежные средства в уставный капитал, разделенный на определенное количество равных долей, закреп-

A

ленных ценными бумагами – акциями. Акционерное общество – коммерческая организация, имеющая корпоративный характер и статус юридического лица.

O‘z mulki va pul mablag‘larini qimmatli qog‘ozlar-aksiyalar bilan mustahkamlangan muayyan miqdordagi teng ulushlarga bo‘lingan ustav kapitaliga birlashtirgan shaxslar tomonidan tashkil qilingan xo‘jalik jamiyati. Aksiyadorlar jamiyati korporativ xarakter kasb etadigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tijorat tashkilotidir.

Ўз мулки ва пул маблағларини қимматли қоғозлар – акциялар билан мустаҳкамланган муайян миқдордаги тенг улушларга бўлинган устав капиталига бирлаштирган шахслар томонидан ташкил қилинган хўжалик жамияти. Акциядорлар жамияти корпоратив характер касб этадиган ва юридик шахс мақомига эга бўлган тижорат ташкилотидир.

Амортизация

uz - amortizatsiya

амортизация

en - depreciation

Исчисленный в денежном выражении износ основных средств (капитала) в процессе их производственного использования. Инструментом возмещения износа основных средств являются амортизационные отчисления в виде денег, направляемых на ремонт или строительство, изготовление новых средств. Накопленные амортизационные отчисления образуют амортизационный фонд, предназначенный для воспроизводства, воссоздания изношенных основных средств.

Asosiy vositalarning (kapitalning), ulardan ishlab chiqarishda foydalanish jarayonidagi, pulda ifodalangan eskirishi. Asosiy vositalar eskirishining o‘r-nini qoplashning asosiy vositasi pul ko‘rinishidagi amortizatsion chegirmalar hisoblanadi, ular ta‘min-lashga yoki qurilishga, yangi vositalar tayyorlashga yo‘naltiriladi. To‘plangan amortizatsion chegirmalar eskirgan asosiy vositalarni tiklash, takror ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan amortizatsiya fondini tashkil etadi.

А

Асосий воситаларнинг (капиталнинг), улардан ишлаб чиқаришда фойдаланиш жараёнидаги, пулда ифодаланган эскириши. Асосий воситалар эскиришининг ўрнини қоплашнинг асосий воситаси пул кўринишидаги амортизацион чегирмалар ҳисобланади, улар таъминлашга ёки қурилишга, янги воситалар тайёрлашга йўналтирилади. Тўпланган амортизацион чегирмалар эскирган асосий воситаларни тиклаш, такрор ишлаб чиқариш учун мўлжалланган амортизация фондини ташкил этади.

Анализ маркетинговый

uz - marketing tahlili

маркетинг таҳлили

en - market analysis

Оценка рыночных возможностей компании, других факторов, так или иначе связанных с рынком, включая оценку внутренней микро и макро среды.

Kompaniyaning bozor imkoniyatlarini, bozor bilan bog'liq bo'lgan boshqa omillarni, jumladan, ichki mikro va makro muhitlarni baholash.

Компаниянинг бозор имкониятларини, бозор билан боғлиқ бўлган бошқа омилларни, жумладан, ички микро ва макро муҳитларни баҳолаш.

Анализ ситуационный

uz - situatsion tahlil

ситуацион таҳлил

en - situation analysis

Стадия процесса планирования маркетинга, на которой происходит оценка внешней среды рынка, выявление возможностей и угроз, оценка конкурентной позиции фирмы.

Marketingni rejalashtirish jarayonining, bozor tashqi muhitini baholash, imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash, firmaning raqobat pozitsiyasini baholash amalga oshiriladigan bosqichi.

Маркетингни режалаштириш жараёнининг, бозор ташқи муҳитини баҳолаш, имкониятлар ва таҳдидларни аниқлаш, фирманинг рақобат позициясини баҳолаш амалга ошириладиган босқичи.

Анализ хозяйственной деятельности

uz - xo'jalik faoliyati tahlili

хўжалик фаолияти

таҳлили

en - business analysis

Одна из ветвей экономического анализа, связанная с изучением производственной, финансовой, торговой деятельности предприятий, фирм, домашних хозяйств. В ходе анализа выявляются причины и возможные последствия неудовлетворительной работы, вырабатываются рекомендации по улучшению деятельности.

A

Iqtisodiy tahlilning, korxonalar, firmalar, uy xo‘jaliklarining ishlab chiqarish, moliyaviy, savdo faoliyatini o‘rganish bilan bog‘liq tarmoqlaridan biri. Tahlil chog‘ida qoniqarsiz ishlashning sabablari va mumkin bo‘lgan oqibatlarini aniqlanadi, faoliyatni yaxshilash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Иқтисодий таҳлилнинг, корхоналар, фирмалар, уй хўжаликларининг ишлаб чиқариш, молиявий, савдо фаолиятини ўрганиш билан боғлиқ тармоқларидан бири. Таҳлил чоғида қониқарсиз ишлашнинг сабаблари ва мумкин бўлган оқибатлари аниқланади, фаолиятни яхшилаш юзасидан тавсиялар ишлаб чиқилади.

Анализ экономического

uz - iqtisodiy tahlil

иқтисодий таҳлил

en - economic analysis

Метод научного исследования (познания) явлений и процессов, в основе которого лежит изучение составных частей, элементов изучаемой системы. Анализ применяется с целью выявления сущности, закономерностей, тенденций экономических и социальных процессов, хозяйственной деятельности на всех уровнях и призван обосновывать с научных позиций решения и действия в области экономики, социально-экономическую политику, способствовать выбору лучших вариантов действий.

Jarayonlar va hodisalarni ilmiy o‘rganish (bilish) usuli, uning asosida o‘rganiladigan tizimning elementlarini, tarkibiy qismlarini o‘rganish yotadi. Tahlil barcha darajalarda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, xo‘jalik faoliyati mohiyatini, qonuniyatlarini, tendensiyalarini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi va ilmiy nuqtai nazardan, iqtisodiyot sohasidagi faoliyat va ishlarni, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni asoslashga, ishlashning eng yaxshi variantlarini tanlashda ko‘maklashishga qaratilgan.

Жараёнлар ва ҳодисаларни илмий ўрганиш (билиш) усули, унинг асосида ўрганиладиган тизимнинг элементларини, таркибий қисмларини ўрганиш ётади. Таҳлил барча даражаларда иқтисодий ва ижтимоий жараёнлар, хўжалик фаолияти моҳиятини, қонуниятларини, тенденцияларини аниқлаш мақсадида қўлланилади ва

А

илмий нуқтаи назардан, иқтисодий соҳасидаги фаолият ва ишларни, ижтимоий-иқтисодий сиёсатни асослашга, ишлашнинг энг яхши вариантларини танлашда кўмаклашишга қаратилган.

Апробация

uz - aprobatsiya qilish
 апробация қилиш
en - approbation

Проверка на практике, в реальных условиях теоретически построенных методов, расчетов, схем, моделей экономических процессов.

Amalda, haqiqiy sharoitlarda iqtisodiy jarayonlarning nazariy tuzilgan usullari, hisob-kitoblari, sxemalari, modellarini tekshirish.

Амалда, ҳақиқий шароитларда иқтисодий жараёнларнинг назарий тuzилган усуллари, ҳисоб-китоблари, схемалари, моделларини текшириш.

Арбитраж

uz - arbitraj
 арбитраж
en - arbitration

1. Способ разрешения споров посредством обращения спорящих сторон к независимым арбитрам, выполняющим роль судей-экспертов. Государственный орган, учрежденный для разрешения имущественных споров между предприятиями, организациями, учреждениями, а также исков в связи с невыполнением договоров.

2. Биржевой арбитраж – сделки на бирже, направленные на получение дополнительной прибыли.

1. Bahslarni, bahslashuvchi tomonlarning ekspert hakamlar rolini bajaradigan mustaqil hakamlarga murojaat qilishi vositasida hal qilish usuli. Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar oʻrtasida mulk bilan bogʻliq bahslarni, shuningdek, shartnomalarning bajarilmasligi tufayli daʼvolarni hal qilish maqsadida taʼsis etilgan davlat organi.

2. Birja arbitraji – qoʻshimcha foyda olishga yoʻnaltirilgan, birjadagi kelishuvlar.

1. Баҳсларни, баҳслашувчи томонларнинг эксперт ҳакамлар ролини бажарадиган мустақил ҳакамларга мурожаат қилиши воситасида ҳал қилиш усули. Корхоналар, ташкилотлар, муассасалар ўртасида мулк билан боғлиқ баҳсларни, шунингдек, шартномаларнинг бажарилмаслиги тufайли даъволарни ҳал қилиш

А

мақсадида таъсис этилган давлат органи.

2. Биржа арбитражи – қўшимча фойда олишга йўналтирилган, биржадаги келишувлар.

Аренда
uz - ijara
ижара
en - lease

Предоставление собственником или уполномоченным органом имущества, земельного участка другим лицам за плату на обусловленный договором срок. Того, кто арендует имущество, именуют арендатором, а предоставляющий имущество в пользование арендатора становится арендодателем. Арендатор вносит арендодателю ежегодную или ежемесячную арендную плату за право пользования предоставляемым имуществом, на основании заключенного договора об аренде.

Mulkdor yoki vakolatli organ tomonidan haq evaziga, shartnoma bilan shartlangan muddatga boshqa shaxslarga yer uchastkasi, mol-mulkning taqdim etilishi. Mulkni ijaraga beradigan odam ijaraga beruvchi, mulkni ijara oladigan odam ijarachi deb nomlanadi. Ijarachi ijara to'g'risida tuzilgan shartnoma asosida, berilgan mulkdan foydalanish huquqi yuzasidan ijaraga beruvchiga yillik yoki oylik ijara haqini to'laydi.

Мулкдор ёки ваколатли орган томонидан ҳақ эвазига, шартнома билан шартланган муддатга бошқа шахсларга ер участкаси, мол-мулкнинг тақдим этилиши. Мулкни ижарага берадиган одам ижарага берувчи, мулкни ижара оладиган одам ижарачи деб номланади. Ижарачи ижара тўғрисида тузилган шартнома асосида, берилган мулкдан фойдаланиш ҳуқуқи юзасидан ижарага берувчига йиллик ёки ойлик ижара ҳақини тўлайди.

Арт-директор
uz - art-direktor
арт-директор
en - director art

Специалист, участвующий в разработке творческой стратегии компании, осуществляющий контроль за технологией воплощения рекламной идеи в процессе производства рекламной продукции и руководящий презентациями творческих работ заказчику.

A

Kompaniyaning ijodiy strategiyasini ishlab chiqishda qatnashadigan, reklama mahsulotini ishlab chiqarish jarayonida reklama g'oyasini gavdalantirish texnologiyasi ustidan nazorat olib boradigan va ijodiy ishlanmalarni buyurtmachiga taqdim etish ishlariga rahbarlik qiladigan mutaxassis.

Компаниянинг иждодий стратегиясини ишлаб чиқишда қатнашадиган, реклама маҳсулотини ишлаб чиқариш жараёнида реклама ғоясини гавдалантириш технологияси устидан назорат олиб борадиган ва иждодий ишланмаларни буюртмачига тақдим этиш ишларига раҳбарлик қиладиган мутахассис.

Ассигнования

uz - ajratilgan mablag'
ажратилган маблағ
en - fund allocation

Денежные средства, выделенные из государственных и иных источников на определенные нужды, цели или определенным организациям, лицам.

Muayyan ehtiyojlarga, maqsadlarga yoki muayyan tashkilotlarga, shaxslarga davlat tomonidan va boshqa manbalardan ajratilgan pul mablag'lari.

Муайян эҳтиёжларга, мақсадларга ёки муайян ташкилотларга, шахсларга давлат томонидан ва бошқа манбалардан ажратилган пул маблағлари.

Ассортимент

uz - assortiment
ассортимент
en - assortment

Группа, набор, состав, разновидности имеющих в магазине, продаваемых видов однородных товаров единого назначения; перечень наименований товаров, выпускаемых, производимых фирмой.

Yagona maqsadlardagi, magazinda mavjud bo'lgan sotiladigan tovarlar turlarining guruhi, to'plami, tarkibi; firma chiqaradigan tovarlar nomlarining ro'uxati.

Ягона мақсадлардаги, магазинда мавжуд бўлган сотиладиган товарлар турларининг гуруҳи, тўплами, таркиби; фирма чиқарадиган товарлар номларининг рўйхати.

А

Аттестация

uz - attestatsiya, baho berish
аттестация, баҳо бериш
en - attestation

1. Аттестация работников – определение, установление соответствия уровня знаний, квалификации работника занимаемой им должности, месту, на которое он претендует; установление категории оплаты работника в соответствии с его квалификацией.
2. Аттестация продукции, товаров – установление и документальное подтверждение качества, удостоверяемое сертификатом.

1. Xodimlar attestatsiyasi – xodim malakasi, bilimlar darajasi u egallagan lavozimga, xodim da'vogarlik qilayotgan o'ringa mos kelishini aniqlash, o'rnatish; xodimning malakasiga muvofiq, unga haq to'lash toifasini belgilash
2. Tovarlar, mahsulotga baho berish – sertifikat bilan tasdiqlanadigan, sifatni belgilash va hujjat orqali tasdiqlash.

1. Ходимлар аттестацияси – ходим малакаси, билимлар даражаси у эгаллаган лавозимга, ходим даъвогарлик қилаётган ўринга мос келишини аниқлаш, ўрнатиш; ходимнинг малакасига мувофиқ, унга ҳақ тўлаш тоифасини белгилаш.
2. Товарлар, маҳсулотга баҳо бериш – сертификат билан тасдиқланадиган, сифатни белгилаш ва ҳужжат орқали тасдиқлаш.

Аудит

uz - audit
аудит
en - audit

Изучение, анализ, контроль денежного состояния предприятий, организаций, фирм, их доходов и расходов, прибыли и выработка советов по улучшению хозяйственной деятельности.

Korxonalar, tashkilotlar, firmalarning pulli holatini, ularning xarajatlari va daromadlarini, foydasini o'rganish, tahlil qilish va tekshirish, xo'jalik faoliyatini yaxshilash yuzasidan maslahatlar tayyorlash.

Корхоналар, ташкилотлар, фирмаларнинг пулли ҳолатини, уларнинг харажатлари ва даромадларини, фойдасини ўрганиш, таҳлил қилиш ва текшириш, хўжалик фаолиятини яхшилаш юзасидан маслаҳатлар тайёрлаш.

А

Аудит маркетинговой проблемы

uz - marketing muammosi
auditi

маркетинг муаммоси
аудити

en - problem audit

Всестороннее исследование маркетинговой проблемы, позволяющее понять ее причины и сущность.

Marketing muammosini, uning sabablari va mohiyatini tushunish imkonini beradigan darajada har tomonlama o'rganish.

Маркетинг муаммосини, унинг сабаблари ва моҳиятини тушуниш имконини берадиган даражада ҳар томонлама ўрганиш.

Аудитория целевая

uz - maqsadli auditoriya

мақсадли аудитория
en - target audience

Аудитория, на которую направлены маркетинговые послания. Целевая аудитория определяется по социально-демографическим характеристикам: пол, возраст, образование, доход, а иногда по психологическим: покупательские предпочтения, стиль жизни и т.д.

Marketing murojaati yo'llangan auditoriya. Maqsadli auditoriya ijtimoiy-demografik belgilar: jins, yosh, ma'lumot, daromad, ba'zida esa, psixografik belgilar: xaridorlar nimani afzal deb bilishi, yashash tarzi orqali aniqlanadi.

Маркетинг мурожаати йўлланган аудитория. Мақсадли аудитория ижтимоий-демографик белгилар: жинс, ёш, маълумот, даромад, баъзида эса, психологик белгилар: харидорлар нимани афзал деб билиши, яшаш тарзи орқали аниқланади.

Аукцион

uz - auksion

аукцион, очик савдо
en - auction

Публичная продажа товара с использованием торгов; товар продается в присутствии желающих приобрести его покупателей, а цена товара определяется в процессе того, как покупатели торгуются между собой за право купить товар. Аукцион проводит специальный, подготовленный к нему человек – аукционист.

Kimoshdi savdosidan foydalanib, tovarni ochiq sotish; tovar, uni sotib olish istagi bo'lgan xaridorlar ishtirokida sotiladi, tovarning bahosi esa, xaridorlar tovarni sotib olish huquqi uchun o'zaro savdolashishi jarayonida belgilanadi. Auksionni maxsus tayyorlangan odam – auksionist olib boradi.

А

Кимошди савдосидан фойдаланиб, товарни очик сотиш; товар, уни сотиб олиш истаги бўлган харидорлар иштирокида сотилади, товарнинг баҳоси эса, харидорлар товарни сотиб олиш ҳуқуқи учун ўзаро савдолашиши жараёнида белгиланади. Аукционни махсус тайёрланган одам – аукционист олиб боради.

Б

Баланс

uz - balans

баланс

en - balance

Количественное соотношение, состоящее из двух частей, которые должны быть равны друг другу, так как представляют поступление и расходование одного и того же количества денег, товара. Баланс называют активным, если поступление денег превышает их расходование, то есть создается положительный остаток средств (положительное сальдо баланса). Баланс считают пассивным, если поступление денежных средств меньше их расхода (отрицательное сальдо баланса). Балансом называют также документ, в котором отражен, представлен балансовый отчет фирмы (бухгалтерский баланс).

Bir-biriga teng bo‘ladigan ikki qismdan iborat miqdoriy nisbat. Pullarning kelib tushishi, ularni xarajat qilishdan oshsa, aktiv balans deyiladi, ya’ni mablag‘larning ijobiy qoldig‘i yaratiladi (musbat balans saldosi). Balans passiv hisoblanadi, agar pul mablag‘larining kelib tushishi, ularni xarajat qilishdan kam bo‘lsa (manfiy balans saldosi). Firmaning balans hisoboti (buxgalteriya balansi) aks etgan, ko‘rsatilgan hujjat.

Бир-бирига тенг бўладиган икки қисмдан иборат миқдорий нисбат. Пулларнинг келиб тушиши, уларни харажат қилишдан ошса, актив баланс дейилади, яъни маблағларнинг ижобий қолдиғи яратилади (мусбат баланс сальдоси). Баланс пассив ҳисобланади, агар пул маблағларининг келиб тушиши, уларни харажат қилишдан кам бўлса (манфий баланс сальдоси). Фирманинг баланс ҳисоботи (бухгалтерия баланси) акс этган, кўрсатилган ҳужжат.

Б

Баланс доходов и расходов

uz - xarajatlar va daromadlar balansi

харажатлар ва даромадлар баланси

en - balance of income and expenditure

Финансовый баланс, в разделах (статьях) которого указаны источники и величины доходов и расходов в течение определенного периода времени и устанавливается их соответствие или превышение одной из частей баланса над другой. Баланс доходов и расходов составляет основу бюджета.

Boʻlimlarida (moddalarida) muayyan vaqt davri mobaynidagi xarajatlar va daromadlarning manbalari, miqdorlari koʻrsatiladigan va ularning toʻgʻri kelishi yoki balans bir qismining boshqa qismidan oshishi belgilanadigan moliyaviy balans. Xarajatlar va daromadlar balansi byudjetning asosini tashkil etadi.

Бўлимларида (моддаларида) муайян вақт даври мобайнидаги харажатлар ва даромадларнинг манбалари, миқдорлари кўрсатиладиган ва уларнинг тўғри келиши ёки баланс бир қисмининг бошқа қисмидан ошиши белгиланадиган молиявий баланс. Харажатлар ва даромадлар баланси бюджетнинг асосини ташкил этади.

Банки

uz - banklar

банклар

en - banks

Финансовые организации, учреждения, которые производят следующие банковские операции: открытие и ведение счетов физических и юридических лиц, в том числе банков-корреспондентов, осуществление расчетов по счетам; привлечение вкладов; предоставление на условиях возвратности, платности и срочности кредитов от своего имени за счет собственных и привлеченных средств и другие операции.

Jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, korrespondent banklar hisob raqamlarini ochish va yuritish; hisob raqamlari boʻyicha hisob-kitoblarni amalga oshirish; omonatlarni jalb qilish; oʻzining mablagʻlari va jalb qilingan mablagʻlar hisobiga oʻz nomidan qaytarib berish, haq toʻlash va muddatlilik shartlari asosida kreditlar berish kabi bank operatsiyalarini va boshqa operatsiyalarni amalga oshiradigan moliya tashkilotlari, muassasalari.

Б

Жисмоний ва юридик шахслар, шу жумладан, корреспондент банклар ҳисоб рақамларини очиш ва юритиш; ҳисоб рақамлари бўйича ҳисоб-китобларни амалга ошириш; омонатларни жалб қилиш; ўзининг маблағлари ва жалб қилинган маблағлар ҳисобига ўз номидан қайтариб бериш, ҳақ тўлаш ва муддатлилик шартлари асосида кредитлар бериш каби банк операцияларини ва бошқа операцияларни амалга оширадиган молия ташкилотлари, муассасалари.

Банкноты

uz - banknotlar
банкнотлар
en - bank-notes

Банковские билеты, денежные знаки разного достоинства, выпускаемые в обращение Центральным банком страны.

Mamlakat Markaziy banki tomonidan muomalaga chiqariladigan bank biletleri, turli qiymatdagi pul belgilari (qog'oz pullar).

Мамлакат Марказий банки томонидан муомалага чиқариладиган банк билетлари, турли қийматдаги пул белгилари (қоғоз пуллар).

Банковская система

uz - bank tizimi
банк тизими
en - banking system

Совокупность разных видов взаимосвязанных банков и других финансово-кредитных учреждений, выполняющих банковские функции, операции. В двухуровневой банковской системе на первом уровне находится Центральный банк, а на втором уровне – сеть коммерческих банков и других учреждений банковского типа.

O'zaro bog'langan har xil turdagi banklar va bank funksiyalarini, operatsiyalarini bajaradigan boshqa moliya-kredit muassasalarining jami. Ikki pog'onali bank tizimida birinchi pog'onada Markaziy bank, ikkinchi pog'onada esa, tijorat banklari va bank turidagi boshqa muassasalar tarmog'i turadi.

Ўзаро боғланган ҳар хил турдаги банклар ва банк функцияларини, операцияларини бажарадиган бошқа молия-кредит муассасаларининг жами. Икки поғонали банк тизимида биринчи поғонада Марказий банк, иккинчи поғонада эса, тижорат банклари ва банк туридаги бошқа муассасалар тармоғи туради.

Б

Банковские операции

uz - bank operatsiyalari

банк операциялари

en - banking transactions

Проводимые банками операции по привлечению и размещению денежных средств, ценных бумаг, осуществлению расчетов. Различают:

- a) активные операции, посредством которых банки размещают имеющиеся у них финансовые ресурсы: предоставление кредита, покупка ценных бумаг;
- b) пассивные операции, посредством которых банки формируют финансовые ресурсы: привлечение средств, вкладов, продажа ценных бумаг для последующего использования в качестве активных средств;
- c) комиссионные операции – оказание услуг, выполнение поручений, выполнение посреднических операций.

Bank tomonidan hisob-kitoblarni amalga oshirish, qimmatli qogʻozlar, pul mablagʻlarini jalb qilish va joylashtirish boʻyicha oʻtkaziladigan operatsiyalar. Quyidagi operatsiyalar farqlanadi:

- a) aktiv operatsiyalar, ular vositasida banklar oʻzlarida boʻlgan moliyaviy resurslarni joylashtiradilar: kredit berish, qimmatli qogʻozlar sotib olish;
- b) passiv operatsiyalar, ular vositasida banklar moliyaviy resurslarni shakllantiradilar: keyinchalik aktiv mablagʻlar sifatida foydalanish uchun, mablagʻlar, omonatlarni jalb qilish, qimmatli qogʻozlar sotish;
- c) komission operatsiyalar – xizmatlar koʻrsatish, topshiriqlarni bajarish, vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish.

Банк томонидан ҳисоб-китобларни амалга ошириш, қимматли қоғозлар, пул маблағларини жалб қилиш ва жойлаштириш бўйича ўтказиладиган операциялар. Қуйидаги операциялар фарқланади:

- a) актив операциялар, улар воситасида банклар ўзларида бўлган молиявий ресурсларни жойлаштирадидилар: кредит бериш, қимматли қоғозлар сотиб олиш;
- b) пассив операциялар, улар воситасида банклар молиявий ресурсларни шакллантирадидилар:

Б

кейинчалик актив маблағлар сифатида фойдаланиш учун, маблағлар, омонатларни жалб қилиш, қимматли қоғозлар сотиш;

с) комисион операциялар – хизматлар кўрсатиш, топшириқларни бажариш, воситачилик операцияларини амалга ошириш.

Банковский билет

uz - bank bileti

банк билети

en - bank bill

Любой бумажный денежный знак, выпущенный Центральным банком страны для использования в качестве денег.

Mamlakat Markaziy banki tomonidan pul sifatida foydalanish uchun chiqarilgan har qanday qog'oz pul belgisi.

Мамлакат Марказий банки томонидан пул сифатида фойдаланиш учун чиқарилган ҳар қандай қоғоз пул белгиси.

Банкомат

uz - bankomat

банкомат

en - bancomat

Аппарат для выдачи наличных денег по пластиковой банковской карточке в пределах определенной, ограниченной банком суммы.

Plastik bank kartochkasi orqali muayyan, bank tomonidan cheklangan summa doirasida naqd pul berish uchun mo'ljallangan apparat.

Пластик банк карточкаси орқали муайян, банк томонидан чекланган сумма доирасида нақд пул бериш учун мўлжалланган аппарат.

Банкротство

uz - sinish, bankrot bo'lish

синиш, банкрот бўлиш

en - bankruptcy

Неспособность должника платить по своим обязательствам, вернуть долги в связи с отсутствием у него денежных средств для оплаты. Официально предприятие становится банкротом после решения суда о его несостоятельности как должника и неспособности расплатиться с кредиторами.

Qarzdorning, to'lov uchun pul mablag'lari bo'lmasligi tufayli qarz uzishga, o'z majburiyatlari bo'yicha to'lashga qobiliyatsizligi. Korxonona qarzdor sifatida qarz beruvchilar bilan orani ochiq qilishga qodir emasligi va qarzni to'lashga qurbi yetmasligi to'g'risidagi sud qaroridan keyin rasman singan hisoblanadi.

Б

Қарздорнинг, тўлов учун пул маблағлари бўлмаслиги туфайли қарз узишга, ўз мажбуриятлари бўйича тўлашга қобилиятсизлиги. Корхона қарздор сифатида қарз берувчилар билан орани очик қилишга қодир эмаслиги ва қарзни тўлашга қурби етмаслиги тўғрисидаги суд қароридан кейин расман синган ҳисобланади.

Бартер

uz - barter

бартер

en - barter

Прямой, непосредственный обмен вещами, при котором одна вещь меняется на другую без денежной оплаты, по схеме «товар на товар», то есть натуральный обмен.

Buyumlarni to'g'ridan-to'g'ri, bevosita ayirboshlash, bunda bir buyum boshqasiga pul to'lanmasdan, «tovarga tovar» sxemasi bo'yicha almashtiriladi, ya'ni natural ayirboshlash.

Буюмларни тўғридан-тўғри, бевосита айирбошлаш, бунда бир буюм бошқасига пул тўланмасдан, «товарга товар» схемаси бўйича алмаштирилади, яъни натурал айирбошлаш.

Безналичные расчеты

uz - naqd pulsiz hisob-kitob

нақд пулсиз ҳисоб-китоб

en - clearing operation

Форма денежного обращения, при которой хранение и движение денежных средств происходит без участия наличных денег, посредством зачисления денег на банковский счет и перечисления со счета плательщика на счет получателя.

Pul muomalasi shakli bo'lib, bunda pul mablag'larini saqlash va uning harakati naqd pullar ishtirokisiz, pullarni bank hisob raqamiga kiritish va to'lovchining hisob raqamidan oluvchining hisob raqamiga o'tkazish vositasida yuz beradi.

Пул муомаласи шакли бўлиб, бунда пул маблағларини сақлаш ва унинг ҳаракати нақд пуллар иштирокисиз, пулларни банк ҳисоб рақамига киритиш ва тўловчининг ҳисоб рақамидан олувчининг ҳисоб рақамига ўтказиш воситасида юз беради.

Б

Безопасность экономическая

uz - iqtisodiy xavfsizlik

иктисодий хавфсизлик

en - economicsecurity

В масштабах государства: проводимые государством меры и создаваемые условия, предотвращающие нанесение хозяйству страны непоправимого ущерба от внутренних и внешних экономических угроз, опасностей. Экономическая безопасность фирмы обеспечивается посредством сохранения коммерческой тайны, охраны конфиденциальной экономической информации, обеспечения надежной производственной и коммерческой деятельности.

Davlat miqyosida: davlat tomonidan mamlakat xo'jaligiga ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlar, xavflardan keladigan o'nglab bo'lmas zararining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va yaratiladigan sharoitlar. Firmaning iqtisodiy xavfsizligi tijorat sirini saqlash, konfidensial iqtisodiy axborotni muhofaza qilish, ishonchli ishlab chiqarish va tijoriy faoliyatni ta'minlash orqali ta'minlanadi.

Давлат миқёсида: давлат томонидан мамлакат хўжалигига ички ва ташқи иқтисодий таҳдидлар, хавфлардан келадиган ўнглаб бўлмас зарарнинг олдини олишга қаратилган чора-тадбирлар ва яратиладиган шароитлар. Фирмининг иқтисодий хавфсизлиги тижорат сирини сақлаш, конфиденциал иқтисодий ахборотни муҳофаза қилиш, ишончли ишлаб чиқариш ва тижорий фаолиятни таъминлаш орқали таъминланади.

Безработица

uz - ishsizlik

ишсизлик

en - unemployment

Социально-экономическая ситуация, при которой часть активного, трудоспособного населения не может найти работу, которую эти люди способны выполнить. Безработными считаются трудоспособные граждане, ищущие работу, зарегистрированные на бирже труда и не имеющие реальной возможности получить работу в соответствии со своим образованием, профилем, трудовыми навыками.

Mehnatga layoqatli, faol aholining bir qismi bajara olishlari mumkin bo'lgan ishni topa olmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. Ish qidirayotgan, mehnat

Б

биржасида ро‘yxatдан о‘tган ва ма‘lumoti, ixtisosligi, mehnat ko‘nikmalariga muvofiq ravishda ishga ega bo‘lish imkoniyati bo‘lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar ishsiz hisoblanadilar.

Меҳнатга лаёқатли, фаол аҳолининг бир қисми бажара олиши мумкин бўлган ишни топа олмай-диган ижтимоий-иқтисодий вазият. Иш қидираётган, меҳнат биржасида рўйхатдан ўтган ва маълумоти, ихтисослиги, меҳнат кўникмаларига мувофиқ равишда ишга эга бўлиш имконияти бўлмаган меҳнатга лаёқатли фуқаролар ишсиз ҳисобланадилар.

Безубыточность

uz - zarar ko‘rmaslik
зарар кўрмаслик
en - break-even

Режим хозяйственной деятельности предприятия, фирмы, частного лица, при котором доходы, получаемые от деятельности, превосходят расходы, связанные с ней, или равны им.

Korxonа, firma, xususiy shaxs хо‘jalik faoliyatining, faoliyatdan olinadigan daromadlar, faoliyat bilan bog‘liq xarajatlardan oshadigan yoki ularga teng bo‘lgan tartibi.

Корхона, фирма, хусусий шахс хўжалик фаолиятининг, фаолиятдан олинадиган даромадлар, фаолият билан боғлиқ харажатлардан ошадиган ёки уларга тенг бўлган тартиби.

Бенефициар

uz - benefitsiar
бенефициар
en - beneficiary

Лицо, которому предназначен денежный платеж, получатель денег.

Pul to‘lovi mo‘ljallangan shaxs, pulni oluvchi.

Пул тўлови мўлжалланган шахс, пулни олувчи.

Бизнес

uz - biznes
бизнес
en - business

Самостоятельная, инициативная деятельность человека или группы людей, проводимая за собственный счет, под свою ответственность.

Odam yoki odamlar guruhining, o‘z hisobidan, o‘zining javobgarligi ostida olib boradigan mustaqil, tashabbuskor faoliyati.

Одам ёки одамлар гурухининг, ўз ҳисобидан, ўзининг жавобгарлиги остида олиб борадиган мустақил, ташаббускор фаолияти.

Б

Бизнес-операция

uz - biznes-operatsiya

бизнес-операция

en - business operation

Совокупность действий, процедур, составляющих содержание одного завершённого цикла, акта бизнес-деятельности, бизнес-процесса. Бизнес-операция обычно начинается с производства или закупки партии товара по заранее намеченному плану действий и завершается продажей товара и получением прибыли.

Biznes-jarayon, biznes faoliyat aktining, tugallangan bitta siklining mazmunini tashkil etadigan ishlar, protseduralar yig'indisi. Biznes-operatsiya odatda, oldindan belgilangan ish rejasiga ko'ra, tovar turkumini sotib olish yoki ishlab chiqarishdan boshlanadi va tovarni sotish, foyda olish bilan tugallanadi.

Бизнес-жараён, бизнес фаолият актининг, тугалланган битта циклининг мазмунини ташкил этадиган ишлар, процедуралар йиғиндиси. Бизнес-операция одатда, олдиндан белгиланган иш режасига кўра, товар туркумини сотиб олиш ёки ишлаб чиқаришдан бошланади ва товарни сотиш, фойда олиш билан тугалланади.

Бизнес-план

uz - biznes-reja

бизнес-режа

en - business plan

План, программа осуществления бизнес-операции, действий фирмы; содержит сведения о фирме, товаре, его производстве, рынках сбыта, маркетинге, организации бизнес-операций и их эффективности.

Biznes-operatsiyalarni, firma faoliyatini amalga oshirish rejasi, dasturi; firma, tovar, uni ishlab chiqarish, sotish bozorlari, marketing, biznes-operatsiyalarni tashkil qilish va ularning samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga oladi.

Бизнес-операцияларни, фирма фаолиятини амалга ошириш режаси, дастури; фирма, товар, уни ишлаб чиқариш, сотиш бозорлари, маркетинг, бизнес-операцияларни ташкил қилиш ва уларнинг самарадорлиги тўғрисидаги маълумотларни ичига олади.

Б

Билборд

uz - bilbord

билборд

en - billboard

Отдельно стоящая конструкция, предназначенная для размещения рекламного объявления больших размеров.

Katta o'Ichamdagi reklama e'lonini joylashtirish uchun mo'ljallangan alohida turadigan konstruksiya.

Катта ўлчамдаги реклама эълонини жойлаштириш учун мўлжалланган алоҳида турадиган конструкция.

Биржа

uz - birja

биржа

en - exchange

Регулярно функционирующий, организационно оформленный оптовый рынок однородных товаров, на котором с участием и с помощью посредников заключаются сделки купли-продажи крупных партий товара по договорным ценам; особая форма оптовой торговли товарами массового применения. Биржа – юридическое лицо, являющееся организатором биржевых торгов на основе установленных правил в заранее определенном месте и в определенное время.

Muntazam ishlaydigan, tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan, bir xil tovarlar ulgurji bozori, unda vositachilar ishtirokida va yordamida shartnoma baholari bo'yicha tovarlar yirik turkumlarining oldisotdi bitimlari tuziladi; ommaviy qo'llaniladigan tovarlar bilan ulgurji savdoning alohida shakli. Birja – oldindan belgilangan joyda, muayyan vaqtda o'rnatilgan qoidalar asosida birja savdolari tashkilotchisi bo'lgan yuridik shaxsdir.

Мунтазам ишлайдиган, ташкилий жихатдан расмийлаштирилган, бир хил товарлар улгуржи бозори, унда воситачилар иштирокида ва ёрдамида шартнома баҳолари бўйича товарлар йирик туркумларининг олди-сотди битимлари тузилади; оммавий қўлланиладиган товарлар билан улгуржи савдонинг алоҳида шакли. Биржа – олдиндан белгиланган жойда, муайян вақтда ўрнатилган қоидалар асосида биржа савдолари ташкilotчиси бўлган юридик шахсдир.

Б

Биржевой курс

uz - birja kursi

биржа курси

en - exchange rate

Цена акций, облигаций, иностранной валюты, устанавливаемая в ходе очередных торгов на фондовой бирже.

Fond birjasidagi navbatdagi savdolar chogʻida oʻrnatiladigan, aksiyalar, obligatsiyalar, chet el valyutasining bahosi.

Фонд биржасидаги навбатдаги савдолар чоғида ўрнатиладиган, акциялар, облигациялар, чет эл валютасининг баҳоси.

Блага

uz - neʼmatlar, boyliklar

неъматлар, бойликлар

en - goods

Все, что нужно человеку, приносит ему пользу, создает удовольствие, жизненный комфорт, благополучие, достаток, способно удовлетворить жизненные потребности людей. Естественные блага достаются людям от природы в практически готовом виде (природные богатства). Экономические блага создаются трудом людей, являются результатом их производственной деятельности.

Odamga zarur boʻlgan, unga foyda keltiradigan, huzur-halovat, hayotiy qulaylik, toʻkinchilik, baxt-saodat yaratadigan, odamlarning hayotiy ehtiyojlarini qondira oladigan barcha narsa. Tabiiy neʼmatlar odamga amalda tayyor holda tabiatdan qoladi (tabiiy boyliklar). Iqtisodiy neʼmatlar odamlar mehnati bilan yaratiladi, ular ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Одамга зарур бўлган, унга фойда келтирадиган, хузур-ҳаловат, ҳаётий қулайлик, тўкинчилик, бахт-саодат яратадиган, одамларнинг ҳаётий эҳтиёжларини қондира оладиган барча нарса. Табиий неъматлар одамга амалда тайёр ҳолда табиатдан қолади (табиий бойликлар). Иқтисодий неъматлар одамлар меҳнати билан яратилади, улар ишлаб чиқариш фаолиятининг натижаси ҳисобланади.

Благосостояние

uz - farovonlik

фаровонлик

en - wealth

Мера, степень обеспеченности людей жизненными благами, средствами существования. Благосостояние характеризует уровень жизни людей.

Б

Odamlarning hayotiy ne'matlar bilan, tirikchilik vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi, o'lchovi. Farovonlik odamlarning turmush darajasini tavsiflaydi.

Одамларнинг ҳаётий неъматлар билан, тирикчилик воситалари билан таъминланганлик даражаси, ўлчови. Фаровонлик одамларнинг турмуш даражасини тавсифлайди.

Благотворительность

uz - xayr-saxovat
хайр-саховат

en - charity

Бесплатная материальная и денежная помощь, содействие, оказываемые нуждающимся.

Muhtojlarga ko'rsatiladigan ko'mak, bepul moddiy va pulli yordam.

Муҳтожларга кўрсатиладиган кўмак, бепул моддий ва пулли ёрдам.

Бланк

uz - blank
бланк

en - form

Незаполненный образец документа, в графы которого обычно от руки вносят необходимые записи; лист бумаги с нанесенными в верхней части названием и реквизитами (адресом, телефоном, банковским счетом) компании, предприятия.

Hujjatning to'ldirilmagan namunasi, uning grafalariga qo'lda zarur yozuvlar kiritiladi; yuqori qismida kompaniya, korxonaning nomi va rekvizitlari (adres, telefoni, bank hisob raqami) tushirilgan qog'oz varag'i.

Ҳужжатнинг тўлдирилмаган намунаси, унинг графаларига қўлда зарур ёзувлар киритилади; юқори қисмида компания, корxonанинг номи ва реkvизитлари (адреси, телефони, банк ҳисобрақами) туширилган қоғоз варағи.

Блокирование счетов, чеков, валюты

uz - hisobraqamlari, cheklar, valyutani blokirovka qilish

ҳисобрақамлари, чеклар, валютани блоkiровка қилиш

Лишение органами государственной власти владельцев счетов, а также чеков, валюты права свободно распоряжаться своими средствами в связи с решением судебных органов, применением экономических санкций, введением ограничений на использование данных средств.

Б

en - blocking accounts, checks, currency

Davlat hokimiyat organlari tomonidan sud organlarining qarori, iqtisodiy jazolar qo'llanilishi, bu mablag'lardan foydalanishga cheklashlar kiritilishi munosabati bilan, hisobvaraqlari, shuningdek, cheklar, valyuta egalarining o'z mablag'laridan erkin foydalanish huquqidan mahrum qilinishi.

Давлат ҳокимият органлари томонидан суд органларининг қарори, иқтисодий жазолар қўлланилиши, бу маблағлардан фойдаланишга чеклашлар киритилиши муносабати билан, ҳисоб-варақлари, шунингдек, чеклар, валюта эгаларининг ўз маблағларидан эркин фойдаланиш ҳуқуқидан маҳрум қилиниши.

Богатство
uz - boylik
бойлик
en - wealth

Природные, а также созданные и накопленные людьми, странами материальные и духовные ценности; все, что представляет ценность для людей, общества, государства.

Tabiiy, shuningdek, odamlar, mamlakatlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar; odamlar, jamiyat, davlat uchun ahamiyat kasb etadigan barcha narsa.

Табиий, шунингдек, одамлар, мамлакатлар томонидан яратилган моддий ва маънавий қадриятлар; одамлар, жамият, давлат учун аҳамият касб этадиган барча нарса.

Бонус
uz - bonus
бонус
en - bonus

1. Дополнительное вознаграждение, поощрение, надбавка к выплате, премия.
2. Дополнительная скидка с цены товара, предоставляемая продавцом или в соответствии с условиями договора о купле-продаже, или постоянным покупателям.

1. Qo'shimcha mukofot, rag'batlantirish, to'lovga ustama, qo'shimcha haq.
2. Tovar bahosidan sotuvchi tomonidan yoki oldi-sotdi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq yoki doimiy xaridorlarga taqdim etiladigan qo'shimcha chegirma.

Б

1. Қўшимча мукофот, рағбатлантириш, тўловга устама, қўшимча ҳақ.

2. Товар баҳосидан сотувчи томонидан ёки олди-сотди тўғрисидаги шартномага мувофиқ ёки доимий харидорларга тақдим этиладиган қўшимча чегирма.

Брак

uz - brak

брак

en - defect

Негодная продукция, изготовленная с нарушением технологии, не удовлетворяющая предъявляемым к ней требованиям, не соответствующая стандартам.

Texnologiya buzilgan holda tayyorlangan, unga koʻrsatiladigan talablarni qanoatlantirmaydigan, standartlarga mos kelmaydigan yaroqsiz mahsulot.

Технология бузилган ҳолда тайёрланган, унга кўрсатиладиган талабларни қаноатлантирмайдиган, стандартларга мос келмайдиган яроқсиз маҳсулот.

Брендинг

uz - brendig

брендинг

en - branding

Целенаправленные маркетинговые мероприятия, действия по созданию долгосрочного предпочтения потребителей товару данной компании. Реализуется в процессе специальных воздействий целого комплекса маркетинговых коммуникаций: товарного знака, торговой марки, упаковки, рекламных обращений, других усилий маркетинга, помогающих выделить товар и создающих уникальный образ товара компании среди товаров конкурентов, в сознании и психологии потребителей.

Muayyan kompaniya tovarini iste'molchilar uzoq muddat ma'qul, afzal deb bilishi yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar, maqsadga yo'naltirilgan marketing tadbirlari. Marketing kommunikatsiyalari butun bir kompleksi: tovar belgisi, savdo markasi, o'rab joylashtirish, reklama murojaatlari, iste'molchilar ongida, psixologiyasida, raqobatchilar tovarlari ichida kompaniya tovarining noyob obrazini yaratishga, tovarning ajralib turishiga yordam beradigan boshqa bir marketing sa'y-harakatlari natijasida amalga oshiriladi.

Б

Муайян компания товарини истеъмолчилар узок муддат маъкул, афзал деб билиши юзасидан амалга ошириладиган ишлар, мақсадга йўналтирилган маркетинг тадбирлари. Маркетинг коммуникациялари бутун бир комплекси: товар белгиси, савдо маркаси, ўраб жойлаштириш, реклама мурожаатлари, истеъмолчилар онгида, психологиясида, рақобатчилар товарлари ичида компания товарининг ноёб образини яратишга, товарнинг ажралиб туришига ёрдам берадиган бошқа бир маркетинг саъй-ҳаракатлари натижасида амалга оширилади.

Брокер

uz - broker

брокер

en - broker

Торговый агент, способствующий продаже товаров, ценных бумаг, выступающий в роли посредника.

Vositachi rolini o'ynaydigan, qimmatli qog'ozlar, tovarlar sotilishida ko'maklashuvchi savdo agenti.

Воситачи ролини ўйнайдиган, қимматли қоғозлар, товарлар сотилишида кўмаклашувчи савдо агенти.

Бронирование

uz - bronlash (atab qo'yish, ajratish)

бронлаш (атаб қўйиш, ажратиш)

en - booking

Резервирование части имеющихся ресурсов, средств для их последующего использования в специальных целях, в особых ситуациях определенным кругом лиц.

Mavjud resurslar, mablag'larning bir qismini maxsus maqsadlarda, muayyan doiradagi shaxslar doirasi tomonidan alohida vaziyatlarda foydalanish uchun rezervlash.

Мавжуд ресурслар, маблағларнинг бир қисмини махсус мақсадларда, муайян доирадаги шахслар доираси томонидан алоҳида вазиятларда фойдаланиш учун резервлаш.

Бумажные деньги

uz - qog'oz pullar

қоғоз пуллар

en - paper currency

Наличные деньги, изготовленные на специальной бумаге, на которых указана величина их денежного достоинства, стоимость и нанесены разные видимые и невидимые невооруженным глазом изображения и водяные знаки для обеспечения защиты от подделки.

Б

Maxsus qog'ozda tayyorlangan, pullarning qiymati ko'rsatilgan, qalbakilashtirishdan himoyalashni ta'minlash maqsadida, oddiy ko'z bilan ilg'ab bo'ladigan va ilg'ab bo'lmaydigan turli tasvirlar, suvqog'ozdagi belgilar tushirilgan naqd pullar.

Махсус қоғозда тайёрланган, пулларнинг қиймати кўрсатилган, қалбакилаштиришдан ҳимоялашни таъминлаш мақсадида, оддий кўз билан илғаб бўладиган ва илғаб бўлмайдиган турли тасвирлар, сувқоғоздаги белгилар туширилган нақд пуллар.

Бухгалтер

uz - buxgalter

бухгалтер

en - accountant

Служащий организации, предприятия, который ведет учет поступающих и расходующих денежных средств, материалов, оборудования, запасов, следит за соответствием расходов и доходов, составляет балансы, заполняет бухгалтерские счета, на которых числятся все средства организации.

Korxonа, tashkilotning, kelib tushadigan va sarflanadigan pul mablag'lari, materiallar, uskunalar, xarajalar hisobini yuritadigan, xarajatlar va daromadlar to'g'ri kelishligini kuzatib boradigan, balanslar tuzadigan, tashkilotning barcha mablag'lari turadigan buxgalteriya hisobvaraqlarini to'ldiradigan xizmatchisi.

Корхона, ташкилотнинг, келиб тушадиган ва сарфланадиган пул маблағлари, материаллар, ускуналар, захиралар ҳисобини юритадиган, харажатлар ва даромадлар тўғри келишлигини кузатиб борадиган, баланслар тузадиган, ташкилотнинг барча маблағлари турадиган бухгалтерия ҳисобварақларини тўлдирадиган хизматчиси.

Бухгалтерия

uz - buxgalteriya

бухгалтерия

en - account department

Отдел предприятия, учреждения, который ведет учет материальных и денежных ценностей, осуществляет денежные расчеты с другими организациями, с банками, взимает налоги, начисляет заработную плату работникам. Одновременно бухгалтерия контролирует движение денежных средств, занося их в специальные бухгалтерские счета.

Б

Korxonona, muassasaning, moddiy va pul boyliklari hisobini yuritadigan, boshqa tashkilotlar, banklar bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiradigan, soliqlar oladigan, xodimlarga ish haqi yozadigan bo'limi. Bir vaqtning o'zida maxsus buxgalteriya hisob raqamlariga kiritgan holda, buxgalteriya pul mablag'larining harakatini nazorat qilib boradi.

Корхона, муассасанинг, моддий ва пул бойлик-лари ҳисобини юритадиган, бошқа ташкилотлар, банклар билан пулли ҳисоб-китобларни амалга оширадиган, солиқлар оладиган, ходимларга иш ҳақи ёзадиган бўлими. Бир вақтнинг ўзида махсус бухгалтерия ҳисоб рақамларига киритган ҳолда, бухгалтерия пул маблағларининг ҳаракатини назорат қилиб боради.

Бухгалтерская прибыль
uz - buxgalteriya daromadi
бухгалтерия даромади
en - accounting income

Прибыль, исчисленная в виде разности между денежной выручкой от продаж и внешними издержками, затратами, включая выплату заработной платы наемным работникам.

Sotuvlardan tushgan pul tushumi va tashqi chiqimlar, xarajatlar, jumladan, yollanma xodimlarga ish haqi to'lash, o'rtasidagi farq ko'rinishida hisoblangan daromad.

Сотувлардан тушган пул тушуми ва ташқи чиқимлар, харажатлар, жумладан, ёлланма ходимларга иш ҳақи тўлаш, ўртасидаги фарқ кўринишида ҳисобланган даромад.

Бэкграунд
uz - bekgraund
бэкграунд
en - background

Маркетинговая информация о компании, данные о владельцах и топ-менеджерах. Служит основанием для выработки концепции рекламной кампании.

Kompaniya to'g'risidagi marketing axboroti, top-menejerlar va egalari to'g'risidagi ma'lumotlar. Reklama kampaniyasi konsepsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Компания тўғрисидаги маркетинг ахбороти, топ-менежерлар ва эгалари тўғрисидаги маълумотлар. Реклама кампанияси концепциясини ишлаб чиқиш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Б

Бюджет

uz - byudjet

бюджет

en - budget

Смета денежных расходов и доходов, составляемая для того, чтобы заранее знать источники доходов и направления расходов денег и достичь их соответствия, баланса.

Daromadlar manbalarini va pullarning sarflanish yoʻnalishlarini oldindan bilish va ularning mos kelishiga, balansiga erishish uchun tuziladigan, pulli daromadlar va xarajatlar smetasidir.

Даромадлар манбаларини ва пулларнинг сарфланиш йўналишларини олдиндан билиш ва уларнинг мос келишига, балансига эришиш учун тузиладиган, пулли даромадлар ва харажатлар сметасидир.

Бюджетное

финансирование

uz - byudjetdan

moliyalashtirish

бюджетдан

молиялаштириш

en - budgetary financing

Предоставление в безвозвратном порядке, выделение (ассигнование) денежных средств из государственного (местного) бюджета на расходы, связанные с осуществлением государственных заказов, выполнением государственных программ, содержанием государственных организаций. Бюджетное финансирование преследует достижение общегосударственных целей или способствует покрытию расходов отраслей, предприятий, организаций, находящихся на полном либо частичном государственном денежном обеспечении.

Davlat byudjetidan (mahalliy byudjetdan) qaytarilmaydigan tartibda, davlat buyurtmalarini amalga oshirish, davlat dasturlarini bajarish, davlat tashkilotlarini taʼminlash bilan bogʻliq xarajatlarga pul mablagʻlari (assignovaniya) ajratish, berish. Byudjetdan moliyalashtirish umumdavlat maqsadlariga erishishni koʻzda tutadi yoki toʻliq yo qisman davlat pul taʼminotida boʻlgan tashkilotlar, korxonalar, tarmoqlarning xarajatlari qoplanishiga koʻmaklashadi.

Давлат бюджетидан (маҳаллий бюджетдан) қайтарилмайдиган тартибда, давлат буюртмаларини амалга ошириш, давлат дастурларини бажа-

Б

риш, давлат ташкилотларини таъминлаш билан боғлиқ харажатларга пул маблағлари (ассигнования) ажратиш, бериш. Бюджетдан молиялаштириш умумдавлат мақсадларига эришишни кўзда тутуди ёки тўлиқ ё қисман давлат пул таъминотида бўлган ташкилотлар, корхоналар, тармоқларнинг харажатлари қопланишига кўмаклашади.

Бюджетные учреждения

uz - byudjet muassasalari

бюджет муассасалари

en - budgetary entities

Учреждения, финансируемые преимущественно или целиком из средств государственного и местного бюджетов. К ним относятся органы государственного и местного управления, армия, суды, прокуратура, многие учреждения социально-культурной сферы, науки, образования, здравоохранения.

Asosan yoki butunlay davlat byudjetidan va mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar. Ularga davlat va mahalliy boshqaruv organlari, armiya, sudlar, prokuratura, ko'plab ijtimoiy-madaniy muassasalar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari kiradi.

Асосан ёки бутунлай давлат бюджетидан ва маҳаллий бюджетдан молиялаштириладиган муассасалар. Уларга давлат ва маҳаллий бошқарув органлари, армия, судлар, прокуратура, кўплаб ижтимоий-маданий муассасалар, фан, таълим, соғлиқни сақлаш муассасалари киреди.

В

Вакансия

uz - vakansiya

вакансия

en - vacancy

Наличие незанятого рабочего места, должности, на которую может быть принят новый работник.

Yangi ishchi qabul qilinishi mumkin bo'lgan, band etilmagan ish o'rnining mavjudligi.

Янги ишчи қабул қилиниши мумкин бўлган, банд этилмаган иш ўрнининг мавжудлиги.

Валовая прибыль

uz - yalpi foyda

ялпи фойда

en - gross profit

Разность между чистой выручкой от всех видов деятельности за определенный период времени и производственными затратами на осуществление этой деятельности за тот же период.

В

Muayyan vaqt davri ichida faoliyatning barcha turlaridan olingan sof tushum va shu davr ichida ushbu faoliyatni amalga oshirishga qilingan ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq.

Муайян вақт даври ичида фаолиятнинг барча турларидан олинган соф тушум ва шу давр ичида ушбу фаолиятни амалга оширишга қилинган ишлаб чиқариш харажатлари ўртасидаги фарқ.

Валовой внутренний продукт, ВВП

uz - yalpi ichki mahsulot, YIM

yalpi ichki mahsulot,

ЯИМ

en - gross domestic product,

GDP

Важнейший показатель, выражающий исчисленную в рыночных ценах совокупную стоимость конечного продукта (продукции, товаров и услуг), созданного в течение года внутри страны с использованием факторов производства, принадлежащих как данной стране, так и другим странам. Для определения ВВП по статистическим данным годовой отчетности используются три метода расчета: по доходам, по расходам, по добавленной стоимости (условно чистой продукции).

Yil davomida mamlakat ichida ham shu mamlakatga, ham boshqa mamlakatlarga tegishli ishlab chiqarish omillaridan foydalanib yaratilgan pirovard mahsulot (mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar)ning bozor narxlarida hisoblangan jami qiymatini ifodalaydigan muhim ko'rsatkich. Yalpi ichki mahsulotni statistik yillik hisobot ma'lumotlari bo'yicha aniqlash uchun, uchta: daromadlar bo'yicha, xarajatlar bo'yicha, qo'shimcha qiymat (shartli sof mahsulotning) bo'yicha hisoblash usulidan foydalaniladi.

Йил давомида мамлакат ичида ҳам шу мамлакатга, ҳам бошқа мамлакатларга тегишли ишлаб чиқариш омилларидан фойдаланиб яратилган пировард маҳсулот (маҳсулотлар, товарлар ва хизматлар)нинг бозор нархларида ҳисобланган жами қийматини ифодалайдиган муҳим кўрсаткич. Ялпи ички маҳсулотни статистик йиллик ҳисобот маълумотлари бўйича аниқлаш учун, учта: даромадлар бўйича, харажатлар бўйича, қўшимча қиймат (шартли соф маҳсулотнинг) бўйича ҳисоблаш усулидан фойдаланилади.

В

Валовой доход

uz - yalpi daromad

ялпи даромад

en - gross income

Исчисленный в денежном выражении суммарный годовой доход предприятия, полученный в результате производства и продажи продукции, товаров, услуг. Валовой доход определяется как разность между денежной выручкой от продажи товаров и материальными затратами на их производство. Валовой доход равен сумме заработной платы и чистого дохода (прибыли).

Korxonaning, mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va sotish natijasida olingan, pul ko‘rinishida hisoblangan jami yillik daromadi. Yalpi daromad tovarlar sotishdan olingan pul tushumi va tovarlarni ishlab chiqarishga sarflangan moddiy xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida belgilanadi. Yalpi daromad ish haqi va sof foyda (daromad) summamiga teng.

Корхонанинг, маҳсулотлар, товарлар ва хизматлар ишлаб чиқариш ва сотиш натижасида олинган, пул кўринишида ҳисобланган жами йиллик даромади. Ялпи даромад товарлар сотишдан олинган пул тушуми ва товарларни ишлаб чиқаришга сарфланган моддий харажатлар ўртасидаги фарқ сифатида белгиланади. Ялпи даромад иш ҳақи ва соф фойда (даромад) суммасига тенг.

Валовой национальный продукт, ВВП

uz - yalpi milliy mahsulot,

ҲММ

ялпи миллий маҳсулот,

ҲММ

en - gross national product,

GNP

Макроэкономический показатель, представляющий исчисленную в рыночных ценах стоимость произведенного страной в течение года конечного (готового) продукта (продукции, товаров, услуг). В ВВП включается стоимость продукта, созданного как в самой стране, так и за рубежом с использованием факторов производства, принадлежащих данной стране. ВВП может быть рассчитан методом суммирования добавленных стоимостей, методами потока затрат и потока доходов.

Mamlakatda yil davomida ishlab chiqarilgan pirovard (tayyor) mahsulot (mahsulotlar, tovarlar, xizmatlar)ning bozor narxlarida hisoblangan qiymatini ifodalaydigan makroiqtisodiy ko‘rsatkich. Yalpi

В

milliy mahsulotga ham mamlakatning o'zida, ham xorijda, ushbu mamlakatga tegishli ishlab chiqarish omillaridan foydalanib yaratilgan mahsulotning qiymati ham kiradi. Yalpi milliy mahsulot daromadlar oqimi va xarajatlar oqimi usullari bilan, qo'shilgan qiymatlarni jamlash yo'li bilan hisoblanadi.

Мамлакатда йил давомида ишлаб чиқарилган пировард (тайёр) маҳсулот (маҳсулотлар, товарлар, хизматлар)нинг бозор нархларида ҳисобланган қийматини ифодаладиган макроиқтисодий кўрсаткич. Ялпи миллий маҳсулотга ҳам мамлакатнинг ўзида, ҳам хорижда, ушбу мамлакатга тегишли ишлаб чиқариш омилларидан фойдаланиб яратилган маҳсулотнинг қиймати ҳам кирди. Ялпи миллий маҳсулот даромадлар оқими ва харажатлар оқими усуллари билан, қўшилган қийматларни жамлаш йўли билан ҳисобланади.

Валюта

uz - valyuta

валюта

en - currency

Денежная единица страны, официальная государственная национальная денежная единица, используемая в данной стране. Иностранная валюта, денежные знаки других стран, иностранных государств, а также другие кредитные и платежные средства в виде векселей, чеков, банкнот, которые данная страна использует в международных расчетах.

Mamlakat pul birligi, mamlakatda foydalaniladigan rasmiy davlat milliy pul birligi. Chel el valyutasi – xorijiy davlatlarning, boshqa mamlakatlarning pul birliklari, shuningdek, bu mamlakat xalqaro hisob-kitoblarda foydalanadigan banknotlar, cheklar, veksellar ko'rinishidagi boshqa kredit va to'lov vositalari.

Мамлакат пул бирлиги, мамлакатда фойдаланиладиган расмий давлат миллий пул бирлиги. Чел эл валютаси – хорижий давлатларнинг, бошқа мамлакатларнинг пул birlikлари, шунингдек, бу мамлакат халқаро ҳисоб-китобларда фойдаланадиган банкнотлар, чеклар, векселлар кўринишидаги бошқа кредит ва тўлов воситалари.

В

Валютная интервенция

uz - valyuta intervensiyasi

валюта интервенцияси

en - currency intervention

Значительное разовое целенаправленное воздействие Центрального банка страны на внутренний валютный рынок и валютный курс, осуществляемое путем продажи или закупки банком крупных партий иностранной валюты. Валютная интервенция осуществляется для регулирования курса иностранных валют в интересах государства.

Mamlakat Markaziy bankining, valyuta kursiga va ichki valyuta bozoriga ko'rsatadigan, bir martali aniq maqsadga qaratilgan jiddiy ta'siri. Bank tomonidan chet el valyutasining yirik partiyalarini sotish yoki sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Valyuta intervensiyasi davlat manfaatlari yo'lida chet el valyutalari kursini tartibga solish maqsadida amalga oshiriladi.

Мамлакат Марказий банкининг, валюта курсига ва ички валюта бозорига кўрсатадиган, бир мартали аниқ мақсадга қаратилган жиддий таъсири. Банк томонидан чет эл валютасининг йирик партияларини сотиш ёки сотиб олиш йўли билан амалга оширилади. Валюта интервенцияси давлат манфаатлари йўлида чет эл валюталари курсини тартибга солиш мақсадида амалга оширилади.

Валютная политика

uz - valyuta siyosati

валюта сиёсати

en - currency policy

Часть экономической политики государства и внешнеэкономической политики, представляющая линию действий государства внутри и вне страны, проводимую посредством воздействия на валюту, валютный курс, валютные операции. Основные инструменты валютной политики – валютная интервенция, валютные ограничения, валютные резервы, валютное субсидирование, валютные паритеты.

Davlat iqtisodiy va tashqi iqtisodiy siyosatining, davlatning mamlakat ichida va undan tashqarida valyutaga, valyuta kursiga, valyuta operatsiyalariga ta'sir ko'rsatish vositasida olib boriladigan harakat yo'lini ifodalaydigan qismi. Valyuta intervensiyasi,

В

valyuta cheklovlari, valyuta rezervlari, valyuta bilan ta'minlash, valyuta paritetlari valyuta siyosatining asosiy vositalaridir.

Давлат иқтисодий ва ташқи иқтисодий сиёсатининг, давлатнинг мамлакат ичида ва ундан ташқарида валютага, валюта курсига, валюта операцияларига таъсир кўрсатиш воситасида олиб бориладиган ҳаракат йўлини ифодалайдиган қисми. Валюта интервенцияси, валюта чекловлари, валюта резервлари, валюта билан таъминлаш, валюта паритетлари валюта сиёсатининг асосий воситаларидир.

Валютная система

uz - valyuta tizimi

валюта тизими

en - currency system

Совокупность валют, правил и норм их использования и взаимного обмена, применения в качестве платежных средств, а также денежно-кредитных отношений, связанных с применением валюты. К валютной системе относятся и органы регулирующие выпуск и обращение валюты.

Valyutalar, ulardan foydalanish va o'zaro ayirboshlash, to'lov vositalari sifatida qo'llanish qoidalari va normalari, shuningdek, valyutani ishlatish bilan bog'liq bo'lgan pul-kredit munosabatlari yig'indisi. Valyuta tizimiga valyuta chiqarilishini va muomalada bo'lishini tartibga soladigan organlar ham kiradi.

Валюталар, улардан фойдаланиш ва ўзаро айирбошлаш, тўлов воситалари сифатида қўлланиш қоидалари ва нормалари, шунингдек, валютани ишлатиш билан боғлиқ бўлган пул-кредит муносабатлари йиғиндиси. Валюта тизимига валюта чиқарилишини ва муомалада бўлишини тартибга солидиган органлар ҳам киради.

Валютное регулирование

uz - valyutaga oid tartibga

solish

валютага оид тартибга

солиш

en - exchange control

Деятельность государственных органов по управлению обращением валюты, контролю за валютными операциями, воздействию на валютный курс иностранной валюты, ограничению использования иностранной валюты.

Davlat organlarining, valyutaning muomalada bo'lishini boshqarish, valyuta operatsiyalarini nazorat

В

qilish, chet el valyutasining valyuta kursiga ta'sir etish, chet el valyutasidan foydalanilishini cheklash bo'yicha faoliyati.

Давлат органларининг, валютанинг муомалада бўлишини бошқариш, валюта операцияларини назорат қилиш, чет эл валютасининг валюта курсига таъсир этиш, чет эл валютасидан фойдаланилишини чеклаш бўйича фаолияти.

Валютные операции

uz - valyuta operatsiyalari

валюта операциялари

en - foreign exchange operation

Финансовые операции, связанные с покупкой и продажей иностранной валюты.

Chet el valyutasini sotish va sotib olish bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalar.

Чет эл валютасини сотиш ва сотиб олиш билан боғлиқ молиявий операциялар.

Валютные резервы

uz - valyuta rezervlari

валюта резервлари

en - currency reserves

Накопленные страной запасы иностранной валюты, которыми располагает Центральный банк и финансовые органы страны, предназначенные для международных расчетов и регулирования внутреннего валютного рынка. В валютные резервы включают также золотой запас страны и другие возможные источники получения иностранной валюты.

Mamlakatda to'plangan, mamlakat Markaziy banki va moliyaviy organlari ixtiyorida bo'lgan, xalqaro hisob-kitoblar va ichki valyuta bozorini tartibga solish uchun mo'ljallangan chet el valyutasi zaxiralari. Valyuta rezervlariga, shuningdek, mamlakatning oltin zaxirasi va chet el valyutasini olishning boshqa mumkin bo'lgan manbalari ham kiradi.

Мамлакатда тўпланган, мамлакат Марказий банки ва молиявий органлари ихтиёрида бўлган, халқаро ҳисоб-китоблар ва ички валюта бозорини тартибга солиш учун мўлжалланган чет эл валютаси захиралари. Валюта резервларига, шунингдек, мамлакатнинг олтин захираси ва чет эл валютасини олишнинг бошқа мумкин бўлган манбалари ҳам кирди.

В

Валютные рынки

uz - valyuta bozori

валюта бозори

en - foreign exchange market

Рынки, на которых осуществляется купля-продажа, обмен иностранных валют и операции с другими платежными средствами, выраженными в иностранных валютах.

Chet el valyutasining oldi-sotdi savdosi, ayirboshlanishi va chet el valyutasida ifodalangan boshqa to'lov vositalari bilan operatsiyalar amalga oshiriladigan bozorlar.

Чет эл валютасининг олди-сотди савдоси, айирбошланиши ва чет эл валютасида ифодаланган бошқа тўлов воситалари билан операциялар амалга ошириладиган бозорлар.

Валютный курс

uz - valyuta kursi

валюта курси

en - foreign exchange rate

Цена денежной единицы одной страны, выраженная в денежных единицах другой страны.

Bir mamlakat pul birligining, boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan qiymati.

Бир мамлакат пул бирлигининг, бошқа мамлакат пул бирлигида ифодаланган қиймати.

Валютный паритет

uz - valyuta pariteti

валюта паритети

en - par of exchange

Твердое, официально устанавливаемое соотношение, по которому одна валюта обменивается на другую.

Bir valyuta boshqa bir valyutaga ayirboshlanadigan qat'iy, rasman o'rnatiladigan nisbat.

Бир валюта бошқа бир валютага айирбошланадиган қатъий, расман ўрнатиладиган нисбат.

Вексель

uz - veksel

вексель

en - bill

Вид ценной бумаги; письменное, составленное по определенной форме денежное долговое обязательство. Заемщик, должник, выдавший вексель, именуется векселедателем. Простой вексель удостоверяет обязательство заемщика, векселедателя уплатить заимодавцу, векселедержателю положенный к возврату долг в оговоренный срок. Переводный вексель, именуемый траттой, выписывается векселедержателем (трассантом) в виде письменного поручения, приказа векселедателю (трассату) заплатить заимствованную сумму с процентами третьему лицу (ремитенту).

B

Qimmatli qog'ozning bir turi; yozma, ma'lum bir shakl bo'yicha tuzilgan pulli qarz majburiyati. Vekselni bergan qarz oluvchi, qarzdor veksel beruvchi deb nomlanadi. Oddiy veksel qarzdorning, veksel beruvchining veksel oluvchiga, qarz beruvchiga kelishilgan muddatda qaytarib berilishi kerak bo'lgan qarzni to'lash majburiyatini tasdiqlaydi. Tratta deb nomlanadigan o'tkazma veksel veksel olgan shaxs (trassant) tomonidan veksel beruvchiga (trassatga) qarz olingan summani foizlar bilan uchinchi shaxsga (remitentga) to'lash haqidagi yozma topshirig'i, buyrug'i ko'rinishida yoziladi.

Қимматли қоғознинг бир тури; ёзма, маълум бир шакл бўйича тузилган пулли қарз мажбурияти. Векселни берган қарз олувчи, қарздор вексель берувчи деб номланади. Оддий вексель қарздорнинг, вексель берувчининг вексель олувчига, қарз берувчига келишилган муддатда қайтариб берилиши керак бўлган қарзни тўлаш мажбуриятини тасдиқлайди. Тратта деб номланадиган ўтказма вексель вексель олган шахс (трассант) томонидан вексель берувчига (трассатга) қарз олинган суммани фоизлар билан учинчи шахсга (ремитентга) тўлаш ҳақидаги ёзма топшириғи, буйруғи кўринишида ёзилади.

Величина предложения

uz - taklif kattaligi

таклиф катталиги

en - quantity supplied

Количество товара или услуг определенного вида, которое производитель, продавец может и желает предложить к продаже на рынке по конкретной цене в течение определенного периода времени. Величина предложения, наряду с величиной спроса, служит определяющим фактором, влияющим на уровень рыночных цен.

Ishlab chiqaruvchi, sotuvchi muayyan vaqt davri mobaynida aniq narx bo'yicha bozorda sotishga taklif qiladigan va istaydigan, muayyan turdagi tovar yoki xizmatlar miqdori. Taklif kattaligi, talab kattaligi bilan bir qatorda, bozor narxlarining darajasiga ta'sir ko'rsatadigan belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Ишлаб чиқарувчи, сотувчи муайян вақт даври мобайнида аниқ нарх бўйича бозорда сотишга

В

таклиф қиладиган ва истайдиган, муайян турдаги товар ёки хизматлар миқдори. Таклиф катталиги, талаб катталиги билан бир қаторда, бозор нархларининг даражасига таъсир кўрсатадиган белгиловчи омил бўлиб хизмат қилади.

Величина спроса

uz - talab kattaligi

талаб катталиги

en - quantity demanded

Количество товара или услуг определенного вида, которое покупатель способен и желает купить на рынке по данной цене в течение определенного периода времени. Величина спроса, наряду с величиной предложения, является определяющим фактором формирования свободных рыночных цен.

Xaridor muayyan vaqt davri mobaynida berilgan narx bo'yicha bozorda sotib oladigan va istaydigan, muayyan turdagi tovar yoki xizmatlar miqdori. Talab kattaligi, taklif kattaligi bilan bir qatorda, erkin bozor narxlarini shakllantirishning belgilovchi omili hisoblanadi.

Харидор муайян вақт даври мобайнида берилган нарх бўйича бозорда сотиб оладиган ва истайдиган, муайян турдаги товар ёки хизматлар миқдори. Талаб катталиги, таклиф катталиги билан бир қаторда, эркин бозор нархларини шакллантиришнинг белгиловчи омилли ҳисобланади.

Взаимные расчеты

uz - o'zaro hisob-kitoblar

ўзаро ҳисоб-китоблар

en - mutual settlements

Способ осуществления расчетов между предприятиями, организациями, фирмами, каждая из которых должна осуществить платежи другой, так как обладает по отношению к ней задолженностью. Существо способа состоит во взаимном погашении долгов без перечисления денежных средств.

Korxonalar, tashkilotlar, firmalar o'rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirish usuli. Usulning mohiyati, pul mablag'larini o'tkazmasdan qarzlarni o'zaro uzishdan iborat.

Корхоналар, ташкилотлар, фирмалар ўртасида ҳисоб-китобларни амалга ошириш усули. Усулнинг моҳияти, пул маблағларини ўтказмасдан қарзларни ўзаро узишдан иборат.

В

Взаимодополняющие товары

uz - bir-birini to'ldiradigan
tovarlar

бир-бирини

тўлдирадиган товарлар

en - complementary goods

Товары, применение одного из которых требует одновременного использования другого товара, дополняющего первый.

Birining qo'llanilishi, birinchi tovarni to'ldiradigan boshqa bir tovardan bir vaqtda foydalanilishini talab etadigan tovarlar.

Бирининг қўлланилиши, биринчи товарни тўлдирадиган бошқа бир товардан бир вақтда фойдаланилишини талаб этадиган товарлар.

Взаимозаменяющие товары

uz - bir-birini o'rnini bosadigan
tovarlar

бир-бирини ўрнини

босадиган товарлар

en - substitutional goods

Товары, способные в определенной степени заменять друг друга благодаря тому, что выполняют аналогичные функции, удовлетворяют те же потребности.

O'xshash vazifalarni bajarishi, ayni bir ehtiyojlarni qondirishi tufayli, bir-birini muayyan darajada o'rnini bosadigan tovarlar.

Ўхшаш вазифаларни бажариши, айти бир эҳтиёжларни қондириши туфайли, бир-бирини муайян даражада ўрнини босадиган товарлар.

Взимание

uz - undirish

ундириш

en - levying

Принудительное изъятие, обязательная уплата денег, например, взимание налогов.

Pullarni majburiy to'latish, majburiy olib qo'yish, masalan, soliqlarni undirish.

Пулларни мажбурий тўлатиш, мажбурий олиб қўйиш, масалан, солиқларни ундириш.

Вклад

uz - omonat

омонат

en - deposit

Денежные средства, внесенные на хранение в банк или в другое финансовое учреждение. Лицо, внесшее вклад, именуют вкладчиком. Существуют именные вклады и вклады на предъявителя. Вкладом на предъявителя вправе пользоваться любое лицо, предъявившее документ, удостоверяющий вложение средств, что обеспечивает вкладчику особую конфиденциальность. По срокам хранения различают вклады до востребования, которые вносятся без указания срока хранения, могут быть востребованы вкладчиком в любое время и срочные вклады, вносимые на определенный срок. Вклады называют также депозитами.

B

Saqlash uchun bankka yoki boshqa moliya muassasasiga qo'yiladigan pul mablag'lari. Omonat qo'ygan shaxs omonatchi deb nomlanadi. Nomi yozilgan omonatlar va ko'rsatuvchiga beriladigan omonatlar mavjud. Ko'rsatuvchiga beriladigan omonatdan, mablag' qo'yilganligini tasdiqlaydigan hujjatni taqdim etadigan har qanday shaxs foydalanishga haqli, bu omonatchiga alohida konfidensiallikni ta'minlaydi. Saqlash muddatlari bo'yicha, talab qilib olinadigan omonatlar, bu tur omonatlar saqlash muddati ko'rsatilmadan qo'yiladi, omonatchi tomonidan istalgan vaqtda talab qilinishi mumkin va muayyan muddatga qo'yiladigan muddatli omonatlar farqlanadi. Omonatning boshqa bir nomi depozitdir.

Сақлаш учун банкка ёки бошқа молия муассасасига қўйиладиган пул маблағлари. Омонат қўйган шахс омонатчи деб номланади. Номи ёзилган омонатлар ва кўрсатувчига бериладиган омонатлар мавжуд. Кўрсатувчига бериладиган омонатдан, маблағ қўйилганлигини тасдиқлайдиган ҳужжатни тақдим этадиган ҳар қандай шахс фойдаланишга ҳақли, бу омонатчига алоҳида конфиденциалликни таъминлайди. Сақлаш мuddatlari бўйича, талаб қилиб олинadigan омонатлар, бу тур омонатлар сақлаш мuddати кўрсатилмасдан қўйилади, омонатчи томонидан исталган вақтда талаб қилиниши мумкин ва муайян мuddатга қўйиладиган мuddатли омонатлар фарқланади. Омонатнинг бошқа бир номи депозитдир.

Внедрение

uz - joriy qilish

жорий қилиш

en - introduction

Распространение нововведений, достижение практического использования прогрессивных идей, изобретений, результатов научных исследований.

Yangiliklarni keng yoyish, ilg'or g'oyalardan, ixtirolardan, ilmiy tadqiqotlar natijalaridan amalda foydalanilishiga erishish.

Янгиликларни кенг ёйиш, илғор ғоялардан, ихтиролардан, илмий тадқиқотлар натижаларидан амалда фойдаланилишига эришиш.

В

Внешнеэкономическая деятельность

uz - tashqi iqtisodiy faoliyat

ташқи иқтисодий

фаолият

en - foreign economic activity

Один из видов экономической деятельности государства, предприятий, связанный с внешней торговлей (экспортом и импортом товаров), иностранными кредитами и инвестициями, международным научно-техническим сотрудничеством, осуществлением совместных с другими странами проектов.

Davlat, korxonalar iqtisodiy faoliyatining, tashqi savdo (tovarlarning eksporti va importi), chet el kreditlari va investitsiyalari, xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik bilan, boshqa mamlakatlar bilan birgalikda loyihalarni amalga oshirish bilan bogʻliq turlaridan biri.

Давлат, корхоналар иқтисодий фаолиятининг, ташқи савдо (товарларнинг экспорти ва импорти), чет эл кредитлари ва инвестициялари, халқаро илмий-техникавий ҳамкорлик билан, бошқа мамлакатлар билан биргаликда лойиҳаларни амалга ошириш билан боғлиқ турларидан бири.

Внешние субъекты маркетинговых исследований

uz - marketing tadqiqotlarining tashqi subyektlari

маркетинг тадқиқотларининг ташқи субъектлари

en - external suppliers

Независимые компании по маркетинговым исследованиям, привлекаемые для предоставления услуг в сфере маркетинговых исследований.

Marketing tadqiqotlari sohasida xizmatlar koʻrsatish uchun jalb qilinadigan, marketing tadqiqotlari boʻyicha mustaqil kompaniyalar.

Маркетинг тадқиқотлари соҳасида хизматлар кўрсатиш учун жалб қилинадиган, маркетинг тадқиқотлари бўйича мустақил компаниялар.

Внешний государственный долг

uz - tashqi davlat qarzi

ташқи давлат қарзи

en - foreign national debt

Совокупная задолженность государства международным банкам, правительствам других стран, частным иностранным банкам. Различают текущий внешний долг данного года, который надо вернуть в текущем году, и общий государственный внешний долг (накопленный), который предстоит вернуть в текущем году и в последующие годы.

Davlatning xalqaro banklar, boshqa mamlakatlarning hukumatlari, xususiyl chet el banklari oldidagi

В

jami qarzdorligi. Joriy yilda qaytarilishi kerak bo'lgan joriy tashqi qarz hamda joriy yilda va keyingi yillarda qaytarilishi kerak bo'ladigan umumiy (to'plangan) tashqi davlat qarzi ajratiladi.

Давлатнинг халқаро банклар, бошқа мамлакатларнинг ҳукуматлари, хусусий чет эл банклари олдидаги жами қарздорлиги. Жорий йилда қайтарилиши керак бўлган жорий ташқи қарз ҳамда жорий йилда ва кейинги йилларда қайтарилиши керак бўладиган умумий (тўпланган) ташқи давлат қарзи ажратилади.

Внешняя торговля

uz - tashqi savdo

ташқи савдо

en - foreign trade

Торговля с другими странами, экспорт товаров из страны и импорт в страну.

Boshqa mamlakatlar bilan bo'ladigan savdo, mamlakatdan tovarlar eksport qilish, chetdan mamlakatga tovarlar kiritish.

Бошқа мамлакатлар билан бўладиган савдо, мамлакатдан товарлар экспорт қилиш, четдан мамлакатга товарлар киритиш.

Внутренний государственный долг

uz - ichki davlat qarzi

ички давлат қарзи

en - internal national debt

Внутренняя задолженность государства банкам, предприятиям и населению, образовавшаяся в связи с привлечением их средств для выполнения государственных программ и заказов, в связи с выпуском в обращение бумажных денег, государственных облигаций и других государственных ценных бумаг, а также вследствие наличия подлежащих возврату вкладов в государственных банках.

Davlatning korxonalar, banklar, aholi oldidagi, ularning mablag'lari davlat buyurtmalari va dasturlarini bajarish uchun jalb qilinishi, muomalaga qog'oz pullar, davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari chiqarilishi sababli, shuningdek, davlat banklarida qaytarilishi zarur bo'lgan omonatlarning mavjudligi oqibatida to'planib qolgan ichki qarzi.

Давлатнинг корхоналар, банклар, аҳоли олди-

В

даги, уларнинг маблағлари давлат буюртмалари ва дастурларини бажариш учун жалб қилиниши, муомалага қоғоз пуллар, давлат облигациялари ва бошқа давлат қимматли қоғозлари чиқарилиши сабабли, шунингдек, давлат банкларида қайтарилиши зарур бўлган омонатларнинг мавжудлиги оқибатида тўпланиб қолган ички қарзи.

Возвратность

uz - qaytaruvchanlik

қайтарилувчанлик

en - repayment

Принцип финансовых, денежных отношений, согласно которому кредитные средства, полученные заемщиком во временное пользование, подлежат обязательному и своевременному возврату кредитору, владельцу средств.

Moliyaviy, pulli munosabatlar prinsipi, unga ko‘ra, qarzdor tomonidan vaqtinchalik foydalanish uchun olingan kredit mablag‘lari, mablag‘larning egasiga, kreditorga albatta va o‘z vaqtida qaytarib berilishi zarur.

Молиявий, пулли муносабатлар принципи, унга кўра, қарздор томонидан вақтинчалик фойдаланиш учун олинган кредит маблағлари, маблағларнинг эгасига, кредиторга албатта ва ўз вақтида қайтариб берилиши зарур.

Воротнички белые, серые, синие

uz - oq, kulrang, ko‘k yoqalar

оқ, кулранг, кўк ёқалар

en - white, grey, blue collars

Термины, применяемые для обозначения отдельных категорий лиц наемного труда, применительно к их профессиональной принадлежности: белые воротнички – служащие, чиновники, работники аппарата управления, менеджеры, инженерно-технические работники, работники умственного труда, входящие в состав так называемого «непроизводственного персонала» предприятий, организаций; серые воротнички – работники обслуживающих подразделений; синие воротнички – квалифицированные рабочие.

Yollanma mehnat odamlarining ayrim toifalarini, ularning kasbiy mansubligiga tatbiqan belgilash uchun qo‘llaniladigan atamalar: oq yoqalar – korxonalar, tashkilotlarning «noishlab chiqarish personali» tarkibiga kiradigan aqliy mehnat xodimlari, muhandis-texnik xodimlar, menejerlar, boshqarish apparati xodimlari, amaldorlar, xizmatchilar; kul-

В

rang yoqalar – xizmat ko‘rsatadigan bo‘linmalar-ning ishchilari; ko‘k yoqalar – malakali ishchilar.

Ёлланма меҳнат одамларининг айрим тоифаларини, уларнинг касбий мансублигига татбиқан белгилаш учун қўлланиладиган атамалар: оқ ёқалар – корхоналар, ташкилотларнинг «ноишлаб чиқариш персонали» таркибига кирадиган ақлий меҳнат ходимлари, муҳандис-техник ходимлар, менежерлар, бошқариш аппарати ходимлари, амалдорлар, хизматчилар; кулранг ёқалар – хизмат кўрсатадиган бўлинмаларнинг ишчилари; кўк ёқалар – малакали ишчилар.

Воспроизводственный цикл
uz - takror ishlab chiqarish sikli
такрор ишлаб чиқариш
цикли
en - replenishment cycle

Цикл «производство – распределение – обмен – потребление»; его стадии характеризуют состояния, в которых находится экономический продукт от его создания до потребления.

«Ishlab chiqarish – taqsimlash – ayirboshlash – iste’mol qilish» sikli; uning bosqichlari iqtisodiy mahsulot yaratilishidan iste’mol qilingungacha bo‘ladigan holatni ifodalaydi.

«Ишлаб чиқариш – тақсимлаш – айирбошлаш – истеъмол қилиш» цикли; унинг босқичлари иқтисодий маҳсулот яратилишидан истеъмол қилингунгача бўладиган ҳолатни ифодалайди.

Воспроизводство
uz - takror ishlab chiqarish
такрор ишлаб чиқариш
en - reprocessing

Воссоздание израсходованных факторов производства (природных ресурсов, рабочей силы, средств производства) посредством постоянного возобновления их производства по мере расходования.

Sarflangan ishlab chiqarish omillari (tabiiy resurslar, ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari)ni, ularning sarflanishiga qarab ishlab chiqarilishini muntazam tiklab borish vositasida qaytadan yaratish.

Сарфланган ишлаб чиқариш омиллари (табiiй ресурслар, ишчи кучи, ишлаб чиқариш воситалари)ни, уларнинг сарфланишига қараб ишлаб чиқарилишини мунтазам тиклаб бориш воситасида қайтадан яратиш.

В

Всемирная торговая организация, ВТО

uz - Jahon savdo tashkiloti, JST

Жаҳон савдо ташкилоти,
ЖСТ

en - World Trade Organization,
WTO

Организация созданная с целью регулирования правил международной торговли, наблюдения за исполнением торговых соглашений, разрешения торговых споров, мониторинга торговой политики государств-членов, технической помощи и обучения для развивающихся государств. Функционирует с 1995 г.

Xalqaro savdo qoidalarini tartibga solish, savdo bitimlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, savdo bahslarini hal qilish, a'zo davlatlar savdo siyosati monitoringi, rivojlanayotgan davlatlarga texnik yordam ko'rsatish va o'rgatish maqsadida tuzilgan tashkilot. 1995-yildan beri faoliyat ko'rsatadi.

Xalqaro savdo qoidalarini tartibga solish, savdo bitimlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, savdo bahslarini hal qilish, a'zo davlatlar savdo siyosati monitoringi, rivojlanayotgan davlatlarga texnik yordam ko'rsatish va o'rgatish maqsadida tuzilgan tashkilot. 1995-yildan beri faoliyat ko'rsatadi.

Всемирный банк, группа Всемирного банка

uz - Jahon banki, Jahon banki guruhi

Жаҳон банки, Жаҳон
банки гуруҳи

en - World bank, World bank group

Международное финансовое учреждение. В ее состав входит Международный банк реконструкции и развития, Международная ассоциация развития и Международная финансовая корпорация. Оказывает влияние на проведение экономической политики развивающихся стран путем предоставления стратегических кредитов.

Xalqaro moliya muassasasi. Tarkibiga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish uyushmasi va Xalqaro moliya korporatsiyasi kiradi. Strategik kreditlar ajratish yo'li bilan, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy siyosat olib borilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro moliya muassasasi. Tarkibiga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish uyushmasi va Xalqaro moliya korporatsiyasi kiradi. Strategik kreditlar ajratish yo'li bilan, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy siyosat olib borilishiga ta'sir ko'rsatadi.

В

Вторичные ресурсы

uz - ikkilamchi resurslar

иккиламчи ресурслар

en - secondary resources

Однократно использованные материальные ресурсы или их часть, вновь вовлекаемые в производство, а также отходы одного производства, находящие применение в другом производстве.

Bir marta foydalanilgan, yana ishlab chiqarishga jalb qilinadigan moddiy resurslar yoki ularning bir qismi, shuningdek, bir ishlab chiqarishning, boshqa bir ishlab chiqarishda foydalanilishi mumkin boʻlgan chiqindilari.

Бир марта фойдаланилган, яна ишлаб чиқаришга жалб қилинадиган моддий ресурслар ёки уларнинг бир қисми, шунингдек, бир ишлаб чиқаришнинг, бошқа бир ишлаб чиқаришда фойдаланилиши мумкин бўлган чиқиндилари.

Вторичный рынок ценных бумаг

uz - ikkilamchi qimmatli qogʻozlar bozori

иккиламчи қимматли қоғозлар бозори

en - secondary security market

Рынок, на котором перепродаются ценные бумаги после их первичной продажи, распространения, размещения эмитентами.

Qimmatli qogʻozlar emitentlar tomonidan dastlab sotilgandan, tarqatilgandan, joylashtirilgandan soʻng, qayta sotiladigan bozor.

Қимматли қоғозлар эмитентлар томонидан дастлаб сотилгандан, тарқатилгандан, жойлаштирилгандан сўнг, қайта сотиладиган бозор.

Вывоз капитала

uz - kapital chiqarish

капитал чиқариш

en - export of capital

Экспорт капитала в другие страны государством, предприятиями, фирмами, частными лицами с целью более выгодного размещения, использования.

Kapitalning davlat, korxonalar, firmalar, xususiy shaxslar tomonidan, birmuncha qulayroq joylashtirish, foydalanish maqsadida, boshqa mamlakatlarga chiqarilishi.

Капиталнинг давлат, корхоналар, фирмалар, хусусий шахслар томонидан, бирмунча қулайроқ жойлаштириш, фойдаланиш мақсадида, бошқа мамлакатларга чиқарилиши.

В

Выгода

uz - foyda

фойда

en - advantage

Получаемая польза, достижение преимущества, получение дополнительных денежных поступлений, дохода в результате осуществления успешных хозяйственных действий, удачного проведения предпринимательских операций, сделок.

Muvaffaqiyatli xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish, tadbirkorlik operatsiyalari, kelishuvlarining omadli o‘tkazilishi natijasida olinadigan foyda, ustunlikka erishish, qo‘shimcha pul tushumlari, daromad.

Муваффақиятли хўжалик фаолиятини амалга ошириш, тadbirkorlik операциялари, келишувларининг омадли ўтказилиши натижасида олинadиган фойда, устунликка эришиш, қўшимча пул тушумлари, даромад.

Выгода упущенная

uz - boy berilgan foyda

бой берилган фойда

en - loss of opportunity

Неполученные, упущенные доходы вследствие неожиданного неблагоприятного поворота дел; неосуществленные возможности, потери дохода, прибыли за определенный период, возникающие в связи с неудачным выбором способа действий, который принес меньшую прибыль в сравнении с потенциально возможной.

Ishlarning kutilmaganda noqulay izlarga tushishi oqibatida olinmay qolingan, qo‘lda chiqarilgan daromadlar; harakatlar (ishlar) usuli qoniqarsiz tanlanishi tufayli yuzaga keladigan amalga oshirilmagan imkoniyatlar, muayyan davr ichida foyda, daromadning yo‘qotilishi.

Ишларнинг кутилмаганда ноқулай изларга тушиши оқибатида олинмай қолинган, қўлда чиқарилган даромадлар; ҳаракатлар (ишлар) усули қониқарсиз танланиши тufайли юзага келadиган амалга оширилмаган имкониятлар, муайян давр ичида фойда, даромаднинг йўқотилиши.

Выигрышные займы

uz - yutuqli zayomlar

ютуқли заёмлар

en - premium loans

Облигационные займы, по условиям выпуска которых проводятся розыгрыши денежных или вещевых призов.

Chiqarilish shartlariga muvofiq, pul yoki buyumlar yutuqlari o‘yinlari o‘tkaziladigan obligatsiya zayomlari.

В

Чикарилиш шартларига мувофик, пул ёки буюмлар ютуқлари ўйинлари ўтказиладиган облигация заёмлари.

Выкуп

uz - pul to‘lab qaytib olish

пул тўлаб қайтиб олиш

en - redemption

Вторичное приобретение за деньги вещей, ценностей, которые ранее принадлежали человеку, фирме, организации, но были ими проданы, переданы другим собственникам, сданы в залог. Покупка арендатором арендованного им имущества у арендодателя.

Avval bir odamga, firmaga, tashkilotga tegishli bo‘lgan, lekin ular tomonidan sotilgan, boshqa mulkdorlarga berilgan, garovga topshirilgan buyumlar, boyliklarning pulga ikkinchi marta sotib olinishi. Arendator tomonidan ijaraga beruvchidan ijaraga mulk sotib olish.

Аввал бир одамга, фирмага, ташкилотга тегишли бўлган, лекин улар томонидан сотилган, бошқа мулкдорларга берилган, гаровга топширилган буюмлар, бойликларнинг пулга иккинчи марта сотиб олиниси. Арендатор томонидан ижарага берувчидан ижарага мулк сотиб олиш.

Выплаты

uz - to‘lovlar

тўловлар

en - payments

Выдача денежных средств лицам за выполненную ими работу, в оплату за проданный товар, в виде процентов за предоставленный кредит.

Odamlarga, ular bajargan ish uchun, sotilgan tovarning haqini to‘lash uchun, berilgan kredit uchun foizlar ko‘rinishida pul mablag‘lari berish.

Одамларга, улар бажарган иш учун, сотилган товарнинг ҳақини тўлаш учун, берилган кредит учун фоизлар кўринишида пул маблағлари бериш.

Выпуск денег и ценных бумаг

uz - pul va qimmatli qog‘ozlar chiqarish

пул ва қимматли

қоғозлар чиқариш

en - creation of money and securities

Изготовление и введение в обращение денежных знаков, ценных бумаг (акций, облигаций).

Pul belgilari, qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar) tayyorlash va muomalaga kiritish.

Пул белгилари, қимматли қоғозлар (акциялар, облигациялар) тайёрлаш ва муомалага киритиш.

В

Выручка

uz - tushgan pul, kirim

тушган пул, кирим

en - revenue

Денежные поступления от продажи товаров или услуг.

Tovarlar va xizmatlar sotilishidan olingan pul tushumlari.

Товарлар ва хизматлар сотилишидан олинган пул тушумлари.

Вытеснение экономическое

uz - iqtisodiy siqib chiqarish

иктисодий сиқиб

чиқариш

en - repression of economic

Действия одного конкурента в отношении другого, предпринимаемые с целью потеснить его на рынках сбыта товаров, вытеснить из рынка.

Bir raqobatchining boshqa bir raqobatchiga nisbatan, uni tovarlar sotish bozorlaridan, bozordan siqib chiqarish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlari.

Бир рақобатчининг бошқа бир рақобатчига нисбатан, уни товарлар сотиш бозорларидан, бозордан сиқиб чиқариш мақсадида амалга оширилдиган ҳаракатлари.

Выход на рынок

uz - bozorga chiqish

бозорга чиқиш

en - entrance to the market

Первое предложение производителем либо торговой компанией своих товаров на рынке.

Ishlab chiqaruvchi yoki savdo kompaniyasi tomonidan, bozorda o'z tovarlarining birinchi marta taklif qilinishi.

Ишлаб чиқарувчи ёки савдо компанияси томонидан, бозорда ўз товарларининг биринчи марта таклиф қилиниши.

Выходное пособие

uz - ishdan bo'shaganda

beriladigan pul

ишдан бўшаганда

бериладиган пул

en - redundancy payment

Денежные выплаты лицам, уволенным с работы не по их вине, вышедшим в отставку.

Aybdor bo'lmagan holda ishdan bo'shagan, iste'foga chiqqan shaxslarga beriladigan pul to'lovlari.

Айбдор бўлмаган ҳолда ишдан бўшаган, истеъфога чиққан шахсларга бериладиган пул тўловлари.

Г

Галопирующая инфляция

uz - tez rivojlanadigan

inflyatsiya

тез ривожланадиган

инфляция

en - galloping inflation

Гарант

uz - kafil

кафил

en - guarantor

Гарантийное обязательство

uz - kafolat majburiyati

кафолат мажбурияти

en - guarantee obligation

Гарантийный взнос

uz - kafolat to'lovi

кафолат тўлови

en - margin

Инфляция, нарастающая высокими темпами.

Yuqori sur'atlar bilan o'sib boradigan inflyatsiya.

Юқори суръатлар билан ўсиб борадиган инфляция.

Лицо, предоставляющее гарантию, поручитель.

Kafolat beruvchi shaxs, kafil.

Кафолат берувчи шахс, кафил.

1. Письменное свидетельство (гарантийное письмо), выдаваемое гарантом тому лицу, которому он гарантирует выполнение определенных обязательств.

2. Документ, подтверждающий соответствие качества поставляемого, продаваемого товара условиям договора о купле-продаже, контракта на поставку.

1. Kafil tomonidan, u muayyan majburiyatlarning bajarilishini kafolatlaydigan shaxsga beriladigan yozma guvohnoma (kafolat xati).

2. Yetkazib beriladigan, sotiladigan tovarning oldi-sotdi shartnomasi, yetkazib berish kontrakti shartlariga muvofiq kelishligini tasdiqlaydigan hujjat.

1. Кафил томонидан, у муайян мажбуриятларнинг бажарилишини кафолатлайдиган шахсга бериладиган ёзма гувоҳнома (кафолат хати).

2. Етказиб бериладиган, сотиладиган товарнинг олди-сотди шартномаси, етказиб бериш контракти шартларига мувофиқ келишлигини тасдиқлайдиган хужжат.

Первоначально вносимая клиентом часть общей суммы оплаты товара, заказа, призванная предотвратить возможный отказ от заказа в процессе его выполнения.

Tovar, buyurtma uchun to'lov umumiy summasining, mijoz tomonidan dastlab kiritiladigan

Г

qismi, buyurtmadan, uni bajarish jarayonida voz kechishning oldini olishga qaratilgan.

Товар, буюртма учун тўлов умумий суммасининг, миждоз томонидан дастлаб киритилдиган қисми, буюртмадан, уни бажариш жараёнида воз кечишининг олдини олишга қаратилган.

Гарантийный срок

uz - kafolat muddati

кафолат муддати

en - guarantee period

Период времени, в течение которого изготовитель товара или его продавец гарантирует его соответствие требованиям договора, показателям качества, паспортным данным. Различают:

а) гарантийный срок хранения продукции, товаров, склонных утрачивать необходимые качества в процессе хранения;

б) гарантийный срок эксплуатации продукции, товаров (машин, оборудования, приборов, мебели), изменяющих необходимые им качества, свойства в процессе производственного и бытового применения;

с) гарантийный срок годности товаров, потребительские свойства которых уменьшаются, снижаются во времени.

Tovarni tayyorlovchi yoki uni sotuvchi tovarning shartnoma talablariga, sifat ko'rsatkichlariga, passport ma'lumotlariga muvofiq kelishini kafolatlaydigan vaqt davri. Quyidagi kafolat muddatlari farqlanadi:

а) saqlash jarayonida zarur sifatini yo'qotishga moyil bo'lgan tovarlar, mahsulotni saqlashning kafolat muddati;

б) ishlab chiqarish va maishiy qo'llanish jarayonida zarur sifatini, xossalarni o'zgartiradigan mahsulotlar, tovarlar (mashinalar, uskunalar, priborlar, mebellar)dan foydalanishning kafolat muddati;

с) iste'mol xususiyatlari vaqtda kamayadigan, pasayadigan tovarlar yaroqliligining kafolat muddati.

Товарни тайёрловчи ёки уни сотувчи товарнинг шартнома талабларига, сифат кўрсаткичларига, паспорт маълумотларига мувофиқ келишини кафолатлайдиган вақт даври. Қуйидаги кафолат

Г

муддатлари фарқланади:

а) сақлаш жараёнида зарур сифатини йўқотишга мойил бўлган товарлар, маҳсулотни сақлашнинг кафолат муддати;

б) ишлаб чиқариш ва маиший қўлланиш жараёнида зарур сифатини, хоссаларини ўзгартирадиган маҳсулотлар, товарлар (машиналар, ускуналар, приборлар, мебеллар)дан фойдаланишнинг кафолат муддати;

с) истеъмол хусусиятлари вақтда камаядиган, пасаядиган товарлар яроқлилигининг кафолат муддати.

Гербовая бумага

uz - gerbli qog‘oz

гербли қоғоз

en - stamped paper

Специальная бумага особого качества, предназначенная для написания на ней актов, документов, договоров, векселей в целях лучшей сохранности и предотвращения подделок. Представляет один из видов гербовых знаков.

Yaxshi saqlanishlik va qalbakilashtirishning oldini olish maqsadida, aktlar, hujjatlar, shartnomalar, veksellar yozish uchun mo‘ljallangan, alohida sifatdagi maxsus qog‘oz. Gerbli belgi turlaridan biri.

Яхши сақланишлик ва қалбакилаштиришнинг олдини олиш мақсадида, актлар, хужжатлар, шартномалар, векселлар ёзиш учун мўлжалланган, алоҳида сифатдаги махсус қоғоз. Гербли белги турларидан бири.

Гербовый сбор

uz - davlat yig‘imi

давлат йиғими

en - stamp duty

Денежные средства, взимаемые государством на оформление документов, сделок, регистрационных актов.

Davlat tomonidan, hujjatlar, bitimlar, ro‘yxatga olinadigan aktlarni rasmiylashtirish uchun olinadigan pul mablag‘lari.

Давлат томонидан, хужжатлар, битимлар, рўйхатга олинadиган актларни расмийлаштириш учун олинadиган пул маблағлари.

Г

Гибкость в экономике

uz - iqtisodiyotga moslashuvchanlik

иктисодиётда мослашувчанлик

en - flexibility in economy

Мобильность, приспособляемость организаций и лиц, занимающихся экономической деятельностью, к перемене условий; умение, способность быстро изменить способ действий экономического субъекта.

Iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan tashkilotlar va shaxslarning, sharoitlarning o'zgarishiga moslashuvchanligi, harakatchanligi; iqtisodiy subyekt harakatlanish (ish) usulini tez o'zgartira olish qobiliyati, mahorati.

Иқтисодий фаолият билан шуғулланадиган ташкilotлар ва шахсларнинг, шарoитларнинг ўзгаришига мослашувчанлиги, ҳаракатчанлиги; иқтисодий субъект ҳаракатланиш (иш) усулини тез ўзгартира олиш қобилияти, маҳорати.

Гиперинфляция

uz - giperinflyatsiya
гиперинфляция

en - hyperinflation

Резкое, крутое обесценение денег, быстрое снижение их покупательной способности, проявляющееся в значительном росте цен.

Pullarning keskin ravishda qadsizlanishi, ular xarid qobiliyatining tez pasayishi, narxlarning sezilarli oshib ketishida namoyon bo'ladi.

Пулларнинг кескин равишда қадрсизланиши, улар харид қобилиятининг тез пасайиши, нархларнинг сезиларли ошиб кетишида намоён бўлади.

Глобализация

uz - globallashuv
глобаллашув

en - globalization

Усиление взаимосвязей, взаимодействия, взаимозависимости хозяйственных систем разных стран, интернационализация экономики, установление идентичных правил ведения экономической деятельности.

Turli mamlakatlar xo'jalik tizimlarining o'zaro aloqalari, o'zaro hamkorligi, bir-biriga bog'liqligining kuchayishi, iqtisodiyotning baynalminallashuvi, iqtisodiy faoliyat yuritishning teng qoidalarini o'rnatish.

Турли мамлакатлар хўжалик тизимларининг ўзаро алоқалари, ўзаро ҳамкорлиги, бир-бирига боғлиқлигининг кучайиши, иқтисодиётнинг байналминаллашуви, иқтисодий фаолият юритишнинг тенг қоидаларини ўрнатиш.

Г

Глубина рынка

uz - bozor darajasi

бозор даражаси

en - depth of market

Мера, в которой данный рынок способен расширять куплю и продажу товаров без значительного изменения цен на них.

Ma'lum bir bozor, narxlarni jiddiy o'zgartirmasdan, tovarning sotilishini va sotib olinishini kengaytirish o'lishining o'lchovi.

Маълум бир бозор, нархларни жиддий ўзгартирмасдан, товарнинг сотилишини ва сотиб олинишини кенгайтира олишининг ўлчови.

Годовой отчет

uz - yillik hisobot

йиллик ҳисобот

en - annual account

Финансовый отчет предприятия или отчет о ее хозяйственной деятельности за год.

Korxonaning moliyaviy hisoboti yoki uning bir yil ichidagi xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hisobot.

Корxonанинг молиявий ҳисоботи ёки унинг бир йил ичидаги хўжалик фаолияти тўғрисидаги ҳисобот.

Государственная регистрация

uz - Davlat ro'yxatiga kiritish

Давлат рўйхатига

кiritиш

en - State registration

Занесение в государственный регистр (официальный список) вновь созданных или преобразованных организаций, выдача им регистрационных удостоверений. Такая регистрация проводится с целью проверки законности создания организаций, их учета и придания юридической силы деятельности таких организаций. Регистрация организаций в государственных финансовых органах ставит своей задачей их учет как новых потенциальных налогоплательщиков.

Yangi tashkil qilingan yoki qayta o'zgartirilgan tashkilotlarning Davlat registriga (rasmiy ro'yxatiga) kiritilishi, ularga ro'yxatga olinganlik guvohnomalarining berilishi. Bunday ro'yxatga olish, tashkilotlar tashkil qilinganligining qonuniyligini tekshirish, ularni hisobga olish va faoliyatiga yuridik kuch berish maqsadida o'tkaziladi. Tashkilotlarni davlatning moliya idoralarida ro'yxatga olish, ularni potensial soliq to'lovchilar sifatida hisobga olishni vazifa qilib qo'yadi.

Янги ташкил қилинган ёки қайта ўзгартирилган ташкилотларнинг Давлат регистрга (расмий

Г

рўйхатига) киритилиши, уларга рўйхатга олинганлик гувоҳномаларининг берилиши. Бундай рўйхатга олиш, ташкилотлар ташкил қилинганлигининг қонунийлигини текшириш, уларни ҳисобга олиш ва фаолиятига юридик куч бериш мақсадида ўтказилади. Ташкилотларни давлатнинг молия идораларида рўйхатга олиш, уларни потенциал солиқ тўловчилар сифатида ҳисобга олишни вазифа қилиб кўяди.

Государственная собственность

uz - davlat mulki

давлат мулки

en - state ownership

Форма собственности, которой от лица государства распоряжаются органы государственной власти. Объектами государственной собственности могут быть земля, природные ресурсы, основные средства, предприятия, здания, материальные ресурсы, финансы, драгоценности, информация, культурные и духовные ценности.

Davlat hokimiyat organlari davlat nomidan tasarruf etadigan mulk shakli. Yer, tabiiy resurslar, asosiy vositalar, korxonalar, binolar, moddiy resurslar, moliya, qimmatli narsalar, axborot, madaniy va ma'naviy boyliklar davlat mulki obyektlari bo'lishi mumkin.

Давлат ҳокимият органлари давлат номидан тасарруф этадиган мулк шакли. Ер, табиий ресурслар, асосий воситалар, корхоналар, бинолар, моддий ресурслар, молия, қимматли нарсалар, ахборот, маданий ва маънавий бойликлар давлат мулки объектлари бўлиши мумкин.

Государственная казна

uz - davlat xazinası

давлат хазинаси

en - public purse

Финансовые ресурсы государства.

Davlatning moliyaviy resurslari.

Давлатнинг молиявий ресурслари.

Государственная ценная бумага

uz - davlat qimmatli qog'ozı

давлат қимматли қоғози

en - government securities

Ценная бумага в виде облигации, казначейского векселя, сберегательного сертификата, выпускаемая правительством страны или местными органами государственной власти с целью привлечения денежных средств в государственную казну.

Pul mablag'larini davlat xazinasiga jalb qilish maqsadida, mamlakat hukumati yoki mahalliy davlat

Г

hokimiyat organlari tomonidan chiqariladigan, obligatsiya, xazina vekseli, omonat sertifikatini ko'rinishidagi qimmatli qog'oz.

Пул маблағларини давлат хазинасига жалб қилиш мақсадида, мамлакат ҳукумати ёки маҳаллий давлат ҳокимият органлари томонидан чиқариладиган, облигация, хазина вексели, омонат сертификати кўринишидаги қимматли қоғоз.

Государственная экономическая политика

uz - davlatning iqtisodiy
siyosati

давлатнинг иқтисодий
сиёсати

en - state economic policy

Генеральная линия действий и совокупность мер, проводимых правительством от лица государства в области производства, распределения, обмена, потребления, накопления, экспорта, импорта экономического продукта в стране.

Hukumat tomonidan, davlat nomidan iqtisodiy mahsulot ishlab chiqarish, uni taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol qilish, to'plash, eksport, import qilish sohasida olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisi va bosh harakat yo'li.

Ҳукумат томонидан, давлат номидан иқтисодий маҳсулот ишлаб чиқариш, уни тақсимлаш, айирбошлаш, истеъмол қилиш, тўплаш, экспорт, импорт қилиш соҳасида олиб бориладиган чора-тадбирлар йиғиндиси ва бош ҳаракат йўли.

Государственное предприятие

uz - davlat korxonasi

давлат корхонаси
en - public enterprise

Предприятие, основные средства которого находятся в государственной собственности, а руководители назначаются или нанимаются по контракту государственными органами.

Asosiy vositalari (mablag'lari) davlat tasarrufida bo'lgan, rahbarlari esa, kontrakt bo'yicha davlat organlari tomonidan tayinlanadigan yoki yollanadigan korxonalar.

Асосий воситалари (мблағлари) давлат тасарруфида бўлган, раҳбарлари эса, контракт бўйича давлат органлари томонидан тайинланадиган ёки ёлланадиган корхона.

Г

Государственное регулирование экономики

uz - iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi, tartibga solinishi

иктисодиётнинг давлат томонидан бошқарилиши, тартибга солиниши

en - government management of the economy

Воздействие государства в лице государственных органов на экономические объекты и процессы и участвующих в них лиц; осуществляется, чтобы придать процессам организованный характер, упорядочить действия экономических субъектов, обеспечить соблюдение законов, отстаивать государственные и общественные интересы. Государственное регулирование в широком смысле слова включает прогнозирование, планирование, финансирование, налогообложение, кредитование, администрирование, учет, контроль.

Davlatning, davlat organlari timsolida iqtisodiy obyektlar va jarayonlarga, ularda ishtirok etadigan shaxslarga ko'rsatadigan ta'siri; jarayonlarga tashkiliy xarakter berish, iqtisodiy subyektlar ishini tartibga solish, qonunlarga rioya qilinishini ta'minlash, davlat va jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Keng ma'noda, davlat tomonidan boshqarish, prognozlashni, rejalashtirish, moliyalashtirish, soliqqa tortish, kreditlash, ma'muriy boshqarish, hisobga olish, tekshirishni ichiga oladi.

Давлатнинг, давлат органлари тимсолида иқтисодий объектлар ва жараёнларга, уларда иштирок этадиган шахсларга кўрсатадиган таъсири; жараёнларга ташкилий характер бериш, иқтисодий субъектлар ишини тартибга солиш, қонунларга rioya қилинишини таъминлаш, давлат ва жамоат манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида амалга оширилади. Кенг маънода, давлат томонидан бошқариш, прогнозлашни, режалаштириш, молиялаштириш, солиққа тортиш, кредитлаш, маъмурий бошқариш, ҳисобга олиш, текширишни ичига олади.

Государственные закупки

uz - davlat xaridlari

давлат харидлари

en - state procurements

Часть произведенных в стране или за рубежом товаров и услуг,купаемых правительством, государственными органами за счет средств государственного бюджета для нужд собственного потребления (закупки оборудования, сооружений) и в целях обеспечения потребления населением и резервирования.

Г

Hukumat, davlat organlari tomonidan davlat byudjeti mablagʻlari hisobiga, oʻzining ehtiyoji (uskunalar, inshootlar xarid qilish) uchun hamda aholi isteʼmolini taʼminlash va rezervlash maqsadida, xarid qilinadigan, mamlakatda yoki xorijda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bir qismi.

Хукумат, давлат органлари томонидан давлат бюджети маблағлари ҳисобига, ўзининг эҳтиёжи (ускуналар, иншоотлар харид қилиш) учун ҳамда аҳоли истеъмолини таъминлаш ва резервлаш мақсадида, харид қилинадиган, мамлакатда ёки хорижда ишлаб чиқарилган товарлар ва хизматларнинг бир қисми.

Государственные облигации

uz - davlat obligatsiyalari

давлат облигациялари

en - government bonds

Государственная ценная бумага для осуществления государственных займов и привлечения временно свободных денежных средств населения, юридических и физических лиц в бюджет государства.

Davlat zayomlarini amalga oshirish, aholi, yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha boʻsh pul mablagʻlarini davlat byudjetiga jalb qilish maqsadida chiqariladigan, davlat qimmatli qogʻozlari.

Давлат заёмларини амалга ошириш, аҳоли, юридик ва жисмоний шахсларнинг вақтинча бўш пул маблағларини давлат бюджетига жалб қилиш мақсадида чиқариладиган, давлат қимматли қоғозлари.

Государственные пошлины

uz - davlat bojlari

давлат божлари

en - government fees

Денежные суммы, взимаемые специальными (суд, милиция, хозяйственный суд, нотариальная контора, страховое агентство) уполномоченными государственными органами, учреждениями за совершение процедур, действий в интересах предприятий, организаций, граждан и за выдачу документов.

Vakolatli maxsus davlat organlari (sud, militsiya, Xoʻjalik sudlari, notarial idoralar, sugʻurta agentliklari) tomonidan, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarning manfaatlari yoʻlida protseduralar, harakatlar amalga oshirilganligi va hujjatlar berilganligi uchun olinadigan pul yigʻimlari.

Г

Ваколатли махсус давлат органлари (суд, милиция, Хўжалик судлари, нотариал идоралар, сугурта агентликлари) томонидан, корхоналар, ташкилотлар, фуқароларнинг манфаатлари йўлида процедуралар, ҳаракатлар амалга оширилганлиги ва ҳужжатлар берилганлиги учун олинадиган пул йиғимлари.

Государственный банк

uz - davlat banki

давлат банки

en - state bank

Банк, находящийся в собственности государства и управляемый государственными органами. К числу таких банков относится, прежде всего, Центральный банк страны. Однако государственными могут быть и коммерческие банки, а также другие специальные кредитные учреждения.

Davlat tasarrufida bo‘lgan va davlat organlari tomonidan boshqariladigan bank. Bunday banklar qatoriga birinchi navbatda, mamlakat Markaziy banki kiradi. Biroq, tijorat banklari, shuningdek, maxsus kredit muassasalari ham davlat banklari bo‘lishi mumkin.

Давлат тасарруфида бўлган ва давлат органлари томонидан бошқариладиган банк. Бундай банклар қаторига биринчи навбатда, мамлакат Марказий банки киради. Бироқ, тижорат банклари, шунингдек, махсус кредит муассасалари ҳам давлат банклари бўлиши мумкин.

Государственный бюджет

uz - davlat byudjeti

давлат бюджети

en - state budget

Смета доходов и расходов государства на определенный период, чаще всего на год, составленная с указанием источников поступления государственных доходов и направлений расходования средств. Государственный бюджет составляется правительством и принимается высшими законодательными органами.

Muayyan davrga, ko‘pincha bir yilga, davlat daromadlarining kelib tushish manbalari va mablag‘larni sarflash yo‘nalishlari ko‘rsatilgan holda tuzilgan davlat xarajatlari va daromadlari smetasi. Davlat byudjeti hukumat tomonidan tuziladi va oliy qonunchilik organlari tomonidan qabul qilinadi.

Муайян даврга, кўпинча бир йилга, давлат даро-

Г

мадларининг келиб тушиш манбалари ва маблағларни сарфлаш йўналишлари кўрсатилган ҳолда тузилган давлат харажатлари ва даромадлари сметаси. Давлат бюджети ҳукумат томонидан тузилади ва олий қонунчилик органлари томонидан қабул қилинади.

Государственный долг

uz - davlat qarzi

давлат қарзи

en - public debt

Сумма задолженности государства внутренним кредиторам (внутренний долг) и внешним кредиторам (внешний долг).

Davlatning ichki kreditorlar oldidagi qarzi (ichki qarz) hamda tashqi kreditorlar oldidagi qarzi (tashqi qarz) yig'indisi.

Давлатнинг ички кредиторлар олдидаги қарзи (ички қарз) ҳамда ташқи кредиторлар олдидаги қарзи (ташқи қарз) йиғиндиси.

Государственный заказ

uz - davlat buyurtmasi

давлат буюртмаси

en - government order

Выдаваемый государственными органами и оплачиваемый из средств государственного бюджета заказ на изготовление продукции, выпуск товаров, проведение работ, в которых заинтересовано государство и выполняется не только государственными, но и другими предприятиями.

Mahsulot tayyorlash, tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni olib borish yuzasidan, davlat organlari tomonidan beriladigan va davlat byudjeti mablag'laridan haqi to'lanadigan, davlat manfaatdor bo'lgan va nafaqat davlat korxonalari, balki boshqa korxonalar tomonidan ham bajariladigan buyurtma.

Маҳсулот тайёрлаш, товарлар ишлаб чиқариш, ишларни олиб бориш юзасидан, давлат органлари томонидан бериладиган ва давлат бюджети маблағларидан ҳақи тўланадиган, давлат манфаатдор бўлган ва нафақат давлат корхоналари, балки бошқа корхоналар томонидан ҳам бажариладиган буюртма.

Государственный сектор экономики

uz - iqtisodiyotning davlat sektori

иқтисодиётнинг давлат сектори

сектори

Совокупность предприятий, организаций, учреждений, находящихся в государственной собственности и управляемых государственными органами или назначаемыми, нанимаемыми ими лицами.

Г

en - public sector of economy

Davlat tasarrufida bo‘lgan va davlat organlari tomonidan yoki ular tomonidan tayinlanadigan, yollanadigan shaxslar tomonidan boshqariladigan jami korxonalar, tashkilotlar, muassasalar.

Давлат тасарруфида бўлган ва давлат органлари томонидан ёки улар томонидан тайинланадиган, ёлланадиган шахслар томонидан бошқариладиган жами корхоналар, ташкилотлар, муассасалар.

Государство в качестве экономического субъекта
uz - davlat iqtisodiy subyekt sifatida

давлат иқтисодий субъект сифатида
en - state as economic entity

1. Совокупность органов и лиц, сосредоточивших в своих руках экономическую власть, принимающих экономические решения в государственном масштабе, распоряжающихся государственной собственностью.

2. Все виды экономических ресурсов, факторов производства, денежных средств, находящихся в государственной собственности, в распоряжении и ведении государственных органов власти (государственная экономика).

1. Davlat mulkini tasarruf etadigan, davlat miqyosida iqtisodiy qarorlar qabul qiladigan, o‘z qo‘lida iqtisodiy hokimiyatni to‘plagan organlar va shaxslar jami.

2. Davlat tasarrufida, davlat hokimiyat organlarining ixtiyorida va boshqaruvida bo‘lgan iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish omillari, pul mablag‘larining barcha turlari (davlat iqtisodiyoti).

1. Давлат мулкини тасарруф этадиган, давлат миқёсида иқтисодий қарорлар қабул қиладиган, ўз қўлида иқтисодий ҳокимиятни тўплаган органлар ва шахслар жами.

2. Давлат тасарруфида, давлат ҳокимият органларининг ихтиёрида ва бошқарувида бўлган иқтисодий ресурслар, ишлаб чиқариш омиллари, пул маблағларининг барча турлари (давлат иқтисодиёти).

Гражданский кодекс
uz - fuqorolik kodeksi
фуқаролик кодекси
en - civil code

Свод, совокупность законодательных положений, регулирующих отношения собственности, договорные обязательства, имущественные и неимущественные отношения, предпринима-

Г

тельную деятельность, в которых участвуют граждане и юридические лица.

Fuqarolar va yuridik shaxslar ishtirok etadigan mulkdorlik munosabatlarini, shartnoma majburiyatlarini, mulkiy va nomulkiy munosabatlarni, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan qonunlar to'plami.

Фуқаролар ва юридик шахслар иштирок этадиган мулкдорлик муносабатларини, шартнома мажбуриятларини, мулкий ва номулкий муносабатларни, тадбиркорлик фаолиятини тартибга соладиган қонунлар тўплами.

Граница производственных возможностей

uz - ishlab chiqarish

imkoniyatlarining chegarasi

ишлаб чиқариш

имкониятларининг чегараси

en - production possibility

frontier

График в виде кривой, ограничивающей область производственных возможностей экономического субъекта, который отражает сочетание благ, товаров, которые могут быть произведены, с использованием имеющихся в наличии факторов производства.

Iqtisodiy subyektning ishlab chiqarish imkoniyatlari doirasini cheklaydigan, mavjud ishlab chiqarish omillaridan foydalanib ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan tovarlar, ne'matlar birikmasini aks ettiradigan, egri chiziq ko'rinishidagi grafik.

Иқтисодий субъектнинг ишлаб чиқариш имкониятлари доирасини чеклайдиган, мавжуд ишлаб чиқариш омилларидан фойдаланиб ишлаб чиқарилиши мумкин бўлган товарлар, неъматлар бирикмасини акс эттирадиган, эгри чизик кўринишидаги график.

Грант

uz - grant

грант

en - grant

1. Оплачиваемый, субсидируемый государственный заказ на выполнение научных исследований и разработок.

2. Денежные средства, выделяемые в порядке благотворительности для финансовой поддержки научных исследований, ученых, авторов произведений литературы и искусства.

1. Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni bajarish yuzasidan haqi to'lanadigan, subsidiya beriladigan davlat buyurtmasi.

2. Ilmiy tadqiqotlarni, olimlar, adabiyot va san'at

Г

asarlari mualliflarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida, xayrsaxovat tartibida ajratiladigan pul mablag'lari.

1. Илмий тадқиқотлар ва ишланмаларни бажариш юзасидан ҳақи тўланадиган, субсидия бериладиган давлат буюртмаси.

2. Илмий тадқиқотларни, олимлар, адабиёт ва санъат асарлари муаллифларини молиявий қўллаб-қувватлаш мақсадида, хайрсaxovat тартибидан ажратиладиган пул маблағлари.

Грузооборот

uz - yuk aylanmasi

юк айланмаси

en - freight turnover

Экономический показатель работы грузового транспорта, равный произведению веса перевозимого за определенное время груза на расстояние перевозки.

Yuk transporti ishlashining iqtisodiy ko'rsatkichi, muayyan vaqt ichida tashiladigan yuk og'irligining, tashish masofasiga bo'lgan ko'paytmaga teng.

Юк транспорти ишлашининг иқтисодий кўрсаткичи, муайян вақт ичида ташиладиган юк оғирлигининг, ташиш масофасига бўлган кўпайтмасига тенг.

Д

Давальческий продукт

uz - buyurtma mahsuloti

буюртма маҳсулоти

en - give-and-take product

Исходный, сырьевой продукт, передаваемый заказчиком продукции ее изготовителю с целью переработки в готовую продукцию, заказанную и оплачиваемую заказчиком. Синоним – давальческое сырье.

Buyurtmachi tomonidan buyurtma qilingan va haqi to'langan tayyor mahsulotga qayta ishlash maqsadida, mahsulot buyurtmachisi tomonidan mahsulotni tayyorlovchiga beriladigan boshlang'ich, xomashyo mahsulot. Sinonimi – buyurtma xomashyosi.

Буюртмачи томонидан буюртма қилинган ва ҳақи тўланган тайёр маҳсулотга қайта ишлаш мақсадида, маҳсулот буюртмачиси томонидан маҳсулотни тайёрловчига бериладиган бошланғич, хомашё маҳсулот. Синоними – буюртма хомашёси.

Д

Движимость, движимое имущество

uz - ko'chirib bo'ladigan mol-mulk

кўчириб бўладиган

мол-мулк

en - movable estate

Имущественные ценности, не связанные непосредственным образом с землей и не прикрепленные к ней (в противоположность недвижимости). Это перемещаемые вещи, деньги, ценные бумаги.

Yer bilan bevosita bog'liq bo'lmagan va unga biriktirilmagan (ko'chmas mulkdan farqli ravishda) mulkiy boyliklar. Bu ko'chadigan buyumlar, pullar, qimmatli qog'ozlardir.

Ер билан бевосита боғлиқ бўлмаган ва унга бириктирилмаган (кўчмас мулкдан фарқли равишда) мулкий бойликлар. Бу кўчадиган буюмлар, пуллар, қимматли қоғозлардир.

Двойное налогообложение

uz - ikki marta soliq solish

икки марта солиқ солиш

en - double taxation

1. Обложение дважды одного и того же вида дохода, одной и той же его суммы разными налогами.

2. Обложение одного и того же дохода идентичным налогом в разных странах. Для защиты от двойного налогообложения заключаются межправительственные соглашения, вводятся нормативные акты, законы.

1. Aynan bir daromad turidan, uning aynan bir summasidan ikki marta soliq olish.

2. Aynan bir daromaddan turli mamlakatlarda o'xshash soliq solish. Ikki marta soliq olishdan himoyalash maqsadida hukumatlararo bitimlar tuziladi, normativ hujjatlar, qonunlar joriy qilinadi.

1. Айнан бир даромад туридан, унинг айнан бир суммасидан икки марта солиқ олиш.

2. Айнан бир даромаддан турли мамлакатларда ўхшаш солиқ солиш. Икки марта солиқ олишдан ҳимоялаш мақсадида ҳукуматлараро битимлар тузилади, норматив ҳужжатлар, қонунлар жорий қилинади.

Дебет

uz - debet, kirim

дебет, кирим

en - debit

Одна из сторон (левая) бухгалтерского счета. В активных счетах в дебете отражается увеличение учитываемых сумм, а в пассивных счетах – уменьшение.

Buxgalteriya hisobvarag'i tomonlaridan biri (chap tomoni). Aktiv hisobvaraqlarda debetda hisobga

Д

olinadigan summaning oshishi, passiv hisobvaraqlarda esa, kamayishi aks ettiriladi.

Бухгалтерия ҳисобварағи томонларидан бири (чап томони). Актив ҳисобварақларда дебетда ҳисобга олинадиган сумманинг ошиши, passiv ҳисобварақларда эса, камайиши акс этирилади.

Дебитор

uz - debitor

дебитор

en - debtor

Физическое или юридическое лицо, экономический субъект, имеющий денежную или имущественную задолженность.

Pulli yoki mulkiy qarzdorligi bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs, iqtisodiy subyekt.

Пулли ёки мулкий қарздорлиги бўлган жисмоний ёки юридик шахс, иқтисодий субъект.

Дебиторская задолженность

uz - debitorlardan

undiriladigan qarz

дебиторлардан

ундириладиган қарз

en - bills receivable

Сумма долгов, причитающихся предприятию со стороны других предприятий, а также граждан, являющихся его должниками (дебиторами).

Korxonaga boshqa korxonalar tomonidan, shuningdek, korxonada oldida qarzdor (debitor) bo'lgan fuqarolar tomonidan berilishi lozim bo'lgan qarzlarning summasi.

Корхонага бошқа корхоналар томонидан, шунингдек, корхона олдида қарздор (дебитор) бўлган фуқаролар томонидан берилиши лозим бўлган қарзлар суммаси.

Девальвация

uz - devalvatsiya

девальвация

en - loss of value

Снижение курса национальной валюты страны по отношению к твердым валютам, международным расчетным единицам, уменьшение реального золотого содержания денежной единицы.

Mamlakat milliy valyutasi kursining qat'iy valyutalarga, xalqaro hisob-kitob birliklariga nisbatan pasayishi, pul birligi real oltin qiymatining kamayishi.

Мамлакат миллий валютаси курсининг қатъий валюталарга, халқаро ҳисоб-китоб бирликларига нисбатан пасайиши, пул бирлиги реал олтин қийматининг камайиши.

Д

Декларация

uz - deklaratsiya

декларация

en - declaration

Предусмотренное законом объявление, уведомление, сообщение гражданином государственным органам требуемых ими данных о доходах, имуществе или количестве провозимого товара через границу, необходимые для установления величины налогов, пошлин. Налоговые декларации содержат сведения о налогооблагаемых доходах, таможенные декларации – о провозимых через границу товарах, имущественные декларации – об имуществе, облагаемом налогом.

Qonun bilan koʻzda tutilgan, soliqlar, bojlar miqdorini belgilash uchun zarur boʻlgan, fuqaro tomonidan davlat idoralariga, ular talab qiladigan daromadlar, mol-mulk yoki chegara orqali olib oʻtiladigan tovar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning etkazilishi, xabar berilishi, eʼlon qilinishi. Soliq deklaratsiyasi soliqqa tortiladigan daromadlar toʻgʻrisidagi, bojxona deklaratsiyasi chegara orqali olib oʻtiladigan tovarlar, mol-mulk deklaratsiyasi soliqqa tortiladigan mol-mulk toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni ichiga oladi.

Қонун билан кўзда тутилган, солиқлар, божлар миқдорини белгилаш учун зарур бўлган, фуқаро томонидан давлат идораларига, улар талаб қиладиган даромадлар, мол-мулк ёки чегара орқали олиб ўтиладиган товар тўғрисидаги маълумотларнинг этказилиши, хабар берилиши, эълон қилиниши. Солиқ декларацияси солиққа тортиладиган даромадлар тўғрисидаги, божхона декларацияси чегара орқали олиб ўтиладиган товарлар, мол-мулк декларацияси солиққа тортиладиган мол-мулк тўғрисидаги маълумотларни ичига олади.

Дело

uz - ish

иш

en - work

Действия людей, занятых предпринимательством, бизнесом, виды предпринимательской деятельности (торговое дело, банковское дело).

Tadbirkorlik, biznes bilan band boʻlgan odamlarning harakati, tadbirkorlik faoliyati turlari (savdo ishi, bank ishi).

Тадбиркорлик, бизнес билан банд бўлган одамларнинг ҳаракати, тадбиркорлик фаолияти турлари (савдо иши, банк иши).

Д

Деловая игра

uz - amaliy o'yin

амалий ўйин

en - business game

Имитация, моделирование, упрощенное воспроизведение реальной экономической ситуации в игровой форме. Деловые игры применяются в качестве метода и средства практического обучения экономике, бизнесу, являются средством познания норм экономического поведения, освоения процессов принятия экономических решений.

Real iqtisodiy vaziyatni o'yin shaklida yuzaki aks ettirish, modellash, imitatsiya qilish. Amaliy o'yinlar iqtisodiyotga, biznesga amaliy o'rgatishning usuli hamda vositalari sifatida qo'llaniladi, iqtisodiy hulq-atvor normalarini bilish, iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonlarini o'zlashtirish yo'li hisoblanadi.

Реал иқтисодий вазиятни ўйин шаклида юзаки акс эттириш, моделлаш, имитация қилиш. Амалий ўйинлар иқтисодиётга, бизнесга амалий ўргатишнинг усули ҳамда воситалари сифатида қўлланилади, иқтисодий ҳулқ-атвор нормаларини билиш, иқтисодий қарорлар қабул қилиш жараёнларини ўзлаштириш йўли ҳисобланади.

Деловая репутация

uz - ishchanlik bilan bog'liq

obro', e'tibor

ишчанлик билан боғлиқ

обрў, эътибор

en - business standing

Оценка предприятия, предпринимателя со стороны ее смежников, контрагентов, потребителей; представление партнеров о фирме, благоприятствующее ее деятельности и учитываемое в условиях хозяйствования; «доброе имя» предприятия.

Korxonona, tadbirkorning hamkorlar, kontragentlar, iste'molchilar tomonidan baholanishi; sheriklarning firma to'g'risidagi, uning faoliyatida qulaylik tug'diradigan va xo'jalik yuritish sharoitlarida hisobga olinadigan tasavvuri; korxonaning «yaxshi nomi».

Корхона, тадбиркорнинг ҳамкорлар, контрагентлар, истеъмолчилар томонидан баҳоланиши; шерикларнинг фирма тўғрисидаги, унинг фаолиятида қулайлик туғдирадиган ва хўжалик юритиш шароитларида ҳисобга олинадиган тасаввури; корхонанинг «яхши номи».

Д

Деловитость

uz - ishning ko‘zini bilish

ишнинг кўзини билиш

en - businesslike character

Деловая активность, умение вести дело, предприимчивость в работе, толковость. Деловитость – очень важное качество людей, свидетельствующее об их способностях к энергичным действиям, исполнительности, умении вникнуть и разобраться в новом деле, доводить дело до конечного результата.

Amaliy faollik, ishni yuritish qobiliyati, ishda uddaburonlik, bama’nilik. Ishning ko‘zini bilish – odamlarning juda muhim fazilati bo‘lib, ularning qat’iy harakatlar qilishini, tirishqoqligini, yangi ishni tezda fahmlay olishini, ishni oxirigacha yetkazishini ko‘rsatadi.

Амалий фаоллик, ишни юритиш қобилияти, ишда уддабуронлик, бамаънилик. Ишнинг кўзини билиш – одамларнинг жуда муҳим фазилати бўлиб, уларнинг қатъий ҳаракатлар қилишини, тиришқоқлигини, янги ишни тезда фахмлай олишини, ишни охиригача етказишини кўрсатади.

Делопроизводство

uz - ish yuritish

иш юритиш

en - paperwork

Ведение документации организации, предприятия, фирмы; прием, заполнение, оформление, отправка документов, учет и контроль за их движением и исполнением, обновление документов.

Tashkilotlar, korxonalar, firma hujjatlarini yuritish; hujjatlarni qabul qilish, to‘ldirish, rasmiylashtirish, jo‘natish, ularni hisobga olish, harakati va bajarilishini nazorat qilish, yangilash.

Ташкилотлар, корхона, фирма ҳужжатларини юритиш; ҳужжатларни қабул қилиш, тўлдириш, расмийлаштириш, жўнатиш, уларни ҳисобга олиш, ҳаракати ва бажарилишини назорат қилиш, янгилаш.

Демонетизация

uz - demonetizatsiya

демонетизация

en - demonetization

Утрата благородными металлами, прежде всего золотом и серебром, денежных функций, сокращение их использования в качестве денежных средств в связи с распространением кредитных денег: банковских билетов (банкнот), безналичных денег, чеков.

Д

Asl metallarning, birinchi navbatda oltin va kumushning pul funksiyasini yoʻqotishi, kredit pullar: bank biletlari (banknotlar), naqd boʻlmagan pullar, cheklar tarqalishi munosabati bilan, ulardan pul mablagʻlari sifatida foydalanilishining qisqarishi.

Асл металларнинг, биринчи навбатда олтин ва кумушнинг пул функциясини йўқотиши, кредит пуллар: банк билетлари (банкнотлар), нақд бўлмаган пуллар, чеклар тарқалиши муносабати билан, улардан пул маблағлари сифатида фойдаланилишининг қисқариши.

Демополизация

uz - monopoliyadan chiqarish
монополиядан чиқариш

en - demonopolization

Проводимая государством и его органами политика, направленная на сдерживание монополизма и развитие конкуренции.

Davlat va uning organlari tomonidan, monopolizmni toʻxtatib turishga va raqobatni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan siyosat.

Давлат ва унинг органлари томонидан, монополизмни тўхтатиб туришга ва рақобатни ривожлантиришга йўналтирилган сиёсат.

Демпинг

uz - demping
демпинг

en - dumping

Продажа товаров на внешнем и внутреннем рынках по искусственно заниженным ценам, иногда более низким, чем себестоимость. Демпинг проводится с целью проникновения на рынок, завоевания места на нем, вытеснения конкурентов. Демпинг осуществляется в расчете на возмещение текущих убытков в будущем, когда будет достигнуто прочное положение на рынке.

Tovarlarni ichki va tashqi bozorda sunʼiy ravishda pasaytirilgan, baʼzan tannarxdan ham past boʻlgan narxlar boʻyicha sotish. Demping bozorga suqulib kirish, unda joy egallash, raqobatchilarni siqib chiqarish maqsadida olib boriladi. Demping joriy zararlar kelajakda, bozorda mustahkam oʻrin egallanganidan soʻng qoplanishi nazarda tutilgan holda amalga oshiriladi.

Товарларни ички ва ташқи бозорда сунъий равишда пасайтирилган, баъзан таннархдан ҳам паст бўлган нархлар бўйича сотиш. Демпинг

Д

бозорга сукулиб кириш, унда жой эгаллаш, рақобатчиларни сиқиб чиқариш мақсадида олиб борилади. Демпинг жорий зарарлар келажакда, бозорда мустаҳкам ўрин эгаллангандан сўнг қопланиши назарда тутилган ҳолда амалга оширилади.

Денационализация

uz - denatsionalizatsiya

денационализация

en - reprivatization

Передача объектов государственной собственности в частную (в противовес национализации), проводимая чаще всего в связи с низкой эффективностью использования ресурсов государственными предприятиями.

Davlat tasarrufidagi obyektlarni xususiy mulk qilib berilishi (natsionalizatsiyadan farqli ravishda), ko‘pincha, davlat korxonalari tomonidan resurslardan past samaradorlik bilan foydalanilishi sababli o‘tkaziladi.

Давлат тасарруфидаги объектларни хусусий мулк қилиб берилиши (национализациядан фарқли равишда), кўпинча, давлат корхоналари томонидан ресурслардан паст самарадорлик билан фойдаланилиши сабабли ўтказилади.

Денежная единица страны

uz - mamlakat pul birligi

мамлакат пул бирлиги

en - money of account

Законодательно установленный в стране денежный знак, представляющий единицу денежного измерения, счета. В денежных единицах страны измеряются суммы денежных выплат, платежей, расходов, доходов, накоплений.

Mamlakatda qonun hujjatlari bilan belgilangan, pul o‘lchovi, hisobi birligini ifodalaydigan pul belgisi. Mamlakat pul birliklarida pul to‘lovlari, to‘lovlar, xarajatlar, daromadlar, jamg‘armalar summasi o‘lchanadi.

Мамлакатда қонун ҳужжатлари билан белгиланган, пул ўлчови, ҳисоби бирлигини ифодалайдиган пул белгиси. Мамлакат пул бирликларида пул тўловлари, тўловлар, харажатлар, даромадлар, жамғармалар суммаси ўлчанади.

Д

Денежная масса

совокупная

uz - muomalada yurgan
umumiy pul miqdori

муомалада юрган
умумий пул миқдори

en - supply of money

Полный объем выпущенных в обращение денег, включая наличные деньги, чеки, денежные средства предприятий и населения, хранимые на счетах в банках, безусловные (подлежащие безусловной оплате) денежные обязательства.

Muomalaga chiqarilgan pullarning butun hajmi, jumladan, korxonalar va aholining banklardagi hisob raqamlarida saqlanadigan naqd pullar, cheklar, pul mablag'lari, to'lanishi shart bo'lgan pul majburiyatlari.

Муомалага чиқарилган пулларнинг бутун ҳажми, жумладан, корхоналар ва аҳолининг банклардаги ҳисоб рақамларида сақланадиган нақд пуллар, чеклар, пул маблағлари, тўланиши шарт бўлган пул мажбуриятлари.

Денежная реформа

uz - pul islohoti

пул ислоҳоти

en - currency reform

Глубокое преобразование денежной системы страны, проводимое государством в связи с расстройством денежного обращения и в целях укрепления национальной валюты, стабилизации денежной единицы. Основные виды денежных реформ:

- a) полная или частичная замена денежных знаков с выпуском денег нового образца при сохранении их нарицательной стоимости;
- b) деноминация в виде укрупнения денежных единиц;
- c) деноминация с одновременной заменой денежных знаков или даже с изменением денежной единицы;
- d) единовременная девальвация или ревальвация денежной единицы страны.

Milliy valyutani mustahkamlash, pul birligini barqarorlashtirish va pul muomalasini tartibga solish maqsadida, davlat tomonidan mamlakat pul tizimini chuqur isloh qilish. Pul islohotining asosiy turlari:

- a) yozilgan qiymati saqlangan holda, pul belgilarini yangi namunadagi pullarni chiqarish bilan to'liq yoki qisman almashtirish;
- b) pul birliklarini yiriklashtirish ko'rinishida denominatsiyalash;
- c) bir vaqtda pul belgilarini almashtirish yoki hatto,

Д

pul birligini o'zgartirish bilan denominatsiyalash;
d) mamlakat pul birligini bir vaqtda devalvatsiya yoki revalvatsiya qilish.

Миллий валютани мустаҳкамлаш, пул бирлигини барқарорлаштириш ва пул муомаласини тартибга солиш мақсадида, давлат томонидан мамлакат пул тизимини чуқур ислоҳ қилиш. Пул ислоҳотининг асосий турлари:

- a) ёзилган қиймати сақланган ҳолда, пул белгиларини янги намунадаги пулларни чиқариш билан тўлиқ ёки қисман алмаштириш;
- b) пул бирликларини йириклаштириш кўринишида деноминациялаш;
- c) бир вақтда пул белгиларини алмаштириш ёки ҳатто, пул бирлигини ўзгартириш билан деноминациялаш;
- d) мамлакат пул бирлигини бир вақтда девальвация ёки ревальвация қилиш.

Денежная система

uz - pul tizimi

пул тизими

en - monetary system

Совокупность элементов денежного обращения, включает денежные знаки страны, денежные единицы, порядок эмиссии и формы обращения денег в стране.

Pul muomalasi elementlarining yig'indisi, mamlakatning pul belgilarini, pul birliklarini, mamlakatda pul emissiyasi tartibini va pul muomalasi shakllarini ichiga oladi.

Пул муомаласи элементларининг йиғиндиси, мамлакатнинг пул белгиларини, пул бирликларини, мамлакатда пул эмиссияси тартибини ва пул муомаласи шаклларини ичига олади.

Денежное обращение

uz - pul muomalasi

пул муомаласи

en - currency circulation

Движение денег в наличной и безналичной формах, обслуживающее платежи и расчеты в экономике.

Pullarning naqd yoki naqdsiz shakllardagi, iqtisodiyotda to'lovlarga va hisob-kitoblarga xizmat ko'rsatadigan harakati.

Пулларнинг нақд ёки нақдсиз шакллардаги, иқтисодиётда тўловларга ва ҳисоб-китобларга хизмат кўрсатадиган ҳаракати.

Д

Денежно-кредитная политика

uz - pul-kredit siyosati

пул-кредит сиёсати

en - monetary management

Проводимый правительством страны курс и осуществляемые меры в области денежного обращения и кредита, направленные на обеспечение устойчивого, эффективного функционирования экономики, поддержание в надлежащем состоянии денежной системы.

Mamlakat hukumati tomonidan pul muomalasi va kredit sohasida tutilgan yo‘l va amalga oshiriladigan chora-tadbirlar. Iqtisodiyotning barqaror, samarali ishlashini ta‘minlashga, pul tizimini zarur holatda ushlab turishga yo‘naltirilgan.

Мамлакат ҳукумати томонидан пул муомаласи ва кредит соҳасида тугилган йўл ва амалга оширилладиган чора-тадбирлар. Иқтисодиётнинг барқарор, самарали ишлашини таъминлашга, пул тизимини зарур ҳолатда ушлаб туришга йўналтирилган.

Денежные обязательства

uz - pul majburiyatlari

пул мажбуриятлари

en - pecuniary obligations

1. Обязательства предприятия, фирмы по оплате счетов, возвращению банковских ссуд и процентов по ним, выкупу выпущенных облигаций и других долгов, выплате начисленных заработной платы, налоговых платежей, объявленных дивидендов.

2. Денежные обязательства государства – обязательства по оплате государственных заказов и закупок, выплате социальных пособий, выкупу облигаций, денежных сертификатов и оплате процентов по ним, возврату полученных кредитов.

1. Korxonalar, firmaning hisoblar bo‘yicha pul to‘lash, bank ssudalari va ular bo‘yicha foizlarni qaytarish, chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa qarzlarni pul to‘lab qaytib olish, hisoblangan ish haqini, soliq to‘lovlarini, e‘lon qilingan dividendlarni to‘lash yuzasidan majburiyatlari.

2. Davlatning pul majburiyatlari – davlat buyurtmalari va xaridlari haqini to‘lash, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, obligatsiyalar, pul sertifikatlarini pul to‘lab qaytib olish va ular bo‘yicha foizlar to‘lash, olingan kreditlarni qaytarish yuzasidan majburiyatlaridir.

Д

1. Корхона, фирманинг ҳисоблар бўйича пул тўлаш, банк ссудалари ва улар бўйича фоизларни қайтариш, чиқарилган облигациялар ва бошқа қарзларни пул тўлаб қайтиб олиш, ҳисобланган иш ҳақини, солиқ тўловларини, эълон қилинган дивидендларни тўлаш юзасидан мажбуриятлари.

2. Давлатнинг пул мажбуриятлари – давлат буюртмалари ва харидлари ҳақини тўлаш, ижтимоий нафақалар тўлаш, облигациялар, пул сертификатларини пул тўлаб қайтиб олиш ва улар бўйича фоизлар тўлаш, олинган кредитларни қайтариш юзасидан мажбуриятларидир.

Денежные агрегаты

uz - pul agregatlari

пул агрегатлари

en - monetary aggregate

Виды денег и денежных средств, отличающиеся друг от друга степенью ликвидности, то есть возможностью быстрого превращения в наличные деньги; показатели структуры денежной массы.

Pullar va pul mablag‘larining, bir-biridan likvidlik darajasiga ko‘ra, ya’ni naqd pullarga tez aylana olishi mumkinligi bilan farq qiladigan turlari; pul massasi strukturasi ko‘rsatkichlari.

Пуллер ва пул маблағларининг, бир-биридан ликвидлик даражасига кўра, яъни нақд пуллерга тез айлана олиши мумкинлиги билан фарқ қиладиган турлари; пул массаси структураси кўрсаткичлари.

Денежные доходы

uz - pul daromadlari

пул даромадлари

en - money income

Разные виды денежных поступлений, получения денег за определенный период времени, выраженные в денежных единицах.

Pul birliklarida ifodalangan pul tushumlarining har xil turlari, muayyan vaqt davri ichida pullar olish.

Пул бирликларида ифодаланган пул тушумларининг ҳар хил турлари, муайян вақт даври ичида пуллер олиш.

Д

Денежные знаки

uz - pul belgilari

пул белгилари

en - monetary notes

Формы, в которых представлены, существуют и используются деньги. В настоящее время применяются два основных вида денежных знаков: бумажные денежные знаки, именуемые также купюрами, банкнотами, и металлические монеты.

Pullar taqdim etilgan, mavjud bo'lgan va foydalaniladigan shakllar. Hozirgi vaqtda pul belgilarining ikkita asosiy turi qo'llaniladi: kupyura, banknotlar deb ham nomlanadigan qog'oz pul belgilari va metall tangalar.

Пуллер такдим этилган, мавжуд бўлган ва фойдаланиладиган шакллар. Ҳозирги вақтда пул белгиларининг иккита асосий тури қўлланилади: купюра, банкнотлар деб ҳам номланадиган қоғоз пул белгилари ва металл тангалар.

Денежные средства

uz - pul mablag'lari

пул маблағлари

en - money medium

Аккумуляированные в наличной и безналичной формах деньги государства, предприятий, населения и другие средства, легко обращаемые в деньги.

Davlat, korxonalar, aholining naqd va naqdsiz shakllardagi pullari va oson pulga aylantirsa bo'ladigan boshqa mablag'lar.

Давлат, корхоналар, аҳолининг нақд ва нақдсиз шакллардаги пуллари ва осон пулга айлантирса бўладиган бошқа маблағлар.

Деноминация

uz - denominatsiya, pul

qiyamatini o'zgartirish

деноминация, пул

қийматини ўзгартириш

en - denomination

Укрупнение денежной единицы страны без изменения ее наименования, проводимое в целях облегчения денежного обращения и придания большей полноценности деньгам.

Nomini o'zgartirmay turib, mamlakat pul birligini yiriklashtirish, pul muomalasini osonlashtirish va pullarga ko'proq to'la qimmatlilik berish maqsadida o'tkaziladi.

Номини ўзгартирмай туриб, мамлакат пул бирлигини йириклаштириш, пул муомаласини осонлаштириш ва пулларга кўпроқ тўла қимматлик бериш мақсадида ўтказилади.

Д

Деньги

uz - pul, mablagʻ

пул, маблағ

en - money

Особый, исключительно широко используемый универсальный товар, который можно сравнить по ценности с любым другим товаром, обменять на любой товар. Деньги – это средство измерения величины стоимости товара, обмена, осуществления платежей, расчетов, накопления богатства.

Alohida, qiymati boʻyicha har qanday boshqa tovar bilan taqqoslash, istalgan tovarga ayirboshlash mumkin boʻlgan, keng foydalaniladigan universal tovar. Pul – bu, tovar qiymati kattaligini oʻlchash, ayirboshlash, toʻlovlarni, hisob-kitoblarni amalga oshirish, boylik toʻplash vositasidir.

Алохида, қиймати бўйича ҳар қандай бошқа товар билан таққослаш, исталган товарга айирбошлаш мумкин бўлган, кенг фойдаланиладиган универсал товар. Пул – бу, товар қиймати катталигини ўлчаш, айирбошлаш, тўловларни, ҳисоб-китобларни амалга ошириш, бойлик тўплаш воситасидир.

Депозит

uz - depozit

депозит

en - deposit

1. Денежные вклады в банки (банковские депозиты).

2. Ценные бумаги и денежные средства, передаваемые на хранение в кредитное учреждение;

3. Взносы денежных средств в различные учреждения, производимые в качестве платежей, для обеспечения требуемой оплаты.

4. Записи в банковских книгах, содержащие или подтверждающие требования клиентов к банку.

1. Banklarga qoʻyiladigan pul omonatlari (bank depozitlari).

2. Kredit muassasasiga saqlashga beriladigan qimmatli qogʻozlar va pul mablagʻlari.

3. Talab qilingan toʻlovni taʼminlash uchun toʻlovlar sifatida amalga oshiriladigan, turli muassasalarga oʻtkaziladigan pul mablagʻlari badallari.

4. Bank daftarlaridagi mijozlarning bankka boʻlgan talablarini ichiga oladigan yoki tasdiqlaydigan yozuvlar.

1. Банкларга қўйиладиган пул омонатлари (банк депозитлари).

Д

2. Кредит муассасасига сақлашга бериладиган қимматли қоғозлар ва пул маблағлари.

3. Талаб қилинган тўловни таъминлаш учун тўловлар сифатида амалга ошириладиган, турли муассасаларга ўтказиладиган пул маблағлари бадаллари.

4. Банк дафтарларидаги мижозларнинг банкка бўлган талабларини ичига оладиган ёки тасдиқлайдиган ёзувлар.

Депозитарий

uz - depozitariy

депозитарий

en - depository

1. Физическое или юридическое лицо, которому вверены депозиты.

2. Государство или международная организация, хранящие, оригинальный (действительный) текст международного договора.

1. Depozitlar saqlash uchun ishonib topshirilgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

2. Xalqaro shartnomaning asl (haqiqiy) matnini saqlayotgan davlat yoki xalqaro tashkilot.

1. Депозитлар сақлаш учун ишониб топширилган жисмоний ёки юридик шахс.

2. Халқаро шартноманинг асл (ҳақиқий) матни-ни сақлаётган давлат ёки халқаро ташкилот.

Депозитные операции

uz - depozit operatsiyalar

депозит операциялар

en - deposit operations

Операции кредитных учреждений по привлечению денежных средств во вклады и размещение этих вкладов в других кредитных учреждениях.

Kredit muassasalarining pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha operatsiyalari va bu omonatlarni boshqa kredit muassasalarida joylashtirish.

Кредит муассасаларининг пул маблағларини омонатларга жалб қилиш бўйича операциялари ва бу омонатларни бошқа кредит муассасаларида жойлаштириш.

Депозитный сертификат

uz - deposit sertifikati

депозит сертификати

en - deposit slip

Документ, свидетельствующий о вложении денежных средств в банк. Различают депозитный сертификат до востребования, по которому деньги могут быть изъяты из банка в любое время, и срочный депозитный сертификат, по которому деньги могут быть изъяты через определенный срок.

Д

Pul mablagʻlari bankka qoʻyilganligi toʻgʻrisida guvohlik beradigan hujjat. Pullar bankdan istalgan vaqtda olinishi mumkin boʻlgan, yoʻqlab olinadigan depozit sertifikati va pullar muayyan vaqtdan keyin olinishi mumkin boʻlgan, muddatli depozit sertifikati ajratiladi.

Пул маблағлари банкка қўйилганлиги тўғрисида гувоҳлик берадиган ҳужжат. Пуллар банкдан исталган вақтда олинishi мумкин бўлган, йўқлаб олинадиган депозит сертификати ва пуллар муайян вақтдан кейин олинishi мумкин бўлган, мuddатли депозит сертификати ажратилади.

Депонирование

uz - depozitga qoʻyish
депозитга қўйиш
en - custody account

Передача денег и ценных бумаг на хранение в кредитные и другие специализированные учреждения.

Pullar va qimmatli qogʻozlarni saqlash uchun, kredit muassasalariga va boshqa ixtisoslashgan muassasalarga topshirish.

Пуллар ва қимматли қоғозларни сақлаш учун, кредит муассасаларига ва бошқа ихтисослашган муассасаларга топшириш.

Депрессия

uz - depressiya
депрессия
en - recession

Застой в экономике, характеризующий отсутствием подъема производства и деловой активности, низким спросом на товары и услуги, безработицей.

Iqtisodiyotdagi turgʻunlik, ishlab chiqarish va amaliy faollikda oʻsish boʻlmasligi, tovar va xizmatlarga boʻlgan ehtiyojning pastligi, ishsizlik bilan tavsiflanadi.

Иқтисодиётдаги турғунлик, ишлаб чиқариш ва амалий фаолликда ўсиш бўлмаслиги, товар ва хизматларга бўлган эҳтиёжнинг пастлиги, ишсизлик билан тавсифланади.

Держатель ценных бумаг

uz - qimmatli qogʻozlar egasi
қимматли қоғозлар эгаси
en - security holder

Владелец акций, облигаций, денежных сертификатов и других ценных бумаг.

Aksiyalar, obligatsiyalar, pul sertifikatlari va boshqa qimmatli qogʻozlar egasi.

Акциялар, облигациялар, пул сертификатлари ва бошқа қимматли қоғозлар эгаси.

Д

Деривативы

uz - derivativlar

деривативлар

en - derivatives

Производные финансовые инструменты, такие как фьючерсы, опционы, свопы, форварды, сделки с которыми не предусматривают прямую покупку-продажу активов.

Fyuchers, opsion, svop, forvard kabi hosila moliya vositalari, ular bilan bo'ladigan bitimlarda aktivlarning to'g'ridan-to'g'ri sotilishi-sotib olinishi ko'zda tutilmaydi.

Фьючерс, опцион, своп, форвард каби ҳосила молия воситалари, улар билан бўладиган битимларда активларнинг тўғридан-тўғри сотилиши-сотиб олинishi кўзда тutilмайди.

Дескриптивное исследование

uz - deskriptiv tadqiq qilish

дескриптив тадқиқ

қилиш

en - descriptive research

Тип итогового исследования, основной целью которого является описание чего-либо – обычно рыночных характеристик или маркетинговой деятельности.

Odatda, bozor xarakteristikalarini yoki marketing faoliyatini tavsiflash asosiy maqsadi bo'lgan yaku-niy tadqiq qilish.

Одатда, бозор характеристикаларини ёки марке-тинг фаолиятини тавсифлаш асосий мақсади бўлган якуний тадқиқ қилиш.

Детезаврация

uz - detezavratsiya

детезаврация

en - dehoarding

Использование накопленных денежных средств в целях потребления и на инвестиционные нужды.

To'plangan pul mablag'laridan iste'mol maqsad-larida va investitsion ehtiyojlarda foydalanish.

Тўпланган пул маблағларидан истеъмол мақсад-лариди ва инвестицион эҳтиёжларда фойдала-ниш.

Детерминизм

uz - determinizm

детерминизм

en - determinism

Постановка и решение экономических задач, при котором их условия формируются с полной определенностью, без учета факторов неопределенности, случайной природы.

Iqtisodiy vazifalarni qo'yish va hal qilish, bunda ularning shartlari to'liq aniqlik bilan, noaniqlik, tasodif omillari hisobga olinmasdan shakllantiriladi.

Д

Иқтисодий вазифаларни қўйиш ва ҳал қилиш, бунда уларнинг шартлари тўлиқ аниқлик билан, ноаниқлик, тасодиф омиллари ҳисобга олинмасдан шакллантирилади.

Дефект

uz - nuqson

нуқсон

en - defect

Несоответствие изделия, товара или выполненной работы установленным требованиям. По степени значимости различают критические, значительные и незначительные дефекты. При критическом дефекте использование продукции по назначению практически невозможно, недопустимо. Значительным является дефект, существенно снижающий качество продукции, но допускающий ее использование после устранения дефекта. Незначительный дефект практически не влияет на использование продукции и ее долговечность, а отражается, скажем, на внешнем виде, дизайне изделия.

Buyum, tovar yoki bajarilgan ishning oʻrnatilgan talablarga muvofiq kelmasligi. Ahamiyatlilik darajasiga koʻra, kritik, muhim va juzʻiy nuqsonlar farqlanadi. Kritik nuqsonda mahsulotdan vazifasiga qarab foydalanish amalda mumkin emas, unga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Mahsulot sifatini ancha pasaytiradigan, lekin bartaraf qilingandan soʻng, mahsulotdan foydalansa boʻladigan nuqson katta nuqson hisoblanadi. Juzʻiy nuqson mahsulotdan foydalanishga, mustahkamligiga amalda taʻsir qilmaydi, balki buyumning tashqi koʻrinishida, dizaynida aks etadi.

Буюм, товар ёки бажарилган ишнинг ўрнатилган талабларга мувофиқ келмаслиги. Аҳамиятлилик даражасига кўра, критик, муҳим ва жузъий нуқсонлар фарқланади. Критик нуқсонда маҳсулотдан вазифасига қараб фойдаланиш амалда мумкин эмас, унга йўл қўйиб бўлмайди. Маҳсулот сифатини анча пасайтирадиган, лекин бартараф қилингандан сўнг, маҳсулотдан фойдаланса бўладиган нуқсон катта нуқсон ҳисобланади. Жузъий нуқсон маҳсулотдан фойдаланишга, мустаҳкамлигига амалда таъсир қилмайди, балки буюмнинг ташқи кўринишида, дизайнида акс этади.

Д

Дефицит

uz - defitsit, tanqislik

дефицит, танқислик

en - deficit

Недостаточность средств, ресурсов, товаров в сравнении с ранее намечавшимся, запланированным или необходимым уровнем. Применительно к бюджету дефицитом называют превышение расходов над доходами.

Mablag'lar, resurslar, tovarlarning oldin belgilangan, rejalashtirilgan yoki zarur darajaga nisbatan yetishmasligi. Byudjetga tatbiqan, xarajatlarning daromadlardan oshib ketishi.

Маблағлар, ресурслар, товарларнинг олдин белгиланган, режалаштирилган ёки зарур даражага нисбатан етишмаслиги. Бюджетга татбиқан, харажатларнинг даромадлардан ошиб кетиши.

Дефлятор

uz - defilyator

дефлятор

en - deflator

Коэффициент, используемый для пересчета экономических показателей, исчисленных в денежном выражении, с целью приведения их к уровню цен предыдущего периода. Численно равен индексу роста цен.

Pul ko'rinishida hisoblangan iqtisodiy ko'rsatkichlarni, oldingi davr narxlari darajasiga keltirish maqsadida qayta hisoblash uchun qo'llaniladigan koefitsiyent. Son jihatidan narxlarning oshish indeksiga teng.

Пул кўринишида ҳисобланган иқтисодий кўрсаткичларни, олдинги давр нархлари даражасига келтириш мақсадида қайта ҳисоблаш учун қўлланиладиган коэффициент. Сон жиҳатидан нархларнинг ошиш индексига тенг.

Дефляция

uz - deflyatsiya

дефляция

en - deflation

Изъятие из обращения части денежной массы с целью предотвращения ее роста и подавления инфляции. Дефляция осуществляется в основном посредством увеличения налогов, предотвращения роста заработной платы или ее замораживания, снижения расходов государственного бюджета, продажи государственных ценных бумаг.

Inflyatsiyani to'xtatish, pul massasi oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, uning bir qismini muomaladan olish. Deflyatsiya asosan, soliqlarni oshi-

Д

rish, ish haqi oshishiga yo‘l qo‘ymaslik yoki uni to‘xtatib qo‘yish, davlat byudjeti xarajatlarini kamaytirish, davlat qimmatli qog‘ozlarini sotish orqali amalga oshiriladi.

Инфляцияни тўхтатиш, пул массаси ошиб кетишига йўл қўймаслик мақсадида, унинг бир қисмини муомаладан олиш. Дефляция асосан, солиқларни ошириш, иш ҳақи ошишига йўл қўймаслик ёки уни тўхтатиб қўйиш, давлат бюджети харажатларини камайтириш, давлат қимматли қоғозларини сотиш орқали амалга оширилади.

Дефолт

uz - defolt

дефолт

en - default

Невыполнение обязательств по возврату заемных средств.

Qarz mablag‘larni qaytarish yuzasidan majburiyatlarning bajarilmasligi.

Қарз маблағларни қайтариш юзасидан мажбуриятларнинг бажарилмаслиги.

Децентрализация

uz - detsentralizatsiya,

markazlashuvni kamaytirish

децентрализация,

марказлашувни камайтириш

en - decentralization

Передача функций управления от центральных органов власти местным органам, расширение круга полномочий нижестоящих органов управления за счет вышестоящих.

Boshqaruv funksiyalarini markaziy hokimiyat organlaridan mahalliy organlarga berish, quyi boshqaruv organlari vakolatlar doirasini yuqori boshqaruv organlari vakolatlar doirasi hisobiga kengaytirish.

Бошқарув функцияларини марказий ҳокимият органларидан маҳаллий органларга бериш, қуйи бошқарув органлари ваколатлар доирасини юқори бошқарув органлари ваколатлар доираси ҳисобига кенгайтириш.

Диверсификация

uz - diversifikatsiyalash

диверсификациялаш

en - diversification

1. Диверсификация производства: расширение ассортимента продукции, производимой предприятием, одновременное развитие многих, не связанных друг с другом видов производств, с целью повышения эффективности производства, предотвращения банкротства.

Д

2. Диверсификация кредитов: распределение вкладываемых в экономику или ссужаемых денежных капиталов между разнообразными объектами с целью снижения риска потерь и получения более высокого дохода.

1. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash: korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulot assortimentini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sinishning oldini olish maqsadida, bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ko'plab ishlab chiqarish turlarini bir vaqtda rivojlantirish.

2. Kreditlarni diversifikatsiyalash: birmuncha yuqori daromad olish va yo'qotishlar xavfini pasaytirish maqsadida, turli xil ob'ektlar o'rtasida iqtisodiyotga jalb qilinadigan yoki qarz beriladigan pul kapitallarini taqsimlash.

1. Ишлаб чиқаришни диверсификациялаш: корхона ишлаб чиқарадиган маҳсулот assortimentini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sinishning oldini olish maqsadida, bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ko'plab ishlab chiqarish turlarini bir vaqtda rivojlantirish.

2. Kreditlarni dиверсификациялаш: birmuncha yuqori daromad olish va yo'qotishlar xavfini pasaytirish maqsadida, turli xil ob'ektlar o'rtasida iqtisodiyotga jalb qilinadigan yoki qarz beriladigan pul kapitallarini taqsimlash.

Дивиденды

uz - dividendlar

дивидендлар

en - dividend

Деньги, приобретенные в виде платы, процентов за вложенный капитал. Наиболее распространенный современный способ получения дивидендов – покупка акций предприятий, представляющих акционерные общества.

Qo'yilgan kapital uchun foiz, haq ko'rinishida olingan pullar. Dividendlar olishning keng tarqalgan zamonaviy usuli – aksiyadorlar jamiyatini ifodalaydigan korxonalar aksiyalarini sotib olishdir.

Kўйилган капитал учун фоиз, ҳақ кўринишида олинган пуллар. Дивидендлар олишнинг кенг тарқалган замонавий усули – акциядорлар жамиятини ифодалайдиган корхоналар акцияларини сотиб олишдир.

Д

Дилер
uz - diler
дилер
en - dealer

Частное лицо, предприятие, члены фондовой биржи, ведущие биржевые операции не в качестве посредников (брокеров), а действующие от своего имени и за собственный счет, осуществляющие самостоятельно куплю-продажу ценных бумаг, валюты, драгоценных металлов.

Xususiy shaxs, korxonona, birja operatsiyalarini vositachi (broker) sifatida olib bormaydigan, balki o'z nomidan va o'z hisobidan harakat qiladigan, mustaqil ravishda qimmatli qog'ozlar, valyuta, asl metallar oldi-sotdisini amalga oshiradigan fond birjasi a'zolari.

Хусусий шахс, корхона, биржа операцияларини воситачи (брокер) сифатида олиб бормайдиган, балки ўз номидан ва ўз ҳисобидан ҳаракат қиладиган, мустақил равишда қимматли қоғозлар, валюта, асл металллар олди-сотдисини амалга оширадиган фонд биржаси аъзолари.

Дилинг
uz - diling
дилинг
en - dealing

1. Предоставление банками, финансовыми компаниями услуг по купле-продаже и размещению ценных бумаг, валюты, золота.

2. Биржевая торговля.

1. Banklar, moliya kompaniyalari tomonidan qimmatli qog'ozlar, valyuta, oltin oldi-sotdisi va ularni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

2. Birja savdosi.

1. Банклар, молия компаниялари томонидан қимматли қоғозлар, валюта, олтин олди-сотдисини ва уларни жойлаштириш бўйича хизматлар кўрсатиш.

2. Биржа савдоси.

Директивные методы управления
uz - boshqaruvning direktiv usullari
бошқарувнинг директив усуллари
en - directive methods of management

Методы, основанные на том, что субъект управления, управляющий орган вырабатывают директивы, команды, распоряжения, подлежащие неукоснительному исполнению со стороны объекта управления, подчиненных субъекту лиц.

Boshqaruvchi organ, boshqarish subyektiga boshqarish obyektiga bo'ysunadigan shaxslar tomonidan so'zsiz bajarilishi zarur bo'lgan direktivalar, buyruqlar, farmoyishlar ishlab chiqishiga

Д

asoslangan usullar.

Бошқарувчи орган, бошқариш субъекти бошқариш объекти, субъектга бўйсунадиган шахслар томонидан сўзсиз бажарилиши зарур бўлган директивалар, буйруқлар, фармойишлар ишлаб чиқишига асосланган усуллар.

Директор по маркетингу

uz - marketing bo'yicha direktor

маркетинг бўйича директор

en - marketing director

Руководитель всей маркетинговой деятельностью в структуре компании, включая рекламу, стимулирование сбыта, исследования и другие элементы комплекса маркетинга.

Kompaniya strukturasiida butun marketing faoliyati, jumladan, reklama, sotishni rag'batlantirish, tadqiqotlar va marketing kompleksining boshqa elementlari rahbari.

Компания структурасида бутун маркетинг фаолияти, жумладан, реклама, сотишни рағбатлантириш, тадқиқотлар ва маркетинг комплексининг бошқа элементлари раҳбари.

Дисконт

uz - diskont

ДИСКОНТ

en - discount

Скидка (общее значение слова), ценовая скидка; разница между текущим курсом ценной бумаги и ее номиналом или ценой погашения.

Chegirma (so'zning umumiy ma'nosi), narxga oid chegirma; qimmatli qog'ozning joriy kursi va uning nominali yoki qaytarish narxi o'rtasidagi farq.

Чегирма (сўзнинг умумий маъноси), нархга оид чегирма; қимматли қоғознинг жорий курси ва унинг номинали ёки қайтариш нархи ўртасидаги фарқ.

Дисконтирование затрат

uz - xarajatlarni diskontlash xarajatlarini

ДИСКОНТЛАШ

en - discounting expenditures

Приведение будущих затрат к текущему периоду, установление сегодняшнего эквивалента суммы, выплачиваемой в будущем.

Kelajakdagi xarajatlarni joriy davrga keltirish, kelajakda to'lanadigan summaning bugungi ekvivalentini belgilash.

Келажакдаги харажатларни жорий даврга келтириш, келажакда тўланадиган сумманинг бугунги эквивалентини белгилаш.

Д

Дисконтная политика

uz - diskont siyosati

дисконт сиёсати

en - discount policy

Один из методов денежно-кредитной политики, проводимой Центральными банками, заключается в повышении или понижении учетных ставок процента за кредит с целью регулирования спроса и предложения на ссудный капитал.

Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosati usullaridan biri. Qarz kapitaliga boʻlgan talab va taklifni tartibga solish maqsadida, kredit yuzasidan hisobga olish foiz stavkalarini oshirish yoki pasaytirishda ifodalanadi.

Марказий банк томонидан олиб бориладиган пул-кредит сиёсати усулларидан бири. Қарз капиталига бўлган талаб ва таклифни тартибга солиш мақсадида, кредит юзасидан ҳисобга олиш фоиз ставкаларини ошириш ёки пасайтиришда ифодаланadi.

Дискреция

uz - diskreksiya

дискреция

en - discretion

Способ решения экономических проблем, заключающийся в том, что лицо, орган, принимающие решения, действуют в основном по собственному усмотрению.

Iqtisodiy muammolarni hal qilish yoʻli, qaror qabul qiladigan organ, shaxs asosan oʻzining xohishiga qarab ish koʻrishida ifodalanadi.

Иқтисодий муаммоларни ҳал қилиш йўли, қарор қабул қиладиган орган, шахс асосан ўзининг хоҳишига қараб иш кўришида ифодаланadi.

Диспетчер

uz - dispetcher

диспетчер

en - dispatcher

Работник, отслеживающий, координирующий, регулирующий с использованием технических средств ход производственного процесса, контролирующий его соответствие заранее намеченному графику выполнения работ, выпуска продукции, движения транспортных средств.

Texnik vositalardan foydalanib, ishlab chiqarish jarayoni borishini kuzatib turadigan, muvofiqlashtiradigan, tartibga soladigan, uning ishlarni bajarishning, mahsulot chiqarishning oldindan tuzilgan grafigiga mos kelishini, transport vositalari harakatini nazorat qiladigan ishchi.

Д

Техник воситалардан фойдаланиб, ишлаб чиқариш жараёни боришини кузатиб турадиган, мувофиқлаштирадиган, тартибга соладиган, унинг ишларни бажаришнинг, маҳсулот чиқаришнинг олдиндан тузилган графигига мос келишини, транспорт воситалари ҳаракатини назорат қиладиган ишчи.

Диспропорции

uz - nomutanosibliklar

нотутаносибликлар

en - disproportions

В экономике: нарушение согласованности, соответствия взаимосвязанных экономических показателей, характеризующих функционирование и развитие отдельных отраслей и производств. Диспропорции свидетельствуют о гипертрофированном развитии одних секторов экономики за счет других, об отсутствии сбалансированности экономических процессов.

Iqtisodiyotda: Alohida tarmoqlar va ishlab chiqarishlarning ishlashi va rivojlanishini tavsiflaydigan o'zaro bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar muvofiq kelishligining, mosligining buzilishi. Nomutanosibliklar bir iqtisodiyot bitta sektorining boshqalari hisobiga kengaygan rivojlanishidan, iqtisodiy jarayonlar muvofiqlashtirilganligining bo'lmasligidan darak beradi.

Иқтисодиётда: Алоҳида тармоқлар ва ишлаб чиқаришларнинг ишлаши ва ривожланишини тавсифлайдиган ўзаро боғлиқ иқтисодий кўрсаткичлар мувофиқ келишлигининг, мослигининг бузилиши. Нотутаносибликлар бир иқтисодиёт битта секторининг бошқалари ҳисобига кенгайган ривожланишидан, иқтисодий жараёнлар мувофиқлаштирилганлигининг бўлмаслигидан дарак беради.

Дистрибьютор,

дистрибутор

uz - distribyutor, distributor

дистрибьютор,

дистрибутор

en - distribution

Предприятие, предприниматель, осуществляющие оптовую закупку и сбыт товаров определенного вида.

Muayyan turdagi tovarlar ulgurji sotilishini va xarid qilinishini amalga oshiradigan korxonalar, tadbirkorlar.

Муайян турдаги товарлар улгуржи сотилишини ва харид қилинишини амалга оширадиган корхона, тадбиркор.

Д

Дисциплина
uz - intizom
интизом
en - discipline

В экономике: своевременное и надлежащее выполнение правил и обязательств, соблюдение принятых законов и норм экономической деятельности. Различают: договорную дисциплину – выполнение обязательств по договорам; платежную (финансовую) дисциплину – своевременное и полное осуществление платежей и расчетов; трудовую дисциплину – соблюдение правил и норм трудовой деятельности; технологическую дисциплину – строгое соблюдение технологического регламента, установленного согласно документации.

Iqtisodiyotda: qoidalar va majburiyatlarning o'z vaqtida, zarur darajada bajarilishi, iqtisodiy faoliyatning qabul qilingan qonunlari va normalariga rioya qilinishi. Shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ko'zda tutadigan shartnoma intizomi; hisob-kitoblar va to'lovlar o'z vaqtida, to'liq amalga oshirilishini ko'zda tutadigan to'lov (moliya) intizomi; mehnat faoliyati qoidalari va normalariga rioya qilinishidan iborat mehnat intizomi; hujjatlarga muvofiq belgilangan texnologik reglamentga qat'iy rioya qilish majburiyatini yuklaydigan texnologik intizom farqlanadi.

Иқтисодиётда: қоидалар ва мажбуриятларнинг ўз вақтида, зарур даражада бажарилиши, иқтисодий фаолиятнинг қабул қилинган қонунлари ва нормаларига риоя қилиниши. Шартномалар бўйича мажбуриятларнинг бажарилишини кўзда тутадиган шартнома интизоми; ҳисоб-китоблар ва тўловлар ўз вақтида, тўлиқ амалга оширилишини кўзда тутадиган тўлов (молия) интизоми; меҳнат фаолияти қоидалари ва нормаларига риоя қилинишидан иборат меҳнат интизоми; ҳужжатларга мувофиқ белгиланган технологик регламентга қатъий риоя қилиш мажбуриятини юклайдиган технологик интизом фарқланади.

Дифференциальная рента
uz - differensial renta
дифференциал рента
en - economic rent

Дополнительный доход, получаемый за счет использования более выгодных ресурсов, обладающих большей отдачей.

Д

Samarasi katta bo'lgan qulay resurslardan foydalanish hisobiga olinadigan qo'shimcha daromad.

Самараси катта бўлган қулай ресурслардан фойдаланиш ҳисобига олинадиган қўшимча даромад.

Дифференциация доходов

uz - daromadlarni
tabaqalashtirish

даромадларни
табақалаштириш

en - income difference's

Разница в уровне денежных доходов различных слоев и групп населения. Для оценки используется отношение условно максимального и минимального доходов или соотношение между минимальным и максимальным уровнями оплаты труда.

Aholi turli qatlamlari va guruhlari pul daromadlarining darajasidagi farq. Baholash uchun, shartli eng ko'p va eng kam daromadlar nisbatidan yoki eng kam va eng ko'p mehnatga haq to'lash darajalari o'rtasidagi nisbatdan foydalaniladi.

Аҳоли турли қатламлари ва гуруҳлари пул даромадларининг даражасидаги фарқ. Баҳолаш учун, шартли энг кўп ва энг кам даромадлар нисбатидан ёки энг кам ва энг кўп меҳнатга ҳақ тўлаш даражалари ўртасидаги нисбатдан фойдаланилади.

Добавленная стоимость

uz - qo'shilgan qiymat
қўшилган қиймат

en - value-added

Часть стоимости товаров, услуг, приращенная непосредственно на данном предприятии. Определяется как разность между выручкой от продажи продукции, товаров, услуг, произведенных фирмой, и ее затратами на закупку материалов и полуфабрикатов.

Tovارlar, xizmatlar qiymatining, bevosita korxonada ko'paygan qismi. Firma tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot, tovarlar, xizmatlarni sotishdan olingan tushum va materiallar, yarimfabrikat mahsulotlarga qilingan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi.

Товарлар, хизматлар қийматининг, бевосита корхонада кўпайган қисми. Фирма томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулот, товарлар, хизматларни сотишдан олинган тушум ва материаллар, яримфабрикат маҳсулотларга қилинган харажатлар ўртасидаги фарқ сифатида белгиланади.

Д

Доверенность

uz - ishonchnoma

ишончнома

en - power of attorney

Документ, которым доверяющее лицо подтверждает, что оно уполномочило своего представителя (доверенное лицо) совершать определенные, указанные в документе действия от имени доверителя, то есть от своего имени.

Ishonib topshiruvchi shaxs o'z vakilini (vakolatli shaxsni), ishonchnoma beruvchi, ya'ni o'z nomidan hujjatda ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish yuzasidan vakil qilganligini tasdiqlaydigan hujjat.

Ишониб топширувчи шахс ўз вакилини (ваколатли шахсни), ишончнома берувчи, яъни ўз номидан хужжатда кўрсатилган ҳаракатларни амалга ошириш юзасидан вакил қилганлигини тасдиқлайдиган хужжат.

Доверительные операции

uz - vakolatli operatsiyalar

ваколатли операциялар

en - trust operation

Операции компаний по управлению имуществом и оказанию иных услуг, осуществляемые по поручению клиентов в качестве их доверенного лица. Синоним – трастовые операции.

Kompaniyalarning, mulkni boshqarish va vakolatli shaxs sifatida mijozlarning topshirig'iga ko'ra amalga oshiriladigan boshqa xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha operatsiyalari. Sinonimi – trust operatsiyalari.

Компанияларнинг, мулкни бошқариш ва ваколатли шахс сифатида mijozlarning топшириғига кўра амалга ошириладиган бошқа хизматларни кўрсатиш бўйича операциялари. Синоними – траст операциялари.

Договор

uz - shartnoma

шартнома

en - agreement

Добровольное соглашение двух или нескольких лиц (экономических субъектов), заключаемое на предмет выполнения каждым из них принимаемых на себя обязательств по отношению к другим участникам. Договор содержит сведения о его участниках, изложение предмета, сущности сделки, обязательства договаривающихся сторон, условия осуществления договора, способы оплаты за предоставленные друг другу товары, работы, услуги, формы ответственности участ-

Д

ников за невыполнение принятых обязательств, условия расторжения или продления договора, юридические адреса сторон. Договор скрепляется подписями полномочных представителей договаривающихся сторон и печатями (если участник договора – юридическое лицо).

Ikki yoki bir nechta shaxsning (iqtisodiyot subyektlarining), ulardan har birining boshqa qatnashchilarga nisbatan oladigan majburiyatlarini bajarish yuzasidan tuziladigan ixtiyoriy bitimi. Shartnoma ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni, kelishuv mohiyati, predmeti bayonini, shartlashuvchi tomonlarning majburiyatlarini, shartnomani amalga oshirish shartlarini, o'zaro ko'rsatilgan xizmatlar, ishlar, tovarlar uchun haq to'lash usullarini, qatnashuvchilarning majburiyatlarni bajarmaslik yuzasidan javobgarligi shakllarini, shartnomani uzaytirish yoki bekor qilish shartlarini, tomonlarning yuridik manzillarini ichiga oladi. Shartnoma shartlashuvchi tomonlar vakolatli vakillarining imzolari va muhr bilan (shartnoma qatnashchisi yuridik shaxs bo'lsa) tasdiqlanadi.

Икки ёки бир нечта шахсинг (иқтисодиёт субъектларининг), улардан ҳар бирининг бошқа қатнашчиларга нисбатан оладиган мажбуриятларини бажариш юзасидан тузиладиган ихтиёрий битими. Шартнома иштирокчилар тўғрисидаги маълумотларни, келишув моҳияти, предмети баёнини, шартлашувчи томонларнинг мажбуриятларини, шартномани амалга ошириш шартларини, ўзаро кўрсатилган хизматлар, ишлар, товарлар учун ҳақ тўлаш усулларини, қатнашувчиларнинг мажбуриятларни бажармаслик юзасидан жавобгарлиги шаклларини, шартномани узайтириш ёки бекор қилиш шартларини, томонларнинг юридик манзилларини ичига олади. Шартнома шартлашувчи томонлар ваколатли вакилларининг имзолари ва муҳр билан (шартнома қатнашчиси юридик шахс бўлса) тасдиқланади.

Д

Договор коллективный

uz - jamoa shartnomasi

жамоа шартномаси

en - collective agreement

Договор между собственником или администрацией предприятия, с одной стороны, и трудовым коллективом (представленным профсоюзным комитетом), с другой стороны. Предметом такого договора являются режим работы, оплата труда, отпуск, условия работы, обеспечение безопасности труда, страхование, льготы.

Bir tomondan korxonaga ma'muriyati yoki mulkdor va ikkinchi tomondan, mehnat jamoasi (kasaba uyushmasi timsolida) o'rtasidagi shartnoma. Ish tartibi, mehnatga haq to'lash, ta'til, ish sharoiti, mehnat xavfsizligini ta'minlash, sug'urtalash, imtiyozlar bunday shartnomaning predmeti hisoblanadi.

Бир томондан корхона маъмурияти ёки мулкдор ва иккинчи томондан, меҳнат жамоаси (касаба уюшмаси тимсолида) ўртасидаги шартнома. Иш тартиби, меҳнатга ҳақ тўлаш, таътил, иш шароити, меҳнат хавфсизлигини таъминлаш, суғурталаш, имтиёзлар бундай шартноманинг предмети ҳисобланади.

Договор купли-продажи

uz - oldi-sotdi shartnomasi

олди-сотди шартномаси

en - sale contract

Договор, который устанавливает объемы купли и продажи товаров, цены и способы оплаты, сроки и условия поставки, транспортные условия, штрафные санкции за нарушение условий договора.

Tovarlarni sotish va sotib olish hajmlarini, haq to'lash usullari va narxlarini, yetkazib berish shartlari va muddatlarini, transport shartlari, shartnoma shartlari buzilganligi yuzasidan jarimalarni belgilaydigan shartnoma.

Товарлар сотиш ва сотиб олиш ҳажмларини, ҳақ тўлаш усуллари ва нархларни, етказиб бериш шартлари ва муддатларини, транспорт шартларини, шартнома шартлари бузилганлиги юзасидан жарималарни белгилайдиган шартнома.

Д

Договор трудовой

uz - mehnat shartnomasi

меҳнат шартномаси

en - contract of work

Соглашение между работником и его нанимателями о характере, условиях и оплате его работы. Такой договор может быть как временным – на испытательный срок, на время выполнения конкретной работы, так и пожизненным – на неопределенный срок.

Xodim va uni yollovchilar o'rtasidagi, ishning xarakteri, sharoitlari va unga haq to'lash to'g'risidagi bitim. Bunday shartnoma ham vaqtinchalik – sinov muddatiga, muayyan ishni bajarish vaqtiga, ham umrbod – noaniq muddatga bo'lishi mumkin.

Ходим ва уни ёлловчилар ўртасидаги, ишнинг характери, шароитлари ва унга ҳақ тўлаш тўғрисидаги битим. Бундай шартнома ҳам вақтинчалик – синов муддатига, муайян ишни бажариш вақтига, ҳам умрбод – ноаниқ муддатга бўлиши мумкин.

Документ

uz - hujjat

хужжат

en - document

1. Деловая бумага, юридически подтверждающая определенные права ее обладателей, фиксирующая, удостоверяющая определенные факты, события.

2. Сведения, данные, зафиксированные на материальном носителе (бумаге, пленке и т.п.), имеющие официальный характер и подлежащие использованию или последующей обработке и передаче.

1. Egalarining muayyan huquqlarini yuridik tasdiqlaydigan, muayyan faktlar, hodisalarni qayd etuvchi, tasdiqlovchi ishga oid qog'oz.

2. Moddiy tashuvchida (qog'ozda, plyonkada) qayd etilgan, rasmiy xarakterga ega va foydalanilishi yoki keyinchalik qayta ishlanishi va berilishi zarur bo'lgan ma'lumotlar, xabarlar.

1. Эгаларининг муайян ҳуқуқларини юридик тасдиқлайдиган, муайян фактлар, ҳодисаларни қайд этувчи, тасдиқловчи ишга оид қоғоз.

2. Моддий ташувчида (қоғозда, плёнкада) қайд этилган, расмий характерга эга ва фойдаланилиши ёки кейинчалик қайта ишланиши ва берилиши зарур бўлган маълумотлар, хабарлар.

Д

Документация

uz - hujjatlar

хужжатлар

en - documentation

Совокупность официально признанных документов, составленных по определенной форме и содержащих предусмотренную информацию. Различают бухгалтерскую, техническую, проектную, технологическую, товарную документацию.

Ma'lum bir shaklda tuzilgan, ko'zda tutilgan ma'lumotni ichiga oladigan, rasman tan olingan hujjatlar jami. Buxgalteriya hujjatlari, texnik, loyiha, texnologik, tovar hujjatlari ajratiladi.

Маълум бир шаклда тузилган, кўзда тutilган маълумотни ичига оладиган, расман тан олинган хужжатлар жами. Бухгалтерия хужжатлари, техник, лойиҳа, технологик, товар хужжатлари ажратилади.

Долг

uz - qarz

қарз

en - debt

Денежная сумма, взятая в займы на срок на определенных условиях, подлежащая возврату. Лицо, имеющее долг, называют должником.

Qaytarilishi zarur bo'lgan, muayyan shartlar asosida muddatga olingan pul summasi. Qarzi bor shaxs qarzdor deb nomlanadi.

Қайтарилиши зарур бўлган, муайян шартлар асосида муддатга олинган пул суммаси. Қарзи бор шахс қарздор деб номланади.

Долговое обязательство

uz - qarz majburiyati

қарз мажбурияти

en - debentures

Документальное подтверждение факта получения денег в долг и обязанности их возврата. Выдается заемщиком, берущим деньги в долг, займодавцу, кредитору. В обязательстве указывается сумма долга и предельный срок его возврата.

Qarzga pul olinganlik faktining va uni qaytarish majburiyatining hujjat bilan tasdiqlanishi. Qarzdor, qarzga pul oladigan odam tomonidan qarz beruvchiga, kreditorga beriladi. Majburiyatda qarz summasi va uni qaytarishning eng oxirgi muddati ko'rsatiladi.

Қарзга пул олинганлик фактининг ва уни қайтариш мажбуриятининг хужжат билан тасдиқланиши. Қарздор, қарзга пул оладиган одам томонидан қарз берувчига, кредиторга берилади. Мажбуриятда қарз суммаси ва уни қайтаришнинг энг охириги муддати кўрсатилади.

Д

Долгосрочный период времени

uz - uzoq muddatli vaqt davri

узoқ муddатли вақт даври

en - long period of time

Период, который в макроэкономике применительно к процессам в масштабе экономики страны исчисляется временем более одного года. Долгосрочные планы и прогнозы составляются на период свыше пяти лет.

Макroiqtisodiyotda mamlakat iqtisodiyoti ko‘lamidagi jarayonlarga nisbatan bir yildan ortiq vaqt bilan hisoblanadigan davr. Uzoq muddatli rejalar va prognozlar besh yildan ortiq davrga tuziladi.

Макроиктисодиётда мамлакат иқтисодиёти кўламидаги жараёнларга нисбатан бир йилдан ортиқ вақт билан ҳисобланадиган давр. Узoқ муddатли режалар ва прогнозлар беш йилдан ортиқ даврга тузилади.

Долевая собственность

uz - hissali mulk

ҳиссали мулк

en - shared ownership

Часть доходов, имущества, других ценностей, на которую вправе претендовать один из участников общего дела, коллективных собственников, наследников. Мера, в которой участник общего дела вносит в него собственные ресурсы, денежные средства, именуется долевым участием.

Daromadlar, mulk, boshqa boyliklarning, umumiy ish qatnashchilarini jamoa mulkdorlar, vorislardan biri da'vogarlik qila oladigan qismi. Umumiy ish qatnashchisi o'z resurslarini, pul mablag'larini ishga jalb qilgan holat, hissali qatnashish deyiladi.

Даромадлар, мулк, бошқа бойликларнинг, умумий иш қатнашчиларини жамоа мулкдорлар, ворислардан бири даъвогарлик қила оладиган қисми. Умумий иш қатнашчиси ўз ресурсларини, пул маблағларини ишга жалб қилган ҳолат, ҳиссали қатнашиш дейилади.

Должностная инструкция

uz - lavozim yo'riqnomasi

лавозим йўриқномаси

en - duty regulations

Инструкция, указывающая круг поручений, обязанностей, работ, которые должно выполнять лицо, занимающее данную должность на предприятии, фирме.

Korxonada, firmada ma'lum bir lavozimni egallaydigan shaxs bajarishi kerak bo'lgan ishlar, majburiyatlar, topshiriqlar doirasini belgilaydigan yo'riqnomasi.

Д

Корхона, фирмада маълум бир лавозимни эгаллайдиган шахс бажариши керак бўлган ишлар, мажбуриятлар, топшириқлар доирасини белгилайдиган йўриқнома.

Должностное лицо

uz - mansabdor shaxs

мансабдор шахс

en - official

Служащий государственного учреждения, занимающий достаточно высокую должность, уполномоченный принимать важные решения и осуществлять юридически значимые действия.

Davlat muassasasining, yuqori lavozimni egallagan, muhim qarorlar qabul qilish va yuridik jihatdan ahamiyatli ishlarni amalga oshirish yuzasidan vakolati boʻlgan xizmatchisi.

Давлат муассасасининг, юқори лавозимни эгаллаган, муҳим қарорлар қабул қилиш ва юридик жиҳатдан аҳамиятли ишларни амалга ошириш юзасидан ваколати бўлган хизматчиси.

Должностной оклад

uz - lavozim maoshi

лавозим маоши

en - salary

Месячная заработная плата, тариф оплаты труда, предусмотренный для лиц, занимающих данную должность.

Maʼlum bir lavozimni egallaydigan shaxslar uchun koʻzda tutilgan mehnatga haq toʻlash tarifi, oylik ish haqi.

Маълум бир лавозимни эгаллайдиган шахслар учун кўзда тутилган меҳнатга ҳақ тўлаш тарифи, ойлик иш ҳақи.

Домашнее хозяйство

uz - uy xoʻjaligi

уй хўжалиги

en - home economics

Имущество, денежные средства, орудия труда, используемые людьми в домашних условиях; деятельность людей во внерабочее время, на дому, связанная с осуществлением домашних дел.

Odamlar tomonidan uy sharoitlarida foydalaniladigan mehnat qurollari, pul mablagʻlari, mol-mulk; odamlarning ishdan tashqari paytdagi, uy ishlarini bajarish bilan bogʻliq faoliyati.

Одамлар томонидан уй шароитларида фойдаланиладиган меҳнат қуроллари, пул маблағлари, мол-мулк; одамларнинг ишдан ташқари пайтдаги, уй ишларини бажариш билан боғлиқ фаолияти.

Д

Доминирование

uz - ustunlik

устунлик

en - dominancy

В экономике: преобладание, главенствующее положение одного из экономических субъектов или его товаров в сравнении с другими субъектами и товарами.

Iqtisodiyotda: iqtisodiyot subyektlaridan yoki uning tovarlaridan birining, boshqa sub'ektlar va tovarlarga nisbatan ustunligi, birinchi o'rinda turishi.

Иқтисодиётда: иқтисодиёт субъектларидан ёки унинг товарларидан бирининг, бошқа субъектлар ва товарларга нисбатан устунлиги, биринчи ўринда туриши.

Доплата

uz - qo'shimcha haq

қўшимча ҳақ

en - additional payment

Денежная сумма, выплачиваемая дополнительно, например, сверх установленного норматива, тарифных ставок, в связи с особыми условиями.

Alohida shart-sharoitlar sababli qo'shimcha, masalan, belgilangan normativdan, tarif stavkalaridan tashqari to'lanadigan pul summasi.

Алоҳида шарт-шароитлар сабабли қўшимча, масалан, белгиланган нормативдан, тариф ставкаларидан ташқари тўланадиган пул суммаси.

Дотация

uz - dotatsiya

дотация

en - dotation

Денежные средства, выделяемые из государственного и местных бюджетов в безвозвратном порядке для оказания финансовой поддержки: убыточным предприятиям, у которых денежная выручка от продажи производимого продукта меньше издержек на производство и продажу этого продукта; нижестоящим бюджетам для покрытия разрыва между их доходами и расходами; гражданам в виде доплат. Предоставление дотации предприятиям позволяет, с одной стороны, предотвратить их банкротство и, с другой стороны, не допускать повышения розничных цен на отдельные потребительские товары и услуги, так как часть цены на эти товары оплачивается из бюджетных средств за счет дотаций.

Davlat byudjeti va mahalliy byudjetdan qaytarib bermaslik tartibida, moliyaviy ko'mak ko'rsatish

Д

maqsadida: ishlab chiqariladigan mahsulotdan keladigan pul tushumi, bu mahsulotni ishlab chiqarish, sotish xarajatlaridan kam bo'lgan, zarar ko'rib ishlaydigan korxonalariga; quyi turuvchi byudjetlarga, ularning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun; fuqarolarga qo'shimcha haq ko'rinishida ajratiladigan pul mablag'lari. Korxonalariga dotatsiya berish, bir tomondan, ular sinishining oldini olish, ikkinchi tomondan, ayrim iste'mol tovarlarining chakana narxlari oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi, chunki bu tovarlarning narxlari dotatsiyalar hisobiga byudjet mablag'laridan to'lanadi.

Давлат бюджети ва маҳаллий бюджетдан қайтариб бермаслик тартибида, молиявий кўмак кўрсатиш мақсадида: ишлаб чиқариладиган маҳсулотдан келадиган пул тушуми, бу маҳсулотни ишлаб чиқариш, сотиш харажатларидан кам бўлган, зарар кўриб ишлайдиган корхоналарга; қуйи турувчи бюджетларга, уларнинг даромадлари ва харажатлари ўртасидаги фарқни қоплаш учун; фуқароларга қўшимча ҳақ кўринишида ажратиладиган пул маблағлари. Корхоналарга дотация бериш, бир тоmondan, улар синишининг олдини олиш, иккинчи тоmondan, айрим истеъ-мол товарларининг чакана нархлари ошиб кети-шига йўл қўймаслик имконини беради, чунки бу товарларнинг нархлари дотациялар ҳисобига бюджет маблағларидан тўланади.

Доход

uz - daromad

даромад

en - income

В широком смысле слова означает любой приток денежных средств или получение материальных ценностей, обладающих денежной стоимостью. В валовой доход предприятия принято включать выручку от продажи товаров и услуг, выполнения работ. Доход государства образуют в основном налоги, платежи, отчисления, поступающие в казну. Доход граждан формируется за счет заработной платы, пенсий, стипендий, дивидендов, продажи продуктов домашнего хозяйства.

Keng ma'noda, pul mablag'larining har qanday oqib

Д

kelishi yoki pul qiymatiga ega bo'lgan moddiy boyliklarning olinishi. Korxonaning yalpi daromadiga tovarlar va xizmatlar sotishdan, ishlarni bajarishdan olingan tushumni kiritish qabul qilingan. Davlat daromadini asosan, xazinaga kelib tushadigan soliqlar, to'lovlar, ajratmalar tashkil qiladi. Fuqarolarning daromadi ish haqi, pensiya, stipendiyalar, dividendlar, uy xo'jaligi mahsulotlarini sotish hisobiga shakllanadi.

Кенг маънода, пул маблағларининг ҳар қандай оқиб келиши ёки пул қийматиға эга бўлган моддий бойликларнинг олинishi. Корxonанинг ялпи даромадиға товарлар ва хизматлар сотишдан, ишларни бажаришдан олинган тушумни киритиш қабул қилинган. Давлат даромадини асосан, хазинаға келиб тушадиған солиқлар, тўловлар, ажратмалар ташкил қилади. Фуқароларнинг даромади иш ҳақи, пенсия, стипендиялар, дивидендлар, уй хўжалиги маҳсулотларини сотиш ҳисобига шаклланади.

Дочернее предприятие
uz - shuba korxonа
шуъба корхона
en - subsidiary enterprise

Юридически самостоятельное предприятие, отделившееся от основного предприятия и учрежденное им посредством передачи части своего имущества. Учредитель дочернего предприятия утверждает его устав и сохраняет по отношению к нему некоторые управленческие, в том числе контрольные функции.

Asosiy korxonadan ajralib chiqqan va korxonа o'z mulkining bir qismini berishi orqali ta'sis etilgan, yuridik jihatdan mustaqil korxonа. Shuba korxonа ta'sischisi uning nizomini tasdiqlaydi va unga nisbatan ba'zi boshqaruv, shu jumladan, nazorat funksiyalarini saqlab oladi.

Асосий корхонадан ажралиб чиққан ва корхона ўз мулкнинг бир қисмини бериши орқали таъсис этилган, юридик жиҳатдан мустақил корхона. Шуъба корхона таъсисчиси унинг низомини тасдиқлайди ва унга нисбатан баъзи бошқарув, шу жумладан, назорат функцияларини сақлаб олади.

Е

Европейское экономическое сообщество

uz - Yevropa iqtisodiy hamjamiyati

Европа иқтисодий ҳамжамияти

en - European economic community

Talabdan sezilarli darajada koʻp boʻlgan taklif, tovar (mol) toʻplanib qolishiga olib keladi.

Талабдан сезиларли даражада кўп бўлган таклиф, товар (мол) тўпланиб қолишига олиб келади.

Избыточный спрос

uz - ortiqcha talab
ортиқча талаб
en - excess demand

Спрос, значительно превышающий предложение, приводящий к дефициту товаров и росту цен.

Taklifdan sezilarli darajada koʻp boʻlgan talab, tovarlar taqchilligiga va narxlar oshib ketishiga olib keladi.

Таклифдан сезиларли даражада кўп бўлган талаб, товарлар тақчиллигига ва нархлар ошиб кетишига олиб келади.

Изделие

uz - buyum
буюм
en - product

Вещь, готовая к продаже, употреблению, дальнейшему использованию в виде конечного продукта или части другого продукта.

Pirovard mahsulot yoki boshqa mahsulotning qismi

И

ko‘rinishida sotish, iste‘mol qilish, keyinchalik foydalanish uchun tayyor narsa.

Пировард маҳсулот ёки бошқа маҳсулотнинг қисми кўринишида сотиш, истеъмол қилиш, кейинчалик фойдаланиш учун тайёр нарса.

Издержки

uz - chiqimlar

чиқимлар

en - expenditures

Затраты в денежной форме, обусловленные расходом разными видами экономических ресурсов в процессе производства и обращения продукции. Различают несколько видов издержек. Постоянные издержки – затраты производства, не зависящие от его объемов. Переменные издержки – затраты на производство, непосредственно связанные и изменяющиеся в зависимости от его объема. Полные (общие, валовые) издержки – сумма постоянных и переменных издержек. Издержки производства – затраты труда на производство продукции, материальные затраты, заработная плата, амортизация оборудования, дополнительные расходы. Издержки обращения – расходы, связанные с доведением товара до потребителя (закупка, хранение и транспортировка товаров, оплата труда продавцов, расходы на обслуживание покупателей). Предельные издержки – приращение полных, валовых издержек производства и обращения при увеличении производства и продажи товара на одну единицу.

Pul shaklidagi, mahsulotni ishlab chiqarish va ishlatilish jarayonida iqtisodiy resurslar har xil turlarining sarflanishi bilan bog‘liq xarajatlar. Chiqimlarning bir necha turi farqlanadi. Doimiy chiqimlar – ishlab chiqarish hajmlariga bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish chiqimlari. O‘zgaruvchan chiqimlar – bevosita bog‘langan va hajmiga bog‘liq holda o‘zgaradigan ishlab chiqarish xarajatlari. To‘la (umumiy, yalpi) chiqimlar – doimiy va o‘zgaruvchan chiqimlar summasi. Ishlab chiqarish chiqimlari – mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan mehnat xarajatlari, moddiy xarajatlar, ish haqi, uskuna amortizatsiyasi, qo‘shimcha sarflar. Ishlatilish chi-

И

qimlari – tovarni iste'molchiga yetkazish bilan bog'liq sarflar (tovarlarni sotib olish, saqlash, tashish, sotuvchilar mehnatiga haq to'lash, xaridorlarga xizmat ko'rsatish sarflari). Pirovard chiqimlar – to'la, yalpi ishlab chiqarish va ishlatilish chiqimlarining, ishlab chiqarish va tovarni sotish bir birlikka oshganda ko'payishi.

Пул шаклидаги, маҳсулотни ишлаб чиқариш ва ишлатилиш жараёнида иқтисодий ресурслар ҳар хил турларининг сарфланиши билан боғлиқ харажатлар. Чиқимларнинг бир неча тури фарқланади. Доимий чиқимлар – ишлаб чиқариш ҳажмларига боғлиқ бўлмаган ишлаб чиқариш чиқимлари. Ўзгарувчан чиқимлар – бевосита боғланган ва ҳажмига боғлиқ ҳолда ўзгарадиган ишлаб чиқариш харажатлари. Тўла (умумий, ялпи) чиқимлар – доимий ва ўзгарувчан чиқимлар суммаси. Ишлаб чиқариш чиқимлари – маҳсулот ишлаб чиқаришга сарфланадиган меҳнат харажатлари, моддий харажатлар, иш ҳақи, ускуна амортизацияси, қўшимча сарфлар. Ишлатилиш чиқимлари – товарни истеъмолчига етказиш билан боғлиқ сарфлар (товарларни сотиб олиш, сақлаш, ташиш, сотувчилар меҳнатига ҳақ тўлаш, харидорларга хизмат кўрсатиш сарфлари). Пировард чиқимлар – тўла, ялпи ишлаб чиқариш ва ишлатилиш чиқимларининг, ишлаб чиқариш ва товарни сотиш бир бирликка ошганда кўпайиши.

Излишки ресурсов, товаров

uz - tovarlar, resurslarning

ortiqchasi

товарлар, ресурсларнинг

ортиқчаси

en - excessive amount of goods

Превышение наличных средств и товарных запасов по отношению к необходимому уровню, обусловленному производственными потребностями или нормативами.

Naqd mablag'lar va tovar zaxiralarining, ishlab chiqarish ehtiyojlari yoki normativlar bilan bog'liq bo'lgan zarur darajaga nisbatan oshib ketishi.

Нақд маблағлар ва товар захираларининг, ишлаб чиқариш эҳтиёжлари ёки нормативлар билан боғлиқ бўлган зарур даражага нисбатан ошиб кетиши.

И

Износ

uz - yeyilish, eskirish
ейилиш, эскириш
en - ageing

Старение, изнашивание вещей, предметов, потеря первоначальных качеств, свойств, которыми они обладали. Различают физический износ, характеризующийся постепенной потерей первоначальных качеств, разрушением конструкций, и моральный износ, связанный с последовательным отставанием ранее созданных основных средств производства от современного технического уровня (моральное старение).

Buyumlar, narsalarning eskirishi, yeyilishi, ular ega bo'lgan xossalari, boshlang'ich sifatlarning yo'qolishi. Konstruksiyaning buzilishi, boshlang'ich sifatlarning asta-sekin yo'qolib borishi bilan tavsiflanadigan jismoniy yeyilish (eskirish), ilgari yaratilgan asosiy ishlab chiqarish vositalarining zamonaviy texnik darajadan izchil orqada qolishi bilan bog'liq ma'naviy yeyilish (ma'naviy eskirish) ajratiladi.

Буюмлар, нарсаларнинг эскириши, ейилиши, улар эга бўлган хоссалар, бошланғич сифатларнинг йўқолиши. Конструкциянинг бузилиши, бошланғич сифатларнинг аста-секин йўқолиб бориши билан тавсифланадиган жисмоний ейилиш (эскириш), илгари яратилган асосий ишлаб чиқариш воситаларининг замонавий техник даражадан изчил орқада қолиши билан боғлиқ маънавий ейилиш (маънавий эскириш) ажратилади.

Изъятие денег и ценных бумаг из обращения

uz - pullar va qimmatli qog'ozlarni muomaladan chiqarish
пуллар ва қимматли қоғозларни муомаладан чиқариш
en - private placement of securities

Уменьшение объема обращающихся денег и ценных бумаг с целью сокращения денежной массы для сохранения или повышения курса национальной валюты, снижения инфляции; замена денег и ценных бумаг одного вида на другие; устранение фальшивых денег и ценных бумаг.

Milliy valyuta kursini saqlash yoki oshirish, inflyatsiyani pasaytirish uchun pul massasini qisqartirish maqsadida, muomaladagi pullar va qimmatli qog'ozlar hajmini kamaytirish; bir turdagi pullar va qimmatli qog'ozlarni boshqalariga almashtirish; soxta pullar va qimmatli qog'ozlarni yo'qotish.

Миллий валюта курсини сақлаш ёки ошириш, инфляцияни пасайтириш учун пул массасини

И

қисқартириш мақсадида, муомаладаги пуллар ва қимматли қоғозлар ҳажмини камайтириш; бир турдаги пуллар ва қимматли қоғозларни бошқаларига алмаштириш; сохта пуллар ва қимматли қоғозларни йўқотиш.

Именные ценные бумаги

uz - nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar

номи ёзилган қимматли қоғозлар

en - registered securities

Ценные бумаги, выданные на имя определенного лица с правом их использования.

Foydalanish huquqi bilan birga, muayyan shaxs nomiga berilgan qimmatli qog'ozlar.

Фойдаланиш ҳуқуқи билан бирга, муайян шахс номига берилган қимматли қоғозлар.

Имидж

uz - imij

имиж

en - image

Формируемый у потребителя образ производителя или продавца продукции, товаров, услуг. Высокий имидж субъекта хозяйствования характеризует известность и популярность, устойчивое позитивное отношение покупателей к товарам, услугам и атрибутам стиля – товарному знаку, марке.

Mahsulot, tovarlar, xizmatlar ishlab chiqaruvchi va sotuvchining iste'molchida shakllantiriladigan obrazi. Xo'jalik yuritish subyektining yuksak imijini mashhurlik va ma'lumlik, xaridorlarning tovarlar, xizmatlarga va uslub atributlariga – savdo belgisi, markasiga bo'lgan barqaror, ijobiy munosabati tavsiflaydi.

Маҳсулот, товарлар, хизматлар ишлаб чиқарувчи ва сотувчининг истеъмолчида шакллантирилган образи. Хўжалик юритиш субъектининг юксак имижини машҳурлик ва маълумлик, харидорларнинг товарлар, хизматларга ва услуб атрибутларига – савдо белгиси, маркасига бўлган барқарор, ижобий муносабати тавсифлайди.

Имобилизация оборотных средств

uz - aylanma mablag'lar immobilizatsiyasi

айланма маблағлар

иммобилизацияси

en - immobilize of circulating assets

Отвлечение, изъятие предприятием части своих средств из оборота на другие непредусмотренные затраты, в которых возникла необходимость.

Korxonada tomonidan aylanishda bo'lgan mablag'larining bir qismini, zarurat tug'ilgan ko'zda tutilmagan boshqa xarajatlarga jalb qilish, olish.

И

Корхона томонидан айланишда бўлган маблағларнинг бир қисмини, зарурат туғилган кўзда тутилмаган бошқа харажатларга жалб қилиш, олиш.

Импорт

uz - import

импорт

en - import

Ввоз в страну закупленных за границей иностранных товаров или других ценностей для их употребления, использования в стране.

Iste'mol qilish, foydalanish uchun xorijda xarid qilingan chet el tovarlari yoki boshqa boyliklarning mamlakatga olib kirilishi.

Истеъмол қилиш, фойдаланиш учун хорижда харид қилинган чет эл товарлари ёки бошқа бойликларнинг мамлакатга олиб кирилиши.

Импортная квота

uz - import kvotasi

импорт квотаси

en - import quota

1. Нетарифное, то есть не связанное с ценами и налогами, количественное ограничение ввоза определенных видов товаров в страну, устанавливаемое правительством в целях ограждения собственной экономики, защиты внутреннего рынка.

2. Показатель, характеризующий объем импорта определенного товара в сравнении с потребностями в нем и объемами собственного производства.

1. Hukumat tomonidan o'z iqtisodiyotini, ichki bozorni himoyalash maqsadida o'rnatiladigan notarif, ya'ni narxlar va soliqlar bilan bog'liq bo'lmagan, muayyan turdagi tovarlarning mamlakatga olib kirilishini miqdoran cheklash.

2. Muayyan tovarga bo'lgan ehtiyojlar va o'zining ishlab chiqarish hajmlariga nisbatan, tovarning import hajmini tavsiflaydigan ko'rsatkich.

1. Хукумат томонидан ўз иқтисодиётини, ички бозорни химоялаш мақсадида ўрнатиладиган нотариф, яъни нархлар ва солиқлар билан боғлиқ бўлмаган, муайян турдаги товарларнинг мамлакатга олиб кирилишини миқдоран чеклаш.

2. Муайян товарга бўлган эҳтиёжлар ва ўзининг ишлаб чиқариш ҳажмларига нисбатан, товарнинг импорт ҳажмини тавсифлайдиган кўрсаткич.

И

Импортные пошлины

uz - import bojlar
импорт божлар
en - import duties

Платежи, взимаемые за ввоз в страну импортируемых товаров при пересечении границы.

Chegaradan o'tish chog'ida mamlakatga xorijdan tovarlar olib kirilishi uchun olinadigan to'lovlar.

Чегарадан ўтиш чоғида мамлакатга хориждан товарлар олиб кирилиши учун олинадиган тўловлар.

Имущество

uz - mulk
мулк
en - property

1. Материальные ценности, вещи, находящиеся во владении юридических и физических лиц; различают движимое, перемещаемое имущество (движимость) и недвижимое в виде земли и прикрепленных к ней объектов (недвижимость).

2. Имущественные права и обязанности юридических и физических лиц, например, наследственное имущество, имущество, находящееся на балансе предприятия, ответственность за сохранность имущества.

1. Yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufida bo'lgan moddiy boyliklar, buyumlar; harakatlanadigan, ko'char mulk (ko'chirib bo'ladigan mulk) va yer hamda unga birlashtirilgan obyektlar ko'rinishidagi ko'chirib bo'lmaydigan (ko'chmas mulk) ajratiladi.

2. Yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqlari va majburiyatlari, masalan, meros mulk, korxonada balansida bo'lgan mulk, mulkning but saqlanishi yuzasidan javobgarlik.

1. Юридический и физический субъект владения материальными ценностями, движимыми объектами, движимым имуществом (движимость) и недвижимым имуществом в виде земли и объектов, связанных с ней; различают движимое, перемещаемое имущество (движимость) и недвижимое в виде земли и объектов, связанных с ней (недвижимость).

2. Юридические и физические субъекты владения имущественными правами и обязанностями, например, наследственное имущество, имущество, находящееся на балансе предприятия, ответственность за сохранность имущества.

И

Инвентаризация

uz - inventarlash

инвентарлаш

en - stocktaking

Периодический переучет наличного имущества, товаров на предприятии, фирме, в магазине с целью проверки их наличия и сохранности, а также установления их соответствия ведомостям учета материальных ценностей.

Korxonа, firma, magazindagi mavjud mulk, tovarlarni, ularning mavjudligini, but saqlanishligini, shuningdek, ularning moddiy boyliklarni hisobga olish qaydnomalariga mos kelishini aniqlash maqsadida, davriy ravishda qayta hisoblash.

Корхона, фирма, магазиндаги мавжуд мулк, товарларни, уларнинг мавжудлигини, бут сақланишлигини, шунингдек, уларнинг моддий бойликларни ҳисобга олиш қайдномаларига мос келишини аниқлаш мақсадида, даврий равишда қайта ҳисоблаш.

Инвентарь

uz - inventar, mol-mulk

roʻuxati

инвентарь, мол-мулк

рўйхати

en - inventory

Предметы хозяйственного обихода (домашний инвентарь) и разнообразные инструменты производственного назначения, используемые на предприятиях и в организациях (производственный инвентарь).

Hoʻjalikda ishlatiladigan asboblar (uy inventari) va korxonalarda, tashkilotlarda ishlatiladigan, ishlab chiqarish maqsadlaridagi turli xil asbob-uskunalar (ishlab chiqarish inventari).

Хўжаликда ишлатиладиган асбоблар (уй инвентари) ва корхоналарда, ташкилотларда ишлатиладиган, ишлаб чиқариш мақсадларидаги турли хил асбоб-ускуналар (ишлаб чиқариш инвентари).

Инвестиции

uz - investitsiyalar

инвестициялар

en - investment

Долгосрочные вложения капитала в собственной стране или за рубежом в предприятия разных отраслей, предпринимательские и инновационные проекты, социально-экономические программы. Различают следующие виды инвестиций: государственные, образуемые из средств государственного бюджета, из государственных финансовых источников; частные, образуемые

И

из средств предприятий, организаций, граждан, включая как собственные, так и привлеченные средства; реальные, в виде долгосрочных вложений в объекты отраслей материального производства или в другие материальные объекты; прямые, вкладываемые непосредственно в производство определенного вида продукции; финансовые (портфельные), вкладываемые в акции, облигации и другие ценные бумаги.

Kapitalning mamlakatda yoki chet elda turli tarmoqlar korxonalariga, tadbirkorlik va innovatsion loyihalarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga uzoq muddatli qo'yilishi. Davlat byudjetidan, davlat moliya manbalaridan tashkil topadigan davlat investitsiyalari; korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarning mablag'laridan, jumladan, ham o'zining mablag'lari, ham jalb qilingan mablag'lardan tashkil topadigan xususiy investitsiyalar; moddiy ishlab chiqarish obyektlariga yoki boshqa moddiy obyektlarga uzoq muddatli qo'yilmalar ko'rinishidagi real investitsiyalar; bevosita muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqarishga qo'yiladigan to'g'ri investitsiyalar; aksiyalar, obligatsiyalar va qimmatli qog'ozlarga qo'yiladigan moliyaviy investitsiyalar ajratiladi.

Капиталнинг мамлакатда ёки чет элда турли тармоқлар корхоналарига, тадбиркорлик ва инновацион лойиҳаларга, ижтимоий-иқтисодий дастурларга узоқ муддатли қўйилиши. Давлат бюджетидан, давлат молия манбаларидан ташкил топадиган давлат инвестициялари; корхоналар, ташкилотлар, фуқароларнинг маблағларидан, жумладан, ҳам ўзининг маблағлари, ҳам жалб қилинган маблағлардан ташкил топадиган хусусий инвестициялар; моддий ишлаб чиқариш объектларига ёки бошқа моддий объектларга узоқ муддатли қўйилмалар кўринишидаги реал инвестициялар; бевосита муайян турдаги маҳсулотни ишлаб чиқаришга қўйиладиган тўғри инвестициялар; акциялар, облигациялар ва қимматли қоғозларга қўйиладиган молиявий инвестициялар ажратилади.

И

Инвестиционная компания
uz - investitsiys kompaniyasi
инвестиция компанияси
en - investment company

Организация в лице кредитно-финансового института (учреждения), аккумулирующая денежные средства частных инвесторов, привлекаемые посредством продажи собственных ценных бумаг. Привлеченные денежные средства инвестиционная компания размещает в своей стране и за рубежом путем покупки акций и облигаций предприятий.

Kredit-moliya instituti (muassasasi) timsolidagi, xususiy investorlarning, o'zining qimmatli qog'ozlarini sotish orqali jalb qilinadigan pul mablag'larini jamg'aradigan tashkilot. Jalb qilingan pul mablag'larini investitsiya kompaniyasi korxonalarining aksiyalari va obligatsiyalarini sotib olish yo'li bilan mamlakatda va chet elda joylashtiradi.

Кредит-молия институти (муассасаси) тимсолидаги, хусусий инвесторларнинг, ўзининг қимматли қоғозларини сотиш орқали жалб қилинадиган пул маблағларини жамғарадиган ташкилот. Жалб қилинган пул маблағларини инвестиция компанияси корхоналарнинг акциялари ва облигацияларини сотиб олиш йўли билан мамлакатда ва чет элда жойлаштиради.

Инвестиционная политика
uz - investitsiya siyosati
инвестиция сиёсати
en - investment policy

Составная часть экономической политики, проводимой государством и предприятиями в виде установления структуры и масштабов инвестиций, направлений их использования, источников получения с учетом необходимости обновления основных средств и повышения их технического уровня.

Davlat va korxonalar tomonidan asosiy vositalarni yangilash, ularning texnik saviyasini oshirish zarurati hisobga olingan holda, investitsiyalar strukturasi va ko'lamlarini, ulardan foydalanish yo'nalishlarini, olish manbalarini aniqlash maqsadida olib boriladigan iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi.

Давлат ва корхоналар томонидан асосий воситаларни янгилаш, уларнинг техник савиясини ошириш зарурати ҳисобга олинган ҳолда, инвестициялар структураси ва кўламларини, улардан

И

фойдаланиш йўналишларини, олиш манбаларини аниқлаш мақсадида олиб бориладиган иқтисодий сиёсатнинг таркибий қисми.

Инвестиционные товары

uz - investitsion tovarlar

инвестицион товарлар

en - producer goods

Товары, изготавливаемые за счет инвестиционного капитала для замены, обновления, качественного улучшения основных средств.

Investitsion kapital hisobiga asosiy vositalarni almashtirish, yangilash, sifatini yaxshilash uchun tayyorlanadigan tovarlar.

Инвестицион капитал ҳисобига асосий воситаларни алмаштириш, янгилаш, сифатини яхшилаш учун тайёрланадиган товарлар.

Инвестиционные фонды

uz - investitsiya fondlari

инвестиция фондлари

en - investment funds

Объединение средств компаний, организаций, вкладывающих денежный, инвестиционный капитал в ценные бумаги (преимущественно в акции) других компаний. Инвестиционные фонды создаются обычно в виде открытых акционерных обществ и представляют одну из разновидностей инвестиционных компаний.

Pul kapitalini, investitsion kapitalni, boshqa kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlariga (asosan, aksiyalariga) qo‘yadigan kompaniyalar, tashkilotlar mablag‘larining birlashtirishi. Investitsiya fondlari odatda, ochiq aksiyadorlar jamiyati ko‘rinishida tuziladi va investitsiya kompaniyalarining bir turini ifodalaydi.

Пул капиталини, инвестицион капитални, бошқа компанияларнинг қimmatли қоғозларига (асосан, акцияларига) қўядиган компаниялар, ташкилотлар маблағларининг бирлаштирилиши. Инвестиция фондлари одатда, очик акциядорлар жамияти кўринишида тузилади ва инвестиция компанияларининг бир турини ифодалайди.

Инвестиционные банки

uz - investitsion banklar

инвестицион банклар

en - investment bank

Банки, специализирующиеся на финансировании и долгосрочном кредитовании различных отраслей, предприятий.

Turli tarmoqlarni, korxonalarni moliyalashtirishga va uzoq muddatli kreditlashga ixtisoslashgan banklar.

И

Турли тармоқларни, корхоналарни молиялаштиришга ва узоқ муддатли кредитлашга ихтисослашган банклар.

Инвестор

uz - investor

инвестор

en - investor

Юридическое или физическое лицо, осуществляющее инвестиции, вкладывающее собственные, заемные или иные привлеченные средства в инвестиционные проекты. Инвестиционный капитал, вкладываемый инвестором, может быть представлен в виде финансовых ресурсов, имущества, интеллектуального продукта.

Investitsiyalarni amalga oshiradigan, o'z mablag'larini, qarz yoki boshqa jalb qilingan mablag'larni investitsion loyihalarga qo'yadigan yuridik yoki jismoniy shaxs. Investor tomonidan qo'yiladigan investitsion kapital moliyaviy resurslar, mulk, intellektual mahsulot ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

Инвестицияларни амалга оширадиган, ўз маблағларини, қарз ёки бошқа жалб қилинган маблағларни инвестицион лойихаларга қўядиган юридик ёки жисмоний шахс. Инвестор томонидан қўйиладиган инвестицион капитал молиявий ресурслар, мулк, интеллектуал маҳсулот кўринишида тақдим этилиши мумкин.

Индекс

uz - indeks

индекс

en - index

Экономический и статистический показатель, характеризующий в относительном виде изменение экономических величин, параметров экономических и социальных процессов во времени, за определенный период. В экономической статистике применяются индексы базисные (с постоянной, неизменной во времени базой) и цепные (с переменной базой, то есть получаемые путем сопоставления индексируемой величины в каждый данный срок с ее величиной в предшествующий промежуток времени).

Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar parametrlarining, iqtisodiy kattaliklarning vaqtda, muayyan davr ichida nisbiy ko'rinishda o'zgarishini tavsiflaydigan iqtisodiy va statistik ko'rsatkich. Iqtisodiy statistika bazis (vaqtda doimiy, o'zgarish bazaga ega)

И

va zanjir (o'zgaruvchan bazaga ega, ya'ni indekslanadigan kattalikni har bir berilgan muddatda oldingi vaqt oralig'idagi kattalik bilan taqqoslash yo'li bilan olinadigan) indekslar qo'llaniladi.

Иқтисодий ва ижтимоий жараёнлар параметрларининг, иқтисодий катталикларнинг вақтда, муайян давр ичида нисбий кўринишда ўзгаришини тавсифлайдиган иқтисодий ва статистик кўрсаткич. Иқтисодий статистикада базис (вақтда доимий, ўзгармас базага эга) ва занжир (ўзгарувчан базага эга, яъни индексланадиган катталиқни ҳар бир берилган мuddатда олдинги вақт oralig'идаги катталиқ билан таққослаш йўли билан олинadиган) индекслар қўлланилади.

Индекс цен

uz - narxlar indeksi

нархлар индекси

en - price index

Соотношение цены на товар или группу товаров в данном году к цене базисного года.

Berilgan yildagi tovar yoki tovarlar guruhi narxining, bazis yildagi narxga bo'lgan nisbati.

Берилган йилдаги товар ёки товарлар гуруҳи нархининг, базис йилдаги нархга бўлган нисбати.

Индексация

uz - indekslash

индекслаш

en - indexing

Один из способов защиты населения, потребителей от инфляции, состоящий в том, что государство, работодатели, банки увеличивают денежные доходы и сбережения граждан в соответствии с ростом цен на потребительские товары и услуги.

Aholini, iste'molchilarni inflyatsiyadan himoyalash usullaridan biri, davlat, ish beruvchilar, banklar iste'mol tovarlari va xizmatlarning narxlari oshib borishiga mos ravishda, fuqarolarning pul daromadlari va jamg'armalarini oshirib borishlarida ifodalanaadi.

Аҳолини, истеъмолчиларни инфляциядан ҳимоялаш усулларидан бири, давлат, иш берувчилар, банклар истеъмол товарлари ва хизматларнинг нархлари ошиб боришига мос равишда, фуқароларнинг пул даромадлари ва жамғармаларини ошириб боришларида ифодаланади.

И

Индивидуальная трудовая деятельность

uz - yakka tartibdagi mehnat faoliyati

якка тартибдаги меҳнат фаолияти

en - individual labour activity

Общественно полезная самостоятельная, личная деятельность граждан, проводимая в целях обеспечения занятости, получения дополнительных доходов, более полного удовлетворения потребностей населения в товарах и услугах.

Fuqarolarning, bandlikni ta'minlash, qo'shimcha daromad olish, aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini yanada to'laroq qondirish maqsadida olib boriladigan, ijtimoiy foydali, mustaqil shaxsiy faoliyati.

Фуқароларнинг, бандликни таъминлаш, қўшимча даромад олиш, аҳолининг товарлар ва хизматларга бўлган эҳтиёжини янада тўлароқ қондириш мақсадида олиб бориладиган, ижтимоий фойдали, мустақил шахсий фаолияти.

Индикативное планирование

uz - indikativ rejalashtirish

индикатив режалаштириш

en - indicative

Недирективное, рекомендательное, ориентирующее планирование на государственном уровне.

Davlat darajasida nodirektiv, tavsiya etiladigan, yo'lovchi rejalashtirish.

Давлат даражасида нодиректив, тавсия этиладиган, йўловчи режалаштириш.

Индикатор

uz - indikator

индикатор

en - indicator

Ориентирующий экономический показатель, измеритель, позволяющий в определенной степени предвидеть, в каком направлении следует ожидать развития экономических процессов.

Iqtisodiy jarayonlar rivojlanishini qaysi yo'nalishda kutish kerakligini muayyan darajada oldindan bilish imkonini beradigan, yo'naltiruvchi iqtisodiy ko'rsatkich, o'lchagich.

Иқтисодий жараёнлар ривожланишини қайси йўналишда кутиш кераклигини муайян даражада олдиндан билиш имконини берадиган, йўналтирувчи иқтисодий кўрсаткич, ўлчагич.

Индустриализация

uz - industrilashtirish

индустрлаштириш

en - industrialisation

Перевод экономики страны на промышленную основу, создание крупного машинного производства в народном хозяйстве или отдельной его отрасли, значительное увеличение доли промышленного производства в экономике.

И

Mamlakat iqtisodiyotini sanoat asosiga o'tkazish, xalq xo'jaligida yoki uning ayrim tarmog'ida yirik mashina ishlab chiqarishini vujudga keltirish, iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarish ulushini sezilarli oshirish.

Мамлакат иқтисодиётини sanoat asosiga ўтказиш, халқ хўжалигида ёки унинг айрим тармоғида йirik машина ишлаб чиқаришини вужудга келтириш, иқтисодиётда sanoat ишлаб чиқариш улушини сезиларли ошириш.

Инжиниринг

uz - injiniring

инжиниринг

en - engineering

Инженерно-консультационные услуги, работы исследовательского, проектно-конструкторского, расчетно-аналитического характера, подготовка технико-экономических обоснований проектов, выработка рекомендаций в области организации производства и управления, реализации продукции.

Injenerlik-maslahat xizmatlari, tadqiqot, loyiha-konstruktorlik, hisob-kitob-tahlil xarakteridagi ishlar, loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini tayyorlash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish, mahsulotni sotish sohasida tavsiyalar ishlab chiqish.

Инженерлик-маслаҳат хизматлари, тадқиқот, лойиҳа-конструкторлик, ҳисоб-китоб-таҳлил хактеридаги ишлар, лойиҳаларнинг техник-иқтисодий асосларини тайёрлаш, ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва бошқариш, маҳсулотни сотиш соҳасида тавсиялар ишлаб чиқиш.

Инкассация

uz - inkassatsiya

инкассация

en - encashment

Сбор в кассах предприятий, организаций и учреждений наличных денег и ценностей и доставка их в кассы кредитных учреждений.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar kassalaridagi naqd pullar va boyliklarni yig'ish, ularni kredit muassasalari kassalariga yetkazish.

Корхоналар, ташкилотлар ва муассасалар кассаларидаги нақд пуллар ва бойликларни йиғиш, уларни кредит муассасалари кассаларига етказиш.

И

Инкассо

uz - inkasso

инкассо

en - collection

Вид банковской операции по передаче денежных средств от одних клиентов другим, от плательщиков получателем. Это посредническая банковская операция по передаче денежных средств от плательщика к получателю через банк с зачислением этих средств на счет получателя.

Pul mablagʻlarini bir mijozdan boshqasiga, toʻlovchilardan oluvchilarga berish boʻyicha bank operatsiyasi. Bu, pul mablagʻlarini bank orqali toʻlovchidan oluvchiga, ushbu mablagʻlarni oluvchining hisobraqamiga oʻtkazgan holda berish boʻyicha vositachilik bank operatsiyasidir.

Пул маблағларини бир миждан бошқасига, тўловчилардан олувчиларга бериш бўйича банк операцияси. Бу, пул маблағларини банк орқали тўловчидан олувчига, ушбу маблағларни олувчининг ҳисобрақамига ўтказган ҳолда бериш бўйича воситачилик банк операциясидир.

Инкорпорация

uz - inkorporatsiya

инкорпорация

en - incorporation

1. Объединение, присоединение других организаций.
2. Предоставление в соответствии с законом группе лиц статуса корпорации, юридического лица.
3. Систематизация законов государства, расположение их в определенном порядке без изменения содержания самих законов.

1. Boshqa tashkilotlarning birlashishi, qoʻshilishi.
2. Qonunga muvofiq bir guruh shaxslarga korporatsiya, yuridik shaxs maqomini berish.
3. Davlat qonunlarini tizimlashtirish, bu qonunlarning mazmunini buzmagani holda, ularni muayyan tartibda joylashtirish.

1. Бошқа ташкилотларнинг бирлашиши, қўшилиши.
2. Қонунга мувофиқ бир гуруҳ шахсларга корпорация, юридик шахс мақомини бериш.
3. Давлат қонунларини тизимлаштириш, бу қонунларнинг мазмунини бузмаган ҳолда, уларни муайян тартибда жойлаштириш.

И

Инновации

uz - innovatsiyalar
инновациялар
en - innovation

Нововведения в области техники, технологии, организации труда и управления, основанные на использовании достижений науки и передового опыта; экономические и технические новшества.

Texnika, texnologiya, mehnat va boshqaruvni tashkil qilish sohasidagi, fan yutuqlaridan va ilg'or tajribadan foydalanishga asoslangan yangiliklar; iqtisodiy va texnik yangiliklar.

Техника, технология, меҳнат ва бошқарувни ташкил қилиш соҳасидаги, фан ютуқларидан ва илғор тажрибадан фойдаланишга асосланган янгиликлар; иқтисодий ва техник янгиликлар.

Иностранные банки

uz - chet el banklari
чет эл банклари
en - overseas bank

Банки, полностью или частично принадлежащие иностранному капиталу.

To'liq yoki qisman chet el kapitaliga tegishli bo'lgan banklar.

Tўлиқ ёки қисман чет эл капиталига тегишли бўлган банклар.

Иностранные займы

uz - chet el qarzlari
чет эл қарзлари
en - foreign lending

Займы, полученные из-за рубежа, от других стран, от иностранных и международных банков.

Chet eldan, boshqa mamlakatlardan, xorij va xalqaro banklardan olingan qarzlار.

Чет элдан, бошқа мамлакатлардан, хориж ва халқаро банклардан олинган қарзлар.

Иностранный капитал

uz - chet el kapitali
чет эл капитали
en - outside capital

Инвестиции, капиталовложения других стран в экономику данной страны, осуществляемые в самых разных формах.

Boshqa mamlakatlarning turli shakllarda amalga oshiriladigan, ma'lum bir mamlakat iqtisodiyotiga kiritadigan investitsiyalari, kapital mablag'lari.

Бошқа мамлакатларнинг турли шаклларда амалга ошириладиган, маълум бир мамлакат иқтисодиётига киритадиган инвестициялари, капитал маблағлари.

И

Инсайдер

uz - insayder
инсайдер
en - insider

Любое лицо, имеющее доступ к конфиденциальной информации о делах фирмы благодаря своему служебному положению или родственным связям.

O‘zining xizmat mavqei yoki qarindoshlik aloqalari tufayli, firmaning ishlari to‘g‘risidagi konfidensial axborotdan foydalanish huquqi bo‘lgan har qanday shaxs.

Ўзининг хизмат мавқеи ёки қариндошлик алоқалари туфайли, фирманинг ишлари тўғрисидаги конфиденциал ахборотдан фойдаланиш ҳуқуқи бўлган ҳар қандай шахс.

Инспекция

uz - inspeksiya
инспекция
en - inspection

Органы государственного управления, выполняющие функции надзора, проверки, контроля за надлежащим исполнением официально установленных правил и норм работы, деятельности предприятий, организаций, фирм, их служебного персонала. Инспекцией называют также деятельность этих органов, сами акты проверки.

Korxonalar, tashkilotlar, firmalar, ularning xizmat xodimlari faoliyati, ishining rasman o‘rnatilgan qoidalari va normalari zarur darajada bajarilishi yuzasidan nazorat, tekshirish funksiyalarini amalga oshiradigan davlat boshqaruv organlari. Shuningdek, bu organlarning faoliyati, tekshiruv hujjatlarining o‘zi.

Корхоналар, ташкилотлар, фирмалар, уларнинг хизмат ходимлари фаолияти, ишининг расман ўрнатилган қоидалари ва нормалари зарур даражада бажарилиши юзасидан назорат, текшириш функцияларини амалга оширадиган давлат бошқарув органлари. Шунингдек, бу органларнинг фаолияти, текширув ҳужжатларининг ўзи.

Инстанция

uz - instansiya
инстанция
en - instance

Степень в управленческой иерархии, на которой находится данное учреждение, звено управления по отношению к другим учреждениям.

Boshqaruv iyerarxiyasida muassasa turgan pog‘ona, boshqa muassasalarga nisbatan boshqaruv bo‘g‘ini.

Бошқарув иерархиясида муассаса турган поғона, бошқа муассасаларга нисбатан бошқарув бўғини.

И

Институты экономические
uz - iqtisodiy institutlar
иқтисодий институтлар
en - economic institute

Устойчивые формальные и неформальные правила и нормы экономических действий в виде законов, кодексов, положений, обычаев, а также поддерживающих их органов власти, управления.

Iqtisodiy harakatlarning qonunlar, kodekslar, nizomlar, urf-odatlar, shuningdek, ularni qo'llab-quvvatlaydigan hokimiyat, boshqaruv organlari ko'rinishidagi barqaror rasmiy, norasmiy qoidalari va normalari.

Иқтисодий ҳаракатларнинг қонунлар, кодекслар, низомлар, урф-одатлар, шунингдек, уларни қўллаб-қувватлайдиган ҳокимият, бошқарув органлари кўринишидаги барқарор расмий, норасмий қоидалари ва нормалари.

Институциональная политика
uz - institutsional siyosat
институционал сиёсат
en - institutional policy

Государственные меры, действия по формированию новых, устранению старых или трансформации имеющихся собственных, трудовых, финансовых, социальных и других экономических институтов (экономических элементов социальной структуры, характеризующих устройство, формы организации и регулирования экономической жизни).

Mavjud xususiy mulkchilik, mehnat, moliya, ijtimoiy va boshqa iqtisodiy institutlarni (iqtisodiy hayotni tartibga solish va tashkil qilish shakllarini, tuzilishini tavsiflaydigan ijtimoiy strukturaning iqtisodiy elementlarini) o'zgartirish, yoki eskilarini bartaraf qilish, yangilarini tuzish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, ishlar.

Мавжуд хусусий мулкчилик, меҳнат, молия, ижтимоий ва бошқа иқтисодий институтларни (иқтисодий ҳаётни тартибга солиш ва ташкил қилиш шакллари, тузилишини тавсифлайдиган ижтимоий структуранинг иқтисодий элементларини) ўзгартириш, ёки эскиларини бартараф қилиш, янгиларини тузиш бўйича давлат томонидан амалга ошириладиган чора-тадбирлар, ишлар.

И

Институциональные факторы

uz - institutsional omillar

институционал омиллар

en - institutional factors

Факторы, связанные с управлением, регулированием отдельных сфер, областей общественных отношений.

Ijtimoiy munosabatlarning alohida jabhalarini, sohalarini boshqarish, tartibga solish bilan bogʻliq omillar.

Ижтимоий муносабатларнинг алоҳида жабаҳаларини, соҳаларини бошқариш, тартибга солиш билан боғлиқ омиллар.

Инструкция

uz - qoʻllanma, yoʻriqnom

кўлланма, йўриқнома

en - instruction

Совокупность правил осуществления определенных видов деятельности, проведения работ, служебного поведения, изложенных в специальных нормативных документах.

Maxsus normativ hujjatlarda bayon qilingan muayyan faoliyat turlarini amalga oshirish, ishlarni olib borish, xizmat bilan bogʻliq muomala qoidalari jami.

Махсус норматив хужжатларда баён қилинган муайян фаолият турларини амалга ошириш, ишларни олиб бориш, хизмат билан боғлиқ муомала қоидалари жами.

Инструменты

стимулирования сбыта

uz - sotuvni ragʻbatlantirish

vositlari

сотувни рағбатлантириш

воситалари

en - sales promotion tools

Средства поощрения потребителей с целью совершения ими покупки: раздача бесплатных образцов товара, купоны, скидки, премии, призы, вознаграждения, бесплатные пробы, гарантии. К ним также относятся средства стимулирования торговли: снижение закупочных цен, компенсации за рекламу и средства стимулирования деловых партнеров: торговые выставки, конференции, сувенирная реклама.

Xaridni amalga oshirishlari maqsadida, iste'molchilarni ragʻbatlantirish vositalari: tovarning bepul namunalari tarqatish, kuponlar, chegirmalar, mukofotlar, bepul sinab koʻrishlar, kafolatlar. Ularga shuningdek, savdoni ragʻbatlantirish vositalari: xarid narxlarini pasaytirish, reklama uchun kompensatsiya, amaliy hamkorlarni ragʻbatlantirish vositalari – savdo koʻrgazmalari, konferensiyalar, souvenir reklama ham kiradi.

И

Харидни амалга оширишлари мақсадида, истеъмолчиларни рағбатлантириш воситалари: товарнинг бепул намуналарини тарқатиш, купонлар, чегирмалар, мукофотлар, бепул синаб кўришлар, кафолатлар. Уларга шунингдек, савдони рағбатлантириш воситалари: харид нархларини пасайтириш, реклама учун компенсация, амалий ҳамкорларни рағбатлантириш воситалари – савдо кўргазмалари, конференциялар, сувенир реклама ҳам киради.

Интегральные экономические показатели

uz - integral iqtisodiy ko'rsatkichlar

интеграл иқтисодий кўрсаткичлар

en - integral economic indicators

Обобщенные, сводные, синтетические показатели, определяемые путем сведения, суммирования частных, локальных показателей.

Xususiy, mahalliy (lokal) ko'rsatkichlarni qo'shish, birlashtirish yo'li bilan aniqlanadigan umumlashtirilgan, jamlanma, sintetik ko'rsatkichlar.

Хусусий, маҳаллий (локал) кўрсаткичларни қўшиш, бирлаштириш йўли билан аниқланадиган умумлаштирилган, жамланма, синтетик кўрсаткичлар.

Интеграция экономическая

uz - iqtisodiy integratsiya

иқтисодий интеграция

en - integration economic

Объединение экономических субъектов, углубление их взаимодействия, развитие связей между ними. Экономическая интеграция имеет место как на уровне национальных хозяйств, отдельных стран, так и между предприятиями, фирмами, компаниями, корпорациями.

Iqtisodiy subyektlarni birlashtirish, ularning o'zaro hamkorligini chuqurlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish. Iqtisodiy integratsiya ham milliy xo'jaliklar, alohida mamlakatlar darajasida, ham korxonalar, firmalar, kompaniyalar, korporatsiyalar o'rtasida yuz beradi.

Иқтисодий субъектларни бирлаштириш, уларнинг ўзаро ҳамкорлигини чуқурлаштириш, улар ўртасидаги алоқаларни ривожлантириш. Иқтисодий интеграция ҳам миллий хўжаликлар, алоҳида мамлакатлар даражасида, ҳам корхоналар, фирмалар, компаниялар, корпорациялар ўртасида юз беради.

И

Интегрированные маркетинговые коммуникации
uz - integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari
интеграциялашган маркетинг коммуникациялари
en - integrated marketing communication

Концепция координации всех каналов коммуникации в комплексе (реклама в СМИ, личные продажи, стимулирование сбыта, связи с ответственностью, прямой маркетинг, упаковка и др.)

Barcha kommunikatsiya kanallarini kompleks muvofiqlashtirish konsepsiyasi (omnaviy axborot vositalarida reklama qilish, shaxsiy sotuvlar, sotuvni ragʻbatlantirish, jamoat bilan aloqalar, bevosita marketing, oʻrab joylashtirish).

Барча коммуникация каналларини комплекс мувофиқлаштириш концепцияси (оммавий ахборот воситаларида реклама қилиш, шахсий сотувлар, сотувни рағбатлантириш, жамоат билан алоқалар, бевосита маркетинг, ўраб жойлаштириш).

Интеллектуальная собственность
uz - intellektual mulk
интеллектуал мулк
en - intellectual property

Собственность на продукты интеллектуальной деятельности, входящие в совокупность объектов авторского права. Интеллектуальная собственность относится к литературным, художественным, научным произведениям, исполнительской актерской деятельности, звукозаписи, радио и телевизионным передачам, изобретениям, открытиям, товарным знакам, фирменным наименованиям, первым промышленным образцам новых изделий.

Mualliflik huquqi obyektlari majmuiga kiradigan intellektual faoliyat mahsulotlariga egalik. Intellektual mulkka badiiy, adabiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyor faoliyati, ovoz yozish, radio va televizion eshittirishlar, ixtirolar, kashfiyotlar, tovar belgilari, firma nomlari, yangi buyumlarning birinchi sanoat namunalari kiradi.

Муаллифлик ҳуқуқи объектлари мажмуига кирадиган интеллектуал фаолият маҳсулотларига эгалик. Интеллектуал мулкка бадий, адабий, илмий асарлар, ижрочи актёр фаолияти, овоз ёзиш, радио ва телевизион эшиттиришлар, ихтиролар, кашфиётлар, товар белгилари, фирма номлари, янги буюмларнинг биринчи sanoat намуналари кирати.

И

Интеллектуальный продукт

uz - intellektual mahsulot

интеллектуал маҳсулот

en - intellectual product

Результат духовной, мыслительной, интеллектуальной деятельности человека. Включает изобретения, открытия, патенты, научные отчеты и доклады, проекты, описания технологий, литературные, музыкальные, художественные произведения, творения искусства.

Inson ma'naviy-aqliy, tafakkur, intellektual faoliyatining natijasi. Ixtirolar, kashfiyotlar, patentlar, ilmiy hisobotlar va ma'ruzalar, loyihalar, texnologiyalar bayoni, adabiy, musiqiy, badiiy asarlar, san'at asarlarini ichiga oladi.

Инсон маънавий-ақлий, тафаккур, интеллектуал фаолиятининг натижаси. Ихтиролар, кашфиётлар, патентлар, илмий ҳисоботлар ва маърузалар, лойиҳалар, технологиялар баёни, адабий, мусиқий, бадий асарлар, санъат асарларини ичига олади.

Интенсивность

uz - jadallik

жадаллик

en - intensity

Показатель, характеризующий эффективность, отдачу, меру использования разных факторов производства, экономических ресурсов. Интенсивное производство достигается не увеличением количества, объема применяемых ресурсов, а более полным использованием каждой единицы ресурсного потенциала.

Iqtisodiy resurslardan, ishlab chiqarishning turli omillaridan foydalanish samaradorligini, unumini, darajasini tavsiflaydigan ko'rsatkich. Jadal ishlab chiqarishga qo'llaniladigan resurslar hajmini, miqdorini oshirish bilan emas, balki potensial resursning har birligidan yanada to'liqroq foydalanish bilan erishiladi.

Иқтисодий ресурслардан, ишлаб чиқаришнинг турли омилларидан фойдаланиш самарадорлигини, унумини, даражасини тавсифлайдиган кўрсаткич. Жадал ишлаб чиқаришга қўлланиладиган ресурслар ҳажмини, миқдорини ошириш билан эмас, балки потенциал ресурсининг ҳар бирлигидан янада тўлиқроқ фойдаланиш билан эришилади.

И

Интенсификация

uz - jadallashtirish

жадаллаштириш

en - intensification

Повышение интенсивности производства путем более полного использования каждой единицы ресурсного потенциала, за счет роста производительности труда, более полного использования материалов, повышения отдачи основных средств, лучшего использования времени.

Resurs potensialining har birligidan yanada to'liqroq foydalanish yo'li bilan, mehnat unumdorligini oshirish, materiallardan yanada to'liqroq foydalanish, asosiy vositalar unumini oshirish, vaqtdan yaxshi foydalanish hisobiga, ishlab chiqarish jadalligini oshirish.

Ресурс потенциалининг ҳар бирлигидан янада тўлиқроқ фойдаланиш йўли билан, меҳнат унумдорлигини ошириш, материаллардан янада тўлиқроқ фойдаланиш, асосий воситалар унумини ошириш, вақтдан яхши фойдаланиш ҳисобига, ишлаб чиқариш жадаллигини ошириш.

Интервенция

экономическая

uz - iqtisodiy intervensiya

иқтисодий интервенция

en - economic intervention

Экономическое воздействие одного субъекта на дела и действия другого, проводимое посредством проникновения в сферу этих действий, вложений и размещения в ней собственных денежных средств.

Bir subyektning boshqa bir subyekt ishlariga ko'rsatadigan iqtisodiy ta'siri, bu ishlar sohasiga suqulib kirish, unga xususiy pul mablag'larini qo'yish va joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

Бир субъектнинг бошқа бир субъект ишларига кўрсатадиган иқтисодий таъсири, бу ишлар соҳасига суқулиб кириш, унга хусусий пул маблағларини қўйиш ва жойлаштириш орқали амалга оширилади.

Интересы

uz - manfaatlar

манфаатлар

en - interests

Заинтересованность, побудительные мотивы действий экономических субъектов. Принято выделять материальные, духовные, денежные, имущественные интересы.

Iqtisodiy subyektlarning manfaatdorligi, ishlashga undaydigan sabablar. Moddiy, ma'naviy, pul bilan bog'liq, mulkiy manfaatlar ajratiladi.

И

Иқтисодий субъектларнинг манфаатдорлиги, ишлашга ундайдиган сабаблар. Моддий, маънавий, пул билан боғлиқ, мулкый манфаатлар ажратилади.

Инфляционные ожидания

uz - inflyatsiya bilan bog'liq taxminlar

инфляция билан боғлиқ тахминлар

en - inflation expectations

Предполагаемые, прогнозируемые, ожидаемые уровни инфляции, основываясь на которых производители и потребители, продавцы и покупатели строят свою будущую денежную и ценовую политику, просчитывают доходы, расходы, прибыль, кредиты.

Inflyatsiyaning taxmin qilinadigan, prognozlanadigan, kutiladigan darajalari. Ularga asoslanib ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, sotuvchilar va xaridorlar o'zlarining kelajakdagi pul va baho siyosatlarini quradilar, daromadlar, xarajatlarni, foyda, kreditlarni hisoblab chiqadilar.

Инфляциянинг тахмин қилинадиган, прогнозланадиган, кутиладиган даражалари. Уларга асосланиб ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчилар, сотувчилар ва харидорлар ўзларининг келажакдаги пул ва баҳо сиёсатларини курадилар, даромадлар, харажатларни, фойда, кредитларни ҳисоблаб чиқадилар.

Инфляция

uz - inflyatsiya

инфляция

en - inflation

Обесценение денег, проявляющееся в росте цен на товары и услуги, не обусловленном повышением их качества. Инфляция вызывается прежде всего переполнением каналов денежного обращения избыточной денежной массой при отсутствии адекватного увеличения товарной массы.

Sifatning oshishi bilan bog'liq bo'lmagan holda, tovarlar va xizmatlar narxining o'sishida ifodalanadigan pulning qadrsizlanishi. Inflyatsiya tovar massasi teng miqdorda oshmagan holda, pul aylanish kanallari ortiqcha pul massasi bilan to'lib ketishi tufayli kelib chiqadi.

Сифатнинг ошиши билан боғлиқ бўлмаган ҳолда, товарлар ва хизматлар нархининг ўсишида ифодаланадиган пулнинг қадрсизланиши. Инфляция товар массаси тенг миқдорда ошмаган ҳолда, пул айланиш каналлари ортиқча пул массаси билан тўлиб кетиши тўғрисида келиб чиқади.

И

Информационное обеспечение

uz - axborot ta'minoti

ахборот таъминоти

en - information provision

Создание информационных условий функционирования системы; информация, необходимая для управления экономическими процессами, содержащаяся в банке данных информационно-управляющих систем, а также средства и приемы поиска, получения, хранения, передачи, обработки и использования информации.

Tizim ishlashi uchun axborot bilan bog'liq sharoitlarning yaratilishi, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan, axborot-boshqarish tizimlarining ma'lumotlar bankida saqlanadigan axborot, shuningdek, axborotni izlab topish, olish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va undan foydalanish vositalari, yo'llari.

Тизим ишлаши учун ахборот билан боғлиқ шароитларнинг яратилиши, иқтисодий жараёнларни бошқариш учун зарур бўлган, ахборот-бошқариш тизимларининг маълумотлар банкида сақланадиган ахборот, шунингдек, ахборотни излаб топиш, олиш, сақлаш, узатиш, қайта ишлаш ва ундан фойдаланиш воситалари, йўллари.

Информационные системы

uz - axborot tizimlari

ахборот тизимлари

en - information system

Упорядоченная совокупность документов и информационных технологий, системы хранения, обработки, преобразования, передачи, обновления информации, с использованием компьютерной и другой техники. Информационные системы, технологии и средства их обеспечения способствуют повышению эффективности управления, облегчают интеллектуальный труд.

Hujjatlar va axborot texnologiyalarining, kompyuter texnikasi va boshqa texnikadan foydalanib, axborotni saqlash, qayta ishlash, o'zgartirish, uzatish, yangilish tizimlarining tartiblashtirilgan jami. Axborot tizimlari, ularni ta'minlash vositalari, texnologiyalari boshqaruv samaradorligi oshishiga ko'maklashadi, aqliy mehnatni yengillashtiradi.

Хужжатлар ва ахборот технологияларининг, компьютер техникаси ва бошқа техникадан фойдаланиб, ахборотни сақлаш, қайта ишлаш, ўзгартириш, узатиш, янгилиш тизимларининг тартиб-

И

лаштирилган жами. Ахборот тизимлари, уларни таъминлаш воситалари, технологиялари бошқарув самарадорлиги ошишига кўмаклашади, ақлий меҳнатни енгиллаштиради.

Информация

uz - axborot

ахборот

en - information

1. Сообщение о чем-либо.
2. Сведения, данные, значения экономических показателей, используемые в процессе анализа и выработки экономических решений, в управлении.
3. Один из видов ресурсов, используемых в экономических процессах.
4. Одна из трех фундаментальных субстанций (вещество, энергия, информация), составляющих сущность мироздания и охватывающих любой продукт мыслительной деятельности, прежде всего знания, образы.

1. Nimadir to'g'risidagi xabar.

2. Tahlil va iqtisodiy yechimlar ishlab chiqish jarayonida, boshqaruvda foydalaniladigan ma'lumotlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar qiymatlari.

3. Iqtisodiy jarayonlarda ishlatiladigan resurslar turlaridan biri.

4. Olam mohiyatini tashkil etadigan va har qanday tafakkur mahsulini, avvalo, bilimlar, obrazlarni qamrab oladigan uchta fundamental substansiya (modda, energiya, axborot)dan biri.

1. Нимадир тўғрисидаги хабар.

2. Таҳлил ва иқтисодий ечимлар ишлаб чиқиш жараёнида, бошқарувда фойдаланиладиган маълумотлар, иқтисодий кўрсаткичлар қийматлари.

3. Иқтисодий жараёнларда ишлатиладиган ресурслар турларидан бири.

4. Олам моҳиятини ташкил этадиган ва ҳар қандай тафаккур маҳсулини, аввало, билимлар, образларни қамраб оладиган учта фундаментал субстанция (модда, энергия, ахборот)дан бири.

Инфраструктура

uz - infratuzilma

инфратузилма

en - infrastructure

Совокупность отраслей, предприятий и организаций, входящих в эти отрасли, видов их деятельности; все то, что носит подчиненный, вспомогательный характер и обеспечивает условия для нормального функционирования произ-

И

водствам обращения товаров, а также жизнедеятельности людей. Различают производственную и социальную инфраструктуры.

Tarmoqlar, bu tarmoqlarga kiradigan korxonalar, tashkilotlar, ular faoliyat turlarining yig'indisi; bo'ysunuvchi, yordamchi xususiyat kasb etadigan, ishlab chiqarish normal ishlashi, tovarlar aylanishi, shuningdek, odam hayoti uchun sharoit ta'minlaydigan hamma narsa. Ishlab chiqarish strukturasi va ijtimoiy struktura ajratiladi.

Тармоқлар, бу тармоқларга кирадиган корхоналар, ташкилотлар, улар фаолият турларининг йиғиндиси; бўйсунувчи, ёрдамчи хусусият касб этадиган, ишлаб чиқариш нормал ишлаши, товарлар айланиши, шунингдек, одам ҳаёти учун шароит таъминлайдиган ҳамма нарса. Ишлаб чиқариш структураси ва ижтимоий структура ажратилади.

Ипотека

uz - ipoteka

ипотека

en - mortgage

Залог недвижимого имущества, главным образом земли и строений, с целью получения ипотечного кредита. Под ипотекой понимают также закладную и долг по ипотечному кредиту. При жилищной ипотеке в качестве залога банки-кредиторы сохраняют право собственника жилья до возврата кредита.

Ipoteka krediti olish maqsadida, ko'chmas mulkni, asosan, yer va imoratlarni garovga qo'yish. Ipoteka deganda, shuningdek, ipoteka krediti bo'yicha garov xati va qarz ham tushuniladi. Uy-joy kreditida garov sifatida kredit beruvchi banklar kredit qaytarilgunga qadar uy-joy egasining huquqini saqlab qoladilar.

Ипотека кредити олиш мақсадида, кўчмас мулкни, асосан, ер ва иморатларни гаровга қўйиш. Ипотека деганда, шунингдек, ипотека кредити бўйича гаров хати ва қарз ҳам тушунилади. Уй-жой кредитида гаров сифатида кредит берувчи банклар кредит қайтарилгунга қадар уй-жой эгасининг ҳуқуқини сақлаб қоладилар.

И

Ипотечный банк

uz - ipoteka banki
ипотека банки
en - mortgage bank

Банк, выдающий долгосрочные кредиты под залог недвижимого имущества.

Ko'chmas mulkni garovga qo'yish evaziga uzoq muddatli kreditlar beradigan bank.

Kўчмас мулкни гаровга қўйиш эвазига узок муддатли кредитлар берадиган банк.

Исполнитель

uz - bajaruvchi
бажарувчи
en - executor

Любое лицо (предприятие, организация, фирма, человек), выполняющее работу или оказывающее услуги по заказу, заданию другого лица или согласно договору с заказчиком работ и услуг.

Ishlar, xizmatlar buyurtmachisi bilan shartnomaga ko'ra yoki boshqa shaxsning topshirig'i, buyurtmasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yoki ish bajaradigan har qanday shaxs (korxonona, tashkilot, firma, odam).

Ишлар, хизматлар буюртмачиси билан шартномага кўра ёки бошқа шахсинг топшириғи, буюртмаси бўйича хизматлар кўрсатадиган ёки иш бажарадиган ҳар қандай шахс (корхона, ташкилот, фирма, одам).

Исследование

uz - o'rganish, tadqiq qilish
ўрганиш, тадқиқ қилиш
en - research

Систематический сбор информации о потребительском поведении отдельных сегментов с использованием методов: анкетного, индивидуальных интервью, методом фокус-групп, почтового, Интернет опроса и интерпретация полученных данных посредством их обработки.

Anketa, pochta, Internet so'rov, individual intervyu, fokus guruhlar metodidan foydalanib, alohida segmentlarning iste'mol xulq-atvori to'g'risida muntazam ravishda ma'lumot yig'ish va qayta ishlash vositasida olingan ma'lumotlarni talqin qilish.

Анкета, почта, Интернет сўров, индивидуал интервью, фокус гуруҳлар методидан фойдаланиб, алоҳида сегментларнинг истеъмол хулқ-атвори тўғрисида мунтазам равишда маълумот йиғиш ва қайта ишлаш воситасида олинган маълумотларни талқин қилиш.

И

Исследование рынка

uz - bozorni o'rganish

бозорни ўрганиш

en - market testing

Количественный и качественный анализ одного рынка или совокупности рынков, проводимый с целью изучения потенциального объема рынка, спроса на товары и услуги, конкурентной среды, цен; представляет составную часть маркетинга.

Bozorning potensial hajmini, tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni, raqobat muhitini, narxlarni o'rganish maqsadida, bitta bozorni yoki bozorlar jamini sifat va miqdor jihatidan tahlil qilish.

Бозорнинг потенциал ҳажмини, товарлар ва хизматларга бўлган талабни, рақобат муҳитини, нархларни ўрганиш мақсадида, битта бозорни ёки бозорлар жамини сифат ва миқдор жиҳатидан таҳлил қилиш.

Исследования

зондирующие

uz - tekshirib ko'rishga

qaratilgan tadqiqotlar

текшириб кўришга

қаратилган тадқиқотлар

en - probing research

Разновидность маркетинговых исследований, проводящихся для уточнения проблемы, сути события, поиска идей и определения направлений будущих исследований.

Muammoni, voqea-hodisa mohiyatini aniqlashtirish, g'oyalar izlab topish va kelgusi tadqiqotlarning yo'nalishlarini belgilash uchun olib boriladigan marketing tadqiqotlarning bir turi

Муаммони, воқеа-ҳодиса моҳиятини аниқлаштириш, ғоялар излаб топиш ва келгуси тадқиқотларнинг йўналишларини белгилаш учун олиб бориладиган маркетинг тадқиқотларнинг бир тури.

Исследования и разработки

uz - tadqiqotlar va ishlanmalar

тадқиқотлар ва

ишланмалар

en - research and development

Научные исследования, проектные, конструкторские, технологические работы, проводимые в ходе разработки технических и экономических проектов, составления социально-экономических программ.

Ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar tuzish, texnik va iqtisodiy loyihalar ishlab chiqish chog'ida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar, loyiha, konstruktorlik, texnologik ishlar.

Ижтимоий-иқтисодий дастурлар тузиш, техник ва иқтисодий лойиҳалар ишлаб чиқиш чоғида олиб бориладиган илмий тадқиқотлар, лойиҳа, конструкторлик, технологик ишлар.

И

Исследования каузальные

uz - kauzal tadqiqotlar

каузал тадқиқотлар

en - causal research

Разновидность маркетинговых исследований, направленных на установление причинно-следственных связей. Например, как повлияют на объем продаж та или иная цена, упаковка или реклама. Наиболее распространенный метод – управляемый эксперимент.

Marketing tadqiqotlarining, sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rnatishga qaratilgan bir ko'rinishi. Masalan, u yoki bu narx, o'rov yoki reklama sotuvlar hajmiga qanday ta'sir ko'rsatadi. Boshqariladigan eksperiment eng keng tarqalgan usuldir.

Маркетинг тадқиқотларнинг, сабаб-оқибат боғланишларини ўрнатишга қаратилган бир кўриниши. Масалан, у ёки бу нарх, ўров ёки реклама сотувлар ҳажмига қандай таъсир кўрсатади. Бошқариладиган эксперимент энг кенг тарқалган усулдир.

Исследования оценочные

uz - baholovchi tadqiqotlar

баҳоловчи тадқиқотлар

en - evaluative research

Исследования, имеющие своей целью оценить эффективность результатов различных маркетинговых программ, например, оценку способности потребителей вспомнить рекламу, имидж компании, степень удовлетворения потребителей качеством товаров и услуг.

Turli marketing dasturlari natijalarining samaradorligini baholash, masalan, iste'molchilarning kompaniya imijini, reklamasini eslay olish qobiliyatini, iste'molchilarning tovarlar va xizmatlar sifatidan qanoatlanlik darajasini baholash maqsadidagi tadqiqotlar.

Турли маркетинг дастурлари натижаларининг самарадорлигини баҳолаш, масалан, истеъмолчиларнинг компания имижини, рекламасини эслай олиш қобилиятини, истеъмолчиларнинг товарлар ва хизматлар сифатидан қаноатланганлик даражасини баҳолаш мақсадидаги тадқиқотлар.

Исследования

синдикативные

uz - sindikativ tadqiqotlar

синдикатив тадқиқотлар

en - syndicated reearch

Это периодически получаемые заказчиком данные результатов исследований, которые проводились другими компаниями.

Boshqa kompaniyalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarining, buyurtmachi tomonidan davriy ravishda olinadigan ma'lumotlari.

И

Бошқа компаниялар томонидан олиб борилган тадқиқотлар натижаларининг, буюртмачи томонидан даврий равишда олинган маълумотлари.

Исследовательское резюме
uz - tadqiq qiluvchi rezyume
тадқиқ қилувчи резюме
en - brief

Задание на проведение маркетингового исследования. Включает в себя:

- a) общую характеристику организации и ее деятельность на рынке;
- b) информацию о степени изученности рынка;
- c) описание поставленной проблемы и цели организации;
- d) конкретные направления будущей маркетинговой активности;
- e) требования, предъявляемые к точности и надежности исходных данных;
- f) сроки и бюджет на проведение исследования.

Marketing tadqiqoti olib borish yuzasidan topshiriq.
O‘z ichiga:

- a) tashkilotning umumiy tavsifini va uning bozordagi faoliyatini;
- b) bozorning o‘rganilganlik darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotni;
- c) tashkilotning maqsadlari va qo‘yilgan muammoning tavsifini;
- d) kelgusidagi marketing faollikning aniq yo‘nalishlarini;
- e) boshlang‘ich ma’lumotlar aniqligiga va ishonchililigiga qo‘yiladigan talablarni;
- f) tadqiqot olib borishga sarflanadigan mablag‘lar va tadqiqot muddatlarini oladi.

Маркетинг тадқиқоти олиб бориш юзасидан топширик. Ўз ичига:

- a) ташкилотнинг умумий тавсифини ва унинг бозордаги фаолиятини;
- b) бозорнинг ўрганилганлик даражаси тўғрисидаги маълумотни;
- c) ташкилотнинг мақсадлари ва қўйилган муаммонинг тавсифини;
- d) келгусидаги маркетинг фаолликнинг аниқ йўналишларини;
- e) бошланғич маълумотлар аниқлигига ва

И

ишончлилигига кўйиладиган талабларни;
f) тадқиқот олиб боришга сарфланадиган маблағлар ва тадқиқот муддатларини олади.

Источники

финансирования

uz - moliyalashtirish manbalari

молиялаштириш

манбалари

en - financing sources

Существующие и ожидаемые источники получения финансовых ресурсов, перечень экономических субъектов, способных предоставить такие ресурсы.

Moliyaviy resurslar olishning mavjud va kutiladigan manbalari, bunday resurslarni taqdim eta oladigan iqtisodiy subyektlar roʻuxati.

Молиявий ресурслар олишнинг мавжуд ва кутиладиган манбалари, бундай ресурсларни тақдим эта оладиган иқтисодий субъектлар рўйхати.

К

Кадастр

uz - kadastr

кадастр

en - land register

Систематизированный, официально составленный на основе периодических или непрерывных наблюдений свод (реестр) основных сведений об экономических ресурсах страны, государства. Кадастр содержит данные о расположении ресурсных источников и объектов, их величине, качественных характеристиках, содержащих оценку стоимости и доходности объектов.

Davlat, mamlakat iqtisodiy resurslari toʻgʻrisidagi asosiy maʼlumotlarning, davriy yoki uzluksiz kuzatishlar asosida rasman tuzilgan, tizimlashtirilgan toʻplami (reyestri). Kadastr resurs manbalari va obyektlarining joylashuvi, ularning miqdori, obyektlarning daromadliligi va qiymati bahosini ichiga oladigan sifat xarakteristikalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan iborat boʻladi.

Давлат, мамлакат иқтисодий ресурслари тўғрисидаги асосий маълумотларнинг, даврий ёки узлуксиз кузатишлар асосида расман тuzилган, тизимлаштирилган тўплами (реестри). Кадастр ресурс манбалари ва объектларнинг жойлашуви, уларнинг миқдори, объектларнинг даромадлиги ва қиймати баҳосини ичига оладиган сифат характеристикалари тўғрисидаги маълумотлардан иборат бўлади.

К

Казна

uz - davlat mablagʻi
давлат маблағи
en - treasury

Финансовые ресурсы государства, централизованные государственные источники финансов.

Davlatning moliyaviy resurslari, markazlashtirilgan davlat moliya manbalari.

Давлатнинг молиявий ресурслари, марказлаштирилган давлат молия манбалари.

Казначейская эмиссия

uz - xazina emissiyasi
хазина эмиссияси
en - government issue

Выпуск в обращение казначейских билетов и государственных ценных бумаг казначейством или другими государственными финансовыми органами.

Gʻaznachilik yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan xazina biletlarining va davlat qimmatli qogʻozlarining muomalaga chiqarilishi.

Ғазначилик ёки бошқа давлат молия органлари томонидан хазина билетларининг ва давлат қимматли қоғозларининг муомалага чиқарилиши.

Казначейские билеты

uz - xazina biletleri
хазина билетлари
en - treasury note

Бумажные деньги, выпускаемые казначейством для финансового обеспечения государственных расходов.

Gʻaznachilik tomonidan davlat xarajatlarini moliyaviy taʼminlash uchun chiqariladigan qogʻoz pullar.

Ғазначилик томонидан давлат харажатларини молиявий таъминлаш учун чиқариладиган қоғоз пуллар.

Казначейство

uz - gʻaznachilik
ғазначилик
en - treasury

Специальный государственный финансовый орган, существующий обычно при Министерстве финансов страны или в его составе. В функции казначейства входят составление проекта государственного бюджета и управление его исполнением, а также управление государственным долгом и эмиссия государственных ценных бумаг. В ходе исполнения государственного бюджета казначейство отслеживает сбор налогов, пошлин и других поступлений в бюджет, открывает бюджетные кредиты и предоставляет бюджетные средства в соответствии с утвержденными ассигнованиями.

К

Odatda, mamlakat Moliya vazirligi qoshida yoki uning tarkibida mavjud boʻladigan maxsus davlat moliya organi. Gʻaznachilik vazifalariga davlat byudjeti loyihasini tuzish va uning bajarilishini boshqarish, shuningdek, davlat qarzini boshqarish hamda davlat qimmatli qogʻozlarini chiqarish kiradi. Davlat byudjetini ijro etish chogʻida gʻaznachilik soliqlar, bojlar va boshqa tushumlar byudjetga kelib tushishini kuzatib boradi, byudjet kreditlari ochadi, tasdiqlangan mablagʻlarga muvofiq, byudjet mablagʻlar beradi.

Одатда, мамлакат Молия вазирлиги қошида ёки унинг таркибида мавжуд бўладиган махсус давлат молия органи. Ғазначилик вазифаларига давлат бюджети лойиҳасини тузиш ва унинг бажарилишини бошқариш, шунингдек, давлат қарзини бошқариш ҳамда давлат қимматли қоғозларини чиқариш кирди. Давлат бюджетини ижро этиш чоғида ғазначилик солиқлар, божлар ва бошқа тушумлар бюджетга келиб тушишини кузатиб боради, бюджет кредитлари очади, тасдиқланган маблағларга мувофиқ, бюджет маблағлар беради.

Калькуляция

uz - kalkulyatsiya

калькуляция

en - calculation

Представленный в табличной форме бухгалтерский расчет затрат (расходов) в денежном выражении на производство и сбыт единицы изделия или партии изделий, а также на осуществление работ и услуг. Калькуляция может быть прогнозной, плановой, отчетной.

Jadval koʻrinishida taqdim etilgan, mahsulot turkumi yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish va sotishga pulda ifodalangan xarajatlar (sarflar)ning buxgalteriya hisob-kitobi. Prognoz, rejali, hisobot kalkulyatsiyasi ajratiladi.

Жадвал кўринишида тақдим этилган, маҳсулот туркуми ёки маҳсулот бирлигини ишлаб чиқариш ва сотишга пулда ифодаланган харажатлар (сарфлар)нинг бухгалтерия ҳисоб-китоби. Прогноз, режали, ҳисобот калькуляцияси ажратилди.

К

К Канал маркетинговый

uz - marketing kanali

маркетинг канали

en - marketing channel

Организация, состоящая из независимых учреждений и агентств, обеспечивающих доступность товаров и услуг конечным потребителям.

Pirovard iste'molchilar tovarlar va xizmatlardan foydalana olishini ta'minlaydigan mustaqil muassasalar va agentliklardan iborat tashkilot.

Пировард истеъмолчилар товарлар ва хизматлардан фойдалана олишини таъминлайдиган мустақил муассасалар ва агентликлардан иборат ташкилот.

Каналы движения товаров и денег

uz - tovarlar va pullarning harakatlanish kanallari

товарлар ва пулларнинг харакатланиш каналлари

en - movement of goods and money

Пути и способы распространения товаров от производителей к потребителям и их оплаты потребителями. Каналы движения товаров и денег называют также товаро-проводящими каналами и каналами распределения.

Tovarlarni ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga tarqatish, iste'molchilar tomonidan ularga haq to'lash yo'llari va usullari. Bu kanallar, shuningdek, tovar o'tkazuvchi kanallar va taqsimlash kanallari deb ham ataladi.

Товарларни ишлаб чиқарувчилардан истеъмолчиларга тарқатиш, истеъмолчилар томонидан уларга ҳақ тўлаш йўллари ва усуллари. Бу каналлар, шунингдек, товар ўтказувчи каналлар ва тақсимлаш каналлари деб ҳам аталади.

Капитал

uz - kapital

капитал

en - capital

Термин, имеющий очень широкий смысл, в общем виде его следует понимать как «все, что способно приносить доход», или «ресурсы, созданные людьми для производства товаров и услуг». Подразделяется на физический капитал – средства производства, денежный капитал – денежные средства, на которые приобретается физический капитал. Различают также основной капитал, представляющий часть капитальных средств, участвующих в производстве длительное время в течение многих циклов, и оборотный капитал, участвующий и полностью расходуемый в течение одного производственного цикла.

К

Juda keng ma'noga ega bo'lgan atama, umumiy ko'rinishda uni «daromad keltirishi mumkin bo'lgan hamma narsa yoki tovarlar, xizmatlar ishlab chiqarish uchun, odamlar yaratgan resurslar» deb tushunish kerak. Jismoniy kapital ishlab chiqarish vositalari, pul kapitali – jismoniy kapital sotib olinadigan pul mablag'lari. Shuningdek, ishlab chiqarishda uzoq vaqt ko'plab sikllar mobaynida qatnashadigan kapital mablag'larning bir qismini ifodalaydigan asosiy kapital, bitta ishlab chiqarish siklida qatnashadigan va to'la sarflanadigan aylanma kapital ham ajratiladi.

Жуда кенг маънога эга бўлган атама, умумий кўринишда уни «даромад келтириши мумкин бўлган ҳамма нарса ёки товарлар, хизматлар ишлаб чиқариш учун, одамлар яратган ресурслар» деб тушуниш керак. Жисмоний капитал ишлаб чиқариш воситалари, пул капитали – жисмоний капитал сотиб олинadиган пул маблағлари. Шунингдек, ишлаб чиқаришда узоқ вақт кўплаб цикллар мобайнида қатнашадиган капитал маблағларнинг бир қисмини ифодалайдиган асосий капитал, битта ишлаб чиқариш циклида қатнашадиган ва тўла сарфланадиган айланма капитал ҳам ажратилади.

Капитализация дохода, прибыли

uz - foydani, daromadni kapitallashtirish

фойдани, даромадни капиталлаштириш

en - capitalization of earnings

1. Использование прибыли предприятия, фирмы на развитие производства, предпринимательства путем приобретения на эти деньги основных средств, оборудования, вложения их в дело; превращение прибыли в капитал.

2. Метод оценки стоимости предприятия, имущества, бизнеса по приносящему доходу или прибыли, заключающийся в установлении величины капитала, способного приносить такие доходы или прибыль при норме прибыли (отношении прибыли к стоимости капитала предприятия), равной среднему ссудному проценту.

1. Korxonalar, firma foydasidan, bu pullarga asosiy vositalar, uskuna sotib olish, ularni ishga qo'yish yo'li bilan ishlab chiqarishni, tadbirkorlikni rivojlantirishda foydalanish; foydani kapitalga aylanti-

К

rish;

2. Korxonа, mol-mulk, biznes qiymatini keladigan foyda yoki daromadga qarab baholash usuli, o'rtacha ssuda foiziga teng bo'lgan foyda normasida (foydaning korxonа kapitali qiymatiga bo'lgan nisbatida) foyda yoki daromad keltira oladigan kapital kattaligini belgilashda ifodalanadi.

1. Корхона, фирма фойдасидан, бу пулларга асосий воситалар, ускуна сотиб олиш, уларни ишга қўйиш йўли билан ишлаб чиқаришни, тадбиркорликни ривожлантиришда фойдаланиш; фойдани капиталга айлантириш.

2. Корхона, мол-мулк, бизнес қийматини келадиган фойда ёки даромадга қараб баҳолаш усули, ўртача ссуда фоизига тенг бўлган фойда нормасида (фойданинг корхона капитали қийматига бўлган нисбатиди) фойда ёки даромад келтира оладиган капитал катталигини белгилашда ифодаланеди.

Капиталовложения

uz - kapital ajratmalar

капитал ажратмалар

en - capital investment

Денежный и вещественный капитал, направляемый на воссоздание основных средств производства – зданий, сооружений, машин, оборудования.

Asosiy ishlab chiqarish vositalari – binolar, inshootlar, mashinalar, uskunalarni tiklashga yo'naltiriladigan pul kapitali va ashyoviy kapital.

Асосий ишлаб чиқариш воситалари – бинолар, иншоотлар, машиналар, ускуналарни тиклашга йўналтириладиган пул капитали ва ашёвий капитал.

Капиталоемкость

uz - kapital sig'imi

капитал сифими

en - capital intensity

Показатель, позволяющий судить о том, какой основной капитал необходим для выпуска продукции, товаров, услуг стоимостью в 1 сум (или в расчете на другую денежную единицу). Капиталоемкость определяется делением стоимости основных средств на объем продукции в денежном выражении, выпускаемой за один год.

Qiymati 1 so'm (yoki boshqa pul birligiga hisoblanganda) bo'lgan xizmatlar, tovarlar, mahsulot chiqar-

К

rish uchun qanday asosiy kapital zarur bo'lishi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradigan ko'rsatkich. Kapital sig'imi asosiy vositalar qiymatini, bir yil ichida chiqariladigan, pulda ifodalangan mahsulot hajmiga bo'lish bilan aniqlanadi.

Қиймати 1 сўм (ёки бошқа пул бирлигига ҳисоблаганда) бўлган хизматлар, товарлар, маҳсулот чиқариш учун қандай асосий капитал зарур бўлиши тўғрисида фикр юритиш имконини берадиган кўрсаткич. Капитал сифими асосий воситалар қийматини, бир йил ичида чиқариладиган, пулда ифодаланган маҳсулот ҳажмига бўлиш билан аниқланади.

Карт-бланш

uz - kart-blansh

карт-бланш

en - carte blanche

Неограниченные полномочия, предоставленные доверителем доверенному лицу при осуществлении деловой операции.

Vakolat beruvchi shaxs tomonidan vakolatli shaxsga ish bilan bog'liq operatsiyani amalga oshirishda taqdim etiladigan cheklanmagan vakolatlar.

Ваколат берувчи шахс томонидан ваколатли шахсга иш билан боғлиқ операцияни амалга оширишда тақдим этиладиган чекланмаган ваколатлар.

Картель

uz - kartel

картель

en - compulsory cartel

Форма объединения производителей или потребителей, гласное или негласное соглашение группы близких по профилю предприятий, фирм, компаний об объемах производства и продажи, ценах, рынках сбыта.

Ishlab chiqaruvchilar yoki iste'molchilarning birlashish shakli, ixtisosligiga ko'ra yaqin bo'lgan korxonalar, firmalar, kompaniyalarning ishlab chiqarish va sotish hajmlari, narxlar, sotish bozorlari to'g'risidagi oshkora yoki yashirin kelishuvi.

Ишлаб чиқарувчилар ёки истеъмолчиларнинг бирлашиш шакли, ихтисослигига кўра яқин бўлган корхоналар, фирмалар, компанияларнинг ишлаб чиқариш ва сотиш ҳажмлари, нархлар, сотиш бозорлари тўғрисидаги ошкора ёки яширин келишуви.

К

Карточка банковская денежная

uz - bankning pul kartochkasi
банкнинг пул карточкаси
en - bank money card

Кредитная или дебетовая карточка, выдаваемая банком, по которой можно получать наличные деньги из банкомата, оплачивать товары, а также позволяющая осуществлять быстрый перевод денег с текущего счета плательщика на текущий счет получателя платежа.

Bank tomonidan beriladigan, bankomatdan naqd pul olish, tovarlar haqini to'lash mumkin bo'lgan, shuningdek, to'lovchining joriy hisobraqamidan to'lovni oluvchining joriy hisobraqamiga tezda pul o'tkazish imkonini beradigan kredit yoki debet kartochkasi.

Банк томонидан бериладиган, банкоматдан нақд пул олиш, товарлар ҳақини тўлаш мумкин бўлган, шунингдек, тўловчининг жорий ҳисобрақамидан тўловни олувчининг жорий ҳисобрақамига тезда пул ўтказиш имконини берадиган кредит ёки дебет карточкаси.

Касса

uz - kassa
касса
en - cash

1. Подразделение предприятия, организации, банка, выполняющее операции с наличными деньгами и другими ценностями, а также сами наличные деньги, находящиеся на хранении в этом подразделении.

2. Специально оборудованное помещение для хранения, приема и выдачи денег.

3. Бухгалтерский счет, отражающий поступление, движение, выдачу наличных денег.

4. Кредитное учреждение.

5. Пункт приема денег и выдачи чеков на покупку в магазине, место расчетов за покупку.

1. Korxonada, tashkilot, bankning naqd pullar va boshqa boyliklar bilan operatsiyalar bajaradigan bo'linmasi, shuningdek, ushbu bo'linmada saqlanishda bo'lgan naqd pullarning o'zi.

2. Pullarni saqlash, qabul qilish va berish uchun maxsus jihozlangan xona.

3. Naqd pullar kelib tushishini, harakatini, berilishini aks ettiradigan buxgalteriya schyoti.

4. Kredit muassasasi.

5. Magazinda pullarni qabul qilish va xarid qilish uchun cheklar berish punkti, xarid uchun hisob-kitob qilish joyi.

К

1. Корхона, ташкилот, банкнинг нақд пуллар ва бошқа бойликлар билан операциялар бажарадиган бўлинмаси, шунингдек, ушбу бўлинмада сақланишда бўлган нақд пулларнинг ўзи.

2. Пулларни сақлаш, қабул қилиш ва бериш учун махсус жиҳозланган хона.

3. Нақд пуллар келиб тушишини, ҳаракатини, берилишини акс эттирадиган бухгалтерия счёти.

4. Кредит муассасаси.

5. Магазинда пулларни қабул қилиш ва харид қилиш учун чеклар бериш пункти, харид учун ҳисоб-китоб қилиш жойи.

Кассовые операции

uz - kassa operatsiyalari

касса операциялари

en - cash operations

Проводимые кассами банков, подразделениями некоторых предприятий, фирм операции, связанные с приемом, выдачей и пересчетом наличных денег.

Banklarning kassalari, baʼzi korxonalar, firmalarning boʻlinmalari tomonidan oʻtkaziladigan, naqd pullarni qabul qilish, berish va qayta sanash bilan bogʻliq operatsiyalar.

Банкларнинг кассалари, баъзи корхоналар, фирмаларнинг бўлинмалари томонидан ўтказиладиган, нақд пулларни қабул қилиш, бериш ва қайта санаш билан боғлиқ операциялар.

Кассовый ордер

uz - kassa orderi

касса ордери

en - cash order form

Денежный документ, с помощью которого осуществляется и оформляется кассовая операция по приему и выдаче наличных денег. Деньги выдаются по расходному ордеру или заменяющему его документу (платежная ведомость, счет на оплату). Деньги принимаются кассой по приходному ордеру.

Pul bilan bogʻliq hujjat, uning yordamida naqd pullarni qabul qilish va berish boʻyicha kassa operatsiyasi amalga oshiriladi va rasmiylashtiriladi. Pullar chiqim orderi yoki uning oʻrnini bosadigan hujjat (toʻlov qaydnomasi, toʻlov hisobi) boʻyicha beriladi. Pullar kassa tomonidan kirim orderi boʻyicha qabul qilinadi.

Пул билан боғлиқ ҳужжат, унинг ёрдамида нақд пулларни қабул қилиш ва бериш бўйича касса

К

операцияси амалга оширилади ва расмийлаштирилади. Пуллар чиқим ордери ёки унинг ўрнини босадиган ҳужжат (тўлов қайдномаси, тўлов ҳисоби) бўйича берилади. Пуллар касса томонидан қирим ордери бўйича қабул қилинади.

Кастодиан

uz - kastodian

кастодиан

en - custodian

Организация, занимающаяся депозитарной деятельностью на рынке ценных бумаг, по поручению клиента принимающая в доверительное хранение ценные бумаги.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitar faoliyat bilan shug‘ullanadigan, mijozning topshirig‘iga ko‘ra qimmatli qog‘ozlarni ishonchli saqlash uchun qabul qiladigan tashkilot.

Қимматли қоғозлар бозорида депозитар фаолият билан шуғулланадиган, мижознинг топшириғига кўра қимматли қоғозларни ишончли сақлаш учун қабул қиладиган ташкилот.

Кастомизация

uz - kastomizatsiya

кастомизация

en - customersation

Процесс приспособления товаров и услуг под требования потребителя, их «подгонка» под индивидуальные особенности и требования потребителя.

Tovar va xizmatlarni iste‘molchi talabiga moslashtirish jarayoni, ularni iste‘molchi talablari va individual o‘ziga xosliklariga «moslash».

Товар ва хизматларни истеъмолчи талабига мослаштириш жараёни, уларни истеъмолчи талаблари ва индивидуал ўзига хосликларига «мослаш».

Каталог

uz - katalog

каталог

en - catalogue

Перечень товаров и услуг, предоставляемых компанией, составленный по определенной схеме список, облегчающий нахождение нужной товарной позиции.

Kompaniya tomonidan taqdim etiladigan tovarlar, xizmatlar ro‘yxati, kerakli tovar pozitsiyasini topishni osonlashtiradigan, muayyan sxema bo‘yicha tuzilgan ro‘yxat.

К

Компания томонидан тақдим этиладиган товарлар, хизматлар рўйхати, керакли товар позициясини топишни осонлаштирадиган, муайян схема бўйича тузилган рўйхат.

Качественные экономические показатели

uz - sifatli iqtisodiy

ko'rsatkichlar

сифатий иқтисодий

кўрсаткичлар

en - quality economic indexes

Показатели, характеризующие долю и темпы изменения экономических величин, а также эффективность производства, экономики, конкурентоспособность товаров, фирм, уровень жизни.

Iqtisodiy kattaliklarning o'zgarish sur'atlari va ulushini, shuningdek, ishlab chiqarish, iqtisodiyot samaradorligini, tovarlar, firmalarning raqobatbardoshligini, turmush darajasini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar.

Иқтисодий катталикларнинг ўзгариш суръатлари ва улушини, шунингдек, ишлаб чиқариш, иқтисодиёт самарадорлигини, товарлар, фирмаларнинг рақобатбардошлигини, турмуш даражасини тавсифлайдиган кўрсаткичлар.

Качество

uz - sifat

сифат

en - quality

Свойство и признаки продукции, товаров, работ, услуг, труда, характеризующие их способность удовлетворять потребности людей, соответствовать своему назначению и предъявляемым требованиям. Качество определяется мерой, в которой товар соответствует лучшим образцам, стандартам, сортам.

Mahsulot, tovarlar, ishlar, xizmatlarning, odamlar ehtiyojini qondira olish qobiliyatini, o'zining vazifasiga va ko'rsatiladigan talablarga mos kelishini tavsiflaydigan belgilari va xossasi. Sifat tovar eng yaxshi namunalarga, standartlarga, navlarga mos keladigan o'lchov bilan aniqlanadi.

Маҳсулот, товарлар, ишлар, хизматларнинг, одамлар эҳтиёжини қондира олиш қобилиятини, ўзининг вазифасига ва кўрсатиладиган талабларга мос келишини тавсифлайдиган белгилари ва хоссаси. Сифат товар энг яхши намуналарга, стандартларга, навларга мос келадиган ўлчов билан аниқланади.

К

Квалиметрия

uz - kvalimetriya

квалиметрия

en - qualimetry

Наука о методах количественной оценки качества продукции.

Mahsulot sifatini miqdor jihatidan baholash usullari to'g'risidagi fan.

Маҳсулот сифатини миқдор жиҳатидан баҳолаш усуллари тўғрисидаги фан.

Квалификация

uz - malaka

малака

en - qualification

Уровень, степень профессиональной подготовленности работника, его пригодности к качественному выполнению конкретного вида работ. Квалификация зависит от знаний, умения, профессиональных навыков, опыта работы.

Xodim kasbiy tayyorgarligining, uning ishlarning muayyan turini sifatli bajarishga yaroqlilik darajasi, me'yori. Malaka bilimga, kasbiy ko'nikmaga, mahoratga, ish tajribasiga bog'liq.

Ходим касбий тайёргарлигининг, унинг ишларнинг муайян турини сифатли бажаришга яроқлилик даражаси, меъёри. Малака билимга, касбий кўникмага, маҳоратга, иш тажрибасига боғлиқ.

Квантификация

uz - kvantifikatsiya

квантификация

en - quantificaion

Количественное выражение, измерение качественных признаков, например, оценка мастерства в баллах.

Sifat belgilarni miqdoran ifodalash, o'lchash, masalan, mahoratni ballarda baholash.

Сифат белгиларни миқдоран ифодалаш, ўлчаш, масалан, маҳоратни балларда баҳолаш.

Квитанция

uz - kvitansiya

квитанция

en - receipt

Документ, официальная расписка, выдаваемая человеку для подтверждения факта получения от него денежных платежей (денежная квитанция), товаров (товарная, вещевая квитанция) или других ценностей.

Odamdan pulli to'lovlar (pul kvitansiyasi), tovarlar (tovar, buyum kvitansiyasi) yoki boshqa boyliklar olinganligi faktini tasdiqlash uchun, unga beriladigan hujjat, rasmiy tilxat.

Одамдан пулли тўловлар (пул квитанцияси), товарлар (товар, буюм квитанцияси) ёки бошқа бойликлар олинганлиги фактини тасдиқлаш учун, унга бериладиган ҳужжат, расмий тилхат.

К

Квота

uz - kvota

квота

en - quota

1. Доля, часть, пай, приходящийся на одного из участников общего дела.

2. Количественные ограничения (производства, сбыта, потребления, экспорта, импорта товаров), вводимые на определенный период времени. Ограничительные меры называют квотированием.

1. Umumiy ish qatnashchilaridan biriga to'g'ri keladigan ulush, qism, hissa.

2. Muayyan vaqt davriga joriy qilinadigan miqdoriy cheklashlar (ishlab chiqarishni, sotishni, iste'molni, tovarlar eksporti, importini). Cheklash choralari kvotalash deyiladi.

1. Umumiy ish qatnashchilaridan biriga to'g'ri keladigan ulush, qism, hissa.

2. Muayyan vaqt davriga joriy qilinadigan miqdoriy cheklashlar (ishlab chiqarishni, sotishni, iste'molni, tovarlar eksporti, importini). Cheklash choralari kvotalash deyiladi.

Кибернетика

экономическая

uz - iqtisodiy kibernetika

иқтисодий кибернетика

en - economic cybernetic

Наука об общих закономерностях управления экономическими системами и об использовании информации в процессах управления.

Iqtisodiy tizimlarni boshqarishning umumiy qonuniyatlarini va boshqarish jarayonlarida axborotdan foydalanish to'g'risidagi fan.

Иқтисодий тизимларни бошқаришнинг умумий қонуниятлари ва бошқариш жараёнларида ахборотдан фойдаланиш тўғрисидаги фан.

Классификатор

uz - klassifikator, tasniflagich

классификатор,

таснифлагич

en - classifier

Систематизированный перечень объектов (продукции, товаров), каждому из которых присвоен определенный шифр, код.

Har biriga ma'lum bir shift, kod berilgan obyektlarning (mahsulot, tovarlarning) tizimlashtirilgan ro'yxati.

Ҳар бирига маълум бир шифр, код берилган объектларнинг (махсулот, товарларнинг) тизимлаштирилган рўйхати.

К

Кластер

uz - klaster

кластер

en - cluster

Экономическая агломерация, концентрация взаимосвязанных предприятий; региональные и отраслевые производственно-торговые комплексы.

Iqtisodiy aglomeratsiya, o'zaro bog'langan korxonalarining bir yerda to'planishi, mintaqaviy va tarmoq ishlab chiqarish-savdo komplekslari.

Иқтисодий агломерация, ўзаро боғланган корхоналарнинг бир ерда тўпланиши, минтақавий ва тармоқ ишлаб чиқариш-савдо комплекслари.

Клиент

uz - mijoz

мижоз

en - customer

Лицо, пользующееся услугами кредитного учреждения, нотариуса, адвоката (например, клиент банка); постоянный покупатель или заказчик фирмы.

Kredit muassasasi, notarius, advokat xizmatlaridan foydalanuvchi shaxs (masalan, bank mijoz); firmaning doimiy xaridori yoki buyurtmachisi.

Кредит муассасаси, нотариус, адвокат хизматларидан фойдаланувчи шахс (масалан, банк мижози); фирманинг доимий харидори ёки буюртмачиси.

Клиентская база данных

uz - mijozlar ma'lumotlar

bazasi

мижозлар маълумотлар
базаси

en - customer database

Данные о покупателях, их потребительском поведении и прошлых покупках, собранные в компьютере и организованные таким образом, чтобы их можно быстро извлечь для получения необходимой информации.

Xaridorlar, ularning iste'molchilik xulq-atvori va avvalgi xaridlari to'g'risida kompyuterda yig'ilgan va zarur axborot olish imkonini beradigan tarzda tashkillashtirilgan ma'lumotlar.

Харидорлар, уларнинг истеъмолчилик хулқ-атвори ва аввалги харидлари тўғрисида компьютерда йиғилган ва зарур ахборот олиш имконини берадиган тарзда ташкиллаштирилган маълумотлар.

Клиентский список

uz - mijozlar ro'uxati

мижозлар рўйхати

en - customer list

Перечень покупателей, который ведется компанией на бумаге или хранится в памяти компьютера для целей дальнейшей рекламной-пропагандистской деятельности.

К

Kompaniya qog'ozda yuritadigan yoki keyingi reklama-targ'ibot faoliyati maqsadlari uchun kompyuter xotirasida saqlanadigan xaridorlar ro'yxati.

Компания қоғозда юритадиган ёки кейинги реклама-тарғибот фаолияти мақсадлари учун компьютер хотирасида сақланадиган харидорлар рўйхати.

Клиринг

uz - kliring

клиринг

en - clearing

Система безналичных расчетов между странами, компаниями, предприятиями за поставленные, проданные друг другу товары, ценные бумаги и оказанные услуги; осуществляется путем взаимного зачета, исходя из условий баланса платежей.

Mamlakatlar, kompaniyalar, korxonalar o'rtasidagi, bir-biriga yetkazib berilgan, sotilgan tovarlar, qimmatli qog'ozlar va ko'rsatilgan xizmatlar yuzasidan naqd pulsiz hisob-kitob tizimi; to'lovlar balansi shartlaridan kelib chiqqan holda, o'zaro hisobga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Мамлакатлар, компаниялар, корхоналар ўртасидаги, бир-бирига етказиб берилган, сотилган товарлар, қимматли қоғозлар ва кўрсатилган хизматлар юзасидан нақд пулсиз ҳисоб-китоб тизими; тўловлар баланси шартларидан келиб чиққан ҳолда, ўзаро ҳисобга ўтказиш йўли билан амалга оширилади.

Когортный анализ

uz - kogorta tahlil

когорта таҳлил

en - cohort analysis

Профильное исследование, состоящее из серии опросов, проводимых в определенные временные промежутки. Под когортой понимается группа респондентов, с которыми происходят одни и те же события в пределах одного и того же временного интервала.

Muayyan vaqt oraliqlarida o'tkaziladigan so'rovlar turkumidan iborat ixtisoslashgan tadqiqot. Kogorta deganda, ayni bir vaqt oralig'ida ayni o'xshash hodisalar yuz beradigan respondentlar guruhi tushuniladi.

Муайян вақт оралиқларида ўтказиладиган сўровлар туркумидан иборат ихтисослашган тадқиқот. Когорта деганда, айни бир вақт оралиғида айни ўхшаш ҳодисалар юз берадиган респондентлар гуруҳи тушунилади.

К

Количественное исследование

uz - miqdor jihatidan o'rganish
миқдор жиҳатидан

ўрганиш

en - quantitative research

Метод исследования, предназначенный для сбора информации и представления ее в количественной форме, с помощью процедур статистического анализа.

Axborot to'plash va uni statistik tahlil protseduralari yordamida miqdoriy shaklda taqdim qilish uchun mo'ljallangan tadqiqot metodi.

Ахборот тўплаш ва уни статистик таҳлил процедуралари ёрдамида миқдорий шаклда тақдим қилиш учун мўлжалланган тадқиқот методи.

Количественные экономические показатели

uz - miqdoriy iqtisodiy
ko'rsatkichlar

миқдорий иқтисодий
кўрсаткичлар

en - quantitative economical
indicator

Показатели, выраженные в физических или денежных единицах (штуках, единицах веса, объема, длины, площади, суммах, долларах).

Fizik birliklarda yoki pul birliklarida (donalarda, og'irlik, hajm, uzunlik, maydon birliklarida, so'mlarda, dollarlarda) ifodalangan ko'rsatkichlar.

Физик бирликларда ёки пул бирликларида (доналарда, оғирлик, ҳажм, узунлик, майдон бирликларида, сўмларда, долларларда) ифодаланган кўрсаткичлар.

Комбинат

uz - kombinat

комбинат

en - combine

Объединение технологически связанных между собой предприятий, в котором продукция одного предприятия служит сырьем или полуфабрикатом для другого. Под учебным комбинатом понимается объединение учебных заведений разного уровня, существующих при предприятиях.

Texnologik jihatdan o'zaro bog'langan korxonalarni birlashtirish, bunda bir korxonaning mahsuloti boshqa korxonaga uchun xomashyo yoki yarimfabrikat bo'lib xizmat qiladi. O'quv kombinati deyilganda, korxonaga qoshida bo'lgan turli darajadagi o'quv yurtlarining birlashtirilishi tushuniladi.

Технологик жиҳатдан ўзаро боғланган корхоналарни бирлаштириш, бунда бир корхонанинг маҳсулоти бошқа корхона учун хомашё ёки яримфабрика бўлиб хизмат қилади. Ўқув комбинати дейилганда, корхона қошида бўлган турли даражадаги ўқув юртларининг бирлаштирилиши тушунилади.

К

Комбинирование производства

uz - ishlab chiqarishini
birlashtirish

ишлаб чиқаришини
бирлаштириш
en - integration of production

Одна из форм концентрации производства, основанная на соединении разных типов производства в одном предприятии.

Bitta korxonada ishlab chiqarishning har xil turlarini birlashtirishga asoslangan, ishlab chiqarishni bir yerda to'plash shakllaridan biri.

Битта корхонада ишлаб чиқаришнинг ҳар хил турларини бирлаштиришга асосланган, ишлаб чиқаришни бир ерда тўплаш шаклларида бири.

Комиссионер

uz - komissioner
комиссионер
en - commission

1. Лицо, обязующееся выполнить комиссионную услугу по поручению комитента, агент-посредник.

2. Лицо, ведущее комиссионную продажу.

1. Komitentning topshirig'iga ko'ra, vositachilik xizmatini bajarish majburiyatini olgan shaxs, vositachi agent.

2. Komission sotuvni olib boradigan shaxs.

1. Комитентнинг топшириғига кўра, воситачилик хизматини бажариш мажбуриятини олган шахс, воситачи агент.

2. Комиссион сотувни олиб борадиган шахс.

Комиссионное вознаграждение

uz - vositachilik haqi
воситачилик ҳақи
en - selling concession

Плата за работу в качестве агента-посредника по осуществлению коммерческой операции, сделки, обычно исчисляемая в процентах от суммы сделки.

Tijorat operatsiyasini, kelishuvini amalga oshirish bo'yicha vositachi agent sifatidagi ish uchun to'lanadigan haq, odatda, kelishuv summasidan foizlarda hisoblanadi.

Тижорат операциясини, келишувини амалга ошириш бўйича воситачи агент сифатидаги иш учун тўланадиган ҳақ, одатда, келишув суммасидан фоизларда ҳисобланади.

Комитент

uz - komitent
комитент
en - customer

Юридическое или физическое лицо, дающее поручение другому лицу (комиссионеру) заключить сделку от имени комиссионера, но за счет комитента.

К

Boshqa bir shaxsga (komissionerga) komissioner nomidan, lekin komitent hisobidan bitim tuzish yuzasidan topshiriq beradigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Бошқа бир шахсга (комиссионерга) комиссионер номидан, лекин комитент ҳисобидан битим тузиш юзасидан топшириқ берадиган жисмоний ёки юридик шахс.

Коммандитное товарищество

uz - kommandit shirkati

коммандит ширкат

en - commandite

Хозяйственное товарищество, в котором наряду с участниками, осуществляющими от имени товарищества предпринимательскую деятельность и отвечающими по обязательствам товарищества своим имуществом (полные товарищи – комплиментарии), имеется один или несколько участников-вкладчиков (коммандитистов), которые несут риск убытков, связанных с деятельностью товарищества в пределах сумм внесенных ими вкладов и не принимают участия в осуществлении товариществом предпринимательской деятельности.

Shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan va shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'z mulki bilan javob beradigan ishtirokchilar (to'liq o'rtoqlar – komplimentarlar) bilan bir qatorda, o'zlari qo'shgan hissa summasi doirasida shirkat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan zarar xavfini ko'taradigan va shirkat tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatida qatnashmaydigan bir yoki bir nechta omonatchi ishtirokchi (kommandit-chilar) bo'lgan xo'jalik shirkati.

Ширкат номидан тадбиркорлик фаолиятини амалга оширадиган ва ширкатнинг мажбуриятлари бўйича ўз мулки билан жавоб берадиган иштирокчилар (тўлиқ ўртоқлар – комплиментарлар) билан бир қаторда, ўзлари қўшган ҳисса суммаси доирасида ширкат фаолияти билан боғлиқ бўлган зарар хавфини кўтарадиган ва ширкат томонидан амалга ошириладиган тадбиркорлик фаолиятида қатнашмайдиган бир ёки бир нечта омонатчи иштирокчи (коммандитчилар) бўлган хўжалик ширкати.

К

Коммерческая тайна

uz - tijorat siri

тижорат сир

en - commercial secret

Право предприятий, организаций не разглашать, сохранять в тайне сведения и документы о своей деятельности, чтобы предотвратить возможность нанесения ущерба предприятию ее конкурентами. К коммерческим тайнам относят изобретенные новые составы, рецепты, виды материалов, продуктов питания, лекарственных средств, особые способы изготовления продукции, товаров, данные о клиентах, производственные и финансовые планы.

Korxonalar, tashkilotlarning, raqobatchilar tomonidan korxonaga zarar yetkazilish imkoniyatini bartaraf qilish uchun, o'z faoliyati to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni sir saqlash, oshkor qilmaslik huquqi. Tijorat siriga materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari, davo vositalarining kashf qilingan yangi tarkiblari, retseptlari, tovarlar, mahsulotlar tayyorlashning alohida usullari, mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlar, ishlab chiqarish va moliya rejalari kiradi.

Корхоналар, ташкилотларнинг, рақобатчилар томонидан корхонага зарар етказилиш имкониятини бартараф қилиш учун, ўз фаолияти тўғрисидаги ҳужжатлар ва маълумотларни сир сақлаш, ошкор қилмаслик ҳуқуқи. Тижорат сирига материаллар, озиқ-овқат маҳсулотлари, даво воситаларининг кашф қилинган янги таркиблари, рецептлари, товарлар, маҳсулотлар тайёрлашнинг алоҳида усуллари, мијозлар тўғрисидаги маълумотлар, ишлаб чиқариш ва молия режалари кирди.

Коммерческие банки

uz - tijorat banklari

тижорат банклари

en - commercial bank

Банки, занимающиеся кредитованием и финансированием предприятий, организаций, фирм, граждан за счет денежных капиталов, привлеченных в форме вкладов и путем выпуска собственных акций и облигаций.

Omonatlar shaklida va o'z aksiyalari, obligatsiyalarini chiqarish yo'li bilan jalb qilingan pul kapitali hisobiga, fuqarolar, firmalar, tashkilotlar, korxonalarni kreditlash va moliyalashtirish bilan shug'ullananadigan banklar.

К

Омонатлар шаклида ва ўз акциялари, облигацияларини чиқариш йўли билан жалб қилинган пул капитали ҳисобига, фуқаролар, фирмалар, ташкилотлар, корхоналарни кредитлаш ва молиялаштириш билан шуғулланадиган банклар.

Коммерческие организации

uz - tijorat tashkilotlari

тижорат ташкилотлари

en - profit organizations

Название хозяйственных обществ и товариществ, производственных кооперативов, торговых и других организаций, занимающихся предпринимательством, бизнесом, имеющих основной целью своей деятельности извлечение прибыли.

Faoliyatining asosiy maqsadi foyda olish boʻlgan, biznes bilan, tadbirkorlik bilan shugʻullanadigan xoʻjalik shirkatlari va jamiyatlarining, ishlab chiqarish kooperativlarining, savdo va boshqa tashkilotlarning nomi.

Фаолиятининг асосий мақсади фойда олиш бўлган, бизнес билан, тадбиркорлик билан шуғулланадиган хўжалик ширкатлари ва жамиятларининг, ишлаб чиқариш кооперативларининг, савдо ва бошқа ташкилотларнинг номи.

Коммерческий кредит

uz - tijorat krediti

тижорат кредити

en - commercial finance

Особая форма кредита, предоставляемого в товарной форме продавцами покупателям в виде отсрочки уплаты денег за проданные товары. Коммерческий кредит предоставляется под долговое обязательство (вексель) или посредством открытия счета по задолженности.

Tovar shaklida sotuvchilar tomonidan xaridorlarga sotilgan tovarlar uchun pul toʻlashni kechiktirish koʻrinishida taqdim etiladigan kreditning alohida shakli. Tijorat krediti qarz majburiyati (veksel) evaziga yoki qarzdorlik boʻyicha hisobraqami ochish orqali taqdim etiladi.

Товар шаклида сотувчилар томонидан харидорларга сотилган товарлар учун пул тўлашни кечиктириш кўринишида тақдим этиладиган кредитнинг алоҳида шакли. Тижорат кредити қарз мажбурияти (вексель) эвазига ёки қарздорлик бўйича ҳисобрақами очиш орқали тақдим этилади.

К

Коммерческий расчет

uz - tijorat hisob-kitobi

тижорат ҳисоб-китоби

en - commercial considerations

Метод ведения хозяйства на основе соизмерения затрат на хозяйственную деятельность и ее результатов, выраженных в денежной форме.

Pul shaklida ifodalangan, xo‘jalik faoliyatiga ketgan xarajatlar va uning natijalarini qiyoslash asosida xo‘jalik yuritish usuli.

Пул шаклида ифодаланган, хўжалик фаолиятига кетган харажатлар ва унинг натижаларини қиёслаш асосида хўжалик юритиш усули.

Коммерческий риск

uz - tijorat tavakkalchiligi

тижорат таваккалчилиги

en - commercial risk

Предпринимательский, хозяйственный риск, возникающий при проведении бизнес-операций, осуществлении сделок.

Biznes operatsiyalarni olib borishda, kelishuvlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan tadbirkorlik, xo‘jalik bilan bog‘liq tavakkalchilik.

Бизнес операцияларни олиб боришда, келишувларни амалга оширишда юзага келадиган тadbirkorlik, хўжалик билан боғлиқ таваккалчилик.

Коммунальные услуги

uz - kommunal xizmatlar

коммунал хизматлар

en - communal public services

Услуги, оказываемые населению и связанные с обеспечением и поддержанием бытовых условий в местах проживания людей (водоснабжение, теплоснабжение и др.)

Aholiga ko‘rsatiladigan, odamlarning yashash joylarida maishiy sharoitlar (suv ta‘minoti, issiqlik ta‘minoti)ni ta‘minlash va saqlab turish bilan bog‘liq xizmatlar.

Аҳолига кўрсатиладиган, одамларнинг яшаш жойларида маиший шароитлар (сув таъминоти, иссиқлик таъминоти)ни таъминлаш ва сақлаб туриш билан боғлиқ хизматлар.

Компания

uz - kompaniya

компания

en - company

Одна из широко распространенных форм организации крупного бизнеса, юридически оформленное объединение участников совместного предпринимательства, юридических и физических лиц.

К

Yirik biznesni tashkil qilishning keng tarqalgan shakllaridan biri, birgalikdagi tadbirkorlik qatnashchilarining, yuridik va jismoniy shaxslarning yuridik rasmiylashtirilgan birlashmasi.

Йирик бизнесни ташкил қилишнинг кенг тарқалган шаклларида бири, биргаликдаги тadbirkorlik қатнашчиларининг, юридик ва жисмоний шахсларнинг юридик расмиёлаштирилган бирлашмаси.

Компенсация

uz - kompensatsiya, tovon to'lash

компенсация, товон тўлаш

en - compensation

Возмещение потерь, понесенных убытков, расходов, возврат долга. Компенсационные выплаты представляют денежное возмещение неиспользованного отпуска, затрат на переезд в другой регион и т.д. Возможна также денежная компенсация нанесенного морального ущерба.

Yo'qotishlarning, ko'rilgan zararlar, sarflarning o'rnini qoplash, qarzni qaytarish. Kompensatsiya to'lovlari foydalanilmagan ta'til, boshqa hududga ko'chib o'tish xarajatlari va h.k. pul bilan qoplanishini ifodalaydi. Shuningdek, yetkazilgan ma'naviy zarar uchun ham pulli tovon to'lanishi mumkin.

Йўқотишларнинг, кўрилган зарарлар, сарфларнинг ўрнини қоплаш, қарзни қайтариш. Компенсация тўловлари фойдаланилмаган таътил, бошқа ҳудудга кўчиб ўтиш харажатлари ва ҳ.к. пул билан қопланишини ифодайди. Шунингдек, етказилган маънавий зарар учун ҳам пулли товон тўланиши мумкин.

Компетентность

uz - muayyan huquqqa, vakolatga egalik

муайян ҳуқуққа, ваколатга эғалик

en - functional authority

Область полномочий управляющего органа, должностного лица, устанавливаемая законом, другими нормативными актами, положениями, инструкциями, уставами; круг вопросов, по которым эти органы, лица обладают правом принятия решений.

Boshqaruvchi organ, mansabdor shaxsning qonun, boshqa normativ hujjatlar, qoidalar, yo'riqnomalar, nizomlar bilan belgilanadigan vakolatlari sohasi; bu organlar, shaxslar qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan masalalar doirasi.

К

Бошқарувчи орган, мансабдор шахнинг қонун, бошқа норматив ҳужжатлар, қоидалар, йўриқ-номалар, низомлар билан белгиланадиган ваколатлари соҳаси; бу органлар, шахслар қарорлар қабул қилиш ҳуқуқига эга бўлган масалалар доираси.

Компетенция

uz - kompetensiya

компетенция

en - competence

Знания, опыт в определенной области, дающие возможность глубоко понимать сущность событий, явлений, экономических и социальных процессов.

Muayyan sohadagi, voqealar, hodisalar, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini chuqur tushunish imkoniyatini beradigan bilimlar, tajriba.

Muayyan sohadaagi, voqealar, hodisalar, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini chuqur tushunish imkoniyatini beradigan bilimlar, tajriba.

Комплекс

uz - kompleks

комплекс

complex

Совокупность объектов, предметов, предприятий, тесно связанных и взаимодействующих между собой, образующих единую целостность, группа взаимосвязанных отраслей, производящих продукцию единой природы.

Yagona bir butunni tashkil qiladigan, o'zaro hamkorlik qiladigan va qattiq bog'langan obyektlar, predmetlar, korxonalar jami, umumiy mahsulot ishlab chiqaradigan, o'zaro bog'langan tarmoqlar guruhi.

Yagona bir butunni tashkil qiladigan, o'zaro hamkorlik qiladigan va qattiq bog'langan obyektlar, predmetlar, korxonalar jami, umumiy mahsulot ishlab chiqaradigan, o'zaro bog'langan tarmoqlar guruhi.

Комплексная (целевая) программа

uz - kompleks (maqsadli)

dastur

комплекс (мақсадли)

дастур

en - comprehensive (target)

program

Система увязанных между собой по содержанию, срокам, исполнителям, ресурсам и месту проведения мероприятий, действий, направленных на достижение единой цели, решение общей проблемы.

Umumiy muammoni hal qilishga, yagona maqsadga erishishga yo'naltirilgan ishlarni, tadbirlarni o'tkazish joyi va resurslar, bajaruvchilar, muddat, mazmun bo'yicha o'zaro bog'langan tizim.

К

Умумий муаммони ҳал қилишга, ягона мақсадга эришишга йўналтирилган ишларни, тадбирларни ўтказиш жойи ва ресурслар, бажарувчилар, муддат, мазмун бўйича ўзаро боғланган тизим.

Комплектация

uz - to‘liq to‘plam

тўлиқ тўплам

en - complement

1. Подбор, сведение воедино продукции, товаров, образующих взаимосвязанную совокупность, комплект. Синоним – комплектование.

2. Набор, ассортимент продукции, товаров.

1. O‘zaro bog‘langan jamlikni, komplektni tashkil qiladigan tovarlar, mahsulotlarni tanlab olish, bir butun qilib to‘plash. Sinonimi – komplektlash.

2. Mahsulot, tovarlar to‘plami, assortimenti.

1. Ўзаро боғланган жамликни, комплектни ташкил қиладиган товарлар, маҳсулотларни танлаб олиш, бир бутун қилиб тўплаш. Синоними – комплектлаш.

2. Маҳсулот, товарлар тўплами, assortimenti.

Комплектная поставка

uz - but holda yetkazib berish

бут ҳолда етказиб бериш

en - complete delivery

Передача, продажа всей совокупности изделий, товаров, образующих полный комплект (например, запчастей), создающих возможность совместного их использования в наборе.

To‘liq komplekt tashkil qiladigan (masalan, ehtiyot qismlar komplekti), ulardan to‘plamda birgalikda foydalanish imkonini beradigan tovarlar, buyumlar butun jamini berish, sotish.

Тўлиқ комплект ташкил қиладиган (масалан, эҳтиёт қисмлар комплекти), улардан тўпламда биргаликда фойдаланиш имконини берадиган товарлар, буюмлар бутун жамини бериш, сотиш.

Конвенция

uz - konvensiya

конвенция

en - convention

Международный договор на уровне правительств стран, предусматривающий соблюдение общих, согласованных правил торговли, денежного обращения, трудовых отношений, взимания налогов и пошлин, ценообразования на экспортируемую и импортируемую продукцию (товары, услуги).

К

Mamlakatlar hukumatlari darajasidagi, savdo, pul muomalasi, mehnat munosabatlari, soliqlar va bojlar olish, eksport va import qilinadigan mahsulotga (tovarlar, xizmatlarga) baho belgilashning umumiy, kelishilgan qoidalariga rioya qilish koʻzda tutilgan xalqaro shartnoma.

Мамлакатлар ҳукуматлари даражасидаги, савдо, пул муомаласи, меҳнат муносабатлари, солиқлар ва божлар олиш, экспорт ва импорт қилинадиган маҳсулотга (товарлар, хизматларга) баҳо белгилашнинг умумий, келишилган қоидаларига риоя қилиш кўзда тутилган халқаро шартнома.

Конвергенция

uz - konvergeniya

конвергенция

en - convergence

Сближение разных экономических систем, стирание различий между ними, обусловленные общностью социально-экономических проблем и наличием единых объективных закономерностей развития.

Turli iqtisodiy tizimlarni yaqinlashtirish, ular oʻrtasidagi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning umumiyligi va rivojlanishning yagona obʻektiv qonuniyatlari mavjudligi sababli kelib chiqqan farqlarni yoʻqotish.

Турли иқтисодий тизимларни яқинлаштириш, улар ўртасидаги, ижтимоий-иқтисодий муаммоларнинг умумийлиги ва ривожланишнинг ягона объектив қонуниятлари мавжудлиги сабабли келиб чиққан фарқларни йўқотиш.

Конверсия

uz - konversiya

конверсия

en - conversion

Существенное преобразование, изменение условий, замена одних объектов производства другими или одних ценных бумаг на другие. Основные виды конверсии: конверсия валют и ценных бумаг – обмен одной валюты на другую (или одних видов акций на другие) по действующему курсу; конверсия займа – замена ранее выпущенного займа новым с целью изменения его сроков и размера заемного процента; конверсия внешнего долга – сокращение общей величины внешней задолженности государства посредством изменения условий предоставления кре-

К

дита, форм и сроков его возвращения, процентных ставок; конверсия военного производства – процесс перевода предприятий оборонных отраслей на выпуск гражданской продукции.

Shart-sharoitlarni tubdan qayta o'zgartirish, ba'zi ishlab chiqarish obyektlarini boshqalari bilan yoki ba'zi qimmatli qog'ozlarni boshqalariga almashtirish. Konversiyaning asosiy turlari: valyutalar va qimmatli qog'ozlarni konversiyalash – amaldagi kurs bo'yicha bir valyutani boshqasiga (yoki aksiyalarning bir turini boshqalariga) ayirboshlash; zayomni konversiyalash – zayom foizi miqdori va muddatlarini o'zgartirish maqsadida, oldin chiqarilgan zayomni yangisi bilan almashtirish; tashqi qarzni konversiyalash – kredit berish shartlarini, uni qaytarish shakllari va muddatlarini, foiz stavkalarini o'zgartirish orqali, davlat tashqi qarzining umumiy miqdorini qisqartirish; harbiy ishlab chiqarishni konversiyalash – mudofaa tarmoqlari korxonalarini xalq iste'moli mahsulotlari ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

Шарт-шароитларни тубдан қайта ўзгартириш, баъзи ишлаб чиқариш объектларини бошқалари билан ёки баъзи қimmatли қоғозларни бошқаларига алмаштириш. Конверсиянинг асосий турлари: валюталар ва қimmatли қоғозларни конверсиялаш – амалдаги курс бўйича бир валютани бошқасига (ёки акцияларнинг бир турини бошқаларига) айирбошлаш; заёмни конверсиялаш – заём фоизи миқдори ва муддатларини ўзгартириш мақсадида, олдин чиқарилган заёмни янгиси билан алмаштириш; ташқи қарзни конверсиялаш – кредит бериш шартларини, уни қайтариш шакллари ва муддатларини, фоиз ставкаларини ўзгартириш орқали, давлат ташқи қарзининг умумий миқдорини қисқартириш; ҳарбий ишлаб чиқаришни конверсиялаш – мудофаа тармоқлари корхоналарини халқ истеъмولى маҳсулотлари ишлаб чиқаришга ўтказиш жараёни.

К

Конвертируемость

uz - almashinuvchanlik

алмашинувчанлик

en - convertibility

1. Свободный перевод одной валюты в другую, возможность обмена национальной валюты на валюты других стран по действующему курсу.

2. Обратимость акций и облигаций, возможность обмена одного их вида на другой на рынке ценных бумаг.

3. Различные формы размена банковских билетов на золото.

1. Bir valyutani boshqasiga erkin o'tkazish, amaldagi kurs bo'yicha milliy valyutani boshqa mamlakatlar valyutalariga ayirboshlash mumkinligi.

2. Aksiyalar va obligatsiyalarning qaytariluvchanligi, qimmatli qog'ozlar bozorida ularning bir turini boshqasiga ayirboshlash mumkinligi.

3. Bank biletlarini oltinga almashishning turli shakllari.

1. Бир валютани бошқасига эркин ўтказиш, амалдаги курс бўйича миллий валютани бошқа мамлакатлар валюталарига айирбошлаш мумкинлиги.

2. Акциялар ва облигацияларнинг қайтарилувчанлиги, қимматли қоғозлар бозорида уларнинг бир турини бошқасига айирбошлаш мумкинлиги.

3. Банк билетларини олтинга алмашишнинг турли шакллари.

Конгломерат

uz - konglomerat

конгломерат

en - conglomerate

Союз, объединения разнопрофильных фирм, оперирующих на разных секторах рынка.

Bozorning turli sektorlarida ish ko'radigan turli ixtisoslikdagi firmalar uyushmasi, birlashmasi.

Бозорнинг турли секторларида иш кўрадиган турли иختисосликдаги фирмалар уюшмаси, бирлашмаси.

Кондиция

uz - konditsiya (shart va talablar)

кондиция (шарт ва талаблар)

en - condition

Норма, стандарт, качество, которым, согласно договорным условиям, должен соответствовать товар.

Shartnoma shartlariga ko'ra, tovar javob berishi kerak bo'lgan norma, standart, sifat.

Шартнома шартларига кўра, товар жавоб бериши керак бўлган норма, стандарт, сифат.

К

Конечный продукт

uz - pirovard mahsulot

пировард маҳсулот

en - final product

Обобщающий экономический показатель отечественной статистики, характеризующий суммарный объем произведенной готовой продукции в денежном выражении.

Mamlakat statistikasining, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning pulda ifodalangan jami hajmini tavsiflaydigan umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichi.

Мамлакат статистикасининг, ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотнинг пулда ифодаланган жами ҳажмини тавсифлайдиган умумлаштирувчи иқтисодий кўрсаткичи.

Конкурентоспособность предприятия

uz - korxonaning

raqobatbardoshligi

корхонанинг

рақобатбардошлиги

en - competitive capacity

of an enterprise

Способность предприятия состязаться с рыночными конкурентами, производящими аналогичные товары и услуги, обычно отражается в рейтинговых оценках.

Korxonaning, o'xshash tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaradigan bozor raqobatchilari bilan bellash olish qobiliyati, odatda reyting baholarda aks etadi.

Корхонанинг, ўхшаш товарлар ва хизматлар ишлаб чиқарадиган бозор рақобатчилари билан беллаша олиш қобилияти, одатда рейтинг баҳоларда акс этади.

Конкурентоспособность товаров

uz - tovarlarning

raqobatbardoshligi

товарларнинг

рақобатбардошлиги

en - competitiveness of good

Способность товаров отвечать требованиям конкурентного рынка, запросам покупателей в сравнении с другими аналогичными товарами, представленными на рынке. Конкурентоспособность определяется, с одной стороны, качеством товара, его техническим уровнем, потребительскими свойствами и, с другой – ценами, устанавливаемыми продавцами товаров.

Tovarlarning bozorda taqdim qilingan boshqa o'xshash tovarlarga qaraganda, xaridorlarning talablariga, raqobat bozorining talablariga javob bera olish qobiliyati. Raqobatbardoshlik bir tomondan, tovarning sifati, uning texnik darajasi, iste'mol xossalari bilan, ikkinchi tomondan, tovarlarning sotuvchilar tomonidan o'rnatiladigan narxlari bilan belgilanadi.

К

Товарларнинг бозорда тақдим қилинган бошқа ўхшаш товарларга қараганда, харидорларнинг талабларига, рақобат бозорининг талабларига жавоб бера олиш қобилияти. Рақобатбардошлик бир томондан, товарнинг сифати, унинг техник даражаси, истеъмол хоссалари билан, иккинчи томондан, товарларнинг сотувчилар томонидан ўрнатиладиган нархлари билан белгиланади.

Конкуренция

uz - raqobat

рақобат

en - business struggle

Состязание, соревнование, соперничество между производителями (продавцами) товаров за лучшие результаты, а в общем случае – между любыми экономическими, рыночными субъектами; борьба за рынки сбыта товаров с целью получения более высоких доходов, прибыли, других выгод. Конкуренция представляет цивилизованную, легализованную форму борьбы за существование и одни из наиболее действенных механизмов отбора и регулирования в рыночной экономике.

Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar), umumiy holda esa, har qanday iqtisodiyot, bozor subyektlari o'rtasidagi, yaxshi natijalar uchun bellashuv, musobaqa, raqiblik; yuqori daromad, foyda, boshqa qulayliklar olish maqsadida, tovarlarni sotish bozorlari uchun kurash. Raqobat yashash uchun kurashning madaniyatli, ochiq shakli, bozor iqtisodiyotida tanlash va tartibga solishning ta'sirchan mexanizmlaridan biridir.

Ишлаб чиқарувчилар (сотувчилар), умумий ҳолда эса, ҳар қандай иқтисодиёт, бозор субъектлари ўртасидаги, яхши натижалар учун беллашув, мусобақа, рақиблик; юқори даромад, фойда, бошқа қулайликлар олиш мақсадида, товарларни сотиш бозорлари учун кураш. Рақобат яшаш учун курашнинг маданиятли, очик шакли, бозор иқтисодиётида танлаш ва тартибга солишнинг таъсирчан механизмларидан биридир.

Конкуренция неценовая

uz - narxga bog'liq bo'lmagan raqobat

Конкуренция, конкурентная борьба, проводимая не посредством снижения цен, а с помощью рекламы, повышения качества товара, предоставления гарантий и льгот потребителям.

К

нархга боғлиқ бўлмаган
рақобат
en - non-price competition

Narxlarni pasaytirish orqali emas, balki reklama, tovar sifatini oshirish, iste'molchilarga kafolatlar va imtiyozlar berish yordamida olib boriladigan raqobat, raqobat kurashi.

Нархларни пасайтириш орқали эмас, балки реклама, товар сифатини ошириш, истеъмолчиларга кафолатлар ва имтиёзлар бериш ёрдамида олиб бориладиган рақобат, рақобат кураши.

Конкурс
uz - konkurs
конкурс
en - contest

1. Порядок заявления и удовлетворения претензий кредиторов к несостоятельным должникам.
2. Отбор ограниченного количества участников из общего числа претендующих на заключение договора, получение заказа, приобретение товара, приватизацию имущественных ценностей, занятие ряда должностей. Конкурсы могут быть открытыми, свободными для участников и закрытыми, с ограниченным числом участников, отбираемых по особым правилам. См. также Тендер.

1. Kreditorlarning qarzini to'lay olmaydigan qarzdorlar ustidan ariza berish va da'volarini qondirish tartibi.
2. Shartnoma tuzishga, buyurtma olishga, tovar xarid qilishga, mulkiy boyliklarni xususiylashtirishga, qator mansablarni egallashga da'vogarlik qiladigan qatnashchilarning umumiy sonidan cheklangan son-dagi qatnashchilarni tanlab olish. Qatnashchilar uchun ochiq, erkin va alohida qoidalar bo'yicha tanlanadigan cheklangan son-dagi qatnashchilar bo'lgan yopiq konkurslar bor. Yana q. «Tender».

1. Кредиторларнинг қарзини тўлай олмайдиган қарздорлар устидан ариза бериш ва даъволарини қондириш тартиби.
2. Шартнома тузишга, буюртма олишга, товар харид қилишга, мулкый бойликларни хусусийлаштиришга, қатор мансабларни эгаллашга даъвогарлик қиладиган қатнашчиларнинг умумий сонидан чекланган сондаги қатнашчиларни танлаб олиш. Қатнашчилар учун очик, эркин ва алоҳида қоидалар бўйича танланадиган чекланган сондаги қатнашчилар бўлган ёпиқ конкурслар бор. Яна қ. «Тендер».

К

Коносамент

uz - konosament

коносамент

en - bill of lading

Документ, выдаваемый перевозчиком груза его отправителю, удостоверяющий принятие груза к перевозке и содержащий обязательство доставить груз в пункт назначения и передать его получателю. Коносаменты бывают: ценными, с указанием имени получателя груза, ордерными, содержащими указание о выдаче груза по приказу отправителя или получателя, «на предъявителя», согласно которому груз выдается предъявителю коносамента.

Yukni tashuvchi tomonidan uni jo'natuvchiga beriladigan, yuk tashish uchun qabul qilinganligini tasdiqlaydigan, yukni tayinlangan punktga yetkazish va uni oluvchiga topshirish majburiyati bo'lgan hujjat. Quyidagicha konosamentlar bor: yukni oluvchining nomi ko'rsatilgan baholi konosament, jo'natuvchining yoki oluvchining buyrug'iga ko'ra yukni berish to'g'risida ko'rsatma bo'lgan orderli konosament, «ko'rsatuvchiga», unga ko'ra, yuk konosamentni ko'rsatuvchiga beriladi.

Юкни ташувчи томонидан уни жўнатувчига бериладиган, юк ташиш учун қабул қилинганлигини тасдиқлайдиган, юкни тайинланган пунктга етказиш ва уни олувчига топшириш мажбурияти бўлган ҳужжат. Қуйидагича коносаментлар бор: юкни олувчининг номи кўрсатилган баҳоли коносамент, жўнатувчининг ёки олувчининг буйруғига кўра юкни бериш тўғрисида кўрсатма бўлган ордерли коносамент, «кўрсатувчига», унга кўра, юк коносаментни кўрсатувчига берилади.

Консалтинг

uz - konsalting

консалтинг

en - consulting

Деятельность специальных компаний по консультированию производителей, продавцов, покупателей по широкому кругу вопросов в области экономики, финансов, внешнеэкономических связей, создания и регистрации фирм, исследования и прогнозирования рынка товаров и услуг, инноваций.

Maxsus kompaniyalarning ishlab chiqaruvchilar,

К

sotuvchilar, xaridorlarga iqtisodiyot, moliya, tashqi iqtisodiy aloqalar, firmalar tashkil qilish va ro'yxatdan o'tkazish, tovarlar va xizmatlar, innovatsiyalar bozorini o'rganish va prognozlash sohasidagi masalalarning keng doirasi bo'yicha maslahat berish bilan bog'liq faoliyati.

Махсус компанияларнинг ишлаб чиқарувчилар, сотувчилар, харидорларга иқтисодиёт, молия, ташқи иқтисодий алоқалар, фирмалар ташкил қилиш ва рўйхатдан ўтказиш, товарлар ва хизматлар, инновациялар бозорини ўрганиш ва прогностлаш соҳасидаги масалаларнинг кенг доираси бўйича маслаҳат бериш билан боғлиқ фаолияти.

Консервация

uz - konservatsiya qilish
консервация қилиш
en - laying-up

Временное прекращение экономического процесса, вида деятельности, строительства объекта.

Iqtisodiy jarayonni, faoliyat turini, obyekt qurilishini vaqtincha to'xtatib qo'yish.

Иқтисодий жараёни, фаолият турини, объект қурилишини вақтинча тўхтатиб қўйиш.

Консигнация

uz - konsignatsiya
консигнация
en - consignment

Комиссионная продажа товаров в форме их передачи владельцем товара (консигнантом) комиссионеру (консигнатору) для продажи со склада комиссионера, играющего роль посредника. Право собственности на товар вплоть до его продажи остается за поставщиком товара. Хранение товара на складе и предпродажная подготовка осуществляются за счет владельца.

Tovarlarni, tovarning egasi (konsignant) tomonidan komissionerga (konsignatorga), vositachi rolini o'ynaydigan komissionerning omboridan sotish uchun berish shaklida komission sotish. Tovarga bo'lgan egalik huquqi, tovar sotilgunga qadar, tovarni yetkazib beruvchida qoladi. Tovarni omborda saqlash va sotishdan oldingi tayyorgarlik tovarning egasi hisobiga amalga oshiriladi.

Товарларни, товарнинг эгаси (консигнант) томонидан комиссионерга (консигнаторга), воситачи

К

ролини ўйнайдиган комиссиянернинг омборидан сотиш учун бериш шаклида комиссия сотиш. Товарга бўлган эгалик ҳуқуқи, товар сотилгунга қадар, товарни етказиб берувчида қолади. Товарни омборда сақлаш ва сотишдан олдинги тайёргарлик товарнинг эгаси ҳисобига амалга оширилади.

Консолидация

uz - birlashtirish,

konsolidatsiya qilish

бирлаштириш,

консолидация қилиш

en - consolidation

1. Объединение, слияние двух или нескольких фирм, компаний.
2. Сведение бухгалтерских данных при подготовке сводного счета.
3. Замена национальной валюты в валютных резервах страны на новые международные денежные активы.
4. Вложение прибыли, полученной от торговли спекулятивными акциями, в более надежные акции.

1. Ikkita yoki bir nechta firma, kompaniyani birlashtirish, qo‘shib yuborish.

2. Jamlama hisobni tayyorlashda buxgalteriya ma'lumotlarini birlashtirish.

3. Mamlakat valyuta rezervidagi milliy valyutani yangi xalqaro pul aktivlariga almashtirish.

4. Spekulyativ aksiyalarni sotishdan olingan foydani birmuncha ishonchliroq aksiyalarga sarflash.

1. Ikkita ёки бир нечта фирма, компанияни бирлаштириш, қўшиб юбориш.

2. Жамлама ҳисобни тайёрлашда бухгалтерия маълумотларини бирлаштириш.

3. Мамлакат валюта резервидаги миллий валютани янги халқаро пул активларига алмаштириш.

4. Спекулятив акцияларни сотишдан олинган фойдани бирмунча ишончлироқ акцияларга сарфлаш.

Консолидированный бюджет

uz - birlashtirilgan byudjet

бирлаштирилган бюджет

en - consolidated budget

Объединенный бюджет территориальных единиц.

Hududiy birliklarning birgalikdagi byudjeti.

Ҳудудий бирликларнинг биргаликдаги бюджети.

К

Консолидированный долг

uz - konsolidatsiya qilingan qarz

консолидация қилинган қарз

en - consolidated debt

Часть долга государства, компании, образующаяся в результате выпуска долгосрочных займов.

Davlat, kompaniya qarzining, uzoq muddatli zayomlar chiqarish natijasida yuzaga keladigan qismi.

Давлат, компания қарзининг, узоқ муддатли заёмлар чиқариш натижасида юзага келадиган қисми.

Консорциум

uz - konsorsium

консорциум

en - consortium

Временное объединение компаний, банков на основе общего соглашения для осуществления капиталоемкого проекта или для совместного размещения займа. Консорциум несет солидарную ответственность перед своими заказчиками.

Kompaniyalar, banklarning kapitaltalab loyihani amalga oshirish yoki zayomni birgalikda joylashtirish uchun, umumiy kelishuv asosida vaqtincha birlashishi. Konsorsium o'zining buyurtmachilari oldida umumiy javobgarlikni zimmasiga oladi.

Компаниялар, банкларнинг капиталталаб лойиҳани амалга ошириш ёки заёмни биргаликда жойлаштириш учун, умумий келишув асосида вақтинча бирлашиши. Консорциум ўзининг буюртмачилари олдида умумий жавобгарликни зиммасига олади.

Консультант по

маркетингу

uz - marketing bo'yicha maslahatchi

маркетинг бўйича

маслаҳатчи

en - management consultant

Частное лицо, представитель компании или сама компания по вопросам управления, анализа и поиска решения деловых проблем маркетинговыми инструментами.

Marketing vositalari bilan amaliy muammolarni boshqarish, tahlil qilish va yechimlarini izlab topish masalalari bo'yicha kompaniya yoki kompaniyaning vakili, xususiyl shaxs.

Маркетинг воситалари билан амалий муаммоларни бошқариш, таҳлил қилиш ва ечимларини излаб топиш масалалари бўйича компания ёки компаниянинг вакили, хусусий шахс.

К

Консумент

uz - konsument

консумент

en - consumer

Потребитель товаров и услуг.

Tovarlar va xizmatlar iste'molchisi.

Товарлар ва хизматлар истеъмолчиси.

Контент-анализ

uz - kontent-analiz

контент-анализ

en – content analysis

Объективная, систематическая и количественно определенная характеристика основных параметров коммуникативной связи.

Kommunikativ aloqa (bog'lanish) asosiy parametrlarining obyektiv, sistematik, miqdoran belgilangan xarakteristikasi.

Коммуникатив алоқа (боғланиш) асосий параметрларининг объектив, систематик, миқдоран белгиланган хarakteristikasi.

Контингент

uz - kontingent

контингент

en - quota

Во внешнеэкономических связях – устанавливаемая государственными органами предельная норма ввоза, вывоза, транзита некоторых товаров в определенные страны или из страны. Контингент определяется в физическом или денежном измерении. Государственное регулирование внешней торговли в форме установления экспортных и импортных квот-контингентов называют контингентированием.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda – mamlakatdan yoki muayyan mamlakatlarga ba'zi bir tovarlarni kiritish, chiqarish, tranzit qilishning, davlat organlari tomonidan belgilanadigan eng yuqori normasi. Kontingent fizik yoki pul o'lchovida belgilanadi. Tashqi savdoning eksport va import kvot-kontingent shaklida davlat tomonidan tartibga solinishi kontingentlash deyiladi.

Ташқи иқтисодий алоқаларда – мамлакатдан ёки муайян мамлакатларга баъзи бир товарларни киритиш, чиқариш, транзит қилишнинг, давлат органлари томонидан белгиланадиган энг юқори нормаси. Контингент физик ёки пул ўлчовида белгиланади. Ташқи савдонинг экспорт ва импорт квот-контингент шаклида давлат томонидан тартибга солиниши контингентлаш дейилади.

К

Конткоррент

uz - kontokorrent

конткоррент

en - account current

Единый счет, на котором учитываются все операции банка с клиентом. Основные операции по конткорренту – кредитные.

Bankning mijoz bilan amalga oshiradigan barcha operatsiyalari hisobga olinadigan yagona hisobvagar'i. Kontokorrent bo'yicha asosiy operatsiyalar – bu, kredit operatsiyalaridir.

Банкнинг мижоз билан амалга оширадиган барча операциялари ҳисобга олинadиган ягона ҳисобварағи. Конткоррент бўйича асосий операциялар – бу, кредит операцияларидир.

Контрагенты

uz - kontragentlar

контрагентлар

en - constituency

Лица, организации, связанные обязательствами по общему договору, сотрудничающие в процессе выполнения договора.

Umumiy shartnoma bo'yicha majburiyatlar bilan bog'langan, shartnomani bajarish jarayonida hamkorlik qiladigan shaxslar, tashkilotlar.

Умумий шартнома бўйича мажбуриятлар билан боғланган, шартномани бажариш жараёнида ҳамкорлик қиладиган шахслар, ташкилотлар.

Контракт

uz - kontrakt

контракт

en - contract

Договор, соглашение между двумя или несколькими лицами, в котором определяются действия, подлежащие исполнению, и ответственность за выполнение (равно как и невыполнение) этих действий.

Ikki yoki bir nechta shaxs o'rtasidagi, bajarilishi zarur bo'lgan ishlar va bu ishlarning bajarilishi (yoki bajarilmasligi) yuzasidan javobgarlik belgilangan shartnoma, bitim.

Икки ёки бир нечта шахс ўртасидаги, бажарилиши зарур бўлган ишлар ва бу ишларнинг бажарилиши (ёки бажарилмаслиги) юзасидан жавобгарлик белгиланган шартнома, битим.

К

Контрафакция

uz - kontrafaksiya

контрафакция

en - counterfeiting

Ведение дела под чужим именем, незаконное использование чужого патента при изготовлении и продаже товаров, а также незаконное обозначение на своих товарных знаках изображений, помещаемых на популярных товарах других фирм, в целях недобросовестной конкуренции и ведения потребителей в заблуждение.

Begona nom ostida ish yuritish, tovarlarni tayyorlash va sotishda begona patentdan noqonuniy foydalanish, shuningdek, noxolis raqobat va iste'molchilarni chalg'itish maqsadida, o'zining tovar belgilarida boshqa firmalarning mashhur tovarlarida joylash-tiriladigan tasvirlarni noqonuniy ko'rsatish.

Бегона ном остида иш юритиш, товарларни тай-ёрлаш ва сотишда бегона патентдан ноқонуний фойдаланиш, шунингдек, нохолис рақобат ва истеъмолчиларни чалғитиш мақсадида, ўзининг товар белгиларида бошқа фирмаларнинг машхур товарларида жойлаштириладиган тасвирларни ноқонуний кўрсатиш.

Контрольный пакет акций

uz - aksiyalarning nazorat

paketi

акцияларнинг назорат

пакети

en - controlling interest

Часть, доля общего количества выпущенных акционерным обществом обыкновенных акций, сосредоточенная в руках одного лица и дающая ему возможность осуществлять фактический контроль над деятельностью акционерного общества, управлять этой деятельностью, принимать нужные решения.

Aksiyadorlar jamiyati tomonidan chiqarilgan oddiy aksiyalar umumiy sonining, bir shaxs qo'lida to'plangan va unga aksiyadorlar jamiyati faoliyatini amalda nazorat qilish, uni boshqarish, zarur qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradigan qismi, ulushi.

Акциядорлар жамияти томонидан чиқарилган оддий акциялар умумий сонининг, бир шахс қўлида тўпланган ва унга акциядорлар жамияти фаолиятини амалда назорат қилиш, уни бошқариш, зарур қарорлар қабул қилиш имкониятини берадиган қисми, улуши.

К

Концепция

uz - konsepsiya

концепция

en - concept

1. Генеральный замысел, определяющий стратегию действий при осуществлении реформ, проектов, планов, программ, а также документ, в котором выражен этот замысел.

2. Система взглядов на процессы и явления в природе и обществе.

1. Islohotlarni, loyihalarni, rejalar, dasturlarni amalga oshirishda harakat strategiyasini belgilaydigan asosiy fikr, shuningdek, bu fikr ifodalangan hujjat.

2. Tabiat va jamiyatdagi jarayonlarga, hodisalarga qarashlar tizimi.

1. Islohotlarni, loyihalarni, rejalar, dasturlarni amalga oshirishda harakat strategiyasini belgilaydigan asosiy fikr, shuningdek, bu fikr ifodalangan hujjat.

2. Tabiat va jamiyatdagi jarayonlarga, hodisalarga qarashlar tizimi.

Концепция маркетинга

uz - marketing konsepsiyasi

маркетинг концепцияси

en - marketing concept

Рыночный подход к бизнесу, основанный на приоритете потребителя, как главного агента рыночных отношений, на его потребностях, интересах и запросах. Основа концепции – ориентация на потребителя.

Biznesga nisbatan bozor yondashuvi, bozor munosabatlarining asosiy ishtirokchisi sifatida iste'molchining ustuvorligiga, uning ehtiyojlariga, qiziqishlari va talablariga asoslangan. Konsepsiyaning asosini iste'molchiga yo'nalganlik tashkil etadi.

Biznesga nisbatan bozor yondashuvi, bozor munosabatlarining asosiy ishtirokchisi sifatida iste'molchining ustuvorligiga, uning ehtiyojlariga, qiziqishlari va talablariga asoslangan. Konsepsiyaning asosini iste'molchiga yo'nalganlik tashkil etadi.

Концепция партнерских отношений

uz - sherikchilik munosabatlari konsepsiyasi

шерикчилик

муносабатлари концепцияси

en – concept relationship

Современная система взглядов в маркетинге, ориентирующаяся на формировании долгосрочной лояльности потенциальных потребителей на основе тесного взаимодействия в процессе создания ценностей и получения на этой основе потребительских выгод и прибыли для компании.

К

Marketingdagi zamonaviy qarashlar tizimi, boyliklar yaratish jarayonida qalin hamkorlik asosida potensial iste'molchilarning uzoq muddatli xolisligini shakllantirishga va bu asosida kompaniya uchun foyda olishga, iste'molchi manfaatiga yo'naltirilgan.

Маркетингдаги замонавий қарашлар тизими, бойликлар яратиш жараёнида қалин ҳамкорлик асосида потенциал истеъмолчиларнинг узоқ мuddатли холислигини шакллантиришга ва бу асосида компания учун фойда олишга, истеъмолчи манфаатига йўналтирилган.

Концепция покупателя

uz - xaridor konsepsiyasi
харидор концепцияси
en - consumer concept

Современная маркетинговая концепция, ставящая своей целью рост прибыли посредством увеличения доли расходов каждого клиента. Реализуется за счет увеличения лояльности и фокусирования внимания на жизненных интересах покупателя.

Har bir mijozning xarajatlar ulushini orttirish orqali foyda oshishini maqsad qilib qo'ygan zamonaviy marketing konsepsiyasi. Xaridorning xolisligini oshirish va hayotiy manfaatlariga e'tibor qaratish hisobiga amalga oshiriladi.

Ҳар бир mijozning xarajatlar ulushini orttirish orqali foyda oshishini maqsad qilib qo'ygan zamonaviy marketing konsepsiyasi. Xaridorning xolisligini oshirish va hayotiy manfaatlariga e'tibor qaratish hisobiga amalga oshiriladi.

Концепция продаж

uz - sotuvlar konsepsiyasi
сотувлар концепцияси
en - selling concept

Концепция управления маркетингом, где целью компании является увеличение ресурсов и усилий в сфере сбыта и стимулирования своих товаров или услуг. Это также концепция интенсификации коммерческих усилий или концепция сбыта.

Marketingni boshqarish konsepsiyasi, bunda kompaniyaning maqsadi, o'z tovarlari yoki xizmatlarini rag'batlantirish va sotish sohasida resurslari hamda

К

kuch-g'ayratlarini oshirish hisoblanadi. Bu, shuningdek, tijorat kuch-g'ayratlarini jadallashtirish yoki sotish konsepsiyasi hamdir.

Маркетингни бошқариш концепцияси, бунда компаниянинг мақсади, ўз товарлари ёки хизматларини рағбатлантириш ва сотиш соҳасида ресурслари ҳамда куч-ғайратларини ошириш ҳисобланади. Бу, шунингдек, тижорат куч-ғайратларини жадаллаштириш ёки сотиш концепцияси ҳамдир.

Концепция совершенствования производства

uz - ishlab chiqarishni takomillashtirish konsepsiyasi

ишлаб чиқаришни такомиллаштириш концепцияси

en - production concept

Концепция управления маркетингом, в ситуации, когда потребители отдают предпочтение товарам, которые имеются в продаже, пользуются спросом и доступны по цене. В этом случае целью компании является совершенствование производства этих товаров, снижение издержек.

Iste'molchilar sotuvda bo'lgan, talabgir, bahosi arzon tovarlarni ma'qul ko'radigan vaziyatda marketingni boshqarish konsepsiyasi. Bu holatda kompaniyaning maqsadi, bu tovarlarning ishlab chiqarishini takomillashtirish, chiqimlarni kamaytirish hisoblanadi.

Истеъмолчилар сотувда бўлган, талабгир, баҳоси арзон товарларни маъқул кўрадиган вазиятда маркетингни бошқариш концепцияси. Бу ҳолатда компаниянинг мақсади, бу товарларнинг ишлаб чиқарилишини такомиллаштириш, чиқимларни камайтириш ҳисобланади.

Концепция социально-ответственного маркетинга

uz - ijtimoiy mas'ul marketing konsepsiyasi

ижтимоий масъул маркетинг концепцияси

en - societal marketing concept

Концепция управления маркетингом, где целью компании выступает установление нужд, потребностей и интересов целевых рынков и их удовлетворение более эффективными, чем у конкурентов, способами при сохранении или повышении благосостояния как потребителей, так и общества в целом.

Marketingni boshqarish konsepsiyasi, bu yerda kompaniyaning maqsadi, maqsadli bozorlarning zarurlari, ehtiyojlari va manfaatlarini aniqlash,

К

ularni iste'molchilarning ham, umuman jamiyatning ham farovonligini saqlab qolgan yoki oshirgan holda, raqobatchilardagiga qaraganda samaraliroq usullar bilan qondirish hisoblanadi.

Маркетингни бошқариш концепцияси, бу ерда компаниянинг мақсади, мақсадли бозорларнинг заруратлари, эҳтиёжлари ва манфаатларини аниқлаш, уларни истеъмолчиларнинг ҳам, умуман жамиятнинг ҳам фаровонлигини сақлаб қолган ёки оширган ҳолда, рақобатчилардагига қараганда самаралироқ усуллар билан қондириш ҳисобланади.

Концерн

uz - konsern
концерн
en - concern

Крупное объединение предприятий, связанных общностью интересов, договорами, капиталом, участием в совместной деятельности.

Manfaatlarning umumiyligi, shartnomalar, kapital, birgalikdagi faoliyatda qatnashish orqali bogʻlangan korxonalarining yirik birlashmasi.

Манфаатларнинг умумийлиги, шартномалар, капитал, биргаликдаги фаолиятда қатнашиш орқали боғланган корхоналарнинг йirik бирлашмаси.

Концессия

uz - konsessiya
концессия
en - concession

1. Форма привлечения иностранного капитала в значительных размерах для освоения национальных ресурсов; осуществляется в виде договора о передаче в эксплуатацию на время, на срок иностранным фирмам, частным лицам принадлежащих государству, местным органам власти источников природных богатств, объектов инфраструктуры, коммунального обслуживания, транспорта, предприятий, других хозяйственных объектов, представляющих, как правило, крупные объекты вложений капитала.

2. Вознаграждение, получаемое банками за организацию продажи вновь выпущенных ценных бумаг.

1. Milliy resurslarni oʻzlashtirish uchun, katta miqdorda chet el kapitalini jalb qilish shakli; davlatga,

К

mahalliy hokimiyat organlariga tegishli tabiiy boyliklar manbalarini, infrastruktura, kommunal xizmat ko'rsatish, transport obyektlarini, korxonalarni, kapital qo'yishning yirik obyektlarini ifodalaydigan boshqa xo'jalik obyektlarini ma'lum bir vaqtga, muddatga foydalanish uchun chet el firmalariga, xususiy shaxslarga berish to'g'risidagi shartnoma ko'rinishida amalga oshiriladi.

2. Yangi chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotish tashkil qilinganligi uchun banklar oladigan mukofot.

1. Миллий ресурсларни ўзлаштириш учун, катта миқдорда чет эл капиталини жалб қилиш шакли; давлатга, маҳаллий ҳокимият органларига тегишли табиий бойликлар манбаларини, инфраструктура, коммунал хизмат кўрсатиш, транспорт объектларини, корхоналарни, капитал қўйишининг йирик объектларини ифодалайдиган бошқа хўжалик объектларини маълум бир вақтга, мuddатга фойдаланиш учун чет эл фирмаларига, хусусий шахсларга бериш тўғрисидаги шартнома кўринишида амалга оширилади.

2. Янги чиқарилган қимматли қоғозларни сотиш ташкил қилинганлиги учун банклар оладиган мукофот.

Конъюнктура рынка

uz - bozor konyunkturasi

бозор конъюнктураси

en - market conjuncture

Основная характеристика функционирования рынка, складывающейся на нем ситуации; отражает величины спроса и предложения, уровень цен, объемы продаж, рыночную активность продавцов и покупателей.

Bozor ishlashining asosiy xarakteristikasi, unda qaror topgan vaziyat; talab va taklif miqdorini, narxlar darajasini, sotuvlar hajmini, sotuvchilar va xaridorlarning bozor bilan bog'liq faolligini aks ettiradi.

Бозор ишлашининг асосий хarakterистикаси, унда қарор топган вазият; талаб ва таклиф миқдорини, нархлар даражасини, сотувлар ҳажмини, сотувчилар ва харидорларнинг бозор билан боғлиқ фаоллигини акс эттиради.

К

Кооперация труда

uz - mehnat kooperatsiyasi

меҳнат кооперацияси

en - cooperation of work

Форма организации труда, выполнения работ, основанная на совместном участии в едином трудовом процессе значительного числа работников, выполняющих разные операции этого процесса.

Ҳагона меҳнат жараёнида, бу жараённинг турли оператсияларини bajaradigan ko'p sonli xodimlarning birgalikdagi ishtirokiga asoslangan, mehnatni tashkil qilish, ishlarni bajarish shakli.

Ҳагона меҳнат жараёнида, бу жараённинг турли операцияларини bajaradigan ko'p sonli xodimlarning birgalikdagi ishtirokiga asoslangan, mehnatni tashkil qilish, ishlarni bajarish shakli.

Кооперирование

uz - kooperatsiyalashtirish

кооперациялаштириш

en - cooperation

Установление длительных производственных связей между регионами, отраслями, предприятиями, специализирующимися на производстве отдельных частей единого изделия.

Ҳахлит buyumning ayrim qismlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar, tarmoqlar, mintaqalar o'rtasida uzoq muddatli ishlab chiqarish aloqalarining o'rnatilishi.

Ҳахлит buyumning ayrim qismlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar, tarmoqlar, mintaqalar o'rtasida uzoq muddatli ishlab chiqarish aloqalarining o'rnatilishi.

Координация

uz - muvofiqlashtirish

мувофиқлаштириш

en - coordination

Составная часть процессов управления, состоящая в согласовании, упорядочении действий разных частей управляемой системы.

Boshqaruv jarayonlarining, tarkibiy qismi boshqariladigan tizim turli qismlarining ishini tartibga solish, moslashtirishdan iborat.

Бошқарув жараёнларининг, таркибий қисми бошқариладиган тизим турли қисмларининг ишини тартибга солиш, мослаштиришдан иборат.

К

Корзина валют

uz - valyutalar savati

валюталар савати

en - currency package

Метод измерения средневзвешенного курса одной валюты по отношению к определенному набору других валют. Количество валют в наборе, их состав и размер валютных компонентов устанавливаются в зависимости от цели определения курса валюты.

Bir valyuta o'rtacha baho berilgan kursini boshqa valyutalarning ma'lum bir to'plamiga nisbatan o'lchash usuli. To'plamdagi valyutalar soni, ularning tarkibi, valyuta komponentlarining o'lchami (miqdori), valyuta kursini belgilash maqsadiga bog'liq holda o'rnatiladi.

Бир валюта ўртача баҳо берилган курсини бошқа валюталарнинг маълум бир тўпламига нисбатан ўлчаш усули. Тўпламдаги валюталар сони, уларнинг таркиби, валюта компонентларининг ўлчами (миқдори), валюта курсини белгилаш мақсадига боғлиқ ҳолда ўрнатилади.

Корпорация

uz - korporatsiya

корпорация

en - corporation

Группа лиц, объединившихся для достижения какой-либо цели, осуществления совместной деятельности и образующих самостоятельный субъект права – юридическое лицо.

Qandaydir maqsadga erishish, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashgan, yuridik shaxs – mustaqil huquq subyektini tashkil qiladigan shaxslar guruhi.

Қандайдир мақсадга эришиш, биргаликдаги фаолиятни амалга ошириш учун бирлашган, юридик шахс – мустақил ҳуқуқ субъектини ташкил қиладиган шахслар гуруҳи.

Корреляция

uz - korrelyatsiya, o'zaro bog'langanlik

корреляция, ўзаро

боғланганлик

en - correlation

Наличие связи между явлениями, процессами и характеризующими их величинами; наличие и глубина подобной связи устанавливаются посредством экономико-статистического анализа.

Hodisalar, jarayonlar va ularni tavsiflaydigan kattaliklar o'rtasida bog'lanishning mavjudligi; bunday bog'lanishning mavjudligi va darajasi iqtisodiy-statistik tahlil orqali aniqlanadi.

К

Ҳодисалар, жараёнлар ва уларни тавсифлайдиган катталиклар ўртасида боғланишнинг мавжудлиги; бундай боғланишнинг мавжудлиги ва даражаси иқтисодий-статистик таҳлил орқали аниқланади.

Корреспондент

uz - korrespondent

корреспондент

en - correspondent

Банк или иная финансовая организация, представляющая в данном регионе интересы другой подобной организации за ее счет и выполняющая ее финансовые и коммерческие поручения. Корреспондентские отношения закрепляются корреспондентским договором.

Ma'lum bir mintaqada boshqa bir o'xshash tashkilotning manfaatlarini shu tashkilot hisobiga ifodalaydigan, uning moliyaviy va tijorat bilan bog'liq topshiriqlarini bajaradigan bank yoki boshqa moliya tashkiloti. Korrespondent munosabatlar korrespondent shartnomasi bilan mustahkamlanadi.

Маълум бир минтақада бошқа бир ўхшаш ташкилотнинг манфаатларини шу ташкилот ҳисобига ифодалайдиган, унинг молиявий ва тижорат билан боғлиқ топшириқларини бажарадиган банк ёки бошқа молия ташкилоти. Корреспондент муносабатлар корреспондент шартномаси билан мустаҳкамланади.

Корреспондентский счет

uz - korrespondent hisobraqami

корреспондент

ҳисобрақами

en - correspondent account

Счет, на котором отражаются расчеты, произведенные одним кредитным учреждением по поручению и за счет другого на основе корреспондентского договора.

Bir kredit muassasasi tomonidan boshqa bir kredit muassasasining topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan, korrespondent shartnomasi asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblar aks etgan hisobraqam.

Бир кредит муассасаси томонидан бошқа бир кредит муассасасининг топшириғига кўра ва унинг ҳисобидан, корреспондент шартномаси асосида амалга оширилган ҳисоб-китоблар акс этган ҳисобрақам.

К

Косвенные затраты

uz - qo‘shimcha xarajatlar
қўшимча харажатлар
en - indirect expenditures

Связанные с производством затраты, которые в отличие от прямых не могут быть непосредственно отнесены на изготовление продукции. К такому относятся, например, административно-управленческие расходы, затраты на повышение квалификации персонала, издержки в инфраструктуре производства, затраты в социальной сфере.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan, to‘g‘ri xarajatlardan farqli ravishda, mahsulot tayyorlashga bevosita kiritilishi mumkin bo‘lmagan xarajatlar. Ma‘muriy-boshqaruv xarajatlari, xodimlar malakasini oshirishga bo‘lgan xarajatlar, ishlab chiqarish infrastrukturasiidagi, ijtimoiy sohadagi xarajatlar shular jumlasidandir.

Ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган, тўғри харажатлардан фарқли равишда, маҳсулот тайёрлашга бевосита киритилиши мумкин бўлмаган харажатлар. Маъмурий-бошқарув харажатлари, ходимлар малакасини оширишга бўлган харажатлар, ишлаб чиқариш инфраструктурасидаги, ижтимоий соҳадаги харажатлар шулар жумласидандир.

Косвенные налоги

uz - egri soliqlar
эгри солиқлар
en - indirect taxes

Налоги на товары и услуги, устанавливаемые центральными и местными органами власти в виде надбавок к цене товаров или тарифу на услуги и не зависящие от доходов налогоплательщиков (в отличие от прямых налогов, связанных с доходами). Наиболее распространены косвенные налоги в виде акцизов, пошлин, таможенных сборов.

Tovarlarni va xizmatlarga markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tovarlar narxiga yoki xizmatlarga bo‘lgan tarifga ustama haq ko‘rinishida belgilanadigan va soliq to‘lovchilarning daromadlariga bog‘liq bo‘lmagan (daromadlar bilan bog‘liq to‘g‘ri soliqlardan farqli ravishda) soliqlar. Aksizlar, bojlar, bojxona yig‘imlari ko‘rinishidagi egri soliqlar keng tarqalgan.

Товарлар ва хизматларга марказий ва маҳаллий

К

хокимият органлари томонидан товарлар нархи-га ёки хизматларга бўлган тарифга устама ҳақ кўринишида белгиланадиган ва солиқ тўловчи-ларнинг даромадларига боғлиқ бўлмаган (даро-мадлар билан боғлиқ тўғри солиқлардан фарқли равишда) солиқлар. Акцизлар, божлар, божхона йиғимлари кўринишидаги эгри солиқлар кенг тарқалган.

Котировка

uz - baholash

баҳоланиш

en - quotation

Установление курсов иностранных валют, цен-ных бумаг или цен товаров на биржах в соответ-ствии с действующими законодательными нор-мами и сложившейся практикой.

Amaldagi qonunchilik normalariga va qaror topgan amaliyotga muvofiq, birjalarda chet el valyutalari, qimmatli qog'ozlar kurslarining yoki tovarlar narx-larining belgilanishi.

Амалдаги қонунчилик нормаларига ва қарор топган амалиётга мувофиқ, биржаларда чет эл валюталари, қимматли қоғозлар курсларининг ёки товарлар нархларининг белгиланиши.

Кредит

uz - kredit

кредит

en - credit

1. Правая сторона бухгалтерских счетов. В актив-ных счетах запись в кредите показывает уменьше-ние, а в пассивных счетах – увеличение средств.
2. Займ в денежной или товарной форме, предо-ставляемый кредитором заемщику на условиях возвратности и, как правило, с уплатой процен-та. Различают следующие основные формы кре-дита: Государственный кредит, коммерческий кредит, банковский, кредит, потребительский кредит, международный, ипотечный кредит.

1. Buxgalteriya hisob varaqasining o'ng tomoni. Aktiv hisob raqamlarida kreditdagi yozuv mab-lag'larning kamayishini, passiv hisob raqamlarida esa, mablag'larning oshishini ko'rsatadi.
2. Kreditor tomonidan qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida qaytarish shartlari asosida, odatda foiz to'lash bilan taqdim etiladigan qarz. Kreditning davlat krediti, tijorat krediti, bank krediti, iste'mol krediti, xalqaro krediti, ipoteka krediti kabi asosisy shakllari mavjud.

К

1. Бухгалтерия ҳисоб варақасининг ўнг томони. Актив ҳисоб рақамларида кредитдаги ўзув маблағларнинг камайишини, пассив ҳисоб рақамларида эса, маблағларнинг ошишини кўрсатади.

2. Кредитор томонидан қарз олувчига пул ёки товар шаклида, қайтариш шартлари асосида, одатда фоиз тўлаш билан тақдим этиладиган қарз. Кредитнинг давлат кредити, тижорат кредити, банк кредити, истеъмол кредити, халқаро кредити, ипотека кредити асосий шакллари мавжуд.

Кредитная история

uz - kredit tarixi

кредит тарихи

en - credit history

Накопленные в течение длительного времени сведения о получении и возвращении заемщиком банковских кредитов. Кредитная история учитывается финансово-кредитными учреждениями при обращении клиента за займом, что позволяет уменьшить кредитный риск.

Qarzdor bank kreditlari olganligi va qaytarganligi to'g'risida uzoq vaqt mobaynida to'plangan ma'lumotlar. Kredit tarixi moliya-kredit muassasalari tomonidan mijoz qarz yuzasidan murojaat qilganda hisobga olinadi, bu kredit tavakkalchiligini kamaytiradi.

Қарздор банк кредитлари олганлиги ва қайтарганлиги тўғрисида узоқ вақт мобайнида тўпланган маълумотлар. Кредит тарихи молия-кредит муассасалари томонидан мижоз қарз юзасидан мурожаат қилганда ҳисобга олинади, бу кредит таваккалчилигини камайтиради.

Кредитная карта

uz - kredit karta

кредит карта

en - credit card

Именной платежно-расчетный документ в виде персонифицированной пластиковой карточки, выдаваемой банком своим вкладчикам для безналичной оплаты, приобретения ими в кредит товаров и услуг в розничной торговой сети.

Bank tomonidan o'zining omonatchilariga naqd pulsiz to'lov uchun, chakana savdo tarmog'ida kreditga tovarlar va xizmatlar xarid qilish uchun beriladigan, shaxsiylashtirilgan plastik kartochka ko'rinishidagi, nomi yozilgan hisob-kitob to'lov hujjati.

К

Банк томонидан ўзининг омонатчиларига нақд пулсиз тўлов учун, чакана савдо тармоғида кредитга товарлар ва хизматлар харид қилиш учун бериладиган, шахсийлаштирилган пластик карточка кўринишидаги, номи ёзилган ҳисоб-китоб тўлов ҳужжати.

Кредитная линия

uz - kredit liniyasi

кредит линияси

en - credit line

Выданное заемщику юридически оформленное обязательство кредитного учреждения, банка, предоставлять ему в течение некоторого времени кредиты в пределах согласованного лимита.

Kredit muassasasi, bankning, qarz oluvchiga berilgan, yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, qarz oluvchiga qandaydir vaqt mobaynida kelishilgan limit doirasida kreditlar taqdim etish majburiyati.

Кредит муассасаси, банкнинг, қарз олувчига берилган, юридик жиҳатдан расмийлаштирилган, қарз олувчига қандайдир вақт мобайнида келишилган лимит доирасида кредитлар тақдим этиш мажбурияти.

Кредитная система

uz - kredit tizimi

кредит тизими

en - credit system

Совокупность кредитных отношений, форм и методов кредитования, а также система кредитных учреждений.

Kredit munosabatlari, kreditlash shakllari va usullari yig‘indisi, shuningdek, kredit muassasalari tizimi.

Кредит муносабатлари, кредитлаш шакллари ва усуллари йиғиндиси, шунингдек, кредит муассасалари тизими.

Кредитор

uz - kreditor

кредитор

en - creditor

Субъект (юридическое или физическое лицо), предоставляющий деньги в долг и имеющий право требовать от дебитора исполнения обязательств.

Qarzga pul beradigan va debitoridan majburiyatlarining bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lgan subyekt (yuridik yoki jismoniy shaxs).

Қарзга пул берадиган ва дебитордан мажбуриятларининг бажарилишини талаб қилиш ҳуқуқига эга бўлган субъект (юридик ёки жисмоний шахс).

К

Кредиторская задолженность

uz - kreditordan qarzdorlik
кредитордан қарздорлик
en - accounts payable

Временно привлеченные предприятием, организацией, учреждением денежные средства, подлежащие возврату кредиторам в установленные сроки.

Korxonona, tashkilot, muassasa tomonidan vaqtincha jalb qilingan, belgilangan muddatlarda kreditorlarga qaytarilishi zarur bo'lgan pul mablag'lari.

Корхона, ташкилот, муассаса томонидан вақтинча жалб қилинган, белгиланган муддатларда кредиторларга қайтарилиши зарур бўлган пул маблағлари.

Кредитоспособность

uz - qarzni to'lashga qodirlik
қарзни тўлашга қодирлик
en - creditworthiness

Наличие у заемщика оснований, возможностей получить кредит и возратить его. Кредитоспособность зависит от экономического положения заемщика, состояния его дел.

Qarz oluvchida kredit olish va uni qaytarish uchun asoslar, imkoniyatlarning mavjudligi. Qarzni to'lashga qodirlik qarz oluvchining iqtisodiy ahvoliga, uning ishlari holatiga bog'liq.

Қарз олувчида кредит олиш ва уни қайтариш учун асослар, имкониятларнинг мавжудлиги. Қарзни тўлашга қодирлик қарз олувчининг иқтисодий аҳволига, унинг ишлари ҳолатига боғлиқ.

Кривая безразличия

uz - loqaydlik egri chizig'i
лоқайдлик эгри чизиғи
en - indifference curve

Изображенный в виде кривой возможный набор вариантов комбинаций товаров (благ), обладающих одинаковой полезностью, вследствие чего потребителю безразлично, какой из них выбрать. Кривые безразличия используются в целях анализа потребительских предпочтений.

Egri chiziq shaklida tasvirlangan, bir xil foydali-likka ega tovarlar (ne'matlar) kombinatsiyalari variantlarining mumkin bo'lgan to'plami, uning oqibatida iste'molchiga ulardan qay birini tanlash ahamiyatsiz bo'ladi. Loqaydlik egri chizig'idan iste'mol afzalliklarini tahlil qilishda foydalaniladi.

Эгри чизик шаклида тасвирланган, бир хил фойдалиликка эга товарлар (неъматлар) комбина-

К

циялари вариантларининг мумкин бўлган тўплами, унинг оқибатида истеъмолчига улардан қай бирини танлаш аҳамиятсиз бўлади. Лоқайдлик эгри чизигидан истеъмол афзалликларини таҳлил қилишда фойдаланилади.

Кривая предложения

uz - taklif egri chizig‘i

таклиф эгри чизиги

en - supply curve

Представленная в графической форме зависимость между величиной предложения товара на рынке и его ценой (чем выше цена, тем больше величина предложения при прочих неизменных факторах).

Grafik shaklda ko‘rsatilgan, bozorda tovarni taklif qilish kattaligi va uning narxi o‘rtasidagi bog‘liqlik (narx qancha yuqori bo‘lsa, boshqa o‘zgarmas omillar sharoitida taklif kattaligi shuncha ko‘p bo‘ladi).

График шаклда кўрсатилган, бозорда товарни таклиф қилиш катталиги ва унинг нархи ўртасидаги боғлиқлик (нарх қанча юқори бўлса, бошқа ўзгармас омиллар шароитида таклиф катталиги шунча кўп бўлади).

Кривая производственных возможностей

uz - ishlab chiqarish

imkoniyatlari egri chizig‘i

ишлаб чиқариш

имкониятлари эгри чизиги

en - production-possibility curve

Кривая, графически иллюстрирующая возможность одновременного производства двух продуктов с учетом ограниченности ресурсов, расходуемых на их производство.

Ishlab chiqarilishi uchun sarflanadigan resurslarning cheklanganligi hisobga olingan holda, bir vaqtda ikkita mahsulotni ishlab chiqarish imkoniyati grafik tasvirlangan egri chiziq.

Ишлаб чиқарилиши учун сарфланадиган ресурсларнинг чекланганлиги ҳисобга олинган ҳолда, бир вақтда иккита маҳсулотни ишлаб чиқариш имконияти график тасвирланган эгри чизик.

Кривая спроса

uz - talab egri chizig‘i

талаб эгри чизиги

en - demand curve

Представленная в графической форме зависимость величины спроса на товар (количество товара, которое могут и хотят приобрести покупатели по данной цене) от его рыночной цены при неизменности прочих (неценовых) факторов, влияющих на спрос.

К

Grafik shaklda ko'rsatilgan, tovarga bo'lgan talab kattaligining (belgilangan narx bo'yicha xaridorlar sotib olishi mumkin bo'lgan va sotib olishni istaydigan tovar miqdori), talabga ta'sir qiladigan boshqa omillar (narx bilan bog'liq bo'lmagan) o'zgarмай qolgan sharoitda, tovarning bozor bahosiga bog'liqligi.

График шаклда кўрсатилган, товарга бўлган талаб катталигининг (белгиланган нарх бўйича харидорлар сотиб олиши мумкин бўлган ва сотиб олишни истайдиган товар миқдори), талабга таъсир қиладиган бошқа омиллар (нарх билан боғлиқ бўлмаган) ўзгармай қолган шароитда, товарнинг бозор баҳосига боғлиқлиги.

Кризис экономический

uz - iqtisodiy krizis

иқтисодий кризис

en - economic depression

Резкое ухудшение экономического состояния страны, проявляющееся в значительном спаде производства, нарушении сложившихся производственных связей, банкротстве предприятий, росте безработицы и в итоге – в снижении жизненного уровня, благосостояния населения.

Mamlakat iqtisodiy ahvolining keskin yomonlashuvi, ishlab chiqarishning jiddiy pasayishida, qaror topgan ishlab chiqarish aloqalari buzilishida, korxonalarining sinishida, ishsizlik o'sishida, pirovardida aholi farovonligining, yashash darajasining pasayishida namoyon bo'ladi.

Мамлакат иқтисодий аҳволининг кескин ёмонлашуви, ишлаб чиқаришнинг жиддий пасайишида, қарор топган ишлаб чиқариш алоқалари бузилишида, корхоналарнинг синишида, ишсизлик ўсишида, пировардида аҳоли фаровонлигининг, яшаш даражасининг пасайишида намоеён бўлади.

Критерий

uz - kriteriy

критерий

en - criterion

Показатель, признак, на основании которого формируется оценка качества экономического объекта, процесса; мерило оценки. Критерий эффективности характеризует уровень эффективности системы, а критерий оптимальности – насколько система близка к оптимальному состоянию.

К

Iqtisodiy obyekt, jarayonning sifatini baholash shakllantirilishiga xizmat qiladigan belgi, ko'rsatkich; baholash o'lchovi. Samaradorlik kriteriyasi tizimning samaradorlik darajasini, optimallik kriteriyasi esa, tizim optimal holatga qanchalik yaqinligini tavsiflaydi.

Иқтисодий объект, жараённинг сифатини баҳолаш шаклантирилишига хизмат қиладиган белги, кўрсаткич; баҳолаш ўлчови. Самарадорлик критерийси тизимнинг самарадорлик даражасини, оптималлик критерийси эса, тизим оптимал ҳолатга қанчалик яқинлигини тавсифлайди.

Кругооборот денег, капитала

uz - pul, kapitalning aylanishi
пул, капиталнинг айланиши
en - circulation of money, capital

Движение денежных средств в сфере производства и обращения, в процессе которого они совершают полный оборот.

Pul mablag'larining muomalada bo'lish va ishlab chiqarish sohalaridagi harakati, uning jarayonida bu pul mablag'lari to'liq aylanadi.

Пул маблағларининг муомалада бўлиш ва ишлаб чиқариш соҳаларидаги ҳаракати, унинг жараёнида бу пул маблағлари тўлиқ айланади.

Кумулятивная акция

uz - kumulyativ aksiya
кумулятив акция
en - cumulative stock

Акция, по которой происходит накопление неполученных дивидендов.

Olinmagan dividendlarning to'planishi yuz beradigan aksiya.

Олинмаган дивидендларнинг тўпланиши юз берадиган акция.

Купон, купонный лист

uz - kupon, kupon varag'i
купон, купон варағи
en - coupon

Часть ценной бумаги в виде отрезного талона, которая отделяется от ценной бумаги и передается, предъявляется для оплаты по нему процентов или дивидендов, право на получение которых дает ценная бумага.

Qimmatli qog'ozning qirqib olinadigan talon ko'rinishidagi, qimmatli qog'ozdan ajraladigan va u bo'yicha foizlar yoki dividendlar to'lash uchun beriladigan, ko'rsatiladigan qismi.

К

Купюра

uz - kuryura

купюра

en - denomination

Қимматли қоғознинг қирқиб олинадиган талон кўринишидаги, қимматли қоғоздан ажраладиган ва у бўйича фоизлар ёки дивидендлар тўлаш учун бериладиган, кўрсатиладиган қисми.

Общее название единичного экземпляра денежного знака или ценной бумаги.

Pul belgisi yoki qimmatli qog'oz yagona namunasining umumiy nomi.

Пул белгиси ёки қимматли қоғоз ягона намунасининг умумий номи.

Курс ценных бумаг

uz - qimmatli qog'ozlar kursi

қимматли қоғозлар курси

en - par price rate

Курсовая цена, по которой продаются и покупаются ценные бумаги на фондовой бирже. Курсовая цена рассчитывается, оценивается путем умножения номинальной цены, указанной в бумаге, на отношение приносимого дивиденда (в процентах к номиналу) к текущему уровню банковского ссудного процента.

Fond birjasida qimmatli qog'ozlar sotiladigan va sotib olinadigan kurs bahosi. Kurs bahosi qog'ozda ko'rsatilgan nominal bahoni, keladigan dividendning (nominalga nisbatan foizlardagi) bank ssuda foizining joriy darajasiga bo'lgan nisbatiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi, baholanadi.

Фонд биржасида қимматли қоғозлар сотиладиган ва сотиб олинадиган курс баҳоси. Курс баҳоси қоғозда кўрсатилган номинал баҳони, келадиган дивиденднинг (номиналга нисбатан фоизлардаги) банк ссуда фоизининг жорий даражасига бўлган нисбатига кўпайтириш йўли билан ҳисобланади, баҳоланади.

Курсовая прибыль

uz - kurs foydasi

курс фойдаси

en - gain on exchange

Доход, полученный на разнице курсов реализации и покупки ценных бумаг.

Qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish kurslarining farqidan olinadigan foyda.

Қимматли қоғозларни сотиш ва сотиб олиш курсларининг фарқидан олинадиган фойда.

К

Курсовые операции

uz - kursga oid operatsiyalar
курсга оид операциялар
en - exchange course

Куртаж

uz - shirinkoma
(vositachilik haqi)
ширинкома
(воситачилик ҳақи)
en - courtage

Операции с ценными бумагами, проводимые в целях получения курсовой прибыли.

Kurs foydasini olish maqsadida qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar.

Курс фойдасини олиш мақсадида қимматли қоғозлар билан ўтказиладиган операциялар.

Вознаграждение брокеру (маклеру) за посредничество при совершении биржевой сделки.

Birja kelishuvini amalga oshirishdagi vositachiligi yuzasidan brokerga (maklarga) to'lanadigan haq.

Биржа келишувини амалга оширишдаги воситачилиги юзасидан брокерга (маклерга) тўланадиган ҳақ.

Л

Либерализация экономики

uz - iqtisodiyotni
liberallashtirish
иқтисодиётни
либераллаштириш
en - deregulation of economy

Расширение свободы экономических действий хозяйствующих субъектов, снятие ограничений на экономическую деятельность, раскрепощение предпринимательства.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy harakatida erkinlikning kengaytirilishi, iqtisodiy faoliyatga qo'yiladigan cheklashlarning olib tashlanishi, tadbirkorlikning ozod bo'lishi.

Хўжалик юритувчи субъектлар иқтисодий ҳаракатида эркинликнинг кенгайтирилиши, иқтисодий фаолиятга қўйиладиган чеклашларнинг олиб ташланиши, тadbirkorlikнинг озод бўлиши.

Лидер рынка

uz - bozor yetakchisi
бозор етакчиси
en - market leader

Компания, имеющая максимальную рыночную долю и/или занимающая ведущие позиции на рынке в стратегически важных направлениях бизнеса. Это обеспечивается самыми низкими издержками и самыми высокими долговременными прибылями, что позволяет им максимально снижать цены.

Biznesning strategik muhim yo'nalishlarida bozorda yetakchi o'rinlarni egallaydigan va/yoki eng yuqori bozor ulushiga ega bo'lgan kompaniya. Bu, kompa-

Л

niyalarga narxlarni iloji boricha pasaytirish imkonini beradigan eng kam chiqimlar va eng yuqori uzoq muddatli foyda orqali ta'minlanadi.

Бизнеснинг стратегик муҳим йўналишларида бозорда етакчи ўринларни эгаллайдиган ва/ёки энг юқори бозор улушига эга бўлган компания. Бу, компанияларга нархларни иложи борича пасайтириш имконини берадиган энг кам чикимлар ва энг юқори узоқ муддатли фойда орқали таъминланади.

Лизинг

uz - lizing

лизинг

en - leasing

Долгосрочная аренда (на срок от 6 месяцев до нескольких лет) машин, оборудования, транспортных средств, сооружений производственного назначения, предусматривающая возможность их последующего выкупа арендатором. Лизинг осуществляется на основе долгосрочного договора между лизинговой компанией, приобретающей оборудование за свой счет и сдающей его в аренду на несколько лет, и фирмой-арендатором, которая постепенно вносит арендную плату за использование лизингового имущества.

Mashinalar, uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish maqsadlaridagi inshootlarni, keyinchalik ularni ijaraga oluvchi tomonidan pul to'lab qaytarib olish imkoniyati ko'zda tutilgan, uzoq muddatli (6 oydan bir necha yilgacha bo'lgan muddatga) ijaraga berish. Lizing uskunani o'z hisobidan sotib oladigan va uni bir necha yilga ijaraga beradigan lizing kompaniyasi va lizing mulkdan foydalanganlik uchun asta-sekin ijara haqini to'laydigan ijaraga oluvchi firma o'rtasidagi uzoq muddatli shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Машиналар, ускуналар, транспорт воситалари, ишлаб чиқариш мақсадларидаги иншоотларни, кейинчалик уларни ижарага олувчи томонидан пул тўлаб қайтариб олиш имконияти кўзда тутилган, узоқ муддатли (6 ойдан бир неча йилгача бўлган муддатга) ижарага бериш. Лизинг ускунани ўз ҳисобидан сотиб оладиган ва уни бир неча йилга ижарага берадиган лизинг компания-

Л

си ва лизинг мулкдан фойдаланганлик учун аста-секин ижара ҳақини тўлайдиган ижарага олувчи фирма ўртасидаги узок муддатли шартнома асосида амалга оширилади.

Лизинг финансовый

uz - moliyaviy lizing

молиявий лизинг

en - lease financing

Приобретение оборудования финансовой компанией с последующей сдачей его в аренду.

Moliya kompaniyasi tomonidan, keyinchalik ijaraga berish bilan, uskuna xarid qilinishi.

Молия компанияси томонидан, кейинчалик ижарага бериш билан, ускуна харид қилиниши.

Ликвидационная стоимость

uz - tugatish qiymati

тугатиш қиймати

en - liquidation cost

Выручка от продажи основных средств, годных строительных материалов, деталей и узлов, металлического лома, остающихся после прекращения функционирования объекта.

Asosiy vositalarni, obyektning ishlashi to'xtatilgandan keyin qoladigan yaroqli materiallarni, detallar va uzellarni, chiqindi metall parchalarini sotishdan keladigan tushum.

Асосий воситаларни, объектнинг ишлаши тўхта-тилгандан кейин қоладиган яроқли материал-ларни, деталлар ва узелларни, чиқинди металл парчаларини сотишдан келадиган тушум.

Ликвидация компании

uz - kompaniyani tugatish

компанияни тугатиш

en - liquidation

Прекращение деятельности организации в связи с истечением срока, на который она была создана, либо в силу других причин, исполняемое по решению общего собрания, вышестоящего органа (для государственных предприятий) или по решению суда. Принято различать добровольную ликвидацию, осуществляемую ликвидационной комиссией, и принудительную, осуществляемую комиссией, назначаемой судом или государственным органом, в чьем ведении находится ликвидируемая организация.

Tashkilot faoliyatining, tashkilot ishlashi kerak bo'lgan muddat tugashi sababli yoki boshqa sabablar orqasida, umumiy yig'ilish, yuqori turuvchi organ (davlat korxonalari uchun) yoki sud qaroriga ko'ra ijro etiladigan to'xtatilishi. Tugatish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladigan ixtiyoriy tugatish

Л

va sud yoki tugatiladigan korxonada tasarrufida bo'lgan davlat organi tayinlaydigan komissiya amalga oshiradigan majburiy tugatish bor.

Ташкилот фаолиятининг, ташкилот ишлаши керак бўлган муддат тугаши сабабли ёки бошқа сабаблар орқасида, умумий йиғилиш, юқори турувчи орган (давлат корхоналари учун) ёки суд қарорига кўра ижро этиладиган тўхтатилиши. Тугатиш комиссияси томонидан амалга ошириладиган ихтиёрий тугатиш ва суд ёки тугатиладиган корхона тасарруфида бўлган давлат органи тайинлайдиган комиссия амалга оширадиган мажбурий тугатиш бор.

Ликвидность

uz - likvidlik

ликвидлик

en - liquidity

1. Способность превращения активов фирмы, ее ценностей в наличные деньги.

2. Способность своевременного выполнения долговых обязательств.

3. Способность рынка поглощать продаваемые ценные бумаги.

1. Firma aktivlarini, uning boyliklarini naqd pulga aylantirish.

2. Qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati.

3. Bozorning sotiladigan qimmatli qog'ozlarni o'zlashtirish qobiliyati.

1. Firma aktivlarini, uning boyliklarini naqd pulga aylantirish.

2. Qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati.

3. Bozorning sotiladigan qimmatli qog'ozlarni o'zlashtirish qobiliyati.

Ликвидные активы

uz - likvid (qimmatli) aktivlar

ликвид (қимматли)

активлар

en - liquid assets

Средства, которые можно легко превратить в деньги. К ним относятся: сами деньги, золото, краткосрочные государственные ценные бумаги, средства на текущих счетах (до востребования) в банках, акции, облигации, имущественные ценности, которые можно быстро продать, векселя, по которым наступил срок оплаты.

Pulga aylantirish oson bo'lgan boyliklar. Ularga pullarning o'zi, oltin, qisqa muddatli davlat qimmat-

Л

li qogʻozlari, banklardagi joriy hisobraqamlaridagi (yoʻqlab olinadigan) mablagʻlar, tezda sotish mumkin boʻlgan aksiyalar, obligatsiyalar, mulkiy boyliklar, toʻlov muddati kelgan veksellar kiradi.

Пулга айлантириш осон бўлган бойликлар. Уларга пулларнинг ўзи, олтин, қисқа муддатли давлат қимматли қоғозлари, банклардаги жорий ҳисобрақамларидаги (йўқлаб олинadиган) маблағлар, тезда сотиш мумкин бўлган акциялар, облигациялар, мулкий бойликлар, тўлов муддати келган векселлар киради.

Лимит

uz - limit

ЛИМИТ

en - limit

Количественное ограничение на куплю, продажу, кредит, объемы сделок, ввоз и вывоз товаров, добычу полезных ископаемых, использование природных ресурсов, уровень оплаты труда, валютные операции.

Sotib olish, sotishga, kreditga, kelishuvlar hajmiga, tovarlarni olib kirish va chiqarishga, foydali qazilmalar qazib chiqarishga, tabiiy resurslardan foydalanishga, mehnatga haq toʻlash darajasiga, valyuta operatsiyalariga qoʻyiladigan miqdoriy cheklov.

Сотиб олиш, сотишга, кредитга, келишувлар ҳажмига, товарларни олиб кириш ва чиқаришга, фойдали қазилмалар қазиб чиқаришга, табиий ресурслардан фойдаланишга, меҳнатга ҳақ тўлаш даражасига, валюта операцияларига қўйилadиган миқдорий чеклов.

Листинг

uz - listing

ЛИСТИНГ

en - list

Внесение акций компании в список акций, котирующихся на данной бирже. Листинг необходим для допуска к биржевым торгам только тех акций, которые прошли экспертную проверку.

Kompaniya aksiyalarini ushbu birjada baholana-digan aksiyalar roʻyxatiga kiritish. Listing birja savdolariga faqat ekspert tekshiruvidan oʻtgan aksiyalar qoʻyilishi uchun zarur.

Компания акцияларини ушбу биржада баҳолана-dиган акциялар рўйхатига киритиш. Листинг биржа савдоларига фақат эксперт текширувидан ўтган акциялар қўйилиши учун зарур.

Л

Лицевой счет

uz - shaxsiy hisob varaq
шахсий ҳисобварақ
en - personal account

Счет, открываемый бухгалтерией или банком для расчетов с отдельными лицами. В таком счете отражаются все расчетные и денежно-кредитные операции с данным клиентом.

Bank yoki buxgalteriya tomonidan, ayrim shaxslar bilan hisob-kitoblar qilish uchun ochiladigan hisob-varaq. Bu hisobvaraqda mijoz bilan o'tkazilgan barcha hisob-kitob va pul-kredit operatsiyalari aks etadi.

Банк ёки бухгалтерия томонидан, айрим шахслар билан ҳисоб-китоблар қилиш учун очиладиган ҳисобварақ. Бу ҳисобварақда миждоз билан ўтказилган барча ҳисоб-китоб ва пул-кредит операциялари акс этади.

Лицензиар

uz - litsenziar
лицензиар
en - licensor

Собственник изобретения, патента, технического или технологического новшества, выдающий другому лицу (лицензиату) лицензию, предоставляющую право использования этих нововведений в установленных договором пределах.

Boshqa bir shaxsga (litsenziatga) shartnoma bilan belgilangan doirada yangiliklardan foydalanish huquqini taqdim etadigan litsenziyani beruvchi, texnik yoki texnologik yangilik, patent, ixtiro egasi

Бошқа бир шахсга (лицензиатга) шартнома билан белгиланган доирада янгиликлардан фойдаланиш ҳуқуқини тақдим этадиган лицензияни берувчи, техник ёки технологик янгилик, патент, ихтиро эгаси.

Лицензиат

uz - litsenziat
лицензиат
en - licensee

Лицо, приобретающее у собственника патентов, изобретений, технических новшеств (nou-hau) за соответствующую плату право использования этих нововведений в пределах, зафиксированных в лицензионном договоре.

Tegishli haq evaziga texnik yangiliklar (nou-hau), ixtirolar, patentlar egasidan, bu yangiliklardan litsenziya shartnomasida qayd etilgan doirada foydalanish huquqini sotib oluvchi shaxs.

Л

Тегишли ҳақ эвазига техник янгиликлар (ноу-хау), ихтиролар, патентлар эгасидан, бу янгиликлардан лицензия шартномасида қайд этилган доирада фойдаланиш ҳуқуқини сотиб олувчи шахс.

Лицензия

uz - litsenziya

лицензия

en - licence

1. Разрешение на осуществление экспортно-импортных операций, ввоз и вывоз товаров в ограниченных пределах, выдаваемое государственными органами.

2. Предоставление организации и лицам права использования защищенных патентами изобретений, технологии, технической и коммерческой информации.

3. Разрешение на осуществление разнообразных видов деятельности в определенных пределах, выдаваемое государственными органами применительно к тем видам, которые нуждаются в ограничении, или для взимания платежей за выдаваемое разрешение.

1. Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish, cheklangan darajada tovarlar olib kirish va chiqarish yuzasidan davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsatnoma.

2. Tashkilotlar va shaxslarga patent bilan himoyalangan ixtirolar, texnologiyalar, texnik va tijoriy axborotdan foydalanish huquqining berilishi.

3. Davlat organlari tomonidan, ma'lum bir doirada faoliyatning har xil turlarini amalga oshirish yuzasidan cheklash ehtiyoji bo'lgan turlarga tatbiqan yoki beriladigan ruxsat yuzasidan to'lovlar undirish uchun taqdim etiladigan ruxsatnoma.

1. Экспорт-импорт операцияларини амалга ошириш, чекланган даражада товарлар олиб кириш ва чиқариш юзасидан давлат органлари томонидан бериладиган рухсатнома.

2. Ташкилотлар ва шахсларга патент билан ҳимояланган ихтиролар, технологиялар, техник ва тижорий ахборотдан фойдаланиш ҳуқуқининг берилиши.

3. Давлат органлари томонидан, маълум бир доирада фаолиятнинг ҳар хил турларини амалга

Л

ошириш юзасидан чеклаш эҳтиёжи бўлган турларга татбиқан ёки бериладиган рухсат юзасидан тўловлар ундириш учун тақдим этиладиган рухсатнома.

Логистика

uz - logistika

логистика

en - logistics

Наука о планировании, контроле и управлении транспортированием, складированием, другими материальными и нематериальными операциями, совершаемыми в процессе доведения сырья, материалов и полуфабрикатов, готовой продукции до потребителя.

Xomashyo, materiallar va yarimfabrikatlar, tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazish jarayonida amalga oshiriladigan, rejalashtirish, tashish, omborga joylash, boshqa moddiy va nomoddiy operatsiyalarni boshqarish va nazorat qilish to'g'risidagi fan.

Хомашё, материаллар ва яримфабрикатлар, тайёр маҳсулотни истеъмолчига етказиш жараёнида амалга ошириладиган, режалаштириш, ташиш, омборга жойлаш, бошқа моддий ва номоддий операцияларни бошқариш ва назорат қилиш тўғрисидаги фан.

Логотип

uz - logotip

логотип

en - logotype

Оригинальное начертание, изображение полного или сокращенного наименования предприятия или товаров. Специально разрабатывается предприятием с целью привлечения внимания к ней и к ее товарам.

Korxonalar yoki tovarlar to'liq yoki qisqartirilgan nomining tasviri, original tashqi ko'rinishi. Korxonalar tomonidan, e'tiborni o'ziga va tovarlariga jalb qilish maqsadida maxsus ishlab chiqiladi.

Корхона ёки товарлар тўлиқ ёки қисқартирилган номининг тасвири, оригинал ташқи кўриниши. Корхона томонидан, эътиборни ўзига ва товарларига жалб қилиш мақсадида махсус ишлаб чиқилади.

Лоро, счет лоро

uz - loro, lora hisobraqami

лоро, лоро ҳисобрақами

en - lora, lora account

Коммерческий счет, открываемый банком своему банку-корреспонденту; на нем отражаются все операции, проводимые по поручению последнего.

Л

Bank tomonidan o‘zining korrespondent bankiga ochiladigan tijorat hisobraqami; unda korrespondent bankning topshirig‘i bo‘yicha o‘tkaziladigan barcha operatsiyalar aks etadi.

Банк томонидан ўзининг корреспондент банкига очиладиган тижорат ҳисобрақами; унда корреспондент банкнинг топшириғи бўйича ўтказиладиган барча операциялар акс этади.

Лот

uz - lot

лот

en - lot

Партия товара, часть его общего количества, продаваемая или поставляемая по договору. В аукционной торговле предлагаемый к продаже товар разделяется на лоты, состоящие из одного или нескольких однородных по качеству предметов, наборов.

Shartnoma bo‘yicha yetkazib beriladigan yoki sotiladigan tovar turkumi, tovar umumiy sonining bir qismi. Aukcion savdoda sotishga taklif qilinadigan tovar, sifati bo‘yicha bitta yoki bir nechta bir xil buyum, to‘plamdan iborat lotlarga ajratiladi.

Шартнома бўйича етказиб бериладиган ёки сотиладиган товар туркуми, товар умумий сонининг бир қисми. Аукцион савдода сотишга таклиф қилинадиган товар, сифати бўйича битта ёки бир нечта бир хил буюм, тўпладан иборат лотларга ажратилади.

Льготы

uz - imtiyozlar

имтиёзлар

en - sweetener

Преимущества, дополнительные права, предоставляемые определенным категориям граждан или отдельным организациям, предприятиям, регионам.

Fuqarolarning ayrim toifalariga yoki ayrim tashki-lotlarga, korxonalarga, hududlarga beriladigan af-zalliklar, qo‘shimcha huquqlar.

Фуқароларнинг айрим тоифаларига ёки айрим ташкилотларга, корхоналарга, ҳудудларга бериладиган афзалликлар, қўшимча ҳуқуқлар.

М

Макрологистика

uz - makrologistika

макрологистика

en - macrologistics

Разновидность маркетингового управления материальными потоками, принадлежащими несколькими промышленным, торговым, транспортным предприятиям, расположенным в разных районах или странах.

Turli rayonlarda yoki mamlakatlarda joylashgan bir qancha sanoat, savdo, transport korxonalariga tegishli bo'lgan moddiy oqimlarni marketing boshqarishning bir turi.

Турли районларда ёки мамлакатларда жойлашган бир қанча саноат, савдо, транспорт корхоналарига тегишли бўлган моддий оқимларни маркетинг бошқаришнинг бир тури.

Макроэкономика

uz - makroiqtisodiyot

макроиқтисодиёт

en - macroeconomics

Раздел экономической науки, посвященный изучению крупномасштабных экономических явлений и процессов, относящихся к экономике страны в целом. Объектом изучения макроэкономики являются сводные обобщающие экономические показатели, такие, как национальное богатство, валовой национальный и валовой внутренний продукт, национальный доход, суммарные государственные и частные инвестиции, общее количество денег в обращении.

Iqtisodiyot fanining, butun mamlakat iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan keng ko'lamli iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni o'rganadigan bo'limi. Milliy boylik, yalpi milliy daromad, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, jami davlat va xususiy investitsiyalar, muomaladagi pullarning umumiy miqdori kabi to'plam umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar makroiqtisodiyotning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Иқтисодиёт фанининг, бутун мамлакат иқтисодиётига тааллуқли бўлган кенг кўламли иқтисодий жараёнлар ва ҳодисаларни ўрганадиган бўлими. Миллий бойлик, ялпи миллий даромад, ялпи ички маҳсулот, миллий даромад, жами давлат ва хусусий инвестициялар, муомаладаги пулларнинг умумий миқдори каби тўплам умумлаштирувчи иқтисодий кўрсаткичлар макроиқтисодиётнинг ўрганиш объекти ҳисобланади.

М

Макроэкономические показатели

uz - makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

макроиқтисодий

кўрсаткичлар

en - macroeconomic measures

Сводные, обобщающие показатели объемов производства и потребления, доходов и расходов, уровня благосостояния, экспорта и импорта, темпов экономического роста.

Ishlab chiqarish va iste'mol qilish, daromadlar va xarajatlar hajmlarining, farovonlik, eksport va import darajasi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining to'plam umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari.

Ишлаб чиқариш ва истеъмол қилиш, даромадлар ва харажатлар ҳажмларининг, фаровонлик, экспорт ва импорт даражаси, иқтисодий ўсиш суръатларининг тўплам умумлаштирувчи кўрсаткичлари.

Макроэкономические модели

uz - makroiqtisodiy modellar

макроиқтисодий

моделлар

en - macroeconomic model

Экономико-математические модели, описывающие развитие экономики в целом и ее наиболее важных частей (отраслей, секторов, сфер).

Umuman, iqtisodiyotning va uning eng muhim qismlari (tarmoqlari, sektorlari, sohalari) rivojlani-shini tavsiflaydigan iqtisodiy-matematik modellar.

Умуман, иқтисодиётнинг ва унинг энг муҳим қисмлари (тармоқлари, секторлари, соҳалари) ривожланишини тавсифлайдиган иқтисодий-математик моделлар.

Малое предприятие

uz - kichik korxon

кичик корхона

en - small enterprise

Предприятие любой формы собственности, характеризующееся ограниченным числом работников и незначительным объемом выпускаемой продукции.

Har qanday mulkchilik shaklidagi, chiqariladigan mahsulot hajmi uncha katta bo'lmasligi, xodimlarning soni cheklanganligi bilan tavsiflanadigan korxon.

Ҳар қандай мулкчилик шаклидаги, чиқариладиган маҳсулот ҳажми унча катта бўлмаслиги, ходимларнинг сони чекланганлиги билан тавсифланадиган корхона.

М

Маржа

uz - marja

маржа

en - margin

Разница между указываемой в биржевом бюллетене ценой продажи и ценой покупки биржевого товара. В более широком смысле в банковской, биржевой, торговой, страховой практике под маржой понимают разницу между процентными ставками, курсами ценных бумаг, ценами товаров и другими аналогичными, однородными показателями, имеющую место в одно и то же время в разных условиях продажи, покупки, кредитования.

Birja byulletenida ko'rsatiladigan, birja tovarini sotish narxi va sotib olish narxi o'rtasidagi farq. Birmuncha keng ma'noda, bank, birja, savdo, sug'urta amaliyotida marja deganda, foiz stavkalari, qimmatli qog'ozlar kurslari, tovarlarning narxlari va ayni bir vaqtda sotish, sotib olish, kreditlashning turli sharoitlarida bo'lib turadigan boshqa o'xshash, bir xil ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq tushuniladi.

Биржа бюллетенида кўрсатиладиган, биржа тоvariни сотиш нархи ва сотиб олиш нархи ўртасидаги фарқ. Бирмунча кенг маънода, банк, биржа, савдо, суғурта амалиётида маржа деганда, фоиз ставкалари, қимматли қоғозлар курслари, товарларнинг нархлари ва айна бир вақтда сотиш, сотиб олиш, кредитлашнинг турли шароитларида бўлиб турадиган бошқа ўхшаш, бир хил кўрсаткичлар ўртасидаги фарқ тушунилади.

Маржинальный доход

uz - marjinal foyda

маржинал фойда

en - marginal income

Превышение выручки от продаж над совокупными издержками, относящимися к определенному уровню продаж.

Sotuvdan olingan tushumning, sotuvlarning muayyan darajasiga tegishli bo'lgan jami xarajatlardan oshishi.

Сотувдан олинган тушумнинг, сотувларнинг муайян даражасига тегишли бўлган жами харажатлардан ошиши.

Маркетинг

uz - marketing

маркетинг

en - marketing

Исследования и организация деятельности на рынке товаров, услуг, ценных бумаг, направленной на обеспечение сбыта, продвижение товаров от производителя к потребителю. Различают

М

следующие виды маркетинга: дифференцированный, рассчитанный на использование нескольких сегментов рынка; конверсионный, создающий условия для преодоления отрицательного спроса; концентрированный, сосредоточивающий усилия на отдельных рынках; массовый, применяемый к товарам массового потребления; противодействующий, направленный на ограничение иррационального спроса; развивающийся, ориентированный на превращение потенциального спроса в реальный, и др.

Tovarlar, xizmatlar, qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyatni, tovarlarning ishlab chiqaruvchidan iste‘molchiga yetkazilishini, sotilishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan tarzda tashkil qilish va o‘rganish. Marketingning quyidagi turlari: bozorning bir nechta segmentidan foydalanishga mo‘ljallangan differensiallangan marketing; salbiy talabni yengib o‘tish uchun sharoit yaratadigan konversion marketing; kuchlar ayrim bozorlarga qaratiladigan to‘plan-gan marketing; ommaviy iste‘mol tovarlariga nisbatan qo‘llaniladigan ommaviy marketing; irratsional talabni cheklashga yo‘naltirilgan, qarshi harakat qiladigan marketing, potensial talabni haqiqiy talabga aylantirishga qaratilgan rivojlanadigan marketing farqlanadi.

Товарлар, хизматлар, қимматли қоғозлар бозоридаги фаолиятни, товарларнинг ишлаб чиқарувчидан истеъмолчига етказилишини, сотилишини таъминлашга йўналтирилган тарзда ташкил қилиш ва ўрганиш. Маркетингнинг қуйидаги турлари: бозорнинг бир нечта сегментидан фойдаланишга мўлжалланган дифференциалланган маркетинг; салбий талабни енгиб ўтиш учун шaroit яратадиган конверсион маркетинг; кучлар айрим бозорларга қаратиладиган тўпланган маркетинг; оммавий истеъмол товарларига нисбатан қўлланиладиган оммавий маркетинг; иррационал талабни чеклашга йўналтирилган, қарши ҳаракат қиладиган маркетинг, потенциал талабни ҳақиқий талабга айлантиришга қаратилган ривожланадиган маркетинг фарқланади.

М

Маркетинг баз данных
uz - ma'lumotlar bazasi
marketingi

маълумотлар базаси
маркетинги
en - database marketing

Маркетинг
взаимоотношений

uz - o'zaro munosabatlar
marketingi

ўзаро муносабатлар
маркетинги
en - customer relationship
marketing

Маркетинг во
внешнеэкономической
деятельности

uz - tashqi iqtisodiy
faoliyatdagi marketing

ташқи иқтисодий
фаолиятдаги маркетинг
en - foreign trade marketing

Процесс создания, поддержания и использования потребительских баз данных в целях контакта с потребителями и заключения сделок.

Iste'molchilar bilan munosabat o'rnatish va bitimlar tuzish maqsadida, iste'molchi ma'lumotlar bazasini yaratish, uni saqlab turish va undan foydalanish jarayoni.

Истеъмолчилар билан муносабат ўрнатиш ва битимлар тузиш мақсадида, истеъмолчи маълумотлар базасини яратиш, уни сақлаб туриш ва ундан фойдаланиш жараёни.

Маркетинг партнерских отношений с прибыльными клиентами и другими заинтересованными участниками рынка на основе единой компьютерной базы клиентов. Основная цель – создание долгосрочных отношений между покупателем и продавцом, сохранение, поддержания с клиентами устойчивых связей.

Mijozlarining yagona kompyuter bazasi asosida foydali mijozlar va bozorning boshqa manfaatdor qatnashchilari bilan sherikchilik munosabatlari marketingi. Asosiy maqsad – xaridor va sotuvchi o'rtasida uzoq muddatli munosabatlarni yuzaga keltirish, mijozlar bilan barqaror aloqalarni saqlab qolish, ta'minlash.

Мижозларининг ягона компьютер базаси асосида фойдали мијозлар ва бозорнинг бошқа манфаатдор қатнашчилари билан шерикчилик муносабатлари маркетинги. Асосий мақсад – харидор ва сотувчи ўртасида узоқ муддатли муносабатларни юзага келтириш, мијозлар билан барқарор алоқаларни сақлаб қолиш, таъминлаш.

Комплекс маркетинговых мероприятий компании по осуществлению выгодной для себя внешнеэкономической деятельности с другими иностранными компаниями.

Kompaniyaning boshqa xorij kompaniyalari bilan, o'zi uchun qulay tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bo'yicha marketing tadbirlari kompleksi.

М

Компаниянинг бошқа хориж компаниялари билан, ўзи учун қулай ташқи иқтисодий фаолиятни амалга ошириш бўйича маркетинг тадбирлари комплекси.

Маркетинг глобальный

uz - global marketing
глобал маркетинг
en - global marketing

Стратегия бизнеса, рассматривающая наднациональные сегменты в качестве новых рыночных возможностей для компаний.

Milliy segmentlardan yuqori segmentlar kompaniya uchun yangi bozor imkoniyatlari sifatida qarab chiqiladigan biznes strategiyasi.

Миллий сегментлардан юқори сегментлар компания учун янги бозор имкониятлари сифатида қараб чиқиладиган бизнес стратегияси.

Маркетинг деловой

uz - amaliy marketing
амалий маркетинг
en - business marketing

Маркетинг, где обе стороны обмена представлены организациями.

Ayirboshlashning har ikki tomonini tashkilotlar ifodalaydigan marketing.

Айирбошлашнинг ҳар икки томонини ташкилотлар ифодалайдиган маркетинг.

Маркетинг дифференцированный

uz - differensiallangan marketing
дифференциалланган маркетинг
en - differentiated marketing

Стратегия компании, где усилия маркетинга направлены на несколько сегментов рынка с разработкой отдельного предложения для каждого из них.

Kompaniya strategiyasi, bunda marketing sa'y-harakatlari ularning har biri uchun alohida taklif ishlab chiqqan holda, bozorning bir nechta segmentiga, yo'naltiriladi.

Компания стратегияси, бунда маркетинг саъй-ҳаракатлари уларнинг ҳар бири учун алоҳида таклиф ишлаб чиққан ҳолда, бозорнинг бир нечта сегментига, йўналтирилади.

Маркетинг идей

uz - g'oyalalar marketingi
ғоялар маркетинги
en - creative marketing

Разработка и предложение компанией идей целевой аудитории с целью достижения понимания, изменения ее взглядов, убеждений, побуждения к желаемой реакции и поведению.

Kompaniya tomonidan, uning qarashlari, maslagini tushunishga, o'zgartirishga erishish, istalgan javob

М

va xulq-atvorga undash maqsadida, maqsadli auditoriya g'oyalarini ishlab chiqish va taklif qilish.

Компания томонидан, унинг қарашлари, маслагини тушунишга, ўзгартиришга эришиш, исталган жавоб ва хулқ-атворга ундаш мақсадида, мақсадли аудитория ғояларини ишлаб чиқиш ва таклиф қилиш.

Маркетинг инновационно-кадровый

uz - innovatsion-kadrlar marketingi

инновацион-кадрлар маркетинги

en - innovation-personal marketing

Комплексная система организации, управления и анализа нововведений, связанных с появлением новых профессий, развитием рекламы рабочих мест, работой с биржами труда и фирмами по подбору кадров.

Yangi kasblar paydo bo'lishi, ish o'rinlari reklamasi rivojlantirilishi, kadrlarni tanlash bo'yicha firmalar va mehnat birjalari bilan ishlashga bog'liq yangiliklarni tashkil qilish, boshqarish, tahlilining kompleks tizimi.

Янги касблар пайдо бўлиши, иш ўринлари рекламаси ривожлантирилиши, кадрларни танлаш бўйича фирмалар ва меҳнат биржалари билан ишлашга боғлиқ янгиликларни ташкил қилиш, бошқариш, таҳлилининг комплекс тизими.

Маркетинг контроль

uz - marketing nazorat

маркетинг назорат

en - control of marketing

Проверка маркетинговой деятельности в компаниях либо собственными силами, либо с привлечением сторонних фирм. Основная цель – контроль результативности стратегий маркетинга; осуществление текущего контроля и прибыльности деятельности маркетинга.

Kompaniyalarda o'z kuchlari bilan yoki tashqi firmalarni jalb qilgan holda, marketing faoliyatni tekshirish. Asosiy maqsad – marketing strategiyasi natijaliligini tekshirish, joriy nazoratni va marketing faoliyati foydaliligini amalga oshirish.

Компанияларда ўз кучлари билан ёки ташқи фирмаларни жалб қилган ҳолда, маркетинг фаолиятни текшириш. Асосий мақсад – маркетинг стратегияси натижалчилигини текшириш, жорий назоратни ва маркетинг фаолияти фойдалилигини амалга ошириш.

М

Маркетинг менеджмент
uz - marketing menejment
маркетинг менежмент
en - marketing management

Деятельность менеджеров по маркетингу по определению целевых рынков, изучению потребностей потребителей на этих рынках, разработки товаров, установлению на них цен, выбору организации каналов распределения, способов продвижения продукции посредством обмена, удовлетворяющего потребности заинтересованных групп.

Marketing bo'yicha menejerlarning, maqsadli bozorlarni aniqlash, iste'molchilarning bu bozorlardagi ehtiyojlarini o'rganish, tovarlarni ishlab chiqish, ularga narxlar belgilash, manfaatdor guruhlarning ehtiyojlarini qondiradigan ayirboshlash vositasida mahsulotni ilgari surish usullarini, taqsimlash kanallarini tashkil qilish, tanlash bo'yicha faoliyati.

Маркетинг бўйича менежерларнинг, мақсадли бозорларни аниқлаш, истеъмолчиларнинг бу бозорлардаги эҳтиёжларини ўрганиш, товарларни ишлаб чиқиш, уларга нархлар белгилаш, манфаатдор гуруҳларнинг эҳтиёжларини қондирадиган айирбошлаш воситасида маҳсулотни илгари суриш усулларини, тақсимлаш каналларини ташкил қилиш, танлаш бўйича фаолияти.

Маркетинг некоммерческий
uz - notijoriy marketing
нотижорий маркетинг
en - nonprofit marketing

Маркетинг, осуществляемый в общественных интересах и целях, в отличие от маркетинга, стремящегося к получению прибыли. Имеет своей целью осуществление пропаганды идей (например, прав человека). Этот тип маркетинга используется в сфере образования, здравоохранении, других социальных областях и проектах.

Foyda olishga intiladigan marketingdan farqli ravishda, jamoat manfaatlari va maqsadlari yo'lida amalga oshiriladigan marketing. Maqsadi g'oyalar targ'iboti (masalan, inson huquqlari). Marketingning bu turidan ta'lim, sog'liqni saqlash sohasida, boshqa ijtimoiy sohalar va loyihalarda foydalaniladi.

Фойда олишга интиладиган маркетингдан фарқ-

М

ли равишда, жамоат манфаатлари ва мақсадлари йўлида амалга ошириладиган маркетинг. Мақсади ғоялар тарғиботи (масалан, инсон ҳуқуқлари). Маркетингнинг бу туридан таълим, соғлиқни сақлаш соҳасида, бошқа ижтимоий соҳалар ва лойиҳаларда фойдаланилади.

Маркетинг операционный

uz - operatsion marketing

операцион маркетинг

en - operational marketing

Ориентация маркетинга на кратко-или среднесрочный период времени, направленная на существующие рынки или сегменты.

Маркетингни, мавжуд бозорларга ёки сегментларга қаратилган, қисқа ёки ўрта муддатли вақт даврига мўлжаллаб иш кўриш.

Маркетинг

потребительский

uz - iste'mol marketingi

истеъмол маркетинги

en - consumer marketing

Взаимодействия компании с потребителем, где стороны обмена, с одной стороны, представлены компаниями, а с другой – клиентами.

Компаниyaning iste'molchi bilan o'zaro hamkorligi, bunda ayirboshlash tomonlaridan birini kompaniyalar, ikkinchi tomonni mijozlar ifodalaydi.

Компаниянинг истеъмолчи билан ўзаро ҳамкорлиги, бунда айирбошлаш томонларидан бирини компаниялар, иккинчи томонни миждозлар ифодалайди.

Маркетинг

промышленный

uz - sanoat marketingi

саноат маркетинги

en - industrial marketing

Взаимодействие предприятия с организациями – потребителями, приобретающими товары и услуги для дальнейшего производства, использования в рамках организаций или в целях перепродажи другим потребителям.

Korxonaning tashkilotlar – tovar va xizmatlarni tashkilot doirasida foydalanish, keyinchalik ishlab chiqarish uchun yoki boshqa iste'molchilarga qayta sotish maqsadida sotib oladigan iste'molchilar bilan o'zaro hamkorligi.

Корхонанинг ташкилотлар – товар ва хизматларни ташкилот доирасида фойдаланиш, кейинчалик ишлаб чиқариш учун ёки бошқа истеъмолчиларга қайта сотиш мақсадида сотиб оладиган истеъмолчилар билан ўзаро ҳамкорлиги.

М

Маркетинг сетевой

uz - tarmoq marketingi

тармоқ маркетинги

en - multilevel marketing

Маркетинг, основанный не на масштабной рекламе, а на передаче товара и опыта продаж от одного дистрибьютора к другому. Впервые его разработал и применил Марк Хьюз, основатель корпорации «Гербалайф».

Keng ko‘lamli reklamaga emas, balki tovarni va sotish tajribasini bir distribyutordan boshqasiga topshirishda ifodalanadigan marketing. Uni birinchi marta «Gerbalayf» korporatsiyasining asoschisi Mark Xuuz ishlab chiqqan va qo‘llagan.

Кенг кўламли рекламага эмас, балки товарни ва сотиш тажрибасини бир дистрибьютордан бошқасига топширишда ифодаланадиган маркетинг. Уни биринчи марта «Гербалайф» корпорациясининг асосчиси Марк Хьюз ишлаб чиққан ва кўллаган.

Маркетинг событийный

uz - voqea (hodisa) ga boy marketing

воқеа (ходиса) га бой маркетинг

en - event-marketing, special events

Мероприятия, организуемые службами маркетинговых коммуникаций в целях привлечения внимания общественности к самой организации, ее деятельности и продукции (церемонии открытия, официальные приемы, посещения, презентации, конференции, «дни открытых дверей», «круглые столы», выставки и т.п.).

Marketing kommunikatsiyalari xizmatlari tomondan, jamoatchilik e'tiborini tashkilotga, uning faoliyati, mahsulotiga jalb qilish maqsadida uyushtiriladigan tadbirlar (ochilish marosimlari, rasmiy qabullar, tashriflar, taqdimotlar, konferensiyalar, «ochiq eshiklar kunlari», «dumaloq stollar», ko'rgazmalar).

Маркетинг коммуникациялари хизматлари томонидан, жамоатчилик эътиборини ташкилотга, унинг фаолияти, маҳсулотига жалб қилиш мақсадида уюштирилладиган тадбирлар (очилиш маросимлари, расмий қабуллар, ташрифлар, тақдимотлар, конференциялар, «очик эшиклар кунлари», «думалоқ столлар», кўргазмалар).

Маркетинг средств

производства

uz - ishlab chiqarish vositalari marketingi

Маркетинг, направленный на поиск новых видов средств производства, позволяющих промышленному потребителю снизить издержки и повысить производительность труда.

М

ишлаб чиқариш
воситалари маркетинги
en - marketing of means of
production

Sanoat iste'molchisiga xarajatlarni kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradigan ishlab chiqarish vositalarining yangi turlarini izlab topishga qaratilgan marketing.

Саноат истеъмолчисига харажатларни камайтириш ва меҳнат унумдорлигини ошириш имконини берадиган ишлаб чиқариш воситаларининг янги турларини излаб топишга қаратилган маркетинг.

Маркетинг целевой
uz - maqsadli marketing
мақсадли маркетинг
en - target marketing

Выбор одного или нескольких из сегментов рынка, на который компании направляют свои усилия по разработке и продвижению товаров. Дает возможность компаниям приспособлять продукты к потребностям определенных групп потребителей.

Kompaniya mahsulotlar ishlab chiqish va o'tkazish bo'yicha o'z kuchlarini yo'naltiradigan bozor segmentlaridan birini yoki bir nechtasini tanlash. Kompaniyalarga mahsulotlarni iste'molchilarni ma'lum bir guruhlariga ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatini beradi.

Компания маҳсулотлар ишлаб чиқиш ва ўтказиш бўйича ўз кучларини йўналтирадиган бозор сегментларидан бирини ёки бир нечтасини танлаш. Компанияларга маҳсулотларни истеъмолчиларни маълум бир гуруҳлари эҳтиёжларига мослаштириш имкониятини беради.

Маркетинг ценовой
uz - narx marketingi
нарх маркетинги
en - price marketing

Одна из форм общей стратегии маркетинга, при реализации которой происходит управление ценой продукции в интересах обеспечения.

Marketing umumiy strategiyasi shakllaridan biri bo'lib, ta'minot manfaatlari yo'lida mahsulot bahosini boshqarish amalga oshiriladi.

Маркетинг умумий стратегияси шаклларидан бири бўлиб, таъминот манфаатлари йўлида маҳсулот баҳосини бошқариш амалга оширилади.

М

Маркетинговая деловая сеть

uz - marketing amaliy tarmog‘i

маркетинг амалий

тармоғи

en - marketing network

Включает в себя компанию и все заинтересованные в ее работе группы: потребителей, персонал, поставщиков, дистрибьюторов, розничных торговцев, рекламных агентств, всех тех, с кем компания установила взаимовыгодные деловые отношения.

O‘z ichiga kompaniyani va uning ishidan manfaatdor bo‘lgan barcha guruhlar: iste‘molchilarni, xodimlarni, yetkazib beruvchilarni, distribyutorlarini, chakana sotuvchilarni, reklama agentliklarini, kompaniya amaliy munosabatlar o‘rnatganlarning barchasini oladigan tarmoq.

Ўз ичига компанияни ва унинг ишидан манфаатдор бўлган барча гуруҳлар: истеъмолчиларни, ходимларни, етказиб берувчиларни, дистрибьюторларни, чакана сотувчиларни, реклама агентликларини, компания амалий муносабатлар ўрнатганларнинг барчасини оладиган тармоқ.

Маркетинговая информационная система

uz - marketing axborot tizimi

маркетинг ахборот

тизими

en - marketing information

and research system

Сбор, классификация, методическая обработка, анализ, оценка и использование актуальных сведений и информационных данных для принятия маркетинговых решений.

Marketing qarorlari qabul qilish uchun, axborot ma'lumotlaridan va dolzarb ma'lumotlardan foydalanish, ularni to'plash, tasniflash, metodik qayta ishlash, tahlil qilish, baholash.

Маркетинг қарорлари қабул қилиш учун, ахборот маълумотларидан ва долзарб маълумотлардан фойдаланиш, уларни тўплаш, таснифлаш, методик қайта ишлаш, таҳлил қилиш, баҳолаш.

Маркетинговые исследования

uz - marketing tadqiqotlar

маркетинг тадқиқотлар

en - marketing research

Систематическое и объективное выявление, сбор, анализ, распространение и использование информации для повышения эффективности идентификации и решения маркетинговых проблем и использования маркетинговых возможностей.

Marketing muammolarini hal qilish, identifikatsiyalash samaradorligini oshirish va marketing imkoniyatlaridan foydalanish uchun, axborotni munta-

М

zam va ob'ektiv aniqlash, to'plash, tahlil qilish, foydalanish.

Маркетинг муаммоларини ҳал қилиш, идентификациялаш самарадорлигини ошириш ва маркетинг имкониятларидан фойдаланиш учун, ахборотни мунтазам ва объектив аниқлаш, тўплаш, таҳлил қилиш, фойдаланиш.

Маркетинговые коммуникации

uz - marketing

kommunikatsiyalari

маркетинг

коммуникациялари

en - marketing communications

Процесс передачи информации о товаре/услуге целевой аудитории. Основные инструменты этих коммуникаций включают в себя: реклама в средство массовой информации, стимулирование сбыта, промо-акции, личные продажи, упаковку, мерчандайзинг, специальные сувениры, спонсорство, проведение выставок, сервисное обслуживание, прямой маркетинг, и др.

Tovar/xizmat to'g'risidagi axborotni maqsadli auditoriyaga uzatish jarayoni. Bu kommunikatsiyalarning asosiy vositalari: ommaviy axborot vositalaridagi reklama, sotuvni rag'batlantirish, promoaksiyalar, shaxsiy sotishlar, o'rab joylashtirish, merchandayzing, maxsus sovg'alar, homiylik, ko'rgazmalar o'tkazish, servis xizmat ko'rsatish, bevosita marketing.

Товар/хизмат тўғрисидаги ахборотни мақсадли аудиторияга узатиш жараёни. Бу коммуникацияларнинг асосий воситалари: оммавий ахборот воситаларидаги реклама, сотувни рағбатлантириш, промоакциялар, шахсий сотишлар, ўраб жойлаштириш, мерчандайзинг, махсус совғалар, ҳомийлик, кўргазмалар ўтказиш, сервис хизмат кўрсатиш, бевосита маркетинг.

Маркетинговый аудит

uz - marketing auditi

маркетинг аудити

en - marketing audit

Стратегический инструмент, используемый для оценки эффективности маркетинговых программ.

Marketing dasturlarining samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan strategik vosita.

Маркетинг дастурларининг самарадорлигини баҳолаш учун фойдаланиладиган стратегик восита.

М

Маркетинговый план

uz - marketing rejasi

маркетинг режаси

en - marketing plan

Подробный документ, посвященный вопросам того, как компания намерена использовать свои инструменты маркетинга для достижения поставленных рыночных целей. План маркетинга обычно готовится с учетом результатов аудита маркетинга.

Kompaniya qo'yilgan bozor maqsadlariga erishish uchun o'zining marketing vositalaridan qanday foydalanishi masalalariga bag'ishlangan batafsil hujjat. Marketing rejasi odatda, marketing auditi natijalari hisobga olingan holda tayyorlanadi.

Компания қўйилган бозор мақсадларига эришиш учун ўзининг маркетинг воситаларидан қандай фойдаланиши масалаларига бағишланган батафсил ҳужжат. Маркетинг режаси одатда, маркетинг аудити натижалари ҳисобга олинган ҳолда тайёрланади.

Маркетолог

uz - marketolog

маркетолог

en - marketer

1. Специалист, профессионально занимающийся проблемами маркетинга.
2. Квалификация специалиста с высшим образованием в области маркетинга.
3. Исследователь проблем маркетинга.

1. Marketing muammolari bilan professional shug'ullanadigan mutaxassis.
2. Oliy ma'lumotli mutaxassisning marketing sohasidagi malakasi.
3. Marketing muammolarini tadqiq qiluvchi.

1. Маркетинг муаммолари билан профессионал шуғулланадиган мутахассис.
2. Олий маълумотли мутахассиснинг маркетинг соҳасидаги малакаси.
3. Маркетинг муаммоларини тадқиқ қилувчи.

Маркетология

uz - marketologiya

маркетология

en - marketology

Научное направление, дисциплина, изучающая маркетинг.

Marketingni o'rganadigan ilmiy yo'nalish, fan.

Маркетингни ўрганадиган илмий йўналиш, фан.

М

Маркировка

uz - belgi qo'yish
белги қўйиш

en - marks

Условное обозначение, наносимое на упаковку товара или на сам товар, содержащее сведения о товаре и его адресации. Правильное нанесение необходимой информации о пункте назначения, получателе, допустимых условиях обращения с грузом во время транспортировки и погрузочно-разгрузочных работ, а также о хранении гарантирует своевременную и надежную доставку груза потребителю.

Tovarning o'ramiga yoki tovarning o'ziga tushiriladigan, tovar va uning kimga yo'llanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga oladigan shartli belgi. Belgilangan punkt, oluvchi, tashish va ortish-tushirish ishlari paytida yuk bilan muomala qilishning yo'l qo'yiladigan sharoitlari, shuningdek, saqlash to'g'risidagi zarur axborotning to'g'ri tushirilishi, yukning iste'molchiga o'z vaqtida va ishonchli yetkazib berilishini kafolatlaydi.

Товарнинг ўрамига ёки товарнинг ўзига тушириладиган, товар ва унинг кимга йўлланганлиги тўғрисидаги маълумотларни ичига оладиган шартли белги. Белгиланган пункт, олувчи, ташиш ва ортиш-тушириш ишлари пайтида юк билан муомала қилишнинг йўл қўйиладиган шaroитлари, шунингдек, сақлаш тўғрисидаги зарур ахборотнинг тўғри туширилиши, юкнинг истеъмолчига ўз вақтида ва ишончли етказиб берилишини кафолатлайди.

Массовое производство

uz - ommaviy ishlab chiqarish
оммавий ишлаб чиқариш

en - extensive manufacturing

Производство в течение длительного периода времени значительного количества одного и того же вида продукции, типа изделий, опирающееся прежде всего на поточный принцип производства, использование конвейеров.

Uzoq vaqt davri mobaynida aynan bir mahsulot turining, buyum turkumining, konveyerdan foydalanib, ishlab chiqarishning potok prinsipiga tayanib, ishlab chiqarilishi.

Узоқ вақт даври мобайнида айнан бир маҳсулот турининг, буюм туркумининг, конвейердан фойдаланиб, ишлаб чиқаришнинг поток принципига таяниб, ишлаб чиқарилиши.

М

Материалоемкость

uz - material sigʻimi

материал сифими

en - material intensity

Показатель расхода материальных ресурсов на производство единицы какой-либо продукции. Выражается в натуральных единицах, в денежном измерении или в процентах, которые составляют стоимость материалов в общих издержках (себестоимости) производства продукции.

Qandaydir mahsulot birligini ishlab chiqarishga boʻlgan moddiy resurslar sarfining koʻrsatkichi. Natural birliklarda, pul oʻlchovida yoki mahsulotni ishlab chiqarishning umumiy xarajatlarida (tannarxida) materiallar qiymatini tashkil qiladigan foizlarda ifodalanadi.

Қандайдир маҳсулот бирлигини ишлаб чиқаришга бўлган моддий ресурслар сарфининг кўрсаткичи. Натурал birlikларда, пул ўлчовида ёки маҳсулотни ишлаб чиқаришнинг умумий харажатларида (таннархида) материаллар қийматини ташкил қиладиган foizларда ifodalanaди.

Материалосберегающие технологии

uz - material tejaydigan

tehnologiyalar

материал тежайдиган

технологиялар

en - material-saving technology

Технологические процессы, позволяющие уменьшать расход материалов, снижать материалоемкость изделий. Безотходные технологии обеспечивают получение готового продукта при полном использовании исходного сырья и материалов, малоотходные технологии позволяют обойтись минимальными отходами.

Materiallar sarfini kamaytirish, buyumlarning material sigʻimini qisqartirish imkonini beradigan texnologik jarayonlar. Chiqitsiz texnologiyalar dastlabki xomashyo va materiallardan toʻla foydalangan holda tayyor mahsulot olinishini taʼminlaydi, kam chiqitli texnologiyalar kam chiqindilar bilan mahsulot tayyorlash imkonini beradi.

Материаллар сарфини камайтириш, буюмларнинг материал сифимини қисқартириш имконини берадиган технологик жараёнлар. Чикитсиз технологиялар дастлабки хомашё ва материаллардан тўла фойдаланган ҳолда тайёр маҳсулот олиншини таъминлайди, кам чикитли технологиялар кам чиқиндилар билан маҳсулот тайёрлаш имконини беради.

М

Материальная помощь

uz - moddiy yordam

моддий ёрдам

en - material aid

Помощь, оказываемая нуждающимся – работникам предприятий, учреждений или другим людям в вещественной или денежной формах.

Muhtojlarga – korxonalar, muassasalar xodimlariga yoki boshqa odamlarga mulkiy yoki pulli shakllarda ko‘rsatiladigan yordam.

Муҳтожларга – корхоналар, муассасалар ходимларига ёки бошқа одамларга мулкий ёки пулли шаклларда кўрсатиладиган ёрдам.

Материальное производство

uz - moddiy ishlab chiqarish

моддий ишлаб чиқариш

en - material production

Производство материальных предметов, вещественных ценностей, оказание материальных услуг (например, перевозка грузов), выполнение строительных, монтажных, земляных, ремонтных работ.

Moddiy narsalar, mulkiy boyliklar ishlab chiqarish, moddiy xizmatlar ko‘rsatish (masalan, yuklarni tashish), qurilish, montaj, tuproq, ta‘mirlash ishlarini bajarish.

Моддий нарсалар, мулкий бойликлар ишлаб чиқариш, моддий хизматлар кўрсатиш (масалан, юкларни ташиш), қурилиш, монтаж, тупроқ, таъмирлаш ишларини бажариш.

Материальные затраты

uz - moddiy xarajatlar

моддий харажатлар

en - material cost

Часть издержек производства, включающая затраты на сырье, основные и вспомогательные материалы, топливо, энергию и другие затраты, приравняемые к материальным; входят в себестоимость продукции.

Ishlab chiqarish xarajatlarining, xomashyoga, asosiy va yordamchi materiallarga, yoqilg‘i, energiyaga bo‘lgan xarajatlarni ichiga oladigan qismi va moddiy xarajatlarga tenglashtiriladigan boshqa xarajatlari; mahsulot tannarxiga kiradi.

Ишлаб чиқариш харажатларининг, хомашёга, асосий ва ёрдамчи материалларга, ёқилғи, энергияга бўлган харажатларни ичига оладиган қисми ва моддий харажатларга тенглаштирилдиган бошқа харажатлар; маҳсулот таннархига кирди.

М

Матричная модель

uz - matritsaviy model

матрицавий модель

en - matrix model

Матричная структура управления

uz - boshqarishning matritsa tuzilmasi

бошқаришнинг матрица тузилмаси

en - matrix management

Экономико-математическая модель, представленная в форме таблицы (матрицы).

Jadval (matritsa) shaklida taqdim etilgan iqtisodiy-matematik model.

Жадвал (матрица) шаклида тақдим этилган иқтисодий-математик модель.

Управление «по функциям»; разделение системы управления фирмой на функциональные службы, за каждой из которых закреплен определенный круг работ или проект. Схема такой структуры управления образует таблицу, матрицу, в столбцах которой представлены функциональные руководители компании, фирмы, руководители проектов, а в строчках – подразделения (службы, отделы, сектора, лаборатории).

«Funktsiyalar bo'yicha» boshqarish, firma tomonidan boshqarish tizimining, har biriga ishlar yoki loyihaning ma'lum bir doirasi birlashtirilgan funksional xizmatlarga bo'linishi. Bunday boshqarish tuzilmasining sxemasi ustunlarida kompaniya, firmaning funksional rahbarlari, loyihalarning rahbarlari, satrlarida esa, bo'linmalar (xizmatlar, bo'limlar, sektorlar, laboratoriyalar) ko'rsatilgan jadval, matritsani hosil qiladi.

«Функциялар бўйича» бошқариш, фирма томонидан бошқариш тизимининг, ҳар бирига ишлар ёки лойиҳанинг маълум бир доираси бириктирилган функционал хизматларга бўлиниши. Бундай бошқариш тузилмасининг схемаси устунларида компания, фирманинг функционал раҳбарлари, лойиҳаларнинг раҳбарлари, сатрларида эса, бўлинмалар (хизматлар, бўлимлар, секторлар, лабораториялар) кўрсатилган жадвал, матрицани ҳосил қилади.

Машинное производство

uz - mashinalashtirilgan ishlab chiqarish

машиналаштирилган ишлаб чиқариш

en - machine production

Производство, в основу которого положено использование машин, заменяющих ручной труд.

Asosiga qo'1 mehnatini almashtiradigan mashinalardan foydalanish qo'yilgan ishlab chiqarish.

Асосига қўл меҳнатини алмаштирадиган машиналардан фойдаланиш қўйилган ишлаб чиқариш.

М

Медиа-план

uz - media reja

медиа режа

en - media plan

Медиапланирование, последовательно разработанная схема наилучших способов распространения маркетинговых коммуникационных сообщений целевой аудитории. С их помощью рекламодатель определяет длительность рекламной кампании, осуществляет целевой отбор рекламных носителей и обеспечивает необходимый уровень рекламного давления на потенциального потребителя.

Media rejalashtirish, marketing kommunikatsiya xabarlarini maqsadli auditoriyaga eng yaxshi tarqatish usullarining izchil ishlab chiqilgan sxemasi. Ularning yordamida reklama beruvchi reklama kampaniyasining davomiyligini aniqlaydi, reklama tashuvchilarni maqsadli tanlab oladi, potensial iste'molchiga ko'rsatiladigan reklama bosimining zarur darajasini ta'minlaydi.

Медиа режалаштириш, маркетинг коммуникация хабарларини мақсадли аудиторияга энг яхши тарқатиш усулларининг изчил ишлаб чиқилган схемаси. Уларнинг ёрдамида реклама берувчи реклама кампаниясининг давомийлигини аниқлайди, реклама ташувчиларни мақсадли танлаб олади, потенциал истеъмолчига кўрсатиладиган реклама босимининг зарур даражасини таъминлайди.

Международная

организация труда, МОТ

uz - Xalqaro mehnat tashkiloti, XMT

Халқаро меҳнат ташкилоти, ХМТ

en - International labour organisation, ILO

Специализированное учреждение Организации Объединенных Наций, занимающееся проблемами улучшения условий труда и социального обеспечения населения. В МОТ входят представители страны – члена этой организации, представители профсоюзов и представители организаций предпринимателей страны. МОТ создана в 1919 г., штаб-квартира находится в Женеве (Швейцария).

Birlashgan Millatlar Tashkilotining, aholi ijtimoiy ta'minotini va mehnat sharoitlarini yaxshilash muammolari bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan

М

muassasasi. Tashkilotga uning a'zosi bo'lgan mamlakatlarning vakillari, kasaba uyushmasi va mamlakat tadbirkorlari tashkilotlarining vakillari kiradilar. Xalqaro Mehnat Tashkiloti 1919-yilda tuzilgan, qarorgohi Jeneva (Shveysariya)da.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг, аҳоли ижтимоий таъминотини ва меҳнат шароитларини яхшилаш муаммолари билан шуғулланадиган ихтисослашган муассасаси. Ташкилотга унинг аъзоси бўлган мамлакатларнинг вакиллари, касабга уюшмаси ва мамлакат тadbirkorлари ташкилотларининг вакиллари кирадилар. Халқаро Меҳнат Ташкилоти 1919 йилда тузилган, қароргоҳи Женева (Швейцария)да.

Международная торговая палата

uz - Xalqaro savdo palatasi

Халқаро савдо палатаси

en - International chamber of commerce

Неправительственная организация, объединяющая торгово-промышленные палаты, федерации предпринимателей, деловые круги и фирмы более чем 100 стран мира. Основная задача палаты – содействие развитию мировой торговли, укреплению экономических и финансовых связей. Основана в 1920 г., штаб-квартира находится в Париже.

Dunyoning 100dan ortiq mamlakatining savdosanoat palatalarini, tadbirkorlar, amaliy doiralar va firmalarni birlashtiradigan nohukumat tashkilot. Palataning asosiy vazifasi – jahon savdosi rivojlanishiga, iqtisodiy va moliyaviy aloqalar mustahkamlanishiga ko'maklashishdir. 1920-yilda tuzilgan, qarorgohi Parijda.

Дунёнинг 100дан ортиқ мамлакатининг савдосаноат палаталарини, тadbirkorлар, амалий доиралар ва фирмаларни бирлаштирадиган ноҳукумат ташкилот. Палатанинг асосий вазифаси – жаҳон савдоси ривожланишига, иқтисодий ва молиявий алоқалар мустаҳкамланишига кўмаклашишдир. 1920 йилда тузилган, қароргоҳи Парижда.

М

Международные валютные отношения

uz - xalqaro valyuta munosabatlari

халқаро валюта муносабатлари

en - international monetary economics

Составная часть международных экономических отношений, представляющая валютно-денежные и расчетно-кредитные связи между странами.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning, mamlakatlar o'rtasidagi valyuta-pul va hisob-kitob-kredit aloqalarni ifodalaydigan tarkibiy qismi.

Халқаро иқтисодий муносабатларнинг, мамлакатлар ўртасидаги валюта-пул ва ҳисоб-китоб-кредит алоқаларни ифодаляйдиган таркибий қисми.

Международные расчеты

uz - xalqaro hisob-kitoblar
халқаро ҳисоб-китоблар
en - international accounts

Взаимные платежи и расчеты между странами, а также между организациями и гражданами, находящимися на территории разных стран.

Mamlakatlar, shuningdek, turli mamlakatlar hududida bo'lgan fuqarolar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro to'lovlar va hisob-kitoblar.

Мамлакатлар, шунингдек, турли мамлакатлар ҳудудида бўлган фуқаролар ва ташкилотлар ўртасидаги ўзаро тўловлар ва ҳисоб-китоблар.

Международные счетные денежные единицы

uz - xalqaro hisoblash pul birliklari

халқаро ҳисоблаш пул бирликлари

en - international monetary units

Валютные единицы, позволяющие сопоставлять валюты разных стран и устанавливать пропорции между ними. Такие единицы используются при соизмерении международных долговых обязательств, платежей разных стран, валютных резервов, кредитов, депозитов, для установления курсовых соотношений валют разных стран, сопоставления показателей банковских балансов.

Turli mamlakatlarning valyutalarini taqqoslash va ular o'rtasida o'zaro teng nisbat o'rnatish imkonini beradigan valyuta birliklari. Bunday birliklardan xalqaro qarz majburiyatlarni, turli mamlakatlar to'lovlarini, valyuta rezervlari, kreditlari, depositlarini solishtirishda, turli mamlakatlar valyutalarining kurs nisbatlarini belgilash, bank balanslari ko'rsatkichlarini taqqoslash uchun foydalaniladi.

Турли мамлакатларнинг валюталарини таққос-

М

лаш ва улар ўртасида ўзаро тенг нисбат ўрнатиш имконини берадиган валюта бирликлари. Бундай бирликлардан халқаро қарз мажбуриятларни, турли мамлакатлар тўловларини, валюта резервлари, кредитлари, депозитларини солиштиришда, турли мамлакатлар валюталарининг курс нисбатларини белгилаш, банк баланслари кўрсаткичларини таққослаш учун фойдаланилади.

Международные торги

uz - xalqaro savdolar

халқаро савдолар

en - international tender

Международные конкурсы на право получения заказов, связанных с поставкой оборудования, строительством объектов, выполнением инжиниринговых услуг в разных странах. Условия таких конкурсов объявляются заранее.

Uskuna yetkazib berish, turli mamlakatlarda ob'ektlar qurilishi, injiniring xizmatlarini bajarish bilan bog'liq buyurtmalarni olish huquqi uchun xalqaro konkurslar. Bunday konkurslarning shartlari oldindan e'lon qilinadi.

Ускуна етказиб бериш, турли мамлакатларда объектлар қурилиши, инжиниринг хизматларини бажариш билан боғлиқ буюртмаларни олиш ҳуқуқи учун халқаро конкурслар. Бундай конкурсларнинг шартлари олдиндан эълон қилинади.

Международный валютный фонд, МВФ

uz - Xalqaro valyuta fondi,

XVF

Халқаро валюта фонди,

XVF

en - International monetary

fund, IMF

Специализированная валютно-финансовая организация ООН, созданная в 1944 г. Основные задачи МВФ: содействие развитию международной торговли, поддержание платежных балансов членов МВФ и регулирование курсов их валют, разработка реформ по оздоровлению валютной системы мира. МВФ предоставляет кредитные ресурсы своим членам.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1944-yilda tuzilgan ixtisoslashtirilgan valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta fondining asosiy vazifalari: xalqaro savdoning rivojlanishiga ko'maklashishi, XVF a'zolarining to'lov balanslarini ushlab turish va ular valyutalari kurslarini tartibga solish, jahon valyuta tizimini sog'lomlashtirish yuzasidan islohotlar ishlab chiqish. Xalqaro valyuta fondi o'z a'zolariga kredit resurslar beradi.

М

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 1944 йилда тузилган ихтисослаштирилган валюта-молия ташкилоти. Халқаро валюта фондининг асосий вазифалари: халқаро савдонинг ривожланишига кўмаклашиши, ХВФ аъзоларининг тўлов балансларини ушлаб туриш ва улар валюталари курсларини тартибга солиш, жаҳон валюта тизимини соғломлаштириш юзасидан ислохотлар ишлаб чиқиш. Халқаро валюта фонди ўз аъзоларига кредит ресурслар беради.

Международный банк реконструкции и развития, МБРР

uz - Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, ХТТВ

Халқаро тикланиш ва тараққиёт банки, ХТТВ

en - International bank for reconstruction and development, IBRD

Специализированное финансовое учреждение ООН. Основная деятельность – предоставление долгосрочных кредитов государственным и частным предприятиям при наличии гарантий их правительств, направление кредитов в развивающиеся страны и в региональные банки для их последующего распределения. МБРР основан в 1945 г., членами банка могут быть только страны – участницы Международного валютного фонда.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan moliya muassasasi. Asosiy faoliyati – hukumatlarning kafolati bo‘lgan holda, davlat va xususiy korxonalariga uzoq muddatli kreditlar berish, kreditlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga va keyinchalik taqsimlash uchun mintaqaviy banklarga yo‘llash. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankiga 1945-yilda asos solingan, unga faqat Xalqaro valyuta fondi ishtirokchisi bo‘lgan mamlakatgina kira oladi.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг ихтисослаштирилган молия муассасаси. Асосий фаолияти – ҳукуматларнинг кафолати бўлган ҳолда, давлат ва хусусий корхоналарга узоқ муддатли кредитлар бериш, кредитларни ривожланаётган мамлакатларга ва кейинчалик тақсимлаш учун минтақавий банкларга йўллаш. Халқаро тикланиш ва тараққиёт банкига 1945 йилда асос солинган, унга фақат Халқаро валюта фонди иштирокчиси бўлган мамлакатгина kira олади.

М

Международный рынок ссудного капитала

uz - xalqaro ssuda kapitali
bozori

халқаро ссуда капитали
бозори

en - global debt market

Рынок кредитов, предоставляемых на возвратной основе со стороны правительства, банков, фирм одной страны, а также международных банков правительству, банкам, фирмам других стран.

Qaytarib berish asosida bir mamlakatning firmalari, banklari, hukumati, shuningdek, xalqaro banklar tomonidan, boshqa malakatlarning hukumatiga, banklariga, firmalariga taqdim etiladigan kreditlar bozori.

Қайтариб бериш асосида бир мамлакатнинг фирмалари, банклари, ҳукумати, шунингдек, халқаро банклар томонидан, бошқа малакатларнинг ҳукуматига, банкларига, фирмаларига тақдим этиладиган кредитлар бозори.

Менеджер

uz - menejer

менежер

en - manager

Специалист по управлению производством и обращением товаров, наемный управляющий. Менеджеры организуют работу на фирме, руководят производственной деятельностью групп сотрудников. Менеджер является должностным лицом фирмы и входит в ее средний и высший руководящий состав (топ-менеджер).

Ishlab chiqarishni boshqarish va tovarlarning aylanishi bo'yicha mutaxassis, yollanma boshqaruvchi. Menejerlar firmada ishni tashkillashtiradilar, xodimlar guruhining ishlab chiqarish faoliyatiga boshchilik qiladilar. Menejer firma mansabdor shaxsi hisoblanadi hamda uning o'rta va yuqori rahbar tarkibiga kiradi (top-menejer).

Ишлаб чиқаришни бошқариш ва товарларнинг айланиши бўйича мутахассис, ёлланма бошқарувчи. Менежерлар фирмада ишни ташкиллаштирадилар, ходимлар гуруҳининг ишлаб чиқариш фаолиятига бошчилик қиладилар. Менежер фирма мансабдор шахси ҳисобланади ҳамда унинг ўрта ва юқори раҳбар таркибига киради (топ-менежер).

М

Менеджмент

uz - menejment

менежмент

en - management

1. Управление производством и предпринимательством, совокупность принципов, форм, методов, приемов и средств управления деятельностью и производственным персоналом предприятия, фирмы с использованием достижений науки и практики управления, передового опыта.
2. В более общем смысле – любое управление экономическими объектами и процессами.

1. Ishlab chiqarish va tadbirkorlikni boshqarish, ilg'or tajribadan, boshqaruv ilmi va amaliyoti yutuqlaridan foydalanib, firma, korxonaning ishlab chiqarish xodimlari va faoliyatini boshqarish prinsiplari, shakllari, metodlari, yo'llari hamda vositalari jami.
2. Birmuncha umumiy ma'noda – iqtisodiy obyektlarni va jarayonlarni har qanday boshqarish.

1. Ишлаб чиқариш ва тadbirkorlikni бoшқариш, илғор тажрибадан, бoшқарув илми ва амалиёти ютуқларидан фойдаланиб, фирма, корхонанинг ишлаб чиқариш ходимлари ва фаолиятини бoшқариш принциплари, шакллари, методлари, йўллари ҳамда воситалари жами.
2. Бирмунча умумий маънода – иқтисодий объектларни ва жараёнларни ҳар қандай бoшқариш.

Мерчандайзинг

uz - merchandayzing

мерчандайзинг

en - merchandising

Подготовка к продаже товаров в розничной торговой сети: оформление торговых прилавков, витрин, размещение самого товара в торговом зале, представление сведений о товаре.

Chakana savdo tarmog'ida tovarlarni sotishga tayyorlash: savdo rastalari, vitrinalarini rasmiylashtirish, tovarning o'zini savdo zalida joylashtirish, tovar to'g'risida ma'lumotlar berish.

Чакана савдо тармоғида товарларни сотишга тайёрлаш: савдо расталари, витриналарини расмийлаштириш, товарнинг ўзини савдо залида жойлаштириш, товар тўғрисида маълумотлар бериш.

М

Метод критического пути

uz - kritik yo'l metodi

критик йўл методи

en - critical path method

Метод управления проектом, используемый при сетевом планировании, направленный на определение, схематическое изображение и анализ последовательности работ, затрат и продолжительности выполнения проекта, необходимых для его завершения. Целью анализа является оптимизация проекта и определение наименьших резервов времени. Как правило, используется только одна оценка времени: нормальное время.

Tarmoq rejalashtirishda foydalaniladigan, xarajatlarni, ishlar ketma-ketligini belgilashga, sxematik tasvirlashga va tahlil qilishga hamda loyihani tugallash uchun zarur bo'lgan loyihani bajarish davomiyligini aniqlashga qaratilgan, loyihani boshqarish metodi. Tahlil maqsadi loyihani optimallashtirish va eng kam vaqt rezervini aniqlash hisoblanadi. Odatda, birgina vaqt bahosi: normal vaqtdan foydalaniladi.

Тармоқ режалаштиришда фойдаланиладиган, харажатларни, ишлар кетма-кетлигини белгилашга, схематик тасвирлашга ва таҳлил қилишга ҳамда лойиҳани тугаллаш учун зарур бўлган лойиҳани бажариш давомийлигини аниқлашга қаратилган, лойиҳани бошқариш методи. Таҳлил мақсади лойиҳани оптималлаш ва энг кам вақт резервини аниқлаш ҳисобланади. Одатда, биргина вақт баҳоси: нормал вақтдан фойдаланилади.

Миграция капитала

uz - kapital migratsiyasi

капитал миграцияси

en - migration of capital

Движение капитала, денежных ресурсов из одной отрасли в другую, либо из одной страны в другую.

Kapital, pul resurslarining bir tarmoqdan boshqa bir tarmoqqa, bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga harakatlanishi.

Капитал, пул ресурсларининг бир тармоқдан бошқа бир тармоққа, бир мамлакатдан бошқа бир мамлакатга ҳаракатланиши.

Миграция населения,

трудовых ресурсов

uz - aholi, mehnat resurslari

migratsiyasi

Перемещение людей, связанное преимущественно с изменением места жительства и места работы. Различают виды миграции: безвозвратная – при окончательной смене постоянного места жительства, временная – при переселении на

М

аҳоли, меҳнат
ресурслари миграцияси
en - migration, human
resource migration

достаточно большой срок, сезонная – при перемещении в определенные периоды года, маятниковая – в виде регулярных поездок к месту работы или учебы в другой местности, внутренняя – внутри страны, внешняя – в виде перемещений за пределы страны (эмиграция) и иммиграции в страну.

Odamlarning, asosan yashash va ishlash joyi o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan ko'chishi. Quyidagi migratsiya turlari ajratiladi: qaytib kelmaydigan – doimiy yashash joyi batamom o'zgartirilganda, vaqtinchalik – anchagina katta muddatga ko'chishda, mavsumiy – yilning muayyan davrlarida ko'chib yurishda, mayatnikli – boshqa joydagi o'qish yoki ish joyiga muntazam qatnashlar ko'rinishida, ichki migratsiya – mamlakat ichida, tashqi migratsiya – mamlakat tashqarisiga ko'chish (emigratsiya) va mamlakatga ko'chib kelish (immigratsiya) ko'rinishida.

Одамларнинг, асосан яшаш ва ишлаш жойи ўзгариши билан боғлиқ бўлган кўчиши. Қуйидаги миграция турлари ажратилади: қайтиб келмайдиган – доимий яшаш жойи батамом ўзгартирилганда, вақтинчалик – анчагина катта муддатга кўчишда, мавсумий – йилнинг муайян даврларида кўчиб юришда, маятникли – бошқа жойдаги ўқиш ёки иш жойига мунтазам қатнашлар кўринишида, ички миграция – мамлакат ичида, ташқи миграция – мамлакат ташқарисига кўчиш (эмиграция) ва мамлакатга кўчиб келиш (иммиграция) кўринишида.

Микроэкономика
uz - mikroiqtisodiyot
микроиқтисодиёт
en - microeconomics

Раздел экономической науки, связанный с изучением относительно маломасштабных экономических процессов, субъектов, явлений, в основном предприятий, фирм, предпринимателей, их хозяйственной деятельности, экономических отношений между ними, конъюнктуры локальных рынков.

Iqtisodiyot fanining, nisbatan kichik ko'lamli iqtisodiy jarayonlarni, subyektlarni, hodisalarni, asosan,

М

korxonalar, firmalar, tadbirkorlarni, ularning xo'jalik faoliyatini, ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni, mahalliy bozorlardagi konyunkturani o'rganish bilan bog'liq bo'limi.

Иқтисодиёт фанининг, нисбатан кичик кўламли иқтисодий жараёнларни, субъектларни, ходисаларни, асосан, корхоналар, фирмалар, тadbirkorларни, уларнинг хўжалик фаолиятини, улар ўртасидаги иқтисодий муносабатларни, маҳаллий бозорлардаги конъюнктурани ўрганиш билан боғлиқ бўлими.

Минимальная заработная плата

uz - eng kam ish haqi

ЭНГ КАМ ИШ ҲАҚИ

en - minimum wage

Официально устанавливаемый государством минимальный уровень оплаты труда на предприятиях любых форм собственности в виде наименьшей месячной ставки или почасовой оплаты. Официально именуется минимальным размером оплаты труда в единицах которого иногда измеряются денежные платежи, штрафы, санкции.

Davlat tomonidan har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalarda eng kam oylik stavka yoki soatbay haq to'lash ko'rinishida rasman o'rnatiladigan mehnatga haq to'lashning eng past darajasi. Rasman, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori deyiladi, uning birliklarida ba'zan pul to'lovlari, jarimalar, sanksiyalar o'lchanadi.

Давлат томонидан ҳар қандай мулкчилик шаклидаги корхоналарда энг кам ойлик ставка ёки соатбай ҳақ тўлаш кўринишида расман ўрнатиладиган меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг паст даражаси. Расман, меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори дейилади, унинг бирликларида баъзан пул тўловлари, жарималар, санкциялар ўлчанади.

Мировое хозяйство, мирохозяйственная система

uz - jahon xo'jaligi, jahon

xo'jalik tizimi

ЖАҲОН ХЎЖАЛИГИ, ЖАҲОН

ХЎЖАЛИК ТИЗИМИ

Взаимосвязанные и взаимодействующие хозяйства разных стран, обычно функционирующие по согласованным правилам; последовательное объединение хозяйств разных стран в единую мировую систему.

M

en - world economy, world economic system

Turli mamlakatlarning, odatda kelishilgan qoidalar bo'yicha ishlaydigan, o'zaro bog'langan va birgalikda harakat qiladigan xo'jaliklari; turli mamlakatlarning xo'jaliklarini yagona jahon tizimiga izchillik bilan birlashtirish.

Мировой рынок

uz - jahon bozori
jahon bozori
en - global market

Турли мамлакатларнинг, одатда келишилган қоидалар бўйича ишлайдиган, ўзаро боғланган ва биргаликда ҳаракат қиладиган хўжаликлари; турли мамлакатларнинг хўжалиklarини ягона жаҳон тизимига изчиллик билан бирлаштириш.

Международный рынок, в котором участвуют представители разных стран. В мировом рынке выделяют рынок труда (рабочей силы), сырья, топлива, сельскохозяйственной продукции, машин и оборудования, технологии, услуг, золота и других драгоценных металлов, алмазов, ссудных капиталов.

Turli mamlakatlarning vakillari ishtirok etadigan xalqaro bozor. Jahon bozorida mehnat (ishchi kuchi), xomashyo, yoqilg'i, qishloq xo'jalik mahsuloti, mashina va uskunalar, texnologiyalar, xizmatlar, oltin va boshqa qimmatli metallar, olmos, ssuda kapitallari bozori ajratiladi.

Турли мамлакатларнинг вакиллари иштирок этадиган халқаро бозор. Жаҳон бозорида меҳнат (ишчи кучи), хомашё, ёқилғи, қишлоқ хўжалик маҳсулоти, машина ва ускуналар, технологиялар, хизматлар, олтин ва бошқа қимматли металллар, олмос, ссуда капиталлари бозори ажратилди.

Мировые деньги

uz - jahon pullari
jahon pullari
en - world money

Платежные средства, призванные и используемые в международных расчетах. Обычно это твердая, конвертируемая валюта ведущих стран мира.

Xalqaro hisob-kitoblarda yordam beradigan va foydalaniladigan to'lov vositalari. Odatda, bu, dunyo yetakchi mamlakatlarining qat'iy, konvertatsiya qilinadigan valyutasidir.

М

Халқаро ҳисоб-китобларда ёрдам берадиган ва фойдаланиладиган тўлов воситалари. Одатда, бу, дунё етакчи мамлакатларининг қатъий, конвертация қилинадиган валютасидир.

Многоотраслевой комплекс

uz - ko'p tarmoqli kompleks

кўп тармоқли комплекс

en - diversified complex

Совокупность близких по профилю деятельности технологически связанных отраслей, образующих единый комплекс.

Faoliyat sohasi bo'yicha yaqin bo'lgan, yagona kompleks tashkil qiladigan, texnologik jihatdan bog'langan tarmoqlar jami.

Фаолият соҳаси бўйича яқин бўлган, ягона комплекс ташкил қиладиган, технологик жиҳатдан боғланган тармоқлар жами.

Модели экономического роста

uz - iqtisodiy o'sish modellari

иқтисодий ўсиш

моделлари

en - models of economic

growth

Экономико-математические модели, описывающие изменение во времени экономических показателей, характеризующих развитие экономики в целом, ее отраслей, отдельных экономических объектов.

Umuman olganda, iqtisodiyotning, uning tarmoqlarining, ayrim iqtisodiy obyektlarning rivojlanishini ko'rsatadigan iqtisodiy ko'rsatkichlarning vaqtda o'zgarishini tavsiflaydigan iqtisodiy-matematik modellari.

Умуман олганда, иқтисодиётнинг, унинг тармоқларининг, айрим иқтисодий объектларнинг ривожланишини кўрсатадиган иқтисодий кўрсаткичларнинг вақтда ўзгаришини тавсифлайдиган иқтисодий-математик моделлар.

Моделирование экономического

uz - iqtisodiy modellar

иқтисодий моделлаш

en - model building economic

Воспроизведение экономических объектов и процессов в ограниченных, малых, экспериментальных формах, в искусственно созданных условиях (натурное моделирование). Моделирование служит предпосылкой и средством анализа экономики и протекающих в ней явлений и обоснования принимаемых решений, прогнозирования, планирования, управления экономическими процессами и объектами.

M

Iqtisodiy obyektlar va jarayonlarni cheklangan, kichik, eksperimental shakllarda, sun'iy hosil qilingan sharoitlarda aks ettirish (asliga qarab modellash). Modellash iqtisodiyotni va unda kechadigan hodisalarni tahlil qilish, qabul qilinadigan qarorlarni asoslash, iqtisodiy jarayonlar va ob'ektlarni prognozlash, rejalashtirish, boshqarish vositasi hamda sharti bo'lib xizmat qiladi.

Иқтисодий объектлар ва жараёнларни чекланган, кичик, экспериментал шаклларда, сунъий ҳосил қилинган шaroитларда акс эттириш (аслига қараб моделлаш). Моделлаш иқтисодиётни ва унда кечадиган ҳодисаларни таҳлил қилиш, қабул қилинадиган қарорларни асослаш, иқтисодий жараёнлар ва объектларни прогностлаш, режалаштириш, бошқариш воситаси ҳамда шarti бўлиб хизмат қилади.

Модель

uz - model, andaza
 модель, андаза
en - model

Образец, аналог предмета, вещи, в соответствии с которыми они изготавливаются, производятся, например, модель одежды, модель автомобиля. Моделью называют также изображение, описание предмета, объекта, процесса, на основании которого можно получить представление о них.

Narsa, buyumning namunasi, o'xshashi. Ularga ko'ra, buyumlar tayyorlanadi, ishlab chiqariladi, masalan, avtomobil modeli, kiyim-kechak modeli. Shuningdek, predmet, obyekt, jarayonning ta'rifi, tasviri, uning asosida ular to'g'risida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Нарса, буюмнинг намунаси, ўхшаши. Уларга кўра, буюмлар тайёрланади, ишлаб чиқарилади, масалан, автомобиль модели, кийим-кечак модели. Шунингдек, предмет, объект, жараённинг таърифи, тасвири, унинг асосида улар тўғрисида тасаввурга эга бўлиш мумкин.

Модернизация

uz - modernizatsiyalash
 модернизациялаш
en - modernization

Усовершенствование, улучшение, обновление объекта, приведение его в соответствие с новыми требованиями и нормами, техническими условиями, показателями качества.

М

Obyektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talablarga, normalarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslash.

Объектни такомиллаштириш, яхшилаш, янгилаш, уни янги талабларга, нормаларга, техник шартларга, сифат кўрсаткичларига мослаш.

Модификация

uz - modifikatsiyalash,

o'zgartirish

модификациялаш,

ўзгартириш

en - modification

1. Внесение прогрессивных изменений, преобразование производства, технологии, производимой продукции, процесс создания улучшенного варианта, новой модели.

2. Видоизмененная, как правило, улучшенная, более новая, прогрессивная модель изделия, машины; разновидность изделия.

3. Изменение структуры управления компании, не изменяющее конструктивно принципы ее организации, но необходимое для достижения положительных сдвигов в работе.

1. Progressiv o'zgartirishlar kiritish, ishlab chiqarishni, texnologiyalarni, ishlab chiqariladigan mahsulotni o'zgartirish, takomillashtirilgan variantni, yangi modelni yaratish jarayoni.

2. Buyum, mashinaning ko'rinishi o'zgartirilgan, odatda, yaxshilangan, birmuncha yangi, progressiv modeli; buyumning bir turi.

3. Kompaniyaning boshqaruv tuzilmasini, uning tashkil qilinish prinsiplarini tuzilish jihatdan o'zgartirmagan, biroq ishda ijobiy siljishlarga erishish uchun zarur bo'ladigan tarzda o'zgartirish.

1. Progressiv ўзгартиришлар киритиш, ишлаб чиқаришни, технологияларни, ишлаб чиқариладиган маҳсулотни ўзгартириш, такомиллаштирилган вариантни, янги моделни яратиш жараёни.

2. Буюм, машинанинг кўриниши ўзгартирилган, одатда, яхшиланган, бирмунча янги, прогрессив модели; буюмнинг бир тури.

3. Компаниянинг бошқарув тuzилмасини, унинг ташкил қилиниш принципларини тузилиш жиҳатдан ўзгартирмаган, бироқ ишда ижобий силжишларга эришиш учун зарур бўладиган тарзда ўзгартириш.

М

Мозговой штурм

uz - aqliy hujum

ақлий ҳужум

en - brain storming

Метод интенсификации процесса группового поиска решения проблем. Он предусматривает стимуляцию творческой активности и продуктивности исходя из предложения, что при обычных приемах обсуждения и решения проблем возникновению новаторских идей препятствуют контрольные механизмы сознания, которые скывают поток новых идей под давлением привычных стереотипных форм принятия решения. Тормозящее влияние оказывают также боязнь неудачи, страх оказаться смешным и т. д. Чтобы снять тормозящее действие этих факторов, и применяется метод мозговой штурм.

Muammolarning yechimini guruhiy izlash jarayonini jadallashtirish usuli. Bu usul, muammolarni muhokama va hal qilishning oddiy usullari qo'llanilganda novatorlik g'oyalari yuzaga kelishiga, qarorlar qabul qilishning odatdagi stereotip shakllari bosimi ostida yangi g'oyalar oqimini siqib qo'yadigan nazorat qiluvchi ong mexanizmlari to'sqinlik qiladi degan taxmindan kelib chiqqan holda, ijodiy faollik va mahsuldorlik rag'batlantirilishini ko'zda tutadi. Shuningdek, muvaffaqiyatsizlikdan cho'chish, kulgili holatga tushib qolishdan qo'rqish ham xalal beruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarning xalal beruvchi ta'sirini yo'qotish uchun ham, aqliy hujum usuli qo'llaniladi.

Muammolarning yechimini guruhiy izlash jarayonini jadallashtirish usuli. Bu usul, muammolarni muhokama va hal qilishning oddiy usullari qo'llanilganda novatorlik g'oyalari yuzaga kelishiga, qarorlar qabul qilishning odatdagi stereotip shakllari bosimi ostida yangi g'oyalar oqimini siqib qo'yadigan nazorat qiluvchi ong mexanizmlari to'sqinlik qiladi degan taxmindan kelib chiqqan holda, ijodiy faollik va mahsuldorlik rag'batlantirilishini ko'zda tutadi. Shuningdek, muvaffaqiyatsizlikdan cho'chish, kulgili holatga tushib qolishdan qo'rqish ham xalal beruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarning xalal beruvchi ta'sirini yo'qotish uchun ham, aqliy hujum usuli qo'llaniladi.

М

Монетаризм

uz - monetarizm

монетаризм

en -en - monetarism

Экономическая теория и практическая концепция хозяйственного управления государством, согласно которой определяющая роль отведена количеству денег в обращении и связи между денежной и товарной массой.

Davlatni xo‘jalik boshqarishning iqtisodiy nazariyasi va amaliy konsepsiyasi. Unga ko‘ra, belgilovchi ahamiyat muomaladagi pullar miqdoriga, pul massasi va tovar massasi o‘rtasidagi aloqalarga beriladi.

Давлатни хўжалик бошқаришнинг иқтисодий назарияси ва амалий концепцияси. Унга кўра, белгилувчи аҳамият муомаладаги пуллар миқдориға, пул массаси ва товар массаси ўртасидаги алоқаларға берилади.

Мониторинг

uz - monitoring

мониторинг

en - monitoring

Непрерывное наблюдение за экономическими объектами и процессами с целью анализа изменения их состояния; представляет составную часть управления.

Iqtisodiy obyektlar va jarayonlarni, ularning holati o‘zgarishini tahlil qilish maqsadida, uzluksiz kuzatib borish.

Иқтисодий объектлар ва жараёнларни, уларнинг ҳолати ўзгаришини таҳлил қилиш мақсадида, узлуксиз кузатиб бориш.

Монополизм

uz - monopolizm

монополизм

en - monopolism

Захват рынка определенного товара или производство этого товара одной компанией либо группой компаний, либо целью вытеснения других продавцов и производителей данного товара.

Muayyan tovar yoki bu tovarni ishlab chiqarish bozorining, bir kompaniya yoki kompaniyalar guruhi tomonidan, ushbu tovarni boshqa ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilarni siqib chiqarish maqsadida, egallab olinishi.

Муайян товар ёки бу товарни ишлаб чиқариш бозорининг, бир компания ёки компаниялар гуруҳи томонидан, ушбу товарни бошқа ишлаб чиқарувчилар ва сотувчиларни сиқиб чиқариш мақсадида, эгаллаб олинishi.

М

Монополия

uz - monopoliya

монополия

en - monopoly

1. Ситуация, при которой определенному лицу, фирме, предприятию предоставлено исключительное право на исполнение конкретной деятельности.

2. Компания, корпорация, занимающая монопольное положение на рынке.

1. Muayyan shaxsga, firmaga, korxonaga aniq bir faoliyatni amalga oshirish mutlaq huquqi beriladigan vaziyat.

2. Bozorda tanho egalik qiladigan kompaniya, korporatsiya.

1. Muayyan shaxsga, firmaga, korxonaga aniq bir faoliyatni amalga oshirish mutlaq huquqi beriladigan vaziyat.

2. Bozorda tanho egalik qiladigan kompaniya, korporatsiya.

Монопсония

uz - monopsoniya

монопсония

en - monopsony

Монополия покупателя, ситуация на рынке товаров и услуг, когда имеется только один покупатель и много продавцов. В широком смысле слова термин «монопсония» относят ко всем рынкам, где определяющее влияние на формирование цены оказывают покупатели, потребители товаров и услуг.

Xaridorning tanho egaligi, tovarlar va xizmatlar bozorida, faqat bitta xaridor va ko'p sotuvchi bo'ladigan vaziyat. Keng ma'noda, «monopsoniya» atamasi bahoning shakllanishida belgilovchi ta'sir tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchilar, iste'molchilar tomonidan ko'rsatiladigan barcha bozorlarga taalluqli.

Xaridorning tanho egaligi, tovarlar va xizmatlar bozorida, faqat bitta xaridor va ko'p sotuvchi bo'ladigan vaziyat. Keng ma'noda, «monopsoniya» atamasi bahoning shakllanishida belgilovchi ta'sir tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchilar, iste'molchilar tomonidan ko'rsatiladigan barcha bozorlarga taalluqli.

М

Моральный износ основных средств

uz - asosiy vositalarning
ma'naviy eskirish

асосий воситаларнинг

маънавий эскириш

en - moral depreciation

Старение и обесценивание основных средств в связи с тем, что их технико-технологические показатели все более отстают от постоянно повышающегося мирового уровня.

Texnik-texnologik ko'rsatkichlari tobora oshib boradigan jahon darajasidan orqada qolishi sababli, asosiy vositalarning eskirishi va qadrsizlanishi.

Техник-технологик кўрсаткичлари тобора ошиб борадиган жаҳон даражасидан орқада қолиши сабабли, асосий воситаларнинг эскириши ва кадрсизланиши.

Мораторий

uz - moratoriy (to'xtatib turish)

мораторий (тўхтатиб

туриш)

en - moratorium

Отсрочка выполнения обязательств или выплаты долгов на определенный срок или до выполнения каких-либо условий.

Majburiyatlarning bajarilishini yoki qarzlarning to'lanishini ma'lum bir muddatga yoki qandaydir shartlar bajarilgunga qadar kechiktirish.

Мажбуриятларнинг бажарилишини ёки қарзларнинг тўланишини маълум бир муддатга ёки қандайдир шартлар бажарилгунга қадар кечиктириш.

Мотивация

uz - asos, xohish-istak

асос, хоҳиш-истак

en - motivation

Внешнее или внутреннее побуждение экономического субъекта к деятельности во имя достижения каких-либо целей, наличие интереса к такой деятельности и способы его инициирования, побуждения.

Qandaydir maqsadlarga erishish uchun, iqtisodiy subyektni faoliyatga tashqi yoki ichki undash, shunday faoliyatga qiziqishning mavjudligi va uni qo'zg'ash, harakatlantirish usullari.

Қандайдир мақсадларга эришиш учун, иқтисодий субъектни фаолиятга ташқи ёки ички ундаш, шундай фаолиятга қизиқишнинг мавжудлиги ва уни қўзғаш, ҳаракатлантириш усуллари.

М

Мощность

производственная

uz - ishlab chiqarish quvvati

ишлаб чиқариш қуввати

en - capacity

Максимально возможный объем выпуска продукции за определенный период (обычно за год, месяц) при полном использовании оборудования, производственных площадей и других ресурсов на данном предприятии.

Uskunalardan, ishlab chiqarish maydonlaridan va bu korxonadagi boshqa resurslardan to'liq foydalanilgan sharoitda, muayyan davr (odatda, bir yil, oy) ichida mahsulot ishlab chiqarishning mumkin bo'lgan eng katta hajmi.

Ускуналардан, ишлаб чиқариш майдонларидан ва бу корхонадаги бошқа ресурслардан тўлиқ фойдаланилган шароитда, муайян давр (одатда, бир йил, ой) ичида маҳсулот ишлаб чиқаришнинг мумкин бўлган энг катта ҳажми.

Н

Наблюдательный совет

uz - Kuzatuv kengashi

Кузатув кенгаши

en - Supervisory board

Избираемый общим собранием акционеров орган, контролирующий деятельность правления акционерного общества.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylanadigan, aksiyadorlar jamiyati boshqaruvi faoliyatini nazorat qiladigan organ.

Акциядорларнинг умумий йиғилишида сайланадиган, акциядорлар жамияти бошқаруви фаолиятини назорат қиладиган орган.

Надбавка

uz - ustama pul

устама пул

en - increase

1. Дополнительные выплаты работникам (надбавка к заработной плате) за особо сложные условия труда или высокое качество работы.

2. Добавка к номинальной цене товара, обусловленная его особыми качествами, изготовлением по специальному заказу, то же, что наценка.

1. Ishning yuqori sifati yoki alohida murakkab mehnat sharoitlari uchun xodimlarga beriladigan qo'shimcha to'lovlar (ish haqiga ustama).

2. Tovarning nominal bahosiga kiritiladigan, uning alohida sifatlari, maxsus buyurtma bo'yicha tayyorlanganligi bilan bog'liq qo'shimcha, ustama narxning o'zi.

Н

1. Ишнинг юқори сифати ёки алоҳида мураккаб меҳнат шароитлари учун ходимларга бериладиган кўшимча тўловлар (иш ҳақиға устама).

2. Товарнинг номинал баҳосига киритиладиган, унинг алоҳида сифатлари, махсус буюртма бўйича тайёрланганлиги билан боғлиқ кўшимча, устама нархнинг ўзи.

Надел земельный

uz - chek yer

чек ер

en - field boundary

Земельный участок, предоставляемый в пользование хозяйствующему, ведущему дехканское хозяйство.

Хо‘jalik yurituvchiga, dehqon хо‘jaligini olib boruvchiga taqdim etiladigan yer uchastkasi.

Хўжалик юритувчига, дехкон хўжалигини олиб борувчига тақдим этиладиган ер участкаси.

Надомник

uz - nadomnik

касанаши

en - homeworker

Лицо, занятое трудовой деятельностью на дому согласно договору, заключенному с предприятием.

Korxonalar bilan tuzilgan shartnomaga ko‘ra, uyda mehnat faoliyati bilan band bo‘lgan shaxs.

Корхона билан тузилган шартномага кўра, уйда меҳнат фаолияти билан банд бўлган шахс.

Наем

uz - ijara, yollash

ижара, ёллаш

en - rent

1. Предоставление имущества его владельцем (наймодателем) по договору найма другой стороне (нанимателю) во временное пользование за определенную плату.

2. Наем рабочей силы, работников по найму.

1. Mulkning, uning egasi (ijaraga beruvchi) tomonidan ijara shartnomasi bo‘yicha muayyan haq evaziga vaqtinchalik foydalanishga boshqa tomonga (ijaraga oluvchiga) berilishi.

2. Ishchi kuchini, ishchilarni ijara bo‘yicha yollash.

1. Мулкнинг, унинг эгаси (ижарага берувчи) томонидан ижара шартномаси бўйича муайян ҳақ эвазига вақтинчалик фойдаланишга бошқа томонга (ижарага олувчига) берилиши.

2. Ишчи кучини, ишчиларни ижара бўйича ёллаш.

Н

Наемный работник

uz - yollanma ishchi

ёлланма ишчи

en - wage earner

Человек, нанятый на работу, работающий по найму, по трудовому соглашению на предприятии, которым он не владеет. Собственник предприятия (в лице государства или частных лиц) предоставляет наемному работнику средства производства и выплачивает ему заработную плату за использование наемного труда этого работника.

Mehnat shartnomasiga ko‘ra, o‘zi egalik qilmaydigan korxonada yollanib ishlaydigan odam. Korxonaga egasi (davlat yoki xususiy shaxslar timsolidagi) yollanma ishchiga ishlab chiqarish vositalari beradi va uning yollanma mehnatidan foydalanganlik uchun ish haqi to‘laydi.

Меҳнат шартномасига кўра, ўзи эгалик қилмайдиган корхонада ёлланиб ишлайдиган одам. Корхона эгаси (давлат ёки хусусий шахслар тимсолида) ёлланма ишчига ишлаб чиқариш воситалари беради ва унинг ёлланма меҳнатидан фойдаланганлик учун иш ҳақи тўлайди.

Накладная

uz - yuk xati

юк хати

en - invoice

1. Товарная – документ, в соответствии с которым происходит передача товара, материальных ценностей из одних рук в другие.

2. Транспортная – основной перевозочный документ, регулирующий отношения между отправителем, перевозчиком и получателем груза. Накладная содержит сведения о наименовании груза, числе мест, пунктах отправления и назначения, отправителе и получателе, дате приема к перевозке.

1. Tovar yuk xati – tovarning, moddiy boyliklarning bir qo‘ldan boshqa bir qo‘lga topshirilishini tasdiqlaydigan hujjat.

2. Transport yuk xati – yukni jo‘natuvchi, tashuvchi va oluvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan asosiy tashish hujjati. Yuk xati yukning nomi, o‘rinlar soni, jo‘natish va tayinlangan punktlar, jo‘natuvchi va oluvchi, tashishga qabul qilingan sana to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ichiga oladi.

1. Товар юк хати – товарнинг, моддий бойлик-

Н

ларнинг бир қўлдан бошқа бир қўлга топширилишини тасдиқлайдиган ҳужжат.

2. Транспорт юк хати – юкни жўнатувчи, ташувчи ва олувчи ўртасидаги муносабатларни тартибга соладиган асосий ташиш ҳужжати. Юк хати юкнинг номи, ўринлар сони, жўнатиш ва тайинланган пунктлар, жўнатувчи ва олувчи, ташишга қабул қилинган сана тўғрисидаги маълумотларни ичига олади.

Накладные расходы

uz - qo‘shimcha xarajatlar

қўшимча харажатлар

en - overhead costs

Расходы (затраты), сопровождающие, сопутствующие основному производству, связанные с ним. Это затраты на содержание и эксплуатацию основных средств, на управление, организацию, обслуживание производства, на командировки, обучение работников и так называемые непроизводительные расходы (потери от простоев, порчи материальных ценностей и др.)

Asosiy ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan, unga ilova qilinadigan, qo‘shilib ketadigan xarajatlar (sarflar). Bu asosiy vositalardan foydalanishga va ularni tutib turishga, ishlab chiqarishni boshqarishga, tashkil qilishga, unga xizmat ko‘rsatishga, xizmat safarlariga, xodimlarni o‘qitishga qilinadigan xarajatlar va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan sarflardir (turib qolishlar tufayli yo‘qotishlar, moddiy boyliklarning buzilishi va boshqalar).

Асосий ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган, унга илова қилинадиган, қўшилиб кетадиган харажатлар (сарфлар). Бу асосий воситалардан фойдаланишга ва уларни тутиб туришга, ишлаб чиқаришни бошқаришга, ташкил қилишга, унга хизмат кўрсатишга, хизмат сафарларига, ходимларни ўқитишга қилинадиган харажатлар ва ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлмаган сарфлардир (туриб қолишлар туфайли йўқотишлар, моддий бойликларнинг бузилиши ва бошқалар).

Накопление

uz - jamg‘arma

жамғарма

en - accumulation

Откладывание части дохода на будущие нужды, увеличение запасов материалов, имущества, наращивание капитала, основных средств государством, предприятиями, предпринимателями, домашними хозяйствами. Накопление является ос-

Н

новным источником инвестиций.

Daromadning bir qismini kelgusidagi ehtiyojlarga olib qo'yish, davlat, korxonalar, tadbirkorlar, uy xo'jaliklari tomonidan asosiy vositalarning, kapitalning ko'paytirilishi, mulk, materiallar zaxiralarning oshirilishi. Jamg'arma investitsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi.

Даромаднинг бир қисмини келгусидаги эҳтиёжларга олиб қўйиш, давлат, корхоналар, тadbirkorлар, уй хўжаликлари томонидан асосий воситаларнинг, капиталнинг кўпайтирилиши, мулк, материаллар захираларининг оширилиши. Жамғарма инвестицияларнинг асосий манбаи ҳисобланади.

Наличные средства

uz - naqd mablag'lar

нақд маблағлар

en - cash resources

1. Денежные средства в виде бумажных денег и монет, денежных знаков, а также денег, находящихся на банковских счетах до востребования.

2. Переходный остаток денежных средств предприятия; финансовые средства, предназначенные для расходов, но не израсходованные.

1. Qog'oz pullar va tangalar, pul belgilari, shuningdek, talab qilib olinadigan bank hisobraqamlaridagi pullar ko'rinishidagi pul mablag'lari.

2. Korxonada pul mablag'larining ko'chadigan qoldig'i; xarajatlar uchun mo'ljallangan, lekin sarflanmagan moliyaviy mablag'lar.

1. Қоғоз пуллар ва тангалар, пул белгилари, шунингдек, талаб қилиб олинадиган банк ҳисобрақамларидаги пуллар кўринишидаги пул маблағлари.

2. Корхона пул маблағларининг кўчадиган қолдиғи; харажатлар учун мўлжалланган, лекин сарфланмаган молиявий маблағлар.

Налог на добавленную стоимость, НДС

uz - qo'shilgan qiymat

solig'i, QQS

қўшилган қиймат

солиғи, ҚҚС

en - value-added tax, VAT

Взимаемый с предприятий налог на сумму прироста стоимости на данном предприятии, исчисляемую в виде разности между выручкой от реализации товаров и услуг и суммой затрат на сырье, материалы, полуфабрикаты, полученные от других производителей.

Н

Korxonalardan, ushbu korxonada tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushum bilan boshqa ishlab chiqaruvchilardan olingan xomashyo, materiallar, yarimfabrikatlarga qilingan sarflar summasi oʻrtasidagi farq koʻrinishida hisoblanadigan qiymatning oshishi summasidan olinadigan soliq.

Корхоналардан, ушбу корхонада товарлар ва хизматларни сотишдан олинган тушум билан бошқа ишлаб чиқарувчилардан олинган хомашё, материаллар, яримфабрикатларга қилинган сарфлар суммаси ўртасидаги фарқ кўринишида ҳисобланадиган қийматнинг ошиши суммасидан олинадиган солиқ.

Налог на доходы физических лиц

uz - jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq

жисмоний шахсларнинг даромадларидан олинадиган солиқ

en - personal income tax

Налог, которым облагается сумма совокупного дохода физических лиц в денежном исчислении за истекший год. Относится к числу прогрессивных налогов.

Jismoniy shaxslarning oʻtgan yil ichidagi pulda hisoblangan jami daromadi summasidan olinadigan soliq. Progressiv (oshib boradigan) soliqlar qatoriga kiradi.

Жисмоний шахсларнинг ўтган йил ичидаги пулда ҳисобланган жами даромади суммасидан олинадиган солиқ. Прогрессив (ошиб борадиган) солиқлар қаторига киради.

Налог на имущество

uz - mulk soligʻi

мулк солиғи

en - property tax

Налог на недвижимость (землю и здания) и наличную имущественную собственность, которым могут облагаться юридические и физические лица.

Yuridik va jismoniy shaxslardan koʻchmas mulk (yer, binolar) va mavjud mulkdan olinadigan soliq.

Юридик ва жисмоний шахслардан кўчмас мулк (ер, бинолар) ва мавжуд мулkdан олинадиган солиқ.

Н

Налог с оборота

uz - aylanma soliq, oborot solig'i

айланма солиқ, оборот солиғи

en - purchase tax

Налог в виде процента от цены произведенных внутри страны, а иногда и импортных товаров, взимаемый в государственный бюджет по мере торговой реализации этих товаров. Разновидностью налога с оборота стал налог на добавленную стоимость.

Mamlakat ichida ishlab chiqarilgan, ba'zan esa, import tovarlar bahosidan foiz ko'rinishida, bu tovarlar savdoda sotilishiga qarab davlat byudjetiga olinadigan soliq. Qo'shilgan qiymat solig'i oborot solig'ining bir ko'rinishidir.

Мамлакат ичида ишлаб чиқарилган, баъзан эса, импорт товарлар баҳосидан фоиз кўринишида, бу товарлар савдода сотилишига қараб давлат бюджетига олинадиган солиқ. Қўшилган қиймат солиғи оборот солиғининг бир кўринишидир.

Налоги

uz - soliqlar

солиқлар

en - tax

Обязательные платежи, взимаемые центральными и местными органами государственной власти с физических и юридических лиц; основной источник средств, поступающих в государственный бюджет. Налоги служат одним из средств регулирования экономических процессов, хозяйственной жизни. По виду объектов налогообложения налоги делятся на прямые, взимаемые непосредственно с дохода (например, налог на прибыль), и косвенные – в виде надбавок к цене товаров и услуг (акцизные сборы, налог с продаж, частично налог на добавленную стоимость).

Markaziy va mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan, jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladigan majburiy to'lovlar. Soliqlar iqtisodiy jarayonlarni, xo'jalik hayotini boshqarish vositalaridan biri hisoblanadi. Soliqqa tortish obyektlarining turiga qarab soliqlar, bevosita daromaddan olinadigan to'g'ri soliqlarga (masalan, daromad solig'i) va tovarlar hamda xizmatlar bahosiga ustama ko'rinishidagi egri soliqlarga (aksiz yig'implari, sotishdan olinadigan, qisman qo'shilgan qiymat solig'i) bo'lindi.

Н

Марказий ва маҳаллий давлат ҳокимият органлари томонидан, жисмоний ва юридик шахслардан ундириладиган мажбурий тўловлар. Солиқлар иқтисодий жараёнларни, хўжалик ҳаётини бошқариш воситаларидан бири ҳисобланади. Солиққа тортиш объектларининг турига қараб солиқлар, бевосита даромаддан олинадиган тўғри солиқларга (масалан, даромад солиғи) ва товарлар ҳамда хизматлар баҳосига устама кўринишидаги эгри солиқларга (акциз йиғимлари, сотишдан олинадиган, қисман кўшилган қиймат солиғи) бўлинади.

Налоговая декларация

uz - soliq deklaratsiyasi

солиқ декларацияси

en - tax declaration

Официальное заявление налогоплательщика о полученных им подлежащих налогообложению доходах за определенный период времени и распространяющихся на них налоговых скидках и льготах. Налоговые декларации служат одной из форм установления величины подлежащего уплате налога и контроля за уплатой налогов со стороны налоговых органов.

Soliq to'lovchining, muayyan vaqt davri ichida olingan, soliqqa tortilishi lozim bo'lgan daromadlari va ularga tatbiq qilinadigan soliq imtiyozlari va chegirmalari to'g'risidagi rasmiy arizasi. Soliq deklaratsiyalari to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdorini belgilash hamda soliq idoralari tomonidan soliqlar to'lanishi ustidan nazorat olib borish shakllaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Солиқ тўловчининг, муайян вақт даври ичида олинган, солиққа тортилиши лозим бўлган даромадлари ва уларга татбиқ қилинадиган солиқ имтиёзлари ва чегирмалари тўғрисидаги расмий аризаси. Солиқ декларациялари тўланиши лозим бўлган солиқ миқдорини белгилаш ҳамда солиқ идоралари томонидан солиқлар тўланиши устидан назорат олиб бориш шаклларида бири бўлиб хизмат қилади.

Налоговая инспекция

uz - soliq inspeksiyasi

солиқ инспекцияси

en - tax inspectorate

Государственные органы, призванные следить за своевременной и полной уплатой налогов, применять меры наказания к лицам, уклоняющимся от уплаты налогов, способствовать нормальному

Н

функционированию налоговой системы, вести налоговую документацию.

Soliqlar o‘z vaqtida, to‘liq to‘lanishi ustidan nazorat olib borish, soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaydigan shaxslarga nisbatan jazo choralari qo‘llash, soliq tizimi normal ishlashiga ko‘maklashish, soliq hujjatlarini yuritish vazifasi yuklatilgan davlat idoralari.

Солиқлар ўз вақтида, тўлиқ тўланиши устидан назорат олиб бориш, солиқларни тўлашдан бўйин товлайдиган шахсларга нисбатан жазо чораларини қўллаш, солиқ тизими нормал ишлашига кўмаклашиш, солиқ ҳужжатларини юритиш вазифаси юклатилган давлат идоралари.

Налоговая политика

uz - soliq siyosati
солиқ сиёсати
en - taxation policy

Система мер, проводимых государством в области налогов и налогообложения. Включает установление круга налогоплательщиков и объектов налогообложения, видов применяемых налогов, величин налоговых ставок и налоговых льгот.

Davlat tomonidan soliqlar va soliqqa tortish sohasida olib boriladigan chora-tadbirlar tizimi. Soliq to‘lovchilar va soliqqa tortish obyektlari doirasini, qo‘llaniladigan soliqlar turini, soliq stavkalari va soliq imtiyozlari miqdorini ichiga oladi.

Давлат томонидан солиқлар ва солиққа тортиш соҳасида олиб бориладиган чора-тадбирлар тизими. Солиқ тўловчилар ва солиққа тортиш объектлари доирасини, қўлланиладиган солиқлар турини, солиқ ставкалари ва солиқ имтиёзлари миқдорини ичига олади.

Налоговая система

uz - soliq tizimi
солиқ тизими
en - tax system

Совокупность взаимосвязанных налогов, взимаемых в стране, форм и методов налогообложения, сбора и использования налогов, а также налоговых органов.

Mamlakatda undiriladigan o‘zaro bog‘liq soliqlar, soliqqa tortish shakllari va usullari, soliqlarni yig‘ish va ulardan foydalanish, shuningdek, soliq idoralari jami.

Н

Мамлакатда ундириладиган ўзаро боғлиқ солиқлар, солиққа тортиш шакллари ва усуллари, солиқларни йиғиш ва улардан фойдаланиш, шунингдек, солиқ идоралари жами.

Налоговая ставка

uz - soliq stavkasi

солиқ ставкаси

en - tax rate

Величина налога в расчете на единицу налогообложения. Если налог взимается с доходов в денежной форме, то налоговая ставка устанавливается в виде процента с облагаемого налогом дохода. Налоговые ставки могут также устанавливаться в виде денежной суммы, приходящейся на один объект налогообложения (например, налог на транспортное средство) или на показатель, характеризующий этот объект (единица земельной площади, кубический сантиметр объема двигательной установки).

Soliqqa tortish birligiga hisoblangan soliq miqdori. Agar, soliq daromadlardan pul shaklida olinsa, soliq stavkasi soliqqa tortiladigan daromaddan foiz ko'rinishida belgilanadi. Soliq stavkalari, shuningdek, bitta soliqqa tortish obyektiga yoki bu obyektни tavsiflaydigan ko'rsatkichga (yer maydoni birligi, dvigatel qurilmasi hajmining kub santimetri) to'g'ri keladigan pul summasi ko'rinishida ham belgilanadi.

Солиққа тортиш бирлигига ҳисобланган солиқ миқдори. Агар, солиқ даромадлардан пул шаклида олинса, солиқ ставкаси солиққа тортиладиган даромаддан фоиз кўринишида белгиланади. Солиқ ставкалари, шунингдек, битта солиққа тортиш объектига ёки бу объектни тавсифлайдиган кўрсаткичга (ер майдони бирлиги, двигатель қурилмаси ҳажмининг куб сантиметри) тўғри келадиган пул суммаси кўринишида ҳам белгиланади.

Налоговое регулирование

uz - soliq orqali tartibga solish

солиқ орқали тартибга

солиш

en - tax regulation

Меры косвенного воздействия государства на экономические и социальные процессы путем изменения вида налогов, налоговых ставок, установления налоговых льгот, понижения или повышения общего уровня налогообложения, отчислений в бюджет.

Н

Davlatning soliqlar turini, soliq stavkalarini o'zgartirish, soliq imtiyozlarini belgilash, soliqqa tortishning umumiy darajasini oshirish yoki pasaytirish, byudjetga ajratishlar yo'li bilan, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga bilvosita ta'sir etish chora-tadbirlari.

Давлатнинг солиқлар турини, солиқ ставкаларини ўзгартириш, солиқ имтиёзларини белгилаш, солиққа тортишнинг умумий даражасини ошириш ёки пасайтириш, бюджетга ажратишлар йўли билан, иқтисодий ва ижтимоий жараёнларга билвосита таъсир этиш чора-тадбирлари.

Налоговое бремя

uz - soliq yuki

солиқ юки

en - tax burden

Мера, степень, уровень экономических трудностей, ограничений, налагаемых на налогоплательщиков, вызванных отчислением средств на уплату налогов, отвлечением их от других возможных направлений использования.

Soliq to'lovchilarga yuklanadigan, soliqlarni to'lashga mablag'lar ajratish, ularning mumkin bo'lgan boshqa foydalanish yo'nalishlariga jalb qilinishi tufayli yuzaga keladigan iqtisodiy qiyinchiliklar, cheklashlar me'yori, darajasi, o'lchovi.

Солиқ тўловчиларга юкланадиган, солиқларни тўлашга маблағлар ажратиш, уларнинг mumkin bo'lgan бoшқа фойдаланиш йўналишларига жалб қилиниши туфайли юзага келадиган иқтисодий қийинчиликлар, чеклашлар меъёри, даражаси, ўлчови.

Налоговое

законодательство

uz - soliq qonunchiligi

солиқ қонунчилиги

en - tax laws

Совокупность правовых норм, устанавливающих виды налогов, действующих в стране, налоговые ставки, порядок взимания налогов, налоговые льготы. Налоговое законодательство регулирует отношения, связанные с возникновением, изменением и прекращением налоговых обязательств, устанавливает налоговые санкции.

Mamlakatda amal qiladigan soliq turlarini, soliq stavkalarini, soliqlarni undirish tartibini, soliq imtiyozlarini belgilaydigan huquqiy normalar jami. Soliq qonunchiligi soliq majburiyatlari yuzaga kelishi, o'zgarishi va to'xtalishi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi, soliq sanksiyalarini belgilaydi.

Н

Мамлакатда амал қиладиган солиқ турларини, солиқ ставкаларини, солиқларни ундириш тартибини, солиқ имтиёзларини белгилайдиган ҳуқуқий нормалар жами. Солиқ қонунчилиги солиқ мажбуриятлари юзага келиши, ўзгариши ва тўхталиши билан боғлиқ муносабатларни тартибга солади, солиқ санкцияларини белгилайди.

Налоговые льготы

uz - soliq imtiyozlari
солиқ имтиёзлари
en - tax advantages

Частичное или полное освобождение определенного круга физических и юридических лиц от уплаты налогов.

Jismoniy va yuridik shaxslarning muayyan doirasini soliqlar to‘lashdan qisman yoki to‘liq ozod etish.

Жисмоний ва юридик шахсларнинг муайян доирасини солиқлар тўлашдан қисман ёки тўлиқ озод этиш.

Налоговый агент

uz - soliq agenti
солиқ агенти
en - tax agent

Лицо, на которое в соответствии с Налоговым кодексом возложены обязанности по исчислению, удержанию у налогоплательщика и перечислению в бюджет и государственные целевые фонды налогов и других обязательных платежей.

Soliq kodeksiga muvofiq, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish, byudjetga va davlat maqsadli fondlariga o‘tkazish vazifalari yuklatilgan shaxs.

Солиқ кодексига мувофиқ, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни ҳисоблаб чиқариш, солиқ тўловчидан ушлаб қолиш, бюджетга ва давлат мақсадли фондларига ўтказиш вазифалари юклатилган шахс.

Налогооблагаемая база

uz - soliqqa tortiladigan baza
солиққа тортиладиган база
en - taxable base

Общий объем доходов, имущества, с которых взимается налог.

Soliq olinadigan daromadlar, mulkning umumiy hajmi.

Солиқ олинадиган даромадлар, мулкнинг умумий ҳажми.

Н

Налогоплательщики

uz - soliq to'lovchilar
солиқ тўловчилар
en - taxpayers

Наложный платеж

uz - ko'rsatilgan haq
кўрсатилган ҳақ
en - payment forward

Наниматель имущества

uz - mulkni ijaraga oluvchi
мулкни ижарага олувчи
en - tenant of property

Юридические и физические лица, которые в соответствии с законом обязаны уплачивать налоги.

Qonunga muvofiq, soliqlarni to'lashlari shart bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar.

Қонунга мувофиқ, солиқларни тўлашлари шарт бўлган жисмоний ва юридик шахслар.

Способ расчетов, при котором отправитель, высылающий товар, поручает транспортной организации или почте выдать товар адресату только после оплаты объявленной стоимости, поступающей затем отправителю. В противном случае товар возвращается отправителю.

Hisob-kitoblar usuli bo'lib, bunda tovarni jo'natadigan jo'natuvchi transport tashkilotiga yoki pochtaga tovarni oluvchiga faqat, keyin jo'natuvchiga borib tushadigan e'lon qilingan qiymat to'langandan so'ng berishni topshiradi. Aks holda, tovar jo'natuvchiga qaytariladi.

Ҳисоб-китоблар усули бўлиб, бунда товарни жўнатадиган жўнатувчи транспорт ташкилотига ёки почтага товарни олувчига фақат, кейин жўнатувчига бориб тушадиган эълон қилинган қиймат тўлангандан сўнг беришни топширади. Акс ҳолда, товар жўнатувчига қайтарилади.

Участник договора о найме имущества, приобретающий право владения и пользования им на определенный срок за плату и в соответствии с установленными в договоре правилами.

Mulkni ijaraga olish to'g'risidagi shartnomaning, haq evaziga va shartnomada belgilangan qoidalarga muvofiq, bu mulkdan ma'lum bir muddat foydalanish hamda unga egalik qilish huquqini oladigan qatnashchisi.

Мулкни ижарага олиш тўғрисидаги шартнома-нинг, ҳақ эвазига ва шартномада белгиланган қоидаларга мувофиқ, бу мулкдан маълум бир муддат фойдаланиш ҳамда унга эгалик қилиш ҳуқуқини оладиган қатнашчиси.

Н

Народное хозяйство

uz - xalq xo‘jaligi

халқ хўжалиги

en - national economy

Наряд

uz - naryad

наряд

en - order

Натуральное хозяйство

uz - natural xo‘jalik

натурал хўжалик

en - natural economy

Натуральные показатели

uz - natural ko‘rsatkichlar

натурал кўрсаткичлар

en - physical indicators

Экономика, хозяйство всей страны.

Butun mamlakat iqtisodiyoti, xo‘jaligi.

Бутун мамлакат иқтисодиёти, хўжалиги.

Документ, которым устанавливается производственное задание непосредственным исполнителям (рабочему, звену или бригаде работников).

Bevosita bajaruvchilarga (ishchiga, ishchilar brigadasiga yoki zvenosiga) ishlab chiqarish topshirig‘i belgilanadigan hujjat.

Бевосита бажарувчиларга (ишчига, ишчилар бригадасига ёки звеносига) ишлаб чиқариш топшириғи белгиланадиган хужжат.

Хозяйство, удовлетворяющее свои потребности за счет собственного производства.

O‘zining ehtiyojlarini shaxsiy ishlab chiqarish hisobiga qondiradigan xo‘jalik.

Ўзининг эҳтиёжларини шахсий ишлаб чиқариш ҳисобига қондирадиган хўжалик.

Показатели экономической деятельности, производства и потребления домашних хозяйств, предприятий, государства, выраженные в физических единицах количества, веса, длины, площади, объема (в отличие от стоимостных показателей, выражаемых в денежной форме).

Miqdor, og‘irlik, uzunlik, maydon, hajm fizik birliklarida ifodalangan, uy xo‘jaligi, korxonalar, davlat iqtisodiy faoliyati ishlab chiqarish va iste’mol ko‘rsatkichlari (pul shaklida ifodalanadigan qiymat ko‘rsatkichlardan farqli ravishda).

Миқдор, оғирлик, узунлик, майдон, ҳажм физик бирликларида ифодаланган, уй хўжалиги, корхоналар, давлат иқтисодий фаолияти ишлаб чиқариш ва истеъмол кўрсаткичлари (пул шаклида ифодаланадиган қиймат кўрсаткичлардан фарқли равишда).

Н

Наукоемкие отрасли

uz - tadqiqot talab tarmoqlar

тадқиқот талаб

тармоқлар

en - knowledge intensive industries

Отрасли экономики, выпускающие продукцию, выполняющие работы и услуги с использованием последних достижений науки и техники.

Fan va texnikaning soʻnggi yutuqlaridan foydalan-gan holda ishlar, xizmatlarni bajaradigan, mahsulot chiqaradigan iqtisodiyot tarmoqlari.

Фан ва техниканинг сўнгни ютуқларидан фойда-ланган ҳолда ишлар, хизматларни бажарадиган, маҳсулот чиқарадиган иқтисодиёт тармоқлари.

Научно-технический

прогресс

uz - ilmiy-texnik taraqqiyot

илмий-техник тараққиёт

en - scientific-technological progress

Возникновение передовых достижений науки, техники и технологии и их внедрение в производство с целью повышения его эффективности и качества выпускаемой продукции. В современной экономической теории носит название инновационного процесса.

Fan, texnika va texnologiyalar ilgʻor yutuqlarining yuzaga kelishi hamda ishlab chiqarish samarador-ligini va chiqariladigan mahsulot sifatini oshirish maqsadida, ularning ishlab chiqarishga joriy qilini-shi. Hozirgi iqtisodiyot nazariyasida innovatsion jarayon nomini olgan.

Фан, техника ва технологиялар илғор ютуқлари-нинг юзага келиши ҳамда ишлаб чиқариш самарадорлигини ва чиқариладиган маҳсулот сифа-тини ошириш мақсадида, уларнинг ишлаб чиқар-ишга жорий қилиниши. Ҳозирги иқтисодиёт назариясида инновацион жараён номини олган.

Национализация

uz - natsionalizatsiya qilish

национализация қилиш

en - nationalization

Отчуждение или передача имущества частных лиц в собственность государства. Национализа-ция может осуществляться на основе государ-ственных актов или выкупа государством иму-щества, реальных или финансовых активов ком-паний, фирм, домашних хозяйств.

Xususiy shaxslarning mulkini davlat ixtiyoriga beri-lishi yoki oʻtkazilishi. Natsionalizatsiya qilish davlat aktlari yoki davlat tomonidan kompaniyalar, firma-lar, uy xoʻjaliklari mulkining, real yoki moliyaviy aktivlarining sotib olinishi asosida amalga oshiri-lishi mumkin.

Н

Хусусий шахсларнинг мулкни давлат ихтиёрига берилиши ёки ўтказилиши. Национализация қилиш давлат актлари ёки давлат томонидан компаниялар, фирмалар, уй хўжаликлари мулкнинг, реал ёки молиявий активларининг сотиб олинishi асосида амалга оширилиши мумкин.

Национальное богатство

uz - milliy boylik

миллий бойлик

en - national wealth

Совокупность природных ресурсов, созданных средств производства, благ и ценностей, которыми располагает страна. Национальное богатство исчисляется в денежном выражении.

Mamlakat ega bo'lgan tabiiy resurslar, yaratilgan ishlab chiqarish vositalari, boyliklar va ne'matlar. Milliy boylik pul ko'rinishida hisoblanadi.

Мамлакат эга бўлган табиий ресурслар, яратилган ишлаб чиқариш воситалари, бойликлар ва неъматлар. Миллий бойлик пул кўринишида ҳисобланади.

Национальный доход

uz - milliy daromad

миллий даромад

en - national income

Исчисленная в денежном выражении стоимость вновь созданного в стране в течение года совокупного продукта; равен валовому национальному продукту за вычетом амортизационных отчислений (износа основных средств) и косвенных налогов.

Mamlakatda yil mobaynida yangidan yaratilgan jami mahsulotning pul ko'rinishida hisoblangan qiymati; amortizatsiya ajratmalari (asosiy vositalar eskirishi) va egri soliqlar chiqarib tashlangan yalpi milliy mahsulotga teng.

Мамлакатда йил мобайнида янгидан яратилган жами маҳсулотнинг пул кўринишида ҳисобланган қиймати; амортизация ажратмалари (асосий воситалар эскириши) ва эгри солиқлар чиқариб ташланган ялпи миллий маҳсулотга тенг.

Недвижимость

uz - ko'chmas mulk

кўчмас мулк

en - real property

Земельные угодья, другое имущество, прикрепленное к земле и прочно связанное с ней (здания, сооружения). К недвижимости относятся также вещные права на землю.

Yer mulklar, yerga birlashtirilgan va u bilan mustahkam bog'langan boshqa mulk (binolar, inshootlar).

Н

Ko‘chmas mulkka, shuningdek, yerga bo‘lgan mulkiy huquqlar ham kiradi.

Ер мулклар, ерга бириктирилган ва у билан мустақкам боғланган бошқа мулк (бинолар, иншоотлар). Кўчмас мулкка, шунингдек, ерга бўлган мулккий ҳуқуқлар ҳам киради.

Недоимка

uz - to‘lanmay qolgan qarz,
boqimanda

тўланмай қолган қарз,
боқиманда

en - arrears

Часть обязательного платежа, налога, не доведенная плательщиком в установленный срок.

To‘lovchi tomonidan belgilangan muddatda to‘lanmay qolgan soliq, majburiy to‘lovning bir qismi.

Тўловчи томонидан белгиланган муддатда тўланмай қолган солиқ, мажбурий тўловнинг бир қисми.

Недостача

uz - kamomad

камомад

en - shortage

Обнаруженная фактическая нехватка денежных, товарных и иных ценностей, зафиксированная в установленном порядке при их приемке или по результатам инвентаризации.

Inventarlash natijalari bo‘yicha yoki qabul qilib olish paytida belgilangan tartibda qayd etilgan, pul, tovar va boshqa boyliklarning haqiqatda aniqlangan yetishmasligi.

Инвентарлаш натижалари бўйича ёки қабул қилиб олиш пайтида белгиланган тартибда қайд этилган, пул, товар ва бошқа бойликларнинг ҳақиқатда аниқланган етишмаслиги.

Нежилое строение

uz - odam turmaydigan bino

одам турмайдиган бино

en - nonresidential building

Отдельная постройка, предназначенная для использования в качестве складского, производственного, торгового, коммунально-бытового, офисного помещения.

Ofis, kommunal xo‘jalik, savdo, ishlab chiqarish binosi, omborxona sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan alohida imorat.

Офис, коммунал хўжалик, савдо, ишлаб чиқариш биноси, омборхона сифатида фойдаланиш учун мўлжалланган алоҳида иморат.

Н

Неликвиды

uz - nolikvidlar

ноликвидлар

en - unmarketable products

Излишние или ненужные предприятию материальные ценности, а также готовые изделия, которые не удалось реализовать.

Korxonaga kerakli bo‘lmagan yoki ortiqcha moddiy boyliklar, shuningdek, sotilmay qolgan tayyor mahsulotlar.

Korxonaga kerakli bo‘lmagan e‘ki ortiqcha moddiy boyliklar, shuningdek, sotilmay qolgan tayyor mahsulotlar.

Нематериальные активы

uz - nomoddiy aktivlar

номоддий активлар

en - intangible asset

Принадлежащие предприятиям и организациям ценные бумаги, патенты, арендные права, технологические и технические новшества, другие объекты интеллектуальной собственности.

Korxonalar va tashkilotlarga tegishli bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar, patentlar, ijara huquqlari, texnologik va texnik yangiliklar, intellektual mulkning boshqa obyektlari.

Korxonalar va tashkilotlarga tegishli bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar, patentlar, ijara huquqlari, texnologik va texnik yangiliklar, intellektual mulkning boshqa obyektlari.

Неплатежеспособность

uz - to‘lashga qurbi yetmaslik

тўлашга қурби етмаслик

en - insolvency

Потеря физическим, юридическим лицом способности своевременно и полностью выполнять свои финансовые обязательства, обусловленная их валютно-финансовым положением, отсутствием свободных средств, дефицитностью бюджета и платежного баланса.

Jismoniy, yuridik shaxs tomonidan, ularning moliya-valyuta holati, bo‘sh mablag‘larning bo‘lmasligi, byudjet va to‘lov balansi defitsitlili bilan bog‘langan, o‘zlarining moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida, to‘liq bajarish qobiliyatining yo‘qotilishi.

Jismoniy, yuridik shaxs tomonidan, ularning moliya-valyuta holati, bo‘sh mablag‘larning bo‘lmasligi, byudjet va to‘lov balansi defitsitlili bilan bog‘langan, o‘zlarining moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida, to‘liq bajarish qobiliyatining yo‘qotilishi.

Н

Непроизводственная сфера

uz - noishlab chiqarish tarmogʻi

ноишлаб чиқариш

тармоғи

en - nonmaterial sphere

Условное название отраслей и видов деятельности, не составляющих материальное производство.

Moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilmaydigan tarmoqlar va faoliyat turlarining shartli nomi.

Моддий ишлаб чиқаришни ташкил қил-майди-ган тармоқлар ва фаолият турларининг шартли номи.

Непроизводственные затраты

uz - noishlab chiqarish xarajatlari

ноишлаб чиқариш

харажатлари

en - nonmanufacturing costs

Затраты, несвязанные непосредственным образом с производством, например, затраты на обучение сотрудников.

Bevosita tarzda ishlab chiqarish bilan bogʻlanmagan xarajatlar, masalan, xodimlarni oʻqitishga qilinadigan xarajatlar.

Бевосита тарзда ишлаб чиқариш билан боғлан-маган харажатлар, масалан, ходимларни ўқи-тишга қилинадиган харажатлар.

Нераспределенная прибыль

uz - taqsimlanmanga foyda

тақсимланмаган фойда

en - retained earnings

Полученная акционерным обществом прибыль, которая не распределяется среди держателей акций в качестве дивидендов.

Aksiyadorlar jamiyati tomonidan olingan, dividend sifatida aksiyalarning egalari oʻrtasida taqsimlanmaydigan foyda.

Акциядорлар жамияти томонидан олинган, дивиденд сифатида акцияларнинг эгалари ўртасида тақсимланмайдиган фойда.

Нерезидент

uz - norezident

норезидент

en - non-resident

1. Юридическое лицо, фирма, действующая в данной стране, незарегистрированная в другойю
2. Физическое лицо, гражданин, работающий, получающий доходы в одной стране, но постоянно проживающий в другой.

3. Иностранные юридические и физические лица, а также лица данной страны и лица без гражданства, постоянно проживающие за границей и действующие на основе законодательства страны пребывания.

Н

1. Boshqa mamlakatda ro'yxatga olinmagan, shu mamlakatda ish ko'radigan yuridik shaxs, firma.
2. Daromadni bir mamlakatda oladigan, lekin boshqa mamlakatda doimiy yashaydigan jismoniy shaxs, fuqaro.
3. Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, chet elda doimiy yashovchi hamda o'zlari bo'lgan mamlakat qonunchiligi asosida ish ko'radigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va ushbu mamlakat shaxslari.

1. Бошқа мамлакатда рўйхатга олинмаган, шу мамлакатда иш кўрадиган юридик шахс, фирма.
2. Даромадни бир мамлакатда оладиган, лекин бошқа мамлакатда доимий яшайдиган жисмоний шахс, фуқаро.
3. Чет эллик юридик ва жисмоний шахслар, шунингдек, чет элда доимий яшовчи ҳамда ўзлари бўлган мамлакат қонунчилиги асосида иш кўрадиган фуқаролиги бўлмаган шахслар ва ушбу мамлакат шахслари.

Неструктурированное наблюдение

uz - strukturalanmagan kuzatish

структураланмаган кузатиш

en - unstructured observation

Наблюдение, которое предусматривает регистрацию всех событий, связанных с объектом наблюдения, без их предварительного уточнения.

Oldindan aniqlashtirmay turib, kuzatish obyeki bilan bog'liq bo'lgan barcha voqea-hodisalarni qayd etish ko'zda tutiladigan kuzatish.

Олдиндан аниқлаштирмай туриб, кузатиш объекти билан боғлиқ бўлган барча воқеа-ҳодисаларни қайд этиш кўзда тутиладиган кузатиш.

Нетарифные ограничения

uz - notarif cheklovlar

нотариф чекловлар

en - nontariff restrictions

Экономические и административные способы регулирования внешней торговли, отличающиеся от таможенных тарифов; прямые, непосредственные ограничения ввоза и вывоза.

Bojxona tariflaridan farq qiladigan, tashqi savdoni tartibga solishning iqtisodiy va ma'muriy usullari; chetdan mol olib kirish va chetga mol chiqarishni to'g'ridan-to'g'ri, bevosita cheklashlar.

Н

Божхона тарифларидан фарқ қиладиган, ташқи савдони тартибга солишнинг иқтисодий ва маъмурий усуллари; четдан мол олиб кириш ва четга мол чиқаришни тўғридан-тўғри, бевосита чеклашлар.

Нетрудоспособность

uz - mehnat qilishga qobiliyatsizlik

меҳнат қилишга қобилиятсизлик

en - disablement

Невозможность осуществлять постоянную трудовую деятельность в связи с состоянием здоровья, инвалидностью, преклонным возрастом. Различают временную, частичную и полную нетрудоспособность.

Salomatlikning holati, nogironlik, keksa yoshda bo‘lishlik sababli, doimiy mehnat faoliyatini amalga oshirishning mumkin bo‘lmasligi. Vaqtinchalik, qisman va to‘la mehnat qilishga qobiliyatsizlik ajratiladi.

Саломатликнинг ҳолати, ногиронлик, кекса ёшда бўлишлик сабабли, доимий меҳнат фаолиятини амалга оширишнинг мумкин бўлмаслиги. Вақтинчалик, қисман ва тўла меҳнат қилишга қобилиятсизлик ажратилади.

Нетто

uz - netto

нетто

en - net

Чистая масса (вес) товара без упаковки, чистая цена товара за вычетом скидок, чистый доход за вычетом расходов.

Tovarning o‘ramsiz sof massasi (og‘irligi), tovarning chegirmalar chiqarib tashlangandan keyingi haqiqiy bahosi, xarajatlar chiqarib tashlangandan keyingi sof foyda.

Товарнинг ўрамсиз соф массаси (оғирлиги), товарнинг чегирмалар чиқариб ташлангандан кейинги ҳақиқий баҳоси, харажатлар чиқариб ташлангандан кейинги соф фойда.

Неустойка

uz - jarima

жарима

en - penalty

Сумма штрафа, который должник обязан уплатить кредитору в случае ненадлежащего исполнения им договорных обязательств или обязательств, вытекающих из требования законов.

Qarzdor shartnoma majburiyatlarini yoki qonunlar talablaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni zarur darajada bajarmagan holda, qarz beruvchiga to‘lashi shart bo‘lgan jarima summasi.

Н

Неценовые факторы спроса и предложения

uz - talab va taklifning
bahodan boshqa omillari

талаб ва таклифнинг
баҳодан бошқа омиллари

en - nonprice factors of
demand and supply

Қарздор шартнома мажбуриятларини ёки қонунлар талабларидан келиб чиқадиган мажбуриятларни зарур даражада бажармаган ҳолда, қарз берувчига тўлаши шарт бўлган жарима суммаси.

Факторы, кроме цен, влияющие на спрос и предложение товаров на рынке. К неценовым факторам относят доходы покупателей, моду, наличие на рынке взаимодополняющих и взаимозаменяющих товаров, запасы и ряд других факторов, в том числе психологических.

Bahodan tashqari, bozorda tovarlarning talab va taklifiga ta'sir qiladigan omillar. Bahodan boshqa omillarga xaridorlarning daromadlari, moda, bozorda bir-birini to'ldiradigan va o'rnini bosadigan tovarlar, zaxiralarning mavjudligi va qator boshqa omillar, shu jumladan, psixologik omillar kiradi.

Баҳодан ташқари, бозорда товарларнинг талаб ва таклифига таъсир қиладиган омиллар. Баҳодан бошқа омилларга харидорларнинг даромадлари, мода, бозорда бир-бирини тўлдирадиган ва ўрнини босадиган товарлар, захираларнинг мавжудлиги ва қатор бошқа омиллар, шу жумладан, психологик омиллар киради.

Нецентрализованные источники

uz - markazlashtirilmagan
manbalar

марказлаштирилмаган
манбалар

en - noncentralized sources

Источники ресурсов, прежде всего капитальных вложений, не связанные с использованием государственных централизованных средств.

Resurslarning, birinchi navbatda kapital qo'yilmalarning, davlatning markazlashtirilmagan mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq bo'lmagan manbalari.

Ресурсларнинг, биринчи навбатда капитал қўйилмаларнинг, давлатнинг марказлаштирилмаган маблағларидан фойдаланиш билан боғлиқ бўлмаган манбалари.

Неэластичное предложение

uz - noegiluvchan taklif

ноэгиловчан таклиф

en - inelastic supply

Рыночная ситуация, при которой величина предложения товара слабо реагирует на изменение цены товара.

Bozordagi vaziyat, bunda tovarni taklif qilish katta taligi tovar bahosi o'zgarishiga bo'sh javob beradi.

Н

Неэластичный спрос

uz - noegiluvchan talab

ноэгилювчан талаб

en - inelastic demand

Бозордаги вазият, бунда товарни таклиф қилиш катталиги товар баҳоси ўзгаришига бўш жавоб беради.

Рыночная ситуация, при которой величина спроса на товар слабо реагирует на изменение цены товара.

Bozordagi vaziyat, bunda tovarga boʻlgan talab kattaligi tovar bahosi oʻzgarishiga boʻsh javob beradi.

Бозордаги вазият, бунда товарга бўлган талаб катталиги товар баҳоси ўзгаришига бўш жавоб беради.

Номенклатура

uz - nomenklatura

номенклатура

en - nomenclature

Систематизированный перечень названий производимых и продаваемых товаров.

Ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovarlar nomlarining tizimlashtirilgan roʻyxati.

Ишлаб чиқариладиган ва сотиладиган товарлар номларининг тизимлаштирилган рўйхати.

Номинал

uz - nominal

номинал

en - nominal

Исходная величина стоимости, нарицательная стоимость, указанная на денежных знаках, ценных бумагах, в преysкурантах.

Qiymatning boshlangʻich kattaligi, pul birliklarida, qimmatli qogʻozlarda, preyskurantlarda koʻrsatilgan, ustiga yozib qoʻyilgan qiymat.

Қийматнинг бошланғич катталиги, пул бирликлариди, қимматли қоғозларда, преysкурантларда кўрсатилган, устига ёзиб қўйилган қиймат.

Норма

uz - norma

норма

en - norm

1. Узаконенное правило, установление, признанный обязательным порядок организации дела, осуществления действий.

2. Установленная, документально подтвержденная мера расходования ресурсов, получения доходов, прибыли, затрат времени, выработки продукции.

1. Harakatlarni amalga oshirish, ishlarni tashkil qilishning majburiy deb tan olingan tartibi, qonunlashtirilgan qoida, nizom.

2. Resurslarni taqsimlashning, daromad olishning, vaqt sarfi, mahsulot ishlab chiqarishning belgilan-

Н

gan, hujjat bilan tasdiqlangan o'Ichovi.

1. Харакатларни амалга ошириш, ишларни ташкил қилишнинг мажбурий деб тан олинган тартиби, қонунлаштирилган қоида, низом.

2. Ресурсларни тақсимлашнинг, даромад олишнинг, вақт сарфи, маҳсулот ишлаб чиқаришнинг белгиланган, хужжат билан тасдиқланган ўлчови.

Норматив

uz - normativ

норматив

en - standard

Универсальная, широко распространенная норма, относящаяся преимущественно к удельному расходу сырья, материалов, энергии на единицу продукции, на километр пробега, на другие единицы, характеризующие объект потребления ресурсов.

Asosan, xomashyo materiallar, energiyaning mahsulot birligiga, o'tilgan bir kilometr masofaga, resurslar iste'moli ob'ektini tavsiflaydigan boshqa birliklarga taalluqli universal, keng tarqalgan norma.

Асосан, хомашё материаллар, энергиянинг маҳсулот бирлигига, ўтилган бир километр масофага, ресурслар истеъмоли объектини тавсифлайдиган бошқа бирликларга тааллуқли универсал, кенг тарқалган норма.

Ностро

uz - nostro

ностро

en - nostro

Счета данного кредитного учреждения у банков-корреспондентов, на которых отражаются взаимные платежи.

Ma'lum kredit muassasasining, o'zaro to'lovlar aks ettirilgan korrespondent banklardagi hisobraqamlari.

Маълум кредит муассасасининг, ўзаро тўловлар акс эттирилган корреспондент банклардаги ҳисобрақамлари.

Нотариат

uz - notariat

нотариат

en - notariat

Система государственных органов, официально удостоверяющих различные юридические акты (договоры, завещания, доверенности), обладающих правом засвидетельствовать подлинность копий документов и подписей на документах.

Н

Turli yuridik hujjatlar (shartnomalar, wasiyatnomalar, ishonchnomalar)ni rasman tasdiqlaydigan, hujjatlardagi imzolarning va hujjatlarning nusxalari haqiqiylikini tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan davlat organlari tizimi.

Турли юридик ҳужжатлар (шартномалар, васиятномалар, ишончномалар)ни расман тасдиқлайдиган, ҳужжатлардаги имзоларнинг ва ҳужжатларнинг нусхалари ҳақиқийлигини тасдиқлаш ҳуқуқига эга бўлган давлат органлари тизими.

Ноу-хау

uz - nou-xau

ноу-хау

en - knowhow

Совокупность знаний научно-технического, производственно-технологического, управленческого, финансово-экономического, коммерческого характера, а также опыта их применения на практике, еще не ставших общеизвестными.

Barchaga ma'lum bo'lib ulgurmagan, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-texnologik, boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, tijorat xarakteridagi bilimlar, shuningdek, ularni amalda qo'llash tajribasi yig'indisi.

Барчага маълум бўлиб улгурмаган, илмий-техник, ишлаб чиқариш-технологик, бошқарув, молиявий-иқтисодий, тижорат характеридаги bilimlar, шунингдек, уларни амалда қўллаш тажрибаси йиғиндиси.

О

Обеспечение

uz - ta'minot

таъминот

en - security

Создание материальных, финансовых, информационных условий жизнедеятельности, производственной деятельности людей, предприятий, объектов.

Odamlar, korxonalar, obyektlar ishlab chiqarish faoliyatining, yashashining moddiy, moliyaviy, axborotga oid sharoitlarini yaratish.

Одамлар, корхоналар, объектлар ишлаб чиқариш фаолиятининг, яшашининг моддий, молиявий, ахборотга оид шароитларини яратиш.

Обесценение денег

uz - pullarning qadrsizlanishi

пулларнинг

қадрсизланиши

Снижение покупательной способности денег, то есть количества товаров данного качества, которое может быть приобретено на денежную единицу по сложившимся на рынке ценам (внут-

О

en - depreciation money

реннее обесценение) или снижение их валютного курса (внешнее обесценение).

Pullar xarid qobiliyatining pasayishi, ya'ni bozordagi mavjud narxlar bo'yicha pul birligiga sotib olinishi mumkin bo'lgan berilgan sifatdagi tovarlar miqdori (ichki qadrsizlanish) yoki ular valyuta kursining pasayishi (tashqi qadrsizlanish).

Пуллер харид қобилиятининг пасайиши, яъни бозордаги мавжуд нархлар бўйича пул бирлигига сотиб олинishi мумкин бўлган берилган сифатдаги товарлар миқдори (ички қадрсизланиш) ёки улар валюта курсининг пасайиши (ташқи қадрсизланиш).

Облагаемые доходы

uz - undiriladigan daromad

ундириладиган даромад

en - taxable income

Часть валового дохода юридических и физических лиц, подлежащая обложению налогами.

Yuridik va jismoniy shaxslar yalpi daromadining soliqqa tortilishi zarur bo'lgan qismi.

Юридик ва жисмоний шахслар ялпи даромадининг солиққа тортилиши зарур бўлган қисми.

Облигация

uz - obligatsiya

облигация

en - bond

Один из наиболее распространенных видов ценных бумаг на предъявителя. облигация подтверждает, что ее владелец внес денежные средства на приобретение ценной бумаги и тем самым вправе предъявить ее затем к оплате как долговое обязательство, которое организация, выпустившая облигацию, обязана выкупить по номинальной стоимости, указанной на облигации.

Ko'rsatuvchiga beriladigan qimmatli qog'ozlarning keng tarqalgan turlaridan biri. Obligatsiya, uning egasi qimmatli qog'ozni sotib olishga pul mablag'i topshirganini va bu bilan keyinchalik obligatsiyani qarz majburiyati sifatida pul to'lanishi uchun ko'rsatishga haqli ekanligini tasdiqlaydi, obligatsiyani chiqargan tashkilot bu qarz majburiyatini obligatsiyada ko'rsatilgan nominal qiymat bo'yicha sotib olishi shart.

О

Кўрсатувчига бериладиган қимматли қоғозларнинг кенг тарқалган турларидан бири. Облигация, унинг эгаси қимматли қоғозни сотиб олишга пул маблағи топширганини ва бу билан кейинчалик облигацияни қарз мажбурияти сифатида пул тўланиши учун кўрсатишга ҳақли эканлигини тасдиқлайди, облигацияни чиқарган ташкилот бу қарз мажбуриятини облигацияда кўрсатилган номинал қиймат бўйича сотиб олиши шарт.

Оборачиваемость

товаров, денег

uz - tovarlar, pullarning aylanib turishi

товарлар, пулларнинг айланиб туриши

en - turn-round goods, money

Процесс постоянного движения товаров и денег в сфере их обращения, при котором они переходят от одного лица к другому.

Muomalada bo‘lish sohasida tovarlar va pullarning doimo harakatda bo‘lish jarayoni, bunda ular bir shaxsdan boshqa shaxsga o‘tadi.

Муомалада бўлиш соҳасида товарлар ва пулларнинг доимо ҳаракатда бўлиш жараёни, бунда улар бир шахсдан бошқа шахсга ўтади.

Оборот валовой

uz - yalpi aylanma

ялпи айланма

en - turnover gross

Суммарный объем продукции, работ, услуг в денежном выражении, произведенных предприятием за один год.

Korxonada tomonidan bir yil ichida ishlab chiqarilgan mahsulot, ishlar, xizmatlarning pulda ifodalangan jami hajmi.

Корхона томонидан бир йил ичида ишлаб чиқарилган маҳсулот, ишлар, хизматларнинг пулда ифодаланган жами ҳажми.

Оборотные средства

uz - aylanma mablag‘lar

айланма маблағлар

en - current assets

Наиболее подвижная часть капитала предприятия, которая в отличие от основных средств является более «текучей» и легко преобразуемой в денежные средства; часть средств производства, целиком потребляемая в течение производственного цикла.

Korxonada kapitalining, asosiy mablag‘lardan farqli ravishda, birmuncha «oquvchan» bo‘lgan va pul mablag‘lariga oson aylantiriladigan eng harakatchan qismi; ishlab chiqarish mablag‘larining, ishlab chiqarish sikli mobaynida butunlay is’temol qilinadigan qismi.

О

Корхона капиталининг, асосий маблағлардан фарқли равишда, бирмунча «оқувчан» бўлган ва пул маблағларига осон айлантириладиган энг ҳаракатчан қисми; ишлаб чиқариш маблағларининг, ишлаб чиқариш цикли мобайнида бутунлай истеъмол қилинадиган қисми.

Оборудование

производственное

uz - ishlab chiqarish uskunasi

ишлаб чиқариш ускунаси

en - business equipment

Средства производства в виде крупных орудий труда – машин, станков, механизмов, используемых для выполнения механических операций, тяжелых работ.

Yirik mehnat qurollari – mexanik operatsiyalarni, og‘ir ishlarni bajarish uchun qo‘llaniladigan mashinalar, dastgohlar, mexanizmlar ko‘rinishidagi ishlab chiqarish vositalari.

Йирик меҳнат қуроллари – механик операцияларни, оғир ишларни бажариш учун қўлланиладиган машиналар, дастгоҳлар, механизмлар кўринишидаги ишлаб чиқариш воситалари.

Образ товара

uz - tovarning ko‘rinishi

товарнинг кўриниши

en - product image

Сложившееся у потребителя, покупателя конкретное представление о реально существующем или будущем товаре. Образ товара складывается на основе опыта его потребления, рекламы, отзывов о товаре других потребителей, иных информационных источников.

Iste‘molchida, xaridorda haqiqatda mavjud bo‘lgan yoki bo‘lg‘usi tovar to‘g‘risida qaror topgan aniq tasavvur. Tovarning ko‘rinishi uni iste‘mol qilish tajribasi, reklama, tovar to‘g‘risida boshqa iste‘molchilarning fikr-mulohazalari, boshqa axborot manbalari asosida shakllanadi.

Истеъмолчида, харидорда ҳақиқатда мавжуд бўлган ёки бўлғуси товар тўғрисида қарор топган аниқ тасаввур. Товарнинг кўриниши уни истеъмол қилиш тажрибаси, реклама, товар тўғрисида бошқа истеъмолчиларнинг фикр-мулоҳазалари, бошқа ахборот манбалари асосида шаклланади.

О

Обращение товаров

uz - tovarning aylanishi

товарнинг айланиши

en - circulation of commodities

Обмен посредством купли-продажи, одна из форм движения ценностей в процессе их воспроизводства.

Sotish-xarid qilish vositasida ayirboshlash, boyliklarning ularni takror ishlab chiqarish jarayonida harakatlanish shakllaridan biri.

Сотиш-харид қилиш воситасида айирбошлаш, бойликларнинг уларни такрор ишлаб чиқариш жараёнида ҳаракатланиш шаклларида бири.

Обслуживание внешнего долга

uz - tashqi qarzga xizmat

ko'rsatish

ташқи қарзга хизмат

кўрсатиш

en - external debt service

Выплата государством-должником иностранному банку или государству-кредитору денежных платежей в погашение полученного кредита и в уплату процентов по долгу.

Qarzdor davlatning chet el bankiga yoki qarz bergan davlatga olingan qarzni uzish uchun pul to'lovlari va qarz bo'yicha foizlar to'lashi.

Қарздор давлатнинг чет эл банкига ёки қарз берган давлатга олинган қарзни узиш учун пул тўловлари ва қарз бўйича фоизлар тўлаши.

Общественное благо

uz - ijtimoiy boylik

ижтимоий бойлик

en - public good

Товары и услуги, предоставляемые государством всем его гражданам на равных началах. К общественным благам относятся, например, оборона, бесплатное образование, общедоступное посещение музеев, право пользоваться библиотеками, бесплатное лечение.

Davlat tomonidan teng asoslarda barcha fuqarolarga taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar. Ijtimoiy boyliklarga masalan, mudofaa, bepul ta'lim, muzeylarga borishning hammabopligi, kutubxonalardan foydalanish huquqi, bepul davolanish kiradi.

Давлат томонидан тенг асосларда барча фуқароларга тақдим этиладиган товарлар ва хизматлар. Ижтимоий бойликларга масалан, муҳофаа, бепул таълим, музейларга боришнинг ҳаммабоплиги, кутубхоналардан фойдаланиш ҳуқуқи, бепул даволаниш киреди.

О

Общество с ограниченной ответственностью, ООО

uz - mas'uliyati cheklangan jamiyat, MChJ

масъулияти чекланган жамият, МЧЖ

en - Limited Liability Company, LLC

Хозяйственное общество, учрежденное одним или несколькими лицами, которое несет ответственность по принятым им обязательствам только в пределах своего вклада, вложенного в дело капитала. Имущество общества, включая уставный капитал, принадлежит обществу как юридическому лицу.

Bitta yoki bir nechta shaxs tomonidan ta'sis etilgan, olingan majburiyatlari bo'yicha faqat kapital ishiga qo'shgan o'z ulushi doirasida javobgar bo'lgan xo'jalik jamiyati. Jamiyat mulki, jumladan, ustav kapitali yuridik shaxs sifatida jamiyatga tegishli bo'ladi.

Битта ёки бир нечта шахс томонидан таъсис этилган, олинган мажбуриятлари бўйича фақат капитал ишига қўшган ўз улуши доирасида жавобгар бўлган хўжалик жамияти. Жамият мулки, жумладан, устав капитали юридик шахс сифатида жамиятга тегишли бўлади.

Объединение

uz - birlashma

бирлашма

en - association

Крупное предприятие, в котором соединены, включены несколько предприятий, организаций, например, производственное, научно-производственное, строительное объединение.

Bir qancha korxonalar, tashkilot qo'shilgan, kiritilgan yirik korxonalar, masalan, ishlab chiqarish birlashmasi, ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, qurilish birlashmasi.

Бир қанча корхона, ташкилот қўшилган, киритилган йирик корхона, масалан, ишлаб чиқариш бирлашмаси, илмий ишлаб чиқариш бирлашмаси, қурилиш бирлашмаси.

Объект

uz - obyekt

объект

en - object

Все то, что связано с экономической деятельностью, где сосредоточена и на что направлена хозяйственная деятельность. В экономике: предприятия, организации, здания, сооружения, средства производства.

Xo'jalik faoliyati to'plangan va yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat bilan bog'langan barcha narsalar. Iqtisodiyotda: korxonalar, tashkilotlar, binolar, inshootlar, ishlab chiqarish vositalari.

О

Хўжалик фаолияти тўпланган ва йўналтирилган иқтисодий фаолият билан боғланган барча нарса. Иқтисодиётда: корхоналар, ташкилотлар, бинолар, иншоотлар, ишлаб чиқариш воситалари.

Объем

uz - hajm

хажм

en - volume

Количественный экономический показатель, отражающий величину расходуемых ресурсов, затрат факторов производства, произведенного или потребляемого продукта, спроса и предложения товаров и услуг. Измеряется в натуральных (физических) или в денежных единицах.

Sarflanadigan resurslar, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarilgan yoki iste'mol qilinadigan mahsulot, tovarlar va xizmatlarga talab va taklif miqdori aks etadigan miqdoriy iqtisodiy ko'rsatkich. Natural (fizik) birliklarda yoki pul birliklarida o'lchanadi.

Sarflanadigan resurslar, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarilgan e'ki iste'mol qilinadigan mahsulot, tovarlar va xizmatlarga talab va taklif miqdori aks etadigan miqdoriy iqtisodiy ko'rsatkich. Natural (fizik) birliklarda e'ki pul birliklarida o'lchanadi.

Обязательный резерв банков

uz - banklarning majburiy rezervi

банкларнинг мажбурий резерви

en - required reserves bank

Денежные средства коммерческих банков и других кредитных организаций, которые хранятся в Центральном банке как гарантийный резерв. Величина такого резерва определяется нормами, устанавливаемыми Центральным банком.

Tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlarining, Markaziy bankda kafolatli rezerv sifatida saqlanadigan pul mablag'lari. Bunday rezervning miqdori Markaziy bank tomonidan o'rnatiladigan normalar bilan belgilanadi.

Тижорат банклари ва бошқа кредит ташкилотларининг, Марказий банкда кафолатли резерв сифатида сақланадиган пул маблағлари. Бундай резервининг миқдори Марказий банк томонидан ўрнатиладиган нормалар билан белгиланади.

О

Овердрафт

uz - overdraft

овердрафт

en - overdraft

Особая форма предоставления краткосрочного кредита клиенту банка в случае, когда величина платежа превышает остаток средств на счете клиента. Овердрафт отличается от обычных ссуд тем, что в погашение задолженности направляются все суммы, поступающие на текущий счет клиента.

To'lov miqdori mijozning hisobraqamidagi mablag' qoldig'idan oshgan holda, bankning mijoziga qisqa muddatli kredit berishning alohida shakli. Overdraft oddiy ssudalardan, qarzni to'lashga mijozning joriy hisobraqamiga kelib tushadigan barcha summa yo'naltirishi bilan farq qiladi.

T'ulov miqdori mijozning hisobraqamidagi mablag' qoldig'idan oshgan holda, bankning mijoziga qisqa muddatli kredit bеришning alohida shakli. Овердрафт оддий ссудалардан, қарзни тўлашга mijozning joriy hisobraqamiga келиб тушадиган барча сумма йўналтирилиши билан фарқ қилади.

Ограничения

uz - cheklovlar

чекловлар

en - constraint

В экономико-математическом моделировании: ограничительные условия, накладываемые на переменные величины, которые вместе с целевой функцией образуют модель математического, в частности линейного программирования.

Iqtisodiy-matematik modellashda: maqsadli funktsiya bilan birga matematik, xususan, chiziqli dasturlash modelini hosil qiladigan o'zgaruvchan kattaliklarga qo'yiladigan cheklovchi shartlar.

Iqtisodiy-matematik modellashda: maqsadli funktsiya bilan birga matematik, xususan, chiziqli dasturlash modelini hosil qiladigan o'zgaruvchan kattaliklarga qo'yiladigan cheklovchi shartlar.

Ограниченность ресурсов

uz - resurslarning

cheklanganligi

ресурсларнинг

чекланганлиги

en - scarcity of resources

Очень важный экономический принцип, согласно которому ресурсы, которыми располагают люди (природные, трудовые, материальные, денежные), ограничены, то есть недостаточны для производства, получения желаемых благ, удовлетворения увеличивающихся потребностей людей, государства, общества.

О

Juda muhim iqtisodiy prinsip. Bu prinsipga ko'ra, odamlar ixtiyorida bo'lgan resurslar (tabiiy, mehnat, moddiy, pul resurslari) cheklangan, ya'ni ishlab chiqarish, istalgan ne'matlarni olish, odamlarning, davlat, jamiyatning oshib boradigan ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emas.

Жуда муҳим иқтисодий принцип. Бу принципга кўра, одамлар ихтиёрида бўлган ресурслар (табиий, меҳнат, моддий, пул ресурслари) чекланган, яъни ишлаб чиқариш, исталган неъматларни олиш, одамларнинг, давлат, жамиятнинг ошиб борадиган эҳтиёжларини қондириш учун етарли эмас.

Ожидаемые значения экономических величин
uz - iqtisodiy kattaliklarning kutiladigan qiymatlari
иқтисодий катталикларнинг кутиладиган қийматлари
en - expected value of income

Размеры дохода, прибыли, инфляции и др., полученные в результате экономического прогноза или расчета.

Daromad, foyda, inflyatsiyaning iqtisodiy prognoz yoki hisoblash natijasida olingan miqdorlari.

Даромад, фойда, инфляциянинг иқтисодий прогноз ёки ҳисоблаш натижасида олинган миқдорлари.

Оперативное управление
uz - operativ boshqaruv
оператив бошқарув
en - operative management

1. Управление текущим событием, включающее оперативное планирование, оперативный учет и оперативный контроль.

2. Управление государственным предприятием уполномоченными на то лицами без передачи им права собственности.

1. Shu kundagi voqeani boshqarish, operativ rejalashtirish, operativ hisobga olish va operativ nazoratni ichiga oladi.

2. Davlat korxonasining vakolatli shaxslar tomonidan, ularga egalik huquqi berilmasdan boshqarilishi.

1. Шу кундаги воқеани бошқариш, оператив режалаштириш, оператив ҳисобга олиш ва оператив назоратни ичига олади.

2. Давлат корхонасининг ваколатли шахслар томонидан, уларга эгалик ҳуқуқи берилмасдан бошқарилиши.

О

Оперативные меры

uz - operativ chora-tadbirlar

оператив чора-тадбирлар

en - operational measures

Относительно кратковременные действия, обусловленные сложившейся экономической ситуацией, срочные меры.

Qaror topgan iqtisodiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan qisqa muddatli harakatlar, shoshilinch choralar.

Qaror topgan iqtisodiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan qisqa muddatli harakatlar, shoshilinch choralar.

Операция

uz - operatsiya

операция

en - operation

Универсальный термин, обозначающий вид деятельности, предпринимательскую сделку, совокупность взаимосвязанных действий по решению единой экономической задачи или проблемы. В отличие от экономической программы, бизнес-операция подразумевает масштабную, относительно непродолжительную последовательность действий.

Yagona iqtisodiy vazifa yoki muammoni hal qilish yuzasidan o'zaro bog'langan ishlar jamini, tadbirkorlik bitimini, faoliyat turini anglatadigan universal tushuncha. Iqtisodiy dasturdan farqli ravishda, biznes-operatsiya harakatlarning ko'lamli, nisbatan qisqa izchilligini ko'zda tutadi.

Yagona iqtisodiy vazifa ёки муаммони ҳал қилиш юзасидан ўзаро боғланган ишлар жамини, тадбиркорлик битимини, фаолият турини англатадиган универсал тушунча. Иқтисодий дастурдан фарқли равишда, бизнес-операция ҳаракатларнинг кўламли, нисбатан қисқа изчиллигини кўзда тутди.

Операции на открытом рынке

uz - ochiq bozordagi

operatsiyalar

очик бозордаги

операциялар

en - open market operation

Один из элементов денежно-кредитной политики государства, заключающийся в покупке и продаже Центральным банком ценных бумаг на открытом рынке и влиянии тем самым на их курс.

Davlatning pul-kredit siyosati elementlaridan biri. Markaziy bank tomonidan ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishdan, shu orqali bu qimmatli qog'ozlar kursiga ta'sir etishdan iborat.

О

Давлатнинг пул-кредит сиёсати элементларидан бири. Марказий банк томонидан очиқ бозорда қимматли қоғозларни сотиб олиш ва сотишдан, шу орқали бу қимматли қоғозлар курсига таъсир этишдан иборат.

Операционный день

uz - operatsiya, muomala qilish vaqti

операция, муомала қилиш вақти

en - operational day

Часть рабочего дня банка, отведенная для обслуживания клиентов, приема платежных документов, выдачи денег.

Bank ish kunining mijozlarga xizmat ko'rsatish, to'lov hujjatlarini qabul qilish, pullar berish uchun ajratilgan qismi.

Банк иш кунининг мижозларга хизмат кўрсатиш, тўлов хужжатларини қабул қилиш, пуллар бериш учун ажратилган қисми.

Оптимизация

uz - optimallashtirish

оптималлаш

en - optimization

Процесс выбора наилучшего варианта из возможных, определение значений тех экономических показателей, при которых достигается оптимум, то есть наилучшее состояние системы.

Mumkin bo'lgan variantlardan eng yaxshisini tanlash jarayoni, tizimning eng yaxshi holatiga erishiladigan iqtisodiy ko'rsatkichlarning qiymatlarini aniqlash.

Мумкин бўлган вариантлардан энг яхшисини танлаш жараёни, тизимнинг энг яхши ҳолатига эришиладиган иқтисодий кўрсаткичларнинг қийматларини аниқлаш.

Оптовая цена

uz - ulgurji narx

улгуржи нарх

en - wholesale price

Цена товара в условиях его оптовой продажи. Обычно такая цена ниже розничной, так как при оптовой продаже меньше издержки обращения в расчете на единицу товара.

Tovarning ulgurji sotish sharoitlaridagi narxi. Odatda, bunday narx chakana narxdan past bo'ladi, chunki ulgurji sotishda tovar birligiga hisoblanganda aylanish xarajatlari kam.

Товарнинг улгуржи сотиш шароитларидаги нархи. Одатда, бундай нарх чакана нархдан паст бўлади, чунки улгуржи сотишда товар бирлигига ҳисобланганда айланиш харажатлари кам.

О

Опцион

uz - opsion

опцион

en - option

Право выбора условий сделки, получаемое за определенную плату. Наиболее часто термин применяется в следующих его значениях:

а) разновидность срочной сделки с правом ее необязательного исполнения; предоставляемое одной из договаривающихся сторон право выбора способа, формы, объема выполнения принятого ею обязательства или даже отказа от выполнения обязательства при возникновении обстоятельств, обусловленных договором;

б) соглашение, предоставляющее одной из сторон, заключающих биржевую сделку купли-продажи, право выбора между альтернативными (вариантными) условиями договора, в частности право покупать или продавать ценные бумаги в заранее установленном объеме по твердой цене в течение того или иного срока;

с) право купить новые ценные бумаги эмитента на оговоренных условиях;

д) право на дополнительную квоту при выпуске ценных бумаг.

Muayyan haq evaziga olinadigan, bitim shartlarini tanlash huquqi. Atama ko‘pincha quyidagi mazmunlarda qo‘llaniladi:

а) bajarilishi majburiy (shart) bo‘lmaslik huquqiga ega tarzda tuziladigan shoshilinch bitimlarning bir ko‘rinishi; shartlashuvchi tomonlardan biri taqdim etadigan, qabul qilingan majburiyatlarni bajarish usuli-ni, shaklini, hajmini tanlash yoki shartnomada kelishilgan vaziyatlar yuzaga kelganda, hatto majburiyatlarning bajarilishini rad etish huquqi;

б) birja oldi-sotdi bitimini tuzadigan tomonlardan biri taqdim etadigan, shartnomaning muqobil (variant) shartlari o‘rtasida tanlash huquqi, kelishuv, xususan, u yoki bu muddat mobaynida qat’iy baho bo‘yicha oldindan belgilangan hajmda qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki sotib olish huquqi;

с) kelishilgan shartlarda emitentning yangi qimmatli qog‘ozlarini sotib olish huquqi;

д) qimmatli qog‘ozlar chiqarishda qo‘shimcha kvotaga ega bo‘lish huquqi.

О

Муайян ҳақ эвазига олинадиган, битим шартларини танлаш ҳуқуқи. Атама кўпинча қуйидаги мазмунларда қўлланилади:

- а) бажарилиши мажбурий (шарт) бўлмаслик ҳуқуқига эга тарзда тузиладиган шошилинич битимларнинг бир кўриниши; шартлашувчи томонлардан бири тақдим этадиган, қабул қилинган мажбуриятларни бажариш усулини, шаклини, ҳажмини танлаш ёки шартномада келишилган вазиятлар юзага келганда, ҳатто мажбуриятларнинг бажарилишини рад этиш ҳуқуқи;
- б) биржа олди-сотди битимини тузадиган томонлардан бири тақдим этадиган, шартноманинг муқобил (вариант) шартлари ўртасида танлаш ҳуқуқи, келишув, хусусан, у ёки бу муддат мобайнида қатъий баҳо бўйича олдиндан белгиланган ҳажмда қимматли қоғозларни сотиш ёки сотиб олиш ҳуқуқи;
- с) келишилган шартларда эмитентнинг янги қимматли қоғозларини сотиб олиш ҳуқуқи;
- д) қимматли қоғозлар чиқаришда қўшимча квотага эга бўлиш ҳуқуқи.

Организационно-правовая форма

uz - tashkiliy-huquqiy shakl

ташкилий-ҳуқуқий шакл

en - legal form of organization

Вид и способ структурного построения предприятия, компании, корпорации, предусмотренные законами и другими правовыми нормами страны. Организационно-правовая структура зависит от формы собственности, меры ответственности владельцев, масштаба предприятия, путей формирования его капитала, характера соединения и соподчинения составных частей компании. Синоним – организационная структура.

Mamlakat qonunlari va boshqa huquqiy normalari bilan koʻzda tutilgan, korxonalar, kompaniyalar, korporatsiyalar strukturaviy tuzilishining turi va usuli. Tashkiliy-huquqiy struktura mulkchilik shakliga, egalarining javobgarlik darajasiga, korxonalar koʻlamiga, kapitalini shakllantirish yoʻllariga, kompaniyalar tarkibiy qismlarining birlashish va teng huquq asosida boʻysunish xususiyatiga bogʻliq. Sinonimi – tashkiliy struktura.

О

Мамлакат қонунлари ва бошқа ҳуқуқий нормалари билан кўзда тутилган, корхона, компания, корпорациялар структуравий тузилишининг тури ва усули. Ташкилий-ҳуқуқий структура мулкчилик шаклига, эгаларининг жавобгарлик даражасига, корхона кўламига, капиталини шакллантириш йўлларига, компания таркибий қисмларининг бирлашиш ва тенг ҳуқуқ асосида бўйсунтириш хусусиятига боғлиқ. Синоними – ташкилий структура.

Организация

uz - uyushtirish, tashkilot

уюштириш, ташкилот

en - organization

1. Составная часть управления, заключающаяся в координации действий отдельных элементов системы, достижении взаимного соответствия функционирования ее частей.

2. Форма объединения людей для их совместной деятельности в рамках определенной структуры; учреждение, призванное выполнять заданные функции, решать определенный круг задач, например, школа, институт, банк, правительственное учреждение.

1. Boshqaruvning, tizim alohida elementlarining ishini muvofiqlashtirishdan, uning qismlari o‘zaro mos ravishda faoliyat ko‘rsatishiga erishishdan iborat tarkibiy qismi.

2. Odamlarning muayyan struktura doirasida birligida faoliyat olib borish maqsadida birlashish shakli; belgilangan vazifalarni bajarish, muayyan doiradagi masalalarni hal qilish uchun safarbar qilingan muassasa, masalan, maktab, institut, bank, hukumat muassasasi.

1. Boшqaruvning, tizim alohida elementlarining ishini muvofiqlashtirishdan, uning qismlari o‘zaro mos ravishda faoliyat ko‘rsatishiga erishishdan iborat tarkibiy qismi.

2. Odamlarning muayyan struktura doirasida birligida faoliyat olib borish maqsadida birlashish shakli; belgilangan vazifalarni bajarish, muayyan doiradagi masalalarni hal qilish uchun safarbar qilingan muassasa, masalan, maktab, institut, bank, hukumat muassasasi.

О

Органы управления

uz - boshqaruv organlari

бошқарув органлари

en - operating control

Организации или части, подразделения, отделы организаций, учреждений, основным видом деятельности которых является управление работой, деятельностью других людей и производственно-экономической деятельностью в целом. Органы управления призваны принимать управленческие решения и следить за их исполнением.

Asosiy faoliyat turi ishni, boshqa odamlar faoliyatini va umuman, ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatni boshqarish boʻlgan tashkilotlar yoki tashkilotlarning, muassasalarning boʻlimlari, boʻlinmalari, qismlari. Boshqaruv organlari boshqarish qarorlari qabul qilish va ularning bajarilishi ustidan nazorat olib borishga safarbar qilinganlar.

Асосий фаолият тури ишни, бошқа одамлар фаолиятини ва умуман, ишлаб чиқариш-иқтисодий фаолиятни бошқариш бўлган ташкилотлар ёки ташкилотларнинг, муассасаларнинг бўлимлари, бўлинмалари, қисмлари. Бошқарув органлари бошқариш қарорлари қабул қилиш ва уларнинг бажарилиши устидан назорат олиб боришга сафарбар қилинганлар.

Ордер

uz - order

ордер

en - order

В бухгалтерии – документ о выдаче его предъявителю товара, груза, денег или о праве проведения других операций.

Buxgalteriyada – koʻrsatuvchiga tovar, yuk, pullarni yoki boshqa operatsiyalarni oʻtkazish huquqini berish toʻgʻrisidagi hujjat.

Бухгалтерияда – кўрсатувчига товар, юк, пулларни ёки бошқа операцияларни ўтказиш ҳуқуқини бериш тўғрисидаги ҳужжат.

Основные средства

uz - asosiy vositalar

асосий воситалар

en - fixed assets

Длительно используемые средства производства, участвующие в производстве в течение многих циклов, имеющие длительные сроки амортизации. К основным средствам (фондам) относят землю, производственные здания, сооружения, машины, оборудование, приборы, инструменты, то есть физический капитал.

О

Ishlab chiqarishda ko'plab sikllar mobaynida qatnashadigan, davomli amortizatsiya muddatlariga ega bo'lgan, uzoq muddat davomida foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalari. Asosiy vositalarga (fondlarga) yer, ishlab chiqarish binolari, mashinalar, uskuna, asboblar, ya'ni fizik kapital kiradi.

Ишлаб чиқаришда кўплаб циклар мобайнида қатнашадиган, давомли амортизация мuddатларига эга бўлган, узоқ мuddат давомида фойдаланиладиган ишлаб чиқариш воситалари. Асосий воситаларга (фондларга) ер, ишлаб чиқариш бинолари, машиналар, ускуна, асбоблар, яъни физик капитал киради.

Остаточная стоимость основных средств

uz - asosiy vositalarning qoldiq qiymati

асосий воситаларнинг қолдиқ қиймати

en - price-to-book value

Стоимость основных средств с учетом их износа; равна их первоначальной стоимости за вычетом амортизации в течение всего срока эксплуатации.

Asosiy vositalarning, ularning eskirishi hisobga olingan holatdagi qiymati; bu asosiy vositalarning butun foydalanish muddati mobaynidagi amortizatsiya chiqarib tashlangandan keyingi, boshlang'ich qiymatiga teng.

Асосий воситаларнинг, уларнинг эскириши ҳисобга олинган ҳолатдаги қиймати; бу асосий воситаларнинг бутун фойдаланиш мuddати мобайнидаги амортизация чиқариб ташлангандан кейинги, бошланғич қийматига тенг.

Отказ от акцепта

uz - akseptni rad etish

акцептни рад этиш

en - non-acceptance

Документально выраженное несогласие плательщика на оплату предъявленных ему счетов, расчетных документов.

To'lovchining, unga ko'rsatilgan hisoblar, hisob-kitob hujjatlariga haq to'lash yuzasidan rozi emasligining hujjatlashtirilgan tarzda ifodalanishi.

Тўловчининг, унга кўрсатилган ҳисоблар, ҳисоб-китоб ҳужжатларига ҳақ тўлаш юзасидан рози эмаслигининг ҳужжатлаштирилган тарзда ифодаланиши.

О

Открытая позиция

uz - ochiq pozitsiya

очик позиция

en - open position

Складывающееся на бирже в определенный момент времени несоответствие заявок на покупку и продажу биржевого товара, фондовых и валютных ценностей. Превышение заявок на покупку над заявками на продажу называют длинной позицией, а продаж над покупками – короткой позицией.

Muayyan vaqt onida birjada yuzaga keladigan, birja tovari, fond va valyuta boyliklarini sotish va sotib olishga bo'lgan talabnomalarning mos kelmasligi. Sotib olishga bo'lgan talabnomalarning sotishga bo'lgan talabnomalardan oshib ketishi uzun pozitsiya, sotishga bo'lgan talabnomalarning sotib olishga bo'lgan talabnomalardan oshib ketishi esa, qisqa pozitsiya deyiladi.

Muayyan vaqt onida birjada yuzaga keladigan, birja tovari, fond va valyuta boyliklarini sotish va sotib olishga bo'lgan talabnomalarning mos kelmasligi. Sotib olishga bo'lgan talabnomalardan oshib ketishi uzun pozitsiya, sotishga bo'lgan talabnomalarning sotib olishga bo'lgan talabnomalardan oshib ketishi esa, qisqa pozitsiya deyiladi.

Открытое акционерное общество, ОАО

uz - ochiq aksiyadorlar jamiyati, OAJ

очик акциядорлар жамияти, ОАЖ

en - public limited company, PLC

Акционерное общество, участники которого могут отчуждать принадлежащие им акции без согласия других акционеров. Такое акционерное общество вправе проводить открытую подписку на выпускаемые им акции и их свободную продажу на условиях, устанавливаемых законом и иными правовыми актами.

Qatnashchilari o'zlariga tegishli bo'lgan aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz olishlari mumkin bo'lgan aksiyadorlar jamiyati. Bunday aksiyadorlar jamiyati qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan belgilanadigan shartlar asosida, o'zi chiqaradigan aksiyalarga ochiq obunani o'tkazishlari va bu aksiyalarni ochiq savdoda sotishlari mumkin.

О

Қатнашчилари ўзларига тегишли бўлган акцияларни бошқа акциядорларнинг розилигисиз олишлари мумкин бўлган акциядорлар жамияти. Бундай акциядорлар жамияти қонун ва бошқа ҳуқуқий ҳужжатлар билан белгиланадиган шартлар асосида, ўзи чиқарадиган акцияларга очик обунани ўтказишлари ва бу акцияларни очик савдода сотишлари мумкин.

Открытые торги

uz - ochiq savdolar

очик савдолар

en - advertized bidding

Торги, о которых широко оповещаются все желающие в них участвовать и на которые свободно допускаются участники.

Qatnashish istagida boʻlganlarning barchasi keng xabardor qilinadigan va qatnashchilar erkin qoʻyiladigan savdolar.

Қатнашиш истагида бўлганларнинг барчаси кенг хабардор қилинадиган ва қатнашчилар эркин қўйиладиган савдолар.

Отрасль

uz - tarmoq

тармоқ

en - branch

Совокупность предприятий, производств, обладающих общностью производимой продукции, технологии и удовлетворяемых потребностей.

Ishlab chiqariladigan mahsulot, texnologiya va qondiriladigan ehtiyojlarning umumiyligi asosidagi ishlab chiqarishlar, korxonalar jami.

Ишлаб чиқариладиган маҳсулот, технология ва қондириладиган эҳтиёжларнинг умумийлиги асосидаги ишлаб чиқаришлар, корхоналар жами.

Отчетность

uz - hisobot berish

ҳисобот бериш

en - reporting

Периодическое составление предприятиями, организациями, компаниями отчетов о своей деятельности, представляемых в государственные статистические и финансовые органы. Статистическая отчетность позволяет установить статистические показатели экономической деятельности предприятий, отраслей, регионов, страны посредством сведения и сопоставления показателей работы отдельных звеньев экономики.

Korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalar tomonidan oʻzlarining faoliyatlari toʻgʻrisida, davlat statistika va moliya organlariga taqdim etiladigan hisobotlarning davriy tuzilishi. Statistik hisobot berish,

О

iqtisodiyot alohida bo'g'inlarining ish ko'rsatkichlarini olish va solishtirish orqali, mamlakat, mintaqqa, tarmoqlar, korxonalar iqtisodiy faoliyatining statistik ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi.

Корхоналар, ташкилотлар, компаниялар томонидан ўзларининг фаолиятлари тўғрисида, давлат статистика ва молия органларига тақдим этиладиган ҳисоботларнинг даврий тузилиши. Статистик ҳисобот бериш, иқтисодиёт алоҳида бўғинларининг иш кўрсаткичларини олиш ва солиштириш орқали, мамлакат, минтақа, тармоқлар, корхоналар иқтисодий фаолиятининг статистик кўрсаткичларини аниқлаш имконини беради.

Отчисления

uz - chegirmalar

чегирмалар

en - payments

Разнообразные расходы предприятия, например, амортизационные отчисления, отчисления на социальное страхование, отчисления из прибыли в резервный фонд.

Korxonaning turli xil sarf-xarajatlari, masalan, amortizatsion chegirmalar, ijtimoiy sug'urtaga chegirmalar, foydadan rezerv fondga chegirmalar.

Корхонанинг турли хил сарф-харажатлари, масалан, амортизацион чегирмалар, ижтимоий сугуртага чегирмалар, фойдадан резерв фондга чегирмалар.

Отчуждение

uz - ixtiyoriga olish, musodara qilish

ихтиёрига олиш,

мусодара қилиш

en - alienation

Передача имущества, принадлежащего одному лицу, в собственность другого лица. Отчуждение производится главным образом по воле первоначального собственника на основе договора с приобретателем имущества либо на основании решения суда в принудительном порядке (конфискация). Отчуждение может быть возмездным (за плату) или безвозмездным (дарение).

Bir shaxsga tegishli bo'lgan mulkni boshqa shaxsga o'tkazish. Asosan, dastlabki mulkdorning xohishiga ko'ra, mulkni sotib oluvchi bilan tuziladigan shartnoma yoki sud qarori asosida majburiy tartibda (musodara qilish) amalga oshiriladi. O'tkazish pulli (haq evaziga) va bepul (sovg'a qilish) bo'lishi mumkin.

О

Бир шахсга тегишли бўлган мулкни бошқа шахсга ўтказиш. Асосан, дастлабки мулкдорнинг хоҳишига кўра, мулкни сотиб олувчи билан тузиладиган шартнома ёки суд қарори асосида мажбурий тартибда (мусодара қилиш) амалга оширилади. Ўтказиш пулли (ҳақ эвазига) ва бепул (совға қилиш) бўлиши мумкин.

Оферта

uz - oferta
оферта
en - offer

Письменное или устное предложение одного лица (оферента) другому (акцептанту) заключить с ним договор. Различают свободную, гибкую и твердую, неизменяемую оферты.

Bir shaxsning (oferentning) boshqa bir shaxsga (akseptantga) u bilan shartnoma tuzish yuzasidan yozma yoki ogʻzaki taklifi. Erkin, oʻzgaruvchan va qatʻiy, oʻzgarmaydigan oferta farqlanadi.

Бир шахсинг (оферентнинг) бошқа бир шахсга (акцептантга) у билан шартнома тузиш юзасидан ёзма ёки оғзаки таклифи. Эркин, ўзгарувчан ва қатъий, ўзгармайдиган оферта фарқланади.

Оценка стоимости

uz - qiymatni baholash
қийматни баҳолаш
en - assessment of value

Определение стоимости, цены вещей, имущества, товаров, собственности перед их продажей или для учета имущества в денежном выражении.

Mulkni pul koʻrinishida hisobga olish uchun yoki sotish oldidan mulkning, tovarning, buyumlarning narxini, qiymatini aniqlash.

Мулкни пул кўринишида ҳисобга олиш учун ёки сотиш олдида мулкнинг, товарнинг, буюмларнинг нархини, қийматини аниқлаш.

П

Паевой инвестиционный фонд

uz - paydan toʻplangan investitsiya fondi
пайдан тўпланган инвестиция фонди
en - share investment fund

Инвестиционный фонд, не являющийся юридическим лицом, активы которого управляются лицензированной управляющей компанией. Собранные фондом денежные средства клиентов обычно инвестируются, размещаются в высоколиквидные ценные бумаги и депозиты с учетом рисков инвестиций.

II

Yuridik shaxs bo'lmagan, aktivlari litsenziyalangan boshqaruvchi kompaniya tomonidan boshqariladigan investitsiya fondi. Mijozlarning fond tomonidan to'plangan pul mablag'lari odatda, investitsiyalar bilan bog'liq xavflar hisobga olingan holda, likvidligi yuqori bo'lgan qimmatli qog'ozlarga va depozitlarga sarflanadi, joylashtiriladi.

Юридический субъект, не являющийся лицензированной управляющей компанией, владеющей инвестиционным фондом. Средства инвесторов в фонд со стороны фонда собираются в основном за счет взносов инвесторов, связанных с рисками, связанными с инвестициями, в том числе в отношении ликвидности, высокой стоимости ценных бумаг и депозитов, которые направляются на приобретение, размещение.

Пай

uz - pay, ulush
пай, улуш
en - share

Денежный взнос, внесенный определенным юридическим или физическим лицом в общий капитал компании, фирмы, общества, кооператива.

Muayyan jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan kompaniya, firma, jamiyat, kooperativning umumiy kapitaliga topshirilgan pul badali.

Муайян жисмоний ёки юридик шахс томонидан компания, фирма, жамият, кооперативнинг умумий капиталига топширилган пул бадали.

Паритет

uz - paritet
паритет
en - parity

1. Равноценность целей, факторов, средств, равенство прав и обязанностей, платежей, положения на рынке разных экономических субъектов.
2. Соотношение между денежными единицами различных стран, устанавливаемое либо по их золотому содержанию, либо по покупательной способности.

1. Maqsadlar, omillar, vositalarning teng qiymatliligi, bozorda turli iqtisodiy subyektlar huquq va majburiyatlarining, to'lovlari, holatining tengligi.
2. Turli mamlakatlarning pul birliklari o'rtasida, ularning oltin ta'minoti yoki xarid kuchi (qobiliyati) bo'yicha belgilanadigan nisbat.

II

1. Мақсадлар, омиллар, воситаларнинг тенг қийматлилиги, бозорда турли иқтисодий субъектлар ҳуқуқ ва мажбуриятларининг, тўловлари, ҳолатининг тенглиги.

2. Турли мамлакатларнинг пул бирликлари ўртасида, уларнинг олтин таъминоти ёки харид кучи (қобилияти) бўйича белгиланадиган нисбат.

Партнерство

uz - manfaatli sherikchilik

манфаатли шерикчилик

en - partnership

Юридическая форма организации совместной экономической деятельности нескольких физических или юридических лиц. Партнерство создается на основе договора, которым регулируются права и обязанности партнеров, участие в общих расходах, распределение прибыли, раздел имущества.

Bir nechta jismoniy yoki yuridik shaxslarning birgalikdagi iqtisodiy faoliyatini tashkil qilishning yuridik shakli. Manfaatli sherikchilik shartnoma asosida yuzaga keladi. Sheriklarning huquq va majburiyatlari, umumiy xarajatlarda ishtirok etishi, foydaning taqsimlanishi, mulkni bo'lish shartnoma bilan tartibga solinadi.

Бир нечта жисмоний ёки юридик шахсларнинг биргаликдаги иқтисодий фаолиятини ташкил қилишнинг юридик шакли. Манфаатли шерикчилик шартнома асосида юзага келади. Шерикларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, умумий харажатларда иштирок этиши, фойданинг тақсимланиши, мулкни бўлиш шартнома билан тартибга солинади.

Пассив

uz - passiv

пассив

en - liabilities

1. Совокупность долгов и обязательств предприятия.

2. Часть бухгалтерского баланса, обычно правая сторона, обозначающая источники образования средств предприятия, его финансирования, сгруппированные по их принадлежности и назначению (собственные резервы, займы других учреждений).

1. Korxonalar qarz va majburiyatlarining yig'indisi.

2. Buxgalteriya balansining, mansubligi va maqsadiga ko'ra guruhlangan, korxonalar mablag'larining

II

tashkil topish, uni moliyalashtirish manbalari (o'zining rezervlari, boshqa muassasalarning qarzlari) ko'rsatiladigan qismi, o'ng tomoni.

1. Корхона қарз ва мажбуриятларининг йиғиндисиди.

2. Бухгалтерия балансининг, мансублиги ва мақсадига кўра гуруҳланган, корхона маблағларининг ташкил топиш, уни молиялаштириш манбалари (ўзининг резервлари, бошқа муассасаларнинг қарzlари) кўрсатиладиган қисми, ўнг томони.

Пассивные операции банков

uz - banklarning passiv operatsiyalari

банкларнинг пассив операциялари

en - passive operations of banks

Операции, посредством которых банки формируют свои финансовые ресурсы в виде собственных, привлеченных и эмитированных средств для проведения кредитных и других активных операций.

Banklar kredit operatsiyalarini va boshqa aktiv operatsiyalarni o'tkazish uchun, bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan va emissiyalangan mablag'lar ko'rinishida o'zlarining moliyaviy resurslarini shakllantiradigan operatsiyalar.

Банклар кредит операцияларини ва бошқа актив операцияларни ўтказиш учун, банкнинг ўз маблағлари, жалб қилинган ва эмиссияланган маблағлар кўринишида ўзларининг молиявий ресурсларини шакллантирадиган операциялар.

Пеня

uz - penya

пеня

en - fine

Разновидность неустойки, санкция в виде денежного штрафа, накладываемого на должника за несвоевременное выполнение, просрочку денежных обязательств с целью заставить его выполнить свои обязательства. Пеня обычно устанавливается в виде процента от суммы просроченного обязательства и начисляется за каждый день просрочки в течение определенного периода, после которого взыскивается разовый штраф.

Qarzdorga, uni o'zining majburiyatlarini bajarishga majbur qilish maqsadida, pul majburiyatlari o'z vaqtida bajarilmaganligi, kechiktirilganligi yuzasidan solinadigan pul ko'rinishidagi jarima. Penya odatda, kechiktirilgan majburiyatlar summasidan

II

foiz ko‘rinishida belgilanadi va muayyan davr mobaynida har bir kechiktirilgan kun uchun hisoblanadi, bundan keyin bir martalik jarima undiriladi.

Қарздорга, уни ўзининг мажбуриятларини бажаришга мажбур қилиш мақсадида, пул мажбуриятлари ўз вақтида бажарилмаганлиги, кечиктирилганлиги юзасидан солинадиган пул кўринишидаги жарима. Пеня одатда, кечиктирилган мажбуриятлар суммасидан фоиз кўринишида белгиланади ва муайян давр мобайнида ҳар бир кечиктирилган кун учун ҳисобланади, бундан кейин бир марталик жарима ундирилади.

Первичный рынок ценных бумаг

uz - qimmatli qog‘ozlarning birlamchi bozori

қимматли қоғозларнинг бирламчи бозори
en - primary market

Рынок, на котором реализуются, продаются вновь выпущенные ценные бумаги их эмитентом, выпустившей их организацией. Первичная продажа ценных бумаг производится по подписке или в форме непосредственной продажи первичным покупателям.

Qimmatli qog‘ozlarni chiqargan tashkilot, emitent tomonidan yangi chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar sotiladigan bozor. Qimmatli qog‘ozlarni dastlabki sotish obuna bo‘yicha yoki birlamchi sotuvchi tomonidan bevosita sotish shaklida amalga oshiriladi.

Қимматли қоғозларни чиқарган ташкилот, эмитент томонидан янги чиқарилган қимматли қоғозлар сотиладиган бозор. Қимматли қоғозларни дастлабки сотиш обуна бўйича ёки бирламчи сотувчи томонидан бевосита сотиш шаклида амалга оширилади.

Первоначальный капитал

uz - boshlang‘ich kapital

бошланғич капитал
en - original capital

Исходный капитал, необходимый предпринимателю для открытия собственного дела, создания предприятия, фирмы по производству и продаже товаров, услуг.

Tadbirkorga o‘z ishini ochish, tovarlar, xizmatlar ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha firma, korxonalar tashkil qilish uchun zarur bo‘ladigan kapital.

Тадбиркорга ўз ишини очиш, товарлар, хизматлар ишлаб чиқариш ва сотиш бўйича фирма, корхона ташкил қилиш учун зарур бўладиган капитал.

П

Перевод денег

uz - pul o'tkazish

пул ўтказиш

en - transfer of money

Способ перечисления денег предприятиями, организациями, учреждениями, гражданами при взаимных расчетах. Состоит в том, что один из субъектов переводит другому денежные суммы через кредитные учреждения и предприятия связи.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan o'zaro hisob-kitoblarda pul ko'chirish usuli. Bir subyektning kredit tashkilotlari va aloqa korxonalari orqali boshqa bir subyektga pul summolari o'tkazishidan iborat.

Корхоналар, ташкилотлар, муассасалар томонидан ўзаро ҳисоб-китобларда пул кўчириш усули. Бир субъектнинг кредит ташкилотлари ва алоқа корхоналари орқали бошқа бир субъектга пул суммалари ўтказишидан иборат.

Передаточная надпись

uz - topshiradigan yozuv

топширадиган ёзув

en - endorsement

Надпись на обратной стороне ценной бумаги о передаче прав на нее одним лицом другому лицу.

Qimmatli qog'ozning orqa tomonidagi, unga bo'lgan huquqlar bir shaxsdan boshqa bir shaxsga berilishi to'g'risidagi yozuv.

Қимматли қоғознинг орқа томонидаги, унга бўлган ҳуқуқлар бир шахсдан бошқа бир шахсга берилиши тўғрисидаги ёзув.

Переоценка

uz - qaytadan baho belgilash

кайтадан баҳо белгилаш

en - appreciation

Изменение оценки, новая оценка стоимости товаров, основных средств, имущества, изменение нарицательной стоимости вкладов в связи с материальным и моральным износом, инфляцией, подвижностью цен.

Moddiy va ma'naviy eskirish, inflyatsiya va narxlarning harakatchanligi sababli, omonatlar ustiga yozib qo'yilgan qiymatining o'zgarishi, tovarlar, asosiy vositalar, mulk qiymatini baholashning o'zgarishi, yangi qiymati.

Моддий ва маънавий эскириш, инфляция ва

II

нархларнинг ҳаракатчанлиги сабабли, омонатлар устига ёзиб қўйилган қийматининг ўзгариши, товарлар, асосий воситалар, мулк қийматини баҳолашнинг ўзгариши, янги қиймати.

Перераспределение доходов

uz - daromadlarning qayta taqsimlanishi

даромадларнинг қайта тақсимланиши

en - income transfers

Изъятие части доходов у одних лиц с целью их передачи другим лицам или добровольная передача доходов одними лицами другим, более в них нуждающимся. Перераспределение доходов в масштабе государства и регионов осуществляется посредством налогов, в масштабе отраслей – перераспределением средств через бюджет, на предприятиях – путем передачи средств.

Daromadlar bir qismining, qandaydir shaxslardan boshqa bir shaxslarga berish maqsadida olinishi yoki ularga ko'proq muhtoj bo'lganlarga ixtiyoriy ravishda berilishi. Daromadlarning davlat va mintaqalar miqyosida taqsimlanishi soliqlar vositasida, tarmoqlar miqyosida – mablag'larni byudjet orqali taqsimlash, korxonalarda – mablag'larni berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Даромадлар бир қисмининг, қандайдир шахслардан бошқа бир шахсларга бериш мақсадида олинishi ёки уларга кўпроқ муҳтож бўлганларга ихтиёрий равишда берилиши. Даромадларнинг давлат ва минтақалар миқёсида тақсимланиши солиқлар воситасида, тармоқлар миқёсида – маблағларни бюджет орқали тақсимлаш, корхоналарда – маблағларни бериш йўли билан амалга оширилади.

Перерасход

uz - ortiqcha sarf bo'lish

ортиқча сарф бўлиш

en - overdraft

Превышение расхода денежных средств в сравнении с ранее намеченным, запланированным уровнем.

Pul mablag'lari sarfining, oldin belgilangan, rejalashtirilgan darajaga nisbatan oshib ketishi.

Пул маблағлари сарфининг, олдин белгиланган, режалаштирилган даражага нисбатан ошиб кетиши.

II

Перерасчет

uz - qaytadan hisoblash
кайтадан ҳисоблаш
en - reappraisal

Повторный, вторичный расчет заработной платы, налогов, платежей, производимый при обнаружении ошибок в первичном расчете или в связи с изменением условий, обстоятельств, влияющих на рассчитываемую величину (цен, тарифов, налоговых ставок, процентов).

Boshlang'ich hisoblashda xatolar aniqlanganda yoki hisoblanadigan kattalikka (baholarga, tariflarga, soliq stavkalariga, foizlarga) ta'sir ko'rsatadigan vaziyatlar, sharoitlar o'zgarishi sababli, ish haqini, soliqlar, to'lovlarni takroran, ikkinchi marta hisoblash.

Бошланғич ҳисоблашда хатолар аниқланганда ёки ҳисобланадиган катталиққа (баҳоларга, тарифларга, солиқ ставкаларига, фоизларга) таъсир кўрсатадиган вазиятлар, шароитлар ўзгариши сабабли, иш ҳақини, солиқлар, тўловларни такроран, иккинчи марта ҳисоблаш.

Период

uz - davr
давр
en - period

В экономике: продолжительность протекания экономического процесса или время, на которое разработан график работ, рассчитаны планы, программы.

Iqtisodiyotda: iqtisodiy jarayonning kechish davomiyligi yoki ishlar jadvali, dasturlar, rejalar mo'ljallanadigan vaqt.

Иқтисодиётда: иқтисодий жараённинг кечиш давомийлиги ёки ишлар жадвали, дастурлар, режалар мўлжалланадиган вақт.

Плавающая процентная ставка

uz - «suzuvchi» foiz stavkasi
«сузувчи» фоиз ставкаси
en - floating interest rate

Процентная ставка по среднесрочным и долгосрочным кредитам, размер которой не фиксируется на весь период кредитования. Такая ставка подлежит периодическому пересмотру через согласованные между кредитором и заемщиком промежутки времени в зависимости от складывающейся ситуации на кредитном рынке.

O'rta va uzoq muddatli kredit bo'yicha, miqdori butun kreditlash davriga qayd qilinmaydigan foiz

II

stavkasi. Bunday stavka kredit bozorida yuzaga keladigan vaziyatga bog'liq holda, kreditor va qarzdor o'rtasida kelishilgan vaqt oralig'larini oralatib davriy ravishda ko'rib chiqilishi kerak.

Ўрта ва узоқ муддатли кредит бўйича, миқдори бутун кредитлаш даврига қайд қилинмайдиган фоиз ставкаси. Бундай ставка кредит бозорида юзага келадиган вазиятга боғлиқ ҳолда, кредитор ва қарздор ўртасида келишилган вақт оралиқлари оралатиб даврий равишда кўриб чиқиши керак.

План экономический

uz - iqtisodiy reja
иқтисодий режа
en - economic plan

Описание, картина, модель намечаемого будущего состояния экономической системы, хозяйства страны, регионов, отраслей, предприятий, компаний.

Mamlakat, mintaqalar, tarmoqlar, korxonalar, kompaniyalar xo'jaligi, iqtisodiy tizimi mo'ljallanayotgan kelajak holatining tavsifi, manzarasi, modeli.

Мамлакат, минтақалар, тармоқлар, корхоналар, компаниялар хўжалиги, иқтисодий тизими мўлжалланаётган келажак ҳолатининг тавсифи, манзараси, модели.

Планирование

uz - rejalashtirish
режалаштириш
en - planning

Составная часть управления экономической системой и решения перспективных и текущих задач развития экономики. Охватывает разработку и практическое осуществление планов, пути и средства их достижения. Планы делятся на перспективные (долгосрочные, сроком на 10-15), среднесрочные (на 3-5 лет) и текущие (краткосрочные, на период до одного года).

Iqtisodiy tizimni boshqarish hamda iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqboldagi va joriy vazifalarini hal qilishning tarkibiy qismi. Rejalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, ularga erishish yo'llari va vositalarini qamrab oladi. Rejalar istiqboldagi rejalariga (10-15 yilga mo'ljallangan uzoq muddatli), o'rta muddatli (3-5 yil) hamda joriy (qisqa muddatli, bir yilgacha davrga) rejalariga bo'linadi.

П

Иқтисодий тизимни бошқариш ҳамда иқтисодиётни ривожлантиришнинг истиқболдаги ва жорий вазифаларини ҳал қилишнинг таркибий қисми. Режалар ишлаб чиқиш, уларни амалга ошириш, уларга эришиш йўллари ва воситаларини қамраб олади. Режалар истиқболдаги режаларга (10-15 йилга мўлжалланган узок муддатли), ўрта муддатли (3-5 йил) ҳамда жорий (қиска муддатли, бир йилгача даврга) режаларга бўлинади.

Платежеспособный спрос
uz - to‘lashga qurbi yetadigan talab

тўлашга қурби етадиган талаб

en - solvent demand

Спрос на товары и услуги, обеспеченный денежными средствами их покупателей.

Xaridorlarning pul mablag‘lari bilan ta‘minlangan, tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talab.

Харидорларнинг пул маблағлари билан таъминланган, товарлар ва хизматларга бўлган талаб.

Платежная ведомость

uz - to‘lov qaydnomasi

тўлов қайдномаси

en - pay sheet

Бухгалтерский кассовый документ, на основе которого производится выплата заработной платы работникам предприятия и другие виды денежных выплат.

Buxgalteriyaning kassa hujjati, uning asosida korxonada xodimlariga ish haqini va boshqa pul to‘lovlarini to‘lash amalga oshiriladi.

Бухгалтериянинг касса ҳужжати, унинг асосида корхона ходимларига иш ҳақини ва бошқа пул тўловларини тўлаш амалга оширилади.

Платежное извещение

uz - to‘lov xabaromasi

тўлов хабарномаси

en - payment advice

Документ, посредством которого финансовые органы извещают плательщиков о необходимости внесения причитающихся с них платежей, о сумме платежа и срока его уплаты.

Moliya organlari to‘lanishi zarur bo‘lgan to‘lovni to‘lash to‘g‘risida, to‘lov summasi va uni to‘lash muddati to‘g‘risida to‘lovchilarni xabardor qiladigan hujjat.

Молия органлари тўланиши зарур бўлган тўловни тўлаш тўғрисида, тўлов суммаси ва уни тўлаш муддати тўғрисида тўловчиларни хабардор қиладиган ҳужжат.

П

Платежное поручение

uz - to'lov topshirig'i

тўлов топшириғи

en - payment order

Расчетный документ, содержащий поручение предприятия, организации обслуживающему банку о перечислении определенной суммы денег со счета предприятия на счет получателя средств.

Korxonona, tashkilotning xizmat ko'rsatadigan bankka muayyan pul summasini korxonona hisobraqamidan mablag'larni oluvchining hisobraqamiga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'i bo'lgan hisob-kitob hujjati.

Корхона, ташкилотнинг хизмат кўрсатадиган банкка муайян пул суммасини корхона ҳисобрақамидан маблағларни олувчининг ҳисобрақамига ўтказиш тўғрисидаги топшириғи бўлган ҳисоб-китоб ҳужжати.

Платежные документы

uz - to'lov hujjatlari

тўлов ҳужжатлари

en - payment documents

Документы, ценные бумаги, пригодные для использования в качестве средства платежа, сопутствующие платежу.

To'lov vositasi sifatida ishlatish uchun yaroqli bo'lgan hujjatlar, qimmatli qog'ozlar.

Тўлов воситаси сифатида ишлатиш учун яроқли бўлган ҳужжатлар, қимматли қоғозлар.

Платежный баланс

uz - to'lov balansi

тўлов баланси

en - pay balance

Таблица, ведомость, отражающие движение денежных средств в виде платежей из страны и в страну. Платежный баланс характеризует соотношение сумм платежей, произведенных страной за границей в течение определенного периода и поступивших в страну в течение того же периода.

Pul mablag'larining mamlakatdan va mamlakatga to'lovlar ko'rinishida harakatlanishini aks ettiradigan jadval, qaydnoma. To'lov balansi muayyan davr ichida chet elda mamlakat amalga oshirgan va xuddi shu davr ichida mamlakatga kelib tushgan to'lovlar summasi nisbatini tavsiflaydi.

Пул маблағларининг мамлакатдан ва мамлакатга тўловлар кўринишида ҳаракатланишини акс эттирадиган жадвал, қайднома. Тўлов баланси муайян давр ичида чет элда мамлакат амалга

II

оширган ва худди шу давр ичида мамлакатга келиб тушган тўловлар суммаси нисбатини тавсифлайди.

Повременная оплата труда

uz - mehnatga vaqtbay haq to'lash

меҳнатга вақтбай ҳақ тўлаш

en - hourly wages

Форма оплаты труда работников за фактически отработанное ими время, с учетом квалификации и условий труда. Заработная плата определяется умножением количества отработанных часов на часовую (дневную) тарифную ставку оплаты труда, установленную для данной категории работников.

Mehnat sharoitlari va malaka hisobga olingan holda, haqiqatda ishlangan vaqt uchun xodimlar mehnatiga haq to'lash shakli. Ish haqi ishlangan soatlar sonini, ishchilarning bu toifasi uchun belgilangan, mehnatga haq to'lashning soatbay (kunduzgi) tarif to'riga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Меҳнат шароитлари ва малака ҳисобга олинган ҳолда, ҳақиқатда ишланган вақт учун ходимлар меҳнатига ҳақ тўлаш шакли. Иш ҳақи ишланган соатлар сонини, ишчиларнинг ушбу тоифаси учун белгиланган, меҳнатга ҳақ тўлашнинг соатбай (кундузги) тариф тўрига кўпайтириш орқали аниқланади.

Подряд

uz - pudrat

пудрат

en - contract

Договор, по которому одна сторона – подрядчик обязуется под свою ответственность выполнить по заданию другой стороны – заказчика определенную работу с использованием собственных материалов или материалов заказчика на установленную плату. По договору подряда оплачивается только готовый результат, сданный заказчику. Подрядчик вправе привлекать к исполнению заказа и других лиц, которые становятся субподрядчиками, а подрядчик превращается в генерального подрядчика.

Shartnoma, unga ko'ra bir tomon – pudratchi o'zining javobgarligi ostida boshqa bir tomon – buyurtmachining topshirig'i bo'yicha, o'zining materiallaridan yoki buyurtmachi materiallaridan foydalanib, belgilangan haq evaziga muayyan ishni ba-

II

jarish majburiyatini oladi. Pudrat shartnomasi bo‘yicha faqat buyurtmachiga topshirilgan tayyor natija uchun haq to‘lanadi. Pudratchi buyurtmani bajarishga boshqa shaxslarni ham jalb qilishi mumkin. Bu shaxslar subpudratchilar bo‘ladilar, pudratchi esa, bosh pudratchiga aylanadi.

Шартнома, унга кўра бир томон – пудратчи ўзининг жавобгарлиги остида бошқа бир томон – буюртмачининг топшириғи бўйича, ўзининг материалларидан ёки буюртмачи материалларидан фойдаланиб, белгиланган ҳақ эвазига муайян ишни бажариш мажбуриятини олади. Пудрат шартномаси бўйича фақат буюртмачига топширилган тайёр натижа учун ҳақ тўланади. Пудратчи буюртмани бажаришга бошқа шахсларни ҳам жалб қилиши мумкин. Бу шахслар субпудратчилар бўладилар, пудратчи эса, бош пудратчига айланади.

Позиционирование

uz - o‘rin egallash

ўрин эгаллаш

en - positioning

Маркетинговая стратегия по разработке предложений компании своей продукции или своего имиджа, с целью занять выгодное положение, в сознании и психологии целевой группы потребителей, отличное от других аналогичных предложений.

Iste'molchilarning maqsadli guruhi ongida va psixologiyasida o'xshash takliflardan farq qiladigan qulay o'rinni egallash maqsadida, kompaniya mahsuloti yoki imiji takliflarini ishlab chiqish yuzasidan marketing strategiyasi.

Истеъмолчиларнинг мақсадли гуруҳи онгида ва психологиясида ўхшаш таклифлардан фарқ қиладиган қулай ўринни эгаллаш мақсадида, компания маҳсулоти ёки имижи таклифларини ишлаб чиқиш юзасидан маркетинг стратегияси.

Поисковое исследование

uz - izlash tadqiqoti

излаш тадқиқоти

en - exploratory research

Один из типов маркетингового исследования, основная задача которого состоит в обеспечении понимания проблемы, стоящей перед исследователем.

II

Asosiy vazifasi tadqiqotchi oldida turgan muammoning tushunilishini ta'minlashdan iborat bo'lgan marketing tadqiqoti turlaridan biri.

Асосий вазифаси тадқиқотчи олдида турган муаммонинг тушунилишини таъминлашдан иборат бўлган маркетинг тадқиқоти турларидан бири.

Показатели экономические
uz - iqtisodiy ko'rsatkichlar
иқтисодий кўрсаткичлар
en - economic indicators

Величины, критерии, уровни, измерители, индикаторы, которые позволяют судить о состоянии экономики страны, региона, предприятия, домохозяйства и изменении этого состояния, об экономическом развитии, росте, подъеме или спаде. Принято различать количественные и качественные показатели, а также единичные и групповые (агрегированные, синтетические, обобщенные). В зависимости от области применения показатели делятся на аналитические, прогнозные, плановые, расчетные, отчетные, статистические.

Mamlakat, mintaqa, korxonalar, uy xo'jaligi iqtisodiyotining holati va bu holatning o'zgarishi, iqtisodiy rivojlanish, o'sish, yuksalish yoki pasayish to'g'risida fikr yuritish imkonini beradigan kattaliklar, kriteriyalar, darajalar, o'lchagichlar, indikatorlar. Miqdor va sifat ko'rsatkichlar, shuningdek, ayrim to'plam (agregirlangan, sintetik, umumlashtirilgan) ko'rsatkichlar ajratiladi. Qo'llanish sohasiga bog'liq holda, ko'rsatkichlar analitik, prognoz, rejali, hisob-kitob, hisobot, statistik ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Мамлакат, минтақа, корхона, уй хўжалиги иқтисодиётининг ҳолати ва бу ҳолатнинг ўзгариши, иқтисодий ривожланиш, ўсиш, юксалиш ёки пасайиш тўғрисида фикр юритиш имконини берадиган катталиклар, критерийлар, даражалар, ўлчагичлар, индикаторлар. Миқдор ва сифат кўрсаткичлар, шунингдек, айрим тўплам (агрегирланган, синтетик, умумлаштирилган) кўрсаткичлар ажратилади. Қўлланиш соҳасига боғлиқ ҳолда, кўрсаткичлар аналитик, прогноз, режали, ҳисоб-китоб, ҳисобот, статистик кўрсаткичларга бўлинади.

П

Покупательная способность денег

uz - pullarning xarid qobiliyati

пулларнинг харид
қобилияти

en - purchasing power

Способность денежной единицы быть обмененной на определенное количество товаров и услуг; выражает наполненность денежной единицы в обороте массой товаров и услуг при данном уровне цен на товары и тарифов на услуги.

Pul birligining muayyan miqdordagi tovarlar va xizmatlarga ayirboshlanish qobiliyati; tovarlar narxlariga, xizmatlar uchun belgilangan tariflarga bog'liq.

Пул бирлигининг муайян миқдордаги товарлар ва хизматларга айирбошланиш қобилияти; товарлар нархларига, хизматлар учун белгиланган тарифларга боғлиқ.

Покупка, этапы процесса

uz - xarid qilish jarayoni

bosqichlari

харид қилиш жараён

босқичлари

en - purchase

Процесс покупки потребителем, состоит из 5 основных этапов:

1. Осознание проблемы.
2. Поиск информации.
3. Оценка вариантов.
4. О покупке.
5. Постпокупочная реакция.

Iste'molchi tomonidan xarid qilish jarayoni, beshta asosiy bosqichdan iborat:

1. Muammoni anglash
2. Axborot izlab topish.
- 3) Variantlarni baholash.
- 4) Xarid qilish to'g'risida qaror qilish.
- 5) Xariddan keyingi ta'sirlanish.

Iste'molchi tomonidan xarid qilish jarayoni, beshta asosiy bosqichdan iborat:

1. Muammoni anglash.
2. Axborot izlab topish.
3. Variantlarni baholash.
4. Xarid qilish to'g'risida qaror qilish.
5. Xariddan keyingi ta'sirlanish.

Поле

uz - maydon

майдон

en - field

Условное обозначение этапа проведения маркетингового исследования по сбору первичной информации: массовый опрос, наблюдение, регистрация фактов, событий или явлений.

II

Boshlang'ich ma'lumotni to'plash bo'yicha marketing tadqiqotini o'tkazish bosqichining shartli nomi: ommaviy so'rov, faktlar, hodisalar yoki ko'rinishlarni qayd etish, kuzatish.

Бошланғич маълумотни тўплаш бўйича маркетинг тадқиқотини ўтказиш bosqichining shartli nomi: ommaviy so'rov, faktlar, hodisalar ёки кўринишларни қайд этиш, кузатиш.

Полис

uz - polis

полис

en - policy

Документ (как правило, именно), выдаваемый страховым обществом застрахованному в нем лицу или учреждению, подтверждающий сделку.

Sug'urta jamiyati tomonidan, unda sug'urtalangan shaxsga yoki muassasaga beriladigan, bitimni tasdiqlaydigan (odatda, oluvchining nomi yozilgan) hujjat.

Суғурта жамияти томонидан, унда суғурталанган шахсга ёки муассасага бериладиган, битимни тасдиқлайдиган (одатда, олувчининг номи ёзилган) ҳужжат.

Полная занятость

uz - to'la bandlik

тўла бандлик

en - full employment

Ситуация в стране, когда каждый трудоспособный человек может получить работу по специальности, занять рабочее место.

Mamlakatdagi vaziyat, bunda mehnatga layoqatli har bir kishi mutaxassisligi bo'yicha ish olishi, ish joyini egallashi mumkin bo'ladi.

Мамлакатдаги вазият, бунда меҳнатга лаёқатли ҳар бир киши мутахассислиги бўйича иш олиши, иш жойини эгаллаши мумкин бўлади.

Положение на рынке

uz - bozordagi holat

бозордаги ҳолат

en - market position

Ситуация на рынке определенного вида товаров и услуг, характеризующаяся, в первую очередь, уровнем спроса и предложения на данный вид товаров и услуг и взаимной зависимостью между спросом и предложением.

Muayyan turdagi tovarlar va xizmatlar bozorida, birinchi galda, tovarlar va xizmatlarning bu turiga talab va taklif darajasi, talab va taklif o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bilan tavsiflanadigan vaziyat.

П

Муайян турдаги товарлар ва хизматлар бозоридаги, биринчи галда, товарлар ва хизматларнинг бу турига талаб ва таклиф даражаси, талаб ва таклиф ўртасидаги ўзаро боғлиқлик билан тавсифланадиган вазият.

Полуфабрикаты

uz - yarimfabrikatlar

яримфабрикатлар

en - intermediate

Готовое изделие, продукция предприятия, которая используется преимущественным образом как составная часть другого более сложного вида продукции, изготовляемого на том же или на другом предприятии.

Tayyor buyum, korxonaning, shu yoki boshqa korxonada tayyorlanadigan birmuncha murakkabroq mahsulot turining tarkibiy qismi sifatida ishlatiladigan mahsuloti.

Тайёр буюм, корхонанинг, шу ёки бошқа корхонада тайёрланадиган бирмунча мураккаброқ маҳсулот турининг таркибий қисми сифатида ишлатиладиган маҳсулоти.

Портфель

uz - portfel

портфель

en - portfel

Собирательное понятие, означающее совокупность форм и видов экономической, финансовой деятельности, соответствующих им документов, денежных средств, заказов, объектов. Например, портфель ценных бумаг – совокупность ценных бумаг, которыми располагает инвестор (отдельное лицо, организация, фирма).

Iqtisodiy, moliyaviy faoliyat turlari va shakllari, ularga tegishli hujjatlar, pul mablagʻlari, buyurtmalar, obyektlar jamini anglatadigan umumlash-tiruvchi tushuncha. Masalan, qimmatli qogʻozlar portfeli – investor (ayrim shaxs, tashkilot, firma) qoʻlida boʻlgan jami qimmatli qogʻozlar portfeli.

Иқтисодий, молиявий фаолият турлари ва шакллари, уларга тегишли ҳужжатлар, пул маблағлари, буюртмалар, объектлар жамини англатадиган умумлаштирувчи тушунча. Масалан, қимматли қоғозлар портфели – инвестор (айрим шахс, ташкилот, фирма) қўлида бўлган жами қимматли қоғозлар портфели.

П

Портфельные инвестиции
uz - portfel investitsiyalar
портфель инвестициялар
en - portfolio investment

Долгосрочное вложение средств в акции, облигации и другие ценные бумаги с целью получения прибыли.

Foyda olish maqsadida, mablag'larni aksiyalarga, obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga uzoq muddatli qo'yish.

Фойда олиш мақсадида, маблағларни акцияларга, облигацияларга ва бошқа қимматли қоғозларга узоқ муддатли қўйиш.

Поручительство
uz - kafillik
кафиллик
en - guarantee

Принятие на себя ответственности за то, что другое лицо выполнит свои обязательства.

Boshqa bir shaxs o'z majburiyatlarini bajarishi yuzasidan o'ziga mas'uliyatni olish.

Бошқа бир шахс ўз мажбуриятларини бажариши юзасидан ўзига масъулиятни олиш.

Пособие
uz - nafaqa
нафақа
en - grant

Одна из форм материального обеспечения граждан; денежная помощь, оказываемая государством лицам, находящимся в тяжелом экономическом положении, например, пособие по безработице.

Fuqarolarni moddiy ta'minlash shakllaridan biri; davlat tomonidan murakkab iqtisodiy holatga tushib qolgan shaxslarga ko'rsatiladigan pulli yordam, masalan, ishsizlik nafaqasi.

Фуқароларни моддий таъминлаш шаклларида бири; давлат томонидан мураккаб иқтисодий ҳолатга тушиб қолган шахсларга кўрсатиладиган пулли ёрдам, масалан, ишсизлик нафақаси.

Посредничество
uz - vositachilik
воситачилик
en - agency

Вид предпринимательской деятельности, комплекс операций, проводимых в период между созданием продукции и доведением ее до потребителя. К посредничеству относится деятельность по содействию заключению контрактов между поставляющей и потребляющей стороной; посредник заполняет разрыв в цепи «производство – потребитель».

II

Tadbirkorlik faoliyatining bir turi, mahsulotning yaratilishi va uning iste'molchiga yetkazilishi o'rtasidagi davrda o'tkaziladigan operatsiyalar majmui. Vositachilikka yetkazib beruvchi va iste'mol qiluvchi tomon o'rtasida kontraktlar tuzishga ko'maklashish bo'yicha faoliyat kiradi; vositachi «ishlab chiqarish – iste'molchi» zanjiridagi bo'shliqni to'ldiradi.

Тадбиркорлик фаолиятининг бир тури, маҳсулотнинг яратилиши ва унинг истеъмолчига етказилиши ўртасидаги даврда ўтказиладиган операциялар мажмуи. Воситачиликка етказиб берувчи ва истеъмол қилувчи томон ўртасида контрактлар тузишга кўмаклашиш бўйича фаолият киради; воситачи «ишлаб чиқариш – истеъмолчи» занжиридаги бўшлиқни тўлдиради.

Поставка товара

uz - tovarni yetkazib berish
товарни етказиб бериш
en - goods delivery

Заключительный этап выполнения договора купли-продажи. Поставка может иметь форму непосредственной передачи товара в руки покупателя или доставки транспортом в место, указанное покупателем.

Oldi-sotdi shartnomasini bajarishning yakuniy, bosqichi. Yetkazib berish tovarni bevosita xaridor qo'liga topshirish yoki xaridor ko'rsatgan joyga transportda olib borib berish shaklida bo'lishi mumkin.

Олди-сотди шартномасини бажаришнинг якуний босқичи. Етказиб бериш товарни бевосита харидор кўлига топшириш ёки харидор кўрсатган жойга транспортда олиб бориб бериш шаклида бўлиши мумкин.

Потенциальные возможности

uz - potensial imkoniyatlar
потенциал имкониятлар
en - performance potential

Предвидимые возможности предприятия осуществлять в будущем производство товаров и услуг, получать доходы и прибыль.

Korxonaning kelajakda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni amalga oshirish, daromad va foyda olish bo'yicha oldindan ko'rilgan imkoniyatlari.

Корхонанинг келажакда товарлар ва хизматлар ишлаб чиқаришни амалга ошириш, даромад ва фойда олиш бўйича олдиндан кўрилган имкониятлари.

П

Поток денежный, финансовый

uz - pul oqimi, moliyaviy oqim
пул оқими, молиявий

оқим

en - cashflow

1. Сумма полученных или выплаченных организацией денег.

2. Движение денежных средств, отображающее их поступление и расходование, удовлетворение потребности в инвестициях, покрытие дефицита, привлечение заемных средств.

3. Разность между суммами поступлений и выплат денежных средств компании за определенный период времени, обычно финансовый год.

1. Tashkilot tomonidan olingan yoki to'langan pul summasi.

2. Pul mablag'larining, ularning kelib tushishini va sarflanishini, investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoj qondirilishini, kamomad qoplanishini, qarz mablag'lar jalb qilinishini aks ettiradigan harakati.

3. Muayyan vaqt davri, odatda, moliya yili ichida kompaniyaga kelib tushadigan va to'lanadigan pul mablag'larining summalari o'rtasidagi farq.

1. Tashkilot tomonidan olingan ёки тўланган пул суммаси.

2. Пул маблағларининг, уларнинг келиб тушини ва сарфланишини, инвестицияларга бўлган эҳтиёж қондирилишини, камомад қопланишини, қарз маблағлар жалб қилинишини акс эттирадиган ҳаракати.

3. Муайян вақт даври, одатда, молия йили ичида компанияга келиб тушадиган ва тўланадиган пул маблағларининг суммалари ўртасидаги фарқ.

Поточное производство

uz - uzluksiz ishlab chiqarish
узлуксиз ишлаб чиқариш

en - flow-production

Метод организации производства, характеризующийся расчленением производственного процесса на отдельные, относительно короткие операции, выполняемые на специально оборудованных, последовательно расположенных рабочих местах – поточных линиях.

Ishlab chiqarishni tashkil qilish usuli, ishlab chiqarish jarayonini maxsus jihozlangan, ketma-ket joylashgan ish joylari – potok liniyasida bajariladigan alohida, nisbatan qisqa operatsiyalarga bo'lish bilan tavsiflanadi.

П

Ишлаб чиқаришни ташкил қилиш усули, ишлаб чиқариш жараёнини махсус жиҳозланган, кетма-кет жойлашган иш жойлари – поток линиясида бажариладиган алоҳида, нисбатан қисқа операцияларга бўлиш билан тавсифланади.

Потребительная стоимость

uz - iste'mol qiymati
истеъмол қиймати
en - value in use

Полезность вещи как предмета потребления, наличие у нее свойств и качеств, позволяющих удовлетворять какую-либо человеческую потребность.

Buyumning iste'mol predmeti sifatida foydaliligi, unda odamning qandaydir ehtiyojini qondiradigan sifatlar, xossalarning borligi.

Буюмнинг истеъмол предмети сифатида фойдалилиги, унда одамнинг қандайдир эҳтиёжини қондирадиган сифатлар, хоссаларнинг борлиги.

Потребительские товары

uz - iste'molchi tovarlar
истеъмол товарлари
en - consumer goods

Виды товаров и услуг, предназначенные для конечного потребления, для личного, семейного, домашнего использования.

Pirovard iste'mol uchun, shaxsiy, oilaviy, uyda foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarning turlari.

Пировард истеъмол учун, шахсий, оилавий, уйда фойдаланиш учун мўлжалланган товарлар ва хизматларнинг турлари.

Потребительский кредит

uz - iste'mol krediti
истеъмол кредити
en - consumer credit

Форма кредита, назначение которого состоит в предоставлении населению денежных средств или товаров для удовлетворения потребительских нужд с последующим возмещением долга.

Vazifasi, keyinchalik qarzni to'lash sharti bilan, aholiga iste'mol ehtiyojlarini qondirish uchun pul mablag'lari yoki tovarlar berishdan iborat kredit shakli.

Вазифаси, кейинчалик қарзни тўлаш шarti билан, аҳолига истеъмол эҳтиёжларини қондириш учун пул маблағлари ёки товарлар беришдан иборат кредит шакли.

П

Потребительское право

uz - iste'molchi huquqi

истеъмолчи ҳуқуқи

en - consumer's law

Совокупность юридических, законодательных норм и правил, ставящих своей целью защиту интересов потребителей.

Maqsadi iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishdan iborat yuridik, qonunchilik normalari va qoidalari jami.

Мақсади истеъмолчилар манфаатларини ҳимоя қилишдан иборат юридик, қонунчилик нормалари ва қоидалари жами.

Потребление

uz - iste'mol

истеъмол

en - consumption

Использование, употребление, применение продукции, вещей, благ, товаров, услуг в целях удовлетворения потребностей. Различают производственное потребление – расходование, использование ресурсов в процессе производства, и непроизводственное, конечное потребление благ людьми, населением для удовлетворения общественных и личных потребностей.

Ehtiyojlarni qondirish maqsadida, tovarlar, xizmatlar, ne'matlar, buyumlar, mahsulotdan foydalanish, iste'mol qilish, ishlatish. Ishlab chiqarish iste'moli – ishlab chiqarish jarayonida resurslarni sarflash, ulardan foydalanish va noishlab chiqarish iste'moli, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun, aholi, odamlar tomonidan ne'matlarning pirovard iste'mol qilinishi farqlanadi.

Эҳтиёжларни қондириш мақсадида, товарлар, хизматлар, неъматлар, буюмлар, маҳсулотдан фойдаланиш, истеъмол қилиш, ишлатиш. Ишлаб чиқариш истеъмоли – ишлаб чиқариш жараёнида ресурсларни сарфлаш, улардан фойдаланиш ва ноишлаб чиқариш истеъмоли, ижтимоий ва шахсий эҳтиёжларни қондириш учун, аҳоли, одамлар томонидан неъматларнинг пировард истеъмол қилиниши фарқланади.

Потребности

uz - ehtiyojlar

эҳтиёжлар

en - needs

Виды продукции, товаров, услуг, вещей, творческой деятельности, в которых нуждаются люди, которые они желают, стремятся иметь и потреблять, использовать; внутренний побудитель активности. Потребности разделяются на биологи-

II

ческие и социальные, последние обусловлены общественной природой человека.

Odamlarga kerakli bo'lgan, ular istaydigan, ega bo'lishga va iste'mol qilishga, foydalanishga intiladigan ijodiy faoliyat, buyumlar, tovarlar; xizmatlar, mahsulot turlari; ichki faollikni qo'zg'atuvchi. Ehtiyojlar biologik va ijtimoiy ehtiyojlarga bo'linadi, ijtimoiy ehtiyojlar odamning ijtimoiy tabiati bilan bog'liq.

Одамларга керакли бўлган, улар истайдиган, эга бўлишга ва истеъмол қилишга, фойдаланишга интиладиган ижодий фаолият, буюмлар, товарлар; хизматлар, маҳсулот турлари; ички фаолликни қўзғатувчи. Эҳтиёжлар биологик ва ижтимоий эҳтиёжларга бўлинади, ижтимоий эҳтиёжлар одамнинг ижтимоий табиати билан боғлиқ.

Пошлина

uz - boj

бож

en - duty

Особый вид налогов и сборов, взимаемых государством в лице государственных органов с юридических и физических лиц за определенные виды услуг (при заключении договоров об аренде, передаче ценных бумаг, регистрации предприятий, оформлении наследства, провозе товаров через границу и в ряде других случаев). Пошлины обычно существуют в виде регистрационных и гербовых сборов, почтовых, таможенных, судебных, наследственных, патентных, биржевых пошлин.

Davlat tomonidan davlat organlari timsolida yuridik va jismoniy shaxslardan xizmatlarning muayyan turi uchun (ijara to'g'risida shartnoma tuzish, qimmatli qog'ozlarni topshirish, korxonalarni ro'yxatga olish, merosni rasmiylashtirish, tovarlar chegara orqali olib o'tilishi chog'ida va qator boshqa holatlarda) olinadigan soliqlar va yig'implarning alohida turi. Bojlar, odatda, ro'yxatga olish va davlat yig'implari, pochta, bojxona, sud, meros, patent, birja bojlari ko'rinishida bo'ladi.

Давлат томонидан давлат органлари тимсолида юридик ва жисмоний шахслардан хизматларнинг муайян тури учун (ижара тўғрисида шарт-

II

нома тузиш, қимматли қоғозларни топшириш, корхоналарни рўйхатга олиш, меросни расмийлаштириш, товарлар чегара орқали олиб ўтилиши чоғида ва қатор бошқа ҳолатларда) олинадиган солиқлар ва йиғимларнинг алоҳида тури. Божлар, одатда, рўйхатга олиш ва давлат йиғимлари, почта, божхона, суд, мерос, патент, биржа бождари кўринишида бўлади.

Правление акционерного общества

uz - aksiyadorlar jamiyati
boshqarmasi

акциядорлар жамияти
бошқармаси

en - management board of joint

Коллективный орган, осуществляющий управление делами и представляющий интересы общества в его отношениях с разными организациями.

Jamiyat ishlari boshqaruvini amalga oshiradigan, turli tashkilotlar bilan munosabatlarida jamiyatning manfaatlarini ifodalaydigan jamoa organ.

Жамият ишлари бошқарувини амалга оширадиган, турли ташкилотлар билан муносабатларида жамиятнинг манфаатларини ифодалайдиган жамоа орган.

Право собственности

uz - mulkka egalik huquqi

мулкка эгалик ҳуқуқи

en - property right

Важнейший институт любой системы права; совокупность юридических норм, закрепляющих и охраняющих принадлежность объекта собственности отдельным лицам или коллективам и основанные на этом правомочия собственника по владению, пользованию и распоряжению объектами собственности.

Har qanday huquq tizimining muhim instituti; mulk ob'yektining ayrim shaxslarga yoki jamoalarga tegishlilikini mustahkamlaydigan va himoya qiladigan yuridik normalar yig'indisi hamda bunga asoslangan, mulkdorning mulk obyektlariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etish bo'yicha qonuniy huquqqa egaligi.

Ҳар қандай ҳуқуқ тизимининг муҳим институти; мулк объектининг айрим шахсларга ёки жамоаларга тегишлилигини мустаҳкамлайдиган ва ҳимоя қиладиган юридик нормалар йиғиндиси ҳамда бунга асосланган, мулкдорнинг мулк объектларига эгалик қилиш, улардан фойдаланиш ва тасарруф этиш бўйича қонуний ҳуқуққа эгалиги.

П

Правоспособность

uz - huquqqa ega bo'lish qobiliyati

хуқуққа эга бўлиш қобилияти

en - capacity

Признанная государством способность физического лица, юридических лиц иметь и использовать имущественные и неимущественные права, нести обязанности и отвечать по ним.

Jismoniy shaxs, yuridik shaxslarning, davlat tomonidan e'tirof qilingan mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo'lish va ulardan foydalanish, ular bo'yicha majburiyatni ko'tarish va javob berish qobiliyati.

Жисмоний шахс, юридик шахсларнинг, давлат томонидан эътироф қилинган мулкӣй ва номулкӣй ҳуқуқларга эга бўлиш ва улардан фойдаланиш, улар бўйича мажбуриятни кўтариш ва жавоб бериш қобилияти.

Предварительная оплата, предоплата

uz - oldindan haq to'lash

олдиндан ҳақ тўлаш

en - prepayment

Оплата, осуществляемая покупателем, потребителем до поставки, передачи ему товара, выполнения услуги.

Xaridor, iste'molchi tomonidan, tovar unga yetkazilgunga, topshirilgunga qadar, xizmatlar bajarilgungacha amalga oshiriladigan to'lov.

Харидор, истеъмолчи томонидан, товар унга етказилгунга, топширилгунга қадар, хизматлар бажарилгунгача амалга ошириладиган тўлов.

Предложение

uz - taklif

таклиф

en - supply

1. Стремление, желание производителя (продавца) предложить к продаже свои товары. Величина предложения характеризует количество товаров и услуг, которое производитель желает и может продать по данной цене в определенный период времени.

2. Заявление о желании заключить договор, продать товар.

1. Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)ning o'z tovarlarini sotishga taqdim qilishga intilishi, istagi. Taklif katta taligi ishlab chiqaruvchi muayyan vaqt davrida ma'lum narxda sotishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdorini tavsiflaydi.

2. Shartnoma tuzish, tovarni sotish istagi to'g'risidagi talabnoma.

II

1. Ишлаб чиқарувчи (сотувчи)нинг ўз товарларини сотишга тақдим қилишга интилиши, истаги. Таклиф катталиги ишлаб чиқарувчи муайян вақт даврида маълум нархда сотиши мумкин бўлган товарлар ва хизматлар миқдорини тавсифлайди.

2. Шартнома тузиш, товарни сотиш истаги тўғрисидаги талабнома.

Предпринимательство

uz - tadbirkorlik

тадбиркорлик

en - business

Инициативная, самостоятельная, не противоречащая законодательству деятельность, осуществляемая под свою имущественную ответственность физических лиц и (или) юридических лиц, направленная на получение дохода, прибыли, повышения имиджа, статуса.

Tashabbuskor, mustaqil, qonunchilikka zid boʻlmagan, yuridik va yoki jismoniy shaxslarning mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan, daromad, foyda olishga, imiji, statusi oshishga yoʻnaltirilgan faoliyat.

Ташаббускор, мустақил, қонунчиликка зид бўлмаган, юридик ва ёки жисмоний шахсларнинг мулкӣ жавобгарлиги остида амалга оширилдиган, даромад, фойда олишга, имижи, статуси ошишга йўналтирилган фаолият.

Предприятие

uz - korxonona

корхона

en - enterprise

Любое достаточно крупное хозяйство, организация, ведущая производственную, предпринимательскую деятельность, оказывающая услуги. Главный признак предприятия – самостоятельное хозяйствование при наличии определенного набора прав осуществления хозяйственной деятельности.

Ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini yuritadigan, xizmatlar koʻrsatadigan tashkilot, har qanday yetarli darajadagi yirik xoʻjalik. Korxonaning asosiy belgisi – xoʻjalik faoliyatini amalga oshirish boʻyicha muayyan huquqlar mavjudligi sharoitida mustaqil ravishda xoʻjalik yuritishdir.

Ишлаб чиқариш, тадбиркорлик фаолиятини

П

юритадиган, хизматлар кўрсатадиган ташкилот, ҳар қандай етарли даражадаги йирик хўжалик. Корхонанинг асосий белгиси – хўжалик фаолиятини амалга ошириш бўйича муайян ҳуқуқлар мавжудлиги шароитида мустақил равишда хўжалик юритишдир.

Представительство

uz - vakolatxona, vakillik

ваколатхона, вакиллик

en - agency

1. Учреждение, представляющее в данной стране, регионе интересы предприятий, фирм, банков, находящихся в другом месте, другой стране.

2. Совершение сделок и иных юридических действий одним лицом (представителем) от имени и в интересах другого лица в соответствии с доверенностью, официальными полномочиями или в силу закона, административных актов.

1. Ma'lum bir mamlakatda, mintaqada, boshqa bir joyda, boshqa mamlakatda joylashgan korxonalar, firmalar, banklar manfaatlarini ifodalovchi muassasa.

2. Bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa bir shaxs nomidan va uning manfaatlari yo'lida, ishonchnomaga, rasmiy vakolatlariga yoki qonun kuchiga, m'uriy hujjatlarga muvofiq, kelishuvlar va boshqa yuridik harakatlarning amalga oshirilishi.

1. Ma'lum bir mamlakatda, mintaqada, boshqa bir joyda, boshqa mamlakatda joylashgan korxonalar, firmalar, banklar manfaatlarini ifodalovchi muassasa.

2. Bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa bir shaxs nomidan va uning manfaatlari yo'lida, ishonchnomaga, rasmiy vakolatlariga e'lon qonun kuchiga, m'uriy hujjatlariga muvofiq, kelishuvlar va boshqa yuridik harakatlarning amalga oshirilishi.

Презентация

uz - taqdimot

тақдимот

en - presentation

1. Официальное представление вновь созданного предприятия, фирмы, проекта, продукции кругу приглашенных лиц.

2. Предъявление переводного векселя (тратты) лицу, обязанному по нему осуществить платеж (трассату).

II

1. Yangi tashkil qilingan korxonalar, firma, loyiha, mahsulotni taklif qilingan shaxslarga rasman ko'rsatish.

2. Jo'natma vekselni (trattani), bu veksel bo'yicha to'lovni amalga oshirishi kerak bo'lgan shaxsga (trassatga) ko'rsatish.

1. Янги ташкил қилинган корхона, фирма, лойиҳа, маҳсулотни таклиф қилинган шахсларга расман кўрсатиш.

2. Жўнатма векселни (траттани), бу вексель бўйича тўловни амалга ошириши керак бўлган шахсга (трассатга) кўрсатиш.

Прейскурант

uz - preyskurant

прейскурант

en - price-list

Сборник, справочник цен на продукцию, товары, услуги. Цены, зафиксированные в прейскурантах, называют прейскурантными.

Mahsulot, tovarlar, xizmatlarga bo'lgan narxlar to'g'risidagi ma'lumotnoma, to'plam. Preyskurantlarda qayd qilingan narxlar preyskurant narxlari deyiladi.

Маҳсулот, товарлар, хизматларга бўлган нархлар тўғрисидаги маълумотнома, тўплам. Прейскурантларда қайд қилинган нархлар прейскурант нархлари дейилади.

Премия

uz - mukofot

мукофот

en - premium

1. Денежное или иное материальное поощрение за достижения, заслуги в какой-либо области деятельности.

2. Денги, плата, предоставляемая правительствами некоторых стран для стимулирования экспортеров-поставщиков нужных товаров.

3. Сумма, уплачиваемая покупателем опциона его продавцу за приобретаемое право продать или купить ценные бумаги, товары по заранее установленной цене в течение некоторого периода времени.

4. Денежная сумма, уплачиваемая страхователем страховому обществу за страхование его имущества (страховая премия).

1. Qandaydir faoliyat sohasidagi yutuqlar, xizmat uchun beriladigan pul mukofoti yoki boshqa moddiy rag'batlantirish.

II

2. Ba'zi mamlakatlar hukumatlari tomonidan kerakli tovarlarni yetkazib beruvchi-eksport qiluvchilarni rag'batlantirish uchun beriladigan pul, haq.

3. Qandaydir vaqt davri mobaynida oldindan belgilangan narx bo'yicha tovarlar, qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqiga ega bo'lish uchun, opsiyonni sotib oluvchi tomonidan uni sotuvchiga to'lanadigan summa.

4. Sug'urta qilinuvchi tomonidan, mulki sug'urta qilinganligi uchun sug'urta jamiyatiga to'lanadigan pul summasi.

1. Qandaydir faoliyat sohasidagi yutuklar, xizmat uchun beriladigan pul muqofoti eki boshqa moddiy rag'batlantirish.

2. Ba'zi mamlakatlar hukumatlari tomonidan kerakli tovarlarni etkazib beruvchi-eksport qiluvchilarni rag'batlantirish uchun beriladigan pul, haq.

3. Qandaydir vaqt davri mobaynida oldindan belgilangan narx bo'yicha tovarlar, qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqiga ega bo'lish uchun, opsiyonni sotib oluvchi tomonidan uni sotuvchiga to'lanadigan summa.

4. Sug'urta qilinuvchi tomonidan, mulki sug'urta qilinganligi uchun sug'urta jamiyatiga to'lanadigan pul summasi.

Прерогатива

uz - prerogativa
прерогатива
en - prerogative

Исключительное право, принадлежащее государственному органу или должностному лицу.

Davlat organiga yoki mansabdor shaxsga tegishli alohida huquq.

Давлат органига eki мансабдор шахсга тегишли алоҳида ҳуқуқ.

Претензия

uz - da'vo, talab
даъво, талаб
en - pretension

Заявление кредитора, покупателя, заказчика, клиента об уплате долга, возмещении убытков, устранении обнаруженного недостатка в полученном товаре или в выполненной работе.

Kreditor, xaridor, buyurtmachi, mijozning qarzni to'lash, zararning o'rni qoplash, olingan tovarlarda yoki bajarilgan ishda aniqlangan kamchilikni bartaraf qilish to'g'risidagi arizasi.

П

Кредитор, харидор, буюртмачи, миждознинг қарз-ни тўлаш, зарарнинг ўрнини қоплаш, олинган товарда ёки бажарилган ишда аниқланган камчиликни бартараф қилиш тўғрисидаги аризаси.

Преференции

uz - preferensiyalar

преференциялар

en - preferences

Преимущества, льготы, предоставляемые отдельным государствам, предприятиям, организациям для поддержки определенных видов деятельности; осуществляются в форме снижения налогов, скидок с таможенных пошлин, освобождения от платежей, предоставления выгодных кредитов. Преференции предоставляются государством и носят адресный характер.

Ayrim davlatlarga, korxonalar, tashkilotlarga faoliyatning muayyan turlarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida taqdim etiladigan imtiyozlar, afzalliklar; soliqlarni, bojxona bojlari chegirmalarini kamaytirish, toʻlovlardan ozod qilish, qulay kreditlar berish shaklida amalga oshiriladi.

Айрим давлатларга, корхоналар, ташкилотларга фаолиятнинг муайян турларини қўллаб-қувватлаш мақсадида тақдим этиладиган имтиёзлар, афзалликлар; солиқларни, бојхона бојлари чегирмаларини камайтириш, тўловлардан озод қилиш, қулай кредитлар бериш шаклида амалга оширилади.

Прибыль

uz - foyda

фойда

en - profit

Превышение доходов от продажи товаров и услуг над затратами на производство и продажу этих товаров; один из наиболее важных показателей финансовых результатов хозяйственной деятельности предприятия, предпринимателя. Прибыль исчисляется как разность между выручкой от реализации продукта хозяйственной деятельности и суммой затрат факторов производства на эту деятельность в денежном выражении.

Tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlarning, bu tovarlarni ishlab chiqarishga va sotishga qilingan xarajatlardan oshishi; korxonalar, tadbirkor xoʻjalik faoliyati moliyaviy natijalarining eng muhim koʻrsatkichlaridan biri. Foyda pul bilan ifoda-

II

langanda, xo'jalik faoliyati mahsulini sotishdan tushadigan pul va bu faoliyatga qilingan ishlab chiqarish omillari xarajatlar summasi o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Товарлар ва хизматларни сотишдан олинган даромадларнинг, бу товарларни ишлаб чиқаришга ва сотишга қилинган харажатлардан ошиши; корхона, тадбиркор хўжалик фаолияти молиявий натижаларининг энг муҳим кўрсаткичларидан бири. Фойда пул билан ифодаланганда, хўжалик фаолияти маҳсулини сотишдан тушадиган пул ва бу фаолиятга қилинган ишлаб чиқариш омиллари харажатлар суммаси ўртасидаги фарқ сифатида ҳисобланади.

Приватизация

uz - xususiylashtirish

хусусийлаштириш

en - privatisation

Процесс, процедура перехода имущества, жилья, земли, природных ресурсов, средств производства из рук государства в собственность частных лиц, фирм, акционерных обществ. Приватизация осуществляется посредством продажи объектов государственной собственности частным лицам либо государственная собственность передается в акционерную собственность за небольшую плату, на льготных условиях, даже безвозмездно членам трудового коллектива приватизируемого предприятия.

Mulk, uy-joy, yer, tabiiy resurslar, ishlab chiqarish vositalarining davlat qo'lidan xususiylashtirish davlat mulki ob'ektlarini xususiylashtirish davlat mulki uncha katta bo'lmagan haq evaziga, imtiyozli shartlarda aksiyadorlarga mulk qilib, xususiylashtiriladigan korxonalar mehnat jamoasi a'zolariga hatto, bepul beriladi.

Мулк, уй-жой, ер, табиий ресурслар, ишлаб чиқариш воситаларининг давлат қўлидан хусусий шахслар, фирмалар, акциядорлар жамиятлари тасарруфига ўтиш жараёни, процедураси. Хусусийлаштириш давлат мулки объектларини хусусий шахсларга сотиш орқали амалга оширилади ёки давлат мулки унча катта бўлмаган ҳақ эва-

II

зига, имтиёзли шартларда акциядорларга мулк қилиб, хусусийлаштириладиган корхона меҳнат жамоаси аъзоларига ҳатто, бепул берилади.

Привилегированные акции

uz - imtiyozli aksiyalar
имтиёзли акциялар
en - preference shares

Акции, которые дают их владельцам право на первоочередное получение дивидендов по фиксированной ставке вне зависимости от уровня прибыли, полученной акционерным обществом в данном периоде.

Berilgan davrda aksiyadorlar jamiyati olgan foyda miqdoriga bogʻliq boʻlmagan holda, egalari qatʻiy stavka boʻyicha dividendlarni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalar.

Берилган даврда акциядорлар жамияти олган фойда миқдorigа боғлиқ бўлмаган ҳолда, эгаларига қатъий ставка бўйича дивидендларни биринчи навбатда олиш ҳуқуқини берадиган акциялар.

Привилегия

uz - imtiyoz
имтиёз
en - privilege

Зафиксированные документально, особые права сторон по финансовому контракту; в общем случае – исключительное право, прерогатива, преимущество, превосходство, выгода, предоставленные определенному кругу лиц, компании.

Tomonlarning moliyaviy kontrakt boʻyicha, hujjat bilan qayd etiladigan alohida huquqlari; umumiy holda, muayyan shaxslarga, kompaniyalarga beriladigan alohida huquq, prerogativa, afzallik, ustunlik, qulaylik.

Томонларнинг молиявий контракт бўйича, ҳужжат билан қайд этиладиган алоҳида ҳуқуқлари; умумий ҳолда, муайян шахсларга, компанияларга бериладиган алоҳида ҳуқуқ, прерогатива, афзаллик, устунлик, қулайлик.

Привлеченные средства

uz - jalb qilingan mablagʻlar
жалб қилинган маблағлар
en - external funds

Средства (чаще всего оборотные), не принадлежащие предприятию, полученные со стороны, но временно участвующие в хозяйственном обороте. В условиях рыночной экономики это в основном кредитные средства.

Korxonaga tegishli boʻlmagan, tashqaridan olingan, biroq vaqtincha xoʻjalik aylanmasida qatnashadigan

II

mablag‘lar (ko‘pincha aylanma mablag‘lar). Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida bu asosan, kredit mablag‘laridir.

Корхонага тегишли бўлмаган, ташқаридан олинган, бироқ вақтинча хўжалик айланмасида қатнашадиган маблағлар (кўпинча айланма маблағлар). Бозор иқтисодиёти шaroитларида бу асосан, кредит маблағларидир.

Приказ

uz - buyruq
буйруқ
en - order

Биржевой термин, означающий поручение заключить сделку, которое клиент дает брокеру.

Mijoz brokerga bitim tuzish to‘g‘risida topshiriq berganligini anglatadigan birja atamasi.

Мижоз брокерга битим тузиш тўғрисида топшириқ берганлигини англатадиган биржа атамаси.

Приложение к договору

uz - shartnoma ilovasi
шартнома иловаси
en - appendix to contract

Дополнение к договору, уточняющее условия контракта.

Shartnomaga kiritiladigan, kontrakt shartlarini aniqlashtiradigan qo‘shimcha.

Шартномага киритиладиган, контракт шартларини аниқлаштирадиган қўшимча.

Принципал

uz - prinsipal
принципал
en - principal

1. Глава, хозяин.
2. Лицо, участвующее в сделке за свой счет.
3. Основной, главный должник в обязательстве.
4. Лицо, от имени которого действует агент, представитель.

1. Boshliq, xo‘jayin.
2. Bitimda o‘z hisobidan qatnashuvchi shaxs.
3. Majburiyatdagi asosiy, bosh qarzdor.
4. Nomidan agent, vakil ish ko‘radigan shaxs.

1. Бошлиқ, хўжайин.
2. Битимда ўз ҳисобидан қатнашувчи шахс.
3. Мажбуриятдаги асосий, бош қарздор.
4. Номидан агент, вакил иш кўрадиган шахс.

Принципы

uz - prinsiplar
принциплар
en - foundations

1. Основные, исходные положения какой-либо теории; основные правила деятельности.
2. Установившиеся, укоренившиеся, общепринятые широко распространенные правила хозяй-

II

ственных действий и свойства экономических процессов.

1. Qandaydir nazariyaning asosiy, boshlang'ich qoidalari; faoliyatning asosiy qoidalari.

2. Iqtisodiy jarayonlarning xususiyatlari va xo'jalik ishlarining qaror topgan, chuqur o'rtnashgan, hamma qabul qilgan keng tarqalgan qoidalari.

1. Қандайдир назариянинг асосий, бошланғич қоидалари; фаолиятнинг асосий қоидалари.

2. Иқтисодий жараёнларнинг хусусиятлари ва хўжалик ишларининг қарор топган, чуқур ўр-нашган, ҳамма қабул қилган кенг тарқалган қоидалари.

Природные ресурсы

uz - tabiiy resurslar

табий ресурслар

en - natural resources

Естественные, имеющиеся в природе экономические, производственные ресурсы в виде земли и земельных угодий, водных богатств, воздушного бассейна, полезных ископаемых, лесов, растительного и животного мира.

Tabiiy, tabiatda mavjud bo'lgan, yer va yer-mulklar, suv boyliklari, havo havzasi, foydali qazilmalar, o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi ko'rinishidagi iqtisodiy, ishlab chiqarish resurslari.

Табий, табиатда мавжуд бўлган, ер ва ер-мулклар, сув бойликлари, ҳаво ҳавзаси, фойдали қазилмалар, ўрмонлар, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси кўринишидаги иқтисодий, ишлаб чиқариш ресурслари.

Природопользование

uz - tabiatdan foydalanish

табиатдан фойдаланиш

en - nature management

Использование природных источников в производственно-экономических и иных целях.

Tabiiy manbalardan iqtisodiy-ishlab chiqarish maqsadlarida va boshqa maqsadlarda foydalanish.

Табий манбалардан иқтисодий-ишлаб чиқариш мақсадларида ва бошқа мақсадларда фойдаланиш.

П

Приход

uz - kirim

кирим

en - income

Обобщенный термин, характеризующий величину поступления товаров, материалов, денежных средств из определенных источников за некоторый период времени. Используется преимущественно в практике учета денежных и материальных ценностей.

Qandaydir vaqt davri ichida muayyan manbalardan pul mablagʻlari, materiallar, tovarlar kelib tushish qiymatini tavsiflaydigan umumlashma atama. Asosan, pul va moddiy boyliklarni hisobga olish amaliyotida qoʻllaniladi.

Қандайдир вақт даври ичида муайян манбалардан пул маблағлари, материаллар, товарлар келиб тушиш қийматини тавсифлайдиган умумлашма атама. Асосан, пул ва моддий бойликларни ҳисобга олиш амалиётида қўлланилади.

Прогноз

uz - prognoz

прогноз

en - prognosis

Научно обоснованная гипотеза о вероятном будущем состоянии экономической системы и экономических объектов и характеризующие это состояние показатели. Разработку, составление прогнозов называют прогнозированием. Прогнозирование широко используется на предварительных стадиях разработки планов и программ как инструмент научного предвидения, вариантного анализа, получения дополнительной информации при выработке решений.

Iqtisodiy tizim va iqtisodiy obyektning kelajakdagi ehtimol holati toʻgʻrisidagi ilmiy asoslangan faraz va bu holatni tavsiflaydigan koʻrsatkichlar. Prognozlarni ishlab chiqish, tuzish prognozlash deyiladi. Prognozlashdan rejalar va dasturlarni ishlab chiqishning dastlabki bosqichlarida ilmiy bashorat, variant tahlil, yechimlar ishlab chiqishda qoʻshimcha maʼlumot olish vositasi sifatida keng foydalaniladi.

Иқтисодий тизим ва иқтисодий объектларнинг келажакдаги эҳтимол ҳолати тўғрисидаги илмий асосланган фараз ва бу ҳолатни тавсифлайдиган кўрсаткичлар. Прогнозларни ишлаб чиқиш, тузиш прогнозлаш дейилади. Прогнозлашдан ре-

II

жалар ва дастурларни ишлаб чиқишнинг дастлабки босқичларида илмий башорат, вариант таҳлил, ечимлар ишлаб чиқишда қўшимча маълумот олиш воситаси сифатида кенг фойдаланилади.

Прогрессивное

налогообложение

uz - progressiv soliqqa tortish

прогрессив солиққа

тортиш

en - reduced rate relief

Система налогообложения, построенная на принципе увеличения налоговых ставок в зависимости от роста уровня облагаемого налогом дохода налогоплательщика. Ставка налога повышается при достижении определенных уровней дохода и достигает затем максимальной величины.

Soliq to'lovchi daromadining soliqqa tortiladigan darajasi oshib borishiga bog'liq holda soliq stavkalarining ortishi prinsipiga qurilgan soliqqa tortish tizimi. Soliq stavkasi daromadning muayyan darajalariga erishilganda oshadi, keyin maksimal miqdorga yetadi.

Солиқ тўловчи даромадининг солиққа тортилдиган даражаси ошиб боришига боғлиқ ҳолда солиқ ставкаларининг ортиши принциpigа қурилган солиққа тортиш тизими. Солиқ ставкаси даромаднинг муайян даражаларига эришилганда ошади, кейин максимал миқдорга етади.

Продолжительность жизни средняя

uz - o'rtacha umr uzoqligi

ўртача умр узоклиги

en - life expectancy

Средняя по стране измеряемая в годах длительность жизни человека; определяется обычно отдельно для мужчин и женщин, служит важным показателем благосостояния, уровня социально-экономического развития страны.

Odam umrining mamlakat bo'yicha o'rtacha, yillarda o'lchanadigan uzoqligi; ayollar va erkaklar uchun alohida aniqlanadi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining, farovonlikning muhim ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Одам умрининг мамлакат бўйича ўртача, йилларда ўлчанадиган узоклиги; аёллар ва эркеклар учун алоҳида аниқланади, мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасининг, фаровонликнинг муҳим кўрсаткичи бўлиб хизмат қилади.

П

Продукция

uz - mahsulot

махсулот

en - product

Результат, продукт производства, полученный чаще всего в виде вещественного предмета, имеющего физическое измерение (количество штук, массу, длину, площадь, объем) и денежную оценку (цену, стоимость).

Moddiy buyum ko‘rinishida olingan, fizik o‘lchovga (dona, og‘irlik, uzunlik, hajm, maydon) va pul bahosiga (narx, qiymatga) ega bo‘lgan, ishlab chiqarish mahsuli, natijasi.

Моддий буюм кўринишида олинган, физик ўлчовга (дона, оғирлик, узунлик, ҳажм, майдон) ва пул баҳосига (нарх, қийматга) эга бўлган, ишлаб чиқариш маҳсули, натижаси.

Проект

uz - loyiha

лойиҳа

en - project

Первоначальный замысел, образ намеченного к созданию объекта, представленный в виде его описания, схем, чертежей, расчетов, обоснований, числовых показателей. Проекты бывают социальными, экономическими, техническими, строительными. Экономические проекты представляют по своей сути план, программу создания экономического объекта, решения экономической проблемы.

Yaratilishi mo‘ljallangan obyektning, uning tavsifi, sxemalari, chizmalar, hisoblashlar, dalillar, sonli ko‘rsatkichlar ko‘rinishida taqdim etilgan boshlang‘ich g‘oyasi, ko‘rinishi. Ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, qurilish loyihalari bor. Iqtisodiy loyihalar o‘zining mohiyatiga ko‘ra, iqtisodiy obyektни yaratish, iqtisodiy muammoni hal qilish dasturi, rejasidir.

Яратилиши мўлжалланган объектнинг, унинг тавсифи, схемалари, чизмалар, ҳисоблашлар, далиллар, сонли кўрсаткичлар кўринишида тақдим этилган бошланғич ғояси, кўриниши. Ижтимоий, иқтисодий, техник, қурилиш лойиҳалари бор. Иқтисодий лойиҳалар ўзининг моҳиятига кўра, иқтисодий объектни яратиш, иқтисодий муаммони ҳал қилиш дастури, режасидир.

П

Производительность

uz - unumdorlik

унумдорлик

en - productivity

Показатель эффективности производства, характеризующий выпуск продукции в расчете на единицу используемых ресурсов, факторов производства.

Ishlab chiqarish omillari, foydalaniladigan resurslar birligiga hisoblaganda mahsulot chiqarilishini tavsiflaydigan, ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi.

Ишлаб чиқариш омиллари, фойдаланиладиган ресурслар бирлигига ҳисоблаганда маҳсулот чиқарилишини тавсифлайдиган, ишлаб чиқариш самарадорлиги кўрсаткичи.

Производительность труда

uz - mehnat unumdorligi

меҳнат унумдорлиги

en - worker productivity

Показатель эффективности использования ресурсов труда, трудового фактора. Измеряется количеством продукции в натуральном или денежном выражении, произведенным одним работником за определенное, фиксированное время (час, день, неделя, месяц, год). Производительность труда зависит от квалификации работников, их заинтересованности в получении высоких результатов, от уровня организации труда, от технической оснащенности производства.

Mehnat omilidan, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi. Bitta xodim tomonidan muayyan, qat'iy vaqt (soat, kun, hafta, oy, yil) ichida ishlab chiqarilgan, naturada yoki pulda ifodalangan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Mehnat unumdorligi xodimlar malakasiga, ularning yuksak natijalar olishdan manfaatdorligiga, mehnatni tashkil qilish darajasiga, ishlab chiqarishning texnik jihozlanganligiga bog'liq.

Меҳнат омилидан, меҳнат ресурсларидан фойдаланиш самарадорлиги кўрсаткичи. Битта ходим томонидан муайян, қатъий вақт (соат, кун, ҳафта, ой, йил) ичида ишлаб чиқарилган, натурада ёки пулда ифодаланган маҳсулот миқдори билан ўлчанadi. Меҳнат унумдорлиги ходимлар мала-

II

касига, уларнинг юксак натижалар олишдан манфаатдорлигига, меҳнатни ташкил қилиш даражасига, ишлаб чиқаришнинг техник жиҳозланганлигига боғлиқ.

Производительные силы

uz - ishlab chiqarish kuchlari

ишлаб чиқариш кучлари

en - productive forces

Совокупность средств производства и людей, занятых в производстве.

Ishlab chiqarish vositalari hamda ishlab chiqarishda band boʻlgan odamlar.

Ишлаб чиқариш воситалари ҳамда ишлаб чиқаришда банд бўлган одамлар.

Производственные отношения

uz - ishlab chiqarish

munosabatlari

ишлаб чиқариш

муносабатлари

en - productive relations

Экономические отношения между людьми, складывающиеся в процессе производства, распределения, обмена и потребления материальных благ.

Odamlar oʻrtasida moddiy boyliklar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, ayirboshlash, isteʼmol qilish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Одамлар ўртасида моддий бойликлар ишлаб чиқариш, уларни тақсимлаш, айирбошлаш, истеъмол қилиш жараёнида юзага келадиган иқтисодий муносабатлар.

Производственный спрос

uz - ishlab chiqarish talabi

ишлаб чиқариш талаби

en - business demand

Спрос на производственные ресурсы (факторы производства), определяемый спросом на товары, при производстве которых используются эти ресурсы.

Ishlab chiqarish resurslariga (ishlab chiqarish omillariga) boʻlgan, ishlab chiqarilishida bu resurslardan foydalaniladigan tovarlarga ehtiyoj bilan belgilanadigan talab.

Ишлаб чиқариш ресурсларига (ишлаб чиқариш омилларига) бўлган, ишлаб чиқарилишида бу ресурслардан фойдаланиладиган товарларга эҳтиёж билан белгиланадиган талаб.

Производственный цикл

uz - ishlab chiqarish sikli

ишлаб чиқариш цикли

en - manufacturing cycle

Период времени между моментами начала и окончания производственного процесса применительно к конкретному изделию в пределах одного предприятия. Производственный цикл состоит из рабочего периода и времени перерывов

II

в обработке изделия.

Bir korxonada doirasida muayyan buyumga tatbiqan ishlab chiqarish jarayonining boshlanishi va tugallanishi o'rtasidagi vaqt davri. Ishlab chiqarish sikli buyumga ishlov berishdagi tanaffuslar vaqti hamda ish davridan iborat bo'ladi.

Бир корхона доирасида муайян буюмга татбиқан ишлаб чиқариш жараёнининг бошланиши ва тугалланиши ўртасидаги вақт даври. Ишлаб чиқариш цикли буюмга ишлов беришдаги танаффуслар вақти ҳамда иш давридан иборат бўлади.

Производство

uz - ishlab chiqarish

ишлаб чиқариш

en - manufacturing department

Процесс изготовления, создания разных видов экономического продукта; выпуск продукции, товаров, услуг. Процесс производства состоит в преобразовании исходных ресурсов: сырья, материалов, энергии, полуфабрикатов при одновременном использовании труда в итоговый продукт производства.

Iqtisodiy mahsulotning har xil turlarini yaratish, tayyorlash jarayoni; mahsulot, tovarlar, xizmatlar ishlab chiqarish. Ishlab chiqarish jarayoni mehnatdan bir vaqtda foydalangan holda, boshlang'ich resurslar: xomashyo, materiallar, energiya, yarim-fabrikatlarni yakuniy mahsulotga aylantirishdan iborat.

Иқтисодий маҳсулотнинг ҳар хил турларини яратиш, тайёрлаш жараёни; маҳсулот, товарлар, хизматлар ишлаб чиқариш. Ишлаб чиқариш жараёни меҳнатдан бир вақтда фойдаланган ҳолда, бошланғич ресурслар: хомашё, материаллар, энергия, яримфабрикатларни якуний маҳсулотга айлантиришдан иборат.

Пролонгация

uz - prolongatsiya

пролонгация

en - prolongation

Продление срока действия договора, займа, векселя.

Shartnoma, zayom, vekselning amal qilish muddatini cho'zish.

Шартнома, заём, векселнинг амал қилиш муддати чўзиш.

П

Промышленность

uz - sanoat

саноат

en - industry

Ведущая, крупнейшая отрасль материального производства. Промышленность охватывает ряд отраслей, включает в себя добычу сырья, производство и переработку материалов и энергии, изготовление машин, приборов и оборудования, производство одежды, обуви, других видов потребительских товаров. Различают тяжелую промышленность (индустрию) и легкую промышленность.

Moddiy ishlab chiqarishning eng yirik, yetakchi tarmogʻi. Sanoat qator tarmoqlarni qamrab, ichiga xomashyo qazib olish, materiallar va energiya ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash, kiyim-kechak, poyabzal, isteʼmol mollarining boshqa turlarini ishlab chiqarish, mashinalar, asbob-uskunalar tayyorlash kabilarni oladi. Ogʻir sanoat (industriya) va yengil sanoat farqlanadi.

Моддий ишлаб чиқаришнинг энг йирик, етакчи тармоғи. Саноат қатор тармоқларни қамраб, ичига хомашё қазиб олиш, материаллар ва энергия ишлаб чиқариш, уларни қайта ишлаш, кийим-кечак, пойабзал, истеъмол молларининг бошқа турларини ишлаб чиқариш, машиналар, асбоб-ускуналар тайёрлаш кабиларни олади. Оғир саноат (индустрия) ва енгил саноат фарқланади.

Проникновение на рынок

uz - bozorga kirib borish

бозорга кириб бориш

en - market penetration

Деятельность фирм по увеличению объема продаж товаров на рынке, расширению занимаемого рыночного сектора, образованию новых секторов.

Firmalarning bozorda tovarlarni sotish hajmlarini oshirish, egallangan bozor sektorini kengaytirish, yangi sektorlar yaratish boʻyicha faoliyati.

Фирмаларнинг бозорда товарларни сотиш ҳажмларини ошириш, эгалланган бозор секторини кенгайтириш, янги секторлар яратиш бўйича фаолияти.

Просроченная

задолженность

uz - muddati oʻtkazib

yuborilgan qarzdorlik

Своевременно не произведенные платежи предприятий, организаций, физических лиц поставщикам, кредитным учреждениям, финансовым органам, работникам.

II

муддати ўтказиб
юборилган қарздорлик
en - past-due debts

Протокол
uz - protokol
протокол
en - protocol

Процент
uz - foiz
фоиз
en - percent

Процентная ставка
uz - foiz stavkasi
фоиз ставкаси
en - interest rate

Korxonalar, tashkilotlar, jismoniy shaxslarning yetkazib beruvchilarga, kredit muassasalari, moliya organlari, xodimlarga o'z vaqtida amalga oshirilmagan to'lovlari.

Корхоналар, ташкилотлар, жисмоний шахсларнинг етказиб берувчиларга, кредит муассасалари, молия органлари, ходимларга ўз вақтида амалга оширилмаган тўловлари.

1. Документ, подписанный договаривающимися сторонами и фиксирующий результаты переговоров перед заключением договора.

2. Запись происходившего на собрании с указанием участников и принятых решений.

1. Shartlashuvchi tomonlar imzolagan va shartnoma tuzilishi oldidan olib borilgan muzokaralarning natijalari qayd etilgan hujjat.

2. Yig'ilishda olib boriladigan, qatnashchilar va qabul qilingan qarorlar ko'rsatilgan yozuv.

1. Shartlashuvchi tomonlar imzolagan va shartnoma tuzilishi oldidan olib borilgan muzokaralarning natijalari qayd etilgan hujjat.

2. Yig'ilishda olib boriladigan, qatnashchilar va qabul qilingan qarorlar ko'rsatilgan yozuv.

Плата, которую заемщик должен вносить кредитору за пользование кредитом, полученными в долг деньгами или материальными ценностями.

Qarzdor qarz beruvchiga kreditdan, qarzga olingan pullar yoki moddiy boyliklar yuzasidan to'lashi kerak bo'lgan haq.

Қарздор қарз берувчига кредитдан, қарзга олинган пуллар ёки моддий бойликлар юзасидан тўлаши керак бўлган ҳақ.

Размер процента за кредит, относительная величина процентных платежей, выплачиваемых заемщиком кредитору за определенный период времени (месяц, год).

Kredit yuzasidan foiz miqdori, qarzdor tomonidan qarz beruvchiga muayyan vaqt davri (oy, yil) uchun to'lanadigan foizli to'lovlarning nisbiy miqdori.

II

Кредит юзасидан фоиз миқдори, қарздор томонидан қарз берувчига муайян вақт даври (ой, йил) учун тўланадиган фоизли тўловларнинг нисбий миқдори.

Прямое инвестирование

uz - to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash

тўғридан-тўғри инвестициялаш

en - direct investment

Вложение реальных средств, капитала непосредственно в создание экономических и социальных объектов, предприятий, производств; отличается от портфельных инвестиций тем, что средства практически вкладываются, инвестируются в физические объекты.

Real mablag'lar, kapitalni bevosita iqtisodiy va ijtimoiy obyektlar, korxonalar, ishlab chiqarishlar barpo qilishga sarflash; portfel investitsiyalardan, mablag'lar amalda fizik obyektlarga investitsiyalanishi, qo'yilishi bilan farq qiladi.

Реал маблағлар, капитални бевосита иқтисодий ва ижтимоий объектлар, корхоналар, ишлаб чиқаришлар барпо қилишга сарфлаш; портфель инвестициялардан, маблағлар амалда физик объектларга инвестицияланиши, қўйилиши билан фарқ қилади.

Прямой маркетинг

uz - bevosita marketing

бевосита маркетинг

en - direct marketing

Интерактивная система маркетинга, которая позволяет потребителю получить информацию, приобрести продукт без посредников с помощью средств информации или сделать то и другое одновременно.

Iste'molchiga vositachilarsiz, axborot vositalari yordamida axborot olish, mahsulot xarid qilish yoki har ikkisini bir vaqtda bajarish imkonini beradigan interaktiv marketing tizimi.

Истеъмолчига воситачиларсиз, ахборот воситалари ёрдамида ахборот олиш, маҳсулот харид қилиш ёки ҳар иккисини бир вақтда бажариш имконини берадиган интерактив маркетинг тизими.

Прямые налоги

uz - to'g'ri soliqlar

тўғри солиқлар

en - direct taxes

Налоги, взимаемые непосредственно с доходов и имущества налогоплательщика. К таким налогам относятся налог на доходы физических лиц, налог на прибыль, налог на имущество.

II

Bevosita soliq to'lovchining mulkidan va daromadlaridan olinadigan soliqlar. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq, daromad solig'i, mulk solig'i shunday soliqlarga kiradi.

Бевосита солиқ тўловчининг мулкидан ва даромадларидан олинадиган солиқлар. Жисмоний шахсларнинг даромадларидан олинадиган солиқ, даромад солиғи, мулк солиғи шундай солиқларга киради.

Прямые расходы, затраты

uz - to'g'ri sarflar, xarajatlar

тўғри сарфлар,

харажатлар

en - direct expenses, costs

Расходы, непосредственно связанные с производством продукции, работ, услуг; производственные расходы, включаемые в себестоимость продукции, в прямые издержки производства.

Bevosita mahsulot, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan sarflar; mahsulot tannarxiga kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarishga qilinadigan to'g'ri sarflar.

Бевосита маҳсулот, ишлар, хизматлар ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган сарфлар; маҳсулот таннархига киритиладиган ишлаб чиқариш харажатлари, ишлаб чиқаришга қилинадиган тўғри сарфлар.

Прямые хозяйственные связи

uz - to'g'ri xo'jalik aloqalari

тўғри хўжалик алоқалари

en - direct economic relation

Связи между предприятиями, фирмами, устанавливаемые без посредников, без промежуточных звеньев, на основе прямых договоров.

Korxonalar, firmalar o'rtasida vositachilarsiz, oraliq bo'g'inlarsiz, to'g'ridan-to'g'ri shartlashuvlar asosida o'rnatiladigan aloqalar.

Корхоналар, фирмалар ўртасида воситачиларсиз, оралиқ бўғинларсиз, тўғридан-тўғри шартлашувлар асосида ўрнатиладиган алоқалар.

Пут

uz - put

пут

en - put

Опцион на продажу ценных бумаг.

Qimmatli qog'ozlarni sotish yuzasidan opsiyon.

Қимматли қоғозларни сотиш юзасидан опцион.

Р

Работа

uz - ish

иш

en - work

1. Вид и место трудовой деятельности человека; например, строительные, монтажные, земляные, ремонтные работы.

2. Осуществление трудовой деятельности, участие в труде, выполнение человеком, коллективом определенного круга поручений, заданий, занятость трудом.

1. Odam mehnat faoliyatining turi va joyi; masalan, qurilish, montaj, yer, ta'mirlash ishlari.

2. Mehnat faoliyatini amalga oshirish, mehnatda ishtirok etish, odam, jamoa tomonidan muayyan topshiriqlar, vazifalarning bajarilishi, mehnat bilan band bo'lishlik.

1. Odam mehnat faoliyatining turi va joyi; masalan, qurilish, montaj, yer, ta'mirlash ishlari.

2. Mehnat faoliyatini amalga oshirish, mehnatda ishtirok etish, odam, jamoa tomonidan muayyan topshiriqlar, vazifalarning bajarilishi, mehnat bilan band bo'lishlik.

Рабочая сила

uz - ishchi guruh

ишчи кучи

en - labor power

Экономически активное, трудоспособное население.

Iqtisodiy faol, mehnat qilishga qobiliyatli aholi.

Иқтисодий фаол, меҳнат қилишга қобилиятли аҳоли.

Рабочее время

uz - ish vaqti

иш вақти

en - office hours

1. Норма продолжительности труда, установленная законом.

2. Время, затрачиваемое на выполнение определенного объема работ или время активного пребывания на работе, посвященное выполнению служебных обязанностей в соответствии с правилами внутреннего трудового распорядка, графиками работы конкретного предприятия.

3. Фактически проработанное время, то есть время нахождения работника на рабочем месте в распоряжении администрации.

1. Qonun bilan belgilangan, mehnat davomiyligi normasi.

2. Ishlarning muayyan hajmini bajarish uchun sarflanadigan vaqt yoki ichki mehnat tartib-qoidalari-

Р

ga, muayyan korxonaning ish jadvallariga muvofiq xizmat vazifalarini bajarishga bag'ishlangan, ishda faol bo'lish vaqti.

3. Haqiqatda ishlangan vaqt, ya'ni xodimning ish joyida ma'muriyat ixtiyorida bo'lish vaqti.

1. Qonun bilan belgilangan, mehnat davomiyligi normasi.

2. Ishlarнинг муайян ҳажмини бажариш учун сарфланадиган вақт ёки ички меҳнат тартиб-қоидаларига, муайян корxonанинг иш жадвалларига мувофиқ хизмат вазифаларини бажаришга бағишланган, ишда фаол бўлиш вақти.

3. Ҳақиқатда ишланган вақт, яъни ходимнинг иш жойида маъмурият ихтиёрида бўлиш вақти.

Рабочее место

uz - ish joyi

иш жойи

en - job

Место и находящиеся на нем средства производства, орудия труда для выполнения работы, приспособленные к осуществлению трудовых функций работником (группой работников) определенной профессии; первичное звено предприятия.

Muayyan kasbdagi xodim (xodimlar guruhi) tomondan mehnat vazifalarini bajarishga moslashtirilgan joy va unda bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, ishni bajarish uchun belgilangan mehnat qurollari; korxonaning birlamchi bo'g'ini.

Муайян касбдаги ходим (ходимлар гуруҳи) томонидан меҳнат вазифаларини бажаришга мослаштирилган жой ва унда бўлган ишлаб чиқариш воситалари, ишни бажариш учун белгиланган меҳнат қуроллари; корxonанинг бирламчи бўғини.

Развитие экономики

uz - iqtisodiyotning rivojlanishi

иқтисодиётнинг

ривожланиши

en - development of the

economy

Общий термин, обозначающий абсолютное и относительное изменение макроэкономических показателей, характеризующих состояние экономики страны во времени в течение продолжительного периода (года, нескольких лет). Развитие экономики понимается в основном как наличие экономического роста и благоприятное изменение структуры производства и потребления.

Uzoq davr (yil, bir necha yil) mobaynida vaqtda mamlakat iqtisodiyoti holatini tavsiflaydigan mak-

Р

roiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutlaq va nisbiy o'zgarishini bildiradigan umumiy atama. Iqtisodiyotning rivojlanishi asosan, iqtisodiy o'sishning, ishlab chiqarish va iste'mol strukturasi qulay o'zgarishining mavjudligi sifatida tushuniladi.

Узоқ давр (йил, бир неча йил) мобайнида вақтда мамлакат иқтисодиёти ҳолатини тавсифлайдиган макроиқтисодий кўрсаткичларнинг мутлақ ва nisbiy ўзгаришини билдирадиган умумий атама. Иқтисодиётнинг ривожланиши асосан, иқтисодий ўсишнинг, ишлаб чиқариш ва истеъмол структураси қулай ўзгаришининг мавжудлиги сифатида тушунилади.

Разгосударствление экономики

uz - iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish

иктисодиётни давлат тасарруфидан чиқариш
en - denationalization of the economy

Уменьшение функций, снижение роли государства в непосредственном управлении экономическими объектами при одновременной приватизации государственной собственности, передаче ряда полномочий государственных органов предприятиям, развитие частного предпринимательства.

Bir vaqtda davlat mulki xususiy lashtirilgan, davlat organlarining qator vakolatlari korxonalariga berilgan holda, iqtisodiy ob'ektlarni bevosita boshqarishda davlat rolining pasayishi, funksiyalarning kamayishi, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish.

Бир вақтда давлат мулки хусусийлаштирилган, давлат органларининг қатор ваколатлари корхоналарга берилган ҳолда, иқтисодий объектларни бевосита бошқаришда давлат ролининг пасайиши, функцияларнинг камайиши, хусусий тadbirkorlikni rivojlantirish.

Размещение вкладов населения

uz - aholi omonatlarini joylashtirish

аҳоли омонатларини жойлаштириш
en - placement contributions of population

Помещение вкладов граждан в банки, компании, фонды, финансовые организации, акционерные общества.

Fuqarolarning omonatlarini banklarga, kompaniyalarga, jamg'armalarga, moliya tashkilotlariga, aksiyadorlar jamiyatlariga qo'yish.

Фуқароларнинг омонатларини банкларга, компанияларга, жамғармаларга, молия ташкилотларига, акциядорлар жамиятларига қўйиш.

Р

Размещение производства

uz - ishlab chiqarishni joylashtirish

ишлаб чиқаришни

жойлаштириш

en - location of economic activity

Термин экономической географии, характеризующий распределение производственных объектов разных отраслей хозяйства по регионам.

Xo‘jalik turli tarmoqlari ishlab chiqarish ob‘ektlarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishini tavsiflaydigan, iqtisodiy geografiyaga oid atama.

Xўжалик турли тармоқлари ишлаб чиқариш объектларининг худудлар бўйича тақсимланишини тавсифлайдиган, иқтисодий географияга оид атама.

Размещение ценных бумаг

uz - qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish

қимматли қоғозларни

жойлаштириш

en - placement of securities

Распространение, передача, переход ценных бумаг от их эмитента в руки первого держателя посредством первичной продажи.

Korxonaning xo'jalik yuritish usuli, bunda uning barcha sarf-xarajatlari korxonada daromadlari bilan to'liq qoplanadi; tijorat bilan bog'liq hisob-kitobning asosiy sharti.

Корхонанинг хўжалик юритиш усули, бунда унинг барча сарф-харажатлари корхона даромадлари билан тўлиқ қопланади; тижорат билан боғлиқ ҳисоб-китобнинг асосий шарти.

Санация

uz - sanatsiya

санация

en - sanitation

Система государственных мер по предотвращению банкротства предприятий (фирм), улучшению их финансового состояния посредством кредитования, реорганизации, изменения вида выпускаемой продукции или иным образом.

Kreditlash, qayta tuzish, chiqariladigan mahsulot turini o'zgartirish yoki boshqacha bir tarzda, korxonalar (firmalar) sinishini bartaraf qilish, ularning moliyaviy ahvolini yaxshilash yuzasidan ko'riladigan davlat chora-tadbirlari tizimi.

Кредитлаш, қайта тузиш, чиқариладиган маҳсулот турини ўзгартириш ёки бошқача бир тарзда, корхоналар (фирмалар) синишини бартараф қилиш, уларнинг молиявий аҳволини яхшилаш юзасидан кўриладиган давлат чора-тадбирлари тизими.

С

Санкции

uz - sanksiyalar
санкциялар
en - sanctions

Меры воздействия по отношению к тем, кто нарушает законы финансовой, хозяйственной деятельности, не соблюдает нормы ведения бизнеса. Санкции по отношению к нарушителям проводят государственные органы, налоговая служба, банки.

Хо‘jalik faoliyati, moliya qonunlarini buzadigan, biznesni yuritish normalariga rioya qilmaydiganlarga nisbatan ko‘riladigan ta’sir choralari. Bundaylarga nisbatan sanksiyalar davlat organlari, soliq xizmati, banklar tomonidan qo‘llaniladi.

Хўжалик фаолияти, молия қонунларини бузадиган, бизнесни юритиш нормаларига риоя қилмайдиганларга нисбатан кўриладиган таъсир чоралари. Бундайларга нисбатан санкциялар давлат органлари, солиқ хизмати, банклар томонидан қўлланилади.

Сбалансированность

uz - muvozanatlanganlik
мувозанатланганлик
en - equation

Состояние бюджетов предприятия, региона, государства, при котором доходы и расходы уравновешены.

Davlat, mintaqa, korxonalar byudjetlarining daromadlar va xarajatlar tenglashtirilgan holati.

Давлат, минтақа, корхона бюджетларининг даромадлар ва харажатлар тенглаштирилган ҳолати.

Сбережения

uz - jamg‘arma
жамғарма
en - savings

Часть денежных доходов населения, которую люди откладывают для удовлетворения будущих потребностей, для предстоящих крупных покупок или других расходов. Денежные сбережения представляют один из видов накопления. Сбережения могут храниться как в банках, так и «на руках» у населения.

Aholi pul daromadlarining, odamlar kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish, yirik xaridlar yoki boshqa xarajatlar uchun jamg‘arib qo‘yadigan qismi. Pul jamg‘armalari to‘plash turlaridan biridir. Jamg‘armalar ham banklarda, ham aholining «qo‘lida» saqlanishi mumkin.

Аҳоли пул даромадларининг, одамлар келажакдаги эҳтиёжларни қондириш, йирик харидлар

С

ёки бошқа харажатлар учун жамғариб қўядиган қисми. Пул жамғармалари тўплаш турларидан биридир. Жамғармалар ҳам банкларда, ҳам аҳолининг «қўлида» сақланиши мумкин.

Сборы

uz - yigʻimlar

йиғимлар

en - fees

Обязательные платежи, налоги, которые граждане и предприятия обязаны вносить в виде оплаты услуг, оказываемых им государственными органами, а также в соответствии с законодательством.

Fuqarolar va korxonalar, davlat organlari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlarga haq toʻlash koʻrinishida, shuningdek, qonunchilikka muvofiq toʻlashlari shart boʻlgan soliqlar, majburiy toʻlovlar.

Фуқаролар ва корхоналар, давлат органлари томонидан кўрсатиладиган хизматларга ҳақ тўлаш кўринишида, шунингдек, қонунчиликка мувофиқ тўлашлари шарт бўлган солиқлар, мажбурий тўловлар.

Сбыт

uz - sotish

сотиш

en - sales

Массовая продажа продукции, товаров предприятиями, предпринимателями в целях получения денежной выручки, превращение производного товара в деньги.

Ishlab chiqarilgan tovarni pulga aylantirish, pul tushumi olish maqsadida, korxonalar, tadbirkorlar tomonidan mahsulot, tovarlarning ommaviy sotilishi.

Ишлаб чиқарилган товарни пулга айлантириш, пул тушуми олиш мақсадида, корхоналар, тadbirkorлар томонидан маҳсулот, товарларнинг оммавий сотилиши.

Свифт

uz - swift

свифт

en - swift

Автоматизированная система осуществления международных денежных расчетов и платежей с использованием компьютеров и межбанковских телекоммуникаций.

Kompyuterlar va banklararo kommunikatsiyalardan foydalanib, xalqaro pul hisob-kitoblari va toʻlovlarini amalga oshirishning avtomatik tizimi.

Компьютерлар ва банклараро коммуникациялардан фойдаланиб, халқаро пул ҳисоб-китоблари ва тўловларни амалга оширишнинг автоматик тизими.

С

Свободная экономическая зона

uz - erkin iqtisodiy zona

эркин иқтисодий зона

en - free trade zone

Территория, в которой действуют льготные налоговые, таможенные, инвестиционные и другие условия экономической деятельности для иностранных и отечественных предприятий и предпринимателей.

Chet el va mamlakat korxonalari, tadbirkorlari uchun iqtisodiy faoliyatning imtiyozli soliq, bojxona, investitsion va boshqa shartlari amal qiladigan hudud.

Чет эл ва мамлакат корхоналари, тadbirkorлари учун иқтисодий фаолиятнинг имтиёзли солиқ, бојхона, инвестицион ва бошқа шартлари амал қиладиган ҳудуд.

Свободно конвертируемая валюта

uz - erkin konvertatsiyalanadigan valyuta

эркин конвертация-

ланадиган валюта

en - freely convertible

exchange

Национальная валюта, которая свободно, без ограничений обменивается на любую другую валюту.

Har qanday boshqa bir valyutaga erkin, cheklov-larsiz almashinadigan milliy valyuta.

Ҳар қандай бошқа бир валютага эркин, чекловларсиз алмашинадиган миллий валюта.

Сводный баланс

uz - yigʻma balans

йиғма баланс

en - summary balance

Баланс, объединяющий частные балансы по отдельным видам затрат, ресурсов, источников доходов и расходов.

Sarflar, resurslar, daromadlar va xarajatlarning alohida manbalari boʻyicha tuzilgan xususiy balanslarni birlashtiradigan balans.

Сарфлар, ресурслар, даромадлар ва харажатларнинг алоҳида манбалари бўйича тузилган хусусий балансларни бирлаштирадиган баланс.

Сделка

uz - bitim

битим

en - transaction

Соглашение двух или нескольких экономических субъектов о проведении взаимовыгодных действий, связанных с куплей-продажей имущества, денег, ценных бумаг, предоставлением ссуд, совместным производством, выполнением бизнес-операций.

С

Ikki yoki bir nechta iqtisodiy subyektning mulk, pullar, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan, ssudalar berish, birgalikdagi ishlab chiqarish, biznes-operatsiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'zaro manfaatli ishlarni amalga oshirish to'g'risidagi kelishuvi.

Икки ёки бир нечта иқтисодий субъектнинг мулк, пуллар, қимматли қоғозлар олди-сотдиси билан, ссудалар бериш, биргаликдаги ишлаб чиқариш, бизнес-операцияларни бажариш билан боғлиқ бўлган ўзаро манфаатли ишларни амалга ошириш тўғрисидаги келишуви.

Сдельная оплата труда

uz - mehnatga ishbay haq to'lash

меҳнатга ишбай ҳақ
тўлаш

en - efficiency wage

Форма оплаты труда работников в соответствии с количеством произведенной продукции заданного качества.

Xodimlar mehnatiga belgilangan sifatda ishlab chiqarilgan mahsulot soniga muvofiq haq to'lash shakli.

Ходимлар меҳнатига белгиланган сифатда ишлаб чиқарилган маҳсулот сонига мувофиқ ҳақ тўлаш шакли.

Себестоимость продукции

uz - mahsulot tannarxi

маҳсулот таннархи
en - production cost

Текущие затраты на производство продукции, исчисленные в денежном выражении. Характеризует стоимость товара для самого производителя.

Mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan, pul ko'rinishida hisoblangan joriy xarajatlar. Ishlab chiqaruvchining o'zi uchun tovarning qiymatini tavsiflaydi.

Маҳсулот ишлаб чиқаришга кетадиган, пул кўринишида ҳисобланган жорий харажатлар. Ишлаб чиқарувчининг ўзи учун товарнинг қийматини тавсифлайди.

Сегмент рынка

uz - bozor segmenti

бозор сегменти
en – market segment

Крупная, четко определенная группа покупателей внутри рынка со сходными потребностями и характеристиками, отличными от других групп целевого рынка.

С

Bozor ichidagi, maqsadli bozorning boshqa guruhlaridan farq qiladigan o'xshash ehtiyojlar va xarakteristikalariga ega xaridorlarning yirik, aniq belgilangan guruhi.

Бозор ичидаги, мақсадли бозорнинг бошқа гуруҳларидан фарқ қиладиган ўхшаш эhtiёжлар ва хarakterистикаларга эга хarидорларнинг йирик, аниқ белгиланган гуруҳи.

Сегментация рынка

uz - bozorning bo'linishi

бозорнинг бўлиниши

en - market segmentation

Деление рынка по видам продаваемого товара, типу используемой валюты, группам потребителей, географическому признаку. Сегментация рынка позволяет производителю, продавцу товара выявить покупательные возможности разных секторов рынка и ускорить продажи.

Bozorning sotiladigan tovar turlari, ishlatiladigan valyuta, iste'molchilar guruhlari, geografik belgisi bo'yicha bo'linishi. Tovarni ishlab chiqaruvchiga, sotuvchiga bozor turli qismlarining xarid imkoniyatlarini aniqlashga va sotishni tezlashtirishga imkon beradi.

Бозорнинг сотиладиган товар турлари, ишлатиладиган валюта, истеъмолчилар гуруҳлари, географик белгиси бўйича бўлиниши. Товарни ишлаб чиқарувчига, сотувчига бозор турли қисmlарининг хarид имкониятларини аниқлашга ва сотишни тезлаштиришга имкон беради.

Сельское хозяйство

uz - qishloq xo'jaligi

қишлоқ хўжалиги

en - agriculture

Отрасль хозяйства страны, производящая сельскохозяйственную продукцию. Включает растениеводство и животноводство; обеспечивает потребности в большинстве продуктов питания и в сырье для легкой и пищевой промышленности.

Mamlakat xo'jaligining, qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiradigan tarmog'i. O'simlikshunoslik va chorvachilikni ichiga oladi; oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pchiligiga, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun mo'ljallangan xomashyoga bo'lgan ehtiyojni qondiradi.

Мамлакат хўжалигининг, қишлоқ хўжалик маҳсулоти етиштирадиган тармоғи. Ўсимлик-

С

шунослик ва чорвачиликни ичига олади; озик-овқат маҳсулотларининг кўпчилигига, енгил ва озик-овқат саноати учун мўлжалланган хомашёга бўлган эҳтиёжни қондиради.

Сервис

uz - servis

сервис

en - service

1. В маркетинге подсистема деятельности предприятия, обеспечивающая комплекс услуг по сбыту и эксплуатации машин, оборудования, средств транспорта.

2. Обслуживание населения в различных сферах повседневной жизни.

1. Marketingda: korxonada faoliyatining, mashinalar, uskunalar, transport vositalarini sotish va ekspluatatsiya qilish yuzasidan kompleks xizmatlarni ta'minlaydigan kichik tizimi.

2. Kundalik hayotning turli sohalarida aholiga xizmat ko'rsatish.

1. Marketingda: korxonada faoliyatining, mashinalar, uskunalar, transport vositalarini sotish va ekspluatatsiya qilish yuzasidan kompleks xizmatlarni ta'minlaydigan kichik tizimi.

2. Kundalik hayotning turli sohalarida aholiga xizmat ko'rsatish.

Серийное производство

uz - seriyali ishlab chiqarish

серияли ишлаб чиқариш

en - duplicate production

Производство однородной продукции отдельными партиями в течение продолжительного времени.

Bir xil mahsulotni davomli vaqt mobaynida alohida-alohida turkum qilib ishlab chiqarish.

Bir xil mahsulotni davomli vaqt mobaynida alohida-alohida turkum qilib ishlab chiqarish.

Сертификат

uz - sertifikat

сертификат

en - certificate

1. Финансовый документ, удостоверяющий факт внесения его владельцем определенной суммы денежных средств и предоставляющий ему определенные права; разновидность облигаций.

2. Документ, удостоверяющий качество товара (сертификат качества, товарный сертификат). Сертификат, выданный человеку, свидетельствует, подтверждает наличие у него необходимых знаний, умений, опыта в определенной области.

С

1. Egasi tomonidan muayyan pul mablag'lar summasi to'langanlik faktini tasdiqlaydigan va unga muayyan huquqlar beradigan moliyaviy hujjat; obligatsiyalarning bir turi.

2. Tovar sifatini tasdiqlaydigan hujjat (sifat sertifikat, tovar sertifikat). Odamga berilgan sertifikat, unda muayyan sohada zarur bilim, malaka, tajriba borligini ko'rsatadi, tasdiqlaydi.

1. Эгаси томонидан муайян пул маблағлар суммаси тўланганлик фактини тасдиқлайдиган ва унга муайян ҳуқуқлар берадиган молиявий ҳужжат; облигацияларнинг бир тури.

2. Товар сифатини тасдиқлайдиган ҳужжат (сифат сертификати, товар сертификати). Одамга берилган сертификат, унда муайян соҳада зарур билим, малака, тажриба борлигини кўрсатади, тасдиқлайди.

Синтетические показатели

uz - sintetik ko'rsatkichlar

синтетик кўрсаткичлар

en - aggregate data

Обобщающие показатели, характеризующие систему в целом. Большинство макроэкономических показателей являются синтетическими, полученными посредством синтеза микроэкономических показателей.

Tizimni bir butun tavsiflaydigan, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning aksariyati mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarni sintezlash orqali olingan sintetik ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Тизимни бир бутун тавсифлайдиган, умумлаштирувчи кўрсаткичлар. Макроиктисодий кўрсаткичларнинг аксарияти микроиктисодий кўрсаткичларни синтезлаш орқали олинган синтетик кўрсаткичлар ҳисобланади.

Система управления экономикой

uz - iqtisodiyotni boshqarish tizimi

иктисодиётни бошқариш

tizimi

en - system of economic management

Совокупность согласованных методов и средств управления экономикой, хозяйством, реализуемая органами управления. Система управления экономикой страны разделяется на территориальные и отраслевые системы (подсистемы второго уровня), которые, в свою очередь, разделяются на локальные системы управления предприятиями, организациями, фирмами.

C

Boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan, xo'jalikni, iqtisodiyotni boshqarishning muvofiqlashtirilgan vositalari, usullari jami. Mamlakat iqtisodiyotini boshqarish tizimi hududiy va tarmoq tizimlariga bo'linadi, (ikkinchi sath kichik tizimlari) ular o'z navbatida, korxonalar, tashkilotlar, firmalarni boshqarishning mahalliy tizimlariga ajraladi.

Бошқарув органлари томонидан амалга ошириладиган, хўжаликни, иқтисодиётни бошқаришнинг мувофиқлаштирилган воситалари, усуллари жами. Мамлакат иқтисодиётини бошқариш тизими ҳудудий ва тармоқ тизимларига бўлинади, (иккинчи сатҳ кичик тизимлари) улар ўз навбатида, корхоналар, ташкилотлар, фирмаларни бошқаришнинг маҳаллий тизимларига ажралади.

Системный анализ

uz - tizimli tahlil

тизимли таҳлил

en - systems analysis

Совокупность методов и средств исследования сложных, многоуровневых и многокомпонентных систем, объектов, процессов, опирающихся на комплексный подход, учет взаимосвязей и взаимодействий между элементами системы. Применение системного анализа позволяет находить, вырабатывать эффективные, надежные решения проблем.

Murakkab, ko'p bosqichli va ko'p komponentli tizimlarni, obyektlar, jarayonlarni tadqiq qilishning, kompleks yondashuvga, tizim elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqa va o'zaro ta'sirlarni hisobga olishga asoslanadigan vositalari, usullarining yig'indisi. Tizimli tahlilning qo'llanilishi muammolarning samarali, ishonchli yechimlarini topish, ishlab chiqish imkonini beradi.

Мураккаб, кўп босқичли ва кўп компонентли тизимларни, объектлар, жараёнларни тадқиқ қилишнинг, комплекс ёндашувга, тизим элементлари ўртасидаги ўзаро алоқа ва ўзаро таъсирларни ҳисобга олишга асосланадиган воситалари, усулларининг йиғиндиси. Тизимли таҳлилнинг қўлланилиши муаммоларнинг самарали, ишончли ечимларини топиш, ишлаб чиқиш имконини беради.

С

Системный подход

uz - tizimli yondashuv
tizimli ёндашув
en - systems approach

Рассмотрение сложных экономических объектов как систем, состоящих из взаимосвязанных и взаимодействующих между собой частей, элементов, действия которых направлены на достижение единой цели. Синоним – комплексный подход.

Murakkab iqtisodiy ob'ektlarni, ta'sir kuchi yagona maqsadga erishishga yo'naltirilgan, o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sirlashadigan qismlar, elementlardan tashkil topgan tizimlar sifatida ko'rib chiqish. Sinonimi – kompleks yondashuv.

Мураккаб иқтисодий объектларни, таъсир кучи ягона мақсадга эришишга йўналтирилган, ўзаро боғланган ва ўзаро таъсирлашадиган қисмлар, элементлардан ташкил топган тизимлар сифатида кўриб чиқиш. Синоними – комплекс ёндашув.

Скидка

uz - skidka, kamaytirilgan narx
скидка, камайтирилган
нарх
en - discount

Уменьшение цены товара, производимое в целях более быстрой продажи или в связи с обнаружением дефекта, порока в товаре.

Tovar narxini pasaytirish, tovarni birmuncha tezroq sotish maqsadida yoki tovarda nuqson, kamchilik topilganligi sababli amalga oshiriladi.

Товар нархини пасайтириш, товарни бирмунча тезроқ сотиш мақсадида ёки товарда нуқсон, камчилик топилганлиги сабабли амалга оширилади.

Склонность к накоплению

uz - jamg'arishga bo'lgan
moyillik
жамғаришга бўлган
мойиллик
en - propensity to save

Увеличение накопления денежных средств потребителем при увеличении его доходов на одну единицу либо на 1 %.

Iste'molchi tomonidan, uning daromadlari bir birlikka yoki bir foizga oshganda, pul mablag'lari jamg'armasining oshirilishi.

Истеъмолчи томонидан, унинг даромадлари бир бирликка ёки бир фоизга ошганда, пул маблағлари жамғармасининг оширилиши.

С

Склонность к потреблению

uz - iste'molga bo'lgan moyillik

истеъмолга бўлган мойиллик

en - propensity to consume

Увеличение объема потребления потребителем при увеличении его доходов на один процент.

Iste'molchi tomonidan, uning daromadlari bir foizga oshganda, iste'mol hajmining oshirilishi.

Истеъмолчи томонидан, унинг даромадлари бир фоизга ошганда, истеъмол ҳажмининг оширилиши.

Скорость обращения денег

uz - pullarning aylanish tezligi
пулларнинг айланиш

тезлиги

en - velocity of money circulation

Количество полных оборотов денежной единицы, используемой в качестве средства обращения и платежей, в течение одного года.

Bir yil mobaynida, to'lovlar va muomala vositasi sifatida ishlatiladigan pul birligining to'liq aylanib chiqishlari soni.

Бир йил мобайнида, тўловлар ва муомала воситаси сифатида ишлатиладиган пул бирлигининг тўлиқ айланиб чиқишлари сони.

Слияние

uz - qo'shilish

қўшилиш

en - merger

Соединение двух или более организаций, решивших объединить свою собственность, активы, пассивы в общих интересах с целью повышения эффективности, прибыльности, снижения конкуренции.

O'zining mulkini, aktivlari, passivlarini umumiy manfaatlar yo'lida samaradorlikni oshirish, foydali-likni ko'tarish, raqobatni pasaytirish maqsadida birlashtirishga qaror qilgan ikki yoki undan ortiq tashkilotning qo'shilishi.

Ўзининг мулкани, активлари, пассивларини умумий манфаатлар йўлида самарадорликни ошириш, фойдалиликни кўтариш, рақобатни пасайтириш мақсадида бирлаштиришга қарор қилган икки ёки undan ortiq tashkilotning qo'shilishi.

Смета доходов и расходов

uz - daromadlar va xarajatlat smetasi

даромадлар ва харажатлар сметаси

en - income and expenditure budget

План предстоящих поступлений и расходов денежных средств, используемых для финансирования хозяйственной деятельности предприятий, организаций, учреждений.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning xo'jalik faoliyatini moliyalashtirish uchun ishlatiladigan pul mablag'larining kelgusida kelib tushish va sarflash rejasi.

С

Корхоналар, ташкилотлар, муассасаларнинг хўжалик фаолиятини молиялаштириш учун ишлатиладиган пул маблағларининг келгусида келиб тушиш ва сарфланиш режаси.

Сметная стоимость

uz - smeta qiymati

смета қиймати

en - estimate of cost

Стоимость объекта, определенная согласно смете расходов.

Obyektning, xarajatlar smetasiga binoan belgilangan qiymati.

Объектнинг, харажатлар сметасига биноан белгиланган қиймати.

Сметное финансирование

uz - smetadan moliyalashtirish

сметадан

молиялаштириш

en - budget financing

Предоставление денежных средств из государственного бюджета для покрытия расходов согласно предоставленным сметам.

Taqdim etilgan smetalarga muvofiq, xarajatlarni qoplash uchun davlat byudjetidan pul mablag'larining ajratilishi.

Такдим этилган сметаларга мувофиқ, харажатларни қоплаш учун давлат бюджетидан пул маблағларининг ажратилиши.

Собрание акционеров

uz - aksiyadorlar majlisi

акциядорлар мажлиси

en - stockholder's meeting

Высший орган управления акционерным обществом. Различают учредительные, чрезвычайные, специальные и очередные собрания. Право голоса на собраниях акционеров имеют владельцы обыкновенных (непривилегированных) акций по принципу «одна акция – один голос».

Aksiyadorlar jamiyatini boshqarishning oliy organi. Ta'asis majlisi, favqulodda majlis, maxsus va navbatdan tashqari majlislar ajratiladi. Aksiyadorlar majlisida ovoz berish huquqiga oddiy (imtiyozli bo'lmagan) aksiyalarning egalari «bitta aksiya – bir ovoz» prinsipi bo'yicha ega bo'ladilar.

Акциядорлар жамиятини бошқаришнинг олий органи. Таъсис мажлиси, фавқулодда мажлис, махсус ва навбатдан ташқари мажлислар ажратилади. Акциядорлар мажлисида овоз бериш ҳуқуқига оддий (имтиёзли бўлмаган) акцияларнинг эгалари «битта акция – бир овоз» принципи бўйича эга бўладилар.

С

Собственник

uz - mulkdor

мулкдор

en - holder

Субъект собственности, физическое или юридическое лицо, обладающее правом собственности, выступающее в роли владельца, распорядителя и пользователя объекта собственности.

Mulk egasi, egalik huquqi bo'lgan, mulk obyektidan foydalanuvchi, tasarruf etuvchi va unga egalik qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

Мулк эгаси, эгалик хукуқи бўлган, мулк объектдан фойдаланувчи, тасарруф этувчи ва унга эгалик қилувчи жисмоний ёки юридик шахс.

Собственность

uz - egalik

эгалик

en - property

Принадлежность материальных и духовных ценностей, денежных средств, определенным лицам – собственникам, юридическое право на такую принадлежность. Собственностью называют также экономические отношения между людьми по поводу принадлежности, раздела и передела объектов собственности (отношения собственности).

Moddiy va ma'naviy boyliklarning, pul mablag'larining muayyan shaxslarga – mulkdorlarga mansubligi, shunday mansublikka bo'lgan yuridik huquq. Mulk obyektlarining mansubligi, ularni bo'lish, qaytadan bo'lish xususida odamlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar (egalik munosabatlari).

Моддий ва маънавий бойликларнинг, пул маблағларининг муайян шахсларга – мулкдорларга мансублиги, шундай мансубликка бўлган юридик хуқуқ. Мулк объектларининг мансублиги, уларни бўлиш, қайтадан бўлиш хусусида одамлар ўртасидаги иқтисодий муносабатлар (эгалик муносабатлари).

Собственный капитал компании

uz - kompaniyaning xususiy kapitali

компаниянинг хусусий
капитали

en - ownership capital
of company

Собственные, незаимствованные средства, активы, в первую очередь, ликвидные средства. Наличие значительного собственного капитала свидетельствует надежности компании, ее невысокой зависимости от кредитов, уменьшает риск банкротства, неплатежеспособности.

Xususiy, o'zlashtirilmagan mablag'lar, aktivlar, birinchi navbatda, naqd pulga aylantirilishi mumkin bo'lgan mablag'lar. Yirik xususiy kapitalning mav-

С

judligi kompaniyaning ishonchliligini, uning kreditlarga ko'p ham bog'liq emasligini ko'rsatadi, sinish, to'lov qobiliyatini yo'qotish xavfini kamaytiradi.

Хусусий, ўзлаштирилмаган маблағлар, активлар, биринчи навбатда, нақд пулга айлантирилиши мумкин бўлган маблағлар. Йирик хусусий капиталнинг мавжудлиги компаниянинг ишончлилигини, унинг кредитларга кўп ҳам боғлиқ эмаслигини кўрсатади, синиш, тўлов қобилиятини йўқотиш хавфини камайтиради.

Совместительство

uz - o'rindoshlik

ўриндошлик

en - holding more than one office

Наличие наряду с основной должностью и выполнением основных обязанностей другой платной должности, связанной с регулярным выполнением работы.

Asosiy lavozim va asosiy vazifalarni bajarish bilan bir qatorda, ishni muntazam bajarish bilan bog'liq bo'lgan, haq to'lanadigan lavozimning mavjudligi.

Асосий лавозим ва асосий вазифаларни бажариш билан бир қаторда, ишни мунтазам бажариш билан боғлиқ бўлган, ҳақ тўланадиган лавозимнинг мавжудлиги.

Совместная собственность

uz - birgalikda egalik qilish

биргаликда эгалик қилиш

en - joint property

Общая собственность ряда лиц, не разделенная на доли, части.

Qator shaxslarning ulushlarga, qismlarga bo'linmagan umumiy mulki.

Қатор шахсларнинг улушларга, қисмларга бўлинмаган умумий мулки.

Совокупный спрос

uz - umumiy talab

умумий талаб

en - cumulative demand

Общий объем спроса на товары и услуги в стране; зависит от доходов населения и фирм – покупателей товаров.

Mamlakatda tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabning umumiy hajmi; tovarlarni xarid qiluvchilarning – aholi va firmalarning daromadlariga bog'liq.

Мамлакатда товарлар ва хизматларга бўлган талабнинг умумий ҳажми; товарларни харид қилувчиларнинг – аҳоли ва фирмаларнинг даромадларига боғлиқ.

С

Солидарная

ответственность

uz - birgalikdagi javobgarlik

биргаликдаги

жавобгарлик

en - solidarity

Общая ответственность двух или нескольких лиц за выполнение совместно принятых солидарных обязательств.

Ikki yoki bir necha shaxsning birgalikda olingan umumiy majburiyatlar bajarilishi yuzasidan umumiy javobgarligi.

Икки ёки бир неча шахснинг биргаликда олинган умумий мажбуриятлар бажарилиши юзасидан умумий жавобгарлиги.

Сопоставимые цены

uz - taqqoslanadigan narxlar

таққосланадиган нархлар

en - compared prices

Цены на один и тот же товар или группу товаров в разные периоды времени, приведенные к уровню базового года с учетом, прежде всего, инфляции.

Turli vaqt davrlarida ayni bir tovar yoki tovarlar guruhiga boʻlgan, inflyatsiya hisobga olingan holda, tayanch yil darajasiga keltirilgan narxlar.

Турли вақт даврларида айни бир товар ёки товарлар гуруҳига бўлган, инфляция ҳисобга олинган ҳолда, таянч йил даражасига келтирилган нархлар.

Социальная помощь

uz - ijtimoiy yordam

ижтимоий ёрдам

en - social assistance

Забота государства о гражданах, нуждающихся в помощи в связи с возрастом, состоянием здоровья, социальным положением, недостаточной обеспеченностью средствами существования.

Davlatning, yoshi, salomatligining holati, ijtimoiy ahvoli, yashash vositalari bilan yetarlicha taʼminlanmaganligi sababli, yordamga muhtoj boʻlgan fuqarolar toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik koʻrsatishi.

Давлатнинг, ёши, саломатлигининг ҳолати, ижтимоий аҳволи, яшаш воситалари билан етарлича таъминланмаганлиги сабабли, ёрдамга муҳтож бўлган фуқаролар тўғрисида ғамхўрлик кўрсатиши.

Социальная сфера

uz - ijtimoiy soha

ижтимоий соҳа

en - social sphere

Совокупность отраслей, предприятий, организаций, непосредственным образом связанных и определяющих образ и уровень жизни людей, их благосостояние, потребление. Задачи, цели со-

С

циальной сферы: устройство благоприятных социальных отношений между группами, индивидами по поводу их положения, места и роли в обществе, образа и уклада жизни.

Bevosita odamlarning hayot tarzi va turmush darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan, ularning farovonligini, iste‘molini belgilaydigan tarmoqlar, korxonalar, tashkilotlar jami. Ijtimoiy sohaning maqsadlari, vazifalari: guruhlar, individuumlar o‘rtasida, ularning jamiyatdagi mavqei, o‘rni va roli, yashash tarzi, tartibi xususida maqbul ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish.

Бевосита одамларнинг ҳаёт тарзи ва турмуш даражаси билан боғлиқ бўлган, уларнинг фаровонлигини, истеъмолини белгилайдиган тармоқлар, корхоналар, ташкилотлар жами. Ижтимоий соҳанинг мақсадлари, вазифалари: гуруҳлар, индивидуумлар ўртасида, уларнинг жамиятдаги мавқеи, ўрни ва роли, яшаш тарзи, тартиби хусусида мақбул ижтимоий муносабатларни ўрнатиш.

Социальное обеспечение

uz - ijtimoiy ta‘minot

ижтимоий таъминот

en - social security

Предоставление денежной и материальной помощи людям, которые неспособны трудиться, находятся в тяжелом экономическом положении. Социальное обеспечение – это прежде всего предоставление пенсий, пособий, стипендий, других видов социальной, общественной помощи. По сути близок к понятию «социальная помощь».

Ishlay olmaydigan, og‘ir iqtisodiy ahvolda bo‘lgan odamlarga pulli va moddiy yordam ko‘rsatilishi. Ijtimoiy ta‘minot – bu, avvalo, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, ijtimoiy, jamoat yordami boshqa turlarining berilishidir. Mazmuniga ko‘ra, «ijtimoiy yordam» tushunchasiga yaqin.

Ишлай олмайдиган, оғир иқтисодий аҳволда бўлган одамларга пулли ва моддий ёрдам кўрсатилиши. Ижтимоий таъминот – бу, аввало, пенсиялар, нафақалар, стипендиялар, ижтимоий, жамоат ёрдами бошқа турларининг берилишидир. Мазмунига кўра, «ижтимоий ёрдам» тушунчасига яқин.

Социально-ориентированная экономика**uz** - ijtimoiy yoʻnaltirilgan iqtisodiyot

ижтимой

йўналтирилган иқтисодиёт

en - socially-oriented economy

Экономика, хозяйство, направленные на развитие экономической деятельности, производство во имя удовлетворения общественных потребностей, социальных запросов населения, повышения качества и уровня жизни. В социально-ориентированной экономике придается большое значение развитию социальной сферы.

Iqtisodiy faoliyatni, ishlab chiqarishni aholining jamoat ehtiyojlarini, ijtimoiy talablarini qondirish, yashash darajasi va sifatini oshirish yoʻlida rivojlantirishga yoʻnaltirilgan iqtisodiyot, xoʻjalik. Ijtimoiy yoʻnaltirilgan iqtisodiyotda ijtimoiy sohani rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi.

Иқтисодий фаолиятни, ишлаб чиқаришни аҳолининг жамоат эҳтиёжларини, ижтимой талабларини қондириш, яшаш даражаси ва сифатини ошириш йўлида ривожлантиришга йўналтирилган иқтисодиёт, хўжалик. Ижтимой йўналтирилган иқтисодиётда ижтимой соҳани ривожлантиришга катта аҳамият берилади.

Социальные потребности**uz** - ijtimoiy ehtiyojlar

ижтимой эҳтиёжлар

en - societal ends

Нужды, которые имеют общий характер для всех людей, общественные потребности. К социальным относят потребности в общественной безопасности, в общественном транспорте, в образовании, медицинской помощи и многие другие.

Barcha odamlar uchun umumiy xususiyat kasb etadigan zaruratlar, jamoat ehtiyojlari. Jamoat xavfsizligiga, jamoat transportiga, taʼlim, tibbiy yordamga boʻlgan va boshqa koʻplab ehtiyojlar ijtimoiy ehtiyojlarga kiradi.

Барча одамлар учун умумий хусусият касб этадиган заруратлар, жамоат эҳтиёжлари. Жамоат хавфсизлигига, жамоат транспортига, таълим, тиббий ёрдамга бўлган ва бошқа кўплаб эҳтиёжлар ижтимой эҳтиёжларга киради.

Социальный эффект**uz** - ijtimoiy samara

ижтимой самара

en - social effect

Благоприятное воздействие проводимых экономических мер на социальную среду, на удовлетворение социальных нужд.

С

Olib boriladigan ijtimoiy chora-tadbirlarning ijtimoiy muhitga, ijtimoiy talablarni qondirishga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri

Олиб бориладиган ижтимоий чора-тадбирларнинг ижтимоий муҳитга, ижтимоий талабларни қондиришга кўрсатадиган ижобий таъсири.

Специалист

uz - mutaxassis

мутахассис

en - specialist

Человек, обладающий специальными знаниями, навыками, опытом работы в определенном отрасли экономики или науки, профессионал.

Iqtisodiyot yoki ilm-fanning muayyan tarmog'ida ish tajribasiga, maxsus bilimlarga, malakaga ega bo'lgan odam, professional.

Иқтисодиёт ёки илм-фаннинг муайян тармоғида иш тажрибасига, махсус билимларга, малакага эга бўлган одам, профессионал.

Специальность

uz - ixtisoslik

ихтисослик

en - profession

Профессия, наличие у человека образования и опыта работы в отдельных отраслях, по отдельным видам деятельности. Человек, имеющий специальность, обладает правом и возможностью работать там, где нужны специалисты, люди этой специальности. Ответвления от основной специальности принято называть специализацией.

Kasb, odamda faoliyatning ayrim turlari bo'yicha, ayrim tarmoqlarda ish tajribasi va ma'lumotning mavjudligi. Ixtisoslikka ega bo'lgan odam, mutaxassislar, shu ixtisoslikdagi odamlarga ehtiyoj sezilgan yerda ishlash imkoniyati, huquqini oladi. Asosiy ixtisoslikdan ajralib chiqish ixtisoslashtirish deyiladi.

Касб, одамда фаолиятнинг айрим турлари бўйича, айрим тармоқларда иш тажрибаси ва маълумотнинг мавжудлиги. Ихтисосликка эга бўлган одам, мутахассислар, шу ихтисосликдаги одамларга эҳтиёж сезилган ерда ишлаш имконияти, ҳуқуқини олади. Асосий ихтисосликдан ажралиб чиқиш ихтисослаштириш дейилади.

С

Специальные кредитные институты, учреждения
uz - maxsus kredit institutlari, muassasalari

махсус кредит институтлари, муассасалари
en - special lending institutions

Специальные права заимствования, СДР

uz - maxsus olish huquqlari, SDR

махсус олиш ҳуқуқлари, СДР
en - special drawing rights, SDR

Банки и небанковские кредитные учреждения, специализирующиеся в определенной области кредитования.

Kreditlashning muayyan sohasida ixtisoslashgan bank bo'lmagan kredit muassasalari va banklar.

Кредитлашнинг муайян соҳасида ихтисослашган банк бўлмаган кредит муассасалари ва банклар.

Международные платежные и резервные средства, выпускаемые Международным валютным фондом (МВФ). Такие средства используются для безналичных международных расчетов между странами – членами МВФ и с МВФ путем записи на специальных счетах, являются международным резервным активом. Они выполняют ряд функций мировых денег в части регулирования платежных балансов, пополнения официальных валютных резервов, соизмерения стоимости национальных валют, но не имеют собственной стоимости и реального обеспечения. Термином «СДР» пользуются и для обозначения искусственной коллективной денежной единицы, курс которой определяется на основе средневзвешенного курса специального набора основных мировых валют.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) tomonidan chiqariladigan xalqaro to'lov va rezerv mablag'lari. Bunday mablag'lardan, maxsus hisobraqamlarida yozish orqali, Xalqaro valyuta fondiga a'zo mamlakatlar o'rtasida va Xalqaro valyuta fondi bilan naqd pulsiz xalqaro hisob-kitoblar uchun foydalaniladi, xalqaro rezerv aktiv hisoblanadi. Ular to'lov balanslarini tartibga solish, rasmiy valyuta rezervlarini to'ldirish, milliy valyutalar qiymatini solishtirish qismida jahon pullarining qator funksiyalarini bajaradi, lekin o'zining qiymatiga va haqiqiy ta'minlanishiga ega emas. «SDR» atamasidan, kursi asosiy jahon valyutalari maxsus to'plamining o'rtacha o'lgangan kursi asosida belgilanadigan sun'iy umumiy pul birligini belgilash uchun ham foydalaniladi.

С

Халқаро валюта фонди (ХВФ) томонидан чиқариладиган халқаро тўлов ва резерв маблағлари. Бундай маблағлардан, махсус ҳисобрақамларида ёзиш орқали, Халқаро валюта фондига аъзо мамлакатлар ўртасида ва Халқаро валюта фонди билан нақд пулсиз халқаро ҳисоб-китоблар учун фойдаланилади, халқаро резерв актив ҳисобланади. Улар тўлов балансларини тартибга солиш, расмий валюта резервларини тўлдириш, миллий валюталар қийматини солиштириш қисмида жаҳон пулларининг қатор функцияларини бажаради, лекин ўзининг қийматига ва ҳақиқий таъминланишига эга эмас. «СДР» атамасидан, курси асосий жаҳон валюталари махсус тўпламининг ўртача ўлчанган курси асосида белгиланадиган сунъий умумий пул бирлигини белгилаш учун ҳам фойдаланилади.

Спецификация

uz - spetsifikatsiya

спецификация

en - specification

Перечень предлагаемых к продаже или поставляемых товаров, в котором указаны их количество, сорт, марка, качественные характеристики, а в необходимых случаях – и цены.

Sotishga tavsiya qilingan yoki yetkazib beriladigan tovarlar ro'yxati, unda tovarlarning miqdori, navi, markasi, sifat xarakteristikalari, zarur hollarda esa, bahosi ham ko'rsatiladi.

Сотишга тавсия қилинган ёки етказиб бериладиган товарлар рўйхати, унда товарларнинг миқдори, нави, маркasi, сифат хarakterистикалари, зарур холларда эса, баҳоси ҳам кўрсатилади.

Списание

uz - hisobdan chiqarish

ҳисобдан чиқариш

en - writing off

Отнесение товарных или денежных ценностей предприятия к убыткам со снятием их с балансового учета. Списание применяется к полностью изношенным, вышедшим из строя средствам производства и к безнадежным долгам.

Korxonaning tovar yoki pul boyliklarini, ularni balans hisobidan chiqargan holda, zararlarga kiritish. Hisobdan chiqarish to'liq eskirgan, yaroqsiz deb topilgan ishlab chiqarish vositalariga va chorasiz qarzlarga nisbatan qo'llaniladi.

С

Корхонанинг товар ёки пул бойликларини, уларни баланс ҳисобидан чиқарган ҳолда, зарарларга киритиш. Ҳисобдан чиқариш тўлиқ эскирган, яроқсиз деб топилган ишлаб чиқариш воситаларига ва чорасиз қарзларга нисбатан қўлланилади.

Спонсор

uz - homiy

хомий

en - sponsor

1. Поручитель, гарант.

2. Физическое или юридическое лицо, финансирующее экономический проект, проведение каких-либо мероприятий.

3. Заказчик, организатор, устроитель крупного мероприятия.

1. Kafil, kafolat beruvchi.

2. Iqtisodiy loyihani, qandaydir tadbir o'tkazilishini moliyalashtiradigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

3. Yirik tadbir buyurtmachisi, tashkilotchisi, uyushtiruvchisi.

1. Кафил, кафолат берувчи.

2. Иқтисодий лойиҳани, қандайдир тадбир ўтказилишини молиялаштирадиган жисмоний ёки юридик шахс.

3. Йирик тадбир буюртмачиси, ташкилотчиси, уюштирувчиси.

Спрос

uz - talab

талаб

en - demand

Фундаментальное понятие рыночной экономики, означающее обеспеченное платежными средствами желание и намерение потребителей приобрести данный товар. Спрос характеризуется его величиной, означающей количество товара, которое покупатель желает и способен приобрести по данной цене в данный период времени.

Bozor iqtisodiyotining, iste'molchilarning to'lov vositalari bilan ta'minlangan muayyan tovarni sotib olish istagi va maqsadini bildiradigan asosiy tushunchasi. Talab, xaridor shu vaqt davrida shu narx bo'yicha sotib olishni xohlaydigan va sotib olishga qodir bo'lgan tovar miqdorini bildiradigan talab kattaligi orqali tavsiflanadi.

Бозор иқтисодиётининг, истеъмолчиларнинг тўлов воситалари билан таъминланган муайян товарни сотиб олиш истаги ва мақсадини билдира-

С

диган асосий тушунчаси. Талаб, харидор шу вақт даврида шу нарх бўйича сотиб олишни хоҳлайдиган ва сотиб олишга қодир бўлган товар миқдорини билдирадиган талаб катталиги орқали тавсифланади.

Среда маркетинговая

uz - marketing muhiti

маркетинг муҳити

en - marketing environment

Факторы, совокупность действующих за пределами компании субъектов и сил, которые оказывают влияние на развитие и поддержание выгодных взаимоотношений с целевыми клиентами.

Maqsadli mijozlar bilan foydali o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga va saqlab turishga ta'sir ko'rsatadigan omillar, kompaniya tashqarisida ish ko'radigan subyektlar va kuchlar jami.

Мақсадли мижозлар билан фойдали ўзаро муносабатларни ривожлантиришга ва сақлаб туришга таъсир кўрсатадиган омиллар, компания ташқарисида иш кўрадиган субъектлар ва кучлар жами.

Среднесрочный период

uz - o'rta muddatli davr

ўрта муддатли давр

en - medium-term

В экономике период продолжительностью от 1 года до 5-7 лет. Понятие «среднесрочный» принято относить к прогнозам, планам, срокам предоставления кредита.

Iqtisodiyotda davomiyligi 1 yildan 5-7 yilgacha bo'lgan davr. «O'rta muddatli» tushunchasini kredit berish muddatlariga, rejalariga, prognozlariga kiritish qabul qilingan.

Иқтисодиётда давомийлиги 1 йилдан 5-7 йилгача бўлган давр. «Ўрта муддатли» тушунчасини кредит бериш муддатларига, режаларига, прогнозларига киритиш қабул қилинган.

Средние экономические показатели

uz - o'rtacha iqtisodiy

ko'rsatkichlar

ўртача иқтисодий

кўрсаткичлар

en - average economic activities

Показатели, определяемые как средние за несколько лет по ряду экономических объектов или по всей совокупности производителей и потребителей.

Iqtisodiy obyektlar qatori bo'yicha yoki ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning butun jami bo'yicha bir necha yil ichidagi o'rtacha ko'rsatkichlar sifatida belgilanadigan ko'rsatkichlar.

С

Иқтисодий объектлар қатори бўйича ёки ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчиларнинг бутун жами бўйича бир неча йил ичидаги ўртача кўрсаткичлар сифатида белгиланадиган кўрсаткичлар.

Средства производства

uz - ishlab chiqarish vositalari

ишлаб чиқариш

воситалари

en - producers' goods

Орудия и предметы производственной, трудовой деятельности людей; основные средства (производственные здания, сооружения, машины, оборудование, инструменты, приборы) и оборотные средства (сырье, материалы, энергия, малоценный инвентарь), используемые в производстве; все, что создано людьми и используется ими в производственной деятельности.

Odamlarning ishlab chiqarish, mehnat faoliyati qurollari va buyumlari; ishlab chiqarishda foydalaniладigan asosiy vositalar (ishlab chiqarish binolari, inshootlar, mashinalar, uskuna, instrumentlar, asboblar) va aylanma mablag'lar (xomashyo, materiallar, energiya, arzonbaho inventar); odamlar yaratgan va ular tomonidan ishlab chiqarish faoliyatida ishlatiladigan barcha narsa.

Одамларнинг ишлаб чиқариш, меҳнат фаолияти қуроллари ва буюмлари; ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган асосий воситалар (ишлаб чиқариш бинолари, иншоотлар, машиналар, ускуна, инструментлар, асбоблар) ва айланма маблағлар (хомашё, материаллар, энергия, арзонбаҳо инвентарь); одамлар яратган ва улар томонидан ишлаб чиқариш фаолиятида ишлатиладиган барча нарса.

Срок действия векселя, договора

uz - shartnomaning, vekselning amal qilish muddati

шартноманинг, вексел-

нинг амал қилиш муддати

en - currency of the contract

Период, в течение которого ценная бумага, документ, договор, соглашение сохраняют свою силу.

Qimmatli qog'oz, hujjat, shartnoma, bitim o'z kuchini saqlaydigan davr.

Қимматли қоғоз, хужжат, шартнома, битим ўз кучини сақлайдиган давр.

С

Срок кредита

uz - kredit muddati

кредит муддати

en – term of credit

Период времени, на который выдается кредит. Полный срок кредита – это период времени от начала использования до окончательного погашения всей суммы кредита. Срок использования кредита – срок, в течение которого заемщик использует кредит для оплаты своих обязательств. Льготный (грационный) срок кредита исчисляется с момента окончания использования кредита до начала его погашения. Срок погашения кредита – срок, в течение которого происходит выплата основного долга и процентов за пользование кредитом.

Kredit beriladigan vaqt davri. Kreditning to'liq muddati – bu, kreditdan foydalanishning boshlanishidan kredit butun summasi to'liq qaytarilgungacha bo'lgan vaqt davridir. Kreditdan foydalanish muddati – qarz oluvchi kreditdan o'zining majburiyatlarini to'lash uchun foydalanadigan muddat. Kreditning imtiyozli (gratsion) muddati kreditdan foydalanish tugagan paytdan uni qaytarish boshlangungacha hisoblanadi. Kreditni qaytarish muddati – asosiy qarzni va kreditdan foydalanilganlik uchun foizlar to'lash yuz beradigan muddat.

Кредит бериладиган вақт даври. Кредитнинг тўлик муддати – бу, кредитдан фойдаланишнинг бошланишидан кредит бутун суммаси тўлик қайтарилгунгача бўлган вақт давридир. Кредитдан фойдаланиш муддати – қарз олувчи кредитдан ўзининг мажбуриятларини тўлаш учун фойдаланадиган муддат. Кредитнинг имтиёзли (грацион) муддати кредитдан фойдаланиш тугаган пайтдан уни қайтариш бошлангунгача ҳисобланади. Кредитни қайтариш муддати – асосий қарзни ва кредитдан фойдаланилганлик учун фоизлар тўлаш юз берадиган муддат.

Срок службы основных средств

uz - asosiy vositalarning xizmat muddati

асосий воситаларнинг

хизмат муддати

Нормативно установленный срок использования основных средств до их полного физического и морального износа; на такой срок начисляют амортизацию для их восстановления. Наряду с нормативным существует реальный срок использования основных средств.

С

en - life of assets

Asosiy vositalardan, ular to'liq jismoniy va ma'naviy eskirgunga qadar foydalanishning normativ o'rnatilgan muddati; shunday muddatga ularni tiklash uchun amortizatsiya qo'shib yoziladi. Normativ muddat bilan bir qatorda, asosiy vositalardan foydalanishning haqiqiy (real) muddati ham mavjud.

Асосий воситалардан, улар тўлиқ жисмоний ва маънавий эскиргунга қадар фойдаланишнинг норматив ўрнатилган муддати; шундай муддатга уларни тиклаш учун амортизация қўшиб ёзилди. Норматив муддат билан бир қаторда, асосий воситалардан фойдаланишнинг ҳақиқий (реал) муддати ҳам мавжуд.

Ссуда

uz - ssuda

ссуда

en - loan

Безвозмездное предоставление одним лицом денег или материальных ценностей другому лицу.

Bir shaxs tomonidan pullar yoki moddiy boyliklarning boshqa bir shaxsga beg'araz berilishi.

Бир шахс томонидан пуллар ёки моддий бойликларнинг бошқа бир шахсга бегараз берилиши.

Ссудный капитал

uz - ssuda kapitali

ссуда капитали

en - loan capital

Денежный капитал, предоставляемый в виде кредита на условиях возвратности с выплатой ссудного процента.

Kredit ko'rinishida, ssuda foizini to'lash bilan qaytarish shartlari asosida taqdim etiladigan pul kapitali.

Кредит кўринишида, ссуда фоизини тўлаш билан қайтариш шартлари асосида тақдим этиладиган пул капитали.

Ссудный счет

uz - ssuda hisobraqami

ссуда ҳисобрақами

en - advance account

Счет, на котором банки учитывают предоставление и возврат кредитов.

Banklar kreditlarning taqdim etilishini va qaytarilishini hisobga oladigan hisobraqami.

Банклар кредитларнинг тақдим этилишини ва қайтарилишини ҳисобга оладиган ҳисобрақами.

С

Стабилизационный фонд

uz - stabillash fondi

стабиллаш фонди

en - stabilization fund

Аккумуляированные государством денежные средства, адресно предназначенные для поддержания, обеспечения стабильности экономики, предотвращения кризиса, дефолта в случае резкого снижения доходов или увеличения расходов государства.

Davlat tomonidan jamg'arilgan, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, saqlab turish, davlat daromadlari keskin pasaygan yoki xarajatlar keskin oshib ketgan holda, defoltning, inqirozning oldini olish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari.

Давлат томонидан жамғарилган, иқтисодиёт барқарорлигини таъминлаш, сақлаб туриш, давлат даромадлари кескин пасайган ёки харажатлар кескин ошиб кетган ҳолда, дефолтнинг, инқирознинг олдини олиш учун мўлжалланган пул маблағлари.

Ставка

uz - stavka

ставка

en - rate

Величина нормы оплаты, платежа. Например, ставка заработной платы определяет ежемесячную заработную плату, выплачиваемую работнику, занимающему определенную должность.

To'lov, haq to'lash normasining miqdori. Masalan, ish haqi stavkasi ma'lum bir lavozimni egallagan xodimga to'lanadigan oylik ish haqini belgilaydi.

Тўлов, ҳақ тўлаш нормасининг миқдори. Масалан, иш ҳақи ставкаси маълум бир лавозимни эгаллаган ходимга тўланадиган ойлик иш ҳақини белгилайди.

Ставка рефинансирования

uz - qo'shimcha

moliyalashtirish stavkasi

қўшимча

молиялаштириш ставкаси

en - refinance rate

Процентная ставка, по которой Центральный банк предоставляет кредит коммерческим банкам с целью дать им возможность кредитовать предприятия, коммерческие фирмы, предпринимателей, использовать денежные средства для закупки государственных ценных бумаг и в иных целях.

Markaziy bank tijorat banklariga, ular korxonalarini, tijorat firmalari, tadbirkorlarni kreditlash, pul mab-

С

lagʻlaridan davlat qimmatli qogʻozlarini sotib olish uchun va boshqa maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega boʻlishlari uchun kredit beradigan foiz stavkasi.

Марказий банк тижорат банкларига, улар корхоналарни, тижорат фирмалари, тадбиркорларни кредитлаш, пул маблағларидан давлат қимматли қоғозларини сотиб олиш учун ва бошқа мақсадларда фойдаланиш имкониятига эга бўлишлари учун кредит берадиган фоиз ставкаси.

Стагнация

uz - stagnatsiya

стагнация

en - stagnation

Застой в экономике, производстве, торговле.

Iqtisodiyotdagi, ishlab chiqarish, savdodagi turgʻunlik.

Иқтисодиётдаги, ишлаб чиқариш, савдодаги тургунлик.

Стандарт

uz - standart

стандарт

en - standart

1. Официальный государственный или нормативно-технический документ отрасли, предприятия, фирмы, устанавливающий необходимые качественные характеристики, требования, которым должен удовлетворять данный вид продукции, товара, а также термины и определения.

2. Образец, эталон, принимаемые за исходные, базовые, с которыми сравниваются другие подобные объекты.

1. Rasmiy davlat hujjati yoki tarmoq, korxonalar, firmaning, berilgan mahsulot, tovar turi qoniqtirishi zarur talablarni, sifat xarakteristikalarini, shuningdek, atama va taʼriflarni belgilaydigan normativ-texnik hujjati.

2. Boshlangʻich, bazaviy deb olinadigan, boshqa oʻxshash obyektlar taqqoslanadigan namuna, etalon.

1. Расмий давлат ҳужжати ёки тармоқ, корхона, фирманинг, берилган маҳсулот, товар тури қониқтириши зарур талабларни, сифат хarakteristikalarini, шунингдек, атама ва таърифларни белгилайдиган норматив-техник ҳужжати.

2. Бошланғич, базавий деб олинадиган, бошқа ўхшаш объектлар таққосланадиган намуна, эталон.

С

Статистика экономическая

uz - iqtisodiy statistika

иқтисодий статистика

en - statistical economics

Наука, а также вид практической деятельности, направленной на сбор, обработку, анализ и публикацию сводных итоговых экономических показателей.

Fan, shuningdek, jamlama yakuniy iqtisodiy koʻrsatkichlarni toʻplashga, qayta ishlash, tahlil va eʼlon qilishga yoʻnaltirilgan amaliy faoliyat turi.

Фан, шунингдек, жамлама якуний иқтисодий кўрсаткичларни тўплашга, қайта ишлаш, таҳлил ва эълон қилишга йўналтирилган амалий фаолият тури.

Статус организации

uz - tashkilotning maqomi

ташкilotнинг мақоми

en - status of the organization

Правовое положение (совокупность прав и обязанностей) предприятий или предпринимателя, определяемое их организационно-правовой формой, уставом, свидетельством о регистрации, ответственностью, полномочиями.

Korxonalar yoki tadbirkorning, ularning tashkiliy-huquqiy shakli, nizom, roʻyxatga olinganlik toʻgʻri-sidagi guvohnoma, javobgarligi, vakolatlari bilan belgilanadigan huquqiy holati (huquqlar va majburiyatlar yigʻindisi).

Корхоналар ёки тadbirkorning, уларнинг ташкилий-хуқуқий шакли, низом, рўйхатга олинганлик тўғрисидаги гувоҳнома, жавобгарлиги, ваколатлари билан белгиланадиган хуқуқий ҳолати (хуқуқлар ва мажбуриятлар йиғиндиси).

Статьи доходов и расходов бюджета

uz - byudjetning daromadlar va xarajatlar qismlari

бюджетнинг даромадлар

ва харажатлар қисмлари

en - income and expenditure

items

Отдельные позиции бюджета, характеризующие разные виды доходов и расходов и соответствующие им суммы доходов и расходов. Суммарные доходы бюджета складываются из сумм доходных статей, а суммарные расходы – из сумм расходных статей.

Byudjetning, daromadlar va xarajatlarning har xil turlarini va ularga toʻgʻri keladigan daromadlar va xarajatlar summalarini tavsiflaydigan alohida pozitsiyalari. Byudjetning jami daromatlari daromad qismlar summalaridan, jami xarajatlar esa, xarajatlar qismi summalaridan tashkil topadi.

С

Бюджетнинг, даромадлар ва харажатларнинг ҳар хил турларини ва уларга тўғри келадиган даромадлар ва харажатлар суммаларини тавсифлайдиган алоҳида позициялари. Бюджетнинг жами даромадлари даромад қисмлар суммаларидан, жами харажатлар эса, харажатлар қисми суммаларидан ташкил топади.

Стимул

uz - ragʻbatlantiruvchi omil
рағбатлантирувчи омил
en - incentive

Материальное, денежное, моральное поощрение работника, призванное повышать его заинтересованность в лучшем выполнении работы.

Xodimni, uning ishni yaxshi bajarishdan manfaatdorligini oshirishga qaratilgan, moddiy, pul bilan, maʼnaviy ragʻbatlantirish.

Ходимни, унинг ишни яхши бажаришдан манфаатдорлигини оширишга қаратилган, моддий, пул билан, маънавий рағбатлантириш.

Стимулирование экономическое

uz - iqtisodiy ragʻbatlantirish
иқтисодий
рағбатлантириш
en - economical incentive

Использование материальных стимулов, побудителей, способствующих ориентации производителей и потребителей на деятельность в интересах лиц, применяющих стимулирование.

Ishlab chiqaruvchilar va isteʼmolchilarni, ragʻbatlantirishni qoʻllaydigan shaxslarning manfaati yoʻlidagi faoliyatga yoʻnaltirishga koʻmaklashadigan, moddiy ragʻbatlantiradigan, qiziqish uygʻotadigan omillardan foydalanish.

Ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчиларни, рағбатлантиришни қўллайдиган шахсларнинг манфаати йўлидаги фаолиятга йўналтиришга кўмаклашадиган, моддий рағбатлантирадиган, қизиқиш уйғотадиган омиллардан фойдаланиш.

Стоимость

uz - qiymat
қиймат
en - cost

Ценность товаров, выраженная в деньгах, которые надо заплатить, чтобы купить этот товар, денежные затраты, расход денежных средств на покупку товара, получение благ, выполнение работ и услуг. В трудовой теории стоимости она характеризуется как овеществленный труд, то есть имеет предметную, вещественную, а не денежную основу.

С

Tovarlarning, bu tovarni xarid qilish uchun to'lash kerak bo'lgan pullarda ifodalangan bahosi, tovarni sotib olish, ne'matlar olish, ishlar va xizmatlar bajarilishi yuzasidan pul xarajatlari, pul mablag'larining sarflanishi. Qiymatning mehnat nazariyasida u moddiylashtirilgan mehnat sifatida tavsiflanadi, ya'ni pul asosiga emas, balki predmet, moddiy asosga ega.

Товарларнинг, бу товарни харид қилиш учун тўлаш керак бўлган пулларда ифодаланган баҳо-си, товарни сотиб олиш, неъматлар олиш, ишлар ва хизматлар бажарилиши юзасидан пул харажатлари, пул маблағларининг сарфланиши. Қий-матнинг меҳнат назариясида у моддийлашти-рилган меҳнат сифатида тавсифланади, яъни пул асосига эмас, балки предмет, моддий асосга эга.

Стороны договорные

uz - shartnoma tomonlari
шартнома томонлари
en - parties of contract

Юридические и физические лица, заключающие между собой договор.

O'zaro shartnoma tuzadigan yuridik va jismoniy shaxslar.

Ўзаро шартнома тузадиган юридик ва жисмоний шахслар.

Стратегическая концепция маркетинга

uz - strategik marketing
konsepsiyasi
стратегик маркетинг
концепцияси
en - strategic marketing
concept

Концепция маркетинга, предусматривающая в качестве приоритета потребности покупателей и одновременно наличие конкуренции в отличие от концепции маркетинга, ориентированной на потребителей.

Iste'molchilarga qaratilgan marketing konsepsiyasidan farqli ravishda, ustuvorlik sifatida xaridorlarning ehtiyojlari va bir vaqtda raqobatning mavjud bo'lishi ko'zda tutiladigan marketing konsepsiyasi.

Истеъмолчиларга қаратилган маркетинг концепциясидан фарқли равишда, устуворлик сифатида харидорларнинг эҳтиёжлари ва бир вақтда рақобатнинг мавжуд бўлиши кўзда тутиладиган маркетинг концепцияси.

С

Стратегические товары

uz - strategik tovarlar

стратегик товарлар

en - strategical goods

Отдельные виды товаров, чаще всего вооружение, машины, оборудование, технические и технологические новшества, экспорт которых из страны ограничен или запрещен в целях предотвращения ущерба, который может быть нанесен безопасности государства-экспортера.

Mamlakatdan eksport qilinishi eksport qiladigan davlatning xavfsizligiga etkazilishi mumkin bo'lgan zararining oldini olish maqsadida cheklangan yoki taqiqlangan tovarlarning alohida turlari, ko'pincha, qurol-yarog', mashinalar, uskuna, texnik va texnologik yangiliklar.

Мамлакатдан экспорт қилиниши экспорт қиладиган давлатнинг хавфсизлигига етказилиши мумкин бўлган зарарнинг олдини олиш мақсадида чекланган ёки тақиқланган товарларнинг алоҳида турлари, кўпинча, қурол-яроғ, машиналар, ускуна, техник ва технологик янгиликлар.

Стратегический маркетинг

uz - strategik marketing

стратегик маркетинг

en - strategic marketing

Анализ потребностей и запросов ключевых потребительских групп, а также разработка и производство товара в конкурентной среде.

Asosiy iste'molchi guruhlar ehtiyojlarini va talablarini tahlil qilish, shuningdek, raqobat sharoitida tovar ishlab chiqish va ishlab chiqarish.

Асосий истеъмолчи гуруҳлар эҳтиёжларини ва талабларини таҳлил қилиш, шунингдек, рақобат шароитида товар ишлаб чиқиш ва ишлаб чиқариш.

Стратегический план маркетинга

uz - strategik marketing rejasi

стратегик маркетинг

режаси

en - strategic marketing plan

План, разрабатываемый на уровне компании или подразделения с целью определения миссии компании, главных ориентиров для долгосрочного роста компании, создания основы для разработки номенклатуры товаров компании и распределения ресурсов между подразделениями компании.

Kompaniya yoki bo'linma darajasida kompaniya missiyasini, kompaniyaning uzoq muddatli o'sishi uchun asosiy mo'ljallarni belgilash, kompaniya bo'linmalari o'rtasida resurslarni taqsimlash va uning

С

tovarlar nomenklaturasini ishlab chiqish uchun asos yaratish maqsadida ishlab chiqiladigan reja.

Компания ёки бўлинма даражасида компания миссиясини, компаниянинг узоқ муддатли ўсиши учун асосий мўлжалларни белгилаш, компания бўлинмалари ўртасида ресурсларни тақсимлаш ва унинг товарлар номенклатурасини ишлаб чиқиш учун асос яратиш мақсадида ишлаб чиқилган режа.

Стратегия экономическая

uz - iqtisodiy strategiya

иқтисодий стратегия

en - strategy of economic

Долговременные, наиболее принципиальные планы правительства, администрации регионов, руководства предприятий в отношении производства, доходов и расходов, бюджета, налогов, капиталовложений, цен, социальной защиты.

Hukumatning, hududlar ma'muriyatlarining, korxonalar rahbariyatining ishlab chiqarishga, daromadlar va xarajatlarga, byudjet, soliqlar, kapital qo'yilmalar, narxlarga, ijtimoiy himoyaga nisbatan uzoq muddatli, eng muhim rejalari.

Хукуматнинг, худудлар маъмуриятларининг, корхоналар раҳбариятининг ишлаб чиқаришга, даромадлар ва харажатларга, бюджет, солиқлар, капитал қўйилмалар, нархларга, ижтимоий ҳимояга нисбатан узоқ муддатли, энг муҳим режалари.

Страхование

uz - sug'urta

суғурта

en - insurance

Создание за счет денежных средств предприятий, организаций, граждан специальных страховых фондов, предназначенных для возмещения ущерба. Страхование осуществляется государственными страховыми обществами, компаниями. Объектами страхования могут быть жизнь, здоровье людей, имущество граждан и предприятий, транспортные средства.

Korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarning pul mablag'lari hisobiga, zararni qoplash uchun mo'ljallangan maxsus sug'urta jamg'armalarini yaratish. Sug'urta davlat sug'urta jamiyatlari, kompaniyalari tomondan amalga oshiriladi. Odamlarning hayoti, salomatligi, fuqarolar va korxonalar mulki, transport vositalari sug'urta obyektleri bo'lishi mumkin.

С

Корхоналар, ташкилотлар, фуқароларнинг пул маблағлари ҳисобига, зарарни қоплаш учун мўлжалланган махсус суғурта жамғармаларини яратиш. Суғурта давлат суғурта жамиятлари, компаниялари томонидан амалга оширилади. Одамларнинг ҳаёти, саломатлиги, фуқаролар ва корхоналар мулки, транспорт воситалари суғурта объектлари бўлиши мумкин.

Страховой полис

uz - sug'urta polisi
суғурта полиси
en - insurance policy

Документ (как правило, именно), выдаваемый застрахованному лицу застраховавшей его организацией; содержит условия договора страхования.

Sug'urtalangan shaxsga uni sug'urtalagan tashkilot tomonidan beriladigan hujjat (odatda, egasining nomi yozilgan); sug'urta shartnomasi shartlarini ichiga oladi.

Суғурталанган шахсга уни суғурталаган ташкилот томонидан бериладиган ҳужжат (одатда, эгасининг номи ёзилган); суғурта шартномаси шартларини ичига олади.

Страховщик

uz - sug'urta qiluvchi idora
суғурта қилувчи идора
en - assurer, insurer

Организация, проводящая страхование, принимающая на себя обязательство возмещения страхового ущерба, выплаты страховой суммы.

Sug'urtani o'tkazadigan, o'ziga sug'urta zararini qoplash, sug'urta summasini to'lash majburiyatini oladigan tashkilot.

Суғуртани ўтказадиган, ўзига суғурта зарарини қоплаш, суғурта суммасини тўлаш мажбуриятини оладиган ташкилот.

Структурированное наблюдение

uz - strukturalangan kuzatish
структураланган кузатиш
en - structured observation

Метод наблюдения, когда исследователь имеет четкое представление о моделях поведения, которые будут объектом наблюдения, а также методах, с помощью которых их можно оценить.

Tadqiqotchi kuzatish obyekti bo'ladigan xulq-atvor modellari, shuningdek, ularni baholashda yordam beradigan metodlar to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladigan kuzatish metodi.

С

Тадқиқотчи кузатиш объекти бўладиган хулқ-атвор моделлари, шунингдек, уларни баҳолашда ёрдам берадиган методлар тўғрисида аниқ тасаввурга эга бўладиган кузатиш методи.

Структурированный сбор данных

uz - strukturalangan
ma'lumotlar to'plash

структураланган
маълумотлар тўплаш

en - structured data collection

Использование формализованной анкеты с расположенными в определенном порядке вопросами.

Muayyan tartibda joylashgan savollar bo'lgan formal anketadan foydalanish.

Муайян тартибда жойлашган саволлар бўлган формал анкетадан фойдаланиш.

Субаренда

uz - subarenda
субаренда

en - sublease

Передача арендатором части или всего арендованного имущества в аренду третьему лицу.

Ijarachi tomonidan ijaraga olingan butun mulkning yoki bir qismining uchinchi shaxsga ijaraga berilishi.

Ижарачи томонидан ижарага олинган бутун мулкнинг ёки бир қисмининг учинчи шахсга ижарага берилиши.

Субвенция

uz - subvensiya
субвенция

en - subvention

Денежное пособие, выделяемое государством местным органам власти на целевое финансирование определенного мероприятия, объекта.

Davlat tomonidan mahalliy hokimiyat organlariga muayyan tadbirni, obyektни maqsadli moliyalashtirish uchun ajratiladigan pul nafaqasi.

Давлат томонидан маҳаллий ҳокимият органларига муайян тадбирни, объектни мақсадли молиялаштириш учун ажратиладиган пул нафақаси.

Субподрядчик

uz - subpudratchi
субпудратчи

en - subcontractor

Предприятие, привлекаемое к участию в сооружении объекта генеральным подрядчиком.

Obyektни barpo etish uchun bosh pudratchi tomonidan jalb qilingan korxonа.

Объектни барпо этиш учун бош пудратчи томонидан жалб қилинган корхона.

С

Субсидия

uz - subsidiya

субсидия

en - subsidy

Пособие в денежной или натуральной форме, предоставляемое из средств государственного бюджета или из специальных государственных фондов физическим и юридическим лицам, местным органам власти, другим государствам. Различают прямые субсидии – непосредственное предоставление средств и косвенные – установление налоговых или других льгот.

Pul yoki natural shaklda davlat byudjeti mablag‘laridan yoki maxsus davlat jamg‘armalaridan jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy hokimiyat organlariga, boshqa davlatlarga beriladigan mablag‘. To‘g‘ri subsidiyalar – mablag‘larni to‘g‘ridan-to‘g‘ri berish va qo‘shimcha subsidiyalar – soliq imtiyozlarini yoki boshqa imtiyozlarni belgilash, ajratiladi.

Пул ёки натурал шаклда давлат бюджети маблағларидан ёки махсус давлат жамғармаларидан жисмоний ва юридик шахсларга, маҳаллий ҳокимият органларига, бошқа давлатларга бериладиган маблағ. Тўғри субсидиялар – маблағларни тўғридан-тўғри бериш ва қўшимча субсидиялар – солиқ имтиёзларини ёки бошқа имтиёзларни белгилаш, ажратилади.

Субсчет

uz - subhisobvaraқ, subschyot

субҳисобварақ, субсчёт

en - subfunds

Подсобный счет, открываемый в банках (кроме основного) подразделениями предприятия, фирмы.

Banklarda korxonа, firma bo‘linmalari tomonidan ochiladigan qo‘shimcha (asosiy hisobvaraқdan tashqari) hisobvaraқ.

Банкларда корхона, фирма бўлинмалари томонидан очиладиган қўшимча (асосий ҳисобварақдан ташқари) ҳисобварақ.

Субъект собственности

uz - egalik subyekti

эгалик субъекти

en – subject ownership

Собственник, владелец и распорядитель имущества, ценностей. Субъект собственности может быть юридическим и физическим лицом.

Mulkdor, mulk, boyliklar egasi, ularni boshqaruvchi. Egalik subyekti jismoniy va yuridik shaxs bo‘lishi mumkin.

С

Мулкдор, мулк, бойликлар эгаси, уларни бошқарувчи. Эгалик субъекти жисмоний ва юридик шахс бўлиши мумкин.

Субъект управления

uz - boshqaruv subyekti

бошқарув субъекти

en - agent of management

Лицо, орган, организация, осуществляющие управление экономикой, хозяйством.

Iqtisodiyot, xo‘jalik boshqaruvini amalga oshiradigan shaxs, organ, tashkilot.

Иқтисодиёт, хўжалик бошқарувини амалга оширадиган шахс, орган, ташкилот.

Субъект экономического, хозяйствующий

uz - iqtisodiy, xo‘jalik

yurituvchi subyekt

иқтисодий, хўжалик

юритувчи субъект

en - agent of economic

Физическое или юридическое лицо, осуществляющее экономическую, хозяйственную деятельность.

Iqtisodiy faoliyatni, xo‘jalik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Иқтисодий фаолиятни, хўжалик фаолиятини амалга оширадиган жисмоний ёки юридик шахс.

Сфера услуг

uz - xizmatlar sohasi

хизматлар соҳаси

en - service industries

Условное наименование совокупности отраслей экономики, предоставляющих услуги населению. В сферу услуг принято включать культуру, образование, здравоохранение, бытовое обслуживание населения, юридическую, консультационную помощь, перевозки пассажиров и грузов, предоставление информации.

Aholiga xizmatlar taqdim etadigan jami iqtisodiyot tarmoqlarining shartli nomi. Xizmatlar sohasiga madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, huquqiy maslahat yordami, passajirlar va yuklar tashish, axborot taqdim etish kiradi.

Аҳолига хизматлар тақдим этадиган жами иқтисодиёт тармоқларининг шартли номи. Хизматлар соҳасига маданият, таълим, соғлиқни сақлаш, аҳолига маиший хизмат кўрсатиш, ҳуқуқий маслаҳат ёрдами, пассажирлар ва юклар ташиш, ахборот тақдим этиш киради.

Счет

uz - schyot, hisobvaraқ

счёт, ҳисобварақ

en - account

В широком смысле слова документ, в котором отражается движение денежных средств от одного лица к другому, между разными юридическими и физическими лицами. Банковский счет

С

– это открываемая и ведущаяся банком учетная ведомость, в которую заносятся сведения о деньгах и денежных операциях лица, на которое заведен счет. Банк ведет расчетные счета предприятий и лицевые счета граждан. Бухгалтерские счета используются для бухгалтерского учета, движения товаров и денежных средств предприятия, компании. Счет на оплату, предъявляемый к оплате, – это документ, который предъявляется плательщику и в котором указано сколько, за что и кому надо оплатить.

Keng ma'noda, pul mablag'larining bir shaxsdan boshqa bir shaxsga tomon, turli yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida harakatlanishi aks etadigan hujjat. Bank hisobvarag'i – bu, bank tomonidan ochiladigan va yuritiladigan, nomiga hisobvarag'i ochilgan shaxsning pullari va pul operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladigan hisobga olish qaydnomasidir. Bank korxonalarining hisob-kitob varaqalarini va fuqarolarning shaxsiy hisobvaraqlarini yuritadi. Buxgalteriya hisobvaraqlaridan korxonalar, kompaniya pul mablag'lari va tovarlari harakatining buxgalteriya hisobi uchun foydalaniladi. To'lov hisobi, to'lovga taqdim etilgan hisob – bu, to'lovchiga taqdim etiladigan, kimga va nima uchun qancha to'lash kerakligi ko'rsatilgan hujjat.

Кенг маънода, пул маблағларининг бир шахсдан бошқа бир шахсга томон, турли юридик ва жисмоний шахслар ўртасида ҳаракатланиши акс этадиган ҳужжат. Банк ҳисобварағи – бу, банк томонидан очиладиган ва юритиладиган, номига ҳисобварағи очилган шахснинг пуллари ва пул операциялари тўғрисидаги маълумотлар киритиладиган ҳисобга олиш қайдномасидир. Банк корхоналарнинг ҳисоб-китоб varaқаларини ва фуқароларнинг шахсий ҳисобварақаларини юритади. Бухгалтерия ҳисобварақаларидан корхона, компания пул маблағлари ва товарлари ҳаракатининг бухгалтерия ҳисоби учун фойдаланилади. Тўлов ҳисоби, тўловга тақдим этилган ҳисоб – бу, тўловчига тақдим этиладиган, кимга ва нима учун қанча тўлаш кераклиги кўрсатилган ҳужжат.

С

Счетоводство

uz - hisob-kitob yuritish

хисоб-китоб юритиш

en - accountancy

Бухгалтерское дело, ведение счетов.

Buxgalteriya ishi, hisob-kitob yuritish.

Бухгалтерия иши, хисоб-китоб юритиш.

Т

Табель

uz - tabel

табель

en - time sheet

1. Список, перечень объектов и лиц, составленный в определенном порядке.

2. Документ, в котором учитывается время прихода работником и ухода с работы, общее отработанное ими время.

1. Muayyan tartibda tuzilgan obyektlar va shaxslar ro'yxati.

2. Xodimning ishga kelish va ishdan ketish vaqti hisobga olinadigan hujjat; xodim ishlab bergan umumiy vaqt.

1. Muayyan tartibda tuzilgan obyektlar va shaxslar ro'yxati.

2. Xodimning ishga kelish va ishdan ketish vaqti hisobga olinadigan hujjat; xodim ishlab bergan umumiy vaqt.

Такса

uz - taksa

такса

en - tariff

Четко установленный уровень тарифов, цен, оплаты за выполнение работ, оказание услуг.

Ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi uchun haq to'lashning, narx, tariflarning qat'iy belgilangan darajasi.

Ишлар бажарилганлиги, хизматлар кўрсатилганлиги учун ҳақ тўлашнинг, нарх, тарифларнинг қатъий белгиланган даражаси.

Тактика экономическая

uz - iqtisodiy taktika

иқтисодий тактика

en – economic tactic

Экономическое действие, рассчитанное на относительно кратковременный период, исходя из текущей ситуации.

Hozirgi vaziyatdan kelib chiqib, nisbatan qisqa muddatli davrga mo'ljallangan iqtisodiy harakat.

Ҳозирги вазиятдан келиб чиқиб, нисбатан қисқа мuddатли даврга мўлжалланган иқтисодий ҳаракат.

Т

Таможенная декларация

uz - bojxona deklaratsiyasi

божхона декларацияси

en - customs bill

Документ, содержащий сведения о перемещаемом через границу грузе (экспортируемом и импортируемом товаре, пассажирском багаже, ручной клади, ценностях, валюте).

Chegara orqali o'tadigan yuk (eksport, import qilinadigan tovar, yo'lovchilar bagaji, qo'lda olib yuriladigan yuk, boyliklar, valyuta) to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga oladigan hujjat.

Чегара орқали ўтадиган юк (экспорт, импорт қилинадиган товар, йўловчилар багажи, қўлда олиб юриладиган юк, бойликлар, валюта) тўғрисидаги маълумотларни ичига оладиган ҳужжат.

Таможенная пошлина

uz - bojxona boji

божхона божи

en - customs duty

Денежные сборы, взимаемые таможенными с проводимых через государственную границу товаров по ставкам таможенного тарифа.

Bojxonalar tomonidan bojxona tarif stavkalari bo'yicha davlat chegarasi orqali o'tadigan tovarlardan olinadigan pul yig'implari.

Божхоналар томонидан божхона тариф ставкалари бўйича давлат чегараси орқали ўтадиган товарлардан олинадиган пул йиғимлари.

Таможенный тариф

uz - bojxona tarifi

божхона тарифи

en - custom tariff

Систематизированный свод таможенных пошлин с наименованием облагаемых и необлагаемых ими товаров и указанием ставок и таможенной пошлины на единицу данного товара, а также перечнем товаров, запрещенных к ввозу, вывозу и транзиту.

Bojxona bojlarining tizimlashtirilgan to'plami, unda boj olinadigan va olinmaydigan tovarlar nomi, shu tovar birligiga bojxona boji va stavkalari ko'rsatiladi, shuningdek, olib kirish, olib chiqish va tranzit olib o'tish taqiqlangan tovarlar ro'yxati bo'ladi.

Божхона божларининг тизимлаштирилган тўплами, унда бож олинадиган ва олинмайдиган товарлар номи, шу товар бирлигига божхона божи ва ставкалари кўрсатилади, шунингдек, олиб кириш, олиб чиқиш ва транзит олиб ўтиш тақиқланган товарлар рўйхати бўлади.

Т

Таможня

uz - bojxona

божхона

en - customshouse

Государственная служба, контролирующая ввоз и вывоз товаров через границу страны. Таможня взимает таможенные пошлины. Таможей называют также контрольный пункт, в котором таможенная служба производит проверку товаров, перевозимых через границу.

Mamlakat chegarasi orqali tovarlar olib kirilishi va olib chiqilishini nazorat qiladigan davlat xizmati; bojxona xizmati chegara orqali tashiladigan tovarlarni tekshiradigan nazorat punkti. Bojxona bojxona bojlari undiradi.

Мамлакат чегараси орқали товарлар олиб кирилиши ва олиб чиқилишини назорат қиладиган давлат хизмати; божхона хизмати чегара орқали ташиладиган товарларни текширадиган назорат пункти ҳам божхона дейилади. Божхона божхона божлари ундиради.

Тантьема

uz - tantema

тантьема

en - tantieme

Дополнительное вознаграждение, премия, выплачиваемая высшему руководящему составу фирмы из полученной чистой прибыли.

Olingan sof foydadan firmaning yuqori rahbar tarkibiga to'lanadigan mukofot, qo'shimcha haq.

Олинган соф фойдадан фирманинг юқори рахбар таркибига тўланадиган мукофот, қўшимча ҳақ.

Тариф

uz - tarif

тариф

en - tariff

Величина, ставка денежной оплаты за услуги, предоставляемые гражданам и предприятиям со стороны государства, коммерческих организаций, компаний, фирм.

Fuqarolarga, korxonalarga davlat, tijorat tashkilotlari, kompaniyalar, firmalar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar uchun pul to'lovining miqdori, stavkasi.

Фуқароларга, корхоналарга давлат, тижорат ташкилотлари, компаниялар, фирмалар томонидан тақдим этиладиган хизматлар учун пул тўловининг миқдори, ставкаси.

T

Тарификация

uz - tarifkatsiya

тарификация

en - tariffication

Установление тарифов на услуги и ставок оплаты труда.

Mehnatga haq to'lash stavkalari va xizmatlar tariflarini belgilash.

Меҳнатга ҳақ тўлаш ставкалари ва хизматлар тарифларини белгилаш.

Тарифная система

uz - tarif tizimi

тариф тизими

en - tariff system

Совокупность нормативно устанавливаемых ставок, тарифных коэффициентов, в соответствии с которыми устанавливается и изменяется уровень заработной платы работников. Нормативные ставки устанавливаются в зависимости от профессии, стажа работы, квалификации, образования, условий труда. Синоним – тарифная сетка.

Normativ o'rnatiladigan stavkalar, tarif koeffitsiyentlari jami, ular asosida xodimlar ish haqining darajasi o'rnatiladi va o'zgaradi. Normativ stavkalar kasbga, ish stajiga, malaka, ma'lumotga, mehnat sharoitlariga bog'liq holda o'rnatiladi. Sinonimi – tarif setkasi.

Норматив ўрнатиладиган ставкалар, тариф коэффициентлари жами, улар асосида ходимлар иш ҳақининг даражаси ўрнатилади ва ўзгаради. Норматив ставкалар касбга, иш стажига, малака, маълумотга, меҳнат шароитларига боғлиқ ҳолда ўрнатилади. Синоними – тариф сеткаси.

Тарифный коэффициент

uz - tarif koeffitsiyenti

тариф коэффициентни

en - tariff increase

Отношение часовой или дневной ставки оплаты труда, установленной применительно к данному разряду тарифной сетки, к соответствующей ставке оплаты труда по низшему разряду.

Tarif setkasining berilgan razryadiga tatbiqan belgilangan mehnatga haq to'lash soatbay yoki kunlik stavkasining, quyi razryad bo'yicha mehnatga haq to'lashning tegishli stavkasiga bo'lgan nisbati.

Тариф сеткасининг берилган разрядига татбиқан белгиланган меҳнатга ҳақ тўлаш соатбай ёки кунлик ставкасининг, қуйи разряд бўйича меҳнатга ҳақ тўлашнинг тегишли ставкасига бўлган нисбати.

Т

Твердая валюта

uz - barqaror valyuta

барқарор валюта

en - hard currency

Валюта, курс которой по отношению к ведущим валютам мира остается практически неизменным или меняющимся в узких пределах, свободно конвертируемая валюта.

Kursi, jahonning etakchi valyutalariga nisbatan amalda o'zgarmsdan qoladigan yoki tor doirada o'zgaradigan valyuta, erkin konvertatsiyalanadigan valyuta.

Курси, жаҳоннинг етакчи валюталарига нисбатан амалда ўзгармасдан қоладиган ёки тор доирада ўзгарадиган валюта, эркин конвертацияланадиган валюта.

Тезаврация

uz - tezavratsiya

тезаврация

en - thesaurisation

1. Накопление населением денег путем изъятия их из обращения.

2. Накопление частными лицами золота в виде богатства, сокровища.

3. Создание золотого запаса страны.

1. Aholi tomonidan pullarning, ularni muomaladan chiqarish yo'li bilan jamg'arilishi.

2. Xususiy shaxslar tomonidan oltinning boylik, mol-mulk ko'rinishida to'planishi.

3. Mamlakat oltin zaxirasini yaratish.

1. Aҳоли томонидан пулларнинг, уларни муомаладан чиқариш йўли билан жамғарилиши.

2. Хусусий шахслар томонидан олтиннинг бойлик, мол-мулк кўринишида тўпланиши.

3. Мамлакат олтин захирасини яратиш.

Текущие обязательства

uz - joriy majburiyatlar

жорий мажбуриятлар

en - current liabilities

Обязательства хозяйствующего субъекта, подлежащие оплате в течение одного операционного цикла или одного года.

Хо'jalik yurituvchi subyektning, bir yil yoki bir operatsion sikl mobaynida to'lanishi zarur bo'lgan majburiyatlari.

Хўжалик юритувчи субъектнинг, бир йил ёки бир операцион цикл мобайнида тўланиши зарур бўлган мажбуриятлари.

T

Текущие расходы

uz - joriy sarf-xarajatlar

жорий сарф-харажатлар

en - current expenditure

1. Расходы, осуществляемые и оплачиваемые в данный момент.

2. Мелкие расходы банков и других учреждений из собственной сметы, не возмещаемые клиентами.

1. Ayni shu onda to'lanadigan va amalga oshiriladigan sarf-xarajatlar.

2. Banklar va boshqa muassasalarning, o'zlarining smetalaridan qilinadigan, mijozlar qoplaydigan mayda sarf-xarajatlari.

1. Айни шу онда тўланадиган ва амалга ошириладиган сарф-харажатлар.

2. Банклар ва бошқа муассасаларнинг, ўзларининг сметаларидан қилинадиган, мижозлар қопламайдиган майда сарф-харажатлари.

Текущий счет

uz - joriy hisobvaraқ

жорий ҳисобварақ

en - current account

Счет, открываемый банком юридическому или физическому лицу для хранения денежных средств, которые могут быть легко изъяты со счета, и проведения расчетов; бюджетным организациям – для совершения операций с внебюджетными средствами; служит для аккумуляции свободных денежных капиталов, кассовых резервов компаний, а для частных лиц – еще и формой сбережений и накопления денег.

Bank tomonidan, hisobvaraқdan oson chiqarish mumkin bo'lgan pul mablag'larini saqlash va hisob-kitoblarni olib borish uchun, yuridik va jismoniy shaxslarga ochiladigan hisobvaraқ; Byudjet tashkilotlarga byudjetdan tashqari mablag'lar bilan operatsiyalar o'tkazish uchun; kompaniyalarning erkin pul kapitallarini, kassa rezervlarini to'plash uchun, xususiy shaxslar uchun esa, shuningdek, pullarni jamg'arish va jamg'arma shakli bo'lib xizmat qiladi.

Банк томонидан, ҳисобварақдан осон чиқариш мумкин бўлган пул маблағларини сақлаш ва ҳисоб-китобларни олиб бориш учун, юридик ва жисмоний шахсларга очиладиган ҳисобварақ; Бюджет ташкилотларга бюджетдан ташқари

Т

маблағлар билан операциялар ўтказиш учун; компанияларнинг эркин пул капиталларини, касса резервларини тўплаш учун, хусусий шахслар учун эса, шунингдек, пулларни жамғариш ва жамғарма шакли бўлиб хизмат қилади.

Темп роста

uz - yuksalish sur'ati
юксалиш суръати

en - growth rate

Отношение величины экономического показателя в данное время к его исходному значению, принятому за базу отчета.

Hozirgi vaqtdagi iqtisodiy ko'rsatkich kattaligining, uning rivojlanishi uchun asos deb qabul qilingan boshlang'ich qiymatiga bo'lgan nisbati.

Ҳозирги вақтдаги иқтисодий кўрсаткич катталигининг, унинг ривожланиши учун асос деб қабул қилинган бошланғич қийматига бўлган нисбати.

Тенденция

uz - tendensiya
тенденция

en - tendency

Выявленные в результате экономического анализа, устойчиво наблюдаемые соотношения, свойства, признаки, присущие экономической системе, экономике страны, предприятия, фирмы, показателям доходов, расходов, потребления семей, спросу и предложению на рынке товаров и услуг; сложившаяся направленность экономических процессов.

Iqtisodiy tahlil natijasida aniqlangan, iqtisodiy tizimga, mamlakat, korxonalar, firma iqtisodiyotiga, oilalarning iste'mol, daromadlar va xarajatlar ko'rsatkichlariga, tovarlar va xizmatlar bozoridagi talab va taklifga xos bo'lgan, barqaror kuzatiladigan nisbatlar, xususiyatlar, belgilar; iqtisodiy jarayonlarning qaror topgan yo'nalishi.

Иқтисодий таҳлил натижасида аниқланган, иқтисодий тизимга, мамлакат, корхона, фирма иқтисодиётига, оилаларнинг истеъмол, даромадлар ва харажатлар кўрсаткичларига, товарлар ва хизматлар бозоридаги талаб ва таклифга хос бўлган, барқарор кузатиладиган нисбатлар, хусусиятлар, белгилар; иқтисодий жараёнларнинг қарор топган йўналиши.

Т

Тендер

uz - tender

тендер

en - tender

1. Конкурсные торги за право получения заказа (контракта) на выполнение работ, поставку товаров. Бывают открытого типа (публичные) или закрытого, для ограниченного числа участников.
2. Письменное предложение, заявление о подписке на ценные бумаги, о намерении заключить контракт или поставить товары.
3. Цена на товар, предложенная его производителем, исходя из уровня цен, предлагаемых его конкурентами.

1. Tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yuzasidan buyurtma (kontrakt)ni olish huquqi uchun o'tkaziladigan konkurs savdolar. Ochiq turdagi (ommaviy) yoki qatnashchilar soni cheklangan yopiq tender bor.

2. Qimmatli qog'ozlarga yozilish, kontrakt tuzish yoki tovarlar yetkazib berish to'g'risidagi ariza, yozma taklif.

3. Tovarning, tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan, uning raqobatchilari taklif etgan baholar darajasidan kelib chiqib taklif qilingan bahosi.

1. Товарларни етказиб бериш, ишларни бажариш юзасидан буюртма (контракт)ни олиш ҳуқуқи учун ўтказиладиган конкурс савдолар. Очиқ турдаги (оммавий) ёки қатнашчилар сони чекланган ёпиқ тендер бор.

2. Қимматли қоғозларга ёзилиш, контракт тузиш ёки товарлар етказиб бериш тўғрисидаги ариза, ёзма таклиф.

3. Товарнинг, товар ишлаб чиқарувчи томонидан, унинг рақобатчилари таклиф этган баҳолар даражасидан келиб чиқиб таклиф қилинган баҳоси.

Теория обмена

uz - ayirboshlash nazariyasi

айирбошлаш назарияси

en - exchange theory

Центральная концепция маркетинга, согласно которой каждое взаимодействие между субъектами рынка влечет за собой обмен материальными ценностями.

Marketingning markaziy konsepsiyasi, unga ko'ra, bozor subyektlari o'rtasidagi har bir hamkorlik moddiy boyliklar ayirboshlanishini keltirib chiqaradi.

Т

Маркетингнинг марказий концепцияси, унга кўра, бозор субъектлари ўртасидаги ҳар бир ҳамкорлик моддий бойликлар айирбошланишини келтириб чиқаради.

Тестирование

uz - testlash

тестлаш

en - test

Испытание продукта потребителями путем специальных психологических средств и способов. Например, предоставление респондентам определенных рисунков и фотографий, изображающих людей с просьбой описать свою реакцию относительно увиденного и незаконченных предложений, которые надо завершить своими словами, а также, в форме эксперимента, имитировать покупательское поведение.

Mahsulotning iste'molchilar tomonidan maxsus psixologik usullar hamda vositalar yo'li bilan sinovdan o'tkazilishi. Masalan, respondentlarga ko'rganlariga nisbatan o'zlarining reaksiyalarini tavsiflashni iltimos qilgan holda, odamlar tasvirlangan fotosuratlar va rasmlarni, o'z so'zlari bilan tugatishlari kerak bo'lgan tugallanmagan jummalarni berish, shuningdek, eksperiment shaklida xaridor xulq-atvorini imitatsiya qilish.

Маҳсулотнинг истеъмолчилар томонидан махсус психологик усуллар ҳамда воситалар йўли билан синовдан ўтказилиши. Масалан, респондентларга кўрганларига нисбатан ўзларининг реакцияларини тавсифлашни илтимос қилган ҳолда, одамлар тасвирланган фотосуратлар ва расмларни, ўз сўзлари билан тугатишлари керак бўлган тугалланмаган жумлаларни бериш, шунингдек, эксперимент шаклида харидор хулқ-атворини имитация қилиш.

Техника

uz - texnika

техника

en - technique

Совокупность технических средств, создаваемых для осуществления процессов производства и обслуживания непроектируемых потребностей. Техника повышает производительность труда, уменьшает долю ручного труда, автоматизирует и механизмирует производство, совершенствует образ жизни людей.

T

Ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish va noishlab chiqarish ehtiyojlariga xizmat ko'rsatish uchun yaratiladigan texnik vositalar jami. Texnika mehnat unumdorligini oshiradi, qo'l mehnati ulushini kamaytiradi, ishlab chiqarishni avtomatlashtiradi va mexanizatsiyalashtiradi, odamlar hayot tarzini takomillashtiradi.

Ишлаб чиқариш жараёнларини амалга ошириш ва ноишлаб чиқариш эҳтиёжларига хизмат кўрсатиш учун яратиладиган техник воситалар жами. Техника меҳнат унумдорлигини оширади, қўл меҳнати улушини камайтиради, ишлаб чиқаришни автоматлаштиради ва механизациялаштиради, одамлар ҳаёт тарзини такомиллаштиради.

Технико-экономическое обоснование

uz - texnik-iqtisodiy asoslash

техник-иқтисодий

асослаш

en - project feasibility study

Анализы, расчеты, оценки эффективности, технической и экономической целесообразности осуществления предлагаемого проекта строительства, создания нового технического объекта, модернизации и реконструкции существующих объектов.

Taklif qilinadigan qurilish loyihasini amalga oshirishning, yangi texnik obyekt yaratish, mavjud obyektlarni modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilishning texnik va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini, samaradorligini baholash, tahlil qilish, hisoblash.

Таклиф қилинадиган қурилиш лойиҳасини амалга оширишнинг, янги техник объект яратиш, мавжуд объектларни модернизациялаш ва реконструкция қилишнинг техник ва иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқлигини, самарадорлигини баҳолаш, таҳлил қилиш, ҳисоблаш.

Технический прогресс

uz - texnika taraqqiyoti

техника тараққиёти

en - technical progress

Процесс повышения качества, надежности, производительности машин, оборудования. Технический прогресс во многом сопряжен с технологическим прогрессом, совершенствованием технологии.

T

Mashinalar, uskunalar unumdorligi, ishonchliligi, sifatini oshirish jarayoni. Texnika taraqqiyoti ko'p jihatdan texnologik taraqqiyot bilan, texnologiyalarning takomillashtirilishi bilan bog'langan.

Машиналар, ускуналар унумдорлиги, ишончлилиги, сифатини ошириш жараёни. Техника тараққиёти кўп жиҳатдан технологик тараққиёт билан, технологияларнинг такомиллаштирилиши билан боғланган.

Технологическая карта

uz - texnologik karta

технологик карта

en - flowchart

Форма технологической документации, содержащей описание процесса изготовления конкретной продукции, производственных операций, применяемого оборудования, временного режима осуществления операций. Карта содержит иллюстрированные схемы, рисунки.

Texnologik hujjatlarning, muayyan mahsulotning tayyorlanish jarayoni, ishlab chiqarish operatsiyalarining, qo'llaniladigan uskuna, operatsiyalarni bajarishning vaqt rejimi tavsifini ichiga oladigan shakli. Karta illyustratsiyali sxemalarni, rasmlarni ichiga oladi.

Технологик ҳужжатларнинг, муайян маҳсулотнинг тайёрланиш жараёни, ишлаб чиқариш операцияларининг, қўлланиладиган ускуна, операцияларни бажаришнинг вақт режими тавсифини ичига оладиган шакли. Карта иллюстрацияли схемаларни, расмларни ичига олади.

Технологическая операция

uz - texnologik operatsiya

технологик операция

en - manufacturing operation

Часть общего технологического процесса, представляющая завершённое действие, выполняемое одним работником на одном рабочем месте.

Umumiy texnologik jarayonning, bir ishchi tomonidan bir ish o'rnida bajariladigan tugallangan ishni ifodalaydigan qismi.

Умумий технологик жараённинг, бир ишчи томонидан бир иш ўрнида бажариладиган тугалланган ишни ифодаляйдиган қисми.

Т

Технологический процесс

uz - texnologik jarayon

технологик жараён

en - manufacturing process

Совокупность последовательно выполняемых операций обработки и сборки изделий, образующих вместе единый процесс производства продукции.

Buyumni yig'ish va unga ishlov berish bo'yicha ketma-ket bajariladigan, birgalikda mahsulot ishlab chiqarishning yaxlit jarayonini hosil qiladigan operatsiyalar yig'indisi.

Буюмни йиғиш ва унга ишлов бериш бўйича кетма-кет бажариладиган, биргаликда маҳсулот ишлаб чиқаришнинг яхлит жараёнини ҳосил қиладиган операциялар йиғиндиси.

Технологический режим

uz - texnologik rejim

технологик режим

en - technological regime

Установленный, предписанный порядок осуществления, выполнения технологических операций. Технологический режим предусматривает продолжительность каждой операции, температурные условия, способы обработки, величину прилагаемого усилия и другие подобные условия, которые следует соблюдать в производстве данной продукции.

Texnologik operatsiyalarni bajarish, amalga oshirishning o'rnatilgan, buyurilgan tartibi. Texnologik rejim har bir operatsiyaning davomiyligini, temperatura sharoitlarini, ishlov berish yo'llarini, sarfladigan kuch kattaligini va shu mahsulotni ishlab chiqarishda rioya qilinishi zarur bo'lgan boshqa o'xshash shartlarni ko'zda tutadi.

Технологик операцияларни бажариш, амалга оширишнинг ўрнатилган, буюрилган тартиби. Технологик режим ҳар бир операциянинг давомийлигини, температура шароитларини, ишлов бериш йўлларини, сарфланадиган куч катталигини ва шу маҳсулотни ишлаб чиқаришда риоя қилиниши зарур бўлган бошқа ўхшаш шартларни кўзда тутди.

Технологичность продукции

uz - mahsulotning

texnologikligi

Возможность изготовления продукции на базе известных и освоенных технологических процессов и обородования.

Т

маҳсулотнинг
технологиклиги
en - manufacturing product

Технология
uz - texnologiya
технология
en - technology

Товар
uz - tovar
товар
en - goods

Mahsulotni ma'lum va o'zlashtirilgan texnologik jarayonlar va uskunalar negizida tayyorlash imkoniyati, mumkinligi.

Маҳсулотни маълум ва ўзлаштирилган технологик жараёнлар ва ускуналар негизида тайёрлаш имконияти, мумкинлиги.

Способ преобразования вещества, энергии, информации в процессе изготовления продукции, выполнения работ, оказания услуг. Технология включает в себя методы обработки материалов, сборки готовых изделий, режим работы, последовательность операций и процедур, она тесно связана с применяемым оборудованием, инструментами.

Mahsulot tayyorlash, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonida axborot, energiya, moddani o'zgartirish usuli. Texnologiya materiallarga ishlov berish, tayyor buyumlarni yig'ish usullarini, operatsiyalar va protseduralar ketma-ketligini ichiga oladi, u qo'llaniladigan uskuna, vositalar bilan chambarchas bog'langan.

Маҳсулот тайёрлаш, ишларни бажариш, хизматлар кўрсатиш жараёнида ахборот, энергия, моддани ўзгартириш усули. Технология материалларга ишлов бериш, тайёр буюмларни йиғиш усулларини, операциялар ва процедуралар кетма-кетлигини ичига олади, у қўлланиладиган ускуна, воситалар билан чамбарчас боғланган.

1. Любой продукт производственно-экономической деятельности в материально-вещественной форме.

2. Объект купли-продажи, рыночных отношений между продавцами и покупателями. Товары классифицируются по различным критериям: товары конечного и промежуточного потребления, товары производственного назначения, товары длительного и краткосрочного пользования, товары повседневного и «интервального» пользования, товары пассивного и повышенного спроса, товары сезонного спроса, товары роскоши, сырьевые продукты и готовые изделия, экс-

T

портные товары, уникальные товары, новые и подержанные товары.

1. Ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatning moddiy buyum shaklidagi har qanday mahsuli.

2. Oldi-sotdi, sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi bozor munosabatlari obyekt. Tovarlar turli mezonlar bo'yicha tasniflanadi: pirovard va oraliq iste'mol tovarlari, ishlab chiqarish maqsadidagi tovarlar, uzoq va qisqa muddat foydalaniladigan tovarlar, kunda va «oraliq» foydalaniladigan tovarlar, kam talab qilinadigan va talab katta bo'lgan tovarlar, mavsumiy talabdagi tovarlar, zeb-ziynat tovarlari, xomashyo mahsulotlar va tayyor buyumlar, eksport tovarlar, noyob tovarlar, yangi va ishlatilgan tovarlar.

1. Ишлаб чиқариш-иқтисодий фаолиятнинг моддий буюм шаклидаги ҳар қандай маҳсули.

2. Олди-сотди, сотувчилар ва харидорлар ўртасидаги бозор муносабатлари объекти. Товарлар турли мезонлар бўйича таснифланади: пировард ва оралик истеъмол товарлари, ишлаб чиқариш мақсадидаги товарлар, узоқ ва қисқа мuddат фойдаланиладиган товарлар, кунда ва «оралиқ» фойдаланиладиган товарлар, кам талаб қилинадиган ва талаб катта бўлган товарлар, мавсумий талабдаги товарлар, зеб-зийнат товарлари, хомашё маҳсулотлар ва тайёр буюмлар, экспорт товарлар, ноёб товарлар, янги ва ишлатилган товарлар.

Товарищество хозяйственное

uz - xo'jalik shirkati

хўжалик ширкати

en - partnership economic

Коммерческая организация, объединяющая физических или юридических лиц с разделенным на доли (вклады) учредителей (участников) уставным (складочным) капиталом.

Ta'sischilarning (qatnashchilarning) hissaviy badallari (ulushlari)dan tashkil topadigan, jismoniy yoki yuridik shaxslarni birlashtiradigan tijorat tashkiloti.

Таъсисчиларнинг (қатнашчиларнинг) ҳиссавий бадаллари (улушлари)дан ташкил топадиган, жисмоний ёки юридик шахсларни бирлаштирадиган тижорат ташкилоти.

T

Товарная биржа

uz - tovar birjasi

товар биржаси

en - commodity exchange

Рынок однородного стандартизованного биржевого товара; преимущественным образом распространены биржи зерна, хлопка, металлов.

Bir xildagi standartlashtirilgan birja tovarlari bozori; asosan, don birjasi, metallar birjasi, paxta birjasi tarqalgan.

Бир хилдаги стандартлаштирилган биржа товарлари бозори; асосан, дон биржаси, металлар биржаси, пахта биржаси тарқалган.

Товарная номенклатура

uz - tovar nomenklaturasi

товар номенклатураси

en - commodity nomenclature

Ассортимент товаров в торговой сети; перечень продукции, производимой на предприятии.

Savdo tarmogʻidagi tovarlar assortimenti; korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot roʻyxati.

Савдо тармоғидаги товарлар assortimenti; корхонада ишлаб чиқариладиган маҳсулот рўйхати.

Товарная продукция

uz - tovar mahsulot

товар маҳсулот

en - commercial products

Объем всей произведенной предприятием за определенный период (чаще всего за год) конечной продукции, исчисленный в денежном выражении.

Korxonada maʼlum bir davr (koʻpincha, bir yil) ichida ishlab chiqargan barcha pirovard mahsulotning pulda hisoblangan hajmi.

Корхона маълум бир давр (кўпинча, бир йил) ичида ишлаб чиқарган барча пировард маҳсулотнинг пулда ҳисобланган ҳажми.

Товарно-денежные отношения

uz - tovar-pul munosabatlar

товар-пул муносабатлар

en - commodity-money relations

Рыночные отношения, возникающие в процессе купли-продажи, обмена товаров на деньги и денег на товары.

Tovarlarni sotish-sotib olish, pullarga ayirboshlash va pullarni tovarlarga ayirboshlash jarayonida yuzaga keladigan bozor munosabatlari.

Товарларни сотиш-сотиб олиш, пулларга айирбошлаш ва пулларни товарларга айирбошлаш жараёнида юзага келадиган бозор муносабатлари.

Т

Товарное обеспечение денег

uz - pullarning tovar ta'minoti

пулларнинг товар

таъминоти

en - commodity cover of money

Мера, в которой поступившие на рынок товары в стоимостном выражении соответствуют количеству наличных и безналичных денег предприятий, населения, которые могут быть предъявлены для их покупки в действующих ценах. Наличие товарно необеспеченных денег служит одной из причин открытой или скрытой инфляции.

Bozorga kelib tushgan tovarlar qiymat ifodasida korxonalar, aholining, tovarlarni amaldagi narxlarda sotib olish uchun ko'rsatilishi mumkin bo'lgan naqd va naqd bo'lmagan pullari miqdoriga to'g'ri keladigan o'lchov. Tovar bilan ta'minlanmagan pullarning mavjudligi ochiq yoki yashirin inflyatsiya sabablaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Бозорга келиб тушган товарлар қиймат ифода-сида корхоналар, аҳолининг, товарларни амал-даги нархларда сотиб олиш учун кўрсатилиши мумкин бўлган нақд ва нақд бўлмаган пуллари миқдoriga тўғри келадиган ўлчов. Товар билан таъминланмаган пулларнинг мавжудлиги очик ёки яширин инфляция сабабларидан бири бўлиб хизмат қилади.

Товарные запасы

uz - tovar zaxiralari

товар захиралари

en - goods in stock

Количество товаров определенного вида, находящихся в сфере обращения (в перевозке и на складах, в хранилищах, в торговой сети). Наличие товарных запасов служит важным условием непрерывности процесса производства, в то же время запасы не должны быть избыточными, так как при этом увеличиваются издержки.

Muomala sohasida (tashishda, omborlarda, saqlash joylarida, savdo tarmog'ida) bo'lgan muayyan turdagi tovarlar miqdori. Tovar zaxiralarning mavjudligi ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligining muhim sharti bo'lib xizmat qiladi, ayni vaqtda zaxiralar keragidan ortiq bo'lmasligi kerak, chunki bunda chiqimlar ko'payib ketadi.

Муомала соҳасида (ташишда, омборларда, сақ-лаш жойларида, савдо тармоғида) бўлган муайян турдаги товарлар миқдори. Товар захиралари-нинг мавжудлиги ишлаб чиқариш жараёни уз-

Т

луксизлигининг муҳим шарти бўлиб хизмат қиладди, айти вақтда захиралар керагидан ортиқ бўлмаслиги керак, чунки бунда чиқимлар кўпайиб кетади.

Товарные излишки

uz - tovar ortiqchaligi

товар ортиқчалиги

en - surplus of goods

Избыточное количество товаров, превышающее потребление и спрос на них, приводящие к затовариванию.

Tovarlarning, ularga bo‘lgan talab va iste’moldan oshadigan, tovarlar to‘planib qolishiga olib keldigan ortiqcha miqdori.

Товарларнинг, уларга бўлган талаб ва истеъмолдан ошадиган, товарлар тўпланиб қолишига олиб келадиган ортиқча миқдори.

Товарный знак

uz - tovar belgisi

товар белгиси

en - trade mark

Зарегистрированное в установленном порядке обозначение, символика, позволяющие отличить товар данной фирмы от товаров других фирм. Владелец товарного знака имеет исключительное право на его использование, охраняемое законом.

O‘rnatilgan tartibda qayd etilgan, bir firma tovarlaridan farqlash imkonini beradigan belgi, ramziy ifoda. Tovar belgisining egasi undan foydalanishning, qonun bilan himoya qilinadigan mutlaq huquqiga ega.

Ўрнатилган тартибда қайд этилган, бир фирма товарларидан фарқлаш имконини берадиган белги, рамзий ифода. Товар белгисининг эгаси ундан фойдаланишнинг, қонун билан химоя қилинадиган мутлак ҳуқуқига эга.

Товарный чек

uz - tovar cheki

товар чеки

en - sale receipt

Документ о покупке, выдаваемый продавцом товара покупателю, который вместе с кассовым чеком, свидетельствует о внесении платы за товар. В товарном чеке указывается, где и когда был куплен товар, вид и количество проданного товара, цена единицы товара и уплаченная за всю покупку сумма. Товарный чек необходим покупателю для отчета об истраченных деньгах.

Tovarni sotuvchi tomonidan xaridorga beriladigan

T

xarid to'g'risidagi hujjat bo'lib, kassa cheki bilan birga, tovar uchun haq to'langanligini ko'rsatadi. Tovar chekida tovar qaerda, qachon sotib olinganligi, sotilgan tovarning turi, miqdori, tovar birligi bahosi va butun xarid uchun to'langan summa ko'rsatiladi. Tovar cheki xaridorga sarflangan pullar to'g'risida hisobot uchun zarur.

Товарни сотувчи томонидан харидорга бериладиган харид тўғрисидаги хужжат бўлиб, касса чеки билан бирга, товар учун ҳақ тўланганлигини кўрсатади. Товар чекида товар қаерда, қачон сотиб олинганлиги, сотилган товарнинг тури, миқдори, товар бirligi баҳоси ва бутун харид учун тўланган сумма кўрсатилади. Товар чеки харидорга сарфланган пуллар тўғрисида ҳисобот учун зарур.

Товародвижение

uz - tovar harakati

товар ҳаракати

en - movement of goods

Физическое перемещение товаров от производителя к потребителю. Выбор схем и условий товародвижения зависит от ряда факторов: необходимой скорости выполнения заказов, транспортных возможностей, уровня организации складской сети, наличия достаточных уровней страховых запасов, цен и тарифов по перемещению грузов.

Tovarlarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchi tomon jismoniy ko'chishi. Tovar harakati sxemalari va shartlarini tanlash qator omillarga: buyurtmalarni bajarishning zarur tezligiga, transport imkoniyatlariga, ombor tarmog'ining tashkil etilish darajasiga, yetarlicha sug'urta zaxiralari mavjudligiga, yuklarni tashish tariflari va narxlariga bog'liq.

Товарларнинг ишлаб чиқарувчидан истеъмолчи томон жисмоний кўчиши. Товар ҳаракати схемалари ва шартларини танлаш қатор омилларга: буюртмаларни бажаришнинг зарур тезлигига, транспорт имкониятларига, омбор тармоғининг ташкил этилиш даражасига, етарлича суғурта захиралари мавжудлигига, юкларни ташиш тарифлари ва нархларига боғлиқ.

Т

Товарооборот

uz - tovar aylanmasi

товар айланмаси

en - goods turnover

1. Движение товаров в сфере обращения, связанное с их обменом на деньги и переходом от производства к потреблению.

2. Объем проданных и купленных товаров в денежном выражении за определенный период времени; один из важнейших объемных показателей работы торговых организаций, торговой сети.

1. Tovarlarning muomala sohasidagi, ularning pulga ayirboshlash va ishlab chiqarishdan iste'molga o'tish bilan bog'liq harakati.

2. Muayyan davr ichida pulda ifodalangan, sotilgan va sotib olingan tovarlar hajmi; savdo tashkilotlari, savdo tarmog'i ishining muhim hajm ko'rsatkichlaridan biri.

1. Товарларнинг муомала соҳасидаги, уларнинг пулга айирбошлаш ва ишлаб чиқаришдан истеъмомлга ўтиш билан боғлиқ ҳаракати.

2. Муайян давр ичида пулда ифодаланган, сотилган ва сотиб олинган товарлар ҳажми; савдо ташкилотлари, савдо тармоғи ишининг муҳим ҳажм кўрсаткичларидан бири.

Товаропроводящая сеть

uz - tovar o'tkazuvchi savdo shoxobchalari

товар ўтказувчи савдо шохобчалари

en - distribution network

Совокупность средств перемещения доставки товара от производителя к потребителю.

Tovarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berish, ko'chirish vositalari jami.

Товарни ишлаб чиқарувчидан истеъмомчига етказиб бериш, кўчириш воситалари жами.

Толлинг

uz - tolling

толлинг

en - tolling

Форма сотрудничества компаний, в том числе из разных стран, при которой компания передает другой компании сырье, комплектующие изделия на дальнейшую переработку, доработку, а затем получает обратно продукт, изготовленный из переданного сырья; товар при этом, как правило, освобождается от таможенных пошлин.

Kompaniyalarning, shu jumladan, turli mamlakatlar kompaniyalarining hamkorlik qilish shakli, bunda kompaniya boshqa kompaniyaga keyinchalik qayta ishlash, kam-ko'stini to'ldirish uchun xomashyo,

T

butlovchi buyumlar beradi, keyin esa, berilgan xomashyodan tayyorlangan mahsulotni qaytarib oladi; tovar bu holda, bojxona bojlaridan ozod qilinadi.

Компанияларнинг, шу жумладан, турли мамлакатлар компанияларининг ҳамкорлик қилиш шакли, бунда компания бошқа компанияга кейинчалик қайта ишлаш, кам-кўстини тўлдириш учун хомашё, бутловчи буюмлар беради, кейин эса, берилган хомашёдан тайёрланган маҳсулотни қайтариб олади; товар бу ҳолда, божхона божларидан озод қилинади.

Торги

uz - kimoshdi savdosi

кимошди савдоси

en - tenders

Традиционная, широко распространенная форма торговли, при которой заключению торговой сделки между продавцом и покупателем предшествуют переговоры в виде торга по поводу цены товара. Благодаря торгам реализуется принцип конкурсных начал в торговле, ибо каждая из торгующих сторон, если только она не представлена в единственном лице, участвует в конкурсе на лучшую продажу или покупку. Различают два основных вида торгов:

а) открытые (публичные, гласные), которые проводятся гласно, в открытой форме, в присутствии участников торга;

б) закрытые (негласные), к участию в которых допускается ограниченное число покупателей товара (государственного или иного заказа) или сами торги проводятся в отсутствие их прямых участников специальным тендерным комитетом (заказчиком, если продается заказ), который рассматривает письменные предложения покупателей.

Anʼanaviy, keng tarqalgan savdo shakli, bunda sotuvchi va xaridor oʻrtasida savdo bitimi tuzilishdan oldin, tovarning bahosi xususida savdolashish koʻrinishida muzokaralar olib boriladi. Kimoshdi savdolari tufayli, savdoda tanlov yoʻllari prinsipi amalga oshiriladi, chunki savdolashuvchi tomonlardan har biri konkursda eng yaxshi sotuv yoki xarid uchun qatnashadi, agar yagona shaxs timsolida

T

konkursda qatnashmayotgan bo'lsa. Kimoshdi savdolarining ikkita asosiy turi ajratiladi:

a) ochiq (ommaviy, oshkora) kimoshdi savdolari, ular oshkora, ochiq shaklda, kimoshdi savdosi ishtirokchilari borligida o'tkaziladi;

b) yopiq (yashirin) kimoshdi savdolari, ularda qatnashish uchun tovar (davlat buyurtmasi yoki boshqa buyurtma) xaridorlarining cheklangan soniga ruxsat beriladi yoki kimoshdi savdolarining o'zi bevosita ishtirokchilar yo'qligida, xaridorlarning yozma takliflarini ko'rib chiqadigan maxsus tender qo'mitasi (buyurtma sotiladigan bo'lsa, buyurtmachi) tomonidan o'tkaziladi.

Анъанавий, кенг тарқалган савдо шакли, бунда сотувчи ва харидор ўртасида савдо битими тузилишдан олдин, товарнинг баҳоси хусусида савдолашиш кўринишида музокаралар олиб борилади. Кимошди савдолари туфайли, савдода танлов йўллари принципи амалга оширилади, чунки савдолашувчи томонлардан ҳар бири конкурсада энг яхши сотув ёки харид учун қатнашади, агар ягона шахс тимсолида конкурсада қатнашмаётган бўлса. Кимошди савдolarining иккита асосий тури ажратилади:

a) очик (оммавий, ошкора) кимошди савдолари, улар ошкора, очик шаклда, кимошди савдоси иштирокчилари борлигида ўтказилади;

б) ёпик (яширин) кимошди савдолари, уларда қатнашиш учун товар (давлат буюртмаси ёки бошқа буюртма) харидорларининг чекланган сонига рухсат берилади ёки кимошди савдolarining ўзи бевосита иштирокчилар йўқлигида, харидорларнинг ёзма таклифларини кўриб чиқадиган махсус тендер қўмитаси (буюртма сотиладиган бўлса, буюртмачи) томонидан ўтказилади.

Торговая марка

uz - savdo markasi

савдо маркаси

en - trade label

Фирменный знак, символ для обозначения всех товаров данной фирмы.

Ma'lum bir firmaning barcha tovarlarini belgilash uchun ishlatiladigan firma belgisi.

Маълум бир фирманинг барча товарларини белгилаш учун ишлатиладиган фирма белгиси.

Т

Торговля
uz - savdo
савдо
en - trading

1. Отрасль хозяйства, экономики и вид экономической деятельности, объектом, полем действия которых является обеспечение обращения товаров, товарообмен, купля-продажа товаров, а также обслуживание покупателей в процессе продажи товаров и их доставки, хранение товаров и их подготовка к продаже.

2. Коммерция, купля и продажа товаров. Различают оптовую торговлю крупными партиями товаров для производственного потребления или перепродажи и розничную торговлю единичными предметами или небольшим количеством, обслуживающую конечного потребителя.

1. Ishlash obyekti, maydoni tovarlar aylanishini ta'minlash, tovar ayirboshlash, tovarlar oldi-sotdisi, shuningdek tovarlarni sotish, yetkazib berish jarayonida xaridorlarga xizmat ko'rsatish, tovarlarni saqlash va ularni sotuvga tayyorlash bo'lgan iqtisodiy faoliyat turi va iqtisodiyot, xo'jalik tarmog'i.

2. Tijorat, tovarlarni sotib olish va sotish. Tovarlar ishlab chiqarish iste'moli uchun yirik turkumlarda sotiladigan ulgurji savdo hamda pirovard iste'molchiga xizmat ko'rsatiladigan, tovarlar uncha ko'p bo'lmagan miqdorda yoki ayrim narsalar sotilishida ifodalanadigan chakana savdo farqlanadi.

1. Ишлаш объекти, майдони товарлар айланишини таъминлаш, товар айирбошлаш, товарлар олди-сотдиси, шунингдек товарларни сотиш, етказиб бериш жараёнида харидорларга хизмат кўрсатиш, товарларни сақлаш ва уларни сотувга тайёрлаш бўлган иқтисодий фаолият тури ва иқтисодиёт, хўжалик тармоғи.

2. Тижорат, товарларни сотиб олиш ва сотиш. Товарлар ишлаб чиқариш истеъмоли учун йирик туркумларда сотиладиган улгуржи савдо ҳамда пировард истеъмолчига хизмат кўрсатиладиган, товарлар унча кўп бўлмаган миқдорда ёки айрим нарсалар сотилишида ифодаланадиган чакана савдо фарқланади.

Т

Торгово-промышленная палата

uz - savdo-sanoat palatasi

савдо-саноат палатаси

en - chamber of commerce and industry

Общественная организация, содействующая развитию экономики и торговли, в первую очередь – внешнеторговых отношений между странами, стремится объединить деловые круги, установить торговые связи, предоставляют необходимую информацию участникам торговых операций.

Iqtisodiyot va savdo, birinchi navbatda, mamlakatlar oʻrtasidagi tashqi savdo munosabatlari rivojlanishiga koʻmaklashadigan jamoat tashkiloti, ishbi-larmon doiralarni birlashtirishga, savdo aloqalari oʻrnatishga harakat qiladi, savdo operatsiyalarining qatnashchilari uchun zarur maʼlumotni taqdim etadi.

Иқтисодиёт ва савдо, биринчи навбатда, мамлакатлар ўртасидаги ташқи савдо муносабатлари ривожланишига кўмаклашадиган жамоат ташкилоти, ишбилармон доираларни бирлаштиришга, савдо алоқалари ўрнатишга ҳаракат қилади, савдо операцияларининг қатнашчилари учун зарур маълумотни тақдим этади.

Торговый баланс государства

uz - davlatning savdo balansi

давлатнинг савдо

баланси

en - trade balance of state

Часть платежного баланса страны, баланс внешней торговли, характеризующий соотношения между экспортом и импортом товаров, услуг.

Mamlakat toʻlov balansining bir qismi, tovar, xizmatlar eksporti va importi oʻrtasidagi nisbatni tavsiflaydigan, tashqi savdo balansi.

Мамлакат тўлов балансининг бир қисми, товар, хизматлар экспорти ва импорти ўртасидаги нисбатни тавсифлайдиган, ташқи савдо баланси.

Торговый реестр

uz - savdo reyestri

савдо реестри

en - trade register

Реестр торговых фирм, в который вносятся официально зарегистрированные фирмы. Торговый реестр содержит сведения о наименовании фирмы, ее местонахождении, направлении деятельности, данные об основном капитале и владельцах фирмы.

Savdo firmalarining, rasman roʻyxatdan oʻtgan firmalar kiritiladigan reyestri. Savdo reyestri firma-

T

ning nomi, u joylashgan yer, faoliyatining yoʻnalishi, asosiy kapitali va egalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni ichiga oladi.

Савдо фирмаларининг, расман рўйхатдан ўтган фирмалар киритиладиган реестри. Савдо реестри фирманинг номи, у жойлашган ер, фаолиятининг йўналиши, асосий капитали ва эгалари тўғрисидаги маълумотларни ичига олади.

Точка безразличия

uz - befarqlik nuqtasi

бефарқлик нуқтаси

en - point of indifference

Сочетание факторов производства на предприятии и объема выпускаемой продукции, при котором увеличение одного из факторов приводит к росту издержек, равному увеличению дохода, выручки от прироста объема производства. Таким образом, если предприятие имеет состояние производства, соответствующее точке безразличия, ему нет смысла наращивать объем производства путем увеличения одного из факторов.

Korxonadagi ishlab chiqarish omillari va chiqariladigan mahsulot hajmining muvofiq kelishi, bunda omillardan birining oshishi, ishlab chiqarish hajmi oʻsishi tufayli tushum, foyda oshishiga teng boʻlgan xarajatlarning oshishiga olib keladi. Shu tariqa, korxonada befarqlik nuqtasiga toʻgʻri keladigan ishlab chiqarish holatida boʻlsa, uning uchun, omillardan birini oshirish yoʻli bilan ishlab chiqarish hajmini koʻpaytirishdan maʼno boʻlmaydi.

Корхонадаги ишлаб чиқариш омиллари ва чиқариладиган маҳсулот ҳажмининг мувофиқ келиши, бунда омиллардан бирининг ошиши, ишлаб чиқариш ҳажми ўсиши туфайли тушум, фойда ошишига тенг бўлган харажатларнинг ошишига олиб келади. Шу тариқа, корхона бефарқлик нуқтасига тўғри келадиган ишлаб чиқариш ҳолатида бўлса, унинг учун, омиллардан бирини ошириш йўли билан ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтиришдан маъно бўлмайди.

Точка безубыточности

uz - zarar koʻrmaslik nuqtasi

зарар кўрмаслик нуқтаси

Уровень производства или другого вида экономической деятельности, при котором величина выручки от реализации произведенного продук-

T

en - break even point

та, услуг равна издержкам производства и обращения этого продукта.

Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy faoliyat boshqa bir turining darajasi, bunda ishlab chiqarilgan mahsulot, xizmatlarni sotishdan olingan tushum miqdori, bu mahsulotni ishlab chiqarish va aylanish xarajatlariga teng bo‘ladi.

Ишлаб чиқариш ёки иқтисодий фаолият бошқа бир турининг даражаси, бунда ишлаб чиқарилган маҳсулот, хизматларни сотишдан олинган тушум миқдори, бу маҳсулотни ишлаб чиқариш ва айланиш харажатларига тенг бўлади.

Транзит

uz - tranzit

транзит

en - through haulage

Перевозка грузов, пассажиров через пункт, который является промежуточным, пересадочным между пунктами отправления и назначения.

Yuklar, passajirlarning jo‘natish va borib tushish punktlari o‘rtasidagi oraliq, boshqasiga ko‘chib o‘tish uchun mo‘ljallangan punkt orqali tashilishi.

Юклар, пассажирларнинг жўнатиш ва бориб тушиш пунктлари ўртасидаги оралик, бошқасига кўчиб ўтиш учун мўлжалланган пункт орқали ташилиши.

Трансакционные издержки

uz - transaksiya chiqimlari

трансакция чиқимлари

en - transaction expenses

Расходы, связанные с организацией сделок, заключением договоров, контрактов, ведением переговоров, получением информации, оформлением документов, обеспечением юридической защиты.

Kelishuvlarni tashkillashtirish, shartnomalar, kontraktlar tuzish, muzokaralar olib borish, axborot olish, hujjatlarni rasmiylashtirish, huquqiy himoyani ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar.

Келишувларни ташкиллаштириш, шартномалар, контрактлар тузиш, музокаралар олиб бориш, ахборот олиш, ҳужжатларни расмийлаштириш, ҳуқуқий ҳимояни таъминлаш билан боғлиқ харажатлар.

Т

Трансакция

uz - transaksiya

трансакция

en - transaction

В широком смысле слова – операция, сделка. Термин имеет ряд значений:

- a) банковская операция, состоящая в переводе денежных средств с одного счета на другой; платеж;
- b) дело, сделка, операция, соглашение, сопровождаемые обычно взаимными уступками;
- c) ведение дел, изменяющих финансовое положение компании;
- d) протоколы, деловые бумаги;
- e) в бухгалтерии: отражение, учет операции;
- f) сделка с ценными бумагами;
- g) пересылка, передача содержательной информации в автоматизированной системе.

Keng ma'noda – operatsiya, bitim. Atama qator mazmunga ega:

- a) pul mablag'larini bir hisobvaraqdan boshqasiga o'tkazishdan iborat bank operatsiyasi, to'lov;
- b) o'zaro murosaga kelishlar bilan kechadigan ish, bitim, operatsiya, kelishuv;
- c) kompaniyaning moliyaviy holatini o'zgartiradigan ishlarni yuritish;
- d) protokollar, ishga oid qog'ozlar;
- e) buxgalteriyada: operatsiyalarni hisobga olish, aks ettirish;
- f) qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bitim;
- g) avtomatlashtirilgan tizimda sermazmun axborotni jo'natish, uzatish.

Кенг маънода – операция, битим. Атама қатор мазмунга эга:

- a) пул маблағларини бир ҳисобварақдан бошқасига ўтказишдан иборат банк операцияси, тўлов;
- b) ўзаро муроасага келишлар билан кечадиган иш, битим, операция, келишув;
- c) компаниянинг молиявий ҳолатини ўзгартирадиган ишларни юритиш;
- d) протоколлар, ишга оид қоғозлар;
- e) бухгалтерияда: операцияларни ҳисобга олиш, акс эттириш;
- f) қимматли қоғозлар билан боғлиқ битим;
- g) автоматлаштирилган тизимда сермазмун ахборотни жўнатиш, узатиш.

Т

Транснациональная компания

uz - transmilliy kompaniya
трансмиллий компания
en - transnational company

Компания, как правило, с зарубежными активами, осуществляющая основную часть своих операций за пределами страны, в которой она зарегистрирована, чаще всего в нескольких других странах.

Xorijiy aktivlarga ega bo'lgan, operatsiyalarining asosiy qismini o'zi ro'yxatdan o'tgan mamlakatdan tashqarida, ko'pincha boshqa bir qancha mamlakatda amalga oshiradigan kompaniya.

Хорижий активларга эга бўлган, операцияларининг асосий қисмини ўзи рўйхатдан ўтган мамлакатда ташқарида, кўпинча бошқа бир қанча мамлакатдан амалга оширадиган компания.

Трассант

uz - trassant
трассант
en - drawer

Векселедержатель переводного векселя, отвечает за акцепт и платежи по нему; его подпись – обязательный реквизит векселя.

Jo'natma vekselni oluvchi shaxs, vekselдор, u bo'yicha aksept va to'lovlar uchun javob beradi; uning imzosi vekselning majburiy rekvizitidir.

Жўнатма векселни олувчи шахс, векселдор, у бўйича акцепт ва тўловлар учун жавоб беради; унинг имзоси векселнинг мажбурий реkvизитидир.

Трассат

uz - trassat
трассат
en - drawee

Плательщик, должник по переводному векселю – тратте.

Jo'natma veksel – tratta bo'yicha qarzdor, to'lovchi.

Жўнатма вексель – тратта бўйича қарздор, тўовчи.

Трейдер

uz - treyder
трейдер
en - trade

1. Работник брокерской фирмы, непосредственно участвующий в биржевой торговле.
2. Любое юридическое или физическое лицо, обладающее правом заключать сделки на бирже.
3. Торговый агент.

1. Brokerlik firmasining, bevosita birja savdosida qatnashadigan xodimi.
2. Birjada bitim tuzish huquqiga ega bo'lgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs.
3. Savdo agenti.

Т

1. Брокерлик фирмасининг, бевосита биржа савдосида қатнашадиган ходими.
2. Биржада битим тузиш ҳуқуқига эга бўлган ҳар қандай юридик ёки жисмоний шахс.
3. Савдо агенти.

Трест

uz - trest

трест

en - trust

1. Объединение предприятий, фирм, в котором его участники, вошедшие в состав треста, теряют свою производственно-торговую самостоятельность, руководствуются в этих областях своей деятельности решениями управляющего центра, материнской компании, которая стремится к монополии на данном рынке.
2. Форма картеля, устанавливающего монопольный контроль за производством или торговлей конкретными видами товаров.

1. Korxonalar, firmalar birlashmasi, bunda uning trest tarkibiga kiradigan qatnashchilari o'zlarining ishlab chiqarish-savdo mustaqilliklarini yo'qotadilar, faoliyatlarining bu sohalarida, muayyan bozorda monopoliyaga intiladigan bosh kompaniya, boshqaruvchi markazning qarorlari asosida ish ko'radilar.
2. Tovarlarning muayyan turlari ishlab chiqarilishi yoki savdosi ustidan tanho nazoratni o'rnatadigan kartel shakli.

1. Корхоналар, фирмалар бирлашмаси, бунда унинг трест таркибига кирадиган қатнашчилари ўзларининг ишлаб чиқариш-савдо мустақилликларини йўқотадилар, фаолиятларининг бу соҳаларида, муайян бозорда монополияга интиладиган бош компания, бошқарувчи марказнинг қарорлари асосида иш кўрадилар.
2. Товарларнинг муайян турлари ишлаб чиқарилиши ёки савдоси устидан танҳо назоратни ўрнатадиган картель шакли.

Труд

uz - mehnat

меҳнат

en - labour

Осознанная, целесообразная деятельность людей, требующая значительных затрат физической и умственной энергии, осуществления работы, завершающейся полезным, нужным результатом.

T

Odamlarning, jiddiy aqliy va jismoniy kuch, foydali, kerakli natija bilan yakunlanadigan ishning amalga oshirilishini talab qiladigan ongli, maqsadga muvofiq faoliyati.

Одамларнинг, жиддий ақлий ва жисмоний куч, фойдали, керакли натижа билан якунланадиган ишнинг амалга оширилишини талаб қиладиган онгли, мақсадга мувофиқ фаолияти.

Трудовой потенциал

uz - mehnat potentsiali

меҳнат потенциали

en - labor potential

Имеющиеся в настоящее время и перспективные трудовые возможности (страны, региона, предприятия), характеризующиеся численностью трудоспособного населения, его профессионально-образовательным уровнем, другими качественными характеристиками.

Hozirgi paytda mavjud bo'lgan va (mamlakat, hudud, korxonaning) mehnatga qobiliyatli aholi soni, uning kasb-ta'lim darajasi, boshqa sifat xarakteristikalari bilan tavsiflanadigan istiqboldagi mehnat imkoniyatlari.

Ҳозирги пайтда мавжуд бўлган ва (мамлакат, ҳудуд, корхонанинг) меҳнатга қобилиятли аҳоли сони, унинг касб-таълим даражаси, бошқа сифат харақтеристикалари билан тавсифланадиган истиқболдаги меҳнат имкониятлари.

Трудовые отношения

uz - mehnat munosabatlari

меҳнат муносабатлари

en - work arrangements

1. Отношения, возникающие в процессе труда.
2. Отношения между нанимателями и наемными работниками.

1. Mehnat jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar.
2. Yollovchilar va yollanma xodimlar o'rtasidagi munosabatlar.

1. Меҳнат жараёнида юзага келадиган муносабатлар.
2. Ёлловчилар ва ёлланма ходимлар ўртасидаги муносабатлар.

Т

Трудовые права

uz - mehnat huquqlari

меҳнат ҳуқуқлари

en - labour rights

Права граждан, предусмотренные трудовым законодательством и трудовыми контрактами.

Fuqarolarning, mehnat qonunchiligi va mehnat shartnomalari bilan koʻzda tutilgan huquqlari.

Фуқароларнинг, меҳнат қонунчилиги ва меҳнат шартномалари билан кўзда тутилган ҳуқуқлари.

Трудовые ресурсы

uz - mehnat resurslari

меҳнат ресурслари

en - manpower resources

Экономически активное, трудоспособное население, люди, способные к трудовой деятельности.

Iqtisodiy faol, mehnatga qobiliyatli aholi, mehnat faoliyati bilan shugʻullana oladigan odamlar.

Иқтисодий фаол, меҳнатга қобилиятли аҳоли, меҳнат фаолияти билан шуғуллана оладиган одамлар.

Трудовые споры

uz - mehnat nizolari

меҳнат низолари

en - labour disputes

Разногласия между работниками и администрацией предприятий по вопросам, связанным с оплатой, условиями труда, продолжительностью отпуска, наймом и увольнением с работы.

Xodimlar va korxonalarining maʼmuriyati oʻrtasida, ishga yollash va ishdan boʻshatish, taʼtil davomiyligi, mehnat sharoitlari, mehnatga haq toʻlash bilan bogʻliq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan ihtilof.

Ходимлар ва корхоналарнинг маъмурияти ўртасида, ишга ёллаш ва ишдан бўшатиш, таътил давомийлиги, меҳнат шароитлари, меҳнатга ҳақ тўлаш билан боғлиқ масалалар юзасидан келиб чиқадиган ихтилоф.

Трудоёмкость

uz - sermehnatlik

сермеҳнатлик

en - labour-output ratio

Затраты рабочего времени на производство единицы продукции. Трудоёмкость обратно пропорциональна производительности труда.

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketadigan ish vaqti sarflari. Sermehnatlik mehnat unumdorligiga teskari proporsionaldir.

Маҳсулот бирлигини ишлаб чиқаришга кетадиган иш вақти сарфлари. Сермеҳнатлик меҳнат унумдорлигига тескари пропорционалдир.

У

Убытки

uz - zarar

зарар

en - diseconomies

Ущерб от хозяйственной деятельности, потеря денег, пропажа, разрушение или повреждение материальных ценностей в экономике и бизнесе.

Хо‘jalik faoliyatida yetadigan ziyon, pullarning yo‘qotilishi, iqtisodiyot va biznesda moddiy boyliklarning yo‘qolishi, emirilishi yoki shikastlanishi.

Хўжалик фаолиятида етадиган зиён, пулларнинг йўқотилиши, иқтисодиёт ва бизнесда моддий бойликларнинг йўқолиши, емирилиши ёки шикастланиши.

Убыточность предприятия

uz - korxonaning zarar ko‘rishi

корхонанинг зарар

кўриши

en - loss ratio facilities

Финансовое состояние, финансовые результаты хозяйственной деятельности предприятия, характеризующиеся тем, что в течение определенного времени денежные поступления не компенсируют расходы, не образуется прибыль, увеличивается долг.

Korxonaning moliyaviy holati, xo‘jalik faoliyatining, muayyan davr mobaynida pul tushumlari xarajatlarini qoplamasligi, foyda hosil bo‘lmasligi, qarz oshishi bilan tavsiflanadigan moliyaviy natijalari.

Корхонанинг молиявий ҳолати, хўжалик фаолиятининг, муайян давр мобайнида пул тушумлари харажатларни қопламаслиги, фойда ҳосил бўлмаслиги, қарз ошиши билан тавсифланадиган молиявий натижалари.

Удельные капитальные вложения

uz - solishtirma kapital

qo‘yilmalar

солиштирама капитал

қўйилмалар

en - specific capital

investments

Капитальные вложения, приходящиеся на единицу прироста годового объема продукции предприятия, полученного за их счет, либо на единицу вводимых производственных мощностей.

Korxonah mahsuloti yillik hajmining o‘shish birligiga yoki ishga tushiriladigan ishlab chiqarish quvvatlari birligiga to‘g‘ri keladigan kapital qo‘yilmalar.

Корхона маҳсулоти йиллик ҳажмининг ўсиш бирлигига ёки ишга тушириладиган ишлаб чиқариш қувватлари бирлигига тўғри келадиган капитал қўйилмалар.

У

Удельный расход ресурсов

uz - resurslarning solishtirma sarfi

ресурсларнинг
солиштирма сарфи

en - rate of consumption
resources

Универсальные банки

uz - universal banklar

универсал банклар

en - multipurpose bank

Унитарное предприятие

uz - unitar korxonona

унитар корхона

en - unitary enterprise

Управление

uz - boshqaruv

бошқарув

en - administration

Затраты ресурса данного вида на производство единицы продукции.

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan muayyan turdagi resurs sarflari.

Маҳсулот бирлигини ишлаб чиқаришга қилинадиган муайян турдаги ресурс сарфлари.

Кредитные учреждения, выполняющие основные виды банковских операций: кредитные, депозитные, фондовые, расчетные, доверительные.

Bank operatsiyalarining asosiy turlari: kredit, depozit, fond, hisob-kitob, ishonch operatsiyalarini bajaradigan kredit muassasalari.

Банк операцияларининг асосий турлари: кредит, депозит, фонд, ҳисоб-китоб, ишонч операцияларини бажарадиган кредит муассасалари.

Государственное или муниципальное предприятие в виде коммерческой организации, не наделенной правом собственности на закрепленное за ней собственником имущество.

Mulk egasi tomonidan o'ziga birkiritib qo'yilgan mulkka egalik qilish huquqi berilmagan, tijorat tashkiloti ko'rinishidagi davlat korxonasi yoki mahalliy boshqaruv idoralariga qarashli korxonona.

Мулк эгаси томонидан ўзига биркитиб қўйилган мулкка эгаллик қилиш ҳуқуқи берилмаган, тижорат ташкилоти кўринишидаги давлат корхонаси ёки маҳаллий бошқарув идораларига қарашли корхона.

Сознательное, заранее продуманное воздействие со стороны одних людей (управляющих) на других людей (управляемых) и на экономические объекты. Управление помогает организовать совместные действия многих людей, упорядочить их деятельность, подчинить действия многих единому замыслу.

Ba'zi odamlar (boshqaruvchilar) tomonidan boshqa bir odamlarga (boshqariluvchilarga) va iqtisodiy

У

obyektlarga ongli ravishda, oldindan o'ylangan tarzda ta'sir ko'rsatilishi. Boshqaruv ko'plab odamlarning birgalikdagi harakatlarini uyushtirish, ularning faoliyatini tartibga solish, ko'plarning ishini yagona g'oyaga bo'sundirishga yordam beradi.

Баъзи одамлар (бошқарувчилар) томонидан бошқа бир одамларга (бошқарилувчиларга) ва иқтисодий объектларга онгли равишда, олдиндан ўйланган тарзда таъсир кўрсатилиши. Бошқарув кўплаб одамларнинг биргаликдаги ҳаракатларини уюштириш, уларнинг фаолиятини тартибга солиш, кўпларнинг ишини ягона ғояга бўйсундиришга ёрдам беради.

Управление маркетингом, функциональный подход
uz - marketingni boshqarish, funksional yondashuv

маркетингни бошқариш, функционал ёндашув
en - marketing management, function approach

Структура маркетинга, базирующаяся на традиционных вертикальных связях по типу «руководитель – подчиненный». Этот подход основан на постоянном взаимодействии и выполнении основных функций в координации с другими подразделениями.

«Rahbar – bo'ysunuvchi» turidagi an'anaviy vertikal aloqalarga tayanadigan marketing strukturasi. Bu yondashuv asosiy funksiyalarni boshqa bo'linmalar bilan birgalikda bajarishga va doimiy o'zaro hamkorlikka asoslanadi.

«Раҳбар – бўйсунувчи» туридаги анъанавий вертикал алоқаларга таянадиган маркетинг структураси. Бу ёндашув асосий функцияларни бошқа бўлинмалар билан биргаликда бажаришга ва доимий ўзаро ҳамкорликка асосланади.

Управление персоналом
uz - personalni boshqarish
персонални бошқариш
en - personnel management

Ветвь, часть управленческой деятельности, связанная с управлением кадрами, приемом и увольнением, подбором и обучением кадров.

Boshqaruv faoliyatining, kadrlarni, boshqarish bilan, xodimlarni ishga olish va ishdan bo'shatish, tanlash va o'qitish bilan bog'liq qismi, tarmog'i.

Бошқарув фаолиятининг, кадрларни, бошқариш билан, ходимларни ишга олиш ва ишдан бўшатиш, танлаш ва ўқитиш билан боғлиқ қисми, тармоғи.

У

Управление по отклонениям

uz - chetga chiqishlar bo'yicha boshqaruv

четга чиқишлар бўйича

бошқарув

en - management by expectation

Управление, при котором управляющее лицо, орган управления фиксируют отклонения от заранее намеченного плана, программы и принимают меры к устранению отклонений.

Boshqaruvchi shaxs, boshqaruv organi oldindan mo'ljallangan dastur, rejadan chetga chiqishlarni qayd etadigan va bu chetga chiqishlarni bartaraf qilish chora-tadbirlarini ko'radigan boshqaruv.

Бошқарувчи шахс, бошқарув органи олдиндан мўлжалланган дастур, режадан четга чиқишларни қайд этадиган ва бу четга чиқишларни бартараф қилиш чора-тадбирларини кўрадиган бошқарув.

Управление по целям

uz - maqsadlar bo'yicha boshqaruv

мақсадлар бўйича

бошқарув

en - management by objectives

Осуществление управления, управляющих воздействий таким образом, чтобы ориентировать деятельность управляемого объекта на достижение определенных ранее поставленных целей и задач.

Boshqaruv, boshqaruvchi ta'sirni boshqariladigan obyekt faoliyati oldindan belgilangan maqsadlarga erishiladigan, vazifalarga yo'naltiriladigan tarzda, amalga oshirish.

Бошқарув, бошқарувчи таъсирни бошқариладиган объект фаолияти олдиндан белгиланган мақсадларга эришиладиган, вазифаларга йўналтириладиган тарзда, амалга ошириш.

Управляющая компания

uz - boshqaruvchi kompaniya

бошқарувчи компания

en - management company

1. Компания, созданная для управления другим предприятием, другой фирмой.

2. Компания, созданная для управления коммунальным обслуживанием жилых домов.

1. Boshqa korxonani, boshqa firmani boshqarish uchun tuzilgan kompaniya.

2. Turar joylarga kommunal xizmat ko'rsatilishini boshqarish uchun tuzilgan kompaniya.

1. Бошқа корхонани, бошқа фирмани бошқариш учун тузилган компания.

2. Турар жойларга коммунал хизмат кўрсатилишини бошқариш учун тузилган компания.

У

Управляющий

uz - boshqaruvchi

бошқарувчи

en - administer

Лицо, входящее в руководящий состав фирмы, компании, менеджер фирмы, осуществляющий управление повседневными делами фирмы, каким-либо участком общей работы, деятельности подразделений фирмы и ее сотрудников.

Firma, kompaniyaning rahbar tarkibiga kiradigan shaxs, firmaning kundalik ishlarini, umumiy ishning qandaydir qismini, firma bo‘linmalari va uning xodimlari faoliyatini boshqaradigan menejer.

Фирма, компаниянинг раҳбар таркибига кирадиган шахс, фирманинг кундалик ишларини, умумий ишнинг қандайдир қисмини, фирма бўлинмалари ва унинг ходимлари фаолиятини бошқарадиган менежер.

Уровень жизни

uz - yashash darajasi

яшаш даражаси

en - standard of living

Уровень благосостояния населения, степень удовлетворения основных жизненных потребностей людей. Уровень жизни определяется количеством и качеством потребляемых товаров и услуг, условиями труда и жизни людей, денежными доходами.

Aholining farovonlik darajasi, odamlar asosiy hayotiy ehtiyojlarining qondirilishi. Yashash darajasi iste'mol qilinadigan tovarlar va xizmatlarnig soni, sifati bilan, odamlarning yashash va mehnat sharoitlari, pul daromadlari bilan belgilanadi.

Аҳолининг фаровонлик даражаси, одамлар асосий ҳаётий эҳтиёжларининг қондирилиши. Яшаш даражаси истеъмол қилинадиган товарлар ва хизматларнинг сони, сифати билан, одамларнинг яшаш ва меҳнат шароитлари, пул даромадлари билан белгиланади.

Условия договора

uz - shartnoma shartlari

шартнома шартлари

en - condition of contract

Согласованные между договаривающимися сторонами до заключения договора и внесенные в его текст условия, регулирующие отношения и действия сторон в процессе выполнения договора.

Shartlashuvchi tomonlar o‘rtasida shartnoma tuzilgunga qadar kelishilgan va uning matniga kiritilgan, shartnomani bajarish jarayonida tomonlarning hara-

У

katlarini va munosabatlarini tartibga soladigan shartlar.

Шартлашувчи томонлар ўртасида шартнома тузилгунга қадар келишилган ва унинг матнига киритилган, шартномани бажариш жараёнида томонларнинг ҳаракатларини ва муносабатларини тартибга соладиган шартлар.

Условия труда

uz - mehnat sharoitlari

меҳнат шароитлари

en - conditions of labour

Совокупность условий и факторов, влияющих на работоспособность и здоровье людей; характеризуются состоянием рабочего места, его приспособленностью к труду и работнику, соблюдением санитарно-гигиенических условий, безопасностью, степенью привлекательности труда.

Odamlarning salomatligiga va ish qobiliyatiga ta'sir etadigan sharoitlar, omillar yig'indisi; ish joyining holati, uning mehnatga va xodimga moslashtirilganligi bilan, sanitariya-gigiyena sharoitlariga rioya qilinishi, xavfsizlik, mehnatning jozibadorlik darajasi bilan tavsiflanadi.

Одамларнинг саломатлигига ва иш қобилиятига таъсир этадиган шароитлар, омиллар йиғиндиси; иш жойининг ҳолати, унинг меҳнатга ва ходимга мослаштирилганлиги билан, санитария-гигиена шароитларига риоя қилиниши, хавфсизлик, меҳнатнинг жозибадорлик даражаси билан тавсифланади.

Устав предприятия

uz - korxonalar nizomi

корхона низоми

en - articles of enterprise

Зарегистрированный и утвержденный в установленном законом порядке документ, определяющий взаимоотношения учредителей предприятия, его структуру, виды деятельности, отношения с другими лицами и государственными органами, права и обязанности.

Qonun bilan belgilangan tartibda ro'yxatga olingan va tasdiqlangan, korxonalar ta'sislarining o'zaro munosabatlarini, uning strukturasi, faoliyat turlarini, boshqa shaxslar va davlat organlari bilan munosabatlarini, huquq va majburiyatlarini belgilaydigan hujjat.

Қонун билан белгиланган тартибда рўйхатга олинган ва тасдиқланган, корхона таъсисчилари-

У

нинг ўзаро муносабатларини, унинг структура-сини, фаолият турларини, бошқа шахслар ва давлат органлари билан муносабатларини, ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгилайдиган ҳужжат.

Уставный капитал

uz - ustav kapitali

устав капитали

en - authorized capital

Зафиксированный в уставе предприятия, общества его исходный капитал. Образуется за счет частных вложений учредителей, выручки от продажи акций, государственных вложений.

Korxonona, jamiyat nizomida qayd etiladigan boshlang'ich kapital. Ustav kapitali ta'sisчилarning xususiy mablag'lari, aksiyalarni sotishdan keladigan tushumlar, davlat qo'yilmalari hisobiga yuzaga keladi.

Корхона, жамият низомида қайд этиладиган бошланғич капитал. Устав капитали таъсисчиларнинг хусусий маблағлари, акцияларни сотишдан келадиган тушумлар, давлат қўйилмалари ҳисобига юзага келади.

Устойчивость предприятия

uz - korxonaning barqarorligi

корхонанинг

барқарорлиги

en - stability of enterprise

Финансовое состояние предприятия, компании, обеспечивающее выполнение всех его обязательств, соответствие доходов и расходов.

Korxonona, kompaniyaning, ularning barcha majburiyatlarini bajarilishini, daromadlar va xarajatlar to'g'ri kelishini ta'minlaydigan moliyaviy holati.

Корхона, компаниянинг, уларнинг барча мажбуриятлари бажарилишини, даромадлар ва харажатлар тўғри келишини таъминлайдиган молиявий ҳолати.

Уступка требования

uz - talabnomani boshqaga

berish

талабномани бошқага

бериш

en - assignment

Передача права требования по обязательствам, например, права на возврат долга, третьему лицу (первое лицо – кредитор, второе лицо – должник, третье лицо – то, которому кредитор уступил право получения долга от должника).

Majburiyatlar bo'yicha talab qilish huquqining, masalan, qarzni qaytarib berish huquqining uchinchi shaxsga berilishi (birinchi shaxs – kreditor, ikkinchi shaxs – qarzdor, uchinchi shaxs – kreditor qarzdordan qarzni olish huquqini bergan shaxs).

У

Мажбуриятлар бўйича талаб қилиш ҳуқуқининг, масалан, қарзни қайтариб бериш ҳуқуқининг учинчи шахсга берилиши (биринчи шахс – кредитор, иккинчи шахс – қарздор, учинчи шахс – кредитор қарздордан қарзни олиш ҳуқуқини берган шахс).

Утилизация

uz - utilizatsiya qilish

утилизация қилиш

en - take-back

Использование отходов производства и потребления.

Ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilaridan foydali narsalar olish, foydalanish.

Ишлаб чиқариш ва истеъмол чиқиндиларидан фойдали нарсалар олиш, фойдаланиш.

Учет

uz - hisobga olish

ҳисобга олиш

en - accounting

Составная часть управления экономическими процессами и объектами. Суть учета состоит в том, что собирают сведения о состоянии дел в хозяйстве, о товарах, имуществе, деньгах и фиксируют их в учетных документах бухгалтерии. Аналитический учет представляет собой детальный бухгалтерский учет хозяйственных операций, средств предприятий с последующим разбором, анализом причин появления тех или иных результатов хозяйственной деятельности. Оперативный учет регистрирует результаты бизнес-операций в ходе их совершения для получения дополнительной информации о ходе выполнения плана, программы.

Iqtisodiy jarayonlar va obyektlarni boshqarishning tarkibiy qismi. Hisobga olishning mohiyati, xo'jalikdagi ishlarning holati, tovarlar, mulk, pullar to'g'risida ma'lumotlar yig'ish va ularni buxgalteriyaning hisobga olish hujjatlarida qayd etishdan iborat. Analitik hisobga olish, keyinchalik xo'jalik faoliyatining u yoki bu natijalari yuzaga kelishining sabablarini tahlil qilgan, tekshirgan holda, korxonaning mablag'lari, xo'jalik operatsiyalari batafsil buxgalteriya hisobiga olinishini o'zida ifodalaydi. Operativ hisobga olish dastur, reja bajarilishining borishi to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish uchun, biznes operatsiyalar amalga oshirilishi paytida uning natijalarini qayd etadi.

У

Иқтисодий жараёнлар ва объектларни бошқаришнинг таркибий қисми. Ҳисобга олишнинг моҳияти, хўжаликдаги ишларнинг ҳолати, товарлар, мулк, пуллар тўғрисида маълумотлар йиғиш ва уларни бухгалтериянинг ҳисобга олиш ҳужжатларида қайд этишдан иборат. Аналитик ҳисобга олиш, кейинчалик хўжалик фаолиятининг у ёки бу натижалари юзага келишининг сабабларини таҳлил қилган, текширган ҳолда, корxonанинг маблағлари, хўжалик операциялари батафсил бухгалтерия ҳисобига олинишини ўзида ифодалайди. Оператив ҳисобга олиш дастур, режа бажарилишининг бориши тўғрисида қўшимча маълумот олиш учун, бизнес операциялар амалга оширилиши пайтида унинг натижаларини қайд этади.

Учет векселя

uz - vekselni hisobga olish

векселни ҳисобга олиш

en - discounting facilities

Покупка банком векселя до истечения указанного в нем срока погашения. В этом случае банк фактически кредитует, авансирует векселедержателя, за что взимает с него проценты. После наступления срока платежа банк предъявляет должнику вексель к оплате.

Bank tomonidan ko'rsatilgan to'lov muddati tugunga qadar, vekselning sotib olinishi. Bu holda, bank amalda veksel oluvchiga kredit, avans beradi, uning uchun foiz oladi. To'lov muddati kelgach, bank qarzdorga to'lash uchun vekselni taqdim etadi.

Банк томонидан кўрсатилган тўлов муддати тугагунга қадар, векселнинг сотиб олинishi. Бу ҳолда, банк амалда вексель олувчига кредит, аванс беради, унинг учун фоиз олади. Тўлов муддати келгач, банк қарздорга тўлаш учун векселни тақдим этади.

Учетный процент

uz - hisob foizi

ҳисоб фоизи

en - discount rate

1. Процент, под который Центральный банк предоставляет кредиты коммерческим банкам для пополнения их денежных резервов и кредитования клиентов; ссудный, кредитный процент. Синоним – учетная ставка.

2. Плата, взимаемая банками за авансирование денежных средств при покупке ими (учете) век-

У

селей, акций и облигаций, других ценных бумаг и долговых обязательств до наступления сроков оплаты по ним.

1. Markaziy bank tijorat banklari rezervlarini to'ldirish va ularning o'z mijozlariga bank xizmatlari ko'rsatish uchun beradigan kreditlarga belgilaydigan foiz; ssuda, kredit foizi. Sinonimi – hisob stavkasi.

2. Banklar veksel, aksiya, obligatsiyalar va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarni va qarz majburiyatlarini ularning to'lov muddatlari kelishiga qadar sotib olish (hisobga olish)da avanslangan pul mablag'lari uchun undiradigan to'lov.

1. Марказий банк тижорат банклари резервларини тўлдириш ва уларнинг ўз мижозларига банк хизматлари кўрсатиш учун берадиган кредитларга белгилайдиган фоиз; ссуда, кредит фоизи. Синоними – ҳисоб ставкаси.

2. Банклар вексель, акция, облигациялар ва бошқа турдаги қимматли қоғозларни ва қарз мажбуриятларини уларнинг тўлов муддатлари келишига қадар сотиб олиш (ҳисобга олиш)да аванс-ланган пул маблағлари учун ундирадиган тўлов.

Учредители

uz - muassislar, ta'rischilar

муассислар, таъсисчилар

en - founder member

Организаторы дела, основатели фирмы, акционерного общества; физические и/или юридические лица, создающие новую организацию, акционерное общество по собственной инициативе и привлекающие к участию в нем вкладчиков капитала. Учредители разрабатывают документы, необходимые для регистрации и деятельности создаваемой компании, ассоциации, акционерного общества, осуществляют необходимую подготовительную работу.

Ishni tashkil qiluvchilar, firma, aksiyadorlar jamiyati asoschilari; o'z tashabbuslari bilan yangi tashkilot, aksiyadorlar jamiyati tuzadigan va kapital qo'yuvchilarni unda qatnashishga jalb etadigan jismoniy va/yoki yuridik shaxslar. Muassislar tashkil qilinadigan kompaniya, uyushma, aksiyadorlar jamiyatining faoliyati va uni ro'yxatdan o'tkazish

У

uchun zarur bo'lgan hujjatlarni ishlab chiqadilar, kerakli tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradilar.

Ишни ташкил қилувчилар, фирма, акциядорлар жамияти асосчилари; ўз ташаббуслари билан янги ташкилот, акциядорлар жамияти тузадиган ва капитал қўувчиларни унда қатнашишга жалб этадиган жисмоний ва/ёки юридик шахслар. Муассислар ташкил қилинадиган компания, уюшма, акциядорлар жамиятининг фаолияти ва уни рўйхатдан ўтказиш учун зарур бўлган ҳужжатларни ишлаб чиқадиладар, керакли тайёргарлик ишларини амалга оширадидлар.

Учреждение

uz - muassasa

муассаса

en - institution

1. Орган государственного управления, государственной власти (государственное учреждение), выполняющий возложенные на него государственные функции, часть государственного аппарата.

2. Организация, осуществляющая хозяйственную, социальнокультурную деятельность в сфере услуг, в производстве духовного, информационного продукта (учреждения науки, культуры, образования, здравоохранения, бытовых услуг, финансовые учреждения).

1. O'ziga yuklatilgan davlat vazifalarini bajaradigan davlat hokimiyat, davlat boshqaruv organi (davlat muassasasi), davlat apparatining bir qismi.

2. Xizmatlar, ma'naviy, axborot mahsuloti ishlab chiqarish sohasida xo'jalik, ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshiradigan tashkilot (fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, maishiy xizmatlar muassasasi, moliya muassasalari).

1. Ўзига юклатилган давлат вазифаларини бажарадиган давлат ҳокимият, давлат бошқарув органи (давлат муассасаси), давлат аппаратининг бир қисми.

2. Хизматлар, маънавий, ахборот маҳсулоти ишлаб чиқариш соҳасида хўжалик, ижтимоий-маданий фаолиятни амалга оширадиган ташкилот (фан, маданият, таълим, соғлиқни сақлаш, маиший хизматлар муассасаси, молия муассасалари).

Ф

Фазы экономического цикла

uz - iqtisodiy sikl fazalari

иқтисодий цикл фазалари

en - cyclical position

Фазы, которые проходит экономика в результате циклической динамики. Различают следующие фазы: пик, соответствующий периоду, в течение которого реальный выпуск достигает своего максимального значения; кризис (сокращение), когда наблюдается снижение реального объема производства; дно («подошва») – точка, в которой реальный выпуск доходит до своего минимального значения; подъем – период, характеризующийся ростом реального валового национального продукта.

Siklik o'zgarishlar natijasida iqtisodiyot o'tadigan fazalar. Quyidagi fazalar ajratiladi: real ishlab chiqarish o'zining eng yuqori qiymatiga mos keladigan cho'qqi faza; ishlab chiqarish real hajmining kamayishi kuzatiladigan krizis (qisqarish) fazasi; tag, ost («taglik») – real ishlab chiqarish o'zining eng past qiymatiga etadigan nuqta; yuksalish – real yalpi milliy mahsulot oshishi bilan tavsiflanadigan davr.

Циклик ўзгаришлар натижасида иқтисодиёт ўтадиган фазалар. Қуйидаги фазалар ажратилади: реал ишлаб чиқариш ўзининг энг юқори қийматига мос келадиган чўққи фаза; ишлаб чиқариш реал ҳажмининг камайиши кузатиладиган кризис (қисқариш) фазаси; таг, ост («таглик») – реал ишлаб чиқариш ўзининг энг паст қийматига етадиган нуқта; юксалиш – реал ялпи миллий маҳсулот ошиши билан тавсифланадиган давр.

Фактор истощения

uz - tugash omili

тугаш омили

en - wear out factor

Обстоятельство, возникающее в бизнесе компании, когда реклама или рекламная кампания перестает быть эффективной.

Kompaniya biznesida yuzaga keladigan, reklama yoki reklama kampaniyasi o'zining samaradorligini yo'qotadigan vaziyat.

Компания бизнесида юзага келадиган, реклама ёки реклама кампанияси ўзининг самарадорлигини йўқотадиган вазият.

Ф

Факторинг

uz - faktoring

факторинг

en -factoring

Вид финансовых услуг, оказываемых коммерческими банками, их дочерними фактор-фирмами, фактор-компаниями мелким и средним фирмам-клиентам. Суть услуг состоит в том, что фактор-фирма, имеющая статус кредитного учреждения, приобретает у клиента право на взыскание долгов и частично оплачивает своим клиентам требования к их должникам. Остальная часть долга за вычетом процентов возвращается клиентам после погашения должником всего долга. В результате клиент фактор-фирмы получает возможность быстрее возратить долги, осуществить платежи, за что он выплачивает фактор-фирме определенный процент.

Tijorat banklari, ularning sho‘ba faktor-firmalari, faktor kompaniyalari tomonidan kichik va o‘rta mijoz firmalarga ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlar turi. Xizmatlarning mohiyati shundaki, kredit muassasasi maqomiga ega bo‘lgan faktor-firma mijozdan qarzlarni undirish huquqini sotib oladi va mijozlariga qarzlarni qisman to‘laydi. Qarzning qolgan qismi foizlar chegirilgan holda, qarzdor butun qarzni uzganidan so‘ng mijozlarga qaytariladi. Natijada faktor-firma mijozni qarzlarni tezroq qaytarish, to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatini oladi, buning uchun faktor-firmaga ma‘lum foiz to‘laydi.

Тижорат банклари, уларнинг шўба фактор-фирмалари, фактор компаниялари томондан кичик ва ўрта мижоз фирмаларга кўрсатиладиган молиявий хизматлар тури. Хизматларнинг моҳияти шундаки, кредит муассасаси мақомига эга бўлган фактор-фирма мижоздан қарзларни ундириш ҳуқуқини сотиб олади ва мижозларига қарзларини қисман тўлайди. Қарзнинг қолган қисми фоизлар чегирилган ҳолда, қарздор бутун қарзни узганидан сўнг мижозларга қайтарилади. Натижада фактор-фирма мижозни қарзларини тезроқ қайтариш, тўловларни амалга ошириш имкониятини олади, бунинг учун фактор-фирмага маълум фоиз тўлайди.

Ф

Факторинговые операции

uz - faktoring operatsiyalari
факторинг операциялари
en - factoring transaction

Способ финансирования торговых операций на основе факторинга, предварительной оплаты счетов банками-комиссионерами. Форма кредитования торговых фирм.

Komissioner (vositachi) banklar tomonidan hisobvaraqlar bo'yicha oldindan pul to'lash, faktoring asosida savdo operatsiyalarini moliyalashtirish usuli. Savdo firmalarini kredit bilan ta'minlash shakli.

Комиссионер (воситачи) банклар томонидан ҳисобварақлар бўйича олдиндан пул тўлаш, факторинг асосида савдо операцияларини молиялаштириш усули. Савдо фирмаларини кредит билан таъминлаш шакли.

Факторный анализ

uz - omillar asosida tahlil qilish
омиллар асосида таҳлил қилиш
en - factorial analysis

Метод исследования экономики и производства, в основе которого лежит анализ воздействия разнообразных факторов на результаты экономической деятельности, ее эффективность.

Iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tadqiq qilish metodi, asosida turli xil omillarning iqtisodiy faoliyat natijalariga, uning samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish yotadi.

Иқтисодиёт ва ишлаб чиқаришни тадқиқ қилиш методи, асосида турли хил омилларнинг иқтисодий фаолият натижаларига, унинг самарадорлигига таъсирини таҳлил қилиш ётади.

Факторы среды, влияющие на проблему

uz – muammoga ta'sir etadigan muhit omillari
муаммога таъсир этадиган муҳит омиллари
en - environmental context of the problem

Факторы, которые влияют на определение проблемы маркетингового исследования, включая информацию о прошлом и прогнозы, ресурсы и ограничения фирмы, цели лица, принимающего решения, поведение покупателей, законодательную и экономическую среду, маркетинговые и технологические навыки персонала фирмы.

Marketing tadqiqoti muammosini belgilashga, jumladan, o'tmish to'g'risidagi axborotga, firma prognozlariga, resurslari va cheklashlariga, qaror qabul qiladigan shaxsning maqsadlariga, xaridorlarning o'zini tutishiga, qonunchilik va iqtisodiy muhitga, firma xodimlarining marketing va texnologik malakasiga ta'sir etadigan omillar.

Ф

Маркетинг тадқиқоти муаммосини белгилашга, жумладан, ўтмиш тўғрисидаги ахборотга, фирма прогнозларига, ресурслари ва чеклашларига, қарор қабул қиладиган шахснинг мақсадларига, харидорларнинг ўзини тутишига, қонунчилик ва иқтисодий муҳитга, фирма ходимларининг маркетинг ва технологик малакасига таъсир этадиган омиллар.

Фактура

uz - faktura

фактура

en - note of charges

Счет, выписываемый продавцом на имя покупателя после приемки товара покупателем, оказания услуги. Содержит сведения о проданном товаре и его стоимости.

Xaridor tovarni qabul qilib olgandan, xizmatlar ko'rsatilgandan keyin, uning nomiga sotuvchi tomonidan yoziladigan hisobvaraқ. Sotilgan tovar va uning qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga oladi.

Харидор товарни қабул қилиб олгандан, хизматлар кўрсатилгандан кейин, унинг номига сотувчи томонидан ёзиладиган ҳисобварақ. Сотилган товар ва унинг қиймати тўғрисидаги маълумотларни ичига олади.

Фермерское хозяйство

uz - fermer xo'jaligi

фермер хўжалиги

en - farm enterprise

Форма свободного предпринимательства, частного хозяйства в виде самостоятельного хозяйствующего субъекта с правом юридического лица. Такое хозяйство представлено отдельным гражданином, его семьей или группой объединившихся лиц, производящих, перерабатывающих и продающих сельскохозяйственную продукцию.

Yuridik shaxs huquqiga ega holda, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt ko'rinishidagi xususiy xo'jalik, erkin tadbirkorlik shakli. Bunday xo'jalik qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiradigan, qayta ishlaydigan va sotadigan ayrim fuqaro, uning oilasi yoki uyushgan shaxslar guruhi bo'lishi mumkin.

Юридик шахс ҳуқуқига эга ҳолда, мустақил хўжалик юритувчи субъект кўринишидаги хусусий

Ф

хўжалик, эркин тадбиркорлик шакли. Бундай хўжалик қишлоқ хўжалик маҳсулоти етиштирадиган, қайта ишлайдиган ва сотадиган айрим фуқаро, унинг оиласи ёки уюшган шахслар гуруҳи бўлиши мумкин.

Фиксинг

uz - fiksing

фиксинг

en - fix

Цена или ценовая котировка товара, устанавливаемая фиксированная на бирже в данный момент времени.

Tovarning birjada shu vaqt onida qayd etiladigan, oʻrnatiladigan muomalada boʻlish bahosi yoki baho.

Товарнинг биржада шу вақт онда қайд этиладиган, ўрнатиладиган муомалада бўлиш баҳоси ёки баҳо.

Фиксированная

процентная ставка

uz - qatʻiy foiz stavkasi

катъий фоиз ставкаси

en - fixed rate

Постоянная ставка процента на банковский кредит, устанавливаемая на определенный срок.

